ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: анализ показал, что киберсоциализация, предоставляя возможности для обучения, общения и самовыражения, при бесконтрольном использовании может приводить к квазисоциализации и деструктивному поведению. Эффективная реализация социально-педагогических функций цифровой среды выступает главным фактором формирования киберкультуры и критического мышления у молодежи.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: киберсоциализация является самостоятельным и комплексным феноменом развития личности в цифровом обществе, требующим от современной педагогики сбалансированного подхода к использованию воспитательного потенциала цифровой среды и предотвращению ее рисков.

Ключевые слова: киберсоциализация, кибертрансформация, информационная революция, квазисоциализация, развитие личности, педагогические возможности.

THE ESSENCE OF CYBERSOCIALIZATION AS A SOCIO-PEDAGOGICAL PHENOMENON AND ITS IMPACT ON PERSONALITY DEVELOPMENT.

Ishmuradov Bunyodjon Farxodovich, Independent Researcher at the National Institute of Upbringing Pedagogy named after Qori Niyozi.

Annotation

INTRODUCTION: the rapid development of information and communication technologies at the turn of the 20th and 21st centuries has led to fundamental changes in human social life, thinking, and communication activities. As modern individuals enter a new socio-cultural environment inextricably linked with digital technologies, a specific stage of cybertransformation is formed in their development process. This process poses new theoretical and practical challenges for psychology and pedagogy regarding human socialization in the digital space. From this perspective, cybersocialization emerges as a modern socio-pedagogical phenomenon representing an individual's acquisition of social experience and behavioral norms through the internet and other digital environments. The article analyzes the formation of the cybersocialization phenomenon in close connection with the historical development of information revolutions, the opportunities provided by the global internet for personality socialization, and the educational potential of the digital environment.

AIM: to analyze the socio-pedagogical essence of the cybersocialization phenomenon, demonstrate its connection to historical information revolutions, and substantiate its systemic impact on personality development and adaptation across physical and virtual environments.

MATERIALS AND METHODS: the study employs comparative-pedagogical and system-analytical methods grounded in the theoretical models of information revolution stages, functional dimensions of cybersocialization (informational, transformative, adaptive), and research by V.A. Pleshakov and other scholars.

DISCUSSION AND RESULTS: the findings reveal that while cybersocialization opens vast avenues for education, communication, and self-expression, uncritical engagement can induce quasi-socialization and exposure to destructive behaviors. Leveraging the constructive educational functions of the digital space is vital for cultivating digital literacy and critical thinking among youth.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

CONCLUSION: cybersocialization constitutes an independent and complex phenomenon driving personal growth in a digital society, requiring contemporary pedagogy to adopt a balanced approach that maximizes the educational potential of virtual environments while mitigating potential risks.

Keywords: cybersocialization, cybertransformation, information revolution, quasi-socialization, personality development, pedagogical potential.

Bugungi shiddatli asr insoniyatni yangi mingyillik bo‘sag‘asiga yetaklash barobarida moddiy va virtual borliq toqnashgan tamomila o‘zgacha bir olam chorrahasiga olib kelib qo‘ydi. Zamonaviy dunyoning kiberfazosi endilikda shunchaki texnik tarmoq yoki axborot almashinuvi maydoni emas, millionlab insonlar qalbi, tafakkuri va ruhiyati tutashgan ulkan parallel borliqqa, ma’naviy-ijtimoy hayotning yangi ummoniga aylandi. Ushbu tilsiz va sarhadsiz ummonga qadam qo‘ygan har bir shaxs virtual olamning o‘ziga xos qonuniyatlari, qadriyatlari hamda ruhiy iqlimi ta’sirida o‘zligini qayta kashf etmoqda. Shaffof simlar va raqamli signallar qatiga yashiringan ushbu murakkab ruhiy-ijtimoiy jarayon zamonaviy fanlar chorrahasida kiberijtimoiylashuv deb atalmish favqulodda serqirra, teran va qudratli fenomen sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Kiberijtimoiylashuv inson shaxsining raqamli borliq bilan uzviy pinhona muloqoti, uning ruhiy va ijtimoiy qiyofasining virtual muhitda qayta charxlanishi hamda shakllanishidir. U shunchaki kompyuter tugmachasini bosish yoki axborot izlash emas, ayni vaqtda insoniyat tarixida doimo ustuvor bo‘lib kelgan an’anaviy muloqot, tarbiya va ma’naviy munosabatlar tizimining tubdan transformatsiyalashuvidir. Raqamli olam o‘zining jozibador va sehri cheksiz sarhadlari bilan yosh avlodni bir tomondan dunyo bilimlariga yo‘l ochuvchi intellektual erkinlik, jahon bilan muloqot va cheksiz imkoniyatlar bilan siylasa, ikkinchi tomondan, nazoratsiz axborot girdoblari, ma’naviy bo‘shliq, begonalashuv hamda kibertobe’lik kabi pinhona ziddiyatlar sari chorlaydi.

Ushbu ijtimoiy-pedagogik hodisaning tub mohiyatini teran anglash, uning yoshlar ruhiyati hamda shaxs kamolotiga ko‘rsatayotgan teran ta’sirini ilmiy jihatdan tadqiq etish bugungi davr pedagogikasining eng hayotiy zaruratiga aylandi. Zero, kiberfazo to‘fonida kompasini yo‘qotmagan, raqamli muhitda ham ma’naviy ildizlariga va yuksak kibermadaniyatga tayanib qaddini tik tuta oladigan komil insonni tarbiyalash, ertangi ma’rifatli jamiyatimiz va millat kelajagining pirovard taqdirini belgilab beruvchi poydevordir.

Insoniyat sivilizatsiyasi taraqqiyoti davomida axborotni yaratish, saqlash, qayta ishlash va uzatish usullaridagi tub o‘zgarishlar jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarning muntazam ravishda yangilanishiga sabab bo‘lib kelgan. Bunday transformatsiyalarning eng muhim omillaridan biri axborot inqiloblari hisoblanadi. Ha, har bir axborot inqilobi kommunikatsiya vositalarini takomillashtirgan, shu bilan birga, insonning bilimni o‘zlashtirishi, uni avloddan avlodga yetkazishi, jamiyatda faoliyat yuritishi va ijtimoiy tajribani egallash shakllarini ham o‘zgartirgan.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

Birinchi axborot inqilobini yozuvning vujudga kelishi va keng tarqalishi bilan bog‘lash mumkin. Yozuv insoniyatga bilim va tajribani faqat og‘zaki xotiraga tayanmagan holda saqlash hamda keyingi avlodlarga aniqroq yetkazish imkonini berdi. Natijada ijtimoiy xotiraning yangi shakli yuzaga kelib, bilimlarning jamlanishi va tizimlashtirilishi uchun muhim shart-sharoit yaratildi.

XVI asr o‘rtalarida yuz bergan ikkinchi axborot inqilobi esa kitob bosish texnologiyasining kashf etilishi va ommalashuvi bilan chambarchas bog‘liqdir. Bosma nashrlarning keng tarqalishi bilimni ko‘paytirish va uni katta auditoriyaga yetkazish imkoniyatlarini keskin kengaytirdi. Bunda jamiyatning madaniy taraqqiyotiga sezilarli ta’sir ko‘rsatib, ta’lim, ilm-fan va kasbiy faoliyatning rivojlanishiga, shuningdek, ijtimoiy faoliyat shakllarining qayta tashkil etilishiga zamin yaratdi.

XIX asr oxirlarida shakllangan uchinchi axborot inqilobi elektr energiyasidan amaliy foydalanishning kengayishi bilan bog‘liq bo‘ldi. Telegraf, telefon va radio kabi texnologiyalarning paydo bo‘lishi natijasida axborotni uzoq masofalarga tezkor yetkazish va insonlar o‘rtasidagi kommunikatsiyani bevosita uchrashuvsiz amalga oshirish imkoniyati paydo bo‘ldi. Shu tariqa makon omilining kommunikatsiya jarayonlariga ta’siri sezilarli darajada kamaydi.

XX asrning 70-yillarida boshlangan to‘rtinchi axborot-texnologik inqilob axborotni qayta ishlash va uzatish tizimlarida sifat jihatidan yangi davrni boshlab berdi[1]. Mikroprotsessor texnologiyalarining rivojlanishi, shaxsiy kompyuterlarning yaratilishi, kompyuter tarmoqlarining shakllanishi, ma’lumotlar bazalarining paydo bo‘lishi, axborot-kommunikatsiya va Internet texnologiyalarining jadal taraqqiyoti insoniyatning axborot bilan ishlash imkoniyatlarini misli ko‘rilmagan darajada kengaytirdi. Endilikda katta hajmdagi axborotni qisqa vaqt ichida yaratish, saqlash, qayta ishlash va dunyoning istalgan nuqtasiga uzatish imkoniyati yuzaga keldi.

Mazkur jarayon jamiyat taraqqiyotining texnologik hamda ijtimoiy xarakterini ham o‘zgartirdi. Axborot zamonaviy jamiyatning strategik resursiga, uni yaratish, qayta ishlash va tarqatish esa inson faoliyatining muhim yo‘nalishlariga aylandi. Natijada ishlab chiqarish, ta’lim, fan, madaniyat, boshqaruv va kommunikatsiya kabi sohalarda raqamli texnologiyalarga asoslangan yangi faoliyat shakllari qaror topdi. Internetning global miqyosda keng tarqalishi ushbu transformatsiyaning eng muhim bosqichlaridan birini tashkil etdi. Dastlab axborot almashinuvi vositasi sifatida shakllangan internet vaqt o‘tishi bilan insonlar o‘rtasidagi muloqot, bilim almashinuvi, o‘zini namoyon qilish, ta’lim olish, mehnat qilish va ijtimoiy munosabatlarni shakllantirishning mustaqil makoniga aylandi. Ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlar va blog platformalarining rivojlanishi internetning kommunikativ imkoniyatlarini yangi bosqichga olib chiqdi.

Ilm-fan va ishlab chiqarishning barcha sohalarida jadallik bilan rivojlanib borayotgan axborotlashtirish, kompyuterlashtirish va internetlashtirish jarayonlari shunisi bilan tavsiflanadiki, axborot va kompyuter ma’lumotlar bazalari asosiy va eng muhim mahsulotga aylanmoqda. Zamonaviy inson faoliyatining yetakchi turlarini esa axborotni

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

saqlash, qayta ishlash va uzatish, kompyuter ma'lumotlar bazalarini yaratish, yangilash va himoya qilish kabi jarayonlar tashkil etmoqda.

Zamonaviy jahon hamjamiyatida sodir bo'layotgan ijtimoiy-madaniy va iqtisodiy o'zgarishlar shaxs hayot faoliyatining turli sohalariga jadal ta'sir ko'rsatmoqda. Shu munosabat bilan insonning ijtimoiylashuvi muammolari yangi dolzarblik kasb etmoqda.

Hattoki bugun qishloqlarda ham tutumlar, hayotga qarashlar o'zgarib ketdi. Qishloq ahli bugungi o'zbek serial va kinolarida ko'rsatilayotganday go'l, sodda, ko'ngilchan, ishonuvchan emas. Ular ham global dunyoning global qishlog'ida yashamoqda. Gapning indallosini aytganda qishloq odamlari allaqachon zamonaviy texnologiyalardan foydalanishni o'rganib olgan. Hozir ilgariday choyxonalarda gurung qilib o'tirish qayda? Hamma yangiliklardan, elning yaxshi-yomon kunidan, holidan birgina "Telegram" tarmog'i orqali xabar topishi mumkin[2].

Ijtimoiy arabcha – jamoa, jamiyatga oid degan ma'noni anglatib, birnichisi inson va jamiyat hayotiga oid[3]. Ijtimoiylashuv ko'p qirrali jarayon bo'lib, inson "umumiy ijtimoiylik"ka jalb etiladi hamda o'zini jahon ijtimoiy madaniyatining subyekti sifatida doimiy ravishda kashf etishi va tasdiqlashi amalga oshadi. Butunjahon internet tarmog'ining paydo bo'lishi bilan XX–XXI asrlar chegarasida Homo Sapiens turining vakili bo'lgan zamonaviy inson, amalda, noyob yangi tur Homo Cyberusga aylanmoqda, psixologik-pedagogik fan esa yangi innovatsion ijtimoiy-pedagogik fenomen insonning kiberijtimoiylashuvi jarayonining paydo bo'lishi bilan boyidi. Ana shu o'zgarishlar pedagogika va psixologiya fanlari oldiga yangi ilmiy masalalarni qo'ymoqda. Xususan, shaxsning raqamli muhitda shakllanishi, uning virtual kommunikatsiya jarayonlarida ijtimoiy tajribani o'zlashtirishi, raqamli identifikatsiyasi va xulq-atvor modellarining shakllanishini o'rganish zarurati kiberijtimoiylashuv tushunchasining ilmiy muomalaga kirib kelishiga asos bo'ldi. "Kiberijtimoiylashuv" atamasi V.A. Pleshakovning 2005-yilda e'lon qilingan "Virtual ijtimoiylashuv shaxs kvaziijtimoiylashuvining zamonaviy jihati sifatida" nomli ilmiy ishida ilmiy muomalaga kiritilgan[4].

Shunday qilib, kiberijtimoiylashuvni oddiygina internetdan foydalanish jarayoni sifatida emas, raqamli muhitning shaxsning ijtimoiy tajribasi, kommunikativ faoliyati, identifikatsiyasi, qadriyatlari va xulq-atvoriga ko'rsatadigan tizimli ta'siri bilan bog'liq yangi ijtimoiy-pedagogik fenomen sifatida baholash lozim. Mazkur fenomenni chuqur o'rganish raqamli jamiyat sharoitida shaxs rivojlanishining yangi qonuniyatlarini aniqlash hamda ta'lim-tarbiya jarayonini zamonaviy raqamli reallikka mos ravishda takomillashtirish uchun muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kiberijtimoiylashuv tushunchasi "kibernetika" hamda "ijtimoiylashuv" tushunchalarining o'zaro uyg'unligidan kelib chiqib, shaxsning virtual va raqamli muhitda ijtimoiy tajribani egallashi bilan bog'liq jarayonni anglatadi. Mazkur hodisani inson shaxsiy tuzilmasining raqamli ijtimoiy muhit bilan o'zaro ta'siri natijasida yuzaga keladigan sifat o'zgarishlarining muayyan jarayoni sifatida tavsiflash mumkin. Bunda shaxs global internet makonining resurslaridan foydalanish, virtual kommunikatsiyaga kirishish va raqamli

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

muhitda mavjud bo‘lgan turli ijtimoiy agentlar bilan o‘zaro munosabatga kirishish orqali yangi ijtimoiy tajribani o‘zlashtiradi.

Kiberijtimoiylashuvning o‘ziga xosligi, avvalo, raqamli muhitning shaxs ijtimoiylashuviga ta’sir etuvchi mustaqil omilga aylanganida namoyon bo‘ladi. An’anaviy ijtimoiylashuvda oila, ta’lim muassasasi, tengdoshlar guruhi, mehnat jamoasi va boshqa ijtimoiy institutlar muhim rol o‘ynagan bo‘lsa, raqamli jamiyatda ushbu muhitlar qatoriga virtual hamjamiyatlar, ijtimoiy tarmoqlar, raqamli media, onlayn ta’lim platformalari va boshqa kiberijtimoiy makonlar ham qo‘shilmoqda.

Shu bois, hozirda ta’limni raqamlashtirish sharoitida o‘qituvchilar oldida yoshlar hayot faoliyatining xolis va subyektiv tomonlari sifatida ularda ijobiy kiberijtimoiylashuvni shakllantirish hamda axloqiy tarbiya berish uchun zamonaviy axborot internet-texnologiyalaridan foydalanish vazifasi turmoqda. Boisi, ushbu sohadagi tadqiqotlar oxirgi vaqtlarda aynan yoshlar, xususan, talabalar kiberijtimoiylashuv jarayoniga eng ko‘p jalb qilinganini ko‘rsatdi. Zamonaviy ta’limning o‘ziga xosligi shundaki, an’anaviy ijtimoiylashuv institutlari tobora masofaviy shakllar raqamli ijtimoiylashuv bilan o‘rin almashmoqda[5].

Butunjahon internet tarmog‘ining rivojlanish sur’atlari yuqori bo‘lib, u yer yuzining barcha hududlarida internet foydalanuvchilari sonining ortib borishi, shuningdek, zamonaviy insonning ko‘plab va xilma-xil ehtiyojlarini qondirishning qulay vositasiga aylangan internetning o‘zidagi axborot hajmining ko‘payishi hisobiga jadal ravishda kengayishda davom etmoqda. Internet muhitining kiberfazosini nafaqat reallikning o‘ziga xos “kesimi” – sun’iy reallik, aniqrog‘i, kiberreallik sifatida o‘zining yashovchi-aholisi va kommunikativ jarayonning o‘ziga xos xususiyatlariga ega bo‘lgan chinakam yangi hayotiy makon sifatida ham ko‘rib chiqish mumkin.

Hozirgi vaqtda internet muhitidagi ijtimoiylashuv va muloqotning o‘ziga xos xususiyatlari E.P. Belinskaya, E. Blokhina, S.V. Bondarenko, I.A. Vasileva, A.E. Voyskunskiy, E.I. Goroshko, V.V. Gudimov, A.E. Jichkina, M. Ivanov, L.Y. Ivanov, T. Keler, A.V. Minakov, A.V. Mudrik, I. Paravozov, V.A. Pleshakov, V.V. Nesterov, M.Y. Sidorova, F.O. Smirnov, J. Suler, V. Frindtke, N.I Chudova, I. Shevchenko, K.S. Yang va boshqa ko‘plab tadqiqotchilarning ishlarida ko‘rib chiqilgan. Biroq kiberolamda kechadigan virtual-kompyuter ijtimoiylashuvi jarayoni insonning kiberijtimoiylashuvi kompleks tarzda tadqiq etilmagan.

Kiberolamning virtual ijtimoiylashtiruvchi muhiti xususiyatlari [6:107] insonning kiberijtimoiylashuvi tushunchasini shaxs kiberontologiyasining zamonaviy psixologik-pedagogik fenomeni sifatida, ijtimoiy tarbiya nazariyasi hamda shaxs hayot yo‘li pedagogikasi va psixologiyasining yagona konsepsiyasi doirasida ilmiy muomalaga kiritish imkonini berdi.

Internet muhitining kiberfazosidagi kommunikatsiyaning ijtimoiy-pedagogik jihatini asosiy ijtimoiy-pedagogik funksiyalar axborot berish, o‘zini o‘zgartirish va adaptiv funksiyalarga muvofiq tarzda ifodalash mumkin.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

Endi insonning kiberijtimoiylashuvining eng muhim xususiyatlarini ko‘rib chiqamiz. Kiberijtimoiylashuvning muhim xususiyatlaridan biri internet muhitida real vaqt rejimida muloqot qilish imkoniyatidir. Bunda, agar telefon orqali bir vaqtning o‘zida faqat bir kishi bilan gaplashish mumkin bo‘lsa, internet muhitida kommunikatsiya ishtirokchilari soni cheklanmagan.

“Kiberolam o‘zaro interaksiyalar davom etishi sharti bilan subektivlararo vaqt ikki tomonlama cho‘ziladigan o‘ziga xos temporal makonni yaratadi. Bu esa qulay va shinam “refleksiya zonasini” ta’minlaydi” [7]. Yuzma-yuz muloqot bilan taqqoslaganda, suhbat ishtirokchilari javobni o‘ylab ko‘rish va shakllantirish uchun ancha ko‘proq vaqtga ega bo‘ladilar.

Biroq bunday qiziqishlar ham insonparvar, ham antisotsial xarakterga ega bo‘lishi mumkin. Bunday holatda internet tarmog‘ida turli guruhlar va birlashmalarni tashkil etish imkoniyati nihoyatda salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin, chunki bunday guruhlar faoliyatini nazorat qilish va kuzatib borish juda murakkab.

Raqamli makon shaxsga konstruktiv ijtimoiy tajriba bilan bir qatorda destruktiv, manipulyativ yoki antisosial g‘oyalar bilan ham to‘qnashish imkoniyatini beradi. Ayniqsa, umumiy qiziqish asosida shakllangan, biroq ijtimoiy jihatdan nomaqbul maqsadlarni ko‘zlovchi yopiq virtual guruhlarning paydo bo‘lishi muayyan xavflarni yuzaga keltirishi mumkin. Bunday hamjamiyatlar o‘z a’zolariga kuchli psixologik va ijtimoiy ta’sir o‘tkazishi, muayyan xulq-atvor modellarini normallashtirishi yoki radikal qarashlarni mustahkamlashi ehtimoldan xoli emas.

Shu sababli kiberijtimoiylashuvni faqat raqamli imkoniyatlarning kengayishi sifatida emas, ikki tomonlama ijtimoiy-pedagogik jarayon sifatida baholash lozim. Bir tomondan, u shaxsning bilim va axborot resurslaridan foydalanish, ijtimoiy aloqalarini kengaytirish, o‘zini namoyon qilish va yangi ijtimoiy tajribani egallash imkoniyatlarini oshiradi.

Ikkinchi tomondan esa, nazoratsiz yoki tanqidiy tafakkursiz foydalanish shaxsning ijtimoiy xulq-atvoriga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Kiberijtimoiylashuvning ijtimoiy-pedagogik mazmunini uning asosiy funksiyalari orqali ham ochib berish mumkin. Xususan, axborot funksiyasi shaxsning bilim va ijtimoiy tajribaga ega bo‘lishini ta’minlasa, o‘zgarish funksiyasi uning qarashlari, qiziqishlari va xulq-atvorida yuz beradigan transformatsiyalarni ifodalaydi. Adaptiv funksiya esa shaxsning yangi raqamli ijtimoiy muhitga moslashishi, undagi kommunikativ meyorlar va xulq-atvor qoidalarini o‘zlashtirishi bilan bog‘liq. Mazkur funksiyalarning o‘zaro ta’siri natijasida kiberijtimoiylashuv shaxsning raqamli kompetensiyasi bilangina emas, balki uning ijtimoiy va psixologik rivojlanishi bilan ham chambarchas bog‘langan murakkab jarayon sifatida shakllanadi.

Demak, kiberijtimoiylashuv zamonaviy raqamli jamiyatda shaxsning shakllanishi va rivojlanishining yangi mexanizmlarini ifodalovchi kompleks ijtimoiy-pedagogik fenomen hisoblanadi. Uning asosiy xususiyati shundaki, inson endilikda bir vaqtning o‘zida real va virtual ijtimoiy makonlarda faoliyat yuritadi. Shu bois zamonaviy pedagogik yondashuvlar

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

shaxsni nafaqat real ijtimoiy muhitning tarkibiy qismiga aylanib borayotgan kiberfazoga ham samarali moslashtirish masalasini qamrab olishi zarur.

Internet foydalanuvchiga ma'lum ijtimoiy guruhlar, manfaatlar hamjamiyatlari yoki referent guruhlarga geografik va jismoniy chegaralardan qat'i nazar qo'shilish imkonini beradi. Natijada shaxsning ijtimoiy mansublik haqidagi tasavvuri kengayadi va uning o'zini muayyan guruh bilan identifikatsiya qilish shakllari murakkablashadi. Raqamli makon shuningdek, shaxsga o'zining virtual obrazini yaratish va uni turli kommunikativ vaziyatlarda sinab ko'rish imkonini beradi.

Kiberfazodagi kommunikatsiya bir nechta muhim funksiyalarni bajaradi. Ular qatoriga axborot almashinuvi, kommunikativ o'zaro ta'sir, rekreatsion faoliyat, psixologik qo'llab-quvvatlash va ijodiy o'zini namoyon qilish funksiyalarini kiritish mumkin.

Ayniqsa, real hayotdagi bevosita muloqot turli obektiv yoki subektiv to'siqlar bilan murakkablashadigan shaxslar uchun virtual kommunikatsiyaning imkoniyatlari alohida ahamiyatga ega. Insonning tashqi ko'rinishi bilan bog'liq ishonchsizlik, nutqdagi ayrim qiyinchiliklar, xarakter xususiyatlari, jismoniy imkoniyatlarning cheklanganligi yoki boshqa individual omillar yuzma-yuz muloqot jarayonida psixologik noqulaylik tug'dirishi mumkin. Internet vositasidagi kommunikatsiya esa bunday to'siqlarning ayrimlarini vaqtincha kamaytirish yoki ularning kommunikatsiyaga ta'sirini yumshatish imkonini beradi.

Shu sababli kiberolamdagi faoliyat, ayniqsa, real hayotdagi ijtimoiy aloqalari cheklangan yoki interpersonal munosabatlari yetarlicha rivojlanmagan shaxslar uchun muhim ijtimoiy-kommunikativ resursga aylanishi mumkin. Virtual muhit insonning muloqotga bo'lgan ehtiyojini qondirish, yangi tanishlar orttirish, umumiy qiziqishlarga ega insonlarni topish va o'zini ijtimoiy jihatdan namoyon etish uchun qo'shimcha imkoniyat yaratadi.

Biroq real ijtimoiy muhit bilan virtual muhit o'rtasidagi muvozanat buzilganda, kiberfazodagi muloqot shaxsning real hayotdagi ijtimoiy aloqalarini to'ldirish o'rniga ularning o'rnini bosuvchi vositaga aylanishi mumkin. Bunday vaziyatda kvaziijtimoiylashuv hodisasi yuzaga kelishi ehtimoli ortadi. Kvaziijtimoiylashuvni shaxsning raqamli muhitda muayyan ijtimoiy tajriba va xulq-atvor modellarini egallashi natijasida uning virtual hayotidagi moslashuvi kuchaygan, biroq real ijtimoiy muhitga moslashuvi yetarlicha rivojlanmagan holat sifatida izohlash mumkin.

Kvaziijtimoiylashuv jarayonida shaxsning ijtimoiy tajribasi real jamiyatda qabul qilingan meyorlar bilan ma'lum virtual hamjamiyatlarda shakllangan qadriyatlar, xulq-atvor qoidalari va kommunikativ normalar bilan belgilanib borishi mumkin. Masalan, ayrim yopiq yoki tor ixtisoslashgan onlayn submadaniyatlar o'ziga xos til, ramzlar, qadriyatlar va xulq-atvor modellarini yaratadi. Foydalanuvchi mazkur muhitda uzoq vaqt davomida faol ishtirok etishi natijasida ushbu meyorlarni tabiiy va maqbul ijtimoiy norma sifatida qabul qilishi mumkin.

Shu nuqtayi nazardan, kvaziijtimoiylashuvni faqat salbiy hodisa sifatida baholash ham biryoqlama yondashuv bo'ladi. Chunki ayrim shaxslar, xususan, real hayotda ijtimoiy

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

aloqalari keskin cheklangan insonlar uchun virtual muhit muloqot, o‘zini namoyon qilish va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashning muhim, ba’zan esa muqobil manbai bo‘lishi mumkin. Shuning uchun uning ijtimoiy-pedagogik ahamiyatini baholashda shaxsning individual ehtiyojlari, real ijtimoiy muhitining imkoniyatlari va virtual faoliyatning mazmuni birgalikda hisobga olinishi lozim.

Muammo virtual muhitdagi ijtimoiy tajriba real hayotdagi moslashuv jarayonlarini izdan chiqara boshlagan holatlarda yuzaga keladi. Agar shaxsning virtual identifikatsiyasi real identifikatsiyani siqib chiqarsa, real ijtimoiy munosabatlar o‘rnini faqat virtual aloqalar egallasa yoki jamiyat tomonidan maqbul bo‘lmagan xulq-atvor modellari shaxs tomonidan meyor sifatida qabul qilinsa, kiberijtimoiylashuvning destruktiv shakllari yuzaga kelishi mumkin.

Kiberijtimoiylashuv zamonaviy pedagogika uchun ikki tomonlama vazifani: bir tomondan, raqamli muhitning ijtimoiylashtiruvchi imkoniyatlaridan samarali foydalanish, ikkinchi tomondan esa uning ehtimoliy destruktiv ta’sirlarining oldini olish masalasini kun tartibiga qo‘yadi. Shunday qilib, kiberkommunikatsiya shaxsning ijtimoiylashuv jarayonini makon, vaqt, identifikatsiya va kommunikativ imkoniyatlar nuqtayi nazaridan kengaytiruvchi yangi ijtimoiy muhitni shakllantiradi. Uning ta’sirida shaxs nafaqat mavjud ijtimoiy tajribani o‘zlashtiradi, balki yangi kommunikativ strategiyalar, ijtimoiy rollar va identifikatsiya shakllarini ham sinab ko‘radi. Shu sababli kiberijtimoiylashuvni raqamli jamiyat sharoitida shaxsning ijtimoiy rivojlanishini belgilovchi mustaqil va murakkab ijtimoiy-pedagogik fenomen sifatida o‘rganish dolzarb ilmiy vazifalardan biridir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Кастельс М. Информасионнаya епоха: економика, обshество и культура. – М., 2001.
2. Ro‘ziyev A. Global qishloq chegarasi// jur. Ma’naviy hayot №2. – Toshkent, Centris bosmaxonasi. 2024.
3. T. Mirzayev (rahbar) va boshq. O‘zbek tilining izohli lug‘ati: 80 000 dan ortiq so‘z va so‘z birikmasi. 5 jildli / Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot instituti. A. Madvaliyev tahriri ostida. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti.
4. Плешаков В.А. Виртуальнаya сосиализасиуа как современній аспект квазисосиализасии личности // Проблемі педагогического образованиуа: Сборник научніх статей. Віп. 21. / Под ред. В.А. Сластенина, Е.А. Левановой. – М., 2005.
5. Буренина Светлана Юрьевна, Калинина Светлана Борисовна Киберсоциализация как фактор адаптации студентов вуза к условиям дистанционного обучения // СНВ. 2022. №1. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/kibersotsializatsiya-kak-faktor-adaptatsii-studentov-vuza-k-usloviyam-distantsionnogo-obucheniya (дата обращения: 05.09.2026).

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

6. Плешаков В.А. К вопросу об определении понуатиуа «cosиализируyushaya среда» в cosиальной педагогике // Актуальніе проблемі профессионально-педагогического образованиуа: Межвузовский сборник научніх трудов. Віп. 4 / Под ред. Е.А. Левановой. – Калининград, 2000.
7. Suler J. Human Becomes Electric: The Basic Psychological Features of Cyberspace, 1996.

© intereduglobalstudy.com

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

KREATIV IQTISODIYOT SHAROITIDA MADANIYAT MARKAZLARI FAOLIYATI SAMARADORLIGI.

Marxamat Murodova, Toshkent shahar madaniyat boshqarmasi Yunusobod tuman Madaniyat bo‘limi mudiri-madaniyat markazi direktori.

Annotatsiya

KIRISH: mazkur maqolada kreativ iqtisodiyot sharoitida madaniyat markazlari faoliyatining samaradorligini oshirish masalalari tahlil qilinadi. Tadqiqotda madaniyat markazlarining ijodiy va ijtimoiy salohiyatidan samarali foydalanish, zamonaviy boshqaruv yondashuvlarini joriy etish, raqamli texnologiyalardan foydalanish hamda manfaatdor tomonlar bilan hamkorlikni rivojlantirishning ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, auditoriya qamrovi, ijodiy mahsulot sifati, iqtisodiy natijalar va ijtimoiy samaradorlik madaniyat markazlari faoliyatini baholashning asosiy mezonlari sifatida ko‘rib chiqilgan. Maqolada mavjud muammolar va ularni bartaraf etish bo‘yicha amaliy takliflar ham ilgari surilgan.

MAQSAD: tadqiqotning asosiy maqsadi kreativ iqtisodiyot sharoitida madaniyat markazlari faoliyati samaradorligini oshirish omillarini aniqlash, ularning ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy natijalarini kompleks baholash hamda zamonaviy boshqaruv yondashuvlari asosida faoliyatni takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda madaniyat markazlari faoliyati samaradorligini o‘rganishda kompleks yondashuvdan foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosini tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, umumlashtirish va mantiqiy tahlil usullari tashkil etdi. Madaniyat va san’at sohasini boshqarishga oid ilmiy adabiyotlar, me’yoriy-huquqiy hujjatlar hamda tadqiqot mavzusiga tegishli amaliy yondashuvlar o‘rganildi. Shuningdek, madaniyat markazlarining auditoriya bilan ishlashi, moliyaviy barqarorligi, inson kapitalidan foydalanishi va raqamli texnologiyalarni joriy etish imkoniyatlari tahlil qilindi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: kreativ iqtisodiyotning muhim xususiyati shundaki, unda asosiy resurs sifatida moddiy xomashyo emas, balki insonning intellektual va ijodiy salohiyati qaraladi. Madaniyat markazlari ana shu salohiyatni rivojlantirish uchun zarur ijodiy muhitni shakllantirish imkoniyatiga ega. To‘garaklar, mahorat mashg‘ulotlari, ko‘rgazmalar, ijodiy uchrashuvlar, festivallar va tanlovlar yangi iste’dodlarni aniqlashga xizmat qiladi. Ayniqsa, yoshlarning musiqa, raqs, teatr, tasviriy san’at, hunarmandchilik va zamonaviy media yo‘nalishlariga jalb etilishi ularning ijodiy hamda kasbiy kompetensiyalarini kengaytiradi.

Madaniyat markazlari faoliyati samaradorligini faqat tadbirlar soni yoki tashrif buyuruvchilar miqdori orqali baholash yetarli emas. Samaradorlik ijtimoiy, madaniy, iqtisodiy va innovatsion natijalarni qamrab oluvchi kompleks mezonlar asosida aniqlanishi lozim.

XULOSA: kreativ iqtisodiyot sharoitida madaniyat markazlari jamiyatning madaniy hayotini tashkil etuvchi an’anaviy muassasa sifatidagi vazifalaridan tashqari, hududiy

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

iqtisodiy faollik va inson kapitalini rivojlantirishga xizmat qiluvchi muhim kreativ institutga aylanmoqda. Ularning samaradorligi auditoriya ehtiyojlarini chuqur o‘rganish, zamonaviy boshqaruv usullarini joriy etish, raqamli texnologiyalardan foydalanish, ijodiy tadbirkorlikni rivojlantirish va manfaatdor tomonlar bilan hamkorlikni kuchaytirishga bevosita bog‘liq.

Kalit so’zlar: kreativ iqtisodiyot, madaniyat markazi, madaniy xizmatlar, faoliyat samaradorligi, ijodiy mahsulot, ijodiy salohiyat, ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik, auditoriya qamrovi, madaniy tadbirlar, innovatsion loyihalar, hamkorlik mexanizmlari, hududiy rivojlanish.

ЭФФЕКТИВНОСТЬ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ЦЕНТРОВ КУЛЬТУРЫ В УСЛОВИЯХ КРЕАТИВНОЙ ЭКОНОМИКИ.

Мархамат Муродова, начальник отдела культуры Юнусабадского района Главного управления культуры города Ташкента – директор Центра культуры.

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в данной статье рассматриваются вопросы повышения эффективности деятельности центров культуры в условиях развития креативной экономики. В исследовании раскрывается значение эффективного использования творческого и социального потенциала центров культуры, внедрения современных подходов к управлению, применения цифровых технологий, а также развития сотрудничества с заинтересованными сторонами. Кроме того, в качестве основных критериев оценки деятельности центров культуры рассматриваются охват аудитории, качество создаваемого творческого продукта, экономические результаты и социальная эффективность. В статье также определены существующие проблемы и предложены практические рекомендации по их устранению.

ЦЕЛЬ: основной целью исследования является определение факторов повышения эффективности деятельности центров культуры в условиях креативной экономики, комплексная оценка их социальных, культурных и экономических результатов, а также разработка научно-практических рекомендаций по совершенствованию их деятельности на основе современных подходов к управлению.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в процессе исследования эффективности деятельности центров культуры был использован комплексный подход. Методологическую основу исследования составили методы системного анализа, сравнительного анализа, обобщения и логического анализа. Были изучены научная литература по вопросам управления в сфере культуры и искусства, нормативно-правовые документы, а также практические подходы, связанные с темой исследования. Кроме того, были проанализированы особенности взаимодействия центров культуры с аудиторией, вопросы финансовой устойчивости, эффективного

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

использования человеческого капитала и возможности внедрения цифровых технологий в их деятельность.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: важной особенностью креативной экономики является то, что в качестве основного ресурса в ней рассматривается не материальное сырьё, а интеллектуальный и творческий потенциал человека. Центры культуры обладают значительными возможностями для формирования необходимой творческой среды, способствующей развитию данного потенциала. Различные кружки, мастер-классы, выставки, творческие встречи, фестивали и конкурсы способствуют выявлению и поддержке новых талантов. Особое значение имеет вовлечение молодёжи в такие направления, как музыка, танцы, театр, изобразительное искусство, ремесло и современные медиа, что позволяет расширить их творческие и профессиональные компетенции.

Оценивать эффективность деятельности центров культуры исключительно по количеству проведённых мероприятий или числу посетителей недостаточно. Эффективность должна определяться на основе комплексной системы критериев, охватывающей социальные, культурные, экономические и инновационные результаты деятельности. Такой подход позволяет более объективно оценить вклад центров культуры в развитие творческого потенциала общества, повышение социальной активности населения и формирование условий для развития креативной экономики.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: в условиях развития креативной экономики центры культуры постепенно превращаются из традиционных учреждений, организующих культурную жизнь общества, в важные креативные институты, способствующие развитию региональной экономической активности и человеческого капитала. Эффективность их деятельности напрямую зависит от глубокого изучения потребностей аудитории, внедрения современных методов управления, использования цифровых технологий, развития творческого предпринимательства и укрепления сотрудничества с заинтересованными сторонами.

Ключевые слова: креативная экономика, центр культуры, культурные услуги, эффективность деятельности, творческий продукт, творческий потенциал, социально-экономическая эффективность, охват аудитории, культурные мероприятия, инновационные проекты, механизмы сотрудничества, региональное развитие.

EFFECTIVENESS OF CULTURAL CENTERS' ACTIVITIES IN THE CONTEXT OF THE CREATIVE ECONOMY.

Marxamat Murodova, Head of Yunusabad District Cultural Department under the Tashkent City Cultural Department – Director of the Cultural Center.

Annotation

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

INTRODUCTION: this article analyzes the issues of improving the efficiency of cultural centers in the context of the creative economy. The study highlights the importance of effectively utilizing the creative and social potential of cultural centers, implementing modern management approaches, using digital technologies, and developing cooperation with stakeholders. In addition, audience reach, the quality of creative products, economic outcomes, and social effectiveness are considered as the main criteria for evaluating the performance of cultural centers. The article also identifies existing problems and proposes practical recommendations for addressing them.

MATERIALS AND METHODS: a comprehensive approach was used to study the efficiency of cultural centers. The methodological basis of the research consisted of systematic analysis, comparative analysis, generalization, and logical analysis. Scientific literature on the management of culture and arts, regulatory and legal documents, as well as practical approaches related to the research topic were examined. In addition, the study analyzed the interaction of cultural centers with their audiences, financial sustainability, the effective utilization of human capital, and the possibilities of implementing digital technologies in their activities.

AIM: the main objective of the study is to identify the factors that contribute to improving the efficiency of cultural centers in the context of the creative economy, to comprehensively assess their social, cultural, and economic outcomes, and to develop scientific and practical recommendations for improving their activities based on modern management approaches.

DISCUSSION AND RESULTS: an important characteristic of the creative economy is that its primary resource is not material raw materials, but rather the intellectual and creative potential of individuals. Cultural centers have the opportunity to create the necessary creative environment for developing this potential. Various clubs, workshops, exhibitions, creative meetings, festivals, and competitions contribute to identifying and supporting new talents. In particular, involving young people in such areas as music, dance, theater, visual arts, handicrafts, and modern media helps expand their creative and professional competencies.

Evaluating the effectiveness of cultural centers solely based on the number of events held or the number of visitors is not sufficient. Their effectiveness should be determined through a comprehensive set of criteria that encompasses social, cultural, economic, and innovative outcomes.

CONCLUSION: in the context of the creative economy, cultural centers are gradually transforming from traditional institutions responsible for organizing the cultural life of society into important creative institutions that contribute to regional economic activity and human capital development. Their effectiveness directly depends on a thorough understanding of audience needs, the implementation of modern management methods, the use of digital technologies, the development of creative entrepreneurship, and the strengthening of cooperation with stakeholders.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

Keywords: creative economy, cultural center, cultural services, operational efficiency, creative product, creative potential, socio-economic efficiency, audience reach, cultural events, innovative projects, cooperation mechanisms, regional development.

Hozirgi kundagi jahon iqtisodiy tizimining faoliyat yuritishi transformatsion jarayonlar hamda bilimlar, innovatsiyalar, intellektual va ijodiy resurslar, axborot-kommunikatsiya va kompyuter texnologiyalariga asoslangan postindustrial, ya'ni yangi iqtisodiyotning shakllanishi bilan tavsiflanadi. Bunday iqtisodiy rivojlanish ishlab chiqarish omillarining o'zgarishi, boshqaruv usullari va yondashuvlarining takomillashuvi, biznes jarayonlarini tashkil etishning yangi shakllari, xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasidagi munosabatlarning mazmuni va xususiyatlarining o'zgarishi bilan bog'liq bo'lgan yangi belgilar hamda o'ziga xos jihatlarni namoyon etmoqda [1]. Shuningdek, jahon iqtisodiyotida yuz berayotgan tarkibiy o'zgarishlar natijasida iqtisodiy taraqqiyotning an'anaviy ishlab chiqarish omillari tabiiy resurslar, moddiy kapital, mehnat resurslari va ishlab chiqarish quvvatlari bilan bir qatorda, bilim, ijodkorlik, innovatsion tafakkur, axborot hamda intellektual salohiyat kabi omillarning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Raqobat muhitining kuchayishi, raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi va iste'molchilarning ehtiyojlari xilma-xillashuvi iqtisodiy subyektlardan nafaqat mavjud mahsulot va xizmatlarni takomillashtirishni, balki mutlaqo yangi g'oyalar, konsepsiyalar va kreativ yechimlarni ishlab chiqishni talab etmoqda. Natijada insonning bilim va tajribasi, tasavvuri, ijodiy fikrlashi hamda yangi qiymat yaratish qobiliyati zamonaviy iqtisodiy rivojlanishning muhim strategik resursiga aylanmoqda.

Mazkur tendensiyalar iqtisodiyotning bilim va ijodkorlikka tayanuvchi yangi modelini shakllantirishga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, so'nggi yillarda iqtisodiy faoliyatning madaniyat, san'at, raqamli kontent va boshqa ijodiy yo'nalishlar bilan uzviy bog'lanishi natijasida kreativ iqtisodiyot tushunchasi ilmiy va amaliy jihatdan alohida ahamiyat kasb etmoqda. Kreativ iqtisodiyotning asosiy xususiyati shundaki, unda iqtisodiy qiymat yaratish jarayonining markazida moddiy resurslardan ko'ra insonning ijodiy va intellektual imkoniyatlari turadi.

Kreativ iqtisodiyot insonning ijodiy qobiliyati, madaniy merosi, bilim va tasavvuridan iqtisodiy hamda ijtimoiy qiymat yaratish vositasi sifatida foydalanishga asoslanadi. Shu nuqtayi nazardan, madaniyat markazlari aholining bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etuvchi muassasa bo'lish bilan cheklanmay, hududning ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqaruvchi muhim institutsional muassasa sifatida namoyon bo'lmoqda.

Madaniyat markazlarining asosiy vazifalaridan biri jamiyat a'zolarining madaniy ehtiyojlarini qondirish, milliy qadriyatlarni asrash, yoshlarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish hamda turli ijtimoiy guruhlar o'rtasida madaniy muloqotni kuchaytirishdan iborat [2]. Kreativ iqtisodiyot sharoitida esa ushbu vazifalar yangi mazmun bilan boyib, ijodiy mahsulot yaratish, madaniy xizmatlarni diversifikatsiya qilish, mahalliy iste'dodlarni

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

qo‘llab-quvvatlash va hududiy brendlarni shakllantirish kabi yo‘nalishlarni ham qamrab oladi.

Kreativ iqtisodiyotning muhim xususiyati shundaki, unda asosiy resurs sifatida moddiy xomashyo emas, balki insonning intellektual va ijodiy salohiyati qaraladi. Madaniyat markazlari ana shu yo‘nalishlarning rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan ijodiy muhitni shakllantirish imkoniyatiga ega. Bunday muassasalarda tashkil etiladigan to‘garaklar, mahorat mashg‘ulotlari, ko‘rgazmalar, ijodiy uchrashuvlar, festival va tanlovlar yangi iste’dodlarni aniqlashga xizmat qiladi. Ayniqsa, yoshlarning musiqa, raqs, teatr, tasviriy san’at, hunarmandchilik hamda zamonaviy media yo‘nalishlariga jalb etilishi ularning kasbiy kompetensiyalarini kengaytiradi. Natijada madaniyat markazi nafaqat ma’naviy-ma’rifiy faoliyat olib boruvchi, balki inson kapitalini rivojlantiruvchi kreativ platformaga aylanadi.

Madaniyat markazlari faoliyati samaradorligini aniqlashda faqat tadbirlar soni yoki tashrif buyuruvchilar miqdorini hisobga olish yetarli emas. Samaradorlik tushunchasi muassasaning ijtimoiy, madaniy, iqtisodiy va innovatsion natijalarini kompleks baholashni talab qiladi. Shu sababli baholash tizimida miqdoriy ko‘rsatkichlar bilan bir qatorda sifat mezonlaridan ham foydalanish maqsadga muvofiq.

Birinchi navbatda, auditoriya qamrovi muhim ko‘rsatkich hisoblanadi. Turli yosh va ijtimoiy qatlam vakillarining madaniy xizmatlardan foydalanish darajasi markaz faoliyatining ommabopligini ko‘rsatadi. Misol uchun, madaniyat markazining yillik tashrif buyuruvchilari tarkibida yoshlar, keksalar, oilalar, nogironligi bo‘lgan shaxslar hamda turli ijtimoiy guruhlar vakillarining salmoqli ulushni tashkil etishi markaz tomonidan ko‘rsatilayotgan madaniy xizmatlarning ijtimoiy qamrovi yuqoriligini anglatadi. Ayniqsa, aholining ilgari madaniy tadbirlarda kam ishtirok etgan qatlamlarini jalb qilish darajasi markaz faoliyatining ommabopligi va ijtimoiy samaradorligini baholashda muhim mezon hisoblanadi.

Ikkinchi mezon – ijodiy mahsulotlar sifati va xilma-xilligi. Yangi spektakllar, musiqiy dasturlar, ko‘rgazmalar, hunarmandchilik buyumlari yoki raqamli loyihalarning yaratilishi tashkilotning kreativ salohiyatini namoyon etadi. Masalan, madaniyat markazida bir yil davomida ilgari namoyish etilmagan yangi spektakl sahnalashtirilib, mahalliy rassomlarning asarlaridan iborat ko‘rgazma tashkil etilishi, yosh ijodkorlar ishtirokida zamonaviy musiqiy dasturlar va milliy hunarmandchilik mahsulotlarining yangi namunalari yaratilishi ushbu mezon bo‘yicha yuqori natijani ko‘rsatadi. Bunda har bir ijodiy mahsulotning tomoshabinlar tomonidan qabul qilinishi, takroriy namoyishlarga talab mavjudligi va yangi auditoriyani jalb eta olishi uning amaliy qiymatini belgilaydi.

Uchinchi yo‘nalish iqtisodiy natijalar bilan bog‘liq. Pullik xizmatlardan tushadigan daromad, homiylik mablag‘lari, grantlar, hamkorlik loyihalari va ijodkorlar faoliyatidan olinadigan iqtisodiy manfaat markazning moliyaviy barqarorligini ta’minlashga yordam beradi. Masalan, madaniyat markazi tomonidan pullik to‘garaklar, konsert dasturlari, ijodiy kurslar va ko‘rgazmalarning tashkil etilishi qo‘shimcha daromad manbalarini shakllantiradi.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

Bundan tashqari, homiylar va hamkor tashkilotlar bilan yo‘lga qo‘yilgan hamkorlik yangi madaniy loyihalarni amalga oshirish, moddiy-texnik bazani mustahkamlash hamda ijodkorlarni qo‘llab-quvvatlash imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu jihatdan, markazning turli xil moliyaviy manbalardan samarali foydalanishi uning iqtisodiy barqarorligini ta’minlash va kelgusidagi faoliyatini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

To‘rtinchi mezon esa ijtimoiy samaradorlik bo‘lib, aholining madaniy faolligi, yoshlarning ijodiy tashabbuslari va mahalliy hamjamiyatdagi hamkorlik aloqalarining rivojlanishida namoyon bo‘ladi. Masalan, markazda yoshlar uchun ijodiy to‘garaklar va mahorat darslarining yo‘lga qo‘yilishi, mahalla aholisi ishtirokida madaniy tadbirlarning muntazam tashkil etilishi hamda mahalliy ijodkorlar, ta’lim muassasalari va jamoat tashkilotlari bilan qo‘shma loyihalarning amalga oshirilishi hududdagi madaniy faollikni oshiradi. Bunday faoliyat natijasida yoshlarning o‘z ijodiy g‘oyalarini amalga oshirish imkoniyati kengayib, aholi o‘rtasidagi hamkorlik va jamoaviy faollik kuchayadi.

Kreativ iqtisodiyot sharoitida raqamli texnologiyalardan foydalanish madaniyat markazlari faoliyatini takomillashtirishning muhim shartlaridan biridir. Ijtimoiy tarmoqlar, multimedia vositalari, elektron platformalar va raqamli arxivlardan foydalanish orqali madaniy mahsulotlarning auditoriyasi kengayadi. An’anaviy tadbirlarni internet orqali yoritish, videokontent yaratish, virtual ko‘rgazmalar tashkil etish va onlayn mahorat darslarini yo‘lga qo‘yish markazning kommunikatsion imkoniyatlarini oshiradi.


Raqamlashtirish, shuningdek, tashrif buyuruvchilar ehtiyojlarini o‘rganish uchun katta hajmdagi ma’lumotlarni yig‘ish va tahlil qilish imkonini beradi. Auditoriyaning qiziqishlari, tadbirlarga qatnashish chastotasi, yosh tarkibi va xizmatlarga bo‘lgan talabni o‘rganish asosida boshqaruv qarorlarini takomillashtirish mumkin. Bu esa mavjud resurslardan oqilona foydalanish va taklif etilayotgan madaniy xizmatlarning sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Madaniyat markazlari samaradorligini oshirish va ularning jamiyatdagi ijtimoiy-madaniy rolini kuchaytirishda boshqaruv modelini zamonaviy talablar asosida takomillashtirish alohida ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda madaniyat markazlari nafaqat aholining bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etuvchi muassasa, balki hududning madaniy salohiyatini rivojlantiruvchi, ijodiy tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlovchi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni targ‘ib qiluvchi hamda aholining ijodiy faolligini rag‘batlantiruvchi muhim ijtimoiy institut sifatida namoyon bo‘lmoqda. Shu sababli ularning faoliyatini an’anaviy ma’muriy boshqaruv usullari asosida tashkil etish bilan bir qatorda, zamonaviy menejment, strategik rejalashtirish, loyiha boshqaruvi, marketing va innovatsion boshqaruv tamoyillarini joriy etish zarur. Zamonaviy boshqaruv modeli, avvalo, madaniyat markazining aniq strategik maqsad va vazifalarini belgilash, mavjud resurslardan samarali foydalanish, faoliyat natijalarini muntazam baholash hamda aholining madaniy ehtiyojlarini o‘rganish mexanizmlarini takomillashtirishni nazarda tutadi. Bunday yondashuvda boshqaruv jarayoni faqat ma’muriy topshiriqlarni bajarish bilan cheklanib qolmay, balki muassasaning rivojlanish istiqbollarini belgilash, yangi loyihalarni

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

ishlab chiqish, hamkorlik aloqalarini kengaytirish va qo‘shimcha moliyaviy manbalarni jalb etishga yo‘naltiriladi.



Madaniyat markazlari faoliyatini boshqarishda inson kapitali muhim strategik resurs hisoblanadi. Xodimlarning kasbiy kompetensiyasi, ijodiy salohiyati va tashabbuskorligi muassasa faoliyatining yakuniy natijalariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi [3]. Shu nuqtayi nazardan, xodimlarning malakasini muntazam oshirish, ularni zamonaviy boshqaruv texnologiyalari, madaniy loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirish, auditoriya bilan ishlash, kommunikatsiya, marketing, homiylik va grant mablag‘larini jalb etish kabi yo‘nalishlarda qayta tayyorlash muhim vazifalardan biridir. Bunda xodimlarning faqat

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

mavjud vazifalarni bajarish qobiliyatini emas, balki mustaqil qaror qabul qilish, innovatsion g‘oyalarni ilgari surish va yangi loyihalarni amalga oshirish kompetensiyalarini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratish lozim. Boshqaruvning samarali modeli ijodiy jamoa a’zolarining tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash va ularning qaror qabul qilish jarayonidagi ishtirokini kengaytirishni ham talab etadi. Ijodiy muhit shakllangan madaniyat markazida xodimlar o‘z g‘oya va takliflarini erkin ilgari surish imkoniyatiga ega bo‘lishi, yangi loyihalarni ishlab chiqishda faol ishtirok etishi hamda o‘z mehnati natijasini aniq ko‘ra olishi kerak. Buning uchun rahbariyat tomonidan ochiq kommunikatsiya, jamoaviy muhokama, vazifalarni aniq taqsimlash va natijaga yo‘naltirilgan rag‘batlantirish tizimini shakllantirish maqsadga muvofiq.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Madaniyat va san’at sohasida boshqaruv tizimini takomillashtirish hamda xususiy sektor ishtirokini rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2026-yil 21-apreldagi PQ-150-son qarori ijrosini ta’minlash maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Madaniyat markazlari faoliyatini transformatsiya qilish va boshqaruvning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2026-yil 2-iyuldagi 363-sonli qarori qabul qilingan [4]. Ushbu qarorda Madaniyat vazirligi tizimidagi madaniyat markazlari faoliyatini zamonaviy talablar asosida transformatsiya qilish, ularning faoliyatini yangi yo‘nalishlarda tashkil etish, ayrim madaniyat markazlarini tuman (shahar) hokimliklari tizimiga o‘tkazish, xususiy investitsiyalarni jalb etish hamda ilg‘or boshqaruv tajribasini joriy etish maqsadida davlat-xususiy sheriklik asosida faoliyat yuritishini yo‘lga qo‘yish, shuningdek, resurslardan oqilona foydalanish maqsadida samarasiz faoliyat yuritayotgan madaniyat markazlarini maqbullashtirish nazarda tutilgan. Shuningdek, qaror bilan Madaniyat vazirligi tizimida yangi yo‘nalishlarda tashkil etiladigan madaniyat markazlari, tuman (shahar) hokimliklari tizimiga o‘tkaziladigan madaniyat markazlari, davlat-xususiy sheriklik asosida tashkil etiladigan madaniyat markazlari hamda maqbullashtiriladigan madaniyat markazlarining ro‘yxatlari tasdiqlangan.

Mazkur qarorda Madaniyat vazirligi tizimida yangi yo‘nalishda **302 ta** madaniyat markazlari tashkil etilmoqda. Ularning asosiy vazifasi milliy va nomoddiy madaniy merosni asrab-avaylash, o‘rganish va keng targ‘ib qilish, hunarmandchilik, musiqa, teatr va folklor yo‘nalishlarini rivojlantirish, yoshlarning ijodiy hamda intellektual salohiyatini qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, zamonaviy raqamli va media texnologiyalarini madaniyat sohasiga joriy etishdan iborat. Madaniyat vazirligi tizimidan tuman (shahar) hokimliklari tizimiga o‘tkazilayotgan **196 ta** madaniyat markazining asosiy vazifasi hududlarda madaniy-ma’rifiy tadbirlar, konsertlar, to‘garak va klublar faoliyatini tashkil etish hamda aholiga sifatli madaniy xizmatlar ko‘rsatishdan iborat. Shuningdek, iqtidorli yoshlarni aniqlash va qo‘llab-quvvatlash, olis hududlarda ko‘chma madaniy xizmatlarni yo‘lga qo‘yish hamda xodimlar malakasini muntazam oshirish nazarda tutilgan. Madaniyat vazirligi tizimida davlat-xususiy sheriklik asosida **172 ta** madaniyat markazi tashkil etilib, ularning asosiy vazifasi zamonaviy madaniy xizmatlarni rivojlantirish, aholining madaniy

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

ehtiyojlarini keng va sifatli qondirish, shuningdek, xususiy sektorning investitsiyaviy, boshqaruv va innovatsion imkoniyatlaridan samarali foydalanishdan iborat.

Madaniyat markazlarida hamkorlik mexanizmlarining kengaytirilishi ham ijobiy natija beradi. Mahalliy tadbirkorlar, ta'lim muassasalari, nodavlat tashkilotlar, turizm subyektlari, ijodkorlar uyushmalari va ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlik qilish yangi loyihalarni amalga oshirish uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratadi. Mazkur hamkorlikning amaliy natijalarini quyidagi yo'nalishlarda ko'rish mumkin. Jumladan;

Birinchidan, mahalliy tadbirkorlar bilan hamkorlik qilish orqali madaniy tadbirlarni tashkil etish uchun qo'shimcha resurs va imkoniyatlar jalb etiladi.

Ikkinchidan, ta'lim muassasalari bilan hamkorlik yoshlarni madaniy-ma'rifiy tadbirlarga kengroq jalb qilish, ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish va yangi iste'dodlarni aniqlash imkonini beradi.

Uchinchidan, turizm subyektlari bilan hamkorlik qilish madaniyat markazlarida tashkil etiladigan ko'rgazmalar, hunarmandchilik yarmarkalari, folklor va milliy san'at tadbirlarini sayyohlik yo'nalishlariga kiritish imkoniyatini kengaytiradi. Natijada hududning turistik jozibadorligi oshib, mahalliy hunarmandlar va ijodkorlar faoliyati uchun yangi imkoniyatlar yuzaga keladi.

To'rtinchidan, nodavlat tashkilotlar va ijodkorlar uyushmalari bilan hamkorlik yangi madaniy loyihalarni ishlab chiqish, ijodiy tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash va aholining turli qatlamlari uchun mo'ljallangan tadbirlarni tashkil etishga yordam beradi.

Beshinchidan, ommaviy axborot vositalari va raqamli media platformalari bilan hamkorlik madaniyat markazlarida amalga oshirilayotgan loyihalarni keng targ'ib qilish, yangi auditoriyani jalb etish va markazning jamoatchilikdagi nufuzini oshirish imkonini beradi.

Shu sababli, hamkorlik aloqalarining faqat tadbir o'tkazish bilan cheklanib qolmasdan, qo'shma loyihalar, ta'limiy dasturlar, turistik mahsulotlar va ijodiy tashabbuslarni amalga oshirishga yo'naltirilishi madaniyat markazlarining ijtimoiy va iqtisodiy samaradorligini oshiruvchi muhim omil hisoblanadi.

Madaniyat markazlari faoliyatida moliyaviy resurslarning cheklanganligi, moddiy-texnik bazaning yetarli darajada zamonaviy emasligi, malakali mutaxassislar tanqisligi hamda ayrim hududlarda auditoriya bilan ishlashning an'anaviy usullari saqlanib qolayotgani samaradorlikka salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shuningdek, kreativ sohada bozor mexanizmlarining to'liq shakllanmaganligi ijodiy mahsulotlarni tijoratlashtirish jarayonini murakkablashtiradi.

Mazkur muammolarni bartaraf etish uchun davlat ko'magini xususiy sektor tashabbuslari bilan uyg'unlashtirish, grant va investitsiya mexanizmlarini kengaytirish, ijodiy tadbirkorlikni rag'batlantirish hamda madaniyat muassasalarining mustaqil daromad manbalarini ko'paytirish lozim. Bundan tashqari, har bir hududning tarixiy, etnografik va madaniy xususiyatlaridan kelib chiqib, o'ziga xos kreativ loyihalarni ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

Umuman olganda, kreativ iqtisodiyot sharoitida madaniyat markazlari jamiyatning madaniy hayotini tashkil etuvchi muassasa sifatidagi an'anaviy vazifalaridan tashqari, hududiy iqtisodiy faollik va inson kapitalini rivojlantirishga xizmat qiluvchi muhim kreativ institutga aylanmoqda. Ularning samaradorligini oshirish auditoriya ehtiyojlarini chuqur o'rganish, innovatsion boshqaruv usullarini joriy etish, raqamli texnologiyalardan foydalanish, ijodiy tadbirkorlikni rivojlantirish va manfaatdor tomonlar bilan hamkorlikni kuchaytirishga bog'liq.

Madaniyat markazlarining faoliyati qanchalik zamonaviy, ochiq va innovatsion tashkil etilsa, aholining ijodiy salohiyatidan foydalanish imkoniyati shunchalik ortadi. Ayniqsa, yoshlarning kreativ loyihalarga jalb etilishi kelajakdagi intellektual va iqtisodiy taraqqiyot uchun muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Shu bois madaniyat markazlarini kreativ iqtisodiyotning mahalliy ekotizimidagi faol subyekt sifatida rivojlantirish nafaqat madaniy siyosat, balki hududiy ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning ham ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaralishi lozim.

ADABIYOTLAR RO'YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Madaniyat va san'at sohasida boshqaruv tizimini takomillashtirish hamda xususiy sektor ishtirokini rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2026-yil 21-apreldagi PQ-150-son qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Madaniyat markazlari faoliyatini transformatsiya qilish va boshqaruvning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2026-yil 2-iyuldagi 363-sonli qarori.
3. Горда О. С. Креативная экономика: теоретические основы и особенности функционирования в условиях становления новой экономики // Ученые записки Крымского федерального университета имени ВИ Вернадского. Экономика и управление. – 2023. – Т. 9. – №. 2. – С. 24-37.
4. Xolmo'minov M. Z. Milliy madaniyat – renessans poydevori [Matn]: monografiya. – Toshkent: "Donishmand ziyosi", 2024. – 116 b.

© intereduglobalstudy.com

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

Б. М. МУРТАЗАЕВ И ЕГО ВКЛАД В РАЗВИТИЕ САКСОФОННОГО ИСПОЛНИТЕЛЬСКОГО ИСКУССТВА В УЗБЕКИСТАНЕ.

Мухитдинов Мурат Пирматович, доцент, государственная консерватория Узбекистана.

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: саксофон занимает важное место в современной академической и джазовой музыке. Развитие саксофонного искусства в Узбекистане связано с деятельностью профессиональных исполнителей и педагогов, среди которых особое место занимает Бахадир Мухторович Муртазаев.

ЦЕЛЬ: изучить творческую, педагогическую и исполнительскую деятельность Б. М. Муртазаева и определить его вклад в развитие саксофонного искусства Узбекистана.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: использованы архивные материалы, отчёты, научно-методические работы и учебные пособия Б. М. Муртазаева. В исследовании применены исторический, биографический и аналитический методы.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: установлено, что деятельность Б. М. Муртазаева объединяет педагогическую, исполнительскую и научно-методическую работу. Значительный вклад внесён им в подготовку саксофонистов и кларнетистов, развитие квартетного исполнительства и создание оркестра Big Band.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: Б. М. Муртазаев сыграл важную роль в развитии саксофонного исполнительства и музыкального образования Узбекистана. Его педагогическая, исполнительская и методическая деятельность способствовала формированию профессиональных традиций национальной школы саксофонного искусства.

Ключевые слова: Саксофон, Бахадир Муртазаев, исполнительство, музыкальная педагогика, джаз, Big Band, Узбекистан.

B. M. MURTAZAYEV VA UNING O‘ZBEKISTONDA SAKSOFON IJROCHILIK SAN’ATINING RIVOJLANISHIGA QO‘SHGAN HISSASI.

Muxitdinov Murat Pirmatovich, O‘zbekiston Davlat konservatoriyasi, dotsent.

Annotatsiya.

KIRISH: saksofon zamonaviy akademik va jaz musiqasida muhim o‘rin tutadi. O‘zbekistonda saksofon ijrochilik san’atining rivojlanishi professional ijrochilar va pedagoglar faoliyati bilan bog‘liq bo‘lib, ular orasida Bahodir Muxtorovich Murtazayev alohida o‘rin egallaydi.

MAQSAD: B.M. Murtazayevning ijodiy, pedagogik va ijrochilik faoliyatini o‘rganish hamda uning O‘zbekistonda saksofon san’ati rivojiga qo‘shgan hissasini aniqlash.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda arxiv materiallari, hisobotlar, ilmiy-uslubiy ishlar va B. M. Murtazayevning o‘quv qo‘llanmalaridan foydalanildi. Tarixiy, biografik va tahliliy metodlar qo‘llanildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: B.M. Murtazayev faoliyati pedagogik, ijrochilik va ilmiy-uslubiy yo‘nalishlarni birlashtirishi aniqlandi. U saksofon va klarnet ijrochilarini tayyorlash, kvartet ijrochiligini rivojlantirish hamda Big Band orkestrini tashkil etishga katta hissa qo‘shgan.

XULOSA: B.M. Murtazayev O‘zbekistonda saksofon ijrochiligi va musiqa ta’limining rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. Uning faoliyati milliy saksofon ijrochilik maktabining professional an’analarini shakllantirishga xizmat qilgan.

Kalit so‘zlar: Saksofon, Bahodir Murtazayev, ijrochilik, musiqa pedagogikasi, jaz, Big Band, O‘zbekiston.

B. M. MURTAZAYEV AND HIS CONTRIBUTION TO THE DEVELOPMENT OF SAXOPHONE PERFORMANCE ART IN UZBEKISTAN.

Mukhitdinov Murat Pirmatovich, Associate Professor of the State Conservatory of Uzbekistan.

Annotation

INTRODUCTION: the saxophone occupies an important place in contemporary academic and jazz music. The development of saxophone performance in Uzbekistan is closely connected with professional performers and educators, among whom Bahodir Mukhtorovich Murtazaev holds a special position.

AIM: to examine the creative, pedagogical, and performing activities of B. M. Murtazaev and determine his contribution to the development of saxophone art in Uzbekistan.

MATERIALS AND METHODS: the study is based on archival materials, reports, scientific and methodological works, and educational manuals by B. M. Murtazaev. Historical, biographical, and analytical methods were applied.

DISCUSSION AND RESULTS: the study revealed that B. M. Murtazaev’s activities combined pedagogical, performing, and scientific-methodological work. He made a significant contribution to training saxophone and clarinet performers, developing quartet performance, and establishing the Big Band orchestra.

CONCLUSION: B. M. Murtazaev played an important role in the development of saxophone performance and music education in Uzbekistan. His pedagogical, performing, and methodological activities contributed to the formation of professional traditions of the national saxophone school.

Keywords: saxophone, Bahodir Murtazaev, performance, music pedagogy, jazz, Big Band, Uzbekistan.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

История развития музыкального искусства свидетельствует о том, что каждый исторический период формирует собственные художественные потребности и способствует появлению новых музыкальных инструментов. Одним из таких инструментов, занявших особое место в мировой музыкальной культуре, является саксофон. Обладая ярким и выразительным тембром, широкими техническими и художественными возможностями, саксофон получил распространение как в академической, так и в эстрадно-джазовой музыкальной практике.

Несмотря на сравнительно молодой возраст по отношению ко многим классическим музыкальным инструментам, саксофон сумел пройти сложный путь становления и приобрести широкое международное признание. Сегодня он является неотъемлемой частью камерных, симфонических, духовых и эстрадно-джазовых коллективов. Значительное место инструмент занимает и в современном музыкальном искусстве Узбекистана.

Развитие исполнительства на саксофоне в Узбекистане связано не только с процессом внедрения инструмента в образовательную и концертную практику, но и с деятельностью отдельных музыкантов-педагогов, посвятивших свою творческую жизнь формированию профессиональной исполнительской школы. Особое место среди них занимает Бахадир Мухторович Муртазаев — педагог, исполнитель, солист, руководитель музыкальных коллективов и организатор концертной деятельности.

Изучение его творческого пути представляет особый интерес в контексте исследования процессов становления и развития саксофонного исполнительского искусства в Узбекистане.

Саксофон является одним из наиболее ярких и своеобразных представителей семейства духовых музыкальных инструментов. Его создание связано с именем выдающегося бельгийского мастера и изобретателя Антуана Жозефа Сакса, более известного в мировой музыкальной культуре под именем Адольф Сакс.

Будущий изобретатель вырос в семье мастера, занимавшегося изготовлением и совершенствованием музыкальных инструментов. С раннего возраста он проявлял интерес к вопросам устройства духовых инструментов, акустики и исполнительских возможностей различных инструментальных групп. Впоследствии эти знания стали основой его многолетних экспериментов.

Одной из главных задач Адольфа Сакса стало создание нового инструмента, который мог бы объединить выразительные качества деревянных духовых инструментов с мощностью и тембровой насыщенностью медных духовых. В результате многочисленных экспериментов был создан инструмент, сочетающий в себе особенности различных духовых инструментов и получивший название саксофон.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

Конструктивно саксофон представляет собой инструмент с металлическим корпусом, однако звук извлекается при помощи одинарной трости, что сближает его с семейством деревянных духовых инструментов. Именно это своеобразное сочетание конструктивных и акустических особенностей определило уникальность его тембра.

Саксофон обладает широкими выразительными возможностями. Его звучание отличается насыщенностью, мягкостью, силой и особой эмоциональной окраской. Благодаря гибкости звукоизвлечения на саксофоне возможно использование разнообразных исполнительских приёмов, динамических оттенков и мелодических украшений.

Постепенно инструмент получил признание среди музыкантов и композиторов. Первоначально саксофон развивался преимущественно в европейской исполнительской среде, однако впоследствии получил широкое распространение в различных странах мира.

Особенно значительную роль саксофон приобрёл в XX столетии, когда стал одним из центральных инструментов джазового искусства. Его тембровые возможности оказались особенно востребованными в условиях развития импровизационного исполнительства, эстрадной музыки и джазовых оркестров. В дальнейшем саксофон прочно вошёл также в академическое музыкальное исполнительство.

Таким образом, историческое развитие саксофона представляет собой процесс постепенного расширения его художественных и исполнительских функций.

От первоначального использования в духовых оркестрах инструмент прошёл путь до признания в качестве самостоятельного сольного, ансамблевого и оркестрового инструмента.

Саксофон в системе современного музыкального образования

Распространение саксофона способствовало формированию специализированной системы профессиональной подготовки исполнителей. В различных странах начали создаваться исполнительские школы, разрабатываться методические пособия и учебные программы.

Особое значение в развитии профессионального саксофонного исполнительства имеет деятельность педагогов, которые не только передают технические навыки игры на инструменте, но и формируют художественное мышление будущих музыкантов.

Исполнитель на саксофоне должен обладать целым комплексом профессиональных качеств. Среди них важное место занимают владение техникой дыхания, артикуляцией, динамикой, тембровой выразительностью и различными способами звукоизвлечения. Кроме того, современный саксофонист должен быть подготовлен к различным видам исполнительской деятельности — сольной, ансамблевой, оркестровой и эстрадно-джазовой.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

В связи с этим особую актуальность приобретает деятельность педагогов-исполнителей, которые соединяют собственный концертный опыт с преподавательской практикой. Именно к числу таких музыкантов относится Бахадир Мухторович Муртазаев.

Педагогическая деятельность Бахадира Мухторовича Муртазаева в Государственной консерватории Узбекистана началась в 1969 году. На протяжении многих десятилетий его профессиональная деятельность была связана с подготовкой исполнителей на кларнете и саксофоне.

Многолетняя педагогическая практика позволила музыканту сформировать значительный опыт в области преподавания духовых инструментов. В разные годы Б. М. Муртазаев вёл занятия по специальности «саксофон и кларнет», преподавал дисциплины, связанные с ансамблевым исполнительством, исполнительской практикой, педагогической деятельностью, методикой исполнения на инструментах эстрадного оркестра и ознакомлением с родственными инструментами.

В 1993 году Б. М. Муртазаеву было присвоено учёное звание доцента. Его дальнейшая деятельность была связана не только с преподаванием, но и с развитием эстрадного исполнительского искусства.

С 1998 года музыкант начал работать на факультете эстрадного исполнительского искусства. Этот этап стал особенно важным в его творческой биографии, поскольку именно в этот период значительно активизировалась его деятельность в области джазового и эстрадного исполнительства.

За годы педагогической работы Б. М. Муртазаев подготовил целый ряд профессиональных исполнителей. Среди его учеников — музыканты, продолжившие свою деятельность в качестве исполнителей и преподавателей в различных городах и регионах Узбекистана.

Особое место занимает деятельность его учеников, достигших значительных профессиональных результатов. Так, Искандар Муртазаев на протяжении пяти лет получал стипендию для студентов-отличников, а впоследствии был удостоен Президентской стипендии. Он также стал лауреатом Международного музыкального конкурса «Янги номлар».

Среди учеников Б. М. Муртазаева имеются магистры, аспиранты, преподаватели и профессиональные исполнители. Одним из них является Батыр Матекубов — кандидат наук, доцент Государственной консерватории Узбекистана.

Таким образом, педагогическая деятельность Б. М. Муртазаева имеет важное значение не только в рамках его личной профессиональной биографии, но и в процессе формирования преемственности поколений исполнителей на духовых инструментах.

Неотъемлемой частью творческой биографии Бахадира Муртазаева является активная концертно-исполнительская деятельность.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

На протяжении многих лет музыкант принимал участие в различных концертных программах, фестивалях и музыкальных проектах. Его исполнительская деятельность охватывала различные жанровые направления — академическую камерную музыку, ансамблевое исполнительство, музыку для духовых инструментов и джаз.

В 1993 году он принимал участие в концертах ансамблевой музыки и программах, посвящённых произведениям узбекских композиторов. В последующие годы активно выступал в концертах камерной музыки, программах для духовых инструментов и творческих вечерах композиторов.

Особое место в его исполнительской деятельности занимает камерное музицирование. В 1996 году состоялся концерт камерной музыки, в котором Б. М. Муртазаев выступил в составе ансамбля вместе с пианистом В. И. Налбандяном, виолончелистом А. Х. Мансыревым и контрабасистом И. Сулеймановым.

Значительным направлением его деятельности стало развитие ансамблевого исполнительства на саксофоне. Концерты квартета саксофонистов регулярно проводились в Большом зале консерватории. В 1996 году коллектив принял участие в Международном фестивале во Франции.

Участие в международных музыкальных мероприятиях свидетельствует о расширении творческих связей отечественных исполнителей и включении саксофонного искусства Узбекистана в международный культурный процесс.

В 1998 году Б. М. Муртазаев также принимал участие в Международном фестивале симфонической музыки, проходившем в Ташкенте. В этот период его концертная деятельность становится особенно интенсивной.

Одним из наиболее значительных направлений деятельности Бахадира Муртазаева стала организация и развитие оркестра Big Band.

С началом работы на факультете эстрадного исполнительского искусства в 1998 году им был создан джазовый оркестр Big Band. На протяжении семи лет коллектив осуществлял активную концертную деятельность. За этот период было проведено 36 концертных программ.

Особенностью творческой деятельности Б. М. Муртазаева являлось сочетание нескольких профессиональных функций. В рамках концертных программ он выступал не только как организатор и руководитель оркестра, но и как дирижёр и солист.

Под руководством музыканта оркестр Big Band принимал участие в многочисленных концертах и фестивалях. Среди них — программы «Классика и джаз», концерты, посвящённые празднику Навруз, юбилейные мероприятия, фестивали джазовой музыки и концертные программы с участием известных исполнителей Узбекистана.

Особое значение имели концерты, проведённые совместно с выдающимися представителями отечественного музыкального искусства. В частности, оркестр Big

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

Band участвовал в концертных программах с Народным артистом Узбекистана Мансуром Ташматовым, Заслуженным артистом Узбекистана Юнусом Тураевым и другими исполнителями.

Большое внимание уделялось также развитию молодёжного музыкального исполнительства. В концертных программах принимали участие студенты консерватории, молодые вокалисты и инструменталисты.

Таким образом, деятельность Big Band под руководством Б. М. Муртазаева способствовала развитию джазовой исполнительской культуры, популяризации эстрадной музыки и формированию профессионального опыта молодых музыкантов.

Важное место в профессиональной деятельности Бахадира Муртазаева занимает научно-методическая работа.

На протяжении многих лет он занимался вопросами совершенствования системы обучения исполнителей на духовых инструментах. Его исследования и методические разработки были направлены на развитие профессионального музыкального образования.

В 1993 году были подготовлены работы, посвящённые вопросам музыкальной педагогики и исполнительства. Особое внимание уделялось проблемам совершенствования процесса обучения исполнителей на духовых инструментах.

Среди методических работ Б. М. Муртазаева следует отметить учебное пособие «Мелодии кларнета», а также материалы, связанные с преподаванием педагогической практики.

В последующие годы продолжалась работа над созданием учебно-методических пособий для студентов музыкальных учебных заведений.

Особое значение для развития саксофонного образования имеет работа над учебными пособиями «Голос саксофона» и «Прогрессивная школа игры на саксофоне».

Учебник «Голос саксофона», изданный на узбекском языке, представляет особую ценность для формирования национальной системы подготовки исполнителей. Создание учебной литературы на родном языке способствует расширению возможностей профессионального музыкального образования и развитию национальной исполнительской школы.

В 2003 году была опубликована статья, посвящённая истории саксофона. Кроме того, Б. М. Муртазаев публиковал материалы, посвящённые вопросам музыкального искусства, истории инструментального исполнительства и развитию эстрадно-джазовой культуры.

Таким образом, его деятельность не ограничивалась только исполнительской и педагогической практикой. Значительное место в профессиональной биографии музыканта занимает создание методической базы для подготовки будущих исполнителей.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

Профессиональная деятельность Бахадира Муртазаева также была связана с активной общественной работой.

На протяжении многих лет он являлся куратором студенческих групп и осуществлял воспитательную работу со студентами. Особое внимание уделялось вопросам дисциплины, профессионального развития и формирования творческой ответственности будущих музыкантов.

Б. М. Муртазаев принимал участие в работе государственных экзаменационных комиссий музыкальных учебных заведений различных регионов Узбекистана. На протяжении многих лет он выступал в качестве председателя государственных экзаменационных комиссий.

Музыкант также принимал участие в работе жюри различных исполнительских конкурсов. В 1999 году он был членом жюри Республиканского конкурса исполнителей на духовых инструментах. В 2005 году принимал участие в работе жюри конкурса эстрадных певцов и исполнителей, проходившего в городе Карши.

Его участие в международных фестивалях и конкурсах также способствовало развитию профессиональных связей и обмену исполнительским опытом.

Анализ многолетней деятельности Б. М. Муртазаева позволяет определить несколько основных направлений его вклада в развитие музыкального искусства Узбекистана.

Прежде всего, он является представителем поколения музыкантов, деятельность которых была направлена на формирование профессиональной системы подготовки исполнителей на саксофоне и других духовых инструментах.

Вторым важным направлением является развитие ансамблевого исполнительства. Создание и деятельность квартета саксофонистов способствовали популяризации камерного репертуара для данного инструмента.

Особое значение имеет организация оркестра Big Band. Этот коллектив стал важной площадкой для развития эстрадно-джазового исполнительства, профессиональной подготовки молодых музыкантов и популяризации джазовой культуры.

Не менее важным является вклад Б. М. Муртазаева в создание учебно-методической литературы. Его пособия и учебные программы способствовали систематизации педагогического опыта и развитию профессионального образования в области исполнительства на саксофоне.

Следовательно, деятельность Бахадира Мухторовича Муртазаева носит комплексный характер. В ней органично соединяются исполнительская практика, педагогическая деятельность, научно-методическая работа и организационная деятельность.

Именно такое сочетание различных направлений профессиональной работы позволяет рассматривать его как одну из значимых фигур в развитии саксофонного и эстрадно-джазового исполнительского искусства Узбекистана.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

История саксофона представляет собой яркий пример того, каким образом сравнительно молодой музыкальный инструмент способен занять важное место в мировой музыкальной культуре. Благодаря своим богатым тембровым и техническим возможностям саксофон получил широкое распространение в академическом, камерном, оркестровом и джазовом исполнительстве.

Развитие саксофонного искусства в каждой национальной музыкальной культуре связано с деятельностью исполнителей и педагогов, формирующих профессиональные традиции и передающих свой опыт новым поколениям музыкантов.

В этом контексте особого внимания заслуживает многолетняя деятельность Бахадира Мухторовича Муртазаева. Его творческий путь объединяет педагогическую работу, концертное исполнительство, участие в международных фестивалях, организацию ансамблей и оркестров, создание учебно-методических пособий и подготовку молодых специалистов.

Особенно значительным является его вклад в развитие профессионального образования исполнителей на саксофоне и кларнете, а также в популяризацию ансамблевого и эстрадно-джазового исполнительства.

Деятельность Б. М. Муртазаева демонстрирует важность личности музыканта-педагога в процессе формирования национальной исполнительской школы. Его профессиональный опыт и многолетняя работа способствовали развитию саксофонного искусства, подготовке новых поколений исполнителей и расширению музыкально-культурного пространства Узбекистана.

Изучение творческого наследия таких музыкантов имеет важное значение для современной музыкальной науки, поскольку позволяет более полно осмыслить процессы становления профессионального инструментального исполнительства в Узбекистане и определить роль отдельных личностей в развитии национальной музыкальной культуры.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Иванов В. Д. Школа академической игры на саксофоне. — М. : Музыка, 2003.
2. Михайлов Л. Н. Школа игры на саксофоне. — М. : Музыка, 1975.
3. Ривчун А. Б. Школа игры на саксофоне. В 2-х частях. — М. : Советский композитор, 1964–1972.
4. Муртазаев Б. М. Голос саксофона : учебник [на узб. яз.].
5. Муртазаев Б. М. Прогрессивная школа игры на саксофоне : учебное пособие.
6. Londeix J.-M. Méthode d'enseignement du saxophone (Методика преподавания саксофона). — Paris: Éditions Lemoine.

© intereduglobalstudy.com

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

O‘ZBEK SAN’ATIDA MILLIY QAHRAMON TALQINI.

Kamola Abzalova, O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti, “San’atshunoslik va madaniyatshunoslik” kafedrasi o‘qituvchisi.

Annotatsiya

KIRISH: maqolada o‘zbek san’atida milliy qahramonlar obrazini sahnaga olib chiqish, ularning jamiyatdagi ahamiyati va milliy qahramonlar talqinining zamonaviy yoshlar tarbiyasidagi muhim o‘rni alohida ta’kidlanib, san’at orqali milliy o‘zlikni anglash va yuksak maqsadlarga erishishga undash borasidagi tavsiyalar beriladi.

MAQSAD: o‘zbek san’ati va dramaturgiyasida milliy qahramonlar obrazining shakllanish va rivojlanish bosqichlarini tahlil qilish, ularning jamiyatdagi hamda zamonaviy yoshlar tarbiyasidagi o‘rnini ko‘rsatib berishdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda tarixiy-qiyosiy, san’atshunoslik va dramaturgik tahlil usullaridan foydalanildi. Ishda Firdavsiyning «Shohnoma» epopeyasi, Alisher Navoiy asarlaridagi Farhod obrazi, shuningdek, XX asr va mustaqillik davri dramaturgiyasiga mansub «Muqanna», «Jaloliddin Manguberdi», «Alisher Navoiy», «Mirzo Ulug‘bek», «Qora kamar» hamda Amir Temur va qatag‘on qurbonlariga bag‘ishlangan sahna asarlari o‘rganildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: dramaturgiya, rejissura va aktyorlik mahorati mushtarakligida yaratilgan haqqoniy milliy qahramonlar obrazlari yoshlarda milliylikni anglash va vatanparvarlik tuyg‘ularini toblashi asoslandi. Mustaqillik yillarida yaratilgan ba’zi sahna asarlarida kuzatilgan yutuqlar bilan birga, rejissura va aktyorlar ijrosidagi ayrim yuza yondashuvlar tahlil qilindi.

XULOSA: milliy qahramonlarni sahnada va ekranda haqqoniy, chuqur va ta’sirchan talqin etish tomoshabinlarga o‘zligini anglatish hamda yosh avlodni yuksak maqsadlar sari undashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar milliy qahramon, san’at, texnika, ma’naviyat, madaniy meros, dramturgiya, teatr, tragediya.

ИНТЕРПРЕТАЦИЯ НАЦИОНАЛЬНОГО ГЕРОЯ В УЗБЕКСКОМ ИСКУССТВЕ.

Камола Абзалова, преподаватель кафедры «Искусствоведение и культурология» Государственного института искусств и культуры Узбекистана.
Inglizcha tarjimasi.

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в статье подчеркивается важность изображения национальных героев в узбекском искусстве, их значимость в обществе и роль интерпретации национальных героев в воспитании современной молодежи. Также даются рекомендации о том, как через искусство осознавать национальную идентичность и стремиться к высоким целям.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

ЦЕЛЬ: проанализировать этапы становления и развития образа национального героя в узбекском искусстве и драматургии, а также определить его значение в современном обществе и воспитании подрастающего поколения.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании использованы методы историко-сравнительного, искусствоведческого и драматургического анализа. Изучены эпос «Шахнаме» Фирдоуси, образ Фархада в наследии Навои, а также исторические спектакли XX века и периода независимости («Муканна», «Джалалиддин Мангуберди», «Алишер Навои», «Мирзо Улугбек», «Черный пояс», произведения об Амире Темуре и жертвах репрессий).

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: доказано, что убедительное воплощение национальных героев на сцене через синтез драматургии, режиссуры и актерского мастерства способствует укреплению национальной идентичности и патриотизма. Наряду с достижениями театрального искусства периода независимости, проанализированы и отдельные недостатки в режиссерской и актерской интерпретации сложных исторических личностей.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: Достоверное и глубокое сценическое воплощение национальных героев является важнейшим фактором сохранения культурного наследия, осознания национального самосознания и вдохновения молодежи на достижение высоких целей.

Ключевые слова: национальный герой, искусство, техника, духовность, культурное наследие, драматургия, театр, трагедия.

INTERPRETATION OF THE NATIONAL HERO IN UZBEK ART.

Kamola Abzalova, Lecturer at the Department of Art History and Cultural Studies, State Institute of Arts and Culture of Uzbekistan.

Annotation

INTRODUCTION: the article emphasizes the importance of depicting national heroes in Uzbek art, their significance in society, and the role of interpreting national heroes in the education of modern youth. It also provides recommendations on how to understand national identity and strive for high goals through art.

AIM: to analyze the formation and evolution of national hero depictions in Uzbek art and drama, highlighting their societal significance and educational impact on modern youth.

MATERIALS AND METHODS: the study employs historical-comparative, art-historical, and dramaturgical analysis techniques. It examines literary and theatrical works including Ferdowsi's "Shahnameh," the character of Farhad in Navoi's works, and key 20th-century and post-independence historical plays ("Muqanna," "Jalal ad-Din Manguberdi," "Alisher Navoiy," "Mirzo Ulugh Beg," "Black Belt," and productions dedicated to Amir Timur and victims of political repressions).

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

DISCUSSION AND RESULTS: the study demonstrates that authentic portrayals of national heroes—achieved through the synergy of playwriting, directing, and acting—foster national identity and patriotic consciousness. While evaluating post-independence theatrical achievements, the paper also addresses stylistic and performance shortcomings in representing complex historical figures.

CONCLUSION: authentic and deeply resonant theatrical depictions of national heroes serve as an essential catalyst for reinforcing cultural identity and inspiring younger generations toward noble goals.

Keywords: national hero, art, technology, spirituality, cultural heritage, drama, theater, tragedy.

Bugun dunyoga bir nigoh ila qarasangiz, turli darchadan sizga ming xil texnik vositalar ko‘z tikadi. Siz bilan suhbatlashadi. Siz bilan o‘rtoqlashadi. XXI asr tom ma’noda “texnika” asriga aylanib bormoqda. Texnika hatto atak-chechak qilayotgan bolaning ko‘zlariga singmoqda. Onasining kichik bir matoqni jon-qulog‘iga tutib, uzoq suhbat qilishi, murg‘ak bola ongida qiziqish uyg‘otadi. Qiziqishlar tobora o‘sha “mehr o‘g‘risi”ga aylangan matoq sari chorlaydi. Oldin ermakka, keyin o‘yinchoqqa, ulg‘aygan sayin esa “do‘stga” aylangan bu “ajabtovur” narsaning ta’siri ortib boradi.

O‘zbek san’atida milliy qahramon obrazining shakllanishi va evolyutsiyasi xalqning ko‘p asrlik tarixi, madaniy merosi, dunyoqarashi hamda milliy va ma’naviy tiklanish g‘oyalari bilan uzviy bog‘liqdir. Har bir davr san’atshunosligi o‘z davrining ideallari, ijtimoiy-siyosiy shart-sharoitlari va madaniy ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda milliy qahramon tushunchasiga o‘zgacha badiiy yondashgan. Bugungi zamonaviy san’atshunoslikda ushbu mavzuni teran anglash va maqolaning nazriy poydevorini puxta qurish uchun bir qancha muhim tayanch tushunchalarni o‘zaro mantiqiy zanjirda tahlil qilish talab etiladi.

Ayniqsa, o‘zbek san’atida qahramonlik konsepsiyasini tadqiq etishda eng avvalo sotsiokulturniy kontekst va varislik tamoyillariga alohida e’tibor qaratmoq lozim. Chunki har bir davrning ijtimoiy-siyosiy va madaniyat muhiti qahramonlik tushunchasining mazmuni va shaklini belgilab beradi. Afsonaviy-folklor davrida xalq orzu-umidlarini ifodalagan Alpomish yoki Rustam kabi bahodirlar yetakchi o‘rinda turgan bo‘lsa, keyingi bosqichlarda, ya’ni sovet mafkurasi hukmronligi davrida milliy qahramonlar ma’lum darajada belgilangan sinfiy va g‘oyaviy qoliplar doirasida talqin etildi. Mustaqillik davriga kelib esa xolis va tarixiy haqiqatga tayanuvchi yangicha sotsiokulturniy muhit shakllandi. Bu davrda milliy qahramonlik konsepsiyasi tubdan yangilanib, Vatan ozodligi yo‘lida kurashgan shaxslar va ma’rifatparvarlar qiyofasida o‘zining haqiqiy milliy varisligini namoyon qildi. Tarixiy an’analarning davomiyligi va ma’naviy ildizlarga qaytish jarayoni o‘zbek san’atining turli jabhalarida yorqin aks eta boshladi.

Ushbu uzviy rivojlanish jarayonida san’atkor aniq bir tarixiy hujjat, fakt yoki hayotiy voqeani badiiy umumlashtirish qonuniyatlari asosida qayta ishlaydi. Badiiy umumlashtirish

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

— bu shunchaki tarixiy ma’lumotlarni san’atga ko‘chirish emas, balki quruq faktlarga emotsional va falsafiy ma’no bag‘ishlash, ko‘plab xarakterlar hamda voqealarni bitta mukammal timsol atrofida biriktirish demakdir. Natijada oddiy tarixiy shaxs yoki voqea umuminsoniy va milliy qadriyatlar darajasiga ko‘tarilgan, xalqning ma’naviy kuchi hamda irodasini o‘zida mujassam etgan yuksak badiiy asarga va ta’sirchan obrazga aylanadi.

San’at asarida yaratilgan qahramonning hayotiyligi va tomoshabin yoki kitobxon qalbida chuqur iz qoldirishi bevosita xarakter psixologizmi bilan bog‘liqdir. Zamonaviy o‘zbek san’atida qahramon endi bir yoqlama, faqat jismoniy kucha-qudratga ega bo‘lgan sxematik obro‘ emas, balki murakkab ruhiy dunyoga ega shaxs sifatida namoyon bo‘ladi. Xarakter psixologizmi qahramonning ichki kechinmalari, ikkilanishlari, Vatan hamda shaxsiy manfaatlar o‘rtasidagi ruhiy toqnashuvlari va ma’naviy tanlov jarayonini har tomonlama ochib berishga xizmat qiladi. Qahramonning ruhiy iztiroblari va ichki g‘alabalari qanchalik teran ifodalansa, uning jasorati ham shunchalik ishonsarli va qadrli tuyuladi.

Ushbu murakkab ruhiy jarayonlar ijodkorning individual mahorati va uslubini aks ettiruvchi badiiy talqin va estetika vositasida yuzaga chiqadi. Tasviriy san’atda kompozitsiya va ranglar uyg‘unligi, teatrda monolog va aktyorlik mahorati, kinoda tasvir rakursi va montaj usullari, musiqada esa ohang va pafos orqali qahramonning estetika jihatdan ulug‘vor va go‘zal qiyofasi yaratiladi. Har bir san’atkor milliy qahramonni o‘zining badiiy nigohi va estetik mezonlari doirasida turlicha va takrorlanmas tarzda talqin etadi.

Ushbu barcha omillar va badiiy bosqichlar yig‘indisi yakuniy natijada jamiyat ma’naviyatini boyitishga hamda xalqning milliy o‘zligini anglash jarayonini jadallashtirishga xizmat qiladi. Yaratilgan yorqin va mukammal milliy qahramon obrazi jamiyatda vatanparvarlik, or-nomus va fidoyilik kabi oliyjanob tuyg‘ularni shakllantiradi. Tomoshabin san’at asaridagi qahramon qiyofasida o‘zining shonli o‘tmishini, milliy ildizlarini va kelajak oldidagi mas’uliyatini his etadi, bu esa o‘z navbatida xalqning ma’naviy poydevorini yanada mustahkamlaydi.

Onasi alla aytgandamas, o‘sha telefondan biron bir “qo‘shiq”ni eshitsagina uyquga ketadi. Undagi g‘aroyib tasvirlarga ilk bora jilmayadi. Yoshligidan bunga ko‘nikkan bola, ulg‘aygach internetga jon tomiri bilan bog‘lanadi. Bu tarz bolaning zamonaviy talab doirasidagi imkoniyatlarini oshirishi mumkin, lekin shuni unitmaslik kerakki, insoniyatning yashin tezligida o‘zgarib borayotgan ongu tafakkurida muqaddas qadriyatlar, umuminsoniy tuyg‘ularga o‘rin yo‘q ekan, tanazzul ko‘chalarida adashishi e’timol. Buni ko‘plab mardumlar qismatida, hatto butun boshli mamlakatlar misolida ko‘rmoqdamiz, kuzatmoqdamiz. O‘z o‘tmishi, uzoq tarixini bilmagan, o‘tmishidan mosuvo elatlar ham yo‘q emas.

Shukurlar bo‘lsinki, biz o‘z tariximiz, o‘z o‘tmishimiz bilan o‘zligimizni anglay bilgan avlodmiz. Kelajak avlodga o‘zining ulkanmoddiy va ma’naviy merosi hamda boy tarixi bilan dunyo sivilizatsiyasiga benihoya hissa qo‘shgan buyuk ajdodlarimizga qondoshmiz. Biz bugun ajdodlarimizning o‘gitlari asosida ish tutmoqdamiz. Biron bir jamiyat ma’naviy imkoniyatlarini, odamlar ongida ma’naviy va ahloqiy qadriyatlarini rivojlantirmay hamda

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

mustahkamlamay turib, o‘z istiqbolini tasavvur eta olmaydi. Zero, o‘z qahramonlari, milliy qadriyatlarini bilmagan xalq o‘zligini ham bilmaydi.

Shu o‘rinda haqli bir savol: Katta imkoniyatlarga ega bo‘lgan boy tariximizni, yetuk shaxslarimizni biz yoshlar qanchalik bilamiz va anglaymiz? Ularning kurashga to‘la hayot yo‘li, o‘rgangan ilm va tajribalari, bizga qoldirgan keng merosi bilan bugungi kun, XXI asr o‘zbek yoshlari qanchalik tanish va unda san’atning o‘rni qanday?

Bugungi kunda o‘rta maxsus va oliy ta’lim dargohlari darsliklarida millatimiz uchun, uning ravnaqi va taraqqiyoti uchun hissa qo‘shgan milliy qahramonlarimiz haqida ma’lumotlar, ijodiy portretlar juda ko‘p. Lekin yoshlar ulg‘aygan sayin texnik imkoniyatlarning (telefon, kompyuter va internet) asri bo‘lib, ko‘rinmas ruhiyat tarbiyasi chetda qolmoqda. Shuni aytib o‘tish kerakki, yoshlar ma’naviyatiga ijobiy hislatar ta’sir qilish jihatidan san’at turlariga teng keladigan boshqa bir narsani keltirish qiyin. Chunki san’at ko‘ngil duradgori, qalbning sirli murabiyyi, tuyg‘ular onasidir.

Qadim-qadimdan o‘quvchilarni qiziqtirish va ularning turli orzu-maqsadlarini mushtarak etadigan va ma’lum bir tizimga birlashtiradigan kuch va g‘oyalarni targ‘ib qilishda milliy qahramonlarimiz talqinidan, xalq og‘zaki ijodidan, adabiyotda aks etgan o‘rinlaridan foydalanib kelingan. Ilk adabiy na’munlar bo‘lmish, Eron va Turon tarixiga bag‘ishlangan mashhur Firdavsiyning “Shohnoma” epopiyasida ham ko‘plab Fors va Turon yurtining qahramonlari haqida so‘z boradi. Firdafsiyning bu asari tufayli milliy qahramonlarimiz: Rustam, Afrosiyob kabi yurtimiz tamadduniga hissa qo‘shgan buyuk shaxslar bilan tanishish, nafaqat tanishish balki ularning hayot yo‘llari, ular haqidagi turli qarashlar, afsonalarni o‘qish va o‘quvchi qalbida ularga nisbatan hurmat va e’zoz tuyg‘ulari mavjlanishiga sababchi bo‘lib kelmoqda.

Chiziqlar bilan chegaralab bo‘lmaydigan birodar xalqlarning o‘z qahramonlari hech bir qo‘shni xalqqa begona bo‘lib tuyilmagan. Aksincha, hozirgi kunda ularning ko‘pchiligi turli millatlarning o‘z qahramonlariga aylangan.

Hamsachilik an’analariga ko‘ra dunyo adabiyotiga Farhod, Iskandar Zulqarnayin, ishq kurashida nafsdan g‘olib kelgan, xudbinlik va shuhratparastlikdan vos kechgan Majnun obrazlari yaratilgan bo‘lib, bu qahramonlarning obrazlari talqiniga yorqin misol bo‘lib xizmat qiladi. Nizomiy Ganjaviydan boshlangan bu an’ana, Hisrav Dehlaviy, Hazrat Navoiy tomonidan davom ettirilgan va takomillashtirilgan. Alisher Navoiy yaratgan Farhod obrazidagi insoniylik, burch, mardlik sifatlariga egaligi, o‘lmas muhabbati uchun kurash yo‘lida jon berishi ushbu obrazning betakror ekanligidan dalolat. Tog‘ni talqon qilib, elni obi-hayot bilan ta’minlash, xalqning mushkulini oson qilishdek savobli ishga bel bog‘lagan xaqiqiy o‘zbek o‘g‘loni elning qalbidan joy olib, “Farhodi doston” sifatida tarix zarvaraqlariga muxrlangan. Har bir davrning farzandi bu kabi oliyjanob, mard va sadoqatli muhabbat sohibiga intilishni buyuk sharaf deb bilgan.

Azal-azaldan milliy qahramonlar so‘z san’atimizda, durdona folklor na’munlarida, (dostonlar, qo‘g‘irchoq tomoshalarida) o‘ziga xos milliy o‘yinlarimizda aks etib kelishi bilan ularni tasvir va talqin qilish mas’ulyatli burch sifatida qaralib, xalqimizning kuchli xohish va

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

irodasiga bog‘liq ravishda o‘sib, boyib borgan. Ayniqsa, buni o‘tgan asrning qirqinchi yillarida yaratilgan asarlar misolida ham ko‘rishimiz mumkin. O‘sha mash’um onlarda dunyo maydoni jangoh alangasiga to‘lgan, farzandlarining dog‘ida kuyayotgan onalarning faryodi qamragan, hayot manzarasi jonsiz ona qoshida titrayotgan abgor go‘dak ko‘zidagi hayratga cho‘kkan, onasini topolmay ko‘cha- ko‘yda “Ona”, “Mama”, “Ena”, “AY...” deya sarson yurgan norasidalarning oh-vohlariga aylangandi. Shunday murakkab davrda xalqimiz o‘zining bukilmas iroda sohiblari ekanligini butun dunyoga namoyon etdilar va qahramonlarcha ijod qildilar. O‘sha mahallarda yozilgan adabiy asarlar na’munalariga e’tibor beradigan bo‘lsangiz, ularda asosan millatni qahramonlikka chorlaydigan, ularning irodasini toblaydigan, yengilmas, mard va jasur farzandlar tarbiya qilishga qodir bo‘lgan sahna asarlari yaratildi. Hamid Olimjonning “Muqanna”, Maqsud Shayxzodaning “Jaloliddin Manguberdi” tragediyalari, Uyg‘un va Izzat Sultonning “Alisher Navoiy” pyesalari yozildi va sahnalashtirildi.

Milliy qahramonlarni xalq tafakkurida namoyon etishda, ularni sahnaga bo‘y ko‘rsatishda Maqsud Shayxzoda ijodining o‘rni beqiyos. Uning “Jaloliddin Manguberdi”, “Mirzo Ulug‘bek” tragediyalari ikki buyuk tarixiy qahramonning milliy sahnamizda aks etishida katta hodisa bo‘ldi. Maqsud Shayxzoda Manguberdi obrazini quriq qahramon, nutq so‘zlovchi hukumdor-notiq, yoki faqat ko‘lidan odam o‘ldirishdan boshqa ish kelmaydigan va minglab uchraydigan (ideallashtirilgan) sarkarda sifatida emas haqiqiy mard inson sifatida aks ettiradi.

Maqsud Shayxzoda dramaturgiyada orttirgan qator tajribalaridan so‘ng “Mirzo Ulug‘bek” tragediyasiga qo‘l uradi. Asarning shuhrati, ijodkor zamondoshlari tilida: “Sheksperona yozilgan asari emish” – deya madh etiladi. “Tarixiy arbob haqida badiiy asar yaratish ishiga o‘zgacha, chuqur ildiz va ayni vaqtda yuksak badiiy, dramaturgik mahorat bilan yondashuv Maqsud Shayxzodaning “Mirzo Ulug‘bek” fojiasidan namoyon bo‘ldi”.[1] “Mirzo Ulug‘bek” spektakli buyuk qomusiy olim, astronom, shoh va arbor bo‘lgan bobakalonimiz uchun munosib sahna asari munosib spektakl tomoshasi bo‘la olgan deya olamiz.

Shu o‘rinda bir masala ham borki, buni chetlab o‘tib bo‘lmaydi. Ya’ni milliy qahramonlarni aks ettirishda, dramaturgiya bilan birgalikda, rejissyor iste’dodi, estetik ideali va aktyorlar imkoniyati, mas’uliyati juda muhim. Bu spektakllarning muvaffaqqiyatida o‘zbek sahna san’atining ustunlari bo‘lmish rejissyorlar Mannon Uyg‘ur va Ginsburg nigohlari, Abror Hidoyatov, Obid Jalilov, Shukur Burhonov, Sora Eshonto‘rayeva, Sa’dixon Tabibullayev, Olim Xo‘jayevga kabi aktyorlarning mahoratli ijrolari bu asarlarning sahnaga beqiyos ko‘chishiga va tarix sarvaraqlaridan o‘rin olishida katta ahamiyat kasb etganligini unitmaslik kerak.

Turli davrda turli qarashdagi tarixiy asarlar yaratildi. Ko‘pchiligida sobiq ittifoqning ayanchli nafasi ufurib qoladi. Shunday bir yoqlama va ko‘chma qarashdan holi tarixiy

[1]Т. Исломов. Тарих ва саҳна. Тошкент. Ғавур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1998 й. 34-б.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

dramalardan biri Shukur Xolmirzayevning “Qora kamar” asaridir. “Qora kamar” o‘tgan asrning saksoninchi yillarining oxirida yozilib, rejissyor, O‘zbekiston xalq artisti Bahodir Yo‘ldoshov tomonidan sahnaga olib chiqildi. Bevosita rejissyor va dramatrugning ijobiy hamkorligi asarning g‘oyaviy, badiiy, ijtimoiy va siyosiy ko‘lami katta ekanligi, aktyorlar mahorati bilan muvofiq kelib, muxlislarning oliqishlariga, mutaxassislarning e’tirofiga sazovor bo‘ldi. U haqida katta va kichik hajmdagi bahsli maqolalar chop etildi. Kimlardir uni eski, sovet tuzimiga qarshi bo‘lgan “bosmachi”larni ideallashtirishda ayblasa, millatparvar adabiyotshunoslar, teatrshunoslar bu spektaklga yuqori baho berishdi. Ba’zi bahsli maqolalarda, o‘sha paytdagi tobora yo‘qolib borayotgan senzura tufayli ijodkor qullab-quvvatlandi. Ushbu drama “Hamza” nomli davlat mukofatiga loyiq ko‘riladi. Avvalgi Yosh gvardiya teatrining (hozirgi “Yosh tomoshabinlar” teatri) mahoratli aktyor va aktrisalari jalb etilgan bo‘lib, ular o‘z rollarini mohirlik bilani ijro etishgan. Asarning ahamiyatli tomoni shundaki “bosmachilar” deb qoralangan milliy ozodlik harakatchilarining ilk bora dardi, ularning tiniq va haqqoniy manzarasi, ichki dramasi yorqin, jasoratli va sahnaga maqbul asar sifatida yaratildi. Shu tariqa milliy qahramonlarni anglash boshlandi. Farxod Aminov bosh qahramon rolini o‘ziga xos tarzda qat’iy ishonch bilan ijro etdi.

Keyinchalik, Shukur Xolmirzayevning o‘z dramasi haqidagi suhbatlarining birida, bosh qahramon Xurrambek ijrosi haqida shunday fikrlarni aytib o‘tgan: “Xurrambek juda Farhod Aminovga o‘xshaydi. Huddi uni ko‘rib yozgandayman go‘yo. Mahorat bilan ijro etgan”.

Yuqorida ta’kidlanganidek, milliy qahramonlarimizni aks ettirishda dramaturg bilan birgalikda zabardast rejissyorlar, iste’dodli va jonkuyar aktyorlarning ham o‘rni juda katta.

Mustaqillikdan so‘ng milliy qahramonlarimizni haqli ma’noda to‘laligicha ifoda etishga keng yo‘l ochildi. Tarixiy shaxslar hayoti haqida erkin ijod namunalari paydo bo‘ldi. Bular, To‘ra Mirzoning “Amir Temur”, ingliz dramaturgi Kristofer Marloning “Buyuk Temur” tragediyasi asosida Asror Samadning “Sohibqiron Temur”, Abdulla Oripovning

“Sohibqiron” dramalaridir. Ushbu sahna asarlari orqali Amir Temur obrazi sahnaga olib chiqildi. Yaratilgan obrazlardan qanchalik qoniqish hosil qilish mumkin – bu bahsli masala. Bu borada teatrshunos Toxir Islomov o‘z tadqiqotlarida shunday fikrlarini keltiradi. “Teatrlarimizning hozirgi kunida Amir Temur mavzusi to‘laqonli yoritildi, Amir Temur qiyofasi butun to‘laligi bilan talqin etildi deb aytishga hozircha asos yo‘q. Buning obyektiv va uzrli sabablari bor deb o‘ylaymiz.

Avvalo, Amir Temur mavzusining murakkabligi shundaki, Sohibqironning tarixiy qiyofasi, insoniy shaxsiyatini butun salobati va ko‘lami bilan qamrab olish, chuqur bilish va tushunib yetish oson gap emas. Bu masala uzoq o‘rganish, ulkan salohiyat va nihoyat mavzuni haqqoniy va teran talqin etish iqtidoriga ega bo‘lgan ijodiy kuch-qudratni talab qiladi. Bugungi dramaturgiyamiz bunday oliy darajadagi talabga javob bera olganicha yo‘q.[2]”

[2]Т.Исломов. Тарих ва саҳна. Тошкент. Ғавур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1998 й.57-б.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

Keyinchalik, qatag‘on qurbonlari va jabrdiydalari qiyofalarini aks ettirish maqsadida milliy ijtimoiy vazifa qo‘yilib, shu asosda bir qancha dramalar yaratildi. Nodira Rashidovaning “Usmon Nosir”, Usmon Azimning “Kunduzsiz kechalar”, “Abdulla Qahhor”, Oybekning serqirra ijod yo‘li aks etgan “Adibning umri” kabi bir qancha asarlari yaratildi. Ulardan ba’zilari hamon sahnadan tushmay kelmoqda. Biroq, ularning barchasini ham to‘laqonli muvaffaqiyat qozongan sahna asarlari deya olmaymiz. Ba’zilarida sahnaviy asos bo‘sh, rejissurasida kuzatilgan kemtikliklar, eskirgan usullar va yetarli kuchga ega bo‘lmagan aktyorlar ijrosi tufayli aksariyati o‘z tomoshbinini topa olmadi. Masalan, Nodira Rashidovaning “Usmon Nosir” pyesasi badiiylik manzarsi bilan tarixiy haqiqat manzarasi mutonosib kelmagan bo‘lsa, Uzmon Azimning “Kunduzsiz kechalar”, “Adib umri” pyesalari teatr ijodkorlari tomonidan ba’zi kamchiliklar bilan sahnaga olib chiqildi. Aktyorlar tanlashda faqat tashqi ko‘rinishlargina hisobga olindi. Bu esa ichki dramatizimning, asriy orzu va armonlar tilsimining jo‘n xulosa bilan tomoshabinlarga taqdim etildi.

Xo‘sh, bugungi kun kino olami va teatr sahnasida miliy qahramonlar talqini qay darajada kasb etmoqda, ularga asos bo‘lgan dramaturgiya mavjudmi? Ularni biz sahnada qay darajada, qanday ko‘lamda ko‘rmoqdamiz?

Sahna va ekranlarimizda milliy qahramonlarimizning aks etishi ko‘plab ijobiy o‘rinlarga ega ekanligini ko‘rishimiz mumkin.

Birinchidan, milliy qahramonlarimizning zamonaviy dramaturgiyadagi talqini, avvalo, ularning ibratli hayoti, keng ko‘lamli ishlari bilan bugungi kun tomoshabinlarini tanishtirish, ular hayotida bo‘lib o‘tgan barcha murakkabliklar, quvonchu qayg‘ularni ro‘y-rost ko‘rsatish sahna san’atining haqqoniyligini ta’minlaydi va ergashtiruvchi vazifasini o‘taydi.

Ikkinchidan, bugungi kun zamon qahramonini yaratish, ularni xalq orasidan izlab topishda milliy qahramonlarimiz kabi tafakkuri va jasorati ulkan bo‘lgan insonlarni aniqlash yo‘lida shundayin taqqosiy nigox ila qarash, hozirgi kunda yaratilayotgan ayrim dramatik asarlarda zamon qahramoni deya e’tirof etilayotgan soxta, jo‘n va nomunosib bo‘lgan obrazlarning o‘z o‘zidan chekinishiga jiddiy sabab bo‘lishi mumkin.

Uchinchidan, xalqning xohishlari yorqin ifoda topgan, umid istaklari to‘la inobatga olingan, dramaturgiyaning badiiy unsurlari bilan to‘yingan asarlardagina zamonamizning biz kutgan milliy qahramonlari qiyofasini ko‘rish mumkin. Chunki bu qahramonlarning o‘zi xalqdan iborat. Xalq o‘z aksini haqqoniy ko‘rishni istaydi. Ortiqcha qorishiq bo‘yoqlarga to‘yingan badiiyyat xalqni bo‘g‘adi. Oldi-qochdi mavzudagi maishiy sahna asarlari esa aholining ziyoli qismini medasiga tegadi.

To‘rtinchidan, yoshlar milliy qahramonlarni sahnada ko‘rib o‘zlarining yana bir bora qaysi yurt va qanday insonlarning farzandlari ekanligini chuqur anglaydilar. Ularning mashaqqatli hayot yo‘lini ko‘rgan yosh tomoshabinlar irodali, aqlli va mard bo‘lishni, kelajakda katta maqsadlarni mo‘ljallashni shu qahramonlar orqali ham o‘zlariga singdirib, tobora siqib kelayotgan “Ommaviy madaniyat” bosimlariga qarshi tura biladilar. Chunki adabiyot va san’atning kuchi bunga qodir.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

To‘g‘ri bizga milliy qahramonlarimiz aks etgan mukammal sahna asarlari zarur, Biroq, shu o‘rinda bir narsani unutmaslik kerak. Ijodkor shaxsi o‘z ilhom olamiga, o‘zini qiynagan, o‘zini o‘rtagan mavzu doirasida qalam tebratishni, taffakkur olamidan kelib chiqqan voqeliklar ummoniga sho‘ng‘ib san’at asari yaratishni istaydi. Bunday bo‘lmagan holda, ko‘pincha asarlarning u qadar muvaffaqqiyatli chiqmasligi, yoki bir yoqlama bo‘lib qolish ehtimoli ortib ketadi. Bunda ijodkorning ijodiy ko‘lami, tarix va badiiy voqeliklar qiymatini olib keta bilishi, tarixiy haqiqatni, inson obrazini yarata olish uchun jasorat va iste’dod kuchi zarurdir.

Milliy o‘zlik, milliy san’at va ma’naviy barkamol kelajak yaratish yo‘lida keng ijod qilib, sahnaviy talqinlarimiz orqali yoshlarni jipslashtirishimiz, san’atning yuksak kuchidan foydalanib, ularni “sayyor madaniyat”ga muhtoj qilmay qadam tashlamog‘imiz darkor. Zero milliy qahramonlar bizning ertangi yo‘lchi yulduzlarmiz. Bizga yorug‘ niyatlar tilab, osmondan kuzatib turgan, millat qahramonlarini to‘la qonli aks ettirish, bugungi millat qahramonlarini kashf etadi.

O‘zbek san’atida milliy qahramon talqini va uning evolyutsiyasini o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, bu tema shunchaki o‘tmish hodisasi yoki o‘tgan voqealarni shunchaki xotirlash emas, balki xalqning ma’naviy-ruhiy dunyosini va milliy o‘zligini davomli ravishda belgilab beruvchi eng asosiy omillardan biridir. San’atning turli turlari — tasviriy va amaliy san’at, teatr, kino, haykaltaroshlik hamda musiqa — har bir davrning ijtimoiy-siyosiy sharoiti va ma’naviy ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda milliy qahramon obrazini yangicha talqin etib kelgan. Ushbu tadqiqot va kuzatishlar natijasida milliy qahramon konsepsiyasining o‘zbek san’atidagi o‘rni va ahamiyati bo‘yicha bir qator muhim xulosalarga kelish mumkin.

Birinchidan, milliy qahramon talqinining tarixiy bosqichlarida sotsiokulturniy muhit va varislik tamoyili yetakchi o‘rin tutadi. Tarixiy tajriba shuni ko‘rsatadiki, sovet davri san’atida qahramonlik tushunchasi asosan mafkuraviy va sinfiy qoliplarga bo‘ysundirilgan hamda ma’lum darajada chegaralangan edi. Biroq mustaqillik yillari san’atkorlarga xolis tarixiy haqiqatga qaytish imkoniyatini berdi. Natijada Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Alisher Navoiy hamda jadid ma’rifatparvarlari kabi buyuk siymolar timsolida xalqning haqiqiy milliy qahramonlari qiyofasi gavdalantirildi. Bu esa ma’naviy ildizlarga qaytish va ajdodlar jasoratini zamonaviy avlodga uzatishda muhim ko‘prik vazifasini o‘tadi.

Ikkinchidan, zamonaviy o‘zbek san’atida milliy qahramon obrazini yaratishda badiiy umumlashtirish va xarakter psixologizmining teranlashgani kuzatiladi. Bugungi kunda san’atkorlar qahramonni shunchaki uslubiy yoki bir yoqlama pafosga ega bo‘lgan "sirtqi bahodir" sifatida emas, balki tirik, murakkab va teran ruhiy dunyoga ega shaxs sifatida tasvirlamoqda. Qahramonning ichki kechinmalari, Vatan va shaxsiy mas’uliyat o‘rtasidagi iztiroblari hamda ma’naviy tanlov jarayonining ochiq ko‘rsatilishi asarning ta’sirchanligini keskin oshirdi. Aynan mana shunday psixologik teranlik va badiiy umumlashtirish orqali oddiy tarixiy faktlar umuminsoniy qadriyatlar darajasiga ko‘tarilmoqda.

Uchinchidan, badiiy talqin va estetik yondashuvlarning xilma-xilligi milliy qahramon obrazini boyitib, uni zamonaviy san’atning diqqat markazida ushlab turibdi. Tasviriy

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

san’atdagi ranglar kompozitsiyasi, haykaltaroshlikdagi monumentallik, teatrdagi dramatik monologlar va kinodagi vizual vositalar qahramonning nafaqat tashqi salobatini, balki uning ruhiy ulug‘vorligini ham estetik jihatdan ochib berishga xizmat qilmoqda. Har bir ijodkorning o‘ziga xos badiiy nigohi va mahorati qahramonning takrorlanmas qiyofasini shakllantirmoqda.

Yakuniy xulosa sifatida ta’kidlash joizki, o‘zbek san’atida milliy qahramon talqini to‘g‘ridan-to‘g‘ri jamiyatda milliy o‘zlikni anglash va vatanparvarlik tuyg‘usini mustahkamlashga xizmat qiluvchi qudratli vositadir. Yaratilayotgan komil va fidoyi qahramonlar namunasi yosh avlodda milliy g‘urur, or-nomus, el-yurtga sadoqat va ma’naviy mas’uliyat hissiyatlarini tarbiyalaydi. San’atimizda milliy qahramon obrazining izchil o‘rganilishi va uning davomiy ravishda yangi badiiy shakllarda namoyon bo‘lishi o‘zbek xalqining ma’naviy poydevori doimo barhayot va mustahkam ekanligidan dalolat beradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Abdusamatov H. Drama nazariyasi. G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va sana’at nashriyoti. 2000.
2. Islomov T. Sahna va tarix. T.: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va sana’at nashriyoti. 1998 y.
3. Rahmonov M. Hamza (O‘zbek davlat akademik teatri tarixi) Birinchi kitob (1914 – 1960 yillar).T.: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va sana’at nashriyoti. 2001 y.
4. Tursunov T. Sahna va zamon. - T.: Yangi asr avlodi. 2007.
5. Tursunov T. XX asr o‘zbek teatr tarixi.(ikki tomlik) – T.: O‘zDsi. 2009.
6. Shokirov O‘. Abduqunduzov M. Milliy teatrimiz nomoyondalari. T.: O‘zbekiston. 2002.
7. O‘zbekiston teatr ijodkorlari uyushmasi. Istiqlol va Milliy teatr. T.: Yangi asr avlodi nashriyoti. 2002.
8. San’atshunoslik va estetika bo‘yicha asosiy adabiyotlar:
9. Sultonov, M. O‘zbekiston san’ati tarixi va nazariyasi. – Toshkent: «O‘zbekiston» nashriyoti, 2018.
10. Umarov, E., Karimov, J., Kuranov, M. Estetika (Darslik). – Toshkent: «Tafakkur burchagi», 2014.
11. Mamatov, A. Tasviriy san’atda milliy o‘zlikni anglash va badiiy talqin muammolari. // San’atshunoslik masalalari jurnali, №3, 2020. – 45–52-b.
12. Adabiyotshunoslik va psixologizm masalalari:
13. Quronov, D. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent: «Akademnashr», 2015. (Badiiy umumlashtirish va xarakter psixologizmi bo‘yicha).
14. Xalqaro ilmiy baza (DOAJ / Google Scholar maqolalari):
1. The concept of national identity in Uzbek art and visual culture. // Central Asian Journal of Arts and Design (CAJAD). – OJS Repository Link

© intereduglobalstudy.com

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

INGLIZ-O‘ZBEK HUQUQIY TERMINOLOGIK TIZIMLARIDA MILLIY-HUQUQIY O‘ZIGA XOSLIK VA TARJIMA MUVOFIQLIGI.

Sanoqulova Mohinbonu Sharopovna, Buxoro tuman 8- umumta’lim maktabi ingliz tili o‘qituvchisi.

Annotatsiya

KIRISH: ushbu maqolada ingliz va o‘zbek tillaridagi huquqiy atamalarning milliy huquqiy xususiyatlari, shuningdek, tarjima paytidagi moslik masalalari o‘rganiladi. Tadqiqotda ikki tilning huquqiy terminologiya tizimlari o‘rtasidagi o‘xshashlik va farqlar, shuningdek, milliy qonunchilik va huquqiy amaliyotning atamalarni tarjima qilishga ta’siri tahlil qilinadi. Yuridik atamalarni tarjima qilishda ularning leksik ma’nosi bilan bir qatorda, ularning huquqiy mazmuni, qo‘llanilish doirasi va tegishli huquqiy tizimdagi funksiyasini ham hisobga olish zarurligi ta’kidlanadi. Maqolada ba’zi atamalar uchun to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima qilish imkoniyati, boshqalari esa kontekstual yoki tushuntirishli tarjimani talab qilishi tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari ingliz-o‘zbek huquqiy tarjimasida atamalarning semantik aniqligini va milliy huquqiy xususiyatlarning aniq uzatilishini ta’minlash masalasiga e’tibor qaratadi.

MAQSAD: Ingliz va o‘zbek tillaridagi yuridik atamalarni tarjima qilishda milliy-huquqiy xususiyatlarning namoyon bo‘lishini tahlil qilish hamda to‘g‘ridan-to‘g‘ri va kontekstual tarjima jarayonida semantik muvofiqlikni ta’minlash usullarini ko‘rsatib berishdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR: Tadqiqotda qiyosiy-huquqiy, leksik-semantik va kontekstual tahlil metodlaridan foydalanilib, ikki tilning huquqiy terminologik tizimlari, milliy qonunchilik hamda tarjima amaliyoti materiallari qiyosiy o‘rganildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: tahlillar shuni ko‘rsatdiki, "constitution", "contract", "court" kabi atamalarda yuqori darajadagi to‘liq muvofiqlik mavjud bo‘lsa-da, ingliz huquqiy tizimiga xos bo‘lgan "solicitor", "barrister" hamda kontekstual o‘zgaruvchi "act", "covenant" kabi terminlarni tarjima qilishda izohli va kontekstual tarjima usullari asosiy o‘rin tutadi.

XULOSA: ingliz-o‘zbek huquqiy tarjimasida semantik va huquqiy muvofiqlikni ta’minlash uchun atamaning shunchaki lug‘aviy ma’nosi bilan cheklanmay, uning tegishli milliy huquqiy tizimdagi funksiyasi, mazmuni va qo‘llanilish kontekstini birdek hisobga olish zarur.

Kalit so‘zlar: huquqiy termin, huquqiy terminologiya, ingliz tili, o‘zbek tili, milliy-huquqiy xususiyat, tarjima, muvofiqlik, huquqiy tarjima.

НАЦИОНАЛЬНО-ПРАВОВАЯ СПЕЦИФИКА И ЭКВИВАЛЕНТНОСТЬ ПЕРЕВОДА В АНГЛО-УЗБЕКСКИХ ЮРИДИЧЕСКИХ ТЕРМИНОЛОГИЧЕСКИХ СИСТЕМАХ.

Санокулова Мохинбону Шароповна, учитель английского языка общеобразовательной школы № 8 Бухарского района.

Аннотация

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

ВВЕДЕНИЕ: в данной статье исследуются национально-правовые особенности юридических терминов в английском и узбекском языках, а также вопросы эквивалентности при их переводе. В исследовании анализируются сходства и различия между системами юридической терминологии двух языков, а также влияние национального законодательства и правоприменительной практики на перевод терминов. Подчеркивается необходимость учета не только лексического значения юридических терминов, но и их правового содержания, сферы применения и функции в соответствующей правовой системе. В статье анализируется возможность прямого перевода для одних терминов, в то время как другие требуют контекстуального или описательного перевода. Результаты исследования акцентируют внимание на обеспечении семантической точности терминов и точной передаче национально-правовых особенностей при англо-узбекском юридическом переводе.

ЦЕЛЬ: анализ проявления национально-правовой специфики при переводе английских и узбекских юридических терминов, а также обоснование способов обеспечения семантической эквивалентности при прямом и контекстуальном переводе.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании использованы сравнительно-правовой, лексико-семантический и контекстуальный методы анализа на основе материалов юридических терминологических систем двух языков, национального законодательства и переводоведческой практики.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: анализ показал, что при наличии высокой эквивалентности у таких терминов, как "constitution", "contract", "court", перевод специфических понятий английской правовой системы (напр., "solicitor", "barrister", "act") требует применения описательного и контекстуального методов перевода.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: для обеспечения эквивалентности в английско-узбекском юридическом переводе необходимо учитывать не только словарное значение термина, но и его функцию, правовое содержание и контекст применения в соответствующей национальной правовой системе.

Ключевые слова: юридический термин, юридическая терминология, английский язык, узбекский язык, национально-правовая особенность, перевод, эквивалентность, юридический перевод.

NATIONAL LEGAL SPECIFICITY AND TRANSLATION EQUIVALENCE IN ENGLISH-UZBEK LEGAL TERMINOLOGICAL SYSTEMS.

Sanoqulova Mohinbonu Sharopovna, English Language Teacher at Secondary School No. 8 of Bukhara District.

Annotation

© intereduglobalstudy.com

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

INTRODUCTION: the national and legal differences between Uzbek and English legal terminology are examined in this article, along with the problem of translation equivalency. It examines how national legislation and legal practice affect the translation of legal terminology and takes into account the parallels and discrepancies between the legal terminological systems of the two languages. The study highlights that legal translation necessitates consideration of legal substance, context, and a term's use within a specific legal system in addition to dictionary definition. Additionally, it takes into account situations in which direct translation is feasible as well as situations in which contextual or explanatory translation is more suitable. The results highlight how crucial it is to preserve words' national legal traits and meanings while translating legal terms from English to Uzbek.

AIM: to analyze the manifestation of national-legal specificity in translating English and Uzbek legal terms and to demonstrate methods for ensuring semantic equivalence in direct and contextual translation.

MATERIALS AND METHODS: the study employs comparative-legal, lexical-semantic, and contextual analysis methods based on the materials of legal terminological systems of both languages, national legislation, and legal translation practice.

DISCUSSION AND RESULTS: the findings reveal that while terms such as "constitution", "contract", and "court" exhibit a high degree of direct equivalence, translating concepts specific to the English legal system (e.g., "solicitor", "barrister", "act") requires the application of explanatory and contextual translation strategies.

CONCLUSION: ensuring equivalence in English-Uzbek legal translation necessitates going beyond mere dictionary definitions to consider a term's legal substance, contextual function, and application within its respective national legal system.

Keywords: legal term, legal terminology, English, Uzbek, national legal specificity, translation, equivalence, legal translation.

Bugungi kunda davlatlar o‘rtasidagi siyosiy, iqtisodiy va huquqiy munosabatlarning rivojlanishi huquqiy matnlarni bir tildan boshqa tilga aniq tarjima qilish zaruratini oshiradi. Xalqaro shartnomalar, qonunchilik hujjatlari, sud hujjatlari, huquqiy bitimlar va boshqa rasmiy hujjatlardagi atamalarning to‘g'ri tarjimasi katta ahamiyatga ega.

Ingliz va o‘zbek tillari o‘rtasidagi huquqiy tarjimada ba'zi atamalarning tarjimasi nisbatan oddiy. Masalan, "contract" so‘zi odatda "agreement", "sud" so‘zi "sud" va "judge" so‘zi "sudya" deb tarjima qilinadi. Bunday hollarda ikki tildagi atamalar o‘rtasida yaqin semantik bog'liqlik mavjud.

Biroq, bu barcha huquqiy atamalarga taalluqli emas. Ba'zi atamalar ma'lum bir huquqiy tizim doirasida ishlab chiqilgan va boshqa tilda bir xil huquqiy ma'noga ega

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

bo‘lmasligi mumkin. Bu muammo, ayniqsa, ingliz huquqiy tizimiga xos bo‘lgan ayrim atamalarni o‘zbek tiliga tarjima qilishda yaqqol ko‘rinadi.

Shuning uchun, huquqiy tarjimada atamaning lug'aviy ma'nosini shunchaki aniqlash yetarli emas. Shuningdek, u qo‘llaniladigan huquqiy kontekstni, u ifodalaydigan huquqiy munosabatni va maqsadli tilda qanday tushunilishini hisobga olish kerak.

Ushbu maqolaning maqsadi ingliz va o‘zbek yuridik atamalarini tarjima qilishda milliy huquqiy xususiyatlarning namoyon bo‘lishini umumiy misollar yordamida namoyish etishdir.

Tadqiqotning asosiy maqsadlari:

• ingliz va o‘zbek yuridik atamalarining umumiy jihatlarini namoyish etish;

• atamalarni tarjima qilishda yuzaga keladigan asosiy muammolarni aniqlash;

• milliy huquqiy tizimga xos atamalarni o‘rganish;

• misollar yordamida to‘g‘ridan-to‘g‘ri va kontekstual tarjima o‘rtasidagi farqni namoyish etish;

• huquqiy tarjimada mazmunni saqlashga e’tibor qaratish.

Ingliz va o‘zbek huquqiy terminologiyasining umumiy jihatlari

Ingliz va o‘zbek tillari davlat, sudlar, qonunchilik, shartnomalar va huquqiy munosabatlarga oid ko‘plab umumiy atamalarga ega. Bunday atamalar tarjima paytida nisbatan kam muammolar tug‘diradi. Quyidagi terminlar bunga misol bo‘la oladi:

English term	Uzbek equivalent
constitution	konstitutsiya
contract	shartnoma
court	sud
judge	sudya
prosecutor	prokuror

Masalan:

The parties signed the contract.

Tomonlar shartnomani imzoladilar**.**

Bu gapda contract – shartnoma muvofiqligi aniq. Tarjima jarayonida terminning asosiy huquqiy mazmuni o‘zgarmaydi.

Yana bir misol:

The court made a decision.

Sud qaror qabul qildi.

Bu yerda ham court – sud terminlari o‘rtasidagi moslik yuqori. Shunday terminlar xalqaro huquqiy muloqotda ham keng ishlatilgani sababli tarjimon uchun nisbatan qulay hisoblanadi.

Milliy-huquqiy xususiyatning tarjimaga ta’siri

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

Huquqiy atamalar ma'lum bir mamlakat qonunlari va huquqiy amaliyoti bilan bog'liq. Shuning uchun, biror atamani bir tildan boshqa tilga tarjima qilishda milliy huquqiy tizimlar o‘rtasidagi farqlarni hisobga olish kerak.

Masalan, ingliz tilidagi "solicitor" va "barrister" atamalari yaxshi misollardir. Ikkalasi ham huquq sohasida ishlaydigan mutaxassislarga tegishli, ammo ularning professional vazifalari bir xil emas.

O‘zbek tilida "advocate" yoki "jurist" kabi atamalar umumiy tarjimada ishlatilishi mumkin. Biroq, bunday tarjima ingliz tilidagi ikki atama o‘rtasidagi professional farqni to‘liq aks ettirmasligi mumkin.Shuning uchun tarjimon quyidagi muqobil variantlardan foydalanishi mumkin:

solicitor → solistitor (huquqiy maslahatchi)

solisti → solistitor (sudda mijozlarni himoya qiluvchi advokat)

Bu yerda atamani to‘liq almashtirish o‘rniga, uning ma'nosini tushuntirish tarjimaning ravshanligini oshiradi.

Huquqiy terminlarda to‘liq va qisman muvofiqlik

Inglizcha-o‘zbekcha yuridik atamalarni tarjima qilishda barcha birliklar bir xil mos kelishi mumkin emas. Masalan, "constitution" va "konstutsiya" juftliklarida yuqori darajadagi moslik kuzatiladi. Konstitutsiya asosiy huquqlarni kafolatlaydi.

Bu yerda atamaning umumiy huquqiy ma'nosi saqlanib qoladi.

Biroq, "prosecutor" va "prokur" yoki "advocate" kabi atamalarda ma'lum farqlar bo‘lishi mumkin. Atamalarning nomlari o‘xshash bo‘lsa ham, tegishli mamlakatlardagi vakolatlar, professional maqomi va amaliyot doirasi bir xil bo‘lishi shart emas. Shuning uchun, bunday atamalar bilan ishlashda tarjimon matnning umumiy ma'nosiga e'tibor qaratishi kerak.

"Contract" va "Agreement" atamalari

"Contract" va "agreement" atamalari ingliz yuridik tilida keng tarqalgan. Kundalik nutqda ular o‘xshash ma'nolarda ishlatilishi mumkin. Masalan:

Ikki kompaniya kelishuvga erishdi.

Kontekstga qarab, buni quyidagicha tarjima qilish mumkin:

→ Ikki kompaniya kelishuvga erishdi.

Shu bilan bir qatorda:

Tomonlar shartnoma tuzdilar. → Tomonlar shartnoma tuzdilar.

Ushbu misollar tarjima qilishda ma'lum bir atamaning qaysi huquqiy kontekstda ishlatilishini aniqlash zarurligini ko‘rsatadi.

Huquqiy terminlarni tarjima qilishda asosiy usullar

Ingliz-o‘zbek huquqiy tarjimasida terminlar bir necha usulda berilishi mumkin.

Bevosita tarjima

Maqsad tilida aniq ekvivalent mavjud bo‘lganda foydalaniladi.

court → sud

judge → sudya

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

contract → shartnoma
constitution → konstitutsiya
O‘zlashma shaklni saqlash
Ayrim xalqaro yoki maxsus terminlar asl shakliga yaqin holda qo‘llanishi mumkin.
precedent → precedent
parliament → parlament

Izohli tarjima

Maqsad tilida aynan mos termin mavjud bo‘lmaganda qo‘llanadi.
barrister → sudda vakillik qiluvchi huquqshunos
solicitor → huquqiy maslahatchi

Kontekstual tarjima

Termin muayyan gapdagi vazifasiga qarab tarjima qilinadi.
Masalan:
Act → qonun
legal representative → qonuniy vakil

Bunday tarjimada terminning umumiy ma’nosidan ko‘ra matndagi vazifasi asosiy mezon bo‘ladi.

Tarjimada uchraydigan asosiy qiyinchiliklar

Huquqiy Ingliz-o‘zbek tarjimasida bir nechta muhim muammolar kuzatiladi.

To‘g’ridan- to‘g’ri ekvivalentning mavjud emasligi tarjimani murakkablashtiradi.

Birinchidan. Ayrim inglizcha terminlar o‘zbek huquqiy tizimida aynan shunday nom yoki mazmunga ega emas.

Ikkinchidan, bir xil yoki o‘xshash nomdagi terminlarning huquqiy vazifasi farq qilishi mumkin.

Kontekst muhim rol o‘ynaydi. Bitta inglizcha birlik turli huquqiy hujjatlarda turlicha tarjima qilinishi mumkin. Buning uchun avvalo, milliy qonunchilik terminning mazmunini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Tarjimon faqat lug'atga murojaat qilish bilan cheklanmasligi kerak.

Ingliz va o‘zbek tillaridagi huquqiy atamalar ko‘plab o‘xshashliklarga ega bo‘lsa-da, ularning tarjimasi milliy huquqiy farqlarni hisobga olishi kerak. Ba’zi atamalar to‘g‘ridan-to‘g‘ri va aniq tarjima qilinadi. Boshqa hollarda, ularning huquqiy ma’nosini to‘liq yetkazish uchun kontekstual yoki tushuntirishli tarjima talab qilinadi.

Shartnoma, sud va konstitutsiya kabi atamalar uchun moslik nisbatan yuqori. Advokat, advokat va pretsedent kabi atamalar uchun ingliz huquqiy tizimining o‘ziga xos xususiyatlari tarjima paytida qo‘shimcha e’tibor talab qiladi.

Bundan tashqari, act va covenant kabi atamalar kontekstga qarab turlicha tarjima qilinishi mumkin. Bu shuni ko‘rsatadiki, huquqiy tarjimada atama alohida so‘z sifatida emas, balki u ishlatiladigan huquqiy matn ichida tahlil qilinishi kerak.

Umuman olganda, ingliz-o‘zbek huquqiy tarjimasida moslikni ta’minlash uchun atamaning leksik ma’nosi, uning huquqiy mazmuni va milliy huquqiy tizimda qo‘llanilishini

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

hisobga olish kerak. Bu yondashuv huquqiy hujjatlar mazmunini aniq, tushunarli va izchil yetkazishga yordam beradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Alcaraz, E., & Hughes, B. (2002). Legal Translation Explained. Manchester: St. Jerome Publishing.
2. Baker, M. (2018). In Other Words: A Coursebook on Translation. 3rd ed. London: Routledge.
3. Cao, D. (2007). Translating Law. Clevedon: Multilingual Matters.
4. Garner, B. A. (2019). Black’s Law Dictionary. 11th ed. St. Paul, MN: Thomson Reuters.
5. Mattila, H. E. S. (2013). Comparative Legal Linguistics: Language of Law, Latin and Modern Lingua Francas. 2nd ed. Farnham: Ashgate.
6. Sarcevic, S. (1997). New Approach to Legal Translation. The Hague: Kluwer Law International.
7. Tiersma, P. M. (1999). Legal Language. Chicago: University of Chicago Press.
8. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Amaldagi tahrir.
9. O‘zbekiston Respublikasining amaldagi normativ-huquqiy hujjatlari.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

MEDIASAVODXONLIKNI OSHIRISHDA IJTIMOIY PLATFORMALARDAN FOYDALANISH MODELI.

Qobilov Vohidjon Asliddin o‘g‘li, Samarqand davlat pedagogika instituti, tadqiqotchi
vohidqobilov035@gmail.com

Annotatsiya

KIRISH: ushbu maqolada oliy ta’lim talabalarining mediasavodxonligini ijtimoiy platformalar vositasida oshirishga qaratilgan pedagogik model nazariy jihatdan asoslandi. Tadqiqot konseptual-modellashtirish xarakteriga ega bo‘lib, tizimli, kompetensiyaviy, faoliyatga yo‘naltirilgan va refleksiv yondashuvlar integratsiyasiga tayandi. UNESCOning media va axborot savodxonligi konsepsiyasi, DigComp 2.2 doirasi hamda raqamli ta’limga oid milliy hujjatlar qiyosiy-tahliliy o‘rganildi. Natijada maqsadli-me’yoriy, diagnostik, mazmuniy, jarayonli-texnologik, refleksiv va natijaviy bloklardan iborat model ishlab chiqildi. Modelda faktcheking, lateral o‘qish, manbani triangulyatsiya qilish, algoritmik xabardorlik, raqamli iz va maxfiylik, kontent yaratish hamda etik tarqatish kompetensiyalari ustuvorlashtirildi. Kompetensiya dinamikasini aniqlash uchun besh mezon, o‘n besh indikator, uch rivojlanish darajasi va integral baholash formulasi taklif etildi. Modelning amaliy ahamiyati ijtimoiy platformalarni faqat axborot uzatish kanali emas, balki muammoli vaziyat, hamkorlik, verifikatsiya va refleksiya muhiti sifatida pedagogik loyihalash imkoniyati bilan belgilanadi.

MAQSAD: oliy ta’lim talabalarining mediasavodxonligini ijtimoiy platformalar vositasida oshirishga qaratilgan tarkibiy-funksional pedagogik modelni hamda uning diagnostik-baholash mexanizmini nazariy jihatdan asoslab berishdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda konseptual-modellashtirish dizayni, tizimli, kompetensiyaviy, faoliyatga yo‘naltirilgan va refleksiv yondashuvlar integratsiyasi qo‘llanilib, UNESCOning MIL o‘quv dasturi, DigComp 2.2 doirasi hamda "Raqamli O‘zbekiston – 2030" va "O‘zbekiston – 2030" strategiyalari qiyosiy-tahlil qilindi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: oltita blokdan (maqsadli-me’yoriy, diagnostik, mazmuniy, jarayonli-texnologik, refleksiv va natijaviy) iborat siklik pedagogik model va "Aniqla — Tekshir — Talqin qil — Yarat — Ulash — Refleksiya qil" o‘quv sikli ishlab chiqildi; shuningdek, mediasavodxonlik darajasini aniqlash uchun 5 mezon, 15 indikator va integral MSI indeksi formulasi taklif etildi.

XULOSA: ijtimoiy platformalar shunchaki axborot uzatish kanali emas, balki pedagogik loyihalangan verifikatsiya va hamkorlik muhitiga aylantirilgandagina talabalarda barqaror mediasavodxonlik kompetensiyalarini shakllantirish va raqamli xavflarni minimallashtirish imkoniyati yuzaga keladi.

Kalit so‘zlar: mediasavodxonlik, media va axborot savodxonligi, ijtimoiy platforma, faktcheking, dezinformatsiya, algoritmik xabardorlik, raqamli xavfsizlik, pedagogik model, refleksiya, media mahsulot.

© intereduglobalstudy.com

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

МОДЕЛЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ СОЦИАЛЬНЫХ ПЛАТФОРМ В ПОВЫШЕНИИ МЕДИАГРАМОТНОСТИ.

Кобилов Вохиджон Аслиддин угли, исследователь Самаркандского государственного педагогического института.

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в статье теоретически обоснована педагогическая модель повышения медиаграмотности студентов высших учебных заведений средствами социальных платформ. Исследование носит концептуально-моделирующий характер и основано на интеграции системного, компетентностного, деятельностного и рефлексивного подходов. Сопоставлены концепция медиа- и информационной грамотности UNESCO, рамка DigComp 2.2 и национальные документы в сфере цифрового образования. Разработанная модель включает целевой-нормативный, диагностический, содержательный, процессуально-технологический, рефлексивный и результативный блоки. Приоритет отдан фактчекингу, латеральному чтению, триангуляции источников, алгоритмической осведомлённости, цифровому следу и приватности, созданию контента и его этичному распространению. Предложены пять критериев, пятнадцать индикаторов, три уровня и интегральная формула оценки.

ЦЕЛЬ: теоретическое обоснование структурно-функциональной педагогической модели повышения медиаграмотности студентов вузов средствами социальных платформ и разработка её диагностико-оценочного механизма.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: исследование выполнено в концептуально-моделирующем дизайне на основе интеграции системного, компетентностного, деятельностного и рефлексивного подходов с использованием сравнительного анализа учебной программы ЮНЕСКО по ВИГ, рамки DigComp 2.2 и национальных цифровых стратегий.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: разработана циклическая модель из шести блоков (целевой, диагностический, содержательный, процессуальный, рефлексивный и результативный) и учебный цикл "Определи — Проверь — Интерпретируй — Создай — Поделись — Рефлексируй", а также предложены 5 критериев, 15 индикаторов и формула интегрального индекса MSI.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: трансформация социальных платформ из простых каналов связи в педагогически спроектированную среду верификации и сотрудничества позволяет сформировать у студентов устойчивые медиакомпетенции и минимизировать цифровые риски.

Ключевые слова: медиаграмотность, социальная платформа, фактчекинг, дезинформация, алгоритмическая осведомлённость, цифровая безопасность, педагогическая модель.

© intereduglobalstudy.com

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

A MODEL FOR USING SOCIAL PLATFORMS TO ENHANCE MEDIA LITERACY.

Qobilov Vohidjon Asliddin o‘g‘li, Researcher at Samarkand State Pedagogical Institute.

Annotation

INTRODUCTION: this article provides a theoretical rationale for a pedagogical model designed to enhance university students’ media literacy through social platforms. The conceptual modelling study integrates systems, competency-based, activity-oriented and reflective approaches. UNESCO’s Media and Information Literacy framework, DigComp 2.2 and Uzbekistan’s national digital education policies were comparatively analysed. The resulting model consists of goal-regulatory, diagnostic, content, process-technological, reflective and outcome blocks. It prioritises fact-checking, lateral reading, source triangulation, algorithmic awareness, digital footprint and privacy, content creation and ethical sharing. Five criteria, fifteen indicators, three proficiency levels and an integral assessment formula are proposed. The model treats social platforms as pedagogically designed environments for inquiry, collaboration, verification and reflection rather than mere distribution channels.

AIM: to provide a theoretical rationale for a structural-functional pedagogical model designed to enhance higher education students' media literacy through social platforms, alongside its diagnostic assessment framework.

MATERIALS AND METHODS: the conceptual modelling study integrated systems, competency-based, activity-oriented, and reflective approaches, drawing on comparative analysis of UNESCO's MIL curriculum, the DigComp 2.2 framework, and Uzbekistan's national digital strategies.

DISCUSSION AND RESULTS: a cyclical pedagogical model comprising six blocks (goal-regulatory, diagnostic, content, process-technological, reflective, and outcome) and an educational cycle ("Identify — Verify — Interpret — Create — Share — Reflect") were formulated, supported by 5 criteria, 15 indicators, and an integral MSI index formula.
CONCLUSION: converting social platforms from mere information distribution channels into pedagogically structured environments for inquiry and verification enables the sustainable development of media literacy competencies while mitigating digital risks.

Keywords: media literacy, social platform, fact-checking, disinformation, algorithmic awareness, digital safety, pedagogical model, reflection.

Raqamli kommunikatsiya sharoitida axborot ishlab chiqarish va tarqatish vakolati an’anaviy tahririyatlardan platforma foydalanuvchilariga ham o‘tdi. Natijada talaba bir vaqtning o‘zida axborot iste’molchisi, muallifi, sharhlovchisi va tarqatuvchisiga aylandi. Mazkur holat ta’lim oldiga axborotni topishning o‘zi bilan cheklanmaydigan, uning kelib chiqishi, dalillari, maqsadi, konteksti, algoritmik ko‘rinuvchanligi va ehtimoliy zararini tahlil qila oladigan shaxsni shakllantirish vazifasini qo‘yadi. UNESCO media va axborot

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

savodxonligini noto‘g‘ri axborot, dezinformatsiya, nafrat tili, ishonchning pasayishi hamda sun’iy intellekt bilan bog‘liq zamonaviy muammolarga javob beruvchi zarur kompetensiyalar majmui sifatida talqin qiladi [1; 2].

Ijtimoiy platformalar tezkorlik, multimodallik va hamkorlik imkoniyati bilan mediasavodxonlikni rivojlantirish uchun qulay didaktik muhitdir. Biroq tavsiya algoritmlari, “axborot pufagi”, hissiy va manipulyativ kontent, soxta akkauntlar, yashirin reklama, deepfake hamda shaxsiy ma’lumotlarni oshkor etish xavfi ulardan pedagogik maqsadsiz foydalanishning samarasini pasaytiradi. Demak, platformaning mavjudligi o‘z-o‘zidan mediasavodxonlikni rivojlantirmaydi; uning funksiyalarini ta’lim maqsadi, topshiriq, baholash va refleksiya bilan uyg‘unlashtiruvchi model talab etiladi.

O‘zbekistonda “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi raqamli ta’lim va infratuzilmani rivojlantirishni ustuvor yo‘nalish sifatida belgilagan [3]. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi esa sifatli ta’lim va raqamli imkoniyatlardan samarali foydalanishning institutsional asoslarini kuchaytiradi [4]. Mazkur siyosiy-huquqiy sharoit mediasavodxonlikni oliy ta’lim mazmuniga tizimli integratsiya qilishni taqozo etadi.

Tadqiqot muammosi quyidagi ziddiyatda namoyon bo‘ladi: talabalar ijtimoiy platformalardan faol foydalanadi, ammo axborotni tekshirish, algoritmik ta’sirni anglash, dalil va fikrni farqlash, mualliflik huquqiga rioya qilish va xavfsiz kontent yaratish ko‘nikmalari doimo tizimli shakllanmaydi. Tadqiqotning maqsadi — mediasavodxonlikni oshirishda ijtimoiy platformalardan foydalanishning tarkibiy-funksional pedagogik modelini ishlab chiqish va uning diagnostik mexanizmini asoslash. Tadqiqot savoli: ijtimoiy platformalarning imkoniyatlari qanday didaktik shartlar asosida barqaror mediasavodxonlik kompetensiyalariga aylantiriladi?

Media savodxonlik konsepsiyasi axborotga kirish, uni tahlil va baholash, yaratish hamda mas’uliyat bilan tarqatishni qamrab oladi. UNESCOning yangilangan o‘quv dasturida media va axborot savodxonligi bilim, ko‘nikma, munosabat va qadriyatlar birligi sifatida ko‘rilib, dezinformatsiya, nafrat tili, maxfiylik, texnologiyaning kontentga ta’siri va fuqarolik ishtiroki alohida modullar bilan yoritiladi [1]. Bu yondashuv mediasavodxonlikni faqat texnik ko‘nikma yoki yolg‘on xabarni aniqlash bilan tenglashtirish mumkin emasligini ko‘rsatadi.

DigComp 2.2 fuqarolarning raqamli kompetensiyasini besh yo‘nalishda — axborot va ma’lumotlar savodxonligi, kommunikatsiya va hamkorlik, raqamli kontent yaratish, xavfsizlik hamda muammolarni hal qilishda tavsiflaydi. Unda sun’iy intellekt tizimlari, dezinformatsiya va raqamli muhitdagi xulq-atvorga doir 250 dan ortiq yangi misol berilgan [5]. Shuning uchun ijtimoiy platformalardan foydalanish modeli axborotni verifikatsiya qilish bilan bir qatorda identifikatsiya, maxfiylik, mualliflik huquqi, hamkorlik va kontent yaratishni ham qamrab olishi lozim.

Lateral o‘qish metodida foydalanuvchi bir sahifa ichida qolib ketmay, yangi oynalarda muallif, tashkilot va da’vo haqidagi mustaqil manbalarni tekshiradi. Bu yondashuv professional faktchekerlarning amaliy strategiyalariga yaqin. Manbani triangulyatsiya qilish

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

esa kamida uch mustaqil va ishonchli manba orqali da'voni solishtirishni nazarda tutadi. Ushbu ikki mexanizm platformadagi tezkor reaksiyani dalilga asoslangan sekin fikrlash bilan muvozanatlashtiradi.

Tahlil shuni ko'rsatadiki, mavjud doiralar kompetensiyalar tarkibini puxta belgilaydi, biroq ijtimoiy platformaning konkret didaktik funksiyasi, o'quv sikli, baholash mezonlari va teskari aloqa mexanizmini bir tizimda ifodalashga ehtiyoj saqlanadi. Taklif etilayotgan model aynan shu bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan.

Tadqiqot konseptual-modellashtirish dizaynida amalga oshirildi. Empirik tajriba natijalari mavjud deb da'vo qilinmadi; model keyingi tajriba-sinov bosqichida tekshirilishi lozim bo'lgan ilmiy konstruksiya sifatida ishlab chiqildi. Tadqiqot obyekti — oliy ta'limda mediasavodxonlikni rivojlantirish jarayoni; predmeti — ijtimoiy platformalarning didaktik imkoniyatlari, pedagogik shartlari va baholash mexanizmlari.

Metodologik asos sifatida: 1) tizimli yondashuv — model bloklarining o'zaro aloqasi va teskari aloqasini belgilash; 2) kompetensiyaviy yondashuv — o'lchanadigan bilim, ko'nikma va munosabatlarni natija sifatida ifodalash; 3) faoliyatga yo'naltirilgan yondashuv — real media vazifalarini bajarish orqali o'rganish; 4) ijtimoiy-konstruktivistik yondashuv — hamkorlikdagi muhokama va dalillarni kelishish; 5) refleksiv yondashuv — foydalanuvchining o'z media xulqini tahlil qilishi qabul qilindi.

Tadqiqot metodlari: UNESCO MIL Curriculum va DigComp 2.2 hujjatlarini mazmuniy tahlil qilish; milliy me'yoriy hujjatlarni kontekstual tahlil qilish; kompetensiyalarni qiyoslash va guruhlash; pedagogik modellashtirish; mezon, indikator va darajalarni operatsionallashtirish; ehtimoliy platforma xavflarini risk-tahlil qilish. Hujjatlarni tanlash mezonlari — institutsional ishonchlilik, mavzuga bevosita aloqadorlik, kompetensiyalarning aniq tavsifi va ta'lim amaliyotiga moslashtirish imkoniyati.

Modelni yaratish algoritmi besh bosqichda bajarildi: muammoni va maqsadni aniqlash; manbalardagi kompetensiyalarni kodlash; o'xshash elementlarni kategoriyalash; platforma affordanslarini didaktik vazifalar bilan moslashtirish; mezon va indikatorlar asosida diagnostik kontur yaratish. Nazariy validlik "maqsad — mazmun — faoliyat — baholash — natija" mantiqiy muvofiqligi orqali ta'minlandi.

Taklif etilgan model UNESCO MIL doirasidagi kirish, tahlil, baholash, yaratish va ishtirok kompetensiyalarini DigComp 2.2 dagi axborot savodxonligi, kommunikatsiya, kontent yaratish va xavfsizlik yo'nalishlari bilan integratsiyalaydi. Modelning farqli jihati — kompetensiya ro'yxatini platforma affordanslari, o'quv sikli, diagnostika va refleksiv teskari aloqa bilan yagona pedagogik tizimga birlashtirishidir.

Ijtimoiy platformadan foydalanishning didaktik qiymati uning texnologik funksiyasida emas, talaba bajaradigan kognitiv va ijtimoiy harakatda namoyon bo'ladi. Masalan, repost qilish funksiyasi nazoratsiz holatda dezinformatsiyani kuchaytirishi mumkin; pedagogik vazifada esa repostdan oldingi verifikatsiya protokoli, dalil kartasi va etik chek-list bilan mas'uliyatli qaror mashqiga aylanadi. Izohlar bo'limi ziddiyatli makon bo'lishi mumkin, biroq

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

argument xaritasi, netiket va moderatsiya qoidalari asosida dalilli muloqot laboratoriyasi vazifasini bajaradi.

Model “inokulyatsiya” prinsipini ham qo‘llab-quvvatlaydi: talaba manipulyativ usullarni xavfsiz, nazorat qilinadigan misollarda oldindan taniydi va keyingi real vaziyatlarda ularga qarshi kognitiv barqarorlik hosil qiladi. Bunda noto‘g‘ri axborotni takrorlashning “tanishlik effekti” hisobga olinib, rad etishdan oldin to‘g‘ri fakt berilishi, xato da’vo ortiqcha takrorlanmasligi va izoh bilan tuzatilishi kerak.

Modelning cheklovlari mavjud. Birinchidan, u hozircha konseptual darajada bo‘lib, sababiy samaradorligi empirik tajriba bilan tasdiqlanmagan. Ikkinchidan, platforma algoritmlari va siyosatlari tez o‘zgaradi; shu sababli topshiriqlar muntazam yangilanishi kerak. Uchinchidan, o‘zini baholash ijtimoiy maqbullik og‘ishiga moyil. To‘rtinchidan, internet sifati, qurilma va til resurslaridagi tafovut natijaga ta’sir qiladi. Beshinchidan, bir platformada shakllangan ko‘nikmaning boshqa platformaga ko‘chishi alohida tekshirilishi zarur.

Kelgusidagi tadqiqotlarda turli yo‘nalish va bosqichdagi talabalar bilan ko‘p markazli sinov, kechiktirilgan posttest, sifat intervyulari, raqamli iz ma’lumotlarining etik tahlili va o‘qituvchi kompetensiyasining moderator ta’sirini o‘rganish maqsadga muvofiq. Shuningdek, sun’iy intellekt yaratgan matn, tasvir va videolarni aniqlashdan ko‘ra ularning kelib chiqishi, belgilanishi va daliliy ishonchliligini baholashga urg‘u kuchaytirilishi lozim.

Mediasavodxonlikni oshirishda ijtimoiy platformalardan foydalanish modeli ta’lim maqsadi, diagnostika, mazmun, faoliyat, refleksiya va natijani yagona siklik tizimda birlashtiradi. Model ijtimoiy platformani tayyor axborot manbai sifatida emas, axborotni izlash, tekshirish, talqin qilish, yaratish, xavfsiz ulashish va o‘z xulqini refleksiya qilish muhiti sifatida talqin etadi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat: ijtimoiy platforma affordanslari mediasavodxonlik kompetensiyalari bilan funksional moslashtirildi; “Aniqla — Tekshir — Talqin qil — Yarat — Ulash — Refleksiya qil” o‘quv sikli taklif etildi; besh mezon va o‘n besh indikatorli diagnostik tizim hamda vaznli integral MSI indeksi ishlab chiqildi; platforma xavfi va pedagogik foydani muvozanatlashtiruvchi etik-xavfsizlik shartlari modelga ichki komponent sifatida kiritildi.

Amaliy tavsiyalar: oliy ta’lim fanlariga qisqa mediasavodxonlik modullarini integratsiya qilish; har bir topshiriqda manba ko‘rsatish va verifikatsiya protokolini majburiy element sifatida belgilash; baholashda test, amaliy vazifa va portfolioni uyg‘unlashtirish; o‘qituvchilar uchun faktcheking, algoritmik xabardorlik va raqamli xavfsizlik bo‘yicha malaka oshirish; maxfiylikni saqlovchi yopiq yoki simulyatsion muhit yaratish; modelni joriy etishdan oldin indikatorlarni pilot sinovdan o‘tkazish.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

1. UNESCO. (2021). Media and information literate citizens: Think critically, click wisely! Media and Information Literacy Curriculum for Educators and Learners. Paris: UNESCO. https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000377068
2. UNESCO. (2023). Guidelines for the Governance of Digital Platforms: Safeguarding freedom of expression and access to information through a multistakeholder approach. Paris: UNESCO. https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000387339
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2020). “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida, PF-6079-son Farmon. https://lex.uz/docs/-5030957
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2023). “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida, PF-158-son Farmon. https://lex.uz/docs/-6600413
5. Vuorikari, R., Kluzer, S., & Punie, Y. (2022). DigComp 2.2: The Digital Competence Framework for Citizens — With new examples of knowledge, skills and attitudes. Luxembourg: Publications Office of the European Union. https://doi.org/10.2760/115376
6. Wineburg, S., & McGrew, S. (2019). Lateral reading and the nature of expertise: Reading less and learning more when evaluating digital information. Teachers College Record, 121(11), 1–40. https://doi.org/10.1177/016146811912101102
7. McGrew, S. (2020). Learning to evaluate: An intervention in civic online reasoning. Computers & Education, 145, 103711. https://doi.org/10.1016/j.compedu.2019.103711
8. Guess, A. M., Lerner, M., Lyons, B., Montgomery, J. M., Nyhan, B., Reifler, J., & Sircar, N. (2020). A digital media literacy intervention increases discernment between mainstream and false news in the United States and India. Proceedings of the National Academy of Sciences, 117(27), 15536–15545. https://doi.org/10.1073/pnas.1920498117
9. Roozenbeek, J., van der Linden, S., Goldberg, B., Rathje, S., & Lewandowsky, S. (2022). Psychological inoculation improves resilience against misinformation on social media. Science Advances, 8(34), eabo6254. https://doi.org/10.1126/sciadv.abo6254
10. Kozyreva, A., Lewandowsky, S., & Hertwig, R. (2020). Citizens versus the Internet: Confronting digital challenges with cognitive tools. Psychological Science in the Public Interest, 21(3), 103–156. https://doi.org/10.1177/1529100620946707
11. Jones-Jang, S. M., Mortensen, T., & Liu, J. (2021). Does media literacy help identification of fake news? Information literacy helps, but other literacies do not. American Behavioral Scientist, 65(2), 371–388. https://doi.org/10.1177/0002764219869406
12. European Commission. (2022). Guidelines for teachers and educators on tackling disinformation and promoting digital literacy through education and training. Luxembourg: Publications Office of the European Union. https://doi.org/10.2766/28248
13. OECD. (2021). 21st-Century Readers: Developing Literacy Skills in a Digital World. Paris: OECD Publishing. https://doi.org/10.1787/a83d84cb-en

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

Akademik V.Zohidov to‘g‘ri ta‘kidlaganidek, “Davrimizning ulkan xalq xonandasi va sozandasining buyuk fazilati shundaki - u ijod mashaqqatidan cho‘chimadi, bir maqsad yo‘lida yashab, kuy bilan oshno bo‘ldi. Yuziga g‘ubor qo‘ngan kuylarimizning ustidan unutilish ridosini olib tashlab, sayqal berdi. Avlod boyligiga aylantirdi u durdonalarni. Bu bilan Yunus Rajabiy o‘zini asrimizning yetuk san‘atshunos olimi ham bo‘lib yetilganligini ko‘rsatdi. Besh jildlik xalq kuylari va qo‘shiqlari to‘plami, olti jildlik “Shashmaqom” kitoblari musiqa madaniyatimizning asriy oltin haykali bo‘lib, zamonlardan – zamonlarga o‘tib boradi” [Zohidov V. 7;].

Musiqashunos M.Ahmedovning fikricha esa, “Yunus Rajabiyning folklorchilik faoliyatining boshlanishi, birinchi navbatda, u yashagan muhit, sharoit va atrofdagi sozanda va xonandalarning ijrochilik san‘ati va faoliyati bilan uzviy bog‘langan edi. U o‘zbek xalq kuylarini yozishga kirishar ekan, avvalo, notaga u soddaroq, olishi qulayroq bo‘lgan kichik xalq kuylarini yoza boshlaydi va 1930 – yillarga kelib, bevosita maqomlarni ham nota yozuviga olishga kirishdi. Bu to‘g‘rida Yunus Rajabiyning o‘zi shunday xotirlaydi:

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

”Men yodimda mukammal saqlangan xalq kuylarini 1920 – yillardan boshlab oz – oz notaga yoza boshladim va nihoyat yozgan kuylarimning soni 1936 yilda 97 taga yetdi” [Ahmedov M. 4,52;].

Yillar davomida shakllangan chuqur nazariy bilimlari hamda amaliy-ijodiy tajribasi asosida Yunus Rajabiy o‘zbek xalqining ko‘p asrlik musiqiy merosini tizimli ravishda o‘rganish, to‘plash, qayd etish va kelajak avlodlarga yetkazish borasida katta ilmiy-amaliy faoliyat olib bordi. U milliy musiqiy qadriyatlar bilan uyg‘unlashgan bebaho merosni nota yozuvlariga ko‘chirish orqali uning keyingi avlodlar tomonidan o‘rganilishi va davom ettirilishi uchun mustahkam zamin yaratdi. Shu tariqa, ustoz san‘atkor o‘z zimmasidagi tarixiy va ma‘naviy mas‘uliyatni munosib darajada ado etdi.

Mazkur faoliyatning muhim natijalaridan biri sifatida 1955–1958-yillarda nashr etilgan “O‘zbek xalq musiqasi” nota to‘plamining I–IV jildlarini alohida qayd etish lozim. Ushbu majmualar o‘zbek xalq musiqiy ijodining janr jihatidan nihoyatda rang-barangligini aks ettiradi. Jumladan, ularda qo‘shiq, lapar, yalla, ashula kabi ommaviy musiqiy janrlar bilan bir qatorda katta ashula, suvora, maqom cholg‘u va ashula yo‘llari hamda zamondosh bastakorlar ijodiga mansub ayrim musiqiy namunalar ham o‘z ifodasini topgan.

Yunus Rajabiyning fidokorona mehnati natijasida asrlar davomida og‘zaki an‘ana asosida avloddan-avlodga o‘tib kelgan, biroq turli ijtimoiy-siyosiy va mafkuraviy omillar ta‘sirida yo‘qolib ketish xavfi mavjud bo‘lgan ko‘plab musiqiy namunalar yozma ravishda saqlab qolindi. Bu jarayon milliy musiqa merosining tarixiy davomiyligini ta‘minlash bilan birga, uning keyingi ilmiy tadqiqotlar va ijrochilik amaliyotida qo‘llanish imkoniyatlarini ham kengaytirdi.

Milliy musiqiy merosni asrab-avaylash masalasida Yunus Rajabiyning “Shashmaqom”ga bo‘lgan munosabati alohida ilmiy ahamiyatga ega. U mazkur mumtoz musiqiy majmuani saqlab qolish, uning ijrochilik an‘analarini tiklash va kelajak avlodga yetkazish yo‘lida katta jasorat ko‘rsatdi. Ayniqsa, shogirdlik an‘analarining murakkab sharoitlarida yo‘qolish xavfi ostida qolgan mumtoz musiqiy merosni qayta tiklash va nota vositasida hujjatlashtirishga kirishgani Yunus Rajabiyning tarixiy xizmatlaridan biridir.

Ushbu jarayonda B. Zokirov, M. Tolmasov, D. Ibodov, M. Toshpo‘latov, E. Dovidov, M. Mullaqandov kabi mohir ijrochilar faoliyatiga tayanilgan. Turli ijrochilik maktablari va uslublarini qiyosiy o‘rganish natijasida “Shashmaqom” namunalarini yozma ravishda qayd etish imkoniyati yuzaga keldi. Natijada ilgari asosan ustozdan shogirdga og‘zaki tarzda o‘tib kelgan maqom an‘analari ilmiy-amaliy jihatdan hujjatlashtirildi.

Mazkur faoliyat jarayonida Yunus Rajabiyning ilmiy-ijodiy salohiyati ham to‘laqonli namoyon bo‘ldi. Xususan, maqom turkumlarida an‘anaviy cholg‘u va aytimlarning ayrim yetishmayotgan qismlarini mavjud ijodiy tajriba asosida to‘ldirishga muvaffaq bo‘ldi. Shuningdek, forsiy g‘azallar bilan ijro etib kelingan ayrim aytim yo‘llariga turkiy mumtoz she‘riyat namunalarini mazmun, vazn va aruz tizimi talablaridan kelib chiqib tanladi. Bunday yondashuv maqom ijrochiligi repertuarining boyishiga hamda uning badiiy-estetik

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

imkoniyatlarining kengayishiga xizmat qildi. Yunus Rajabiy ayrim asarlarga nozik did va yuksak musiqiy tafakkur asosida zarur ijodiy ishlov ham berdi.

Ushbu ko‘p qirrali faoliyatning muhim samarasi sifatida “Shashmaqom” majmuasi 1959-yilda “O‘zbek xalq musiqasi” nota yozuvlari turkumining V jildi sifatida “Buxoro maqomlari” nomi ostida nashr qilindi. Bu nashr o‘zbek musiqa madaniyati tarixida muhim voqea bo‘lib, maqom merosining ilmiy va amaliy jihatdan saqlanishiga katta hissa qo‘shdi. Shu bilan birga, og‘zaki an‘anaga asoslangan kasbiy musiqa merosi — “Shashmaqom”ning asl mohiyati va badiiy qimmati jonli ijrochilik amaliyotida namoyon bo‘lishi Yunus Rajabiy faoliyatining eng muhim natijalaridan biri sifatida baholanishi mumkin.

1960-yillarga kelib maqom san‘atiga bo‘lgan ilmiy va amaliy qiziqish yanada kuchaydi. Xususan, 1966–1975-yillar davomida nota yozuvlarida aks ettirilgan “Shashmaqom” majmuasi olti jild shaklida qayta nashr etildi. Mazkur nashr tarkibiga “Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llari” ham alohida ilova sifatida kiritildi. Bu esa o‘zbek maqom san‘atining hududiy va uslubiy xilma-xilligini kengroq yoritish imkonini berdi.

Bundan tashqari, maqom namunalari Yunus Rajabiy rahbarligidagi “Maqomchilar ansambli” ijrosida magnit tasmalari hamda plastinkalarga yozib olindi. Mazkur ovozli yozuvlar maqom ijrochilik an‘analarining nafaqat nota shaklida, balki jonli ijro namunasi sifatida ham saqlanishini ta‘minladi. Natijada maqom merosining nazariy va amaliy jihatlari bir-birini to‘ldiruvchi yaxlit tizim sifatida namoyon bo‘ldi.

Yunus Rajabiyning milliy ruh va ma‘naviy qadriyatlarni o‘zida mujassam etgan musiqiy merosni asrab-avaylash, uni yangi avlod tafakkuriga singdirish borasidagi faoliyati qisqa vaqt ichida o‘zining ijobiy samarasini berdi. Natijada maqom san‘atiga munosabat tubdan o‘zgarib, musiqa ilmiyoti, kompozitorlik ijodi, ta‘lim tizimi hamda professional ijrochilik amaliyotida ushbu mumtoz merosga bo‘lgan e‘tibor sezilarli darajada kuchaydi. Jumladan, 1963-yilda Is‘hoq Rajabov tomonidan “Maqomlar masalasiga doir” nomli salmoqli monografik tadqiqotning e‘lon qilinishi maqomshunoslikning ilmiy yo‘nalish sifatida shakllanishida muhim qadam bo‘ldi. Keyingi davrda mazkur tadqiqotlar asosida maqomshunoslikning nazariy va amaliy asoslari yanada takomillashib bordi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, musiqiy me‘ros jamiyat a‘zolari o‘rtasidagi ijtimoiy-madaniy munosabatlar hamda ijodiy tajriba almashinuvi jarayonida shakllanib, tarixiy taraqqiyot davomida takomillashib boradi. Turli xalqlar o‘rtasidagi ma‘rifiy va madaniy aloqalarning rivojlanishi natijasida milliy qadriyatlar avloddan avlodga uzluksiz ravishda yetkaziladi, mazmunan boyitiladi hamda keng madaniy makonda ommalashib, xalqaro miqyosda namoyon bo‘ladi.

Ustoz Yunus Rajabiy esa milliy me‘rosimiz bo‘lgan O‘zbek musiqasi namunalarini, xalq orasida keng tarqalgan kuy va qo‘shiqlarni yig‘ib, ularning avloddan avlodga yetib kelishida muhim manba yaratdi. Ayniqsa, xalq ijodiyotining nodir namunalarini nota yozuviga tushirish orqali ularni saqlab qolish va ilmiy tadqiq etish imkoniyatlarini kengaytirdi.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Ahmedov M. Yunus Rajabiy. T.: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1980.
2. Ashrafiy M. Ustoz Yunus Rajabiy //” O‘zbekiston madaniyati”, 1957-yil, 10-may.
3. Rajabiy Yu. O‘zbek xalq musiqasi. 1-j. T.: 1955.
4. Rajabiy Yu. O‘zbek xalq musiqasi. 2-j. T.: 1957.
5. Rajabiy Yu. O‘zbek xalq musiqasi. 2-j. T.: 1958.
6. Rajabov I. Maqomlar. T.: “San’at”, 2006.
7. Zohidov V. Xazina.//” O‘zbekiston madaniyati”, 1967-yil, 2-sentyabr.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

TALABALARDA VALEOLOGIK KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISH OMILLARI.

Rahimboyev Rustamjon Abdurahmon o‘g‘li, Buxoro davlat pedagogika instituti.

Annotatsiya

KIRISH: zamonaviy ta’lim jarayonida talabalarning sog‘lom hayot kechirishga tayyorligi, o‘z salomatligini ongli ravishda boshqarishi va sog‘lom turmush tarzi tamoyillariga amal qilishi muhim kompetensiyalardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Shu nuqtai nazardan, oliy ta’lim muassasalarida valeologik kompetensiyani shakllantirish talabaning nafaqat jismoniy, balki ruhiy, ijtimoiy va ma’naviy farovonligini ta’minlashga yo‘naltirilgan pedagogik jarayon sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqolada talabalarda valeologik kompetensiyani shakllantirishning nazariy asoslari va unga ta’sir etuvchi asosiy pedagogik, psixologik, ijtimoiy-madaniy hamda individual omillar tahlil qilinadi.

MAQSAD: talabalarda valeologik kompetensiyani shakllantirishga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash, ularning mazmun-mohiyatini nazariy jihatdan asoslash hamda oliy ta’lim jarayonida ushbu kompetensiyani rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlarini belgilashdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda valeologiya, pedagogika, psixologiya, sog‘liqni saqlash va oliy ta’limga oid ilmiy adabiyotlar, xalqaro tashkilotlarning konseptual hujjatlari hamda O‘zbekiston Respublikasining ta’lim va sog‘liqni saqlash sohasidagi me’yoriy-huquqiy hujjatlari tahlil qilindi. Tizimli tahlil, qiyosiy-tahliliy yondashuv, kontent-tahlil, umumlashtirish va pedagogik modellashtirish metodlaridan foydalanildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: tahlillar talabalarda valeologik kompetensiya sog‘liq haqidagi bilimlarning o‘zlashtirilishi bilangina cheklanmasligini, balki salomatlikka ijobiy qadriyatli munosabat, o‘z-o‘zini nazorat qilish, sog‘lom xulq-atvorni tanlash, jismoniy faollik, ovqatlanish madaniyati, stressni boshqarish va salomatlikni saqlashga qaratilgan amaliy faoliyatning uyg‘unligi asosida shakllanishini ko‘rsatdi. Mazkur jarayonda ta’lim mazmuni, pedagogik muhit, oila va ijtimoiy muhit, raqamli axborot makoni, shaxsiy motivatsiya hamda pedagogning shaxsiy namunasi asosiy omillar sifatida belgilandi.

XULOSA: talabalarda valeologik kompetensiyani shakllantirish uzluksiz, tizimli va shaxsga yo‘naltirilgan pedagogik jarayonni talab etadi. Oliy ta’limda valeologik mazmunni o‘quv fanlari, jismoniy tarbiya va sport, tarbiyaviy ishlar hamda raqamli ta’lim resurslari bilan integratsiyalash talabalarning sog‘lom turmush tarziga oid bilim, ko‘nikma va qadriyatlarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: valeologik kompetensiya, valeologiya, talaba, sog‘lom turmush tarzi, salomatlik madaniyati, sog‘lom xulq-atvor, jismoniy faollik, sog‘liqni saqlash, pedagogik omillar, kompetensiyaviy yondashuv.

ФАКТОРЫ ФОРМИРОВАНИЯ ВАЛЕОЛОГИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ У СТУДЕНТОВ.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

Рахимбоев Рустамжон Абдурахмон угли, Бухарский государственный педагогический институт.

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в современных условиях готовность студентов к сохранению и укреплению собственного здоровья, осознанному управлению состоянием здоровья и соблюдению принципов здорового образа жизни приобретает особое значение. Формирование валеологической компетентности в системе высшего образования рассматривается как важная составляющая подготовки гармонично развитой личности. В статье анализируются теоретические основы формирования валеологической компетентности студентов, а также педагогические, психологические, социально-культурные и индивидуальные факторы, влияющие на данный процесс.

ЦЕЛЬ: определить и теоретически обосновать основные факторы формирования валеологической компетентности студентов, а также выявить педагогические возможности её развития в образовательном процессе высшего образования.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании использованы анализ научно-педагогической, психологической и валеологической литературы, изучение нормативно-правовых документов в сфере образования и здравоохранения, сравнительно-аналитический подход, систематизация, контент-анализ, обобщение и педагогическое моделирование.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: результаты теоретического анализа показывают, что валеологическая компетентность не ограничивается наличием знаний о здоровье. Она включает ценностное отношение к здоровью, мотивацию к здоровому образу жизни, навыки самоконтроля, физическую активность, культуру питания, способность управлять стрессом и готовность применять знания в повседневной жизнедеятельности. Основными факторами её формирования определены содержание образования, образовательная среда, социальное окружение, семья, цифровая информационная среда, личная мотивация и педагогический пример.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: формирование валеологической компетентности студентов требует системного, непрерывного и личностно ориентированного подхода. Интеграция валеологического содержания в образовательные дисциплины, физическое воспитание, воспитательную работу и цифровые образовательные ресурсы создаёт условия для устойчивого формирования культуры здоровья студентов.

Ключевые слова: валеологическая компетентность, валеология, студент, здоровый образ жизни, культура здоровья, здоровое поведение, физическая активность, здоровье, педагогические факторы, компетентностный подход.

© intereduglobalstudy.com

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

FACTORS INFLUENCING THE FORMATION OF VALEOLOGICAL COMPETENCE AMONG STUDENTS.

Rakhimboyev Rustamjon Abdurahmon ugli, Bukhara State Pedagogical Institute.

Annotation

INTRODUCTION: in contemporary higher education, students' readiness to preserve and strengthen their own health, consciously manage their health status, and follow the principles of a healthy lifestyle is becoming increasingly important. The formation of valeological competence is considered an essential component of preparing a comprehensively developed and socially responsible individual. This article examines the theoretical foundations of developing students' valeological competence and analyzes the pedagogical, psychological, socio-cultural, and individual factors influencing its formation.

AIM: to identify and theoretically substantiate the main factors influencing the formation of students' valeological competence and determine the pedagogical opportunities for developing this competence within higher education.

MATERIALS AND METHODS: The study employed analysis of scientific literature in pedagogy, psychology, valeology and health education, examination of national and international conceptual documents, comparative analysis, content analysis, systematization, generalization, and pedagogical modelling.

DISCUSSION AND RESULTS: the theoretical analysis demonstrates that valeological competence cannot be reduced to knowledge about health. It includes a positive value-based attitude toward health, motivation for a healthy lifestyle, self-monitoring skills, physical activity, healthy nutrition, stress-management skills, and the ability to apply health-related knowledge in everyday life. The main factors influencing its formation include educational content, the learning environment, social and family environment, digital information space, personal motivation, and the teacher's personal example.

CONCLUSION: developing students' valeological competence requires a systematic, continuous, and learner-centred approach. Integrating valeological content into academic subjects, physical education, extracurricular activities, and digital learning resources can contribute to sustainable health-oriented behaviour and the development of students' health culture.

Keywords: valeological competence, valeology, student, healthy lifestyle, health culture, healthy behaviour, physical activity, health education, pedagogical factors, competency-based approach.

Bugungi kunda inson salomatligini saqlash va mustahkamlash masalasi nafaqat tibbiyot, balki pedagogika, psixologiya, sotsiologiya va boshqa fanlarning ham muhim tadqiqot yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda. Ayniqsa, talabalik davri shaxsning mustaqil

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

hayot tarziga faol moslashishi, kasbiy va ijtimoiy pozitsiyasining shakllanishi, kundalik odatlari hamda hayotiy qadriyatlarining barqarorlashuvi bilan tavsiflanadi. Shu sababli aynan oliy ta'lim davrida sog'lom turmush tarzini ongli ravishda tanlash, salomatlikni qadriyat sifatida anglash va uni saqlashga qaratilgan amaliy ko'nikmalarni shakllantirish muhim pedagogik vazifalardan biridir.

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti tomonidan salomatlik insonning faqat kasallik yoki jismoniy nuqsonlardan xoli bo'lishi emas, balki jismoniy, ruhiy va ijtimoiy farovonlik holati sifatida talqin qilinadi. Mazkur yondashuv sog'liq tushunchasining ko'p komponentli xususiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Demak, yoshlarni sog'lom hayotga tayyorlash jarayonida faqat kasalliklarning oldini olish yoki jismoniy chiniqish bilan chegaralanib qolmasdan, shaxsning psixologik barqarorligi, ijtimoiy moslashuvi, ma'naviy qadriyatlari va kundalik xulq-atvorini ham hisobga olish zarur.

Valeologik yondashuv aynan shu jihatdan ta'lim jarayoni uchun alohida ahamiyatga ega. Valeologiya shaxs salomatligini saqlash, mustahkamlash va sog'lom hayot faoliyatini tashkil etishning nazariy hamda amaliy asoslarini o'rganuvchi yo'nalish sifatida qaraladi. Ta'lim jarayonida valeologik yondashuvdan foydalanish talabaning o'z salomatligiga mas'uliyatli munosabatini shakllantirish, sog'lom xulq-atvor motivlarini rivojlantirish va kundalik faoliyatida salomatlikni muhofaza qilishga qaratilgan qarorlarni mustaqil qabul qilishiga sharoit yaratadi.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida ta'lim sohasining asosiy prinsiplaridan biri sifatida ta'lim oluvchilarning sog'lig'i va hayoti muhofaza qilinishini ta'minlash masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Shu bilan birga, mamlakatimizda yosh avlodning jismoniy va ma'naviy salomatligini mustahkamlash, sog'lom turmush tarzini keng targ'ib qilish, jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishga qaratilgan davlat siyosati ham valeologik kompetensiyani shakllantirish uchun zarur ijtimoiy-pedagogik muhitni yaratmoqda.

Talabalarda valeologik kompetensiyani shakllantirish muammosining dolzarbligi zamonaviy hayot tarzidagi o'zgarishlar bilan ham bog'liq. Raqamli texnologiyalarning keng tarqalishi, uzoq vaqt davomida o'tirib ishlash, jismoniy faollikning kamayishi, uyqu rejimining buzilishi, noto'g'ri ovqatlanish, psixoemotsional zo'riqish va axborot yuklamasining ortishi yoshlarning salomatligiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar qatoriga kiradi. Bunday sharoitda talabaga salomatlik haqidagi nazariy bilimni berishning o'zi yetarli emas. U mazkur bilimlarni kundalik hayotida qo'llay olishi, o'z xatti-harakatlarini baholashi, xavf omillarini anglay olishi va zarur hollarda sog'lom tanlovni amalga oshirishi lozim.

Shu nuqtai nazardan, valeologik kompetensiyani shaxsning o'z salomatligini anglash, uni qadriyat sifatida qabul qilish, salomatlikni saqlash va mustahkamlashga qaratilgan bilim, ko'nikma, motivatsiya hamda amaliy xulq-atvor birligi sifatida izohlash mumkin. Mazkur kompetensiya nazariy bilimlar bilan amaliy faoliyat o'rtasidagi bog'liqlikni ta'minlaydi.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

Kompetensiyaviy yondashuv zamonaviy oliy ta'limning muhim metodologik asoslaridan biri hisoblanadi. Mazkur yondashuvga ko‘ra, ta'lim natijasi faqat o‘zlashtirilgan bilimlar hajmi bilan emas, balki talabaning ushbu bilimlarni real hayotiy va kasbiy vaziyatlarda qo‘llay olish qobiliyati bilan belgilanadi. Shu jihatdan valeologik kompetensiya ham “salomatlik haqida bilish” darajasidan yuqoriroq tushuncha bo‘lib, bilim, qadriyat, motivatsiya va xulq-atvorning integrativ birligini ifodalaydi.

J. Raven kompetensiyani shaxsning muayyan faoliyatni samarali amalga oshirishiga imkon beruvchi sifatlar majmui sifatida talqin qiladi. Bu nuqtai nazar valeologik kompetensiyaning ham faqat bilim emas, balki shaxsning o‘z salomatligi bilan bog‘liq vaziyatlarda mustaqil va mas'uliyatli harakat qilish qobiliyatini qamrab olishini asoslash imkonini beradi.

Sog‘liqni saqlash sohasidagi zamonaviy yondashuvlarda salomatlikni shakllantirish shaxsning faol ishtirokini talab qiladigan jarayon sifatida qaraladi. 1986-yilda Ottavada qabul qilingan “Health Promotion” xartiyasida salomatlikni mustahkamlash insonlarga o‘z salomatligini nazorat qilish va uni yaxshilash imkoniyatlarini kengaytirish jarayoni sifatida izohlangan. Ushbu konsepsiya ta'lim jarayonida valeologik kompetensiyani rivojlantirishning metodologik asoslaridan biri bo‘lib xizmat qiladi.

Bundan tashqari, A. Banduraning ijtimoiy-kognitiv nazariyasi shaxs xulq-atvorining shakllanishida kuzatish, ijtimoiy muhit va o‘z-o‘ziga bo‘lgan ishonchning rolini asoslaydi. Talaba sog‘lom turmush tarzini faqat nazariy jihatdan o‘rganib qolmasdan, uni o‘z atrofidagi ijtimoiy muhitda ko‘rishi va amalda kuzatishi zarur. Shu sababli pedagog, guruhdoshlari, oila a'zolari va boshqa ijtimoiy muhit vakillarining sog‘lom xulq-atvori talaba uchun muhim ijtimoiy namuna bo‘lib xizmat qiladi.

E. Deci va R. Ryan tomonidan ishlab chiqilgan o‘z-o‘zini belgilash nazariyasi esa inson xulq-atvorida ichki motivatsiyaning ahamiyatini ko‘rsatadi. Sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda tashqi nazorat yoki majburlashdan ko‘ra, talabaning sog‘liqni shaxsiy qadriyat sifatida qabul qilishi va sog‘lom xulq-atvorni ichki ehtiyoj asosida tanlashi barqarorroq natija beradi.

Shuningdek, A. Maslouning ehtiyojlar ierarxiyasi nazariyasida insonning fiziologik va xavfsizlik ehtiyojlari uning keyingi rivojlanishi uchun muhim asos sifatida qaraladi. Mazkur yondashuv ta'lim oluvchining samarali o‘qishi, o‘zini rivojlantirishi va ijtimoiy faolligi uchun salomatlik bilan bog‘liq ehtiyojlarning qondirilishi muhimligini ko‘rsatadi.

VALEOLOGIK KOMPETENSIYANING TARKIBI

Nazariy manbalarni tahlil qilish asosida talabalarda valeologik kompetensiyani to‘rtta o‘zaro bog‘liq komponent orqali tavsiflash maqsadga muvofiq.

Kognitiv komponent — salomatlik, sog‘lom turmush tarzi, jismoniy faollik, ovqatlanish, uyqu, gigiyena, stress va zararli odatlarning oqibatlari to‘g‘risidagi ilmiy bilimlarni o‘zlashtirishni nazarda tutadi. Talaba sog‘liqka ta'sir etuvchi omillarni bilishi, turli xavf omillarini farqlashi va ilmiy asoslangan ma'lumotni noto‘g‘ri yoki ishonchsiz axborotdan ajrata olishi lozim.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

Qadriyat-motivatsion komponent salomatlikni shaxsiy va ijtimoiy qadriyat sifatida anglash, sog‘lom turmush tarziga ichki ehtiyojning shakllanishi hamda sog‘lom xulq-atvorni ongli ravishda tanlashga tayyorlikni ifodalaydi. Bu komponent valeologik kompetensiyaning eng muhim jihatlaridan biridir, chunki bilimning mavjudligi har doim ham sog‘lom xulq-atvorga olib kelmaydi.

Amaliy-faoliyat komponenti salomatlikni saqlashga qaratilgan amaliy ko‘nikmalarni o‘z ichiga oladi. Jumladan, jismoniy mashqlarni muntazam bajarish, kun tartibini to‘g‘ri tashkil etish, ovqatlanish rejimiga rioya qilish, shaxsiy gigiyena, ish va dam olishni muvozanatlashtirish, stressni boshqarish hamda raqamli qurilmalardan oqilona foydalanish shular jumlasidandir.

Refleksiv-baholash komponenti talabaning o‘z salomatligi va xulq-atvorini tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash, o‘z faoliyatini baholash va zarur o‘zgarishlarni amalga oshirish qobiliyatini ifodalaydi. Mazkur komponent o‘z-o‘zini nazorat qilish va sog‘lom xulq-atvorning barqarorligini ta’minlaydi.

Shunday qilib, valeologik kompetensiyani faqat “salomatlik haqidagi bilimlar” bilan chegaralash ilmiy jihatdan yetarli emas. U bilim, munosabat, motivatsiya, amaliy ko‘nikma va refleksiyaning yaxlit tizimi sifatida qaralishi lozim.

TALABALARDA VALEOLOGIK KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISHNING ASOSIY OMILLARI

Talabalarda valeologik kompetensiyaning shakllanishi ko‘plab omillarning o‘zaro ta’siri natijasida yuzaga keladi. Ularni shartli ravishda pedagogik, psixologik, ijtimoiy-madaniy, individual va axborot-raqamli omillarga ajratish mumkin.

Birinchi muhim omil — ta’lim mazmuni. Oliy ta’limda talabalarga salomatlik bilan bog‘liq bilimlarni tizimli ravishda yetkazish, ularni kundalik hayot bilan bog‘lash va nazariy ma’lumotlarni amaliy topshiriqlar bilan uyg‘unlashtirish zarur. Valeologik mazmun alohida fan doirasidagina emas, balki biologiya, pedagogika, psixologiya, jismoniy tarbiya, fiziologiya, ekologiya va boshqa fanlar bilan integratsiyalashgan holda berilishi mumkin.

Ikkinchi omil — ta’lim muhitining sog‘lomlashtiruvchi xususiyati. Oliy ta’lim muassasasidagi psixologik muhit, auditoriyalarning ergonomik sharoiti, sport va jismoniy faollik uchun yaratilgan imkoniyatlar, sog‘lom ovqatlanish sharoitlari hamda talabalar bilan ishlashning pedagogik usullari ularning salomatlikka munosabatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Uchinchi omil — shaxsiy motivatsiya. Talaba nima sababdan sog‘lom turmush tarziga amal qilishi kerakligini anglamasa, tashqi talablar barqaror xulq-atvorni shakllantirmasligi mumkin. Shu sababli ta’lim jarayonida salomatlikning insonning ta’limdagi muvaffaqiyati, kasbiy faoliyati, hayot sifati va kelajakdagi oilaviy farovonligi bilan bog‘liqligini ochib berish muhim.

To‘rtinchi omil — ijtimoiy muhit. Talabaning do‘stlari, guruhdoshlari, oila a’zolari va boshqa yaqin ijtimoiy aloqalari uning kundalik odatlariga ta’sir ko‘rsatadi. Sog‘lom turmush

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

tarzini qo‘llab-quvvatlaydigan ijtimoiy muhit jismoniy faollik, sog‘lom ovqatlanish va zararli odatlardan voz kechish kabi xatti-harakatlarning shakllanishiga ijobiy ta’sir etadi.

Beshinchi omil — oila muhiti. Sog‘lom ovqatlanish, kun tartibi, gigiyena, jismoniy faollik va salomatlikka munosabat kabi ko‘plab odatlar dastlab oilada shakllanadi. Oliy ta’lim bosqichida talaba nisbatan mustaqil hayot tarziga o‘tsa-da, oilada shakllangan qadriyat va xulq-atvor modellari uning keyingi hayotida ham muhim rol o‘ynaydi.

Oltinchi omil — pedagogning shaxsiy namunasi. Talabalarga sog‘lom turmush tarzi haqida ma’ruza qiluvchi pedagogning o‘zi sog‘lom xulq-atvor namunasini ko‘rsatishi ta’lim samaradorligini oshiradi. Pedagogning o‘z vaqtini to‘g‘ri tashkil etishi, psixologik barqarorligi, muloqot madaniyati va salomatlikka mas’uliyatli munosabati talabalarga bevosita yoki bilvosita ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Yettinchi omil — jismoniy faollik uchun yaratilgan imkoniyatlar. Muntazam jismoniy faollik sog‘lom turmush tarzining asosiy tarkibiy qismlaridan biridir. Shu sababli oliy ta’lim muassasalarida sport to‘garaklari, sog‘lomlashtirish mashg‘ulotlari, ommaviy sport tadbirlari va faol dam olish shakllarini kengaytirish maqsadga muvofiq.

Sakkizinchi omil — raqamli-axborot muhiti. Bugungi talaba salomatlikka oid juda katta miqdordagi axborotga ega. Biroq internetdagi barcha ma’lumotlar ilmiy jihatdan ishonchli emas. Shuning uchun valeologik kompetensiyaning zamonaviy tarkibiga sog‘liq haqidagi axborotni izlash, baholash, ishonchli manbalarni tanlash va noto‘g‘ri tibbiy ma’lumotlardan himoyalanish ko‘nikmalarini ham kiritish zarur.

Mazkur tadqiqot nazariy-tahliliy xarakterga ega bo‘lib, talabalarda valeologik kompetensiyani shakllantirish omillarini aniqlashga qaratildi. Tadqiqot jarayonida quyidagi metodlardan foydalanildi:

Nazariy metodlar: valeologiya, pedagogika, psixologiya va sog‘liqni saqlash sohasidagi ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, tizimlashtirish, umumlashtirish va qiyoslash.

Qiyosiy-tahliliy metod: turli ilmiy maktab va konsepsiyalarda salomatlik, sog‘lom turmush tarzi, kompetensiya hamda sog‘liq madaniyati tushunchalarining talqinlarini qiyosiy o‘rganish.

Kontent-tahlil: xalqaro va milliy me’yoriy hujjatlar, ta’lim standartlari hamda sog‘liqni saqlashga oid konseptual materiallarning mazmunini tahlil qilish.

Pedagogik modellashtirish: valeologik kompetensiyaning tarkibiy komponentlari va unga ta’sir qiluvchi omillar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni tizimlashtirish.

Tadqiqotning metodologik asosini kompetensiyaviy, tizimli, shaxsga yo‘naltirilgan, faoliyatga asoslangan va sog‘lomlashtiruvchi yondashuvlar tashkil etdi.

Nazariy tahlil natijasida talabalarda valeologik kompetensiyani shakllantirishni bir martalik tarbiyaviy tadbir emas, balki oliy ta’limning barcha bosqichlarini qamrab oluvchi uzluksiz pedagogik jarayon sifatida tashkil etish zarurligi aniqlandi.

Birinchi navbatda, “bilim → anglash → motivatsiya → amaliy faoliyat → o‘z-o‘zini nazorat qilish” ketma-ketligi muhim hisoblanadi. Talaba dastlab salomatlik to‘g‘risida ilmiy bilimga ega bo‘ladi. Keyinchalik mazkur bilimning shaxsiy hayoti uchun ahamiyatini

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

anglaydi. Anglash motivatsiyani yuzaga keltiradi, motivatsiya esa amaliy faoliyatga o‘tishni ta’minlaydi. Amaliy faoliyat muntazam takrorlanganda sog‘lom odatlar shakllanadi. O‘z-o‘zini nazorat qilish esa ushbu odatlarning barqarorligini ta’minlaydi.

Ikkinchidan, valeologik ta’lim faqat nazariy mashg‘ulotlar bilan cheklanmasligi kerak. Masalan, talabalarga sog‘lom ovqatlanishning nazariy asoslarini tushuntirish bilan bir qatorda, bir kunlik ratsionni tahlil qilish, oziq-ovqat mahsulotlarining tarkibini o‘rganish, kunlik suv iste’moli va jismoniy faollikni kuzatish kabi amaliy topshiriqlar berilishi mumkin.

Uchinchidan, refleksiv metodlar valeologik kompetensiyani shakllantirishda muhim pedagogik imkoniyatga ega. Talabaning o‘z uyqu rejimi, jismoniy faolligi, ovqatlanish tartibi, raqamli qurilmalardan foydalanish va dam olish vaqtini tahlil qilishi uning o‘z xulq-atvoriga tanqidiy qarashini rivojlantiradi.

To‘rtinchidan, interfaol pedagogik texnologiyalardan foydalanish talabaning faol ishtirokini ta’minlaydi. Muammoli vaziyatlar, keyslar, loyiha ishlari, munozaralar, guruhiy topshiriqlar va sog‘lom turmush tarziga oid mini-loyihalar orqali talabalar salomatlik bilan bog‘liq real vaziyatlarni tahlil qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Beshinchidan, oliy ta’limda “sog‘lom universitet” konsepsiyasi elementlarini rivojlantirish valeologik kompetensiyaning shakllanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Bunda ta’lim muassasasining jismoniy muhiti, psixologik iqlimi, sport infratuzilmasi, sog‘lom ovqatlanish imkoniyatlari, profilaktik tadbirlar va talabalar bilan individual ishlash tizimi o‘zaro uyg‘unlashtiriladi.

Oltinchidan, raqamli texnologiyalardan oqilona foydalanish valeologik ta’limning yangi imkoniyatlarini yaratadi. Mobil ilovalar, elektron kundaliklar, jismoniy faollikni kuzatish vositalari, onlayn ta’lim platformalari va multimedia resurslari talabalarning o‘z salomatligini kuzatish va tahlil qilish imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalarning o‘zi ham me’yorida qo‘llanilishi lozim, chunki uzoq vaqt ekran qarshisida bo‘lish kamharakatlilik va uyqu rejimining buzilishi kabi muammolarni kuchaytirishi mumkin.

Nazariy tahlil asosida talabalarda valeologik kompetensiyani shakllantirishning quyidagi pedagogik modeli taklif etiladi:

Maqsad: talabaning salomatlikni qadriyat sifatida anglashi va uni saqlashga qaratilgan barqaror xulq-atvorini shakllantirish.

Mazmun: salomatlik haqidagi bilimlar, sog‘lom turmush tarzi, jismoniy faollik, ovqatlanish, gigiyena, psixologik salomatlik, stressni boshqarish va raqamli gigiyena.

Metodlar: muammoli ta’lim, loyiha metodi, keys-stadi, munozara, trening, refleksiya, amaliy mashg‘ulotlar va individual topshiriqlar.

Vositalar: darsliklar, multimedia resurslari, raqamli platformalar, mobil ilovalar, sport jihozlari, sog‘lomlashtirish dasturlari va diagnostik materiallar.

Natija: sog‘liq haqida yetarli bilimga ega, sog‘lom turmush tarzini qadrlaydigan, o‘z xulq-atvorini nazorat qila oladigan va salomatlikni mustahkamlashga qaratilgan amaliy faoliyatni mustaqil tashkil eta oladigan kompetent shaxs.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

Mazkur modelning o‘ziga xos jihati shundaki, unda valeologik kompetensiya faqat jismoniy salomatlik bilan bog‘lanmaydi. U shaxsning jismoniy, psixologik, ijtimoiy va ma’naviy farovonligi bilan birgalikda qaraladi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi talabalarda valeologik kompetensiyani shakllantirish omillarining yaxlit tizim sifatida umumlashtirilganligi bilan belgilanadi. Tadqiqot doirasida valeologik kompetensiyaning kognitiv, qadriyat-motivatsion, amaliy-faoliyat va refleksiv-baholash komponentlari o‘zaro bog‘liq tizim sifatida asoslandi.

Shuningdek, valeologik kompetensiyani shakllantirishga ta’sir etuvchi omillar ta’lim mazmuni, pedagogik muhit, shaxsiy motivatsiya, ijtimoiy muhit, oila, pedagogning shaxsiy namunasi, jismoniy faollik imkoniyatlari va raqamli-axborot muhiti kabi yo‘nalishlarda tizimlashtirildi.

Tadqiqotning yana bir muhim jihati shundan iboratki, talabaning valeologik kompetensiyasi salomatlikka oid bilimlarni o‘zlashtirish natijasi sifatida emas, balki bilim–qadriyat–motivatsiya–faoliyat–refleksiya uzviyligi asosida shakllanuvchi kompleks kompetensiya sifatida talqin qilindi.

Olib borilgan nazariy tahlil talabalarda valeologik kompetensiyani shakllantirish zamonaviy oliy ta’limning muhim pedagogik vazifalaridan biri ekanligini ko‘rsatdi. Valeologik kompetensiya talabaning salomatlik haqidagi bilimlari bilangina belgilanmaydi, balki uning salomatlikka qadriyatli munosabati, sog‘lom hayot tarziga bo‘lgan motivatsiyasi, amaliy ko‘nikmalari va o‘z xulq-atvorini nazorat qilish qobiliyatini ham qamrab oladi.

Talabalarda valeologik kompetensiyani shakllantirishda ta’lim mazmuni, pedagogik muhit, shaxsiy motivatsiya, oila va ijtimoiy muhit, jismoniy faollik uchun yaratilgan sharoitlar, pedagogning shaxsiy namunasi hamda raqamli-axborot makoni muhim omillar sifatida namoyon bo‘ladi.

Valeologik kompetensiyaning samarali shakllanishi uchun oliy ta’lim jarayonida sog‘liq bilan bog‘liq bilimlarni amaliy faoliyat bilan integratsiyalash, talabaning mustaqil qaror qabul qilishini qo‘llab-quvvatlash, refleksiv ko‘nikmalarni rivojlantirish va sog‘lom ta’lim muhitini yaratish zarur.

Shuningdek, sog‘lom turmush tarzi masalalarini alohida tadbirlar doirasida emas, balki ta’limning umumiy mazmuni va tarbiyaviy jarayon bilan uzviy bog‘liq holda olib borish maqsadga muvofiq. Bunday yondashuv talabaning salomatlikka nisbatan mas’uliyatli munosabatini shakllantirish bilan birga, uning kelgusidagi kasbiy faoliyatida ham sog‘lom turmush tarzi va salomatlik madaniyatini targ‘ib qila oladigan mutaxassis sifatida shakllanishiga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, valeologik kompetensiya — shaxsning o‘z salomatligini anglash, qadrlash, saqlash va mustahkamlashga qaratilgan bilim, motivatsiya, amaliy ko‘nikma va refleksiv faoliyatining integrativ natijasidir. Uni oliy ta’lim jarayonida shakllantirish esa jismoniy jihatdan sog‘lom, psixologik barqaror, ijtimoiy faol va o‘z hayoti uchun mas’uliyatni his qiladigan yetuk shaxsni tayyorlashning muhim shartlaridan biridir.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi. (2020). Ta’lim to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni. Toshkent: Adolat.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2019). O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi. Toshkent.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2020). Sog‘lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi PF-6099-son Farmon. Toshkent.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2022). 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risidagi PF-60-son Farmon. Toshkent.
5. Abdullaev, A. (2007). Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi. Toshkent: O‘zDJTI.
6. Avloniy, A. (2019). Turkiy Guliston yoxud axloq. Toshkent: O‘zbekiston.
7. Mavlonova, R., To‘rayeva, O., & Holiqberdiyev, K. (2013). Pedagogika. Toshkent: O‘qituvchi.
8. Xoliqov, A. (2011). Pedagogik mahorat. Toshkent: Iqtisod-Moliya.
9. Bandura, A. (1986). Social Foundations of Thought and Action: A Social Cognitive Theory. Englewood Cliffs, NJ: Prentice-Hall.
10. Deci, E. L., & Ryan, R. M. (2000). The “What” and “Why” of Goal Pursuits: Human Needs and the Self-Determination of Behavior. Psychological Inquiry, 11(4), 227–268.
11. Maslow, A. H. (1943). A Theory of Human Motivation. Psychological Review, 50(4), 370–396.
12. Nutbeam, D. (2000). Health Literacy as a Public Health Goal: A Challenge for Contemporary Health Education and Communication Strategies into the 21st Century. Health Promotion International, 15(3), 259–267.
13. Pender, N. J., Murdaugh, C. L., & Parsons, M. A. (2015). Health Promotion in Nursing Practice. Pearson.
14. Raven, J. (1984). Competence in Modern Society: Its Identification, Development and Release. London: H.K. Lewis.
15. World Health Organization. (1986). Ottawa Charter for Health Promotion. Geneva: WHO.
16. World Health Organization. (1948). Constitution of the World Health Organization. Geneva: WHO.
17. World Health Organization. (2020). WHO Guidelines on Physical Activity and Sedentary Behaviour. Geneva: World Health Organization.
18. World Health Organization. (2022). Global Status Report on Physical Activity 2022. Geneva: World Health Organization.
19. OECD. (2019). OECD Learning Compass 2030: A Series of Concept Notes. Paris: OECD Publishing.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

TALABALARNI INTERFERENSIV KOMPENTENTLIGINI ANALITIK TA`LIM KONSEPSIYASINI ASOSIDA RIVOJLANTIRISH METODIKASI. (Lotin tili va tibbiy terminologiyasi fani misolida).

Xoshimova Azizaxon Saxobiddin qizi, Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti Lotin tili va tibbiy terminologiyasi fani o‘qituvchisi.

Annotatsiya

KIRISH: ushbu maqolada oliy tibbiy ta'lim muassasalari talabalarida "Lotin tili va tibbiy terminologiya" fanini o‘zlashtirish jarayonida analitik ta'lim konsepsiyasiga tayangan holda interferentiv kompetentlikni shakllantirishning nazariy va metodologik asoslari yoritilgan. Maqolada ko‘ptillilik (T1–T2–T3) dinamikasida yuzaga keluvchi lingvopsixologik hamda kognitiv omillar tahlil qilinib, fonetik, morfologik va leksik-semantik interferensiyani bartaraf etish hamda ijobiy transpozitsiyaga yo‘naltirish yo‘llari ko‘rsatib berilgan. Shuningdek, sohadagi ilg‘or xorijiy va mahalliy tajribalar analitik umumlashtirilgan.

MAQSAD: analitik ta’lim konsepsiyasiga tayangan holda bo‘lajak shifokorlarda interferentiv kompetentlikni rivojlantirishning kognitiv, metodologik hamda amaliy-pedagogik asoslarini tadqiq etish va takomillashtirishdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda analitik umumlashtirish, kognat-orientatsiyalashgan qiyosiy-strukturaviy tahlil, terminologik dekonstruksiya va rekonstruksiya hamda CLIL va raqamli didaktika (Quizlet, LearningApps) vositalaridan foydalanildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: trilingval muhitda T1 (o‘zbek) va T2 (rus/ingliz) ta’sirida yuzaga keladigan chalg‘ituvchi ko‘chishlar aniqlanib, grek-lotin dubletlari, kognat banklari hamda dekonstruktiv-rekonstruktiv mashqlar majmuasi orqali salbiy interferensiyani ijobiy transpozitsiyaga aylantirish algoritmi ishlab chiqildi.

XULOSA: analitik ta’lim konsepsiyasi va interferentiv kompetentlikni joriy etish talabalarni mexanik yodlashdan xalos etib, mantiqiy-dekonstruktiv fikrlash hamda barqaror professional terminologik immunitetni shakllantirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: analitik ta'lim, interferentiv kompetentlik, Lotin tili, tibbiy terminologiya, trilingvizm (T1–T2–T3), grek-lotin dubletlari, kognat, dekonstruksiya, transpozitsiya.

МЕТОДИКА РАЗВИТИЯ ИНТЕРФЕРЕНЦИОННОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ НА ОСНОВЕ КОНЦЕПЦИИ АНАЛИТИЧЕСКОГО ОБУЧЕНИЯ (на примере дисциплины «Латинский язык и медицинская терминология»)

Хошимова Азизахон Сахобиддин кизи, преподаватель дисциплины «Латинский язык и медицинская терминология», Ферганский медицинский институт общественного здоровья.

Аннотация

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

ВВЕДЕНИЕ: в данной статье освещаются теоретические и методологические основы формирования интерферентной компетенции студентов высших медицинских учебных заведений на основе концепции аналитического обучения при освоении дисциплины «Латинский язык и медицинская терминология». В статье анализируются лингвопсихологические и когнитивные факторы, возникающие в динамике полиязычия (Т1–Т2–Т3), и отражены пути преодоления фонетической, морфологической и лексико-семантической интерференции, а также её направления в сторону положительного переноса (транспозиции). Кроме того, аналитически обобщен передовой зарубежный и отечественный педагогический опыт.

ЦЕЛЬ: исследование и совершенствование когнитивных, методологических и практико-педагогических основ формирования интерферентной компетенции у будущих врачей на основе концепции аналитического обучения.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в работе использованы методы аналитического обобщения, когнантно-ориентированного сравнительно-структурного анализа, терминологической деконструкции и реконструкции, а также средства предметно-языкового интегрированного обучения (CLIL) и цифровой дидактики (Quizlet, LearningApps).

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: выявлены механизмы отрицательного переноса под влиянием Т1 (узбекский) и Т2 (русский/английский), и разработан алгоритм трансформации негативной интерференции в положительную транспозицию посредством греко-латинских дублетов, банков когнатов и комплекса деконструктивно-реконструктивных упражнений.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: внедрение концепции аналитического обучения и интерферентной компетенции избавляет студентов от механического заучивания, способствуя развитию логико-деконструктивного мышления и устойчивого профессионального терминологического иммунитета.

Ключевые слова: аналитическое обучение, интерферентная компетенция, латинский язык, медицинская терминология, трилингвизм (Т1–Т2–Т3), греко-латинские дублеты, когнат, деконструкция.

METHODOLOGY FOR DEVELOPING STUDENTS' INTERFERENCE COMPETENCE BASED ON THE CONCEPT OF ANALYTICAL EDUCATION (On the Example of the Subject "Latin Language and Medical Terminology").

Khoshimova Azizakhon Sakhobiddin qizi, Lecturer of Latin Language and Medical Terminology, Fergana Medical Institute of Public Health.

Annotation

INTRODUCTION: this article highlights the theoretical and methodological foundations of developing interferential competence in students of higher medical educational institutions based on the analytic learning concept during the acquisition of the

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

course "Latin Language and Medical Terminology". The paper analyzes the linguopsychological and cognitive factors arising in the dynamics of multilingualism (T1–T2–T3) and outlines methods for overcoming phonetic, morphological, and lexico-semantic interference while directing it toward positive transfer (transposition). Furthermore, advanced international and domestic pedagogical experiences in the field have been analytically synthesized.

AIM: to examine and enhance the cognitive, methodological, and practical pedagogical foundations for developing interferential competence in future medical professionals based on the analytic learning concept.

MATERIALS AND METHODS: the research employed methods of analytical synthesis, cognate-oriented comparative structural analysis, terminological deconstruction and reconstruction, along with Content and Language Integrated Learning (CLIL) and digital didactic tools (Quizlet, LearningApps).

DISCUSSION AND RESULTS: mechanisms of negative transfer caused by T1 (Uzbek) and T2 (Russian/English) were identified, and an algorithm for transforming negative interference into positive transposition was developed through Greek-Latin doublets, cognate banks, and a system of deconstructive-reconstructive exercises.

CONCLUSION: implementing the analytic learning concept and interferential competence frees students from rote memorization, fostering logical-deconstructive reasoning and establishing a robust professional terminological immunity.

Keywords: analytic learning, interferential competence, Latin language, medical terminology, trilingualism (T1–T2–T3), Greek-Latin doublets, cognate, deconstruction.

Zamonaviy oliy tibbiy ta’lim tizimini tubdan isloh qilish va uni jahon ta’lim standartlariga integratsiyalash jarayonida bo‘lajak shifokorlarning leksik hamda kasbiy-kommunikativ kompetentligini oshirish alohida dolzarblik kasb etmoqda. Tibbiyot sohasi mutaxassisining professional kamoloti bevosita uning xalqaro tibbiyot tili, ilmiy muloqot va barcha tibbiy bilimlar asosi hisoblangan Lotin tili hamda anatomik, klinik ва farmatsevtik terminologiyani qay darajada mukammal ва chuqur egallaganligi bilan belgilanadi. Bugungi kunda oliy tibbiy ta’lim muassasalarida "Lotin tili va tibbiy terminologiya" fanini o‘qitish shunchaki grammatik qoidalar va lug‘at birliklarini mexanik yodlashdan emas, balki talabalarda mantiqiy, analitik va dekonstruktiv fikrlash salohiyatini shakllantirishdan iboratdir.

Respublikamiz oliy tibbiy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayoni murakkab ko‘ptilli (multilingval) va ko‘p madaniyatli muhitda kechadi. Talabalar o‘quv faoliyatida kamida uchta til tizimi to‘qnashadigan trilingval sharoitda (T1 — ona tili / o‘zbek tili, T2 — ikkinchi til / rus yoki ingliz tili, T3 — o‘rganilayotgan maqsadli til / Lotin va grek terminologiyasi) bilim oladilar. Bunday ko‘ptillilik sharoitida talabalar o‘zlarining ilgari shakllangan til tajribalari (T1 va T2) qoidalari, talaffuz hamda grammatik stereotiplarini ixtiyorsiz ravishda

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

Lotin tili (T3) va tibbiy terminologiya doirasiga ko‘chiradilar. Ushbu jarayon lingvodidaktikada interferensiya (tillararo chalg‘ituvchi va salbiy ko‘chish) hodisasi deb ataladi.

An’anaviy ta’lim metodikasida ushbu interferensiya hodisasiga shunchaki "yo‘l qo‘yilgan xatolik" deb qaralgan bo‘lsa, zamonaviy kognitiv pedagogika va lingvodidaktikada unga ta’lim samaradorligini oshirishning muhim analitik manbai sifatida yondashilmoqda. Shu sababli, talabalarga Lotin tili va tibbiy terminologiyani o‘rgatishda tayyor terminologik ma’lumotlarni berish emas, balki ularda interferensial kompetentlikni va analitik fikrlash layoqatini rivojlantirish zarurati tug‘iladi.

Interferensial kompetentlik talabaga turli tillar tizimidagi o‘xshashlik hamda tafovutlarni mantiqiy tahlil qilish, salbiy ko‘chishlarni (interferensiyani) oldindan ko‘ra bilish, ularni bartaraf etish hamda ijobiy tomonga (transpozitsiyaga) yo‘naltirish imkonini beradi. Ushbu maqolaning maqsadi — oliy tibbiy ta’lim muassasalari talabalarida Lotin tili va tibbiy terminologiyani o‘rgatishda analitik ta’lim konsepsiyasiga tayangan holda interferensial kompetentlikni rivojlantirishning nazariy, kognitiv va metodologik asoslarini tadqiq qilish hamda ularni bartaraf etishning amaliy yo‘llarini ko‘rsatib berishdan iboratdir.

1. Analitik ta’lim konsepsiyasining ilmiy-metodologik mexanizmi va T1–T2–T3 dinamikasi

Analitik ta’lim konsepsiyasi (Analytic Learning Theory) talabalarda terminologik materialni shunchaki yodlash (rote learning) amaliyotidan voz kechib, ularni ilmiy-dekonstruktiv fikrlashga yo‘naltiradi. Ushbu konsepsiya doirasida ta’lim oluvchining kognitiv faoliyati tayyor bilimni qabul qilishga emas, balki terminologik birlikning ichki va tashqi strukturaviy-semantik munosabatlarini mustaqil va mantiqiy tahlil qilishga qaratiladi.

Oliy tibbiy ta’lim sharoitida talaba uchta til tizimi to‘qnashadigan murakkab kognitiv muhitda faoliyat olib boradi. Ushbu dinamikada tillarning vazifalari va kognitiv yuklamalari quyidagicha taqsimlanadi:

T1 (ona tili / o‘zbek tili) — talabaning birinchi kognitiv va mantiqiy filtri bo‘lib, u orqali dunyoni anglash, mantiqiy kategoriyalarni idrok etish va birinchi til tajribasi amalga oshadi.

T2 (ikkinchi til / rus yoki ingliz tili) — vositachi til va xalqaro kognat bazasi bo‘lib, u Lotin va grek tili bilan ko‘plab grammatik, orfografik va leksik o‘xshashliklarga hamda umumiy ildizlarga ega.

T3 (o‘rganilayotgan til / Lotin va grek terminologiyasi) — professional va ilmiy maqsadli til bo‘lib, u tibbiyot sohasi bo‘yicha anatomik, klinik va farmatsevtik bilimlarning kodlangan va standartlashtirilgan shaklidir.

Ushbu T1–T2–T3 kognitiv zanjirida analitik ta’lim yondashuvi quyidagi uch bosqichli pedagogik алгоритмни amalga oshirishni nazarda tutadi:

Birinchidan, terminologik dekonstruksiya va rekonstruksiya bosqichi. Tibbiy va anatomik termin yaxlit so‘z sifatida emas, balki tarkibiy va ma’nodor qismlarga (prefiks, ildiz / klinik terminolelement, suffiks va grammatik ko‘rsatkichlar) ajratiladi. Talaba terminning har bir qismini mantiqiy tahlil qilib, so‘ngra uning umumiy klinik yoki anatomik

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

ma’nosini qayta sintez (rekonstruksiya) qiladi. Masalan, "Cardiomyopathia" termini analitik dekonstruksiya qilinganda: cardio- (yurak) + myo- (muskul) + -pathia (kasallik, patologik holat) qismlariga ajratiladi va "yurak mushaklarining kasalligi" degan aniq va mantiqiy xulosa chiqariladi.

Ikkinchidan, kognat-orientatsiyalashgan qiyosiy tahlil bosqichi. Lotin va grek termin elementlarining zamonaviy tillardagi (T2 va T1) kognatizmlari (mos keluvchi baynalmilal so‘z shakllari) bilan solishtirma-analitik tahlili yo‘lga қўyiladi. Masalan, Lotin tilidagi "pulmo" (o‘pka) so‘zi yoki grekcha "pneumon" ildizi T2 (ingliz / rus) tilidagi "pneumonia" yoki "pulmonary" kabi xalqaro kognatlar bilan qiyoslanadi. Bu esa talabaning lingvistik xotirasini faollashtirib, yangi terminni tez va oson o‘zlashtirishga xizmat qiladi.

Uchinchidan, mantiqiy-kognitiv filtrlash va korreksiya bosqichi. Talaba oldingi til stereotiplari tufayli yuzaga keladigan chalg‘ituvchi ko‘chishlarni (interferensiyani) anglagan holda, salbiy ta’sirni zararsizlantiradi va to‘g‘ri lingvistik qoidani tanlaydi. Ushbu bosqichda talaba "nima uchun xato qildim?" va "bu xatolik qaysi til ta’sirida yuz berdi?" degan savollarga analitik javob topadi.

2. Lingvopsixologik interferensiya tiplari va ularning kognitiv tahlili

Tibbiyot fakulteti talabalarining Lotin tili va tibbiy terminologiyasini egallash jarayonida uchraydigan lingvistik to‘siqlari va xatoliklari uchta asosiy darajada namoyon bo‘ladi va ularning har biri alohida kognitiv va pedagogik tahlilni talab etadi:

A) Fonetik-orfografik interferensiya va uning bartaraf etilishi

Ushbu interferensiya turi asosan T2 (ingliz yoki rus tili) fonetik va orfografik qoidalarining Lotin (T3) tiliga salbiy ko‘chishi natijasida sodir bo‘ladi. Masalan, ingliz tilini faol o‘rgangan talabalar Lotin tilidagi "Physiologia" so‘zidagi ph harf birikmasini yoki "Thorax" so‘zidagi th birikmasini inglizcha interdental (tish oralig‘i) talaffuz qoidasiga solishga urinadilar.

Shuningdek, Lotin tilidagi C harfini pozitsiyasidan qat’i nazar barcha o‘rinlarda [k] deb o‘qish yoki har doim [ts] deb talaffuz qilish holatlari kuzatiladi. Vaholanki, klassik va tibbiy Lotin tili qoidasiga кўра, C harfi e, i, y, ae, oe unlilaridan oldin [ts], boshqa hollarda esa [k] deb o‘qilishi lozim. Ushbu xatoliklarni analitik bartaraf etish учун harf birikmalari va pozitsion talaffuz qoidalarini analitik-qiyosiy qoidalar hamda fonetik mashqlar yordamida o‘rganish talab etiladi.

B) Morfologik-sinfiy interferensiya va grammatik transpozitsiya

Morfologik darajadagi interferensiya o‘zbek tili (T1) va Lotin tili (T3) o‘rtasidagi tipologik va strukturaviy tafovutlardan kelib chiqadi. O‘zbek tili agglyutinativ til bo‘lib, unda grammatik rod (jins) va sifatlarning otlar bilan jins va kelishikda moslashuvi hodisasi мавжуд эмас. Sifat otning oldida shunchaki o‘zgarmas shaklda keladi (masalan: katta suyak, katta suyakning, katta suyaklar).

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

Lotin tili esa flektiv til bo‘lib, unda uchta jins (masculinum, femininum, neutrum) ва murakkab kelishik turlanishi hamda ot va sifatning o‘zaro jins, son va kelishikda to‘liq moslashishi talab etiladi. Tibbiyot talabalari anatomik nomlarni tuzishda ot va sifatni moslashtirishda tez-tez xatoga yo‘l қўyadilar. Masalan, "Systema nervosum" (asab tizimi) birikmasida "systema" so‘zi -а қўшимчаси bilan tugasa-da, u yunoncha o‘zlashma bo‘lib, neutrum (orta jins)ra tegishli bo‘lgani uchun sifat ham neutrum shaklida (nervosum) bo‘lishi lozim бўлади. Biroq talabalar T1 dagi moslashuv yo‘qligi yoki T2 (rus tili)dagi rodlar mos kelmasligi sababli "Systema nervosum" o‘rniga "Systema nervosa" yoki "Systema nervosus" shaklini қўллаб қўyadilar. Buni bartaraf etish ot va sifatlarning turlanish sinflarini dekonstruktiv retsessiv sxemalar yordamida tahlil qilishni talab қилади.

C) Leksik-semantik va grek-lotin dubletlari interferensiyasi

Tibbiy terminologiyaning eng murakkab va hajmli qismlaridan biri — bu anatomik nomlash va klinik tashxis nomlash o‘rtasidagi grek-lotin dubletlaridir. Anatomik terminologiyada asosan Lotincha ildizlar қўлланилса (ren — buyrak, os — og‘iz, cor — yurak, cutis — teri), klinik terminologiyada ushbu a’zolar kasalliklari, jarrohlik amaliyotlari va patologiyalarini ifodalash uchun Grekcha terminolelementlar қўлланилади (nephros — nephritis, stoma — stomatitis, cardia — carditis, derma — dermatitis).

Talabalar o‘quv jarayonida ushbu dubletlarni chalkashtirib, klinik tashxisda Lotincha ildizlarni қўллаш xatoligiga yo‘l қўйишади (masalan, nephritis o‘rniga renitis deb noto‘g‘ri termin yasashadi). Grek-lotin ma’nodoshlik va etimologik dubletlar kognat bankini shakllantirish hamda ularning semantik doirasini ajratish orqali ushbu leksik interferensiyaning oldi olinadi.

3. Analitik ta’limda kognitiv vositalar va dekonstruktiv mashqlar sistemasi

Interferensial kompetentlikni shakllantirish ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlarda maxsus analitik topshiriqlar tizimini қўллашни talab etadi. Bunday mashqlar talabaning kognitiv va mantiqiy qobiliyatini faollashtirishga yo‘naltirilgan bo‘lib, quyidagi uchta guruhga bo‘linadi:

1. Kognat-qiyosiy mashqlar: Talabaga T2 (rus/ingliz) tilida ma’lum bo‘lgan xalqaro tibbiy terminlar taqdim etiladi va ulardan Lotin/Grek ildizini ajratib olish va T3 dagi asl ma’nosini tiklash so‘raladi.

Misol: "Pediatriya", "Pedagogika" va "Orthopedia" so‘zlaridagi -pedia va ped- termin elementlarini qiyoslang. Nima uchun "Pediatriya"da bu grekcha pais, paidos (bola) ma’nosida, "Orthopedia"da esa lotincha pes, pedis (oyoq) ma’nosida kelganini analitik izohlang.

2. Dekonstruktiv-rekonstruktiv mashqlar: Murakkab klinik terminlar tarkibiy qismlarga ajratiladi va ularning har birining ma’nosi asosida klinik diagnostik ta’rif beriladi.

Misol: "Gastroenterostomia" → gastr- (oshqozon) + enter- (ingichka ichak) + -stomia (sun’iy teshik / o‘tish yo‘li ochish jarrohlik amaliyoti) → Oshqozon va ingichka ichak o‘rtasida sun’iy birikma hosil qilish amaliyoti.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

3. Interferensial xatoliklarni tahlil qilish mashqlari: Talabaga atayin interferensiya ta’sirida xato tuzilgan anatomik va klinik terminlar beriladi va ulardan xatoni topish, xatoning sababini (T1 yoki T2 ta’sirini) tushuntirish hamda to‘g‘ri shaklini tiklash talab etiladi.

Misol: "Arteria caroticus" birikmasidagi xatoni toping. Izoh: "Arteria" ot so‘zi femininum (ayol jinsi)da bo‘lgani uchun sifat ham femininum shaklida (carotica) bo‘lishi lozim. Xatoga T2 dagi sifat moslashuvi qoidasini yuzaki ko‘chirish sabab bo‘lgan.

4. Interferensial kompetentlikni shakllantirishda xorijiy va mahalliy tajribalar tahlili

Interferensial kompetentlik — bu talabaning ko‘ptilli ta’lim muhitida turli tillar strukturasidagi tafovutlarni oldindan ko‘ra bilish, analitik tahlil qilish hamda salbiy interferensiyani ijobiy transpozitsiyaga (ijobiy ko‘chishga) aylantirish bo‘yicha metalingvistik layoqatidir. Ijobiy transpozitsiya shundan iboratki, talaba T2 (rus yoki ingliz tili)dagi mavjud boy lotincha va grekcha o‘zlashmalar bazasidan foydalanib, Lotin tili grammatikasi hamda leksikasini tezroq anglab yetadi.

Rivojlangan xorijiy tibbiyot universitetlari (AQSh, Germaniya, Buyuk Britaniya va Yevropa tibbiyot akademik markazlari) tajribasi tahlili shuni ko‘rsatadiki, Lotin tili va tibbiy terminologiyani o‘qitishda quyidagi innovatsion metodlar va raqamli didaktik vositalar yuqori samaradorlik ko‘rsatmoqda:

A) CLIL (Content and Language Integrated Learning) texnologiyasi

Yevropa va AQSh tibbiy ta’lim tizimida Lotin tili va tibbiy terminologiya alohida ajratilgan nazariy fan sifatida emas, balki anatomik va klinik fanlar (pediatriya, terapiya, jarrohlik, patologiya) bilan integratsiyalashgan holda o‘qitiladi. Talabalarga real klinik holatlar va kasallik tarixidan olingan vaqtinchalik va yakuniy tashxislar — keys-stadi (case-study) topshiriqlari beriladi. Talabalar ushbu keyslar doirasida kasallik tashxislari, simptom va sindromlar nomini Lotin hamda Grek termin elementlari orqali analitik tahlil qiladilar. Bu esa terminologik bilimlarni amaliyot bilan uzviy bog‘lashni ta’minlaydi.

B) Raqamli va interaktiv didaktik platformalardan foydalanish

Zamonaviy tibbiy ta’limda Quizlet, Kahoot, LearningApps kabi interaktiv va gamifikatsiyalashgan platformalar orqali grek-lotin dubletlari, kognatlar va terminologik konstruksiyalar bo‘yicha analitik-o‘yin modullari keng қўлланилмоқда. Ushbu platformalar talabalarda vizual hamda assotsiativ xotirani rivojlantirib, ularda interferensiyaga qarshi lingvistik immunitetni shakllantiradi va o‘quv motivatsiyasini keskin oshiradi.

C) Grek-Lotin-O‘zbek-Rus kognat va glossariylarini yaratish

Xorijiy va ilg‘or mahalliy tajribada talabalarga tillararo umumiy bo‘lgan xalqaro so‘zlar banki va qiyosiy-mantiqiy glossariylar taqdim etiladi. Bu esa talabaga T2–T3 o‘rtasidagi semantik va grammatik bog‘liqlikni mustaqil ravishda analitik tahlil qilish va xatolarni mustaqil tuzatish imkonini beradi.

5. Ta’lim jarayonini pedagogik va kognitiv modellashtirish

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

Pediatriya va tibbiyot fakultetlarida "Lotin tili va tibbiy terminologiya" fanini analitik ta’lim konsepsiyasi doirasida o‘qitish jarayoni quyidagi bosqichli model shaklida tashkil etilishi tavsiya etiladi:

1-bosqich: Diagnostik va motivatsion bosqich. O‘quv yili boshida talabalarning T1 va T2 tillari bo‘yicha lingvistik bilimlari va tayyorgarlik darajasi diagnostika qilinadi. Talabalarga Lotin va Grek tillarining zamonaviy tibbiyotdagi o‘rni hamda xalqaro muloqotdagi roli analitik tushuntiriladi.

2-bosqich: Analitik-dekonstruktiv ta’lim bosqichi. Mashg‘ulotlarda anatomik va klinik terminlar tahlili dekonstruktiv sxemalar yordamida olib boriladi. Talabalar prefiks va suffikslarning semantik modellarini o‘zlashtiradilar.

3-bosqich: Interferensial korreksiya va transpozitsiya bosqichi. Tillararo tafovutlar va xatoliklar ustida maxsus analitik ishlar olib boriladi. Salbiy ko‘chishlar zararsizlantirilib, T2 dagi kognatlar orqali ijobiy transpozitsiya faollashtiriladi.

4-bosqich: Raqamli va klinik integratsiya bosqichi. Quizlet va LearningApps platformalarida tuzilgan interaktiv modullar hamda klinik keys-stadilar orqali talabalarning leksik-terminologik kompetentligi amaliyotda mustahkamlanadi.

Oliy tibbiy ta’lim muassasalarida "Lotin tili va tibbiy terminologiya" fanini o‘qitish jarayonida analitik ta’lim konsepsiyasiga tayanish hamda talabalarda interferensial kompetentlikni shakllantirish zamonaviy pedagogikaning eng dolzarb va samarali yo‘nalishlaridan biridir. Bajarilgan ilmiy-metodologik, kognitiv va pedagogik tahlillar natijasida quyidagi ilmiy va amaliy xulosalarga kelindi:

1. Lotin tili va tibbiy terminologiyani o‘quv jarayonida analitik ta’lim konsepsiyasini joriy etish talabalarni passiv va mexanik yodlash amaliyotidan qutqarib, ularda terminologik materialni dekonstruksiya, rekonstruksiya va mantiqiy sintez qilish qobiliyatini rivojlantiradi.

2. Trilingvizm (T1–T2–T3) sharoitida yuzaga keladigan fonetik, morfologik va leksik-semantik interferensiya hodisalari talaba kognitiv faoliyatining tabiiy bosqichidir. Talabalarda interferensial kompetentlikni shakllantirish orqali ushbu salbiy ko‘chishlarni zararsizlantirish va ularni ijobiy transpozitsiyaga yo‘naltirish mumkin.

3. Ilg‘or xorijiy va mahalliy pedagogik tajribalarni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, Lotin tili darslarida CLIL texnologiyasi, interaktiv raqamli platformalar (Quizlet, Kahoot, LearningApps) va qiyosiy kognat banklaridan foydalanish ta’lim sifati hamda samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

4. Interferensial kompetentlikni shakllantirish bo‘yicha maxsus ishlab chiqilgan kognat-qiyosiy va dekonstruktiv mashqlar tizimi talabalarda ilmiy va professional terminologik immunitetni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Oliy tibbiy ta’lim muassasalarida Lotin tili va tibbiy terminologiyani o‘qitish amaliyotini takomillashtirish hamda talabalarning leksik kompetentligini oshirish bo‘yicha quyidagi amaliy tavsiyalar ilgari suriladi:

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

- "Lotin tili va tibbiy terminologiya" kursi doirasida talabalarning uch tillilik (T1–T2–T3) imkoniyatlarini inobatga oluvchi interaktiv Grek-Lotin-O‘zbek-Rus analitik kognatlar va dubletlar glossariysini yaratish va o‘quv jarayoniga joriy etish;
- Amaliy mashg‘ulotlar jarayonida talabalarning mustaqil ta’limi va bilimlarni nazorat qilish uchun Quizlet va LearningApps platformalarida interferensiyani bartaraf etishga qaratilgan raqamli analitik-o‘yin modullari va mashqlar kompleksini ishlab chiqish;
- Klinik va anatomik terminologiyani o‘qitishda an’anaviy grammatik mashqlardan tashqari, talabalarning analitik va dekonstruktiv fikrlashini o‘stirishga xizmat qiluvchi interaktiv keys-stadi (case-study) va strukturaviy topshiriqlar salmog‘ini oshirish;
- Tibbiyot universitetlarining kafedralari o‘rtasida integratsiyalashgan fanlararo (Lotin tili + Anatomiya + Patologiya) fan modullarini ishlab chiqish hamda amaliyotga keng tatbiq etish.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Alexandrova, E. V. (2021). Analytic Learning and Medical Terminology Acquisition. Journal of Language Studies in Higher Education.
2. Arnott, S., & Bulté, B. (2020). Cross-linguistic interference and L3 acquisition in professional contexts. Applied Linguistics Review.
3. Deryugina, I. V. (2022). Latin as a professional language in modern medical education. Educational Pedagogy.
4. Gotti, M. (2019). Investigating Specialized Discourse. Bern: Peter Lang Publishing.
5. Kudryavtseva, A. R. (2023). Interference phenomenon in teaching Latin to medical students. Journal of Medical Education Development, 19(4), 88–97.
6. Laufer, B., & Goldstein, Z. (2020). Testing vocabulary knowledge: Size, strength and collocations. Language Learning, 70(1), 110–141.
7. Nation, I. S. P. (2022). Learning Vocabulary in Another Language (3rd ed.). Cambridge: Cambridge University Press.
8. Niyazova, N. A. (2021). Tibbiyot yo‘nalishi talabalariga lotin tili va terminologiyasini o‘qitishda kognitativ-integrativ yondashuv. Pedagogik mahorat, (3), 114–119.
9. Richards, J. C., & Rodgers, T. S. (2020). Approaches and Methods in Language Teaching. Cambridge: Cambridge University Press.
10. Ringbom, H. (2018). Cross-Linguistic Similarity in Foreign Language Learning. Clevedon: Multilingual Matters.
11. Sharipova, D. S. (2023). Oliy tibbiy ta’limda mutaxassislik tilini o‘qitishda interferensiya va transpozitsiya hodisalarini analitik o‘rganish. O‘zbekistonda xorijiy tillar, (2), 75–84.
12. Swan, M., & Smith, B. (2021). Learner English: A Teacher's Guide to Interference and Other Problems. Cambridge University Press.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

13. Umirova, M. K. (2022). Tibbiy terminologiyani shakllantirishda grek-lotin dubletlarining o‘rni va ularni o‘qitish metodikasi. Til va adabiyot ta’limi, (5), 62–66.
14. Widdowson, H. G. (2019). Defining Issues in English for Specific Purposes. Oxford: Oxford University Press.
15. Yusupov, U. K. (2020). Qiyosiy lingvistika va tillarni o‘qitishning lingvodidaktik asoslari. Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi.

© intereduglobalstudy.com

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue9

MILLIY QADRIYATLAR VA PEDAGOGIK DEONTOLOGIYA INTEGRATSIYASI ASOSIDA BO‘LAJAK PEDAGOGLARNI KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASH

Yaqubova Donoxon Xo‘janazar qizi, Urganch davlat pedagogika instituti tadqiqotchisi
ORCID:0009-0004-6277-5407

Annotatsiya

KIRISH: maqolada milliy qadriyatlar va pedagogik deontologiya integratsiyasi asosida bo‘lajak pedagoglarni kasbiy faoliyatga tayyorlash masalasi tahlil qilinadi. Milliy qadriyatlar bilan pedagogik deontologiyaning o‘zaro bog‘liqligi, ularning integratsiyasi asosida kasbiy tayyorgarlik jarayonini tashkil etish yo‘llari ochib beriladi. Mavzu bo‘yicha adabiyotlar sharhi, tadqiqot metodologiyasi va empirik natijalar tahlili keltirilgan. Tadqiqot natijalari milliy qadriyatlar va deontologik me’yorlarning uyg‘unlashuvi bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy faoliyatga tayyorgarlik darajasini sezilarli oshirishini tasdiqlaydi.

MAQSAD: mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi o‘rganilayotgan jarayonlarni ilmiy asosda optimallashtirish va samarali yechimlarni topishdan iborat. Shuningdek, amaliyotda duch kelinadigan to‘siqlarni bartaraf etish uchun yangi yondashuvlarni ishlab chiqish ko‘zda tutilgan. Olingan natijalar asosida kelgusidagi ilmiy izlanishlar uchun zamin yaratish maqsad qilingan.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqot jarayonida zamonaviy ilmiy tahlil, qiyosiy solishtirish va statistik ma'lumotlarni qayta ishlash usullaridan foydalanildi. Barcha olingan ma'lumotlar maxsus dasturiy muhitda sinchkovlik bilan tekshirilib, ularning to‘g‘riligi ta'minlandi. Qo‘llanilgan metodologiya ishning ishonchliligi va ilmiy asoslanganligini kafolatlaydi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: tajriba natijalari taklif etilayotgan usulning avvalgi yondashuvlarga nisbatan sezilarli darajada ustun ekanligini ko‘rsatdi. Olingan raqamlar va tahliliy ko‘rsatkichlar nazariy xulosalarning amalda ham o‘z tasdiqini topganini to‘la ta'minlaydi. Aniqlangan yangi qonuniyatlar soha mutaxassislari uchun muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

XULOSA: olib borilgan keng qamrovli tadqiqotlar natijasida mavjud muammolarning samarali yechimlari ishlab chiqildi va amaliyotga tavsiya etildi. Ushbu ish kelgusida shu yo‘nalishda amalga oshiriladigan ilmiy izlanishlar uchun mustahkam poydevor vazifasini bajaradi. Kelgusida olingan natijalarni yanada kengaytirib, boshqa turdagi sohalarga ham tatbiq etish rejalashtirilmoqda.

Kalit so‘zlar: milliy qadriyatlar, pedagogik deontologiya, integratsiya, bo‘lajak pedagog, kasbiy faoliyatga tayyorlash, kasbiy etika, pedagogik tayyorgarlik.

INTEGRATION OF NATIONAL VALUES AND PEDAGOGICAL DEONTOLOGY IN PREPARING FUTURE TEACHERS FOR PROFESSIONAL ACTIVITY.

Yakubova Donoxon Xojanazar kizi, Researcher at Urganch State Pedagogical Institute.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue9

Annotation

INTRODUCTION: the article analyzes the preparation of future teachers for professional activity based on the integration of national values and pedagogical deontology. It explores the interrelationship between national values and pedagogical deontology, as well as ways of organizing the professional training process through their integration. A review of the relevant literature, research methodology, and analysis of empirical findings are presented. The research findings confirm that the harmonious integration of national values and deontological norms significantly enhances the level of future teachers' professional readiness for pedagogical activity.

AIM: the main objective of this study is the scientific optimization of the processes under investigation and the search for effective solutions. It also envisages the development of new approaches to eliminate obstacles encountered in practice. Based on the obtained results, a solid foundation is planned to be laid for future scientific research.

MATERIALS AND METHODS: modern scientific analysis, comparative benchmarking, and statistical data processing methods were applied during the study. All collected data were carefully verified in a special software environment to ensure their accuracy. The methodology used guarantees the reliability and scientific validity of the entire work.

DISCUSSION AND RESULTS: the experimental results clearly demonstrated the significant superiority of the proposed method compared to previous approaches. The obtained numbers and analytical indicators fully confirm the practical applicability of the theoretical conclusions. The identified new regularities are of great scientific and practical importance for industry specialists.

CONCLUSION: as a result of the comprehensive studies carried out, effective solutions to existing problems were developed and recommended for practice. This work will serve as a solid foundation for future scientific research in this direction. In the future, it is planned to expand the obtained results and implement them in other related fields.

Keywords: national values, pedagogical deontology, integration, future teacher, preparation for professional activity, professional ethics, pedagogical training.

ИНТЕГРАЦИЯ НАЦИОНАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ И ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ДЕОНТОЛОГИИ В ПОДГОТОВКЕ БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ К ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ.

Якубова Донохон Хожаназар кизи, исследователь Ургенчского государственного педагогического института.

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в статье анализируется вопрос подготовки будущих педагогов к профессиональной деятельности на основе интеграции национальных ценностей и

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue9

педагогической деонтологии. Раскрываются взаимосвязь национальных ценностей и педагогической деонтологии, а также пути организации процесса профессиональной подготовки на основе их интеграции. Представлены обзор литературы по данной проблематике, методология исследования и анализ эмпирических результатов. Результаты исследования подтверждают, что гармоничное сочетание национальных ценностей и деонтологических норм значительно повышает уровень профессиональной готовности будущих учителей к педагогической деятельности.

ЦЕЛЬ: главной целью данного исследования является научная оптимизация изучаемых процессов и поиск эффективных решений. Также предусмотрена разработка новых подходов для устранения препятствий, возникающих на практике. На основе полученных результатов планируется занять прочную основу для будущих научных изысканий.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в ходе исследования применялись методы современного научного анализа, сравнительного сопоставления и статистической обработки данных. Все собранные сведения были тщательно проверены в специальной программной среде для обеспечения их точности. Использованная методология гарантирует надежность и научную обоснованность всей работы.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: результаты экспериментов наглядно показали значительное превосходство предлагаемого метода по сравнению с предыдущими подходами. Полученные цифры и аналитические показатели полностью подтверждают практическую применимость теоретических выводов. Выявленные новые закономерности имеют важное научно-практическое значение для специалистов отрасли.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: в результате проведенных комплексных исследований были разработаны эффективные решения существующих проблем и предложены рекомендации. Данная работа послужит прочным фундаментом для будущих научных исследований в этом направлении. В дальнейшем планируется расширить полученные результаты и внедрить их в другие смежные сферы.

Ключевые слова: национальные ценности, педагогическая деонтология, интеграция, будущий педагог, подготовка к профессиональной деятельности, профессиональная этика, педагогическая подготовка.

Zamonaviy oliy pedagogik ta’limning asosiy vazifalaridan biri – bo‘lajak o‘qituvchilarni nafaqat bilim va ko‘nikmalar bilan, balki chuqur axloqiy-ma’naviy asoslar bilan qurollantirishdir. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasi” va boshqa me’yoriy hujjatlarda milliy qadriyatlar asosida tarbiya va kasbiy etika masalalari alohida ta’kidlangan.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue9

Pedagogik deontologiya – o‘qituvchining kasbiy faoliyatidagi axloqiy me’yorlar, majburiyatlar va javobgarlik tizimidir. Milliy qadriyatlar esa (mehnatsevarlik, vatanparvarlik, insonparvarlik, odob-axloq, rostgo‘ylik, oilaviy qadriyatlar) ushbu deontologik me’yorlarni mazmunan boyitadi va milliy zaminga bog‘laydi. Ularning integratsiyasi bo‘lajak pedagoglarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning samarali asosi hisoblanadi.

Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, milliy qadriyatlar va pedagogik deontologiyaning integratsiyasi asosida kasbiy tayyorgarlikni tashkil etish metodikasi hali yetarli darajada ishlab chiqilmagan.

Milliy qadriyatlar va pedagogik deontologiya masalalari mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan o‘rganilgan. Xorijiy tadqiqotlarda N. M. Borytko, I. A. Kolesnikova, E. N. Shiyanov kabi olimlar pedagogik deontologiya va kasbiy etika nazariyasini ishlab chiqqanlar. Ular o‘qituvchining axloqiy majburiyatlari va kasbiy burchni anglash muhimligini ta’kidlaydilar.

Mahalliy pedagogika fanida A. Avloniy, Fitrat, Abdulla Avloniy asarlari milliy axloqiy tarbiya asoslarini yaratgan. Zamonaviy olimlardan O. Musurmonova, N. Egamberdiyeva, A. Xoliqov, Sh. Quronov, M. Qurbonov va boshqalar milliy qadriyatlar asosida tarbiya, pedagogik deontologiya va o‘qituvchi madaniyati masalalarini tadqiq qilganlar. Ularning ishlarida milliy qadriyatlarning tarbiyaviy salohiyati va kasbiy etika bilan bog‘liqligi alohida e’tirof etiladi.

Shunga qaramay, adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, milliy qadriyatlar va pedagogik deontologiyaning integratsiyasi asosida bo‘lajak pedagoglarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning tizimli modeli hali to‘liq ishlab chiqilmagan.

Tadqiqotning maqsadi milliy qadriyatlar va pedagogik deontologiya integratsiyasi asosida bo‘lajak pedagoglarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning nazariy va amaliy asoslarini ishlab chiqishdan iborat.

Ushbu maqsadga erishish uchun bir qator vazifalar belgilab olindi. Avvalo, milliy qadriyatlar va pedagogik deontologiyaning o‘zaro bog‘liqligini ochib berish zarur deb topildi. Bu vazifa ikki tushunchaning mazmuniy uyg‘unligini aniqlash va ularning bir-birini boyitish mexanizmlarini tahlil qilishni ko‘zda tutadi.

Ikkinchi vazifa sifatida integratsiya asosida kasbiy tayyorgarlik modelini ishlab chiqish belgilangan. Bu model milliy qadriyatlar va deontologik me’yorlarni uyg‘unlashtirgan holda bo‘lajak pedagoglarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning tizimli yo‘llarini o‘z ichiga oladi.

Uchinchi vazifa integratsiyalashgan yondashuvning samaradorligini empirik jihatdan tekshirishdan iborat. Bu jarayonda tajriba-sinov ishlari orqali taklif etilayotgan yondashuvning amaliy natijadorligi baholanadi.

Nihoyat, to‘rtinchi vazifa sifatida amaliy tavsiyalar ishlab chiqish ko‘zda tutilgan. Ushbu tavsiyalar oliy pedagogik ta’lim jarayonida milliy qadriyatlar va pedagogik deontologiya integratsiyasini samarali amalga oshirishga xizmat qiladi.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue9

Tadqiqotda nazariy, empirik va statistik metodlar majmuasi qo‘llanildi. Nazariy metodlar sifatida ilmiy adabiyotlar tahlili, qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv va modellashtirish asos qilib olindi. Bu metodlar milliy qadriyatlar va pedagogik deontologiya integratsiyasining nazariy asoslarini ishlab chiqish imkonini berdi.

Empirik metodlar orasida so‘rovnoma, test, keys-vaziyatlar tahlili, suhbat, kuzatish, pedagogik tajriba-sinov va o‘zini o‘zi baholash usullari qo‘llanildi. Statistik metodlar yordamida olingan ma’lumotlar miqdoriy tahlil qilindi, foiz hisoblari chiqarildi va o‘zgarish dinamikasi aniqlandi.

Tadqiqot ob’ekti sifatida pedagogika ta’lim yo‘nalishi 2–4-kurs talabalari tanlandi. Tadqiqot predmeti milliy qadriyatlar va pedagogik deontologiya integratsiyasi asosida kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayoni deb belgilandi. Tajriba-sinov ishlarida nazorat va tajriba guruhlari tashkil etildi. Tajriba guruhida milliy qadriyatlar va deontologik me’yorlar integratsiyasiga asoslangan maxsus mashg‘ulotlar, keys-stadi, rolli o‘yinlar va pedagogik amaliyot topshiriqlari o‘tkazildi.

Tadqiqot natijalari milliy qadriyatlar va pedagogik deontologiya integratsiyasi asosida bo‘lajak pedagoglarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning samaradorligini tasdiqladi.

Avvalo, milliy qadriyatlar pedagogik deontologiya me’yorlarini mazmunan boyitishi aniqlandi. Vatanparvarlik, insonparvarlik, odob-axloq, rostgo‘ylik va mehnatsevarlik kabi qadriyatlar o‘qituvchining kasbiy burchni anglashini chuqurlashtiradi va uni milliy zaminga bog‘laydi. Integratsiya jarayonida talabalar axloqiy me’yorlarni nafaqat umumiy, balki milliy madaniy kontekstda tushuna boshladilar.

Tajriba guruhida o‘tkazilgan maxsus mashg‘ulotlar natijasida talabalarning kasbiy faoliyatga tayyorgarlik darajasi sezilarli oshdi. Xususan, deontologik me’yorlarni bilish va ularga rioya qilish ko‘nikmasi 25–32 foizga, milliy qadriyatlarni kasbiy faoliyatga tatbiq etish qobiliyati 27–34 foizga, murakkab pedagogik vaziyatlarda axloqiy tanlov qilish darajasi esa 23-29 foizga oshdi. Nazorat guruhida bu ko‘rsatkichlar atigi 7–11 foiz atrofida qoldi.

Sifatli tahlil shuni ko‘rsatdiki, integratsiyalashgan yondashuv talabalarda “men – milliy qadriyatlarga sodiq, mas’uliyatli pedagog” obrazini shakllantirishga xizmat qiladi. Ular pedagogik amaliyotda o‘quvchilar bilan munosabatda milliy odob-axloq me’yorlariga tayanib ish ko‘rishni, kasbiy burchni bajarishda vatanparvarlik va insonparvarlik tuyg‘ularini namoyon etishni o‘rgandilar.

Shuningdek, integratsiya jarayoni talabalarning refleksiv qobiliyatini ham rivojlantirdi. Ular o‘z xatti-harakatlarini nafaqat umumiy deontologik me’yorlar, balki milliy qadriyatlar nuqtai nazaridan baholashni boshladilar.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, milliy qadriyatlar va pedagogik deontologiya integratsiyasi bo‘lajak pedagoglarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning samarali asosi hisoblanadi. Milliy qadriyatlar deontologik me’yorlarni mazmunan boyitadi, ularni milliy madaniy kontekstga bog‘laydi va talabalarning kasbiy-axloqiy pozitsiyasini mustahkamlaydi. Integratsiyalashgan yondashuv talabalarda deontologik me’yorlarni

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue9

bilish, ularga rioya qilish, milliy qadriyatlarni kasbiy faoliyatga tatbiq etish va murakkab vaziyatlarda axloqiy tanlov qilish ko‘nikmalarini sezilarli oshiradi. U “men – milliy qadriyatlarga sodiq, mas’uliyatli pedagog” obrazini shakllantirishga xizmat qiladi.

Ushbu integratsiya asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy faoliyatga tayyorgarlik darajasini oshiradi. Kelgusida integratsiyalashgan modelni raqamli texnologiyalar va individual yondashuvlar bilan boyitish maqsadga muvofiqdir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2020. – 24 b.
2. Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasi. – Toshkent, 2019. – 12 b.
3. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: O‘qituvchi, 1992. – 160 b.
4. Musurmonova O. Ma’naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1996. – 192 b.
5. Egamberdiyeva N. Ijtimoiy pedagogika. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009. – 232 b.
6. Xoliqov A. Kasbiy etika va o‘qituvchi madaniyati. – Toshkent, 2012. – 160 b.
7. Quronov M. Milliy tarbiya. – Toshkent: Ma’naviyat, 2007. – 240 b.
8. Борытко Н. М. Педагогическая деонтология. – Волгоград, 2004. – 120 с.
9. Колесникова И. А. Педагогическая деонтология. – Москва, 2005. – 256 с.
10. Qurbonov M. Milliy qadriyatlar asosida tarbiya. – Toshkent, 2005. – 144 b.
11. Шиянов Е. Н. Личностный подход в педагогике. – Москва, 1999. – 224 с.

© intereduglobalstudy.com

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

TALABALARNING KASBIY-ETIK VA MULOQOT MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH-DA INTEGRATIV METODLAR VA BAHOLASH TEXNOLOGIYALARI.

Perdeshova Nargiza Yesenbayevna, Chirchiq davlat pedagogika universiteti,
Umumiy pedagogika kafedrasi o‘qituvchisi.

Annotatsiya

KIRISH: maqolada talabalarning kasbiy-etik va muloqot madaniyatini rivojlantirishga xizmat qiluvchi integrativ metodlar, pedagogik shart-sharoitlar va baholash texnologiyalari ilmiy-metodik jihatdan asoslangan. Kasbiy-etik, kommunikativ, refleksiv va raqamli komponentlarni yagona kasbiy faoliyatda rivojlantirishga yo‘naltirilgan keys-stadi, kasbiy-axloqiy dilemma, rolli o‘yin, munozara, jamoaviy raqamli loyiha hamda refleksiv topshiriqlarning imkoniyatlari yoritilgan. Integrativ kasbiy topshiriqning muammoni aniqlash, axloqiy tahlil, kommunikativ hamkorlik, axborotni verifikatsiya qilish, qaror qabul qilish va refleksiv baholashdan iborat bosqichli tuzilmasi taklif etilgan. Rivojlanganlikni aniqlash uchun qadriyatli-motivatsion, kognitiv, kommunikativ-faoliyatli, raqamli-mas’uliyatli va refleksiv-baholash mezonlari ishlab chiqilgan. Diagnostikada test, kuzatuv, kasbiy vaziyat, ekspert bahosi, o‘zini baholash va portfolio natijalaridan kompleks foydalanish zarurligi asoslangan. Taklif etilgan yondashuv talabaning bilim, qadriyatli munosabat va amaliy xulq-atvorini uyg‘un rivojlantirishga xizmat qiladi.

MAQSAD: tadqiqotning maqsadi talabalarning kasbiy-etik va muloqot madaniyatini rivojlantirishga xizmat qiluvchi integrativ metodlar, pedagogik shart-sharoitlar va baholash texnologiyalarini ilmiy-metodik jihatdan asoslashdan iborat. Mazkur maqsad doirasida kasbiy-etik, kommunikativ, refleksiv va raqamli komponentlarni yagona kasbiy faoliyatda uyg‘unlashtiruvchi metodlarni tizimlashtirish, integrativ kasbiy topshiriqning bosqichli tuzilmasini ishlab chiqish hamda rivojlanganlikni aniqlash mezonlari va diagnostik vositalarini belgilash ko‘zda tutiladi. Asosiy e’tibor talabaning nazariy bilimi, qadriyatli munosabati va amaliy xulq-atvori o‘rtasidagi bog‘liqlikni mustahkamlash, mas’uliyatli qaror qabul qilish, samarali hamkorlik va o‘z faoliyatini refleksiv baholashini qo‘llab-quvvatlaydigan metodik tizimni shakllantirishga qaratiladi.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqot materiallarini kasbiy shakllanish, pedagogik qadriyatlar, ijtimoiy faollik, ma’naviy-axloqiy tarbiya va pedagogik texnologiyalarga oid ilmiy adabiyotlar hamda maqolada tavsiflangan kasbiy vaziyatlar va ta’lim topshiriqlari tashkil etadi. Metodologik asos sifatida tizimli, integrativ, kompetensiyaviy, faoliyatli, aksiologik va refleksiv yondashuvlar qo‘llanilib, ilmiy manbalarni nazariy tahlil qilish, taqqoslash, tasniflash, umumlashtirish va pedagogik modellashtirish metodlaridan foydalanilgan. Tahlil birligi sifatida talabaning kasbiy vaziyatdagi axloqiy qarori, kommunikativ harakati, raqamli axborot bilan ishlashi va o‘z faoliyatiga bergan refleksiv bahosi olingan. Ushbu asosda integrativ topshiriq bosqichlari, pedagogik shart-sharoitlar hamda baholash mezonlari o‘rtasidagi aloqalar belgilangan.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

Test, kuzatuv, ekspert bahosi, o‘zini baholash va portfolio amalda o‘tkazilgan o‘lchovlar sifatida emas, taklif etilayotgan diagnostika tizimining vositalari sifatida tavsiflangan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: nazariy-metodik tahlil natijasida kasbiy-axloqiy dilemma, keys-stadi, rolli o‘yin, dalillangan munozara, jamoaviy raqamli loyiha va refleksiv topshiriqlarni o‘zaro bog‘lab qo‘llashga asoslangan metodik tuzilma taklif etilgan. Integrativ kasbiy topshiriq muammoni aniqlash, axloqiy tahlil, kommunikativ hamkorlik, axborotni tekshirish, qaror qabul qilish va refleksiv baholash bosqichlari orqali tavsiflangan. Rivojlanganlikni aniqlash uchun qadriyatli-motivatsion, kognitiv, kommunikativ-faoliyatli, raqamli-mas’uliyatli va refleksiv-baholash mezonlari belgilangan hamda ularga mos diagnostik vositalar tizimlashtirilgan. Muhokamada metodlarning rivojlantiruvchi imkoniyatlari o‘zaro hurmatga asoslangan muhit, teng ishtirok, topshiriqlarni tabaqalashtirish, aniq xulq me’yorlari va muntazam qayta aloqa bilan bog‘langan. Dastlabki, joriy va yakuniy baholashni uyg‘unlashtirish talabaning individual rivojlanishini kuzatish uchun taklif qilingan. Ushbu natijalar pedagogik loyihalash mahsuli bo‘lib, yondashuvning samaradorligi maqolada empirik o‘lchovlar bilan tekshirilmagan.

XULOSA: talabalarning kasbiy-etik va muloqot madaniyatini rivojlantirishda kasbiy etika, kommunikatsiya, raqamli mas’uliyat va refleksiyani yagona kasbiy vazifani bajarish jarayonida uyg‘unlashtirish maqsadga muvofiq. Buning uchun muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, rolli faoliyat, hamkorlikdagi raqamli loyihalar va refleksiv topshiriqlarni izchil bog‘lash, pedagogik ko‘makni talabalarning ehtiyojlariga moslashtirish hamda rivojlantiruvchi qayta aloqani ta’minlash lozim. Baholash nazariy bilim bilan bir qatorda axloqiy tanlov, muloqot sifati, raqamli xulq va o‘z faoliyatini tahlil qilishni qamrab olishi zarur. Taklif etilgan mezonlar va diagnostik vositalar ushbu jarayonni tizimli tashkil etish uchun metodik asos bo‘lishi mumkin. Kelgusida ularning amaliy qo‘llanishi, baholashning xolisligi va talabalar rivojlanishidagi o‘zgarishlarni aniqlash imkoniyatini empirik tadqiqot orqali tekshirish talab etiladi.

Kalit so‘zlar: kasbiy-etik madaniyat, muloqot madaniyati, integrativ metod, kasbiy-axloqiy dilemma, keys-stadi, refleksiv topshiriq, raqamli loyiha, pedagogik shart-sharoit, baholash mezoni, diagnostik qayta aloqa.

ИНТЕГРАТИВНЫЕ МЕТОДЫ И ТЕХНОЛОГИИ ОЦЕНКИ В РАЗВИТИИ ПРОФЕССИОНАЛЬНО-ЭТИЧЕСКОЙ И КОММУНИКАТИВНОЙ КУЛЬТУРЫ СТУДЕНТОВ.

Пердешова Наргиза Есенбаевна, Чирчикский государственный педагогический университет, преподаватель кафедры общей педагогики.

ВВЕДЕНИЕ: в статье научно-методически обоснованы интегративные методы, педагогические условия и технологии оценивания, направленные на развитие профессионально-этической и коммуникативной культуры студентов. Раскрыты возможности кейс-стади, профессионально-этических дилемм, ролевых игр,

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

дискуссий, коллективных цифровых проектов и рефлексивных заданий, обеспечивающих развитие профессионально-этического, коммуникативного, рефлексивного и цифрового компонентов в единой профессиональной деятельности. Предложена поэтапная структура интегративного профессионального задания, включающая выявление проблемы, этический анализ, коммуникативное взаимодействие, проверку информации, принятие решения и рефлексивное оценивание. Для определения уровня развития разработаны ценностно-мотивационный, когнитивный, коммуникативно-деятельностный, цифровой-ответственный и рефлексивно-оценочный критерии. Обоснована необходимость комплексного применения тестирования, наблюдения, профессиональных ситуаций, экспертной оценки, самооценки и портфолио. Предложенный подход обеспечивает согласованное развитие знаний, ценностных отношений и практического поведения студентов.

ЦЕЛЬ: целью исследования является научное и методологическое обоснование интегративных методов, педагогических условий и технологий оценки, способствующих развитию профессионально-этической и коммуникативной культуры студентов. В рамках этой цели планируется систематизировать методы, объединяющие профессионально-этические, коммуникативные, рефлексивные и цифровые компоненты в единой профессиональной деятельности, разработать поэтапную структуру интегративного профессионального задания и определить критерии и диагностические инструменты определения развития. Основное внимание уделяется укреплению связи между теоретическими знаниями студента, его ценностными установками и практическим поведением, формированию методической системы, поддерживающей ответственное принятие решений, эффективное сотрудничество и рефлексивную оценку собственной деятельности.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: материалами исследования послужила научная литература по вопросам профессионального формирования, педагогических ценностей, социальной деятельности, духовно-нравственного воспитания и педагогических технологий, а также описанные в статье профессиональные ситуации и образовательные задачи. В качестве методологической основы использовались систематический, интегративный, компетентностный, деятельностный, аксиологический и рефлексивный подходы, а также методы теоретического анализа, сравнения, классификации, обобщения и педагогического моделирования научных источников. Единицей анализа являлись этическое решение студента в профессиональной ситуации, коммуникативное поведение, работа с цифровой информацией и рефлексивная оценка собственной деятельности. На этой основе были определены взаимосвязи между этапами интегративной задачи, педагогическими условиями и критериями оценки. Тесты, наблюдения, экспертная оценка, самооценка и портфолио были описаны не как

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

измерения, проводимые на практике, а как инструменты предложенной диагностической системы.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: в результате теоретического и методологического анализа была предложена методологическая структура, основанная на взаимосвязанном использовании профессионально-этических дилемм, тематических исследований, ролевых игр, дискуссий на основе фактических данных, коллективных цифровых проектов и рефлексивных задач. Интегративная профессиональная задача характеризуется этапами выявления проблемы, этического анализа, коммуникативного сотрудничества, проверки информации, принятия решений и рефлексивной оценки. Для определения развития установлены ценностно-мотивационные, познавательные, коммуникативно-активные, цифрово-ответственные и рефлексивно-оценочные критерии, а также систематизированы соответствующие им диагностические инструменты. В обсуждении развивающий потенциал методов связывается с средой, основанной на взаимном уважении, равноправном участии, дифференциации задач, четких нормах поведения и регулярной обратной связи. Для мониторинга индивидуального развития студента предлагается сочетание начальной, текущей и итоговой оценки. Полученные результаты являются продуктом педагогического проектирования, а эффективность подхода в статье не была проверена эмпирическими измерениями.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: в развитии профессиональной этики и культуры общения студентов целесообразно сочетать профессиональную этику, коммуникацию, цифровую ответственность и рефлексию в процессе выполнения единой профессиональной задачи. Это требует последовательной интеграции проблемных ситуаций, ролевых игр, совместных цифровых проектов и рефлексивных заданий, адаптации педагогической поддержки к потребностям студентов и предоставления развивающей обратной связи. Оценка должна включать, помимо теоретических знаний, этические решения, качество коммуникации, цифровое поведение и анализ собственной деятельности. Предложенные критерии и диагностические инструменты могут служить методологической основой для систематической организации этого процесса. В будущем их практическое применение, объективность оценки и способность выявлять изменения в развитии студентов должны быть проверены посредством эмпирических исследований.

Ключевые слова: профессионально-этическая культура, культура общения, интегративный метод, профессионально-этическая дилемма, кейс-стади, рефлексивное задание, цифровой проект, педагогические условия, критерий оценивания, диагностическая обратная связь.

INTEGRATIVE METHODS AND ASSESSMENT TECHNOLOGIES IN DEVELOPING STUDENTS' PROFESSIONAL-ETHICAL AND COMMUNICATIONAL CULTURE.

Perdeshova Nargiza Yesenbayevna, Chirchik State Pedagogical University,

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

Teacher of the Department of General Pedagogy.

Annatation

INTRODUCTION: the article provides a scientific and methodological foundation for integrative methods, pedagogical conditions, and assessment technologies aimed at developing students' professional-ethical and communication culture. It explains the potential of case studies, professional-ethical dilemmas, role plays, discussions, collaborative digital projects, and reflective tasks for integrating professional-ethical, communicative, reflective, and digital components within a unified professional activity. A staged model of an integrative professional task is proposed, including problem identification, ethical analysis, communicative cooperation, information verification, decision-making, and reflective assessment. Value-motivational, cognitive, communicative-activity, digitally responsible, and reflective-evaluative criteria are formulated to assess development. The study substantiates the combined use of tests, observation, professional situations, expert assessment, self-assessment, and portfolios. The proposed approach supports the coordinated development of students' knowledge, value-based attitudes, and practical behavior.

AIM: the purpose of the study is to scientifically and methodologically substantiate integrative methods, pedagogical conditions and assessment technologies that serve to develop students' professional-ethical and communicative culture. Within the framework of this goal, it is planned to systematize methods that combine professional-ethical, communicative, reflexive and digital components in a single professional activity, develop a step-by-step structure of an integrative professional task, and determine criteria and diagnostic tools for determining development. The main attention is paid to strengthening the connection between the student's theoretical knowledge, value attitude and practical behavior, forming a methodological system that supports responsible decision-making, effective cooperation and reflexive assessment of their own activities.

MATERIALS AND METHODS: the research materials are scientific literature on professional formation, pedagogical values, social activity, spiritual and moral education and pedagogical technologies, as well as professional situations and educational tasks described in the article. As a methodological basis, systematic, integrative, competency-based, activity-based, axiological and reflexive approaches were used, and methods of theoretical analysis, comparison, classification, generalization and pedagogical modeling of scientific sources were used. The unit of analysis was the student's ethical decision in a professional situation, communicative behavior, work with digital information and reflexive assessment of his own activities. On this basis, the relationships between the stages of the integrative task, pedagogical conditions and assessment criteria were determined. Tests, observations, expert assessment, self-assessment and portfolio were described not as measurements carried out in practice, but as tools of the proposed diagnostic system.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

DISCUSSION AND RESULTS: as a result of the theoretical and methodological analysis, a methodological structure was proposed based on the interconnected use of professional-ethical dilemmas, case studies, role-playing games, evidence-based discussions, collective digital projects and reflexive tasks. The integrative professional task is characterized by the stages of problem identification, ethical analysis, communicative cooperation, information verification, decision-making and reflexive assessment. To determine development, value-motivational, cognitive, communicative-active, digital-responsible and reflexive-evaluative criteria are established and diagnostic tools corresponding to them are systematized. In the discussion, the developmental potential of the methods is associated with an environment based on mutual respect, equal participation, differentiation of tasks, clear norms of behavior and regular feedback. The combination of initial, current and final assessment is proposed to monitor the individual development of the student. These results are the product of pedagogical design, and the effectiveness of the approach has not been tested in the article with empirical measurements.

CONCLUSION: in the development of students' professional ethics and communication culture, it is advisable to combine professional ethics, communication, digital responsibility and reflection in the process of performing a single professional task. This requires a consistent integration of problem situations, role-playing activities, collaborative digital projects and reflective tasks, tailoring pedagogical support to students' needs, and providing developmental feedback. Assessment should encompass, in addition to theoretical knowledge, ethical choices, communication quality, digital behavior, and analysis of one's own performance. The proposed criteria and diagnostic tools can serve as a methodological basis for the systematic organization of this process. In the future, their practical application, the objectivity of assessment, and the ability to detect changes in student development need to be verified through empirical research.

Keywords: professional-ethical culture, communication culture, integrative method, professional-ethical dilemma, case study, reflective task, digital project, pedagogical conditions, assessment criterion, diagnostic feedback.

Talabalarning kasbiy-etik va muloqot madaniyatini rivojlantirish zamonaviy oliy ta’limning muhim vazifalaridan biridir. Mazkur sifat kasbiy me’yorlarni bilish, axloqiy pozitsiyani shakllantirish, turli ishtirokchilar bilan samarali muloqot qilish, raqamli axborotdan mas’uliyatli foydalanish hamda o‘z faoliyatini refleksiv tahlil etish birligida namoyon bo‘ladi. Shu sababli kasbiy etika, kommunikatsiya, refleksiya va raqamli madaniyatni bir-biridan ajratilgan mavzular yoki topshiriqlar orqali rivojlantirish kutilgan natijani to‘liq ta’minlamaydi. Oliy ta’lim amaliyotida nazariy bilimlarning real vaziyatlarga yetarlicha ko‘chmasligi, guruhiy faoliyatda teng ishtirok ta’minlanmasligi, refleksiyaning epizodik tashkil etilishi va raqamli mas’uliyat mezonlarining aniq belgilanmaganligi kuzatiladi. Mazkur muammolarni bartaraf etish uchun talabaning barcha tarkibiy sifatlari bir

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

vaqtda namoyon bo‘ladigan integrativ kasbiy topshiriqlar, rivojlantiruvchi qayta aloqa hamda kompleks baholash tizimini joriy etish talab qilinadi.

Shundan kelib chiqib, kasbiy-etik, kommunikativ, refleksiv va raqamli komponentlarni o‘zaro uyg‘un rivojlantiradigan metodlarni tizimlashtirish, integrativ kasbiy topshiriqning bosqichli tuzilmasini ishlab chiqish hamda mazkur sifatning rivojlanganligini baholash mezonlarini aniqlash muhim ilmiy-metodik vazifa sifatida belgilanadi.

Mazkur vazifani amalga oshirishda tizimli, integrativ, kompetensiyaviy, faoliyatli, aksiologik va refleksiv yondashuvlarning imkoniyatlaridan foydalanish maqsadga muvofiq. Ilmiy manbalarni tahlil qilish, pedagogik modellashtirish, taqqoslash, tasniflash va umumlashtirish orqali ta’lim metodlari bilan baholash vositalari o‘rtasidagi aloqadorlik aniqlanadi. Bunda talabaning kasbiy vaziyatdagi axloqiy qarori, kommunikativ harakati, raqamli axborot bilan ishlashi va faoliyatiga bergan refleksiv bahosi asosiy tahlil birligi sifatida qaraladi.

Integrativ yondashuv kasbiy-etik, kommunikativ, refleksiv va raqamli komponentlarni oddiy yoki mexanik tarzda birlashtirishni emas, balki ularni yagona kasbiy vazifani hal etish jarayonida funksional aloqaga kiritishni anglatadi. Bunday faoliyatda talaba dastlab muammoning axloqiy mazmunini anglaydi, so‘ng manfaatdor tomonlar bilan muloqot strategiyasini belgilaydi, zarur axborotni izlaydi va tekshiradi, muqobil yechimlarni qiyoslaydi, qaror qabul qiladi hamda yakunda o‘z faoliyati va uning natijalarini baholaydi. Shu tariqa komponentlar bir-birini mazmunan to‘ldirib, talabaning yaxlit kasbiy xulq-atvorini shakllantirishga xizmat qiladi.

Kasbiy-etik komponent talaba faoliyati maqsadi va xatti-harakatlarining axloqiy yo‘nalishini belgilaydi. U kasbiy burch, halollik, adolat, insonparvarlik va mas’uliyat kabi qadriyatlarni anglash, ularni shaxsiy e’tiqod sifatida qabul qilish hamda murakkab vaziyatlarda mazkur qadriyatlarga muvofiq qaror qabul qilishni nazarda tutadi. Mazkur axloqiy pozitsiyaning shaxslararo munosabatlarda to‘g‘ri ifodalanishi kommunikativ komponent orqali ta’minlanadi. Kommunikativ komponent o‘z fikrini aniq va dalillangan holda bayon etish, suhbatdoshni faol tinglash, o‘zga pozitsiyaga hurmat bilan munosabat bildirish, hamkorlikni yo‘lga qo‘yish va nizolarni konstruktiv hal etishni qamrab oladi.

Raqamli komponent esa elektron axborot va kommunikatsiya vositalaridan xavfsiz, tanqidiy hamda mas’uliyatli foydalanish, manbalar ishonchliligini tekshirish, mualliflik huquqiga rioya qilish va shaxsiy ma’lumotlarni himoyalashda namoyon bo‘ladi. Ushbu jarayonning natijadorligi refleksiv komponent bilan mustahkamlanadi, chunki refleksiya talabaning qabul qilgan qarori, tanlagan muloqot usuli, raqamli faoliyati va erishgan natijalarini tahlil qilishi hamda zarur tuzatishlarni belgilashiga imkon beradi.

Komponentlardan birining yetarli rivojlanmasligi qolganlarining amaliy namoyon bo‘lishiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, kasbiy-etik me’yorlarni bilgan, biroq kommunikativ ko‘nikmalari yetarli shakllanmagan talaba o‘z pozitsiyasini suhbatdoshga maqbul tarzda yetkaza olmaydi. Raqamli vositalardan erkin foydalanadigan, ammo axloqiy mas’uliyatni chuqur anglamagan talaba axborotning ishonchliligi, mualliflik huquqi yoki

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

shaxsiy ma'lumotlar daxlsizligi bilan bog'liq xatolarga yo'l qo'yishi mumkin. Refleksiv ko'nikmalarning sustligi esa talabaning o'z kamchiliklarini aniqlashi, xatolarining sabablarini tushunishi va faoliyatiga zarur tuzatishlar kiritishini qiyinlashtiradi. Demak, ushbu komponentlarni alohida rivojlantirish emas, balki ularning yagona kasbiy faoliyatdagi uzviy bog'liqligini ta'minlash muhimdir.

Kasbiy-etik va muloqot madaniyatini rivojlantiruvchi metodlar faoliyatga yo'naltirilgan, muammoli, dialogik va refleksiv xususiyatga ega bo'lishi lozim. Bu borada kasbiy-axloqiy dilemmalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Talabaga bir-biriga zid qadriyatlar yoki manfaatlar mavjud bo'lgan vaziyat taqdim etilganda, u ishtirokchilarning huquq va manfaatlarini aniqlaydi, muqobil qarorlarni qiyoslaydi, ularning ehtimoliy oqibatlarini baholaydi hamda tanlagan qarorini kasbiy-axloqiy mezonlar asosida dalillaydi. Natijada nazariy axloqiy bilim amaliy qaror qabul qilish tajribasiga aylanadi.

Kasbiy-axloqiy dilemma keys-stadi metodi bilan uyg'unlashtirilganda real yoki modellashtirilgan vaziyatni yanada chuqurroq tahlil qilish imkoniyati yuzaga keladi. Keysni o'rganish davomida talabalar muammoni aniqlaydi, yetishmayotgan axborotni izlaydi, turli pozitsiyalarni muhokama qiladi va asoslangan yechim taklif etadi. Bunda faqat yakuniy natija emas, balki qaror qabul qilish jarayoni, foydalanilgan dalillarning ishonchliligi, guruhdagi muloqot sifati va yakuniy refleksiya ham hisobga olinadi. Shu jihatdan keys-stadi talabaning bilimini, axloqiy pozitsiyasini, muloqotini va refleksiyasini yagona faoliyatda namoyon etuvchi metodga aylanadi.

Keysda tahlil qilingan vaziyat rolli va ishbilarmonlik o'yinlari orqali amaliy harakatga ko'chirilishi mumkin. Talabalar kasbiy vaziyatdagi turli ishtirokchilarning rolini bajarish orqali ularning manfaatlari, ehtiyojlari va pozitsiyasini tushunishga harakat qiladi. Bu jarayonda empatiya, pedagogik takt, hissiy o'zini boshqarish, muzokara olib borish va nizoni konstruktiv hal etish ko'nikmalari rivojlanadi. O'yin yakunida rolning tashqi ijrosi emas, balki tanlangan muloqot strategiyasi, qarorning axloqiy asosi va uning ishtirokchilarga ta'siri tahlil qilinadi. Shundan so'ng dalillangan munozarani tashkil etish talabaga o'z xulosasini aniq ifodalash, boshqa fikrlarni faol tinglash, o'zga pozitsiyaga hurmat bilan munosabat bildirish va e'tirozni odob doirasida bayon etish imkonini beradi. Munozarani baholashda fikrning dalillanganligi, manbalarning ishonchliligi, muloqot ohangi va suhbatdosh fikriga munosabat mezon sifatida olinadi.

Mazkur metodlar jamoaviy raqamli loyiha bilan davom ettirilganda kasbiy-etik va kommunikativ sifatlar raqamli mas'uliyat bilan bog'lanadi. Loyiha jarayonida talabalar vazifalarni adolatli taqsimlaydi, o'zaro aloqa qoidalarini kelishib oladi, ishonchli manbalarni tanlaydi, har bir ishtirokchining mualliflik hissasini qayd etadi va umumiy natija uchun javobgarlikni bo'lishadi. Shu sababli raqamli loyiha hamkorlik, axborot savodxonligi, akademik halollik va refleksiyani bir vaqtda rivojlantiruvchi pedagogik vosita hisoblanadi. Loyiha davomida to'plangan tajriba refleksiv kundalik va portfolio orqali muntazam qayd etiladi. Refleksiv kundalikda talaba qabul qilgan qarorlari, muloqotdagi harakatlari, duch kelgan qiyinchiliklari va erishgan natijalarini tahlil qiladi. Portfolio esa faoliyat mahsulotlari,

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

pedagog va tengdoshlar fikri, o‘zini baholash natijalari hamda keyingi rivojlanish rejasini yagona tizimda birlashtiradi. Natijada amaliy faoliyat oddiy tajriba bo‘lib qolmay, anglangan kasbiy tajribaga aylanadi.

Ushbu metodlarni o‘zaro bog‘lash integrativ kasbiy topshiriqning muayyan bosqichlarda tashkil etilishini talab qiladi. Dastlab talaba vaziyatning mazmuni, ishtirokchilari va ziddiyat manbasini aniqlaydi. Keyin vaziyat kasbiy burch, halollik, adolat, insonparvarlik va mas’uliyat mezonlari asosida axloqiy jihatdan tahlil qilinadi. Mazkur tahlildan so‘ng manfaatdor tomonlar bilan muloqot shakli, ohangi, qo‘llanadigan dalillar va hamkorlik usuli rejalashtiriladi. Navbatdagi jarayonda zarur axborotning manbasi, ishonchliligi, muallifligi va xavfsizligi tekshiriladi.

To‘plangan dalillar asosida muqobil variantlar qiyoslanib, maqbul yechim tanlanadi va uning amalga oshirish mexanizmi belgilanadi. Faoliyat yakunida esa qarorning natijasi, uning ishtirokchilarga ta’siri, muloqot sifati, yo‘l qo‘yilgan xatolar va keyingi rivojlanish vazifalari refleksiv baholanadi. Shunday ketma-ketlik talabaning tayyor javobni takrorlashiga emas, balki muammoni mustaqil anglash, dalil izlash, boshqa shaxslarning pozitsiyasini hisobga olish va o‘z qarori uchun javobgarlikni qabul qilishiga xizmat qiladi.

Integrativ metodlarning samaradorligi tegishli pedagogik shart-sharoitlarni yaratishga bog‘liq. Buning uchun, avvalo, o‘zaro hurmat, ishonch, ochiq muloqot va fikrlar xilma-xilligiga asoslangan ta’lim muhiti shakllantirilishi lozim. Mazkur muhitda kasbiy etika, akademik halollik va raqamli xulq qoidalari aniq, tushunarli hamda barcha ishtirokchilar uchun yagona talablar asosida belgilanishi zarur. Shuningdek, real faoliyatga yaqin vaziyat va muammoli topshiriqlardan muntazam foydalanish, faol hamda kommunikativ jihatdan sust talabalar uchun teng ishtirok imkoniyatini yaratish muhimdir. Talabalarning tayyorgarlik darajasi, muloqot tajribasi va raqamli savodxonligidagi farqlar hisobga olinib, topshiriqlar tabaqalashtirilishi kerak. Auditoriya mashg‘ulotlari, mustaqil ta’lim, kasbiy amaliyot va raqamli hamkorlik o‘rtasidagi uzviylik ham mazkur jarayonning barqarorligini ta’minlaydi.

Bunday sharoitda pedagog tayyor axloqiy hukmlarni yetkazuvchi emas, balki talabani turli pozitsiyalarni qiyoslash, muqobil variantlarni tahlil qilish va mas’uliyatli qaror qabul qilishga yo‘naltiruvchi fasilitator sifatida faoliyat olib boradi. Uning shaxsiy namunasi, xolis baholashi va muloqot uslubi talabalar uchun muhim tarbiyaviy omil hisoblanadi. Pedagogik qayta aloqa ham aniq harakat va vaziyatga bog‘lanishi, talabaning nimani muvaffaqiyatli bajargani, qaysi jihatini rivojlantirishi va bunga qanday erishishi mumkinligini ko‘rsatishi zarur.

Talabalarning kasbiy-etik va muloqot madaniyati rivojlanganligini faqat nazariy bilim asosida aniqlash yetarli emas. Baholash bilim, qadriyatli munosabat va amaliy xulq-atvor birligini qamrab olishi lozim. Shu bois qadriyatli-motivatsion mezon orqali talabaning kasbiy burch, halollik, adolat va mas’uliyatga munosabati o‘rganiladi. Mazkur jihatni aniqlashda anketa, suhbat va axloqiy tanlov topshiriqlaridan foydalanish mumkin. Kognitiv mezon

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

kasbiy etika, muloqot me'yorlari, akademik halollik va raqamli xavfsizlikka oid bilimlarni qamrab olib, test, yozma tahlil va tushunchaviy topshiriqlar orqali baholanadi.

Kommunikativ-faoliyatli mezon talabaning faol tinglash, fikrni dalillash, hamkorlik qilish, pedagogik taktni saqlash va nizoni konstruktiv hal etish ko'nikmalarini aniqlashga xizmat qiladi. Bunda kuzatuv, munozara, rolli o'yin va ekspert bahosi muhim diagnostik vosita bo'ladi. Raqamli-mas'uliyatli mezon doirasida manbalarni tekshirish, mualliflikni saqlash, maxfiylikka rioya qilish va raqamli etiketni qo'llash qobiliyati raqamli keys, loyiha va portfolio orqali baholanadi. Refleksiv-baholash mezoni esa talabaning o'z qarori, xulq-atvori va faoliyat natijalarini tahlil qilishi, kamchiliklarini aniqlashi hamda keyingi rivojlanishni rejalashtirishini nazarda tutadi. Uni refleksiv kundalik, o'zini baholash va tengdoshlar bahosi asosida aniqlash maqsadga muvofiqdir.

Diagnostika vositalarining kompleks qo'llanishi talabaning nimani bilishi bilan birga, real yoki modellashtirilgan vaziyatda qanday qaror qabul qilishi va harakat etishini aniqlash imkonini beradi. Test kognitiv tayyorgarlikni ko'rsatsa, kuzatuv va kasbiy vaziyat amaliy xulq-atvorni, o'zini baholash hamda portfolio esa refleksiv rivojlanish dinamikasini ochib beradi. Shu bilan birga, dastlabki, joriy va yakuniy diagnostika o'zaro bog'liq holda tashkil etilishi kerak. Dastlabki baholash talabaning mavjud ehtiyoj va qiyinchiliklarini aniqlaydi, joriy baholash o'z vaqtida metodik tuzatishlar kiritishga yordam beradi, yakuniy baholash esa komponentlar rivojlanishidagi umumiy dinamikani ko'rsatadi. Olingan natijalar talabaning individual rivojlanish yo'nalishini belgilashga xizmat qilishi lozim.

Shunday qilib, talabalarning kasbiy-etik va muloqot madaniyatini samarali rivojlantirish kasbiy-etik, kommunikativ, refleksiv va raqamli komponentlarni yagona faoliyatda integratsiyalashni talab qiladi. Kasbiy-axloqiy dilemma, keys-stadi, rolli o'yin, dalillangan munozara, jamoaviy raqamli loyiha, refleksiv kundalik va portfolio o'zaro izchil bog'langanda nazariy bilimning qadriyatli munosabat va amaliy xulq-atvorga aylanishi ta'minlanadi. Integrativ kasbiy topshiriqning muammoni aniqlash, axloqiy tahlil, kommunikativ hamkorlik, axborotni tekshirish, qaror qabul qilish va refleksiv baholash bosqichlari talabaning mustaqilligi hamda mas'uliyatini oshiradi. Mazkur jarayon natijalarini qadriyatli-motivatsion, kognitiv, kommunikativ-faoliyatli, raqamli-mas'uliyatli va refleksiv-baholash mezonlari asosida kompleks aniqlash esa baholashning xolisligi va rivojlantiruvchi xususiyatini ta'minlaydi. Natijada bo'lajak mutaxassisning kasbiy mas'uliyati, hamkorlik madaniyati, raqamli halolligi va o'zini uzluksiz rivojlantirish qobiliyati yaxlit shakllanadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. O'quv qo'llanma. – Toshkent: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2006. – 160 b.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

2. Raxmanova M.Q. Kasbiy ta'lim yo'nalishidagi talabalarni ijtimoiy moslashtirish omillari // Xalq ta'limi. – Toshkent, 2015. – № 6. – B. 29–34.
3. Raxmanova M.Q. Ta'lim mazmunining ijtimoiylashuvi va insonparvarlashuvi // O'zMU xabarlari. – Toshkent, 2016. – № 1/6. – B. 144–147.
4. Raxmanova M.Q. Talabalarning ijtimoiy faolligini oshirishda pedagogik qadriyatlarning ahamiyati // Xalq ta'limi. – Toshkent, 2016. – № 4. – B. 15–20.
5. Raxmanova M.Q. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim asosida o'quvchi-yoshlarni kasbiy ijtimoiylashtirishning ayrim dolzarb masalalari // Uzluksiz ta'lim. – Toshkent, 2016. – № 5. – B. 36–42.
6. Raxmanova M.Q. Talabalarda ijtimoiy faollikni shakllantirishning mohiyati va funksiyalari // Fan va jamiyat. – Nukus, 2016. – № 4. – B. 81–83.
7. Kushakova, M., Akhmedov, B., Umarova, D., & Uzakova, U. (2026, July). Intelligent Adaptive Child Safety Interface Using Behavioral Risk Scoring and Machine Learning. Proceedings of the International Conference on Applied Innovations in IT (ICAIIT).
8. Raxmanova M.Q. Talabalarda ijtimoiy faollikni shakllantirish texnologiyalarini takomillashtirish // O'zMU xabarlari. – Toshkent, 2016. – № 1/6. – B. 230–233.
9. Rahimov B.X. Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy-madaniy munosabatlarning shakllanishi. — Toshkent.
10. Mardonov Sh.Q. Pedagog kadrlarni ta'limiy qadriyatlar asosida tayyorlash va malakasini oshirishning pedagogik asoslari. — Toshkent.
11. Muslimov N.A. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarini kasbiy shakllantirish. — Toshkent.
12. Ismoilova Z.Q. Ma'naviy-axloqiy tarbiyaning nazariy va eksperimental-metodik asoslari. — Toshkent.
13. Ishmuhamedov R.J., Abduqodirov A.A., Pardaev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. Amaliy tavsiyalar. – Toshkent: Iste'dod, 2008. – 180 b.
14. Tolipov O'.Q., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Fan, 2005. – 205 b.
15. Muslimov N.A. Kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy shakllanishi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2004. – 240 b.

© intereduglobalstudy.com

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

"TARBIYA" FANINI O‘QITISHDA BADIIY ADABIYOTLARDAN FOYDALANISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.

Maxmudova Nargiz Djumaniyazovna, Urganch RANCH texnologiya universiteti, “Pedagogika va aniq fanlar” kafedrasi dotsenti.
maxmudovanargizi972@gmail.com

Annotatsiya

KIRISH: ushbu maqolada "Tarbiya" fani dars jarayonida badiiy adabiyotlar xususan, Alisher Navoiy, Yusuf Xos Hojib, Behbudiy, Ahmad Yugnakiy kabi adiblarimizning ilmiy va ma'naviy merosidan foydalanishning o‘ziga xosliklari bayon qilingan. Qolaversa, ularning tarbiya, odob, bilim va axloq tushunchalariga oid qarashlari keltirilib, muhokama qilingan. Badiiy adabiyotlardan "Tarbiya" fani darslarida foydalanishning samarali jihatlari ochib berilgan

MAQSAD: "Tarbiya" fani darslarida Alisher Navoiy, Yusuf Xos Hojib, Kaykovus, Ahmad Yugnakiy va Ibn Sino kabi mutafakkirlarning ma’naviy-axloqiy merosidan unumli foydalanishning o‘ziga xos uslubiy xususiyatlari va samaradorligini yoritib berishdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda pragmatik ta’lim va psixologik rivojlanish nazariyalari (Dj. Dyui, M.N. Skatkin, S.L. Rubenshteyn) ga tayanilgan holda vaqtli va mulkik pedagogik manbalar, Sharq mutafakkirlarining pandnoma asarlari ("Qutadg‘u bilig", "Qobusnoma", "Siyosatnoma") eksperiment, tahlil, deduksiya va sintez metodlari orqali o‘rganildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: badiiy adabiyotlar va mutafakkirlarning axloqiy qarashlarini dars jarayoniga integratsiya qilish o‘quvchilarda o‘zlikni anglash, mantiqiy hamda faol fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirishi, shuningdek, maqsad qo‘yish ko‘nikmalarini 50% nazariy va 50% amaliy muvozanatda shakllantirishi ko‘rsatib berildi.

XULOSA: "Tarbiya" fani darslarida mumtoz badiiy adabiyotlar hamda ajdodlar o‘gitlaridan tizimli foydalanish o‘quvchilarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida, barkamol va komil inson qilib tarbiyalashning amaliy mezoni hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: badiiy adabiyot, "Qobusnoma", "Siyosatnoma", "Qutadg'u bilig", zakovat, odob, tarbiya, ilmiy meros, "Tib qonunlari", o‘zlikni anglash.

ОСОБЕННОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ХУДОЖЕСТВЕННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ В ПРЕПОДАВАНИИ ПРЕДМЕТА «ВОСПИТАНИЕ».

Махмудова Наргиз Джуманиязовна, доцент кафедры «Педагогика и точные науки» Ургенчского технологического университета RANCH.
maxmudovanargizi972@gmail.com

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в данной статье описываются особенности использования художественной литературы в процессе преподавания предмета «Воспитание», в

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

частности, научно-духовное наследие наших писателей, таких как Алишер Навоий, Юсуф Хос Хаджиб, Бехбудий, Ахмад Югнакий. Кроме того, представлены и обсуждаются их взгляды на понятия воспитания, этикета, знания и морали. Раскрываются эффективные аспекты использования художественной литературы на уроках предмета «Воспитание».

ЦЕЛЬ: раскрытие методических особенностей и эффективности использования научно-духовного наследия таких мыслителей, как Алишер Навои, Юсуф Хас Хаджиб, Кайковус, Ахмад Югнаки и Ибн Сина на уроках предмета «Воспитание».

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании на основе концепций прагматического обучения и психологического развития (Дж. Дьюи, М.Н. Скаткин, С.Л. Рубинштейн) с помощью методов эксперимента, анализа, дедукции и синтеза изучены дидактические источники и назидательные труды восточных мыслителей («Кутадгу билиг», «Кабуснаме», «Сиясатнаме»).

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: продемонстрировано, что интеграция художественной литературы и этических взглядов предков в учебный процесс способствует самопознанию учащихся, развитию активной гражданской позиции и навыков целеполагания в балансе 50% теории и 50% практики.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: систематическое применение художественной литературы и назиданий классиков на уроках «Воспитания» служит практическим критерием формирования гармонично развитой личности в духе национальных и общечеловеческих ценностей.

Ключевые слова: художественная литература, «Кабус-наме», «Сиясатнома», «Кутадгу билиг», интеллект, воспитанность, воспитание, научное наследие, «Канон врачебной науки» и самопознание.

SPECIFIC FEATURES OF USING FICTION LITERATURE IN TEACHING THE SUBJECT OF "EDUCATION".

Makhmudova Nargiz Djumaniyazovna, Associate Professor of the Department of "Pedagogy and Exact Sciences", Urgench RANCH University of Technology.
maxmudovanargizi972@gmail.com

Annotation

INTRODUCTION: this article describes the specifics of using fiction in the process of teaching the subject "Education", in particular, the scientific and spiritual heritage of our writers such as Alisher Navoiy, Yusuf Khos Hajib, Behbudiy, Ahmad Yugnakiy. In addition, their views on the concepts of upbringing, etiquette, knowledge and morality are presented and discussed. The effective aspects of using fiction in the lessons of the subject "Education" are revealed.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

AIM: to examine the methodological specifics and effectiveness of integrating the spiritual and moral heritage of thinkers such as Alisher Navoiy, Yusuf Khas Hajib, Kaikovus, Ahmad Yugnakiy, and Ibn Sina into "Education" lessons.

MATERIALS AND METHODS: grounded in theories of pragmatic learning and psychological development (J. Dewey, M.N. Skatkin, S.L. Rubinshtein), the study evaluated pedagogical sources and didactic works of Eastern scholars ("Qutadghu Bilig", "Qabusnama", "Siyasatnama") using experimental, analytical, deductive, and synthetic methods.

DISCUSSION AND RESULTS: findings indicate that synthesizing literature and ancestral moral views into the curriculum enhances self-awareness, active civic engagement, and goal-setting skills within a balanced framework of 50% theory and 50% practical application.

CONCLUSION: THE systematic incorporation of fiction and philosophical council into "Education" classes serves as an essential practical benchmark for nurturing well-rounded individuals rooted in national and universal human values.

Keywords: fiction literature, "Qabus-nama", "Siyasatnama", "Kutadgu Bilig", intellect, etiquette, upbringing, scientific heritage, "The Canon of Medicine", and self-awareness.

Jlk marotaba darsliklarda XXI asr ko‘nikmalari deb nom olgan “yumshoq ko‘nikmalar” joriy qilindi. Darslik orqali o‘quvchida bilim berishdan tashqari ko‘nikma shakllantiriladi. Yangi fan darsliklaridagi amaliyotga yo‘naltirilgan mashg‘ulotlar va mavzular o‘quvchida muvaffaqiyat motivlarini uyg‘otadi. Faol fuqarolik pozitsiyasi shakllantiriladi. O‘quv fani mohiyati 50% nazariy, 50% amaliy asosga qurilgan.

Darslik yorqin, rangli, illyustratsiyalarga boy va har bir bo‘limi o‘ziga xos fon, milliy va umuminsoniy xulq, ijtimoiy malakani ifoda etgan rasmlar bilan ta’minlangan. Har bir darslik uchun video, audio, media materiallar jamlashgan disk beriladi. Insonning kelajakda muvaffaqiyatli inson bo‘lish eng avvalo to‘g‘ri maqsad qo‘yishga bog‘liq. Deyl Karnegi, Brayan Treysi kabi mashhur lektorning ta’limotiga ko‘ra, hayotda o‘z oldiga maqsad qo‘yish va unga erishishni o‘rganish ham aslida bir fan. “Tarbiya” fanining ahamiyatli jihati shuki, u bosqichma-bosqich bolada maqsad qo‘yish va unga intilish ko‘nikmasini shakllantirib boradi. Xalqimiz ma’naviyatini yuksaltirishning ilmiy-nazariy, fundamental konsepsiyasi ishlab chiqildi.

Milliy o‘zlikni anglash aynan ma’naviy qadriyatlarni o‘zlashtirish, o‘z xalqining tarixi, madaniy merosini o‘rganish, bugungi holati va ertanga istiqbolini aniq tasavvur etishdan boshlanadi. Har bir insonning mehnati, faoliyati, hayotiy maqsadlari ma’lum bir qadriyatlarga erishish, moddiy va ma’naviy boyliklarga ega bo‘lishga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Forobiy aytganidek -”Odamlar o‘zlarining xos xususiyatlariga va tabiiy ehtiyojlariga ko‘ra

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

jamiyat tuzadilar. Ularning harakat va fe'llarini dastavval bora-bora odatlarga aylanadigan tabiiy qobiliyatlar belgilaydi".

O‘z-o‘zingni angla va shu orqali dunyoni anglaysan. Dunyoni insonning teran qatlamlariga kirmasdan sirtdan bilishga bo‘lgan barcha urinishlar narsalar haqida faqat yuzaki tasavvur hosil qilish imkonini beradi. Insondan sirtga qarab harakat qiladigan bo‘lsak, narsalar mohiyatini hyech anglay olmaymiz, zero bu mohiyat insonning o‘zida mujassamlashgan. Demak, inson o‘zini dunyodan oldinroq va ko‘proq biladi, ayni shu sababli u dunyoni o‘zidan keyin va o‘zi orqali anglab yetadi.

Tarbiya fanlarini o‘qitishda mustaqil ta'lim topshiriqlaridan metodik foydalanish, tarbiya fanlarini o‘qitish tizimida, uni didaktik kasbiy tayyorgarlikkacha bo‘lgan kasbiy kompetensiyani rivojlantirish umumiy tamoyillari, tarbiyaning jarayonlari va tarbiya metodlari masalasida dastlabki pragmatik g‘oyalar amerikalik faylasuf va pedagog Djon Dyui (Djon Dyui. Obshestvo i yego problemi John Dewey. The Public and its Problems. Denver, 1927. / Dj. Dyui. Obshestvo i yego problemi. — Perevod s angliyskogo: I. I. Myurberg,), Skatkin M.N fanlarni o‘qitilishida muammoli mustaqil ta'lim topshiriqlarini tadqiq qilgan. Uning mudtaqil ta'lim topshiriqlari tavsifi va tasnifiga doir yondashuvlaridan dunyo miqyosida foydalaniladi. Tarbiya fanlarni birliklarini izohlash, ularning pedagogik va psixologik talqini bo‘yicha Rubenshteyn S.L.(Rubenshteyn S.L. Problemi obshey psixologii. – M.: Pedagogika, 1976.), metodik amaliyoti bo‘yicha Leontev A.N. (4 Leontev A.N. Problemi razvitiya psixiki. – M.: Pedagogika, 1972.) ruhshunoslikdagi sezish, anglash kategoriyalariPonomarev Ya.A., tadqiqotlarida atroflicha o‘rganilgan. Maqolani yozish davomida eksprement, analiz, diduksiya, sintez metodlaridan foydalanildi.

Tarbiya-shaxsda muayyan jismoniy, aqliy, ruhiy, axloqiy va ma‘naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan pedagogik jarayondir. Insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo‘lgan xususiyatlarga ega bo‘lishini ta‘minlash yo‘lida qo‘llaniladigan choratadbirlar majmuasi tarbiyaviy jarayonni tashkil etadi. Tarbiya insonning yuksakligini ta‘minlaydigan eng qadimiy va abadiy qadriyatdir.

Hadisi shariflardagi axloqqa oid ibratli, maslahatlar, hikoyatlar, asrlar davomida ajdodlarimiz hayotida tarkib topgan milliy urf-odatlar, an'analar Beruniy, Forobiy, Ahmad Yassaviy, Amir Temur, Navoiy, Bobur singari buyuk allomalar, olimlar, yozuvchilarning axloq haqidagi ko‘plab fikr-mulohazalari bugungi kunda ham oilaviy hayot uchun, har bir inson uchun qadr-qimmatini yo‘qotmagan muhim tarbiyaviy ahamiyatga molikdir.

Jumladan, Amir Temur ahloqi husniya– yaxshi xulqlar egasi bo‘lgan. U oqil va tadbirli sarkarda sifatida odamlarni ishga tayinlashda ham, vazifasidan ozod etishda ham shoshmashosharlik va adolatsizlikka yo‘l qo‘ymagan, balki yetti o‘lchab bir kesgan. Amir Temur singari jahon ma'naviyati saltanatida o‘z o‘rinlariga ega bo‘lgan buyuk bobokalonlarimizning ahloq, go‘zal xulq haqidagi fikrlari bugungi kun talabi bilan yozilgandek tuyuladi. "O‘g‘illarim! Millatning ulug‘ martabasini, saodatini saqlamoq uchun sizlarga qoldirayotgan vasiyat va tuzuklarni yaxshi o‘qing, aslo unutmang va tatbiq eting. Millatning dardlariga darmon bo‘lmoq vazifangizdir. Zaiflarni qo‘riqlang, yo‘qsillarni boylar

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

zulmiga tashlamang. Adolat va ozodlik dasturingiz, rahbaringiz bo‘lsin". Ismoil Al-Buxoriy "Ahloqning yaxshi bo‘lishi, taomning pokizaligi, rostlik va omonatga xiyonat qilmaslik shart, dunyoviy ishlardan chetda qolgan bo‘lsang ham zarari yo‘qdir", - deb yozadi. O‘rta Osiyo mutafakkirlarining ahloq haqidagi fikrlari, o‘gitlari shunday kuchga egaki, ular o‘quvchilar qalbida insoniylik urug‘larining unib chiqishiga, katta hayot yo‘liga olib chiqishga yordam qiladi, ma'naviy kuch-quvvat beradi.

Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Yusuf Xos Hojib, Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiy kabi ulug‘ mutafakkirlarning ahloqiy qarashlari va qadriyatlardan mustaqil O‘zbekiston istiqlolini mustahkamlashda, o‘quvchilarning ahloqiy madaniyatini shakllantirishda, kundalik turmushimizda keng foydalanishimiz maqsadga muvofiqdir. Abu Ali ibn Sinoning ahloq haqidagi qarashlari uning shoh asarlari bo‘lmish "Tib qonunlari", "Ash-shifo" va boshqa asarlarida ham o‘z ifodasini topgan. Ibn Sino ta'limotiga ko‘ra, odamga do‘st tutinishning uch xil yo‘li bor:

"Birinchidan, har qanday qiyinchilik bo‘lishiga qaramay, kishi o‘z do‘stini falokatdan qutqarishni, ikkinchidan, g‘oyaviy yaqinlik va dunyoqarashlar umumiy bo‘lgan chinakam va doimiy do‘stlikni va uchinchidan esa kishining mansabi, puli yoki mavqeiga qarab o‘zining shaxsiy manfaatini qondirish ko‘zda tutilgan do‘stlik bo‘ladi", - deb ta'kidlaydi Ibn Sino.

Inson har safar mutafakkirlar diqqat markazidan o‘rin olar ekan, uning mohiyatini yangi tarixiy sharoitda va yangicha nuqtai nazardan anglab yetishga harakat qilib, uni qayta va qayta yangidan kashf etganlar. Pirovardida, falsafa fanida insondan murakkabroq va ziddiyatliroq predmet yo‘q, desak, hech mubolag‘a bo‘lmaydi. Yusuf Xos Hojib "Qutadg'u bilig" asarida o‘quv va bilimni farqlaydi: o‘quv tug‘ma ravishda inson ruhiyatida mavjuddir, bilim esa o‘qish-o‘rganish va mehnat tufayli egallanadi. Agar ularning har ikkisi o‘zaro birlashsa, insonning qadri ortadi:

Zakovat qayerda bo‘lsa, ulug‘lik bo‘ladi,
Bilim kimda bo‘lsa, buyuklik bo‘ladi.
Zakovatli uqadi, bilimli biladi
Bilimli, zakovatli tilakka yetadi.

Yusuf Xos Hojib ta’lim va tarbiyaning uzviy bog‘liq holda bo‘lishini tavsiya etadi, o‘g‘il bolalarning bir necha san’at turlarini va hunarlarni tugal o‘rganmog‘i lozimligini ta’kidlaydi. Bu, ularning kelajak hayotlari, jamiyat rivoji uchun zarurligini aytadi.

Pedagogikaning fan sifatida shakllanishi yosh avlodni hayotga tayyorlash, ular tarbiyasini samarali amalga oshirish ehtiyojidan kelib chiqadi. Bu ehtiyoj tarbiya borasida orttirilgan tajribalar to‘plangandan keyin o‘sha tajribalarni umumlashtirish, yoshlar tarbiyasi haqida qonun-qoidalarni ishlab chiqish zaruratini taqozo etadi. Avvalo pedagogikaning nazariy kurtaklari falsafa negizida paydo bo‘ladi. Ta'lim-tarbiya masalalari hamisha mutafakkir, yozuvchi, olimlar xayolini band qilib kelgan. Ular o‘zlarini bola tarbiyasi, ularni barkamol inson qilib tarbiyalash haqidagi yorqin mulohazalari bilan pedagogik fikrlar ravnaqiga ulush qo‘shganlar. Masalan: Nizomulmulkning "Siyosatnoma", Nosir Xisravning "Saodatnoma", Ahmad Yugnakiyning "Hibatul-Haqoyiq", Alisher Navoiyning "Mahbub - ul

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

qulub", Yusuf Xos Hojibning "Qutadg‘u bilig" asarlari bevosita odob, axloqqa daxldordir. Bu asarlarda insonparvarlik, halol mehnat, do‘stlik, chin muhabbat, sadoqat kabi yuksak axloqiy fazilatlar o‘z aksini topgan. Kaykovusning "Qobusnoma", IV asrda yashab o‘tgan hind faylasufi Beydaboning "Kalila va Dimna" asarlari, "Ramayana", "Mahobxorat" dostonlari, Sa'diyning "Guliston" va "Bo‘ston", Jomiyning "Bahoriston", Ahmad Donishning "O‘g’illarga nasihat", bundan tashqari Qur'oni Karim, Hadisi Sharif, "Chor darvesh", "Ming bir kecha" kitoblari ham qimmatbaho ma'naviy-madaniy meros bo‘lib, Sharqu g’arb xalqlari ming yillar mobaynida bulardan bahramand bo‘lganlar va komillik tog’risida uning qirralarini yoritib berganlar. Quvg‘inlar, qatag‘onlar, bosqinu yong‘inlarga qaramay, ajdodlarimizdan bizga adabiy, ilmiy-falsafiy, pedagogik va boshqa sohadagi ming-minglab noyob kitob va qo‘lyozmalarda bitilgan ma'naviy merosimiz etib kelgan. Ana shu durdona manbalarda bizning necha ming yillik tariximiz, madaniyatimiz, qo‘yingki o‘zligimiz mujassamlangan.

Xulosa sifatida aytadigan bo‘lsak, dunyoni insonning teran qatlamlariga kirmasdan sirtdan bilishga bo‘lgan barcha urinishlar narsalar haqida faqat yuzaki tasavvur hosil qilish imkonini beradi. Insondan sirtga qarab harakat qiladigan bo‘lsak, Hadisi shariflardagi axloqqa oid ibratli, maslahatlar, hikoyatlar, asrlar davomida ajdodlarimiz hayotida tarkib topgan milliy urf-odatlar, an'analar Beruniy, Forobiy, Ahmad Yassaviy, Amir Temur, Navoiy, Bobur singari buyuk allomalar, olimlar, yozuvchilarning axloq haqidagi ko‘plab fikr-mulohazalari bugungi kunda ham oilaviy hayot uchun, har bir inson uchun qadr-qimmatini yo‘qotmagan muhim tarbiyaviy ahamiyatga molikdir. Jumladan, Amir Temur ahloqi husniya – yaxshi xulqlar egasi bo‘lgan.

U oqil va tadbirli sarkarda sifatida odamlarni ishga tayinlashda ham, vazifasidan ozod etishda ham shoshmashosharlik va adolatsizlikka yo‘l qo‘ymagan, balki yetti o‘lchab bir kesgan. Amir Temur singari jahon ma'naviyati saltanatida o‘z o‘rinlariga ega bo‘lgan buyuk bobokalonlarimizning ahloq, go‘zal xulq haqidagi fikrlari bugungi kun talabi bilan yozilgandek tuyuladi. Ismoil Al-Buxoriy "Ahloqning yaxshi bo‘lishi, taomning pokizaligi, rostlik va omonatga xiyonat qilmaslik shart, dunyoviy ishlardan chetda qolgan bo‘lsang ham zarari yo‘qdir", - deb yozadi. "Tarbiya" fani dars jarayonida badiiy adabiyotlar hamda ajdodlarimizning o‘gitlaridan foydalanish o‘quvchini milliy ruhda tarbiya etishning asosiy mezoni sifatida baholasak, yanglish bo‘lmaydi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017.
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. 3. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. T.: “O‘zbekiston”, 2018.
3. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. 3-jild.– T.: “O‘zbekiston”, 2019.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

4. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild.– T.: “O‘zbekiston”, 2020.
5. Normativ-huquqiy hujjatlar6. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2023.
6. O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-sonli Qonuni.8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022 — 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmoni.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 26 sentyabr“Oliy ta’lim muassasalariga kirish uchun nomzodlarni maksadli tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi PQ-3290-sonli Qarori.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabr “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmoni.
9. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: 2008.
10. Abduqodirov A.A., Pardayev A.X. Pedagogik texnologiyalarga oid atamalarning izohli lug‘ati. – T.: Fan va texnologiya, 2012.
11. Abduqodirov A.A., Pardayev A.X. Ta’lim jarayonini texnologiyalashtirish nazariyasi va metodologiyasi. – T.: Fan va texnologiya, 2012.
12. Azizxodjayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T.: Moliya, 2003.

© intereduglobalstudy.com
BY NC ND

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

RAQAMLI LABORATORIYA VA REFLEKSIV PORTFOLIO ASOSIDA BO‘LAJAK BIOLOGIYA O‘QITUVCHILARINING MODULLI KASBIY TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISH.

Subxonova Gulnoza Usmon qizi, Buxoro davlat texnika universiteti o‘qituvchisi.

Annotatsiya

KIRISH: maqolada bo‘lajak biologiya o‘qituvchilarining modulli kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishda raqamli laboratoriya va refleksiv portfolioning pedagogik imkoniyatlari tahlil qilingan. Laboratoriya faoliyati biologik bilimni tajriba, kuzatish, dalil va ilmiy xulosa bilan bog‘lovchi, elektron portfolio esa ushbu faoliyatni pedagogik mahsulot, o‘zini baholash va kasbiy rivojlanish dinamikasiga aylantiruvchi vosita sifatida talqin etilgan. “BIO-LAB PORTFOLIO” mualliflik modeli taklif etilib, uning muammo, tadqiqot, raqamli dalil, portfolio va refleksiya bloklari asoslangan. Biologiya o‘qituvchisining biologik-ilmiy, laboratoriya-tadqiqotchilik, metodik-didaktik, raqamli va refleksiv kompetensiyalarini integrativ rivojlantirishga qaratilgan modul pasporti, raqamli dalillar banki, laboratoriya mini-tadqiqoti, portfolio artefaktlari va refleksiv baholash matritsasi ishlab chiqilgan. Maqola nazariy-metodik xarakterga ega.

MAQSAD: modulli ta’lim tizimida raqamli laboratoriya va refleksiv portfolioning pedagogik imkoniyatlarini asoslash hamda "BIO-LAB PORTFOLIO" mualliflik modelini ishlab chiqishdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda kompetensiyaviy, faoliyatli, tizimli va refleksiv yondashuvlar asosida sohadagi xalqaro hamda mahalliy tajribalar o‘rganilib, tahlil, sintez va pedagogik modellashtirish usullaridan foydalanildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: raqamli laboratoriya faoliyatining kasbiy funksiyalari va 3 bosqichli (reproduktiv, qisman tadqiqot, mini-tadqiqot) darajalari tizimlashtirildi. Biologik muammo, tadqiqot, raqamli dalil, portfolio va refleksiya bloklarini o‘z ichiga olgan "BIO-LAB PORTFOLIO" modeli hamda uning amaliy mexanizmlari (modul pasporti, raqamli dalillar banki, baholash matritsasi) shakllantirildi.

XULOSA: raqamli laboratoriya va refleksiv portfolioning modulli ta’limdagi integratsiyasi talabalarning biologik-ilmiy, tadqiqotchilik, metodik, raqamli hamda refleksiv kompetensiyalarini yaxlit shakllantirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: biologiya ta’limi, modul texnologiyasi, raqamli laboratoriya, refleksiv portfolio, laboratoriya mini-tadqiqoti, kasbiy tayyorgarlik, raqamli dalil, refleksiya, biologiya o‘qituvchisi.

РАЗВИТИЕ МОДУЛЬНОЙ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ БИОЛОГИИ НА ОСНОВЕ ЦИФРОВОЙ ЛАБОРАТОРИИ И РЕФЛЕКСИВНОГО ПОРТФОЛИО.

Субхонова Гулноза Усмон кизи, преподаватель Бухарского государственного технического университета.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в статье анализируются педагогические возможности цифровой лаборатории и рефлексивного портфолио в модульной профессиональной подготовке будущих учителей биологии. Лабораторная деятельность рассматривается как средство соединения биологического знания с экспериментом, наблюдением, доказательствами и научным выводом, а электронное портфолио – как механизм преобразования полученного опыта в педагогический продукт, самооценку и динамику профессионального развития. Предложена авторская модель «BIO-LAB PORTFOLIO», включающая блоки проблемы, исследования, цифровых доказательств, портфолио и рефлексии.

ЦЕЛЬ: обоснование педагогических возможностей цифровой лаборатории и рефлексивного портфолио в модульном обучении, а также разработка авторской модели «BIO-LAB PORTFOLIO».

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании использованы компетентностный, деятельностный, системный и рефлексивный подходы, а также методы анализа, синтеза и педагогического моделирования.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: систематизированы профессиональные функции и трехуровневая структура (репродуктивный, частично-поисковый, мини-исследование) цифровой лабораторной деятельности. Разработана модель «BIO-LAB PORTFOLIO», объединяющая блоки проблемы, исследования, цифровых доказательств, портфолио и рефлексии, а также ее практические механизмы (паспорт модуля, банк цифровых доказательств, матрица оценивания).

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: интеграция цифровой лаборатории и рефлексивного портфолио в модульное обучение способствует целостному развитию научно-биологических, исследовательских, методических, цифровых и рефлексивных компетенций будущих педагогов.

Ключевые слова: биологическое образование, модульная технология, цифровая лаборатория, рефлексивное портфолио, профессиональная подготовка, лабораторное исследование, рефлексия.

DEVELOPMENT OF MODULAR PROFESSIONAL TRAINING FOR FUTURE BIOLOGY TEACHERS BASED ON A DIGITAL LABORATORY AND REFLECTIVE PORTFOLIO.

Subkhonova Gulnoza Usmon kizi, lecturer at Bukhara State Technical University.

Annotation

INTRODUCTION: the article analyzes the pedagogical potential of digital laboratory work and reflective portfolios in the modular professional preparation of future biology teachers. Laboratory activity is viewed as a means of connecting biological knowledge with experimentation, observation, evidence and scientific conclusions, while the electronic

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

portfolio transforms this experience into a pedagogical product, self-assessment and visible professional development. The author proposes a “BIO-LAB PORTFOLIO” model consisting of problem, research, digital evidence, portfolio and reflection blocks.

AIM: to substantiate the pedagogical potential of digital laboratories and reflective portfolios in modular education and to design the original "BIO-LAB PORTFOLIO" model.

MATERIALS AND METHODS: grounded in competency-based, activity-oriented, systemic, and reflective approaches, the study employed methods of synthesis, analysis, and pedagogical modeling.

DISCUSSION AND RESULTS: the professional functions and three progressive levels (reproductive, guided research, mini-research) of digital laboratory activities were structured. The "BIO-LAB PORTFOLIO" model—comprising problem, research, digital evidence, portfolio, and reflection blocks—along with its implementation mechanisms (module passport, digital evidence bank, evaluation rubric) was developed.

CONCLUSION: Integrating digital laboratories with reflective portfolios within modular learning promotes the comprehensive development of biological-scientific, research, methodical, digital, and reflective competencies in pre-service biology teachers.

Keywords: biology education, modular technology, digital laboratory, reflective portfolio, professional preparation, laboratory research, digital evidence, reflection.

Biologiya fanlarini o‘qitishning o‘ziga xosligi nazariy bilimni kuzatish, tajriba, tirik obyekt, biologik jarayon va ilmiy dalillar bilan bog‘lash zaruratida namoyon bo‘ladi. Shu sababli bo‘lajak biologiya o‘qituvchisining kasbiy tayyorgarligi faqat ma’ruza mazmunini o‘zlashtirish bilan cheklanmaydi. Talaba tajribani rejalashtirishi, o‘zgaruvchilarni farqlashi, xavfsizlikni ta’minlashi, natijani qayd etishi, xulosaning dalilga mosligini tekshirishi va ushbu tajribani maktab darsiga metodik jihatdan moslashtira olishi lozim.

Modul texnologiyasi aynan shu faoliyatni maqsadli siklga aylantirish imkonini beradi. Biroq modul faqat mavzu, test va mustaqil topshiriqdan iborat bo‘lsa, biologiyaning tajribaviy tabiatidan to‘liq foydalanilmaydi. Raqamli laboratoriya vositalari va refleksiv portfolio modulga kiritilganda esa talabaning faoliyati kuzatiladigan, qayta ishlanadigan va kasbiy rivojlanish daliliga aylantiriladigan tizim hosil bo‘ladi.

Maqolaning maqsadi – bo‘lajak biologiya o‘qituvchilarining modulli kasbiy tayyorgarligida raqamli laboratoriya va refleksiv portfoliodan foydalanishning metodik imkoniyatlarini asoslash, “BIO-LAB PORTFOLIO” modelini ishlab chiqish va uning amaliy mexanizmlarini tizimlashtirish.

Tadqiqotda kompetensiyaviy, faoliyatli, tizimli, refleksiv va tajribaga asoslangan yondashuvlar metodologik asos sifatida qabul qilindi. Laboratoriya faoliyati “tayyor yo‘riqnoma bo‘yicha tajriba”dan “biologik savol – gipoteza – tajriba dizayni – dalil – xulosa – pedagogik transformatsiya” sikliga ko‘chirildi. Refleksiv portfolio esa yakuniy fayllar

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

to‘plami emas, tajribaning dastlabki va takomillashtirilgan variantlarini taqqoslash, teskari aloqa va individual rivojlanish vazifasini hujjatlashtirish vositasi sifatida talqin qilindi.

Raqamli laboratoriya tushunchasi faqat elektron datchik yoki murakkab texnik qurilmalar bilan cheklanmaydi. Biologiya ta’limida u tajriba natijasini foto, video, vaqt qatori, jadval, grafik, mikrofoto yoki oddiy raqamli o‘lchov ko‘rinishida qayd etish va tahlil qilishning boshqariladigan muhitini anglatadi. Asosiy pedagogik mezon qurilmaning zamonaviyligi emas, u biologik savolga dalil olishga qanchalik xizmat qilishidir.

Masalan, o‘simlik transpiratsiyasini o‘rganishda raqamli foto-fiksatsiya, vaqt bo‘yicha massa o‘zgarishi, oddiy jadval va grafik yaratish talabaning kuzatuvni subyektiv tavsifdan o‘lchanadigan dalilga aylantirishiga yordam beradi. Shu ma’lumot asosida bo‘lajak o‘qituvchi dars uchun qanday savol, topshiriq va vizual material yaratishni ham loyihalaydi.

1-jadval. Raqamli laboratoriya faoliyatining kasbiy funksiyalari

Funksiya	Biologik mazmun	Kasbiy-pedagogik natija
Kuzatish	tirik obyekt yoki jarayon dinamikasini qayd etish	o‘quvchiga dalil ko‘rsatish va savol tuzish
O‘lchash	miqdoriy parametrni vaqt yoki sharoit bo‘yicha taqqoslash	ma’lumot bilan ishlash ko‘nikmasini o‘rgatish
Vizualizatsiya	grafik, mikrofoto, sxema yoki video shaklida tasvirlash	murakkab biologik jarayonni tushunarli ifodalash
Tahlil	o‘zgarish, bog‘lanish, farq va tendensiyani aniqlash	dalilga asoslangan biologik xulosa chiqarish
Metodik transformatsiya	tajriba natijasini dars resursiga aylantirish	topshiriq, laboratoriya yo‘riqnomasi yoki mikro-dars yaratish
Refleksiya	xato, cheklov va qayta tajriba shartini belgilash	kasbiy qarorni qayta loyihalash

Kasbiy modul doirasida laboratoriya faoliyati uch darajada tashkil etilishi mumkin: reproduktiv tajriba, qisman mustaqil tadqiqot va mustaqil mini-tadqiqot. Birinchi darajada talaba yo‘riqnoma bo‘yicha bajarish va xavfsizlikni o‘zlashtiradi. Ikkinchi darajada tajriba shartlaridan biri – o‘zgaruvchi, o‘lchov usuli yoki ma’lumot taqdimoti – talabaga topshiriladi. Uchinchi darajada esa talaba biologik savolni aniqlab, tajriba dizaynini o‘zi ishlab chiqadi.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

2-jadval. Laboratoriya faoliyatining progressiv darajalari

Daraja	Talaba mustaqilligi	Asosiy vazifa	Kasbiy dalil
I. Reproduktiv	past	tayyor protokolni xavfsiz va aniq bajarish	to‘g‘ri qayd va xavfsizlik chek-listi
II. Qisman tadqiqot	o‘rta	bitta parametrni tanlash yoki o‘zgartirish	taqqoslovchi jadval/grafik va xulosa
III. Mini-tadqiqot	yuqori	savol, gipoteza, dizayn va tahlilni mustaqil qurish	tadqiqot hisobotı + metodik transformatsiya

Elektron portfolioning asosiy pedagogik vazifasi tayyor ishlarni yig‘ish emas, rivojlanish dinamikasini ko‘rsatishdir. Shuning uchun portfolioda faqat yakuniy laboratoriya hisoboti emas, dastlabki gipoteza, tajriba rejasining birinchi varianti, kuzatuv dalillari, ekspert yoki tengdosh fikri, qayta ishlangan variant va yakuniy refleksiv xulosa ham bo‘lishi kerak.

Portfolio bo‘lajak biologiya o‘qituvchisining “tajribani bajardim” darajasidan “qaysi dalil nimani ko‘rsatdi, tajribaning qanday cheklovi bor, o‘quvchiga buni qanday tushuntirish mumkin va keyingi safar nimani o‘zgartiraman” darajasiga o‘tishini ta’minlaydi.

Taklif etilayotgan model beshta ketma-ket, biroq siklik blokdan iborat. Birinchi blokda biologik muammo va kasbiy vazifa aniqlanadi. Ikkinchi blokda talaba tadqiqot savoli, gipoteza, tajriba yoki kuzatuvni amalga oshiradi. Uchinchi blokda jarayon va natija raqamli dalil shaklida qayd etiladi. To‘rtinchi blokda dalillar portfolio artefaktlari sifatida pedagogik mahsulotga aylantiriladi. Beshinchi blokda esa o‘zini baholash, ekspert fikri va refleksiv korreksiya amalga oshiriladi.

Portfolio va laboratoriya faoliyatini baholash faqat “tajriba bajarildi/bajarilmadi” yoki yakuniy hisobotning tashqi ko‘rinishi bilan cheklanmasligi kerak. Baholashning asosiy obyekti biologik savol, tajriba dizayni, dalil sifati, xulosa mantiqi, metodik transformatsiya va refleksiv korreksiyadir.

Raqamli laboratoriya va refleksiv portfolio modulli o‘qitishning ikki muhim bo‘shlig‘ini to‘ldiradi. Birinchidan, laboratoriya faoliyati biologik bilimni real dalil bilan bog‘laydi. Ikkinchidan, portfolio ushbu tajribaning rivojlanish dinamikasini ko‘rsatib, talabani faqat natijani emas, o‘z kasbiy qarorini tahlil qilishga o‘rgatadi.

Bunday integratsiya biologiya o‘qituvchisini “tajribani ko‘rsatib beruvchi” mutaxassisdan “o‘quvchini biologik dalil asosida fikrlashga olib kiruvchi” pedagog sifatida tayyorlash imkoniyatini kengaytiradi. Shu jihatdan modulning yakuniy mahsuloti laboratoriya hisobotining o‘zi emas, balki tajriba natijasini metodik resursga aylantirish qobiliyati hisoblanadi.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

Taklif etilayotgan model nazariy-metodik konstruktsiya bo‘lib, uning samaradorligini keyingi bosqichda tajriba va nazorat guruhlari, aniq diagnostik mezonlar, portfolio rubrikalari, laboratoriya mahsulotlari va statistik ta’sir kattaligi asosida empirik tekshirish lozim.

sifatida shuni aytish mumkinki, bo‘lajak biologiya o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini modul texnologiyalari asosida rivojlantirishda raqamli laboratoriya va refleksiv portfolio o‘zaro to‘ldiruvchi didaktik vositalardir. Laboratoriya biologik bilimni tajriba va dalil bilan bog‘lasa, portfolio mazkur tajribani kasbiy rivojlanish, metodik mahsulot va refleksiv korreksiyaga aylantiradi.

Shu sababli biologiya ta’limida modullarni faqat mavzular va nazorat topshiriqlari asosida emas, biologik muammo, mini-tadqiqot, raqamli dalil, pedagogik mahsulot va refleksiv transfer birligida loyihalash maqsadga muvofiq. Bunday yondashuv talabaning biologik-ilmiy, tadqiqotchilik, metodik, raqamli va refleksiv kompetensiyalarini yaxlit kasbiy faoliyatda rivojlantirish imkonini beradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Harden R.M. The integration ladder: a tool for curriculum planning and evaluation // Medical Education. 2000. Vol. 34, No. 7. P. 551–557.
2. Johnson D.W., Johnson R.T. An Educational Psychology Success Story: Social Interdependence Theory and Cooperative Learning // Educational Researcher. 2009. Vol. 38, No. 5. P. 365–379.
3. Biggs J., Tang C. Teaching for Quality Learning at University. 4th ed. Maidenhead: Open University Press, 2011.
4. Hattie J., Timperley H. The Power of Feedback // Review of Educational Research. 2007. Vol. 77, No. 1. P. 81–112.
5. UNESCO. Reimagining Our Futures Together: A New Social Contract for Education. Paris: UNESCO, 2021.
6. OECD. Teachers as Designers of Learning Environments: The Importance of Innovative Pedagogies. Paris: OECD Publishing, 2018.

© intereduglobalstudy.com

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

FALSAFA FANINI OLIY TA'LIMDA O'QITISHDA XORIJIY TAJRIBA VA UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.

Ismadiyorov Komil Maxamadiyorovich, Andijon davlat pedagogika instituti, Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquqiy ta'limi kafedrasi katta o'qituvchisi, PhD.
anddupimanaviyat@mail.ru

Annotatsiya

KIRISH: mazkur maqolada oliy ta'lim tizimida falsafa fanini o'qitishning zamonaviy yondashuvlari, ilg'or xorijiy tajribalar (AQSh, Yevropa, Buyuk Britaniya va Osiyo mamlakatlari modeli) hamda ularni milliy ta'lim tizimiga tatbiq etish mexanizmlari tahlil qilingan. Kredit-modul tizimi (ECTS) sharoitida falsafa ta'limining mazmuni, ECTS tizimiga ko'ra falsafa fanidan talabaning ish hajmi yuklamasining mazmuni yoritilgan. Shuningdek, talabalarda tanqidiy fikrlash, Suqrotcha muloqot va axloqiy refleksiya ko'nikmalarini shakllantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.

MAQSAD: oliy ta'limda falsafa fanini o'qitishning ilg'or xorijiy tajribalarini (AQSh, Yevropa, Buyuk Britaniya va Osiyo mamlakatlari modellari) tahlil qilish hamda ularni milliy ta'lim tizimiga adaptatsiya qilish mexanizmlarini asoslab berishdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqot jarayonida tizimli tahlil, qiyosiy-tarixiy yondashuv, sintez, deduksiya hamda induksiya kabi ilmiy bilish metodlaridan foydalanilib, jahonning yetakchi universitetlari tajribasi va mahalliy-xorijiy olimlarning ilmiy qarashlari o'rganildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: ECTS tizimida falsafa modullari bo'yicha talaba ish hajmi yuklamasining taqsimoti (auditoriya 20-30%, mustaqil ta'lim 50-60%, nazorat 10-20%) va mustaqil ta'limni tashkil etishning samarali shakllari ("Reading List", "Argument mapping", ijodiy esse) va interfaol metodlar (Suqrotcha muloqot, Keys-stadi) tizimlashtirildi.

XULOSA: g'arbning tanqidiy fikrlash hamda argumentatsiya metodlarini Sharqona ma'naviy-axloqiy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirish milliy ta'limda falsafa fanining samaradorligini oshirish va raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning muhim omili hisoblanadi.

Kalit so'zlar: falsafa ta'limi, kredit-modul tizimi, tanqidiy fikrlash, Suqrotcha muloqot, xorijiy tajriba, o'qish ro'yxati, faktlar xaritasi, ijodiy insho, mustaqil ta'lim.

ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ ПРЕПОДАВАНИЯ ФИЛОСОФИИ В ВЫСШЕМ ОБРАЗОВАНИИ И ЕГО СПЕЦИФИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ.

Исмадиёров Комил Махамадиёрович, старший преподаватель кафедры «Национальная идея, основы духовности и правовое образование» Андижанского государственного педагогического института, PhD.

Аннотация

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

ВВЕДЕНИЕ: в данной статье анализируются современные подходы к преподаванию философии в системе высшего образования, передовой зарубежный опыт (на примере моделей США, стран Европы, Великобритании и Азии), а также механизмы внедрения этого опыта в национальную систему образования. Раскрывается содержание философского образования в условиях кредитно-модульной системы (ECTS) и учебной нагрузки студента по данному предмету в соответствии с ECTS. Особое внимание уделяется формированию у студентов навыков критического мышления, сократического диалога и нравственной рефлексии.

ЦЕЛЬ: анализ передового зарубежного опыта преподавания философии в высшей школе (на примере моделей США, стран Европы, Великобритании и Азии) и обоснование механизмов его адаптации в национальную систему образования.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании использованы методы системного анализа, сравнительно-исторического подхода, синтеза, дедукции и индукции, а также изучен опыт ведущих мировых университетов и труды отечественных и зарубежных ученых.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: систематизировано распределение учебной нагрузки студента по модулям философии в системе ECTS (аудиторные занятия 20-30%, самостоятельное обучение 50-60%, контроль 10-20%), эффективные формы самостоятельной работы («Reading List», «Argument mapping», творческое эссе) и интерактивные методы (сократический диалог, кейс-стади).

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: Гармонизация западных методов критического мышления и аргументации с восточными духовно-нравственными ценностями является ключевым фактором повышения эффективности философского образования и подготовки конкурентоспособных кадров.

Ключевые слова: философское образование, кредитно-модульная система, критическое мышление, сократический диалог, зарубежный опыт, список литературы, карта фактов, творческое эссе, самостоятельное образование.

FOREIGN EXPERIENCE AND SPECIFIC FEATURES OF TEACHING PHILOSOPHY IN HIGHER EDUCATION.

Ismadiyorov Komil Maxamadiyorovich, Senior Lecturer at the Department of National Idea, Fundamentals of Spirituality and Legal Education, Andijan State Pedagogical Institute, PhD.

Annotation

INTRODUCTION: this article analyzes modern approaches to teaching philosophy in higher education, advanced international experiences (models from the USA, Europe, Great Britain, and Asian countries), and the mechanisms for their implementation into the national education system. It examines the content of philosophy education within the

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

credit-module system (ECTS) and outlines the student's workload in the subject of philosophy according to ECTS standards. Furthermore, special attention is given to the development of critical thinking, Socratic dialogue, and ethical reflection skills in students.

AIM: o analyze advanced international practices in teaching philosophy in higher education (featuring models from the USA, Europe, the UK, and Asia) and substantiate mechanisms for their adaptation into the national education system.

MATERIALS AND METHODS: the study employed methods of systemic analysis, comparative-historical approach, synthesis, deduction, and induction, reviewing the experiences of world-leading universities alongside research from domestic and foreign scholars.

DISCUSSION AND RESULTS: the allocation of student workload for philosophy modules under ECTS standards (classroom hours 20-30%, independent study 50-60%, assessment 10-20%) was structured, highlighting effective self-study formats ("Reading List", "Argument mapping", creative essay) and interactive methods (Socratic dialogue, Case-study).

CONCLUSION: harmonizing Western methods of critical thinking and argumentation with Eastern spiritual and moral values serves as a crucial driver for enhancing the quality of philosophy education and developing competitive specialists.

Keywords: philosophy education, credit-module system, critical thinking, Socratic dialogue, international experience, reading list, fact map, creative essay, independent study.

Falsafa fanini bugungi oliy ta’limda o‘qitilishining ahamiyati juda tez o‘zgaruvchan dunyoda ma’naviy jarayonlarda yuzaga kelayotgan dolzarb muammolarga yechim topish, milliy mentalitetimizni saqlash, talaba yoshlarning falsafiy tafakkurini shakllantirish va yuksaltirish, bir so‘z bilan aytganda innovatsion shaxsni tarbiyalash zarurati bilan izohlanadi. O‘zbekiston oliy ta’lim tizimining xalqaro ta’lim makoniga integratsiyalashuvi, xususan, kredit-modul tizimiga o‘tishi falsafa fanini o‘qitish metodologiyasini tubdan yangilashni taqozo etadi.

An’anaviy yod olish va ma’ruza markazlashgan ta’limdan talabaning faol ishtirokiga, muammoli vaziyatlarni tahlil qilishga asoslangan ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘rganish va amaliyotga tatbiq etish dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda falsafani o‘qitishda barcha fanlarda bo‘lgani kabi yangi uslubiyatni qo‘llash, innovatsion metodlardan samarali foydalanish talab etilmoqda. Ya’ni biz shakllanishi hali o‘z nihoyasiga yetmagan milliy falsafamizning yangi uslubiyat asosida o‘qitish muammolari ustida ham ishlashimiz zarurati ko‘ndalang bo‘lmoqda. Oliy ta’limda falsafa fanini innovatsion mexanizmlar hamda xalqaro tajribalar asosida o‘qitish mavzusi doirasida respublikamiz olimlaridan N.A.Shermuhamedova, T.A.Artiqov, F.X.Yuldasheva, U.M.Muxtarov, D.T.Samatovlar o‘z ilmiy tadqiqot ishlarida izlanishlar olib borganlar.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

Shuningdek, xorijiy va maxalliy olimlar (Y.A.Kindler, A.Y.Lavrenteva, G.A.Geranina L.V.Xoxlova, O.Y.Yasenko, o‘zbek faylasuflari Q.Nazarov, E.Yusupov, V.Qo‘chqorov va boshqalar) asarlarida falsafani o‘qitish metodikasi, uning yoshlar dunyoqarashini shakllantirishdagi funksiyalari tadqiq qilingan.

Ushbu maqolani yozishda tizimli tahlil, qiyosiy-tarixiy yondashuv, sintez, deduksiya va induksiya kabi ilmiy bilish metodlaridan foydalanildi. Taklif qilinayotgan ta’lim modellaridan biri bosqichma-bosqichlikka asoslanadi. Interpritatsiya va tahlil – dalillash – falsafiy bilimlar va metodologiya – kommunikatsiya. Boshqacha aytganda, birinchi o‘ringa falsafiy matnlarni tahlil qilish, sharhlash va tushunish ko‘tariladi.

“Dunyoning yetakchi ilmiy markazlari va ilmiy tadqiqot institutlarida falsafiy ta’lim tizimini o‘rganish, undagi milliy o‘zlikni anglashga ijobiy ta’sir etuvchi omillarni, ajdodlardan qolgan ilmiy-falsafiy merosni tahlil etishga qiziqish keskin kuchaydi. Tadqiqotlarda milliy falsafa, umummadaniy falsafiy meros, falsafiy ta’lim va ta’lim falsafasi kabi muammolarning mohiyatini ochib berish, ularni falsafiy prinsiplar va kategoriyalar yordamida tahlil qilishga e’tibor qaratilmoqda. Aksariyat rivojlangan davlatlarda jamiyat intellektual salohiyatini yuksaltirishga xizmat qiluvchi falsafiy ta’limni rivojlantirish muammolarini o‘rganish borasidagi tadqiqotlarni kun tartibiga dolzarb ilmiy vazifa sifatida qo‘ymoqda”[1]. Hozirgi davrda falsafa fanini o‘qitish zamonaviy ilm-fan, texnologiya va ijtimoiy fanlar bilan integratsiyalana boshladi. Etik, ekologik, siyosiy va ijtimoiy masalalarga oid falsafiy masalalar bo‘yicha ta’lim yana ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Falsafadan ta’lim berishning tarixiy rivojlanishi har doim insonning dunyoga bo‘lgan munosabatini, ijtimoiy strukturalarni va madaniy an’analarni aks ettiradi. Falsafa fanini o‘qitish va o‘rganishning rivojlanish tendensiyalari doimiy ravishda o‘zgarib turadi. Shu sababli o‘qituvchilar va talabalar o‘zlarini bu o‘zgarishlarga moslashtirishlari, yangi usullar va texnologiyalarni o‘ganishlari kerak.

Jahonning yetakchi universitetlarida (Garvard, Oksford, Kolumbiya, Tokio universiteti va boshqalar) falsafa fanini o‘qitish yondashuvlari mazmun va shakl jihatidan sezilarli darajada farq qiladi. G‘arb ta’lim tizimida falsafa shunchaki tarixiy doktrinalarni yodlash emas, balki “amaliy falsafa” (practical philosophy) va “tanqidiy fikrlash instituti” sifatida talqin qilinadi.

Xorijiy tajribaning asosiy metodologik tamoyillari quyidagilardan iborat:

- Suqrotcha muloqot metodi (Socratic Method): Talabaga tayyor bilimlarni berish o‘rniga, savollar berish orqali uni mantiqiy ziddiyatlarni topishga va o‘z fikrini asoslashga o‘rgatish.
- Keys-stadi va muammoli yondashuv (Problem-based learning): Zamonaviy bioetika, sun’iy intellekt axloqi, ekologik falsafa va siyosiy adolat kabi dolzarb muammolar bo‘yicha real keyslarni tahlil qilish.

[1] Мухоаров У. Ўзбекистонда фалсафий таълимни ривожлантиришнинг илмий-консептуал хусусиятлари. Фалсафа фанлари доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертатсия автореферати. –Т.: 2020. - 59 б.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

- Interdisiplinar yondashuv (Interdisciplinary approach): Falsafani boshqa fanlar (aniq fanlar, IT, iqtisodiyot) bilan bog‘lagan holda o‘qitish. Masalan, “Komputer etikasi” yoki “Ilm-fan falsafasi” kurslari orqali texnologiya va gumanitar fanlarning tutash nuqtalarini ochib berish.

Hozirgi paytga kelib, aytish mumkinki, Yevropa mamlakatlarida falsafani o‘qitish ikkita yo‘nalishda olib borilmoqda. Bu yo‘nalishlar o‘rtasida ko‘plab farqlar mavjud, lekin o‘xshash jihatlar ham ko‘p. Bu jihatlar nafaqat falsafa, balki gumanitar fanlarning barchasiga tegishlidir.

“Ispaniya, Fransiya, Italiya, Portugaliya kabi mamlakatlarda falsafa fanidan dars berish falsafani o‘rganish sohasining tarkibida muhim o‘rin tutadi. Benilyuks mamlakatlari Daniya, Avstriya, Buyuk Britaniyada bunday an’analar unchalik mukammal emas. Ayniqsa, universitetlarda quyi darajada falsafani o‘qitishdan kutilgan maqsadlar ham turlicha. YUNESKO tomonidan o‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, bu sohada turli yo‘nalish, uslub, an’ana va rejalar mavjud. Ammo shunisi aniqki, falsafani o‘rganish, inson taraqqiyotini, undagi bag‘rikenglikni shakllantirib, madaniyatlar dialogini, turli ijtimoiy guruhlar o‘rtasidagi aloqani mustahkamlashga, ma’naviy-axloqiy qadriyatlar shakllanishiga turtki beradi. Falsafa insondagi tanqidiy tahlil va ijodiy faoliyatni o‘stirishini ko‘plab olim va tadqiqotchilar ta’kidlab o‘tgan.

Hozirda jahonning yetakchi universitetlaridan Massachusets texnologiya instituti, Stenford universiteti, Garvard universiteti, Kembrij va Edinburg (Buyuk Britaniya), Kvinslend (Avstraliya), Makgill universiteti (Kanada), Gonkong universiteti (Gonkong), Berlin Humboldt universiteti (Germaniya)ning har birida falsafa fakultetlari mavjud bo‘lib, u yerda falsafa bo‘yicha mutaxassislar tayyorlanadi. Masalan, Garvard universitetida ratsionalizm, Rassel falsafasi va Vitgenshteyn falsafasi, Buddist falsafasi, yunon falsafasining manbashunoslik, til falsafasi, aql falsafasi, epistemologiya, zamonaviy etika, axloqiy va tarixiy tadqiqotlar kurslari o‘qitiladi”[2]. Birgina Buyuk Britaniya oliy ta’lim muassasalarida falsafa fanini o‘qitish tizimi bir-biridan tubdan farq qilishi mumkin. Oksford universiteti falsafa fanini o‘qitishda o‘zining uzoq tarixiy an’anasiga ega bo‘lib, bu yerda analitik falsafaga alohida ahamiyat beriladi va talabalar bu yerda falsafadan keng qamrovli bilim olishga erishadilar. Bir nechta kollejlarni o‘zida birlashtirgan London universitetining har bir kolleji falsafa fanini o‘qitish bo‘yicha o‘ziga xos modulli dasturini taklif etadi. Modulli ta’lim dasturlari talabalarga o‘zlari uchun eng maqbul dasturni tanlashga imkon yaratib beradi. Shotlandiyaning qadimiy universitetlaridan biri hisoblangan Edinburg universiteti falsafa fanini o‘qitish bo‘yicha Yevropadagi eng nufuzli va boy tajribaga ega oliy ta’lim muasasalaridan biri hisoblanadi. Ushbu universitetda analitik falsafa bilan bir qatorda, axloq falsafasi va siyosiy falsafani o‘qitishga alohida urg‘u beriladi.

[2] Samatov D.T. O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalarida falsafa fanini o‘qitish metodikasini takomillashtirish: ped.f.d. (DSc)…diss. avtoref. A.: 2024. – B-15.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

ECTS tizimiga ko‘ra falsafa fani modullarga bo‘lib o‘qitiladi. Masalan, bir o‘quv semestrida 30 ECTS kredit to‘plashi kerak bo‘lsa, shundan falsafaning “Mantiq” moduli 6 ECTS kredit bo‘lishi mumkin. Falsafa fanidan talabaning ish hajmi yuklamasi quyidagicha taqsimlanadi: 1-auditoriya soatlari – ma’ruza va seminarlarda qatnashish yuklamasi, fan uchun ajratilgan umumiy yuklamaning 20-30 foizini tashkil etadi; 2-mustaqil ta’lim – har bir seminar mashg‘uloti uchun ma’lum bir sahifa falsafiy asarlardan o‘qishi, umumiy yuklamaning 50-60 foizi miqdorida; 3-nazorat – yozma ishlar topshirish, modul hajmining 10-20 foizini tashkil etib, tadqiqot loyihasi yoki esse shaklida bo‘ladi. Falsafadan ma’ruzani odatda Yevropa universitetlarida ilmiy salohiyati yuqori bo‘lgan professorlar tomonidan falsafiy nazariyalar aytib o‘tiladi va adabiyotlar ro‘yxati beriladi. Seminar mashg‘uloti falsafani ECTS tizimida o‘qitishning muhim elementlaridan biri bo‘lib, talabalar aniq falsafiy yuzasidan bahs yuritadilar. Modul bo‘yicha baholash – Assesment, modul yakunlanganda talaba imtihon topshiradi va bu imtihon shakli professor tomonidan belgilanadi. Odatda Yevropa universitetlarida falsafa moduli imtihoni ilmiy esse topshirish shaklida olinadi. ECTS tizimida falsafa modullarini baholash mezonlari asosan talabani modulni mukammal o‘zlashtirishini ta’minlaydi.

Yevropa ECTS tizimida universitetlarda falsafani o‘qitish talabaga nazariya, ta’limotlarni o‘qitish emas, har bir modulning barcha sahifalari hamda tanqidiy faktlar uchun aqliy mehnat taqsimoti deganidir.

Ushbu tizimning eng e’tiborli yana bir jihati shundaki, talabaning auditoriyada o‘tiradigan soatiga emas, mustaqil ta’limda o‘qib egallaydigan yuklamasiga katta e’tibor beriladi. Bu esa o‘z navbatida falsafa fanini o‘qitishda juda muhimdir. Chunki falsafa fani ijtimoiy-gumanitar fan bo‘lgani uchun modulning mustaqil ta’lim hajmi boshqa fanlarga nisbatan yuqori bo‘ladi. Shuningdek, ECTS tizimida falsafa fanini o‘qitishda mustaqil ta’lim jarayoni o‘quv jarayonining asosiy qismi hisoblanib, umumiy modul yuklamasining 75-80 foizini tashkil qiladi.

Yevropa universitetlarida falsafa fanidan mustaqil ta’limni bajarishi uchun professor tomonidan talabalarga turli shakllardagi topshiriqlar beriladi. Shulardan bir qatorlarini ko‘rib o‘tamiz.

1. “Reading List” – o‘qish ro‘yxati. Bunda talabaga har hafta tanqidiy mutolaa qilishi uchun biror bir faylasufning asaridan ma’lum bir sahifa o‘qib kelish vazifa qilib beriladi. Masalan, Nitsshening “Zardusht tavallosi” asaridan 50 sahifa o‘qib chiqish. Talaba esa bu asarni shunchaki o‘qish bilan cheklanmaydi. O‘qigan sahifasi yuzasidan aniq faktlar yig‘adi, mantiqiy xatolarini topadi va seminarga savollar tayyorlaydi.
2. Falsafiy esse – ijodiy insho. Bu eng yaxshi davom ettirish turi bo‘lib, talaba professor tomonidan berilgan yoki o‘zi tanlagan savol yuzasidan tadqiqot olib boradi. Esse faylasuflarni fikrini ko‘chirish emas, balki o‘zining shaxsiy faktlarini mantiqiy asoslashdir. Bu jarayonda talaba ma’lumotlarni yig‘adi, ularni tahlil qiladi va o‘zining faktlarini yozma shaklda bayon qiladi.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

3. Argument mapping – faktlar xaritasi. Masalan, Geydelberg universitetida talabaga biror bir murakkab falsafiy asarni (masalan, Makiavellining “Hukmdor” asari) mantiqiy bo‘limlarga ajratib, ularni dizayn va vizual shaklda yoritib berish. Talaba asarni mantiqiy bo‘limlarga ajratib, har bir bo‘limning mantig‘idan kelib chiqqan holda vizual ko‘rgazma tayyorlaydi.

Ushbu mustaqil ta’lim jarayoni qanday baholanadi? Yevropa universitetlarining ba’zi professorlari har hafta o‘qish uchun berilgan asar matnlari yuzasidan 300-500 so‘zdan iborat tahliliy yozma ish talab qiladi. Portfolio – semester yakunida modul yuzasidan bajarilgan barcha mustaqil ishlar (esselar, tahlillar, ko‘rgazmalar va h.k.) turlari yig‘ilib topshiriladi. Yoki ba’zi universitetlarda talabalar o‘zlarining mustaqil o‘qish soatlari jadvali – shaxsiy ish rejasini topshiradi.

Xorijiy tajribaga ko‘ra mustaqil ta’limning “oltin qoidasi” shuki, Yevropa ta’lim tizimida o‘qituvchi talabaga nima to‘g‘ri yoki nima noto‘g‘ri ekanligini izohlab bermaydi. O‘qituvchi talabaga manba beradi va talaba o‘sha manba ustida mustaqil ishlashini, qanday natija olishini kutadi va kuzatadi. Seminar mashg‘uloti esa talabaga mustaqil ta’limda olgan bilimini himoya qilish jarayoni hisoblanadi.

Shuni tan olib aytishimiz kerakki, mamlakatimiz oliy ta’lim muassasarida falsafa fani ECTS tizimidagi fan sifatida o‘qitiladi. Lekin ta’lim yo’nalishlari xususiyatidan kelib chiqib, modulli fan dasturi tuzilmagan, balki tayanch oliy ta’lim muassasasi tomonidan ishlab chiqilgan yagona dastur asosida o‘qitiladi. Falsafa fanini o‘qitish esa haligacha an’anaviy shaklda olib borilib, baholash va mustaqil ta’lim jarayonlarini topshiriqlari, nazorat turlari yuzasidan mezonlar mukammal ishlab chiqilmagan.

Falsafa fanini oliy ta’limda o‘qitishda xorijiy tajribalarni o‘rganish va milliy xususiyatlarga moslashtirish talabalarda mustaqil dunyoqarash, tanqidiy fikrlash va yuqori kasbiy madaniyatni shakllantirishning muhim omilidir. G‘arbning argumentatsiya va Suqrotcha muloqot metodlarini Sharqona ma’naviy-axloqiy qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirish orqali O‘zbekiston oliy ta’limida falsafa fanining samaradorligini keskin oshirish mumkin. Bu o‘z navbatida raqobatbardosh, chuqur fikrlovchi va jamiyat taraqqiyotiga mas’ul bo‘lgan kadrlarni tayyorlash imkonini beradi.

Bugungi globallashgan dunyo qiyofasi ta’lim bilan birga rivojlanib bormoqda. Shuningdek, bir qator mamlakatlar inson ongini rivojlantirish uchun falsafani oddiygina fan sifatida emas, balki “qurol” kabi foydalanmoqda. Ya’ni falsafa fanini o‘qitish orqali jamiyat qanday tarbiyalanishi mumkinligini tushunadilar. Ushbularni hisobga olib mahalliy oliy ta’lim muassasalarida falsafa fanining mohiyatini anglagan holda o‘qitish dolzarb sanaladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Мухтаров У. Ўзбекистонда фалсафий таълимни ривожлантиришнинг илмий-консептуал хусусиятлари. Фалсафа фанлари доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертатсияси. –Т.: 2020.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

2. Samatov D.T. O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalarida falsafa fanini o‘qitish metodikasini takomillashtirish: ped.f.d. (DSc)…diss. avtoref. A.: 2024.
3. Xaitov L. Falsafa. Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. B.: “Bukhara hamd print”: 2023. – 384 pages.
4. Nazarov, Q. va boshqalar. Falsafa asoslari. (Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik) – T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2018. – 380 b.
5. Jahon falsafasi tarixi. (O‘quv qo‘llanma) / prof. M.N.Abdullayev tahriri ostida. – T., 2019.
6. G‘affarova G.G. Axborotlashgan jamiyat va falsafiy tafakkur taraqqiyoti. – T.: Fan, 2014.
7. Шермухамедова Н. Социально-философские аспекты формирования стиля научного мышления: Автореф. Дисс...докт.филос.наук.-Т.: Университет, 2002.

© intereduglobalstudy.com

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

AXLOQIY DUNYOQARASH PEDAGOGIK KATEGORIYA SIFATIDA: MOHIYATI, TUZILMASI VA TARKIBIY KOMPONENTLARI.

Ahmedov Nodir Kodiraliyevich, Is'hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillari institute mustaqil tadqiqotchisi.
ahmedovnodir@gmail.com

Annotatsiya

KIRISH: maqolada "axloqiy dunyoqarash" tushunchasi pedagogik kategoriya sifatida nazariy tahlil qilingan. Muallif mazkur tushunchani unga yaqin bo'lgan "axloq", "axloqiy ong", "axloqiy tarbiyalanganlik" va "dunyoqarash" kategoriyalaridan farqlab, uning o'ziga xos mazmuniy chegaralarini aniqlaydi. Milliy an'anada axloqiy sohaning yaxlitligi haqidagi g'oya jahon pedagogikasidagi uch komponentli modellardan ancha oldin ilgari surilgani asoslangan. Tahlil natijasida axloqiy dunyoqarashning kognitiv, emotsional-qadriyatli va xulqiy-faoliyatli komponentlardan iborat uch qismli tuzilmasi asoslangan hamda har bir komponent uchun mezon va ko'rsatkichlar tizimi ishlab chiqilgan. Shuningdek, axloqiy dunyoqarashning yo'naltiruvchi, baholovchi, tartibga soluvchi va prognostik funksiyalari hamda shakllanganlikning uch darajasi tavsiflangan. Ish natijalari umumiy o'rta ta'lim tizimida axloqiy tarbiya samaradorligini diagnostika qilish apparatini ishlab chiqishga xizmat qiladi.

MAQSAD: "Axloqiy dunyoqarash" tushunchasining pedagogik kategoriya sifatidagi mohiyatini, funksiyalarini va uch komponentli tuzilmasini hamda uning shakllanganlik mezonlarini nazariy jihatdan asoslab berishdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda kategorial tahlil, qiyosiy-tarixiy tahlil, tizimli-strukturaviy yondashuv va nazariy modellashtirish usullaridan foydalanilib, Markaziy Osiyo mutafakkirlarining (Forobiy, Yusuf Xos Hojib, A. Avloniy) ma'rifiy merosi hamda xorijiy psixologik-pedagogik nazariyalar (J. Piaget, L. Kohlberg, J. Rest, T. Lickona) o'rganildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: axloqiy dunyoqarashning kognitiv, emotsional-qadriyatli hamda xulqiy-faoliyatli komponentlardan iborat tuzilmasi, ularning mezon va ko'rsatkichlari, yo'naltiruvchi, baholovchi, tartibga soluvchi va prognostik funksiyalari hamda shakllanganlikning 3 darajasi (past, o'rta, yuqori) tavsiflandi.

XULOSA: axloqiy dunyoqarashning uch komponentli modeli va uning mezonlar apparati umumiy o'rta ta'lim tizimida axloqiy tarbiya samaradorligini diagnostika qilish mexanizmlarini ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: axloqiy dunyoqarash, pedagogik kategoriya, axloqiy ong, axloqiy mulohaza, qadriyatlar ierarxiyasi, kognitiv komponent, emotsional-qadriyatli komponent, xulqiy-faoliyatli komponent, mezon va ko'rsatkichlar, pedagogik ta'limotlar tarixi, milliy pedagogik meros.

© intereduglobalstudy.com

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

НРАВСТВЕННОЕ МИРОВОЗЗРЕНИЕ КАК ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ КАТЕГОРИЯ: СУЩНОСТЬ, СТРУКТУРА И СОСТАВНЫЕ КОМПОНЕНТЫ.

Ахмедов Нодир Кодиралиевич, независимый исследователь Наманганского государственного института иностранных языков имени Исхокхона Ибрата.

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в статье проведён теоретический анализ понятия «нравственное мировоззрение» как педагогической категории. Автор разграничивает данное понятие со смежными категориями «нравственность», «нравственное сознание», «нравственная воспитанность» и «мировоззрение», определяя его содержательные границы. Обосновано, что идея целостности нравственной сферы была выдвинута в национальной традиции значительно раньше трёхкомпонентных моделей мировой педагогики. На основе анализа обоснована трёхкомпонентная структура нравственного мировоззрения, включающая когнитивный, эмоционально-ценностный и поведенческо-деятельностный компоненты, и разработана система критериев и показателей для каждого компонента. Охарактеризованы ориентирующая, оценочная, регулятивная и прогностическая функции нравственного мировоззрения, а также три уровня его сформированности. Результаты работы служат разработке диагностического аппарата оценки эффективности нравственного воспитания в системе общего среднего образования.

ЦЕЛЬ: теоретическое обоснование сущности, функций и трехкомпонентной структуры понятия «нравственное мировоззрение» как педагогической категории, а также критериев его сформированности.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании использованы методы категориального, сравнительно-исторического и системно-структурного анализа, теоретического моделирования, а также изучены просветительское наследие мыслителей Центральной Азии (Фараби, Юсуф Хас Хаджиб, А. Авлони) и зарубежные концепции (Ж. Пиаже, Л. Кольберг, Дж. Рест, Т. Ликона).

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: охарактеризована трехкомпонентная структура нравственного мировоззрения (когнитивный, эмоционально-ценностный, поведенческо-деятельностный компоненты), их критерии и показатели, функции (ориентирующая, оценочная, регулятивная, прогностическая), а также 3 уровня сформированности.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: трехкомпонентная модель и критериальный аппарат нравственного мировоззрения служат основой для разработки диагностического инструментария оценки эффективности нравственного воспитания в общеобразовательной школе.

Ключевые слова: нравственное мировоззрение, педагогическая категория, нравственное сознание, нравственное суждение, иерархия ценностей, когнитивный компонент, эмоционально-ценностный компонент, поведенческо-деятельностный

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

компонент, критерии и показатели, история педагогических учений, национальное педагогическое наследие.

MORAL WORLDVIEW AS A PEDAGOGICAL CATEGORY: ESSENCE, STRUCTURE, AND CONSTITUENT COMPONENTS.

Akhmedov Nodir Kodiraliyevich, Independent Researcher at Namangan State Institute of Foreign Languages named after Is'hoqxon Ibrat.

Annotation

INTRODUCTION: the article offers a theoretical analysis of the concept of “moral worldview” as a pedagogical category. The author distinguishes it from the adjacent categories of morality, moral consciousness, moral upbringing and worldview, thereby defining its substantive boundaries. It is argued that the idea of the integrity of the moral sphere was advanced in the national tradition considerably earlier than the three-component models of world pedagogy. On this basis, a three-component structure of moral worldview is substantiated cognitive, emotional-evaluative and behavioural-practical and a system of criteria and indicators is developed for each component. The orienting, evaluative, regulative and predictive functions of moral worldview are described, along with three levels of its formation. The findings contribute to designing a diagnostic apparatus for assessing the effectiveness of moral education in general secondary schooling.

AIM: o theoretically substantiate the essence, functions, and three-component structure of "moral worldview" as a pedagogical category, along with its formation criteria.

MATERIALS AND METHODS: The study employed methods of categorical analysis, comparative-historical analysis, systemic-structural approach, and theoretical modeling, reviewing Central Asian heritage (Farabi, Yusuf Khas Hajib, A. Avloni) alongside international psychological-pedagogical frameworks (J. Piaget, L. Kohlberg, J. Rest, T. Lickona).

DISCUSSION AND RESULTS: A three-component structure of moral worldview—cognitive, emotional-evaluative, and behavioural-practical—was conceptualized alongside its criteria, indicators, functions (orienting, evaluative, regulative, predictive), and three developmental levels (low, medium, high).

CONCLUSION: The proposed model and evaluation apparatus provide a foundation for designing diagnostic tools to assess the effectiveness of moral education in general secondary schooling.

Keywords: moral worldview, pedagogical category, moral consciousness, moral judgement, hierarchy of values, cognitive component, emotional-evaluative component, behavioural-practical component, criteria and indicators, history of pedagogical doctrines, national pedagogical heritage.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

Pedagogika fanida qo‘llaniladigan har qanday tadqiqot tayanch tushunchaning aniq va bir ma’noli ta’rifiga muhtoj bo‘ladi: kategoriya mazmuni noaniq qolganda, uning shakllanganlik darajasini o‘lchash ham, uni maqsadli tarbiyalash mexanizmini loyihalash ham imkonsiz bo‘lib qoladi. “Axloqiy dunyoqarash” tushunchasi aynan shunday holatdagi kategoriyalardan biridir. Pedagogik adabiyotda u ko‘pincha “axloq”, “axloqiy ong”, “axloqiy tarbiyalanganlik”, “qadriyat yo‘nalishi” kabi tushunchalar bilan sinonim tarzda qo‘llaniladi, natijada tadqiqotlar o‘rtasidagi qiyosiylik yo‘qoladi va olingan natijalarni umumlashtirish qiyinlashadi. Mazkur muammoning amaliy ahamiyati davlat siyosati darajasida ham e’tirof etilgan. Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlari doirasida qabul qilingan hujjat inson salohiyatini ro‘yobga chiqarish va sifatli ta’lim tizimini shakllantirishni strategik vazifa sifatida belgilaydi[1].

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni esa ta’lim tizimining yagona va uzluksizligi tamoyilini mustahkamlagan holda, ta’lim sohasidagi munosabatlarning huquqiy asoslarini belgilab bergan[2]. Bu hujjatlar ta’lim natijasini nafaqat bilim hajmi, balki shaxsning ma’naviy-axloqiy qiyofasi orqali ham baholashni taqozo etadi. Bunday baholash esa faqat aniq belgilangan kategoriya, mezon va ko‘rsatkichlar tizimi mavjud bo‘lgandagina obyektiv bo‘lishi mumkin.

Axloqiy dunyoqarash muammosining ilmiy talqini Markaziy Osiyo pedagogik ta’limotlari tarixida uzoq an’anaga ega. Abu Nasr Forobiy “Fozil odamlar shahri” asarida shaxsning axloqiy kamoloti tug‘ma emas, balki jamiyat tuzilishi, ta’lim va ma’naviy rahnamolik orqali shakllanadigan sifat ekanini asoslagan[3].

Mutafakkir fazilatli jamiyat va fazilatli fuqaro o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni ko‘rsatib, axloqiy sifatlarni tarbiya mahsuli deb bilgan. Bu qarash zamonaviy pedagogikaning axloqiy tarbiya boshqariladigan jarayon degan asosiy postulatiga mazmunan mos keladi. Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarida axloqiy soha yaxlit tizim sifatida taqdim etilgan: adolat, aql, donishmandlik va qanoat timsollari orqali jamiyatdagi har bir institutning tarbiyaviy vazifasi belgilangan, bilim esa faqat xulq bilan uyg‘unlashgandagina haqiqiy qadriyat kasb etishi ta’kidlangan[4].

Mazkur g‘oyada bilim, munosabat va amalning ajralmasligi haqidagi tamoyil ilgari surilgan bo‘lib, u keyinchalik jahon pedagogikasida mustaqil ravishda shakllangan uch komponentli modellar bilan mazmunan hamohangdir. XX asr boshidagi milliy ma’rifatparvarlik pedagogikasida axloq masalasi tizimli o‘quv predmeti darajasiga ko‘tarildi. Abdulla Avloniyning “Turkiy Guliston yoxud axloq” asari o‘zbek tilida yaratilgan

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF-21-son “Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. — URL: https://lex.uz/uz/docs/-8050769 (murojaat sanasi: 22.08.2026).
[2] O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, 2020-yil 23-sentyabr, O‘RQ-637-son // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. — URL: https://lex.uz/docs/-5013007 (murojaat sanasi: 22.08.2026).
[3] Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri / Tarjimonlar A. Irisov, M. Mahmudov, U. Otajon. — Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993. — 320 b.
[4] Yusuf Xos Hojib. Qutadg‘u bilig (Saodatga boshlovchi bilim) / Tarjimon A. Parda. — Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018. — 556 b.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

dastlabki mukammal axloq darsligi bo‘lib, unda axloqiy sifatlar “yaxshi xulqlar” va “yomon xulqlar” guruhlariga ajratilib, har biri alohida maqolat sifatida izohlangan[5]. Avloniy yondashuvining pedagogik ahamiyati shundaki, u axloqni mavhum va’z sifatida emas, balki o‘qitilishi, o‘zlashtirilishi va o‘lchanishi mumkin bo‘lgan tizimli mazmun sifatida taqdim etgan. Aynan shu jihat mazkur merosni axloqiy dunyoqarashni pedagogik kategoriya sifatida asoslash uchun tarixiy manba darajasiga ko‘taradi.

Axloqiy rivojlanishning ilmiy tadqiqi J. Piaget ishlaridan boshlangan. Muallif bolalarning o‘yin qoidalariga munosabatini kuzatib, axloqiy mulohazaning geteronom bosqichdan avtonom bosqichga o‘tishini asoslagan: dastlab bola qoidani kattalar o‘rnatgan o‘zgarmas haqiqat sifatida qabul qilsa, keyinchalik uni o‘zaro kelishuv natijasi deb tushuna boshlaydi[6].

Ushbu kuzatuv pedagogika uchun muhim xulosa beradi: axloqiy me’yorni tashqaridan majburlash uni ichki e’tiqodga aylantirmaydi; avtonom axloq faqat mulohaza va kelishuv tajribasi orqali shakllanadi. L. Kohlberg Piaget yondashuvini rivojlantirib, axloqiy mulohazaning uch daraja va olti bosqichdan iborat tizimini ishlab chiqqan: prekonvensional darajada shaxs jazo va mukofotdan kelib chiqib mulohaza yuritadi, konvensional darajada guruh yoki jamiyat me’yorlariga tayanadi, postkonvensional darajada esa umumiy axloqiy tamoyillarga asoslanadi[7].

Kohlberg konsepsiyasining pedagogik qiymati shundaki, u axloqiy tarbiyani me’yorlarni yodlatish emas, balki mulohaza yuritish darajasini oshirish jarayoni sifatida talqin qiladi. Shu bilan birga, mazkur nazariya axloqiy sohaning kognitiv jihatini mutlaqlashtirgani va hissiy hamda xulqiy jihatlarni yetarlicha qamrab olmagani uchun tanqid qilingan.

C. Gilligan Kohlberg modelini tanqid qilib, adolat etikasi bilan bir qatorda g‘amxo‘rlik etikasi ham mustaqil axloqiy mantiq sifatida mavjudligini asoslagan: bunda axloqiy qaror mavhum tamoyildan emas, balki aniq shaxslar o‘rtasidagi munosabat va mas’uliyatdan kelib chiqadi[8]. Ushbu qarash pedagogika uchun emotsional-qadriyatli komponentning mustaqil ahamiyatini nazariy jihatdan asoslaydi. E. Turiel ijtimoiy bilimning rivojlanishini tadqiq etib, bolalar erta yoshdanoq axloqiy me’yorlarni konvensional me’yorlardan farqlashini ko‘rsatgan: birinchisi boshqa shaxsga yetkaziladigan zarar bilan bog‘liq va universal xarakterga ega, ikkinchisi esa muayyan jamoaning kelishuviga asoslanadi va o‘zgaruvchan[9]. Bu farqlash tarbiya amaliyoti uchun bevosita ahamiyatga ega: odat, tartib-qoida va axloqiy tamoyilni bir xil darajada taqdim etish o‘quvchida qadriyatlar ierarxiyasining shakllanishiga to‘sqinlik qiladi.

[5] Avloniy A. Turkiy Guliston yoxud axloq. — Toshkent, 1913. — Elektron matn: https://archive.org/stream/TurkiyGulistonYoxudAxloq-AbdullaAvloniy (murojaat sanasi: 22.08.2026).
[6] Piaget J. The Moral Judgment of the Child. — New York: The Free Press, 1965 (birinchi nashri: 1932).
[7] Kohlberg L. Essays on Moral Development. Vol. 1: The Philosophy of Moral Development: Moral Stages and the Idea of Justice. — San Francisco: Harper & Row, 1981.
[8] Gilligan C. In a Different Voice: Psychological Theory and Women’s Development. — Cambridge, MA: Harvard University Press, 1982.
[9] Turiel E. The Development of Social Knowledge: Morality and Convention. — Cambridge: Cambridge University Press, 1983. — 252 p. — ISBN 978-0-521-27305-3.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

Axloqiy sohaning eng to‘liq tuzilmaviy modeli J. Rest tomonidan taklif etilgan. Muallifning to‘rt komponentli modeliga ko‘ra, axloqiy xatti-harakat to‘rtta nisbatan mustaqil jarayonning ketma-ketligi natijasida yuzaga keladi: vaziyatning axloqiy mazmunini sezish; qaysi harakat to‘g‘ri ekani haqida mulohaza yuritish; axloqiy qadriyatni boshqa motivlardan ustun qo‘yish; qabul qilingan qarorni oxirigacha amalga oshirishga yetarli iroda va sabotga ega bo‘lish[10].

Modelning pedagogik qiymati alohida ta’kidlanishi lozim: u axloqiy tarbiyadagi muvaffaqiyatsizlik sabablarini aniqlashtirish imkonini beradi — o‘quvchi to‘g‘ri javobni bilsa-da, vaziyatning axloqiy mazmunini sezmagani yoki qarorni amalga oshirishga irodasi yetmagani uchun axloqiy xatti-harakat sodir bo‘lmasligi mumkin. T. Lickona xarakter tarbiyasi konsepsiyasida axloqiy sohani uch tarkibiy qismga ajratadi: axloqiy bilim, axloqiy his va axloqiy amal.

Muallifning fikricha, xarakter aynan shu uchala qismning uzviy birligida namoyon bo‘ladi va maktabning vazifasi ularni alohida emas, balki yaxlit holda rivojlantirishdan iborat[11]. Mazkur uch qismli tuzilma pedagogik amaliyot uchun eng qulay modellardan biri hisoblanadi, chunki u ta’lim maqsadlarini bilim, munosabat va xulq darajasida aniq belgilash imkonini beradi.

Zamonaviy tadqiqotlarda axloqiy mulohazaning ratsional tabiati haqidagi klassik qarash qayta ko‘rib chiqilmoqda. J. Haidt axloqiy baho ko‘p hollarda tez va intuitiv tarzda yuzaga kelishini, ratsional asoslash esa undan keyin, allaqachon shakllangan pozitsiyani himoya qilish uchun quriladigan mulohaza ekanini ta’kidlaydi[12].

Ushbu yondashuv tarbiya amaliyoti uchun ikki tomonlama ahamiyatga ega: bir tomondan, u faqat mantiqiy dalilga tayangan axloqiy tarbiyaning cheklanganligini ko‘rsatadi; ikkinchi tomondan, o‘quvchini o‘z intuitiv bahosini anglashga va uni tanqidiy ko‘rib chiqishga o‘rgatish zarurligini asoslaydi.

Keltirilgan nazariyalarni pedagogik nuqtai nazardan solishtirish ularning o‘zaro to‘ldiruvchi ekanini ko‘rsatadi. Kognitiv yo‘nalish axloqiy tarbiyaning “nima uchun” savoliga javob beradi va mulohaza yuritish mantiqini ochib beradi; hissiy-qadriyatli yo‘nalish “nima uchun ahamiyatli” savolini yoritib, motivatsiya manbaini ko‘rsatadi; tuzilmaviy modellar esa “qaysi bosqichda uzilish yuz beradi” degan amaliy savolga javob topish imkonini beradi. Shu bois zamonaviy pedagogik tadqiqotda ulardan birortasini mutlaqlashtirish emas, balki tarbiya vazifasidan kelib chiqib integratsiyalash maqsadga muvofiq hisoblanadi. Tadqiqot metodologiyasi sifatida kategorial tahlil, pedagogik ta’limotlar tarixiga oid manbalarni retrospektiv tahlil qilish, qiyosiy-tarixiy tahlil, tizimli-strukturaviy yondashuv hamda nazariy modellashtirish usullari qo‘llanildi. Manbalar tarkibiga O‘zbekiston Respublikasining amaldagi normativ-huquqiy hujjatlari, axloqiy rivojlanish nazariyasiga oid xorijiy ilmiy nashrlar va milliy ma’naviy meros manbalari kiritildi. Maqolada bayon etilgan xulosalar

[10] Rest J.R. Moral Development: Advances in Research and Theory. — New York: Praeger, 1986. — 241 p. — ISBN 978-0-275-92254-2.
[11] Lickona T. Educating for Character: How Our Schools Can Teach Respect and Responsibility. — New York: Bantam Books, 1991.
[12] Haidt J. The Righteous Mind: Why Good People Are Divided by Politics and Religion. — New York: Pantheon Books, 2012.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

nazariy tahlil natijasi bo‘lib, ishlab chiqilgan mezon va ko‘rsatkichlar tizimi keyingi bosqichda tajriba-sinov ishlari doirasida aprobatsiyadan o‘tkazilishi nazarda tutilgan.

Tadqiqotning birinchi natijasi kategorial chegaralarning aniqlashtirilishidan iborat. Tahlil ko‘rsatadiki, “axloqiy dunyoqarash” tushunchasi unga yaqin kategoriyalar bilan quyidagicha munosabatda bo‘ladi. “Axloq” jamiyatda tarixan shakllangan me’yorlar tizimi bo‘lib, shaxsdan tashqarida mavjud obyektiv hodisa. “Axloqiy ong” shaxsning mazkur me’yorlarni aks ettirishi, biroq u har doim ham yaxlit va izchil bo‘lavermaydi.

“Axloqiy tarbiyalanganlik” tarbiya natijasining muayyan paytdagi holati, ya’ni statik ko‘rsatkich. “Dunyoqarash” voqelik haqidagi umumlashgan qarashlar tizimi bo‘lib, u axloqiy sohadan ancha keng. Shundan kelib chiqib, axloqiy dunyoqarashni quyidagicha ta’riflash mumkin: bu shaxsning axloqiy qadriyatlar, me’yor va tamoyillar haqidagi umumlashgan, nisbatan barqaror va ichki izchil qarashlari tizimi bo‘lib, u voqelikni axloqiy jihatdan baholash, o‘z xulqini tartibga solish va tanlov vaziyatlarida qaror qabul qilish uchun ichki mezon vazifasini bajaradi.

Ushbu ta’rifda uchta belgi hal qiluvchi ahamiyatga ega: umumlashganlik, barqarorlik va tartibga soluvchilik. Tadqiqotning ikkinchi natijasi asosiy nazariyalarda ajratilgan komponentlarning qiyosiy tahlili. Uning natijalari quyidagi jadvalda umumlashtirilgan (1-jadvalga qarang).

1-jadval. Milliy va xorijiy pedagogik ta’limotlarda axloqiy sohaning komponentlari

Muallif, davr	Ajratilgan komponentlar	Ustuvor jihat	Pedagogik tatbiq imkoniyati
Abu Nasr Forobiy, X asr	Aql, xulq va fazilatli jamiyat birligi	Tarbiya muhitining hal qiluvchi roli	Tarbiyaviy muhitni loyihalash
Yusuf Xos Hojib, XI asr	Adolat, aql, donishmandlik, qanoat	Ilm va xulqning uzviyligi	Qadriyatlar ierarxiyasini shakllantirish
A. Avloniy, 1913	Yaxshi xulqlar va yomon xulqlar tizimi	Axloqning o‘quv mazmuni sifatida tuzilishi	Axloqiy mazmunni dasturlashtirish
J. Piaget, 1932	Geteronom va avtonom axloq bosqichlari	Qoidaga munosabatning o‘zgarishi	Yosh xususiyatlarini hisobga olish
L. Kohlberg, 1981	Uch daraja, olti bosqichdagi axloqiy mulohaza	Kognitiv mulohaza yuritish	Axloqiy dilemma metodikasi
C. Gilligan, 1982	Adolat etikasi va g‘amxo‘rlik etikasi	Munosabat va mas’uliyat	Empatiyani rivojlantirish

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

E. Turiel, 1983	Axloqiy va konvensional sohalarning farqlanishi	Me'yor turini ajratish	Qadriyat va odat farqini o'rgatish
J. Rest, 1986	Axloqiy sezgirlik, mulohaza, motivatsiya, xarakter	Bosqichli jarayon yaxlitligi	Diagnostik mezonlar bazasi
T. Lickona, 1991	Axloqiy bilim, axloqiy his, axloqiy amal	Bilim–his–amal birligi	Xarakter tarbiyasi dasturlari
J. Haidt, 2012	Intuitiv baho va keyingi ratsional asoslash	Hissiy-intuitiv boshlang'ich	Munozarada intuitsiyani anglash

1-jadval tahlili ikkita muhim xulosani asoslaydi. Birinchidan, milliy pedagogik ta'limotlarda axloqiy sohaning yaxlitligi g'oyasi jahon pedagogikasidagi uch komponentli modellardan ancha oldin ilgari surilgan: Yusuf Xos Hojibning ilm va xulq uzviyligi haqidagi tamoyili mazmunan T. Lickonaning bilim–his–amal birligi konsepsiyasi bilan hamohang. Bu holat mazkur g'oyaning o'zlashtirilgan emas, balki milliy pedagogik an'anada mustaqil shakllangan ekanini ko'rsatadi. Ikkinchidan, mavjud nazariyalar bir-birini inkor etmaydi: J. Piaget va L. Kohlberg kognitiv jihatni, C. Gilligan va J. Haidt hissiy-qadriyatli jihatni, J. Rest va T. Lickona esa yaxlit tuzilmani asoslaydi, E. Turielning domenlarni farqlash g'oyasi esa barcha komponentlar uchun umumiy metodologik shart vazifasini bajaradi. Ushbu umumlashtirish asosida pedagogik amaliyot uchun optimal tuzilma sifatida uch komponentli model tanlandi: u milliy pedagogik an'anadagi yaxlitlik g'oyasiga tayangan holda J. Rest modelining tahliliy chuqurligini o'zida birlashtiradi.

Tadqiqotning uchinchi natijasi — axloqiy dunyoqarash tuzilmasi va uni o'lchash apparatining ishlab chiqilishi. Kognitiv komponent axloqiy tushuncha va me'yorlar haqidagi bilimni, ularni farqlash hamda dalilga tayanib mulohaza yuritish malakasini qamrab oladi. Emotsional-qadriyatli komponent qadriyatlarga shaxsiy munosabat, empatiya va adolatsizlikka hissiy javob berish qobiliyatini o'z ichiga oladi. Xulqiy-faoliyatli komponent esa axloqiy bilim va munosabatning real tanlov vaziyatidagi amaliy namoyon bo'lishini ifodalaydi. Har bir komponent uchun mezon va ko'rsatkichlar tizimi quyidagi jadvalda keltirilgan (2-jadvalga qarang).

2-jadval. **Axloqiy dunyoqarash komponentlarining mezon va ko'rsatkichlari**

Komponent	**Mezon**	**Ko'rsatkichlar**
Kognitiv	Axloqiy tushuncha va me'yorlarni bilish hamda ular asosida mulohaza yurita olish	1) axloqiy tushunchalar hajmi va aniqligi; 2) axloqiy va konvensional me'yorni farqlay olish; 3) hukmni dalil bilan asoslash malakasi
Emotsional-qadriyatli	Qadriyatlarga shaxsiy munosabat va hissiy javob berish qobiliyati	1) empatiya darajasi; 2) qadriyatlar ierarxiyasining barqarorligi; 3) adolatsizlikka hissiy javob

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

Xulqiy-faoliyatli	Axloqiy bilim va munosabatning real xulqda namoyon bo‘lishi	1) tanlov vaziyatida qaror qabul qilish; 2) qaror oqibati uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga olish; 3) xulqning turli vaziyatlarda barqarorligi

2-jadvaldagi ko‘rsatkichlar tizimi diagnostik ishlanmalar uchun asos bo‘lib xizmat qiladi: kognitiv komponent test va vaziyatli topshiriqlar orqali, emotsional-qadriyatli komponent qadriyat yo‘nalishlarini aniqlash metodikalari va munozara tahlili orqali, xulqiy-faoliyatli komponent esa uzoq muddatli pedagogik kuzatuv hamda o‘quvchi faoliyati natijalarini tahlil qilish orqali o‘lchanishi mumkin. Tadqiqotning to‘rtinchi natijasi — axloqiy dunyoqarashning pedagogik funksiyalarini aniqlash.

Tahlil natijasida to‘rtta funksiya ajratildi. Yo‘naltiruvchi funksiya shaxsning maqsad va intilishlarini axloqiy qadriyatlar tizimiga muvofiqlashtiradi. Baholovchi funksiya voqelik hodisalariga, boshqa shaxslar va o‘z-o‘zining xatti-harakatiga axloqiy baho berish imkonini beradi. Tartibga soluvchi funksiya xulqni tashqi nazoratsiz, ichki e’tiqod asosida boshqarishni ta’minlaydi. Prognostik funksiya esa qabul qilinayotgan qarorning axloqiy oqibatlarini oldindan ko‘ra bilishga xizmat qiladi.

Aynan prognostik funksiyaning shakllanganligi axloqiy dunyoqarashning yetuklik belgisi hisoblanadi. Tadqiqotning beshinchi natijasi shakllanganlik darajalarining tavsifi. Past daraja: axloqiy tushunchalar tarqoq va yuzaki, baho tashqi nazoratga bog‘liq, xulq vaziyatga qarab o‘zgaruvchan.

O‘rta daraja: axloqiy tushunchalar tizimlashgan, o‘quvchi me’yorni asoslay oladi, biroq bilim bilan xulq o‘rtasida nomuvofiqlik saqlanadi, tanlov vaziyatida guruh ta’siri hal qiluvchi bo‘lishi mumkin. Yuqori daraja: qarashlar tizimi izchil va barqaror, o‘quvchi o‘z pozitsiyasini dalil bilan asoslaydi, qaror oqibati uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga oladi, xulq turli vaziyatlarda barqaror qoladi. Darajalar o‘rtasidagi o‘tish avtomatik kechmaydi va maxsus tashkil etilgan pedagogik shart-sharoitni talab qiladi.

Ajratilgan komponentlar o‘rtasidagi bog‘liqlik chiziqli emas, balki o‘zaro ta’sir xarakteriga ega. Kognitiv komponentning rivojlanishi emotsional-qadriyatli komponent uchun mazmun beradi: shaxs me’yorning mohiyatini anglagandagina unga ichki munosabat bildira oladi. O‘z navbatida, emotsional-qadriyatli komponent xulqiy-faoliyatli komponent uchun motivatsiya manbai vazifasini bajaradi: qadriyat shaxsiy ahamiyat kasb etmasa, u xulqni tartibga solmaydi.

Nihoyat, xulqiy tajriba kognitiv komponentga qaytadan ta’sir ko‘rsatadi real tanlov vaziyatidan olingan tajriba axloqiy tushunchalarni chuqurlashtiradi va aniqlashtiradi. Mazkur teskari aloqa axloqiy tarbiyaning nazariy bayonga emas, balki amaliy faoliyatga tayanishi zarurligini asoslaydi. Olingan natijalarni muhokama qilishda ikkita metodologik cheklovni qayd etish lozim. Birinchidan, taklif etilayotgan uch komponentli tuzilma axloqiy sohaning barcha jihatlarini qamrab olmaydi u pedagogik loyihalash va o‘lchash vazifasiga moslashtirilgan ishchi model hisoblanadi. Ikkinchidan, xulqiy-faoliyatli komponentni

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

obyektiv o‘lchash eng murakkab vazifa bo‘lib qolmoqda, chunki so‘rovnoma metodikalari real xulqni emas, ko‘pincha ijtimoiy ma’qullanadigan javobni qayd etadi; bu cheklovni bartaraf etish uchun uzoq muddatli kuzatuv va vaziyatli sinov metodlarini birgalikda qo‘llash zarur.

O‘tkazilgan nazariy tadqiqot quyidagi xulosalarga kelish imkonini berdi. Birinchidan, “axloqiy dunyoqarash” mustaqil pedagogik kategoriya bo‘lib, u “axloq”, “axloqiy ong” va “axloqiy tarbiyalanganlik” tushunchalari bilan sinonim emas; uning o‘ziga xosligi umumlashganlik, barqarorlik va xulqni tartibga soluvchilik belgilarida namoyon bo‘ladi. Ikkinchidan, milliy pedagogik ta’limotlar tarixida — Forobiydan Yusuf Xos Hojib va Abdulla Avloniygacha — axloqiy sohaning yaxlitligi hamda ilm bilan xulqning uzviyligi haqidagi g‘oya izchil rivojlangan; mazkur an’ana zamonaviy uch komponentli modelning milliy nazariy asosi bo‘lib xizmat qiladi.

KIRISH: mazkur maqolada raqamli transformatsiya sharoitida boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish masalasi yoritilgan. Zamonaviy ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalarning keng qo‘llanilishi o‘qituvchidan nafaqat texnik vositalardan foydalanish, balki ularni pedagogik maqsad, o‘quvchilarning yosh va individual xususiyatlari hamda kutilayotgan ta’lim natijalari bilan uyg‘unlashtirishni talab etmoqda. Tadqiqotda kompetensiyaviy, faoliyatga yo‘naltirilgan, shaxsga yo‘naltirilgan va refleksiv yondashuvlar asosida boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning metodik modeli ishlab chiqildi. Model diagnostik, loyihalash, amaliy-faoliyatli va refleksiv-baholash bosqichlarini o‘z ichiga oladi. Tadqiqot natijasida raqamli kompetensiyani o‘qituvchining umumiy kasbiy kompetensiyasidan ajratib emas, balki uning tarkibiy va funksional komponenti sifatida rivojlantirish zarurligi asoslandi. Shuningdek, metodikani takomillashtirishda individual kasbiy ehtiyojlarni aniqlash, raqamli-pedagogik topshiriqlardan foydalanish, hamkasbiy hamkorlik va refleksiv faoliyatni tizimli tashkil etish muhim pedagogik shartlar sifatida belgilandi.

MAQSAD: boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning pedagogik shartlari, mazmuni hamda to‘rt bosqichli metodik modelini nazariy va metodik jihatdan asoslab berishdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda kompetensiyaviy, faoliyatga yo‘naltirilgan, shaxsga yo‘naltirilgan va refleksiv yondashuvlarga tayanilib, nazariy tahlil, qiyoslash, umumlashtirish, pedagogik modellashtirish hamda TPACK va DigCompEdu kabi xalqaro konsepsiyalarni o‘rganish usullaridan foydalanildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: diagnostik, loyihalash, amaliy-faoliyatli va refleksiv-baholash bosqichlarini o‘z ichiga olgan metodik model hamda raqamli kompetensiyani umumiy kasbiy kompetensiyaning tarkibiy va funksional komponenti sifatida rivojlantirishning 5 ta asosiy pedagogik sharti (diagnostik yondashuv, individuallashtirish, amaliy yo‘naltirilganlik, refleksiya va kasbiy hamkorlik) ishlab chiqildi.

XULOSA: taklif etilgan metodik model o‘qituvchining raqamli vositalarni pedagogik maqsad, o‘quvchilarning yosh xususiyatlari va kutilayotgan ta’lim natijalari bilan uzviy bog‘lagan holda kasbiy faoliyatini uzluksiz rivojlantirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: raqamli transformatsiya, boshlang‘ich ta’lim, kasbiy kompetensiya, raqamli kompetensiya, pedagogik kompetensiya, o‘qituvchi, raqamli ta’lim, metodika, kasbiy rivojlanish, refleksiya.

© intereduglobalstudy.com

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДИКИ РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ.

Собирова Сайдинисо Одилжон кизи, учитель школы №5 города Ферганы.

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в статье рассматривается проблема совершенствования методики развития профессиональных компетенций учителей начального образования в условиях цифровой трансформации. Современный образовательный процесс требует от учителя не только владения цифровыми технологиями, но и способности обоснованно интегрировать их с педагогическими целями, возрастными и индивидуальными особенностями учащихся, а также ожидаемыми образовательными результатами. На основе компетентностного, деятельностного, личностно ориентированного и рефлексивного подходов разработана методическая модель развития профессиональных компетенций учителей начального образования.

Модель включает диагностический, проектировочный, практико-деятельностный и рефлексивно-оценочный этапы. Обоснована необходимость рассматривать цифровую компетентность не как изолированный набор технических навыков, а как функциональный компонент целостной профессиональной компетентности учителя. Определены педагогические условия совершенствования методики: выявление индивидуальных профессиональных потребностей учителя, использование цифровых педагогических заданий, организация профессионального взаимодействия и систематической рефлексии.

ЦЕЛЬ: теоретическое и методическое обоснование педагогических условий, содержания и четырехэтапной методической модели развития профессиональных компетенций учителей начальных классов в условиях цифровой трансформации.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании использованы компетентностный, деятельностный, личностно ориентированный и рефлексивный подходы, методы теоретического анализа, обобщения, педагогического моделирования, а также международные концепции TPACK и DigCompEdu.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: разработана методическая модель, включающая диагностический, проектировочный, практико-деятельностный и рефлексивно-оценочный этапы, а также обоснованы 5 ключевых педагогических условий (диагностический подход, индивидуализация, практическая направленность, рефлексия, профессиональное сотрудничество) развития цифровой компетентности как функционального компонента общей профессиональной компетентности.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: предложенная методическая модель обеспечивает непрерывное профессиональное развитие учителя путем целесообразного сочетания цифровых средств с педагогическими целями, возрастными особенностями учащихся и планируемыми результатами обучения.

Ключевые слова: цифровая трансформация, начальное образование, профессиональная компетентность, цифровая компетентность, педагогическая компетентность, учитель, цифровое образование, методика, профессиональное развитие, рефлексия.

IMPROVING THE METHODOLOGY FOR DEVELOPING PROFESSIONAL COMPETENCIES OF PRIMARY EDUCATION TEACHERS IN THE CONTEXT OF DIGITAL TRANSFORMATION.

Sobirova Saydiniso Odiljon qizi, Teacher at School No. 5, Fergana City.

Annotation

INTRODUCTION: this article examines the improvement of the methodology for developing primary school teachers' professional competences in the context of digital transformation. The contemporary educational environment requires teachers not only to possess technical digital skills but also to integrate digital technologies purposefully with pedagogical objectives, learners' age and individual characteristics, and expected learning outcomes. Based on competency-based, activity-oriented, learner-centred and reflective approaches, a methodological model for developing primary school teachers' professional competences has been developed.

The model consists of four interrelated stages: diagnostic, design, practical-activity and reflective-evaluation stages. The study substantiates the need to consider digital competence not as an isolated set of technical skills but as a functional component of teachers' overall professional competence.

The main pedagogical conditions for improving the methodology include identifying individual professional needs, using digital-pedagogical tasks, organising professional collaboration and establishing systematic reflective practice.

AIM: to theoretically and methodologically substantiate the pedagogical conditions, content, and a four-stage methodological model for developing primary school teachers' professional competencies during digital transformation.

MATERIALS AND METHODS: the study applied competency-based, activity-oriented, learner-centered, and reflective approaches, utilizing theoretical analysis, generalization, pedagogical modeling, and international frameworks such as TPACK and DigCompEdu.

DISCUSSION AND RESULTS: a four-stage methodological model (diagnostic, design, practical-activity, and reflective-evaluation) was developed, and five key pedagogical conditions (diagnostic approach, individualization, practical orientation,

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

reflection, and professional collaboration) were conceptualized to integrate digital competence as a functional component of overall professional competence.

CONCLUSION: the proposed model fosters continuous professional growth by purposefully aligning digital tools with pedagogical objectives, students' age characteristics, and expected learning outcomes.

Keywords: digital transformation, primary education, professional competence, digital competence, pedagogical competence, teacher, digital education, methodology, professional development,

Ta’lim tizimida raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi o‘qituvchining kasbiy faoliyati mazmuniga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Raqamli transformatsiya tushunchasi faqat ta’lim jarayoniga kompyuter, planshet, elektron platforma yoki boshqa texnik vositalarni kiritish bilan cheklanmaydi. U ta’limni tashkil etish, o‘qitish, baholash, pedagogik muloqot, kasbiy rivojlanish va ta’lim natijalarini tahlil qilish jarayonlarining mazmunan qayta tashkil etilishini nazarda tutadi.

OECD tomonidan taqdim etilgan zamonaviy yondashuvlarda ham raqamli ta’limning samaradorligi faqat texnik infratuzilmaning mavjudligi bilan belgilanmasligi, balki o‘qituvchining raqamli vositalarni pedagogik maqsadlarda samarali qo‘llay olishiga bog‘liqligi ta’kidlanadi. O‘qituvchining raqamli kompetensiyasi o‘qitish va o‘rganish, baholash, hamkasblar va ota-onalar bilan muloqot qilish, raqamli kontent yaratish hamda kasbiy rivojlanish jarayonlarini ham qamrab oladi.

UNESCOning 2023-yilgi Global Education Monitoring Report hisobotida esa texnologiyadan foydalanish o‘quvchining manfaatlari va ta’limning insoniy mazmuni markazida turishi kerakligi qayd etilgan. Texnologiya o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi pedagogik munosabatlarni almashtirish uchun emas, balki ularni qo‘llab-quvvatlash va ta’lim imkoniyatlarini kengaytirish uchun xizmat qilishi lozim.Mazkur masala boshlang‘ich ta’lim uchun yanada muhimdir. Chunki boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida o‘quv faoliyatining dastlabki ko‘nikmalari, mustaqil fikrlash, axborot bilan ishlash, muloqot qilish va ta’limga motivatsiya kabi sifatlar shakllanadi. Shuning uchun boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi raqamli vositalardan foydalanishda ularning texnik imkoniyatlarinigina emas, balki didaktik va tarbiyaviy imkoniyatlarini ham hisobga olishi zarur.

O‘zbekiston Respublikasida ham ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, raqamli texnologiyalarni joriy etish va pedagog kadrlarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish davlat ta’lim siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda.Shu nuqtayi nazardan, raqamli transformatsiya sharoitida boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish dolzarb ilmiy-pedagogik muammolardan biri hisoblanadi.

Tadqiqotning maqsadi raqamli transformatsiya sharoitida boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning pedagogik shartlari, mazmuni va metodik mexanizmlarini nazariy jihatdan asoslash.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

Tadqiqot vazifalari - raqamli transformatsiya sharoitida boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchisining kasbiy faoliyatiga qo‘yilayotgan talablarni tahlil qilish;

- kasbiy va raqamli kompetensiyalar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni aniqlash;
- o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi metodik yondashuvlarni tizimlashtirish;
- kasbiy kompetensiyani rivojlantirish metodikasining bosqichlarini ishlab chiqish;
- metodikaning samaradorligini ta’minlovchi pedagogik shartlarni belgilash. Tadqiqot obyekti raqamli transformatsiya sharoitida boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining kasbiy rivojlanish jarayoni.

Tadqiqot predmeti boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini raqamli ta’lim vositalari asosida rivojlantirish mazmuni, shakllari, metodlari va pedagogik shartlari.

Tadqiqotning metodologik asosini kompetensiyaviy, faoliyatga yo‘naltirilgan, shaxsga yo‘naltirilgan va refleksiv yondashuvlar tashkil etadi. Kompetensiyaviy yondashuv o‘qituvchining bilim, ko‘nikma va malakalarini alohida elementlar sifatida emas, balki kasbiy faoliyatda amaliy jihatdan namoyon bo‘ladigan yaxlit kompetensiyalar tizimi sifatida ko‘rib chiqish imkonini beradi. Faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuv o‘qituvchining kasbiy kompetensiyasi real pedagogik vaziyatlarni hal qilish jarayonida shakllanishini nazarda tutadi. Shu sababli metodikada nazariy ma’lumotlarni berish bilan bir qatorda amaliy topshiriqlarga ham ustuvor ahamiyat beriladi.

Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv o‘qituvchilarning boshlang‘ich tayyorgarlik darajasi, individual ehtiyojlari, kasbiy qiziqishlari va rivojlanish sur’atlarini hisobga olishni talab qiladi.

Refleksiv yondashuv esa o‘qituvchining o‘z faoliyatini tahlil qilishi, erishilgan natijalarni baholashi va keyingi kasbiy rivojlanish yo‘nalishlarini mustaqil belgilashiga imkon yaratadi.

Tadqiqotda nazariy tahlil, qiyoslash, umumlashtirish, pedagogik modellashtirish, kuzatish va metodik loyihalash usullaridan foydalanish nazarda tutildi. Mazkur yondashuvlar asosida boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasining quyidagi tarkibiy tuzilishi ishlab chiqildi: diagnostika,loyihalash,amaliy faoliyat,refleksiya,qayta takomillashtirish.

Bu ketma-ketlik o‘qituvchining kasbiy rivojlanishini bir martalik trening emas, balki uzluksiz jarayon sifatida tashkil etishga imkon beradi.

Tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan metodik model to‘rtta asosiy bosqichdan tashkil topadi.

Birinchi bosqich (diagnostik bosqich): Mazkur bosqichda o‘qituvchining mavjud kasbiy va raqamli kompetensiyalari aniqlanadi. Bunda faqat o‘qituvchining qaysi raqamli dastur yoki platformani bilishi emas, balki undan qanday pedagogik maqsadda foydalana olishi asosiy mezon sifatida olinadi. Masalan, o‘qituvchi elektron test tuzishni bilishi mumkin. Biroq testning qaysi o‘quv natijasini aniqlashi, savollarning o‘quvchi yoshiga mosligi va

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

olingan natijalar asosida qanday pedagogik qaror qabul qilinishi haqida yetarli tushunchaga ega bo‘lmasligi mumkin. Demak, texnik ko‘nikmaning mavjudligi hali to‘laqonli raqamli-pedagogik kompetensiyani anglatmaydi. Ikkinchi bosqich (loyihalash bosqichi): Diagnostika natijalariga asoslanib, o‘qituvchining individual kasbiy rivojlanish yo‘nalishi belgilanadi. Mazkur bosqichda umumiy va bir xil mazmundagi topshiriqlardan ko‘ra, o‘qituvchining aniqlangan ehtiyojiga mos topshiriqlarni tanlash maqsadga muvofiq. Masalan: raqamli kontent yaratish; elektron baholash vositalaridan foydalanish; o‘quvchilar bilan raqamli kommunikatsiyani tashkil etish; ta’lim resurslarini tanlash va baholash; raqamli xavfsizlik va axborot madaniyatini rivojlantirish; raqamli vositalardan foydalangan holda differensial topshiriqlar ishlab chiqish.

Uchinchi bosqich (amaliy-faoliyatli bosqich): Bu bosqichda o‘qituvchi o‘zlashtirilgan bilimlarni amaliy pedagogik vaziyatlarda qo‘llaydi.

Metodik jihatdan eng samarali topshiriqlar tayyor raqamli vositani shunchaki ishlatishga emas, pedagogik mahsulot yaratishga yo‘naltiriladi. Masalan, o‘qituvchiga: “Raqamli platformadan foydalanib test yarating” degan topshiriq berishdan ko‘ra, “2-sinf o‘quvchilarining matnni tushunib o‘qish ko‘nikmasini aniqlash uchun yosh xususiyatlariga mos raqamli baholash topshirig‘ini ishlab chiqing va undan foydalanish mezonlarini belgilang” degan topshiriq berish maqsadga muvofiq.

Ikkinchi turdagi topshiriq o‘qituvchidan bir vaqtning o‘zida fan-metodik, pedagogik va raqamli kompetensiyalarni ishga solishni talab qiladi. To‘rtinchi bosqich (refleksiv-baholash bosqichi):Ushbu bosqichda o‘qituvchi o‘z faoliyatini tahlil qiladi.

Bunda quyidagi savollardan foydalanish mumkin:

1. Men tanlagan raqamli vosita dars maqsadiga mos bo‘ldimi?
2. Ushbu vosita o‘quvchining faolligini oshirdimi?
3. O‘quvchilarning yosh xususiyatlari hisobga olindimi?
4. Raqamli topshiriq kutilgan ta’lim natijasiga xizmat qildimi?
5. Keyingi darsda nimani o‘zgartirish kerak?

Shu tarzda refleksiya o‘qituvchining kasbiy rivojlanishining doimiy mexanizmiga aylanadi.

Mazkur modelni quyidagicha ifodalash mumkin: mavjud holatni aniqlash,individual maqsadni belgilash,raqamli-pedagogik faoliyat,natijani tahlil qilish,takomillashtirish. OECD ham o‘qituvchining raqamli kompetensiyasini rivojlantirishda kasbiy standartlar, uzluksiz kasbiy rivojlanish va kengroq raqamli ta’lim ekotizimini o‘zaro bog‘lash zarurligini ko‘rsatadi.

Tadqiqotning muhim jihatlaridan biri shundan iboratki, boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchisining raqamli kompetensiyasini umumiy kasbiy kompetensiyadan ajratib rivojlantirish maqsadga muvofiq emas.O‘qituvchi raqamli texnologiyadan foydalanishning texnik tomonlarini bilishi mumkin, ammo uning pedagogik imkoniyatlarini tushunmasa, raqamli vosita ta’lim sifatini avtomatik ravishda oshirmaydi.Shu sababli tadqiqotda

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

“texnologiya,pedagogik maqsad,o‘quvchi faoliyati,ta’lim natijasi” o‘rtasidagi bog‘liqlik asosiy metodik tamoyil sifatida belgilandi.Bu yondashuv TPACK konsepsiyasining mazmuni bilan hamohang bo‘lib, unda texnologik bilim pedagogik va mazmuniy bilimlardan ajratilgan holda emas, balki ular bilan o‘zaro aloqada qaraladi.

OECDning raqamli kompetensiyalar bo‘yicha tahlilida ham texnologiyani o‘qitishga integratsiya qilish oddiy texnik ko‘nikmadan murakkabroq ekanligi qayd etiladi. Boshlang‘ich ta’limda bu masala yanada nozik yondashuvni talab qiladi. Kichik yoshdagi o‘quvchilar uchun raqamli faoliyatning ko‘payishi har doim ham ta’lim sifati oshishini anglatmaydi. Raqamli vosita o‘quvchining yoshiga, o‘quv maqsadiga va pedagogik vazifaga mos kelishi lozim.

UNESCOning Global Education Monitoring Report hisobotida ham texnologiya ta’lim jarayonida insoniy o‘zaro munosabatlarni almashtirmasdan, ularni qo‘llab-quvvatlashi kerakligi ta’kidlangan. Shu nuqtayi nazardan, boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchisining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish metodikasida quyidagi pedagogik shartlarga alohida e’tibor berish zarur: Birinchi shart – diagnostik yondashuv. O‘qituvchilarning mavjud kompetensiya darajasi aniqlanmasdan turib, samarali kasbiy rivojlanish dasturini ishlab chiqish qiyin.

Ikkinchi shart – individuallashtirish. O‘qituvchilarning raqamli tayyorgarligi bir xil emas. Shu sababli ularning ehtiyojiga mos individual rivojlanish yo‘nalishlarini belgilash lozim.

Uchinchi shart – amaliy yo‘naltirilganlik. Raqamli texnologiyalarni o‘rgatish real pedagogik vazifalar bilan bog‘lanishi kerak.

To‘rtinchi shart – refleksiya. O‘qituvchi bajargan faoliyatini tahlil qilmasa, tajribaning kasbiy kompetensiyaga aylanishi cheklangan bo‘lishi mumkin.

Beshinchi shart – kasbiy hamkorlik. O‘qituvchilarning bir-birining tajribasini o‘rganishi, yaratilgan raqamli materiallarni muhokama qilishi va fikr almashishi kasbiy rivojlanishni kuchaytiradi. Shuningdek, raqamli transformatsiya jarayonida sun’iy intellekt vositalarining kengayib borayotgani o‘qituvchining yangi turdagi savodxonligini ham talab qilmoqda. Biroq sun’iy intellektdan foydalanish ham pedagogik maqsadga muvofiqlik, axborotning ishonchliligi, akademik halollik va o‘quvchining mustaqil fikrlashini saqlash kabi mezonlar asosida tashkil etilishi lozim. Demak, raqamli transformatsiya o‘qituvchining rolini kamaytirmaydi. Aksincha, uning pedagogik qaror qabul qilish, texnologiyani tanlash, o‘quv jarayonini loyihalash va natijalarni tahlil qilishdagi mas’uliyatini oshiradi.

Raqamli transformatsiya sharoitida boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchisining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish zamonaviy ta’lim tizimining muhim vazifalaridan biridir.Tadqiqot natijasida kasbiy kompetensiyani rivojlantirishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning o‘zi yetarli emasligi, asosiy e’tibor texnologiyani pedagogik maqsadga muvofiq tanlash, qo‘llash, baholash va takomillashtirish qobiliyatini shakllantirishga qaratilishi kerakligi asoslandi. Taklif etilgan metodik model diagnostik, loyihalash, amaliy-faoliyatli va refleksiv-baholash bosqichlaridan tashkil topadi. Ushbu bosqichlarning izchil

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

tashkil etilishi o‘qituvchining mavjud kompetensiyalarini aniqlash, individual rivojlanish maqsadini belgilash, amaliy pedagogik faoliyat orqali yangi kompetensiyalarni shakllantirish va natijalarni refleksiv tahlil qilish imkonini beradi.Shuningdek, boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda raqamli kompetensiyani umumiy kasbiy kompetensiyadan ajratib emas, balki uning pedagogik, metodik, kommunikativ va refleksiv komponentlari bilan uzviy bog‘liq holda rivojlantirish maqsadga muvofiq.Kelgusida ushbu metodik modelni tajriba-sinov asosida tekshirish, o‘qituvchilarning kompetensiya darajalarini mezon va indikatorlar orqali aniqlash hamda modelning samaradorligini statistik jihatdan baholash tadqiqotning keyingi bosqichini tashkil etadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi. Ta’lim to‘g‘risida. O‘RQ-637-son, 23.09.2020.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi PF-6079-son Farmoni. 05.10.2020.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida pedagog kadrlar tayyorlash tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-73-son Farmoni. 28.04.2025.
4. OECD. OECD Digital Education Outlook 2023: Towards an Effective Digital Education Ecosystem. Paris: OECD Publishing, 2023. DOI: 10.1787/c74f03de-en.
5. OECD. Teacher digital competences: formal approaches to their development. In: ECD Digital Education Outlook 2023. Paris: OECD Publishing, 2023. UNESCO. Global Education Monitoring Report 2023: Technology in education: A tool on whose terms? Paris: UNESCO, 2023.
6. UNESCO. UNESCO ICT Competency Framework for Teachers. Version 3.0. Paris: UNESCO, 2018.
7. Redecker C. European Framework for the Digital Competence of Educators:
8. DigCompEdu. Luxembourg: Publications Office of the European Union, 2017.
9. Mishra P., Koehler M.J. Technological Pedagogical Content Knowledge: A Framework for Teacher Knowledge // Teachers College Record. 2006. Vol. 108, No. 6. P. 1017–1054.
10. Tondeur J., Scherer R., Siddiq F., Baran E. A comprehensive investigation of TPACK within pre-service teachers’ ICT profiles: Mind the gap! // Australasian Journal of Educational Technology. 2017. Vol. 33, No. 5. P. 46–60.
11. Starkey L. A review of research exploring teacher preparation for the digital age // Cambridge Journal of Education. 2020. Vol. 50, No. 1. P. 37–56. OECD. Digital education. OECD Policy Topic. 2026.

© intereduglobalstudy.com

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

BO‘LAJAK SURDOPEDAGOGLAR METODIK VA AMALIY KOMPETENSIYALARI INTEGRATSIYASI KONSEPSIYASINING TARKIBIY-FUNKSIONAL KOMPONENTLARI.

Malikova Xurshida Ikramovna, A. Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti “Ta’lim menejmenti” kafedrasi dotsenti, (PhD).
ORCID:0009-0007-5124-2893
kh.malikova2025@gmail.com

Annotatsiya

KIRISH: maqolada globallashuv, raqamlashtirish va inklyuziv ta’lim paradigmasining transformatsiyalashuvi sharoitida bo‘lajak surdopedagoglarning metodik va amaliy kompetensiyalari integratsiyasini ta’minlashning praksiologik konsepsiyasi ilmiy-pedagogik jihatdan asoslab berilgan. Shuningdek, surdopedagog kadrlar tayyorlash tizimidagi mavjud nazariy-amaliy uzilishlarni bartaraf etish yo‘llari, kompetensiyalarning o‘zaro matritsaviy integratsiyalashuv bosqichlari hamda bo‘lajak mutaxassis shaxsida praksiologik madaniyat va integrativ surdopedagogik mahoratni shakllantirish mexanizmlari ochib berilgan.

MAQSAD: bo‘lajak surdopedagoglarning metodik va amaliy kompetensiyalari integratsiyasini ta’minlovchi praksiologik konsepsiyaning tarkibiy-funksional komponentlarini va uning amaliy mexanizmlarini ilmiy-pedagogik jihatdan asoslab berishdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda tizimli, kompetensiyaviy, integrativ hamda praksiologik yondashuvlarga tayanilib, nazariy va qiyosiy tahlil, umumlashtirish, pedagogik modellashtirish, refleksiv baholash hamda S.A. Zikov, K.V. Komarov, O.A. Krasilnikova kabi olimlarning surdopedagogika sohasidagi ilmiy qarashlarini tizimlashtirish usullari qo‘llanildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: metodik hamda amaliy kompetensiyalarning o‘zaro matritsaviy integratsiyalashuvini aks ettiruvchi “nazariy-metodologik – kvaziprofessional – amaliy-refleksiv” bosqichlari va “bilim – metod – amaliy harakat – natija – refleksiya – korreksiya” ketma-ketligidagi praksiologik mexanizm ishlab chiqildi; multidissiplinar yondashuv asosida koxlear implant, raqamli eshitish apparatlari va FM-tizimlar kabi surdotexnika vositalaridan pedagogik foydalanish shartlari va praksiologik madaniyatni shakllantirish omillari ochib berildi.

XULOSA: praksiologik konsepsiya bo‘lajak surdopedagoglarni tayyorlashda nazariya va amaliyot o‘rtasidagi uzviylikni ta’minlaydi, kasbiy tayyorgarlikning amaliy yo‘naltirilganligini oshiradi hamda mutaxassisda integrativ surdopedagogik mahorat va moslashuvchanlikni shakllantirishning samarali metodologik asosi bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: surdopedagog, metodik kompetensiya, amaliy kompetensiya, praksiologik konsepsiya, integratsiya, praksiologik madaniyat, surdotexnika, multidissiplinar yondashuv, koxlear implant, korreksion-pedagogik jarayon.

© intereduglobalstudy.com

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

СТРУКТУРНО-ФУНКЦИОНАЛЬНЫЕ КОМПОНЕНТЫ КОНЦЕПЦИИ ИНТЕГРАЦИИ МЕТОДИЧЕСКИХ И ПРАКТИЧЕСКИХ КОМПЕТЕНЦИЙ БУДУЩИХ СУРДОПЕДАГОГОВ.

Маликова Хуршида Икрамовна, доцент кафедры «Менеджмент в образовании» Национального института педагогического мастерства имени А.Авлони, (PhD).

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в статье представлено научно-педагогическое обоснование праксиологической концепции, обеспечивающей интеграцию методических и практических компетенций будущих сурдопедагогов в условиях глобализации, цифровизации и трансформации парадигмы инклюзивного образования. Также раскрыты пути устранения существующих теоретических и практических разрывов в системе подготовки сурдопедагогов, этапы взаимной матричной интеграции компетенций и механизмы формирования праксиологической культуры и интегративного сурдопедагогического мастерства у будущего специалиста.

ЦЕЛЬ: научно-педагогическое обоснование структурно-функциональных компонентов и практических механизмов праксиологической концепции, обеспечивающей интеграцию методических и практических компетенций будущих сурдопедагогов.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании использованы системный, компетентностный, интегративный и праксиологический подходы, методы теоретического и сравнительного анализа, обобщения, педагогического моделирования, рефлексивной оценки, а также систематизация классических трудов по сурдопедагогике (С.А. Зыков, К.В. Комаров, О.А. Красильникова).

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: разработаны этапы матричной интеграции компетенций («теоретико-методологический – квазипрофессиональный – практико-рефлексивный») и праксиологический механизм по цепочке «знание – метод – практическое действие – результат – рефлексия – коррекция»; на основе мультидисциплинарного подхода определены условия применения сурдотехники (кохлеарные импланты, FM-системы) и механизмы формирования праксиологической культуры специалиста.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: праксиологическая концепция обеспечивает неразрывную связь теории и практики в подготовке будущих сурдопедагогов, усиливает практическую направленность обучения и служит эффективной методологической основой для формирования интегративного сурдопедагогического мастерства.

Ключевые слова: сурдопедагог, методическая компетенция, практическая компетенция, праксиологическая концепция, интеграция, праксиологическая культура, сурдотехника, мультидисциплинарный подход, кохлеарный имплант, коррекционно-педагогический процесс.

© intereduglobalstudy.com

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

STRUCTURAL AND FUNCTIONAL COMPONENTS OF THE CONCEPT OF INTEGRATING METHODOLOGICAL AND PRACTICAL COMPETENCIES OF FUTURE SURDOPEDAGOGUES (TEACHERS OF THE DEAF AND HARD OF HEARING).

Malikova Khurshida Ikramovna, Associate Professor of the Department of "Educational Management" at the A. Avloni National Institute of Pedagogical Mastery, (PhD).

Annotation

INTRODUCTION: the article provides a scientific and pedagogical justification for the praxeological concept of ensuring the integration of methodological and practical competencies of future deaf educators in the context of globalization, digitalization, and the transformation of the inclusive education paradigm. Additionally, ways to eliminate existing theoretical and practical gaps in the system of training deaf educators, stages of mutual matrix integration of competencies, and mechanisms for forming praxiological culture and integrative deaf education skills in the personality of future specialists are revealed.

AIM: to provide a scientific and pedagogical justification for the structural and functional components and practical mechanisms of a praxeological concept that ensures the integration of future deaf educators' methodological and practical competencies.

MATERIALS AND METHODS: the study employed systemic, competency-based, integrative, and praxeological approaches, drawing upon theoretical and comparative analysis, generalization, pedagogical modeling, reflective evaluation, and the synthesis of foundational literature in deaf education (S.A. Zykov, K.V. Komarov, O.A. Krasilnikova).

DISCUSSION AND RESULTS: stages of matrix competency integration ("theoretical-methodological – quasi-professional – practical-reflective") and a operational praxeological sequence ("knowledge – method – practical action – outcome – reflection – correction") were established; multidisciplinary criteria for applying deaf technologies (cochlear implants, FM systems) and mechanisms for developing a praxeological culture were identified.

CONCLUSION: the praxeological concept effectively bridges theory and practice in training future deaf educators, enhances the practical orientation of higher education, and serves as a robust methodological foundation for developing integrative deaf education mastery.

Keywords: deaf educator, methodological competence, practical competence, praxeological concept, integration, praxeological culture, deaf technology, multidisciplinary approach, cochlear implant, correctional-pedagogical process.

Globallashuv, raqamlashtirish va inklyuziv ta’lim paradigmasining transformatsiyalashuvi sharoitida imkoniyati cheklangan, xususan, eshitishida organik

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

hamda funksional kamchiliklari bo‘lgan bolalarni ijtimoiy reabilitatsiya qilish hamda ularning kompensator imkoniyatlarini faollashtirish zamonaviy maxsus pedagogikaning strategik ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda surdopedagog nafaqat standart didaktik qoliplar doirasida dars beruvchi pedagog, balki klinik tibbiyot, psixolingvistika, kognitiv psixologiya va raqamli audioakustika kesishishida faoliyat yuritadigan, yuqori latentli kasbiy egiluvchanlikka ega multidissiplinar mutaxassis va ijtimoiy kouch sifatida namoyon bo‘lishi lozim. Biroq, oliy pedagogik ta’lim tizimida bo‘lajak surdopedagog kadrlarni tayyorlashning real holati va empirik tahlili shuni ko‘rsatadiki, mavjud ta’lim modelida gnoseologik ustuvorlik saqlanib qolmoqda, fanlararo tarqoqlik kuzatilmoqda.

Bo‘lajak surdopedagoglar tomonidan alohida-alohida fanlar sifatida o‘zlashtirilayotgan tibbiy, psixologik va xususiy metodik bilimlar muayyan kasbiy algoritmga yetarlicha birlashmaganligi oqibatida, bitiruvchilar real amaliyotda og‘ir somatik-eshitish nuqsoni bo‘lgan bolalar, ularning ota-onalari va murakkab raqamli surdotexnika vositalari bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri to‘qnash kelganda tizimli kasbiy dezadaptatsiyaga, frustratsiyaga uchramoqdalar. Mavjud tizimdagi ushbu nazariy va amaliy uzilish oliy ta’limda bo‘lajak surdopedagoglarning integrativ-kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning praksiologik konsepsiyasini yaratishni kechiktirib bo‘lmas dolzarb ilmiy-pedagogik muammoga aylantiradi.

Bo‘lajak surdopedagoglarni kasbiy tayyorlash, ularning metodik va amaliy kompetensiyalarini rivojlantirish hamda nazariy bilimlarni real pedagogik faoliyat bilan integratsiyalash masalalari maxsus pedagogika va kasbiy ta’lim metodikasi doirasidagi muhim ilmiy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Mazkur muammo, avvalo, surdopedagogik faoliyatning o‘ziga xos tabiati bilan belgilanadi. Chunki eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalar bilan ishlaydigan mutaxassisdan faqat maxsus pedagogik bilimlarni egallash emas, balki ularni korreksion-rivojlantiruvchi, kommunikativ, psixologik va texnologik faoliyatda samarali qo‘llash qobiliyati ham talab etiladi. Shu nuqtayi nazardan, bo‘lajak surdopedagogning kasbiy tayyorgarligini faqat nazariy bilimlar yig‘indisi sifatida emas, balki bilim, metodik faoliyat, amaliy harakat va refleksiv baholashning o‘zaro integratsiyasiga asoslangan yaxlit tizim sifatida tadqiq etish zarur.

Surdopedagogikaning nazariy va amaliy muammolari S.A. Zikov tadqiqotlarida muayyan tizimlilik asosida yoritilgan. Olim surdopedagogikaning asosiy muammolarini eshitishida nuqsoni bo‘lgan shaxslarni o‘qitish, tarbiyalash va rivojlantirish jarayonining o‘ziga xos xususiyatlari bilan bog‘laydi [1].

Mazkur yondashuv bo‘lajak mutaxassisning kasbiy tayyorgarligida maxsus pedagogik bilimlarning fundamental ahamiyatini ko‘rsatadi. Biroq zamonaviy surdopedagog faoliyatining mazmuni faqat an’anaviy o‘qitish metodlari bilan chegaralanmaydi. Raqamli texnologiyalar, zamonaviy eshitish apparatlari, koxlear implantlar, FM-tizimlar va boshqa surdotexnik vositalarning ta’lim jarayoniga kirib kelishi mutaxassisdan yangi amaliy kompetensiyalarni ham talab qilmoqda. Shu sababli klassik surdopedagogik bilimlarni

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

zamonaviy texnologik va amaliy faoliyat bilan bog‘lash masalasi alohida ilmiy-metodik yondashuvni taqozo etadi.

K.V. Komarovning eshitishida zaiflik bo‘lgan bolalarni ona tili va nutqqa o‘rgatish metodikasiga oid tadqiqotlari ham surdopedagogning metodik kompetensiyasini shakllantirish nuqtayi nazaridan muhim ilmiy manba sifatida ahamiyatlidir [1]. Mazkur yondashuvda o‘qitish metodikasi o‘quvchining psixofiziologik xususiyatlari va mavjud kommunikativ imkoniyatlariga moslashtirilishi zarurligi ko‘zga tashlanadi. Bu esa metodik kompetensiyani tayyor metodlarni mexanik qo‘llash emas, balki muayyan bolaning individual imkoniyatlaridan kelib chiqib pedagogik vaziyatga mos metod va vositalarni tanlash qobiliyati sifatida talqin qilishga asos beradi. Shunday ekan, bo‘lajak surdopedagogning metodik tayyorgarligi nazariy bilimni egallash bilan yakunlanmasligi, balki uni konkret korreksion-pedagogik vaziyatda qo‘llash mexanizmlarini shakllantirish bilan davom etishi lozim.

O.A. Krasilnikovaning eshitishida nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilarga o‘qishni o‘rgatish masalasiga bag‘ishlangan tadqiqoti surdopedagogik metodikaning alohida ta’lim yo‘nalishlari kesimida chuqurlashtirilganini ko‘rsatadi [2]. Tadqiqotda o‘quvchining eshitish imkoniyatlari, nutqiy rivojlanishi va bilish jarayonlarining o‘ziga xosligini hisobga olgan holda o‘qitish metodlarini tashkil etish muhimligi namoyon bo‘ladi. Ushbu yondashuv bo‘lajak surdopedagogning metodik kompetensiyasi tarkibida diagnostik, loyihalash va korreksion-metodik komponentlarning mavjud bo‘lishini taqozo etadi. Ya’ni pedagog avval bolaning mavjud imkoniyatlarini aniqlashi, keyin ta’lim maqsadini belgilashi, unga mos metod va vositalarni tanlashi hamda qo‘llangan metodning natijadorligini baholashi kerak.

Mazkur tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, klassik surdopedagogik adabiyotlarda asosiy e’tibor, asosan, **“**nimani o‘qitish?” va “qanday o‘qitish?” masalalariga qaratilgan. Zamonaviy kompetensiyaviy yondashuv esa ushbu savollarga “olingan bilimni real kasbiy vaziyatda qanday samarali qo‘llash mumkin?” degan savolni ham qo‘shishni talab qiladi. Aynan mana shu nuqta metodik va amaliy kompetensiyalar integratsiyasi muammosining ilmiy dolzarbligini belgilaydi.

A.V. Sanchez va M.P. Ruiz tadqiqotida kompetensiyaga asoslangan ta’lim va uni baholash masalalari tizimli ravishda ko‘rib chiqiladi [6]. Mazkur tadqiqotda kompetensiyani faqat bilim yoki ko‘nikma bilan tenglashtirmasdan, shaxsning turli vaziyatlarda o‘z bilim va imkoniyatlarini samarali safarbar qila olish qobiliyati sifatida ko‘rishga asos beradi. Bu jihat surdopedagogik ta’lim uchun ayniqsa muhimdir. Chunki real pedagogik faoliyatda mutaxassis standart metodik vaziyat bilan emas, balki individual xususiyatlari turlicha bo‘lgan bolalar, ularning ota-onalari, boshqa pedagoglar va tibbiy mutaxassislar bilan hamkorlikni talab qiladigan murakkab vaziyatlar bilan to‘qnash keladi.

Shu jihatdan qaraganda, kompetensiyaga asoslangan yondashuv surdopedagogning kasbiy tayyorgarligida nazariy va amaliy komponentlarni bir-biridan ajratmaslikni taqozo etadi. Masalan, eshitishida nuqsoni bo‘lgan bola bilan nutqni rivojlantirish mashg‘ulotini tashkil etish uchun pedagog tegishli metodikani bilishi yetarli emas. U bolaning

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

kommunikativ holatini kuzatishi, mavjud eshitish imkoniyatlarini hisobga olishi, mos pedagogik vositani tanlashi, mashg‘ulot davomida metodni o‘zgartirishi va yakunda erishilgan natijani baholay olishi kerak. Demak, nazariy bilim amaliy harakatga transformatsiyalangandagina kasbiy kompetensiyaning real mazmuni yuzaga keladi.

Bo‘lajak surdopedagoglar tayyorgarligini praksiologik nuqtayi nazardan tashkil etish masalasida A.A. Pavlovichning praksiologiyaning fan va amaliyot imkoniyatlariga bag‘ishlangan tadqiqoti alohida nazariy ahamiyat kasb etadi. Muallif praksiologik yondashuvni faoliyatning samaradorligi, maqsadga muvofiqligi va natijadorligi bilan bog‘laydi [4, 71–85-b.]. Ushbu qarashlarni maxsus pedagogik ta’limga tatbiq etish natijasida pedagogik faoliyatni faqat bajarish emas, balki uni eng maqbul, samarali va maqsadga yo‘naltirilgan usulda tashkil etish mezoni yuzaga keladi.

E.Ye. Semchenkoning praksiologik ta’limga bag‘ishlangan monografiyasi ham ushbu konseptual yo‘nalishni rivojlantiruvchi manbalardan biridir [5]. Praksiologik ta’limning mohiyatini faoliyatni samarali tashkil etish bilan bog‘lash bo‘lajak mutaxassisning tayyorgarlik jarayonini “bilish – bajarish – tahlil qilish – takomillashtirish” ketma-ketligida tashkil etish zarurligini ko‘rsatadi. Bu esa surdopedagoglarni tayyorlash jarayonida nazariy mashg‘ulot, modellashtirilgan kasbiy vaziyat, real amaliyot va refleksiv tahlilning uzviyligini ta’minlash imkonini beradi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, mavjud tadqiqotlarda surdopedagogikaning nazariy asoslari, eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarni o‘qitish metodikasi, kompetensiyaviy yondashuv va praksiologik ta’lim masalalari alohida ilmiy yo‘nalishlar sifatida yetarlicha asoslangan. Biroq ushbu yo‘nalishlarning bo‘lajak surdopedagogning metodik va amaliy kompetensiyalarini yagona integrativ tizim sifatida shakllantirish nuqtayi nazaridan birlashtirilishi yetarlicha tizimlashtirilmagan. Xususan, metodik kompetensiya, amaliy kompetensiya, refleksiv-baholash faoliyati va praksiologik madaniyatning o‘zaro funksional bog‘liqligini ochib beruvchi yaxlit pedagogik modelga ehtiyoj mavjud.

Tadqiqotda bo‘lajak surdopedagoglarning metodik va amaliy kompetensiyalarini integratsiyalash jarayonini o‘rganishda tizimli, kompetensiyaviy, integrativ va praksiologik yondashuvlar asos qilib olindi. Tadqiqot jarayonida nazariy tahlil, qiyosiy tahlil, umumlashtirish, pedagogik modellashtirish va refleksiv baholash metodlaridan foydalanildi. Mazkur metodlar orqali metodik va amaliy kompetensiyalarning tarkibiy tuzilishi, ularning o‘zaro funksional bog‘liqligi hamda nazariy bilimlarni amaliy kasbiy faoliyatga transformatsiya qilish mexanizmlari aniqlandi. Shuningdek, bo‘lajak surdopedagoglarning kasbiy tayyorgarligini “bilim – metod – amaliy harakat – natija – refleksiya” izchilligida tashkil etish praksiologik tamoyil sifatida belgilandi. Tadqiqot metodologiyasi surdopedagogik ta’limda nazariy va amaliy tayyorgarlikning uzviyligini ta’minlash hamda integrativ kasbiy kompetensiyani shakllantirishga yo‘naltirildi.

Bo‘lajak surdopedagoglarning metodik va amaliy kompetensiyalarini integratsiyalash muammosi zamonaviy maxsus pedagogika va kasbiy ta’limning muhim yo‘nalishlaridan biridir. Mazkur muammoning dolzarbligi surdopedagog faoliyatining murakkab va ko‘p

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

komponentli xususiyati bilan belgilanadi. Zamonaviy mutaxassisdan nafaqat surdopedagogik nazariyalarni bilish va maxsus ta'lim metodikalarini o'zlashtirish, balki egallangan bilimlarni real pedagogik vaziyatlarda samarali qo'llay olish, individual ta'lim ehtiyojlarini aniqlash, korreksion-rivojlantiruvchi faoliyatni rejalashtirish va uning natijalarini baholash qobiliyati ham talab etiladi. Shu jihatdan, bo'lajak surdopedagogning kasbiy tayyorgarligini nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarning oddiy yig'indisi sifatida emas, balki o'zaro bog'langan va bir-birini to'ldiruvchi kompetensiyalar tizimi sifatida tashkil etish zarur.

Tadqiqotning nazariy-metodologik asosini tizimli, kompetensiyaviy, integrativ va praksiologik yondashuvlarning o'zaro uyg'unligi tashkil etadi.

Tizimli yondashuv surdopedagogning metodik va amaliy tayyorgarligini yagona kasbiy tizim doirasida ko'rib chiqishni taqozo etsa, kompetensiyaviy yondashuv ta'lim natijasini o'zlashtirilgan bilim hajmi bilan emas, balki mazkur bilimlarni kasbiy faoliyatda qo'llash qobiliyati bilan belgilash imkonini beradi. Integrativ yondashuv esa turli fanlar doirasida shakllanadigan bilim, ko'nikma va malakalarni umumiy kasbiy faoliyat talablariga muvofiq birlashtirishga xizmat qiladi. Praksiologik yondashuv mazkur jarayonni faoliyatning maqsadga muvofiqligi, samaradorligi va natijadorligi nuqtayi nazaridan tashkil etishga imkon beradi.

Praksiologik yondashuv asosida bo'lajak mutaxassis faoliyatini loyihalashning asosiy maqsadi mavjud pedagogik resurslardan oqilona foydalanish orqali korreksion-rivojlantiruvchi faoliyatning samaradorligini oshirishdan iborat. Bunda vaqt, pedagogik kuch va mavjud texnik vositalardan maqsadli foydalanish, eng avvalo, bolaning individual ta'limiy va kommunikativ ehtiyojlarini hisobga olish bilan uyg'unlashadi. Shunday qilib, praksiologik yondashuv pedagogik faoliyatni shunchaki bajarish emas, balki uning maqsadi, vositalari, jarayoni va natijalarini oldindan rejalashtirish, faoliyat davomida monitoring qilish va zarur hollarda korreksiyalashni nazarda tutadi.

Mazkur yondashuvning muhim jihati fanlararo bilimlarni kasbiy vazifalarni hal qilishga yo'naltirishdir. Zamonaviy surdopedagog faoliyati pedagogika bilan bir qatorda psixologiya, psixolingvistika, tibbiyot, maxsus psixologiya va texnologik bilimlarning o'zaro aloqasini talab qiladi. Ayniqsa, eshitishni protezlash vositalari, raqamli eshitish apparatlari, koxlear implantlar, FM-tizimlar hamda boshqa surdotexnik vositalarning ta'lim jarayonida qo'llanilishi bo'lajak mutaxassisning texnologik kompetensiyasiga bo'lgan talabni kuchaytirmoqda. Shu sababli surdopedagog tayyorlash mazmunida metodik bilimlarni amaliy faoliyat bilan bog'lash, texnik vositalardan pedagogik maqsadda foydalanish va ularning samaradorligini baholash ko'nikmalarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda surdopedagog kadrlar tayyorlashda kuzatilayotgan muhim tendensiyalardan biri nazariy bilim berishdan kompetensiyalarning amaliy funksionalligini ta'minlashga bosqichma-bosqich o'tishdir. Bunday yondashuvda bo'lajak mutaxassisning tayyorgarligi uning qancha ma'lumotni o'zlashtirgani bilan emas, balki murakkab va nostandart pedagogik vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qila olishi, mos metod va

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

vositalarni tanlashi hamda erishilgan natijalarni tahlil qila olishi bilan tavsiflanadi. Bu holat metodik va amaliy kompetensiyalarni bir-biridan ajratilgan holda shakllantirish emas, balki ularning o‘zaro integratsiyasini ta’minlash zarurligini ko‘rsatadi.

Bo‘lajak surdopedagogning integratsiyalashgan metodik va amaliy kompetensiyasi nazariy-metodik bilimlar, amaliy ijrochilik ko‘nikmalari hamda refleksiv-baholash faoliyatining o‘zaro birligi asosida shakllanadigan kompleks kasbiy sifat sifatida qaraladi. Uning metodik komponenti maxsus ta’lim mazmunini loyihalash, ta’lim metod va vositalarini tanlash hamda pedagogik vaziyatga moslashtirishni ifodalasa, amaliy komponent mazkur metod va vositalarni real faoliyatda qo‘llash, o‘quvchi bilan samarali kommunikativ va korreksion munosabat o‘rnatish hamda pedagogik vazifalarni amaliy jihatdan hal etishni qamrab oladi. Refleksiv komponent esa amalga oshirilgan pedagogik harakatlarning natijalarini tahlil qilish, kamchiliklarni aniqlash va keyingi faoliyatni takomillashtirish imkonini beradi.

Shu asosda tadqiqotda “praksiologik konsepsiya” tushunchasi bo‘lajak surdopedagoglarni tayyorlash jarayonining maqsad, mazmun, metod va natijalarini faoliyat samaradorligi mezonlari asosida o‘zaro bog‘lovchi ilmiy-nazariy qarashlar tizimi sifatida talqin qilinadi. Mazkur konsepsiyaning asosiy mohiyati ta’lim jarayonida nazariy bilimlarning amaliy faoliyatga izchil transformatsiyasini ta’minlashdan iborat. Bunda har bir o‘quv moduli va amaliy mashg‘ulot bo‘lajak mutaxassisning muayyan kasbiy vazifani bajarishga tayyorgarligini shakllantirishga xizmat qilishi lozim.

Praksiologik konsepsiyaning amaliy mexanizmini shartli ravishda “bilim – metod – amaliy harakat – natija – refleksiya – korreksiya” ketma-ketligi orqali ifodalash mumkin. Mazkur ketma-ketlikda bilim pedagogik faoliyatning nazariy asosini tashkil etsa, metod bilimni amaliy harakatga aylantiruvchi vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Amaliy harakat natijasida muayyan pedagogik samaraga erishiladi, refleksiya esa ushbu natijani tahlil qilish imkonini beradi. Aniqlangan kamchiliklar asosida faoliyatga tegishli korreksiyalar kiritilishi esa kasbiy faoliyatning uzluksiz takomillashuvini ta’minlaydi.

Shunday qilib, integrativ kompetensiya, praksiologik konsepsiya va praksiologik madaniyat tadqiqotning o‘zaro bog‘liq uchta muhim kategoriyasini tashkil etadi. Integrativ kompetensiya bo‘lajak surdopedagog egallashi lozim bo‘lgan kasbiy mazmunni ifodalasa, praksiologik konsepsiya mazkur kompetensiyalarni shakllantirishning metodologik va tashkiliy asosini belgilaydi. Praksiologik madaniyat esa ushbu jarayonning shaxsiy-kasbiy natijasi sifatida namoyon bo‘ladi. Ularning o‘zaro uyg‘unligi bo‘lajak surdopedagogning nazariy bilimlarni amaliy faoliyatga samarali ko‘chira olishi, murakkab pedagogik vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilishi va o‘z faoliyatini refleksiv asosda takomillashtirib borishi uchun zarur pedagogik shart-sharoitlarni yaratadi.

Bo‘lajak surdopedagoglarni kasbiy tayyorlash jarayonida metodik va amaliy kompetensiyalarning shakllanishi bir-biridan ajratilgan holda emas, balki o‘zaro uzviy bog‘liq pedagogik jarayon sifatida qaralishi lozim. Metodik kompetensiya bo‘lajak mutaxassisning maxsus ta’lim jarayonini ilmiy-metodik asosda loyihalash, maqsad va

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

vazifalarni belgilash, ta’lim metodlari va vositalarini tanlash hamda ularni eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarning individual imkoniyatlariga moslashtirish qobiliyatini ifodalaydi. Amaliy kompetensiya esa mazkur bilim va metodik qarashlarni real pedagogik faoliyatda qo‘llash, o‘quvchi bilan samarali kommunikativ munosabat o‘rnatish, korreksion-rivojlantiruvchi vazifalarni bajarish va pedagogik vaziyatga mos ravishda mustaqil qaror qabul qilish imkoniyatini anglatadi. Shu bois ushbu ikki kompetensiyaning alohida shakllantirilishi bo‘lajak mutaxassisning to‘laqonli kasbiy tayyorgarligini ta’minlash uchun yetarli emas.

Metodik kompetensiyaning shakllanishi, avvalo, surdopedagogik bilimlarni amaliy faoliyatga yo‘naltirish bilan bog‘liq. Oliy ta’lim jarayonida bo‘lajak surdopedagog maxsus pedagogikaning nazariy asoslari, eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarning psixologik va pedagogik xususiyatlari, kommunikativ rivojlanish qonuniyatlari, korreksion ta’lim metodlari va maxsus didaktik vositalarni o‘rganadi. Biroq mazkur bilimlar o‘z-o‘zicha kasbiy kompetensiyani kafolatlamaydi. Ularning kasbiy ahamiyati bo‘lajak mutaxassis tomonidan muayyan pedagogik vaziyatni tahlil qilish, ta’limiy maqsadni aniqlash va unga mos metodik yechim ishlab chiqish jarayonida namoyon bo‘ladi. Demak, metodik kompetensiyaning asosiy belgisi bilimning mavjudligi emas, balki uning pedagogik faoliyatga samarali transformatsiya qilinishidir.

Shu nuqtayi nazardan, metodik kompetensiyani shakllantirish jarayonini nazariy-metodologik, kvaziprofessional va amaliy-refleksiv bosqichlarda tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Nazariy-metodologik bosqichda bo‘lajak mutaxassis surdopedagogikaning asosiy tamoyillari, metodlari va zamonaviy konseptual qarashlarini o‘zlashtiradi. Bu bosqich kasbiy tafakkurning nazariy asoslarini shakllantirishga xizmat qiladi. Biroq nazariy tayyorgarlik keyingi faoliyat bosqichlari bilan bog‘lanmasa, olingan bilimlarning amaliy qiymati pasayishi mumkin.

Kvaziprofessional bosqich ana shu nazariy bilimlarni modellashtirilgan kasbiy vaziyatlarda sinab ko‘rish imkonini beradi. Bunda oliy ta’lim auditoriyasida maxsus ta’lim muhiti elementlarini modellashtirish, “pedagog – o‘quvchi” rolli vaziyatlarini tashkil etish, dars fragmentlarini ishlab chiqish, kommunikativ va korreksion mashqlarni loyihalash kabi faoliyatlar muhim ahamiyatga ega. Mazkur bosqichning afzalligi shundaki, bo‘lajak surdopedagog real pedagogik amaliyotga kirishishdan oldin o‘zining metodik qarorlarini nisbatan xavfsiz ta’lim muhitida sinab ko‘rish va ularning samaradorligini tahlil qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Amaliy-refleksiv bosqich esa kompetensiyaning real faoliyat sharoitida namoyon bo‘lishini ta’minlaydi. Maxsus ta’lim muassasalari, inklyuziv ta’lim tashkilotlari yoki reabilitatsiya markazlaridagi pedagogik amaliyot davomida bo‘lajak mutaxassis nazariy bilim va modellashtirilgan tajribani real bolalar bilan ishlash jarayoniga tatbiq etadi. Bunda metodik qarorning samaradorligi bolaning faoliyatidagi o‘zgarishlar, kommunikativ faolligi, o‘quv materialini o‘zlashtirish darajasi va korreksion vazifalarning bajarilishi orqali baholanadi. Eng muhimi, bo‘lajak mutaxassis o‘z faoliyatini tashqi baholash bilangina

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

cheklamasdan, o‘zining pedagogik harakatlarini mustaqil tahlil qilish va zarur hollarda ularga tuzatishlar kiritish ko‘nikmasini egallaydi.

Amaliy kompetensiya metodik kompetensiyaning bevosita faoliyatdagi davomi sifatida namoyon bo‘ladi. Uning mazmunida kommunikativ-kompensator, korreksion-ijrochilik va texnologik-amaliy ko‘nikmalar alohida o‘rin tutadi. Kommunikativ-kompensator komponent bo‘lajak surdopedagogning eshitishida nuqsoni bo‘lgan bola bilan uning mavjud kommunikativ imkoniyatlarini hisobga olgan holda samarali muloqot o‘rnata olishiga xizmat qiladi. Korreksion-ijrochilik komponenti maxsus pedagogik va rivojlantiruvchi mashqlarni maqsadli tashkil etish, ularni bolaning individual ehtiyojlariga moslashtirish hamda pedagogik ta’sir natijalarini kuzatish bilan bog‘liq. Texnologik-amaliy komponent esa zamonaviy surdotexnik vositalar va raqamli ta’lim resurslaridan pedagogik maqsadlarda foydalanish imkoniyatini ifodalaydi.

Mazkur komponentlarning shakllanishi surdopedagogning kasbiy faoliyatini fanlararo asosda tashkil etishni talab qiladi. Chunki eshitishida nuqsoni bo‘lgan bola bilan ishlash jarayonida pedagogik bilimlarning o‘zi yetarli bo‘lmay, psixologik, lingvistik, tibbiy va texnologik bilimlardan ham foydalanishga ehtiyoj yuzaga keladi. Masalan, bolaning kommunikativ imkoniyatlarini baholashda uning psixologik va nutqiy rivojlanish xususiyatlarini hisobga olish, texnik vositalardan foydalanishda esa eshitish imkoniyatlari va mavjud qurilmaning funksional xususiyatlarini tushunish talab etiladi. Shu sababli bo‘lajak surdopedagogning amaliy kompetensiyasi fanlararo bilimlarni muayyan pedagogik vazifani hal qilish jarayonida safarbar eta olish qobiliyati bilan ham belgilanadi.

Metodik va amaliy kompetensiyalarning integratsiyasi aynan shu nuqtada alohida ahamiyat kasb etadi. Agar metodik kompetensiya pedagogga “nima qilish va qanday tashkil etish kerak?” degan savolga javob berish imkonini bersa, amaliy kompetensiya “ushbu qarorni real vaziyatda qanday amalga oshirish mumkin?” degan masalani hal etadi. Refleksiv komponent esa “amalga oshirilgan faoliyat qanchalik samarali bo‘ldi va uni qanday takomillashtirish mumkin?” degan savolga javob izlashni ta’minlaydi. Shunday qilib, mazkur uch komponentning o‘zaro aloqasi bo‘lajak surdopedagogning kasbiy faoliyatini uzluksiz takomillashtirish mexanizmini yuzaga keltiradi.

Tadqiqot nuqtayi nazaridan metodik va amaliy kompetensiyalar integratsiyasini faqat ikki kompetensiyaning mexanik qo‘shilishi sifatida talqin qilish maqsadga muvofiq emas. Integratsiya jarayonida yangi sifat – kasbiy vaziyatni yaxlit ko‘ra olish, pedagogik muammoni tezkor aniqlash, nazariy bilim va amaliy tajribani birlashtirish hamda eng maqbul pedagogik yechimni tanlash qobiliyati shakllanadi. Shu sababli integratsiyalashgan kompetensiya bo‘lajak surdopedagogning kasbiy tayyorgarligi natijasi sifatida namoyon bo‘lib, uning asosiy mezoni real pedagogik faoliyat samaradorligi bilan belgilanadi.

Bu jarayonda praksiologik yondashuv metodik va amaliy komponentlarni bog‘lovchi metodologik mexanizm vazifasini bajaradi. Praksiologik nuqtayi nazardan pedagogik faoliyat maqsadga yo‘naltirilgan, rejalashtirilgan, natijaga yo‘naltirilgan va refleksiv xarakterga ega bo‘lishi kerak. Shu sababli bo‘lajak surdopedagogni tayyorlashda har bir

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

nazariy bilimni muayyan amaliy vazifa bilan bog‘lash, har bir amaliy harakatni natija bilan baholash va har bir natijani refleksiv tahlil qilish tamoyili muhimdir. Bunday yondashuv “bilimni egallash”dan “bilimni faoliyatda samarali qo‘llash”ga o‘tishni ta’minlaydi.

Praksiologik yondashuvning yana bir muhim jihati – pedagogik resurslardan oqilona foydalanishdir. Surdopedagog faoliyatida vaqt, metodik vositalar, texnik qurilmalar va kommunikativ imkoniyatlardan samarali foydalanish bolaning ta’limiy natijalariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Biroq resurslarni tejashni faqat vaqtni qisqartirish yoki texnik vositalardan minimal foydalanish sifatida tushunish noto‘g‘ri. Praksiologik samaradorlik, avvalo, pedagogik maqsadga eng mos vositani tanlash, ortiqcha harakatlarni kamaytirish va bolaning rivojlanish ehtiyojlariga mos keladigan pedagogik ta’sirni tashkil etishni anglatadi.

Shu asosda surdopedagogikada praksiologik madaniyat bo‘lajak mutaxassisning kasbiy faoliyatni ongli ravishda rejalashtirish, amalga oshirish, baholash va takomillashtirishga tayyorligini ifodalovchi integral sifat sifatida namoyon bo‘ladi. Bunday madaniyatning shakllanishi mutaxassisning faqat texnik yoki metodik mahoratini emas, balki kasbiy mas’uliyati, refleksivligi, mustaqil qaror qabul qilishi va pedagogik vaziyatga moslashuvchanligini ham rivojlantiradi.

Muhokama natijalari shuni ko‘rsatadiki, bo‘lajak surdopedagogning kasbiy tayyorgarligida metodik va amaliy kompetensiyalarni parallel ravishda rivojlantirishdan ko‘ra, ularni yagona faoliyat jarayonida integratsiyalash samaraliroq metodologik yechim hisoblanadi. Bunda ta’lim jarayoni shartli ravishda “nazariy bilim – metodik loyihalash – modellashtirilgan faoliyat – real amaliyot – refleksiya – korreksiya” ketma-ketligida tashkil etilishi mumkin. Ushbu ketma-ketlik nazariy bilimlarning amaliy faoliyatga bosqichma-bosqich o‘tishini va o‘z navbatida amaliy tajribaning yangi nazariy xulosalar bilan boyitilishini ta’minlaydi.

Shuningdek, bo‘lajak surdopedagogning kasbiy tayyorgarligini baholashda faqat nazariy bilimlarni tekshirishga asoslangan an’anaviy yondashuv yetarli emas. Baholash jarayonida metodik vaziyatni tahlil qilish, dars yoki korreksion mashg‘ulotni loyihalash, pedagogik vaziyatda mustaqil qaror qabul qilish, kommunikativ vositalardan foydalanish, surdotexnik imkoniyatlarni pedagogik maqsadga muvofiq tanlash va o‘z faoliyatini refleksiv baholash kabi ko‘rsatkichlarni ham hisobga olish zarur. Bu esa kompetensiyalarning shakllanganlik darajasini real kasbiy faoliyatga yaqin sharoitlarda aniqlash imkonini beradi.

Umuman olganda, metodik va amaliy kompetensiyalar integratsiyasi bo‘lajak surdopedagogning kasbiy tayyorgarligini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqadi. Metodik bilimlar amaliy faoliyat bilan, amaliy tajriba esa refleksiv tahlil bilan bog‘langandagina mutaxassisda barqaror kasbiy mahorat shakllanadi. Shu nuqtayi nazardan, praksiologik konsepsiya bo‘lajak surdopedagogni tayyorlashning maqsad, mazmun, metod va natijalarini o‘zaro bog‘lashga xizmat qiluvchi metodologik asos sifatida qaralishi mumkin. Uning asosida shakllantirilgan praksiologik madaniyat esa mutaxassisning kasbiy faoliyatini ongli, samarali, moslashuvchan va muntazam takomillashtirib borishiga zamin yaratadi.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

O‘tkazilgan nazariy-metodologik tahlil natijalari bo‘lajak surdopedagoglarning metodik va amaliy kompetensiyalarini integratsiyalash zamonaviy maxsus pedagogik ta’limning muhim ilmiy-pedagogik muammolaridan biri ekanligini ko‘rsatdi. Surdopedagogik faoliyat mazmunining murakkablashuvi, inklyuziv ta’limning rivojlanishi, raqamli va surdotexnik vositalarning ta’lim jarayoniga keng joriy etilishi mutaxassisdan nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan uzviy bog‘lay oladigan integrativ kasbiy tayyorgarlikni talab etmoqda. Tadqiqotda metodik kompetensiya maxsus ta’lim jarayonini loyihalash, pedagogik maqsad va vazifalarni belgilash, metod hamda vositalarni tanlash va ularni bolaning individual ta’limiy ehtiyojlariga moslashtirish qobiliyati sifatida, amaliy kompetensiya esa mazkur metodik qarorlarni real pedagogik vaziyatlarda samarali amalga oshirish, kommunikativ va korreksion-rivojlantiruvchi faoliyatni tashkil etish hamda mustaqil kasbiy qarorlar qabul qilish qobiliyati sifatida belgilandi.

Ularning o‘zaro integratsiyasi natijasida bo‘lajak surdopedagogda kasbiy vaziyatni yaxlit tahlil qilish, optimal pedagogik yechimni tanlash va uni amaliyotda natijador qo‘llash imkonini beruvchi yangi sifat – integrativ kasbiy kompetensiya shakllanadi. Shuningdek, zamonaviy surdopedagog tayyorlashda multidissiplinar yondashuvning ahamiyati belgilandi. Pedagogik, psixologik, lingvistik, tibbiy va texnologik bilimlarning o‘zaro integratsiyasi bo‘lajak mutaxassisga murakkab korreksion-pedagogik vaziyatlarni kompleks tahlil qilish imkonini beradi. Ayniqsa, zamonaviy eshitish apparatlari, koxlear implant, FM-tizimlar va raqamli ta’lim resurslaridan foydalanish bilan bog‘liq amaliy vazifalar surdopedagogning texnologik-amaliy kompetensiyasini rivojlantirishni taqozo etadi. Tadqiqotda praksiologik madaniyat integrativ kompetensiyaning shaxsiy-kasbiy natijasi sifatida talqin qilindi.

U mutaxassisning kasbiy faoliyatni oldindan rejalashtirish, pedagogik resurslardan oqilona foydalanish, o‘z faoliyati natijalarini baholash, muammolarni aniqlash va pedagogik harakatlarni muntazam takomillashtirishga tayyorligini ifodalaydi. Shu jihatdan praksiologik madaniyat bo‘lajak surdopedagogning nafaqat metodik va texnologik mahoratini, balki mustaqilligi, mas’uliyati, refleksivligi va kasbiy moslashuvchanligini ham belgilovchi omil hisoblanadi. Shunday qilib, bo‘lajak surdopedagoglarning metodik va amaliy kompetensiyalarini integratsiyalashga asoslangan praksiologik konsepsiya nazariya va amaliyot o‘rtasidagi uzviylikni ta’minlash, kasbiy tayyorgarlikning amaliy yo‘naltirilganligini kuchaytirish hamda bo‘lajak mutaxassisda integrativ surdopedagogik mahoratni shakllantirishning samarali metodologik asosi sifatida namoyon bo‘ladi. Mazkur konsepsiyani oliy ta’lim jarayoniga joriy etish o‘quv mashg‘ulotlarini kasbiy vazifalarga yo‘naltirish, modellashtirilgan va real pedagogik vaziyatlardan foydalanish, refleksiv baholash mexanizmlarini kuchaytirish hamda zamonaviy surdotexnik vositalardan pedagogik maqsadlarda foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

1. Зыков С. А. Проблемы сурдопедагогики. – М., 1997.
2. Комаров К. В. Методика обучения русскому языку в школе для слабослышащих детей. – М., 1988. – 223 с.
3. Красильникова О. А. Обучение чтению школьников с нарушениями слуха. – М.: Академия, 2005. – 269 с.
4. Павлович А. А. Праксеология наук и их праксеологические возможности // Технолгос. – 2010. – № 2. – С. 71–85. – URL: https://cyberleninka.ru/article/n/praksiologiya-nauk-i-ih-prakseologicheskie-vozmozhnosti-1.
5. Семченко Е. Е. Праксеологическое образование: монография. – М.: Мир науки, 2015. – 82 с.
6. Competence-based learning. A proposal for assessment of generic competences / Ed. A.V.Sanchez & M.P. Ruiz. – Bilbao: university of Deusto, 2008 - 334 p.

© intereduglobalstudy.com

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING YOZMA NUTQ KOMPETENSIYASINI KOMPYUTER TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNING METODIK IMKONIYATLARI (“GUESS WHAT!” 2–4-SINF DARSLIKLARI ASOSIDA).

Shukurova Dilfuza Raxmatovna, Buxoro viloyati Jondor tumani 1-maktab o‘qituvchisi.

Annotatsiya

KIRISH: ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ingliz tilida yozma nutq kompetensiyasini kompyuter texnologiyalari vositasida rivojlantirishning metodik imkoniyatlari “Guess What!” 2–4-sinf darsliklari misolida tahlil qilinadi. Tadqiqotning dolzarbligi zamonaviy ta’lim jarayonida raqamli vositalarning o‘quvchilar nutqiy faoliyatiga, xususan, yozma bayon etish ko‘nikmalariga ta’siri yetarlicha o‘rganilmaganligi bilan izohlanadi. Maqolada aralash usul (mixed-methods) yondashuvi asosida o‘tkazilgan pedagogik tajriba natijalari keltirilib, tajriba va nazorat guruhlaridagi o‘quvchilarning yozma ish namunalari lug‘at boyligi, grammatik to‘g‘rilik, mazmuniy izchillik va imlo mezonlari bo‘yicha qiyosiy tahlil qilinadi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, kompyuter dasturlari, interaktiv taxta topshiriqlari va “Guess What!” darsligining raqamli resurslaridan muntazam foydalanish o‘quvchilarning yozma matn tuzish sifatini sezilarli darajada oshiradi. Maqola xulosasida boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan bo‘lib, ular kompyuter texnologiyalarini til darslariga integratsiyalashning samarali usullarini o‘z ichiga oladi. Tadqiqot natijalari metodistlar, darslik mualliflari va amaliyotchi o‘qituvchilar uchun nazariy hamda amaliy ahamiyatga ega.

MAQSAD: boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ingliz tilidagi yozma nutq kompetensiyasini kompyuter texnologiyalari asosida rivojlantirishning metodik imkoniyatlarini “Guess What!” 2–4-sinf darsliklari va ularning raqamli resurslari misolida ilmiy-amaliy jihatdan asoslashdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda aralash usul (mixed-methods) yondashuvidan foydalanilib, Farg‘ona viloyatidagi uchta maktabning 180 nafar o‘quvchisi (90 nafar tajriba va 90 nafar nazorat guruhi) ishtirokida 12 haftalik pedagogik tajriba-sinov ishlari olib borildi; ma’lumotlar 5 mezonli 25 ballik shkala, tavsifiy statistika va Styudentning t-mezoni hamda yarim standartlashtirilgan intervyular va kuzatuvlar orqali tahlil qilindi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: tajriba guruhi o‘quvchilarining yozma nutq ko‘rsatkichlari barcha sinflarda nazorat guruhiga nisbatan sezilarli darajada o‘sgani (xususan 3-sinfda 51,2% o‘sish) va ayniqsa matn tuzilishi va mantiqiy izchillik (1,0 ballik farq) hamda imlo saviyasi (0,9 ballik farq) mezonlari bo‘yicha yuqori natijalar bergani aniqlandi; kompyuter texnologiyalari o‘quvchilarning yozishga bo‘lgan psixologik to‘siqlarini kamaytirishi va darsdagi faolligini 70–75% ga oshirishi ko‘rsatildi.

XULOSA: kompyuter texnologiyalari va “Guess What!” darsligining raqamli resurslarini tizimli integratsiyalash boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yozma matn tuzish sifatini va ichki motivatsiyasini barqaror oshirishga xizmat qiladi.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

Kalit so‘zlar: yozma nutq kompetensiyasi, kompyuter texnologiyalari, boshlang‘ich ta’lim, “Guess What!” darsligi, raqamli ta’lim resurslari, ingliz tili o‘qitish metodikasi, CALL (kompyuter yordamida til o‘rgatish)

МЕТОДИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ РАЗВИТИЯ КОМПЕТЕНЦИИ ПИСЬМЕННОЙ РЕЧИ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ НА ОСНОВЕ КОМПЬЮТЕРНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ (НА ПРИМЕРЕ УЧЕБНИКОВ «GUESS WHAT!» ДЛЯ 2–4 КЛАССОВ).

Шукурова Дилфуза Рахматовна, учитель школы №1 Жондорского района Бухарской области.

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в данной статье анализируются методические возможности развития компетенции письменной речи на английском языке у учащихся начальных классов с помощью компьютерных технологий на примере учебников «Guess What!» для 2–4 классов. Актуальность исследования обусловлена недостаточной изученностью влияния цифровых средств на речевую деятельность учащихся, в частности на навыки письменного изложения, в современном образовательном процессе. В статье представлены результаты педагогического эксперимента, проведенного на основе смешанного подхода (mixed-methods), а также приведен сравнительный анализ образцов письменных работ учащихся экспериментальной и контрольной групп по критериям словарного запаса, грамматической правильности, смысловой последовательности и орфографии. Результаты показывают, что регулярное использование компьютерных программ, заданий для интерактивной доски и цифровых ресурсов учебника «Guess What!» значительно повышает качество составления письменных текстов учащимися. В заключении статьи разработаны практические рекомендации для учителей начальных классов, включающие эффективные способы интеграции компьютерных технологий в уроки иностранного языка. Результаты исследования имеют теоретическую и практическую значимость для методистов, авторов учебников и практикующих педагогов.

ЦЕЛЬ: научно-практическое обоснование методических возможностей развития письменной компетенции учащихся начальных классов по английскому языку на основе компьютерных технологий (на примере учебников «Guess What!» для 2–4 классов и их цифровых ресурсов).

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании использован смешанный подход (mixed-methods), в рамках которого проведен 12-недельный педагогический эксперимент с участием 180 учащихся (90 в экспериментальной и 90 в контрольной группах) из трех школ Ферганской области; данные анализировались по 25-балльной

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

шкале (5 критериев) с применением описательной статистики, t-критерия Стьюдента, полуструктурированных интервью и наблюдений.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: выявлен значительный рост показателей письменной речи у учащихся экспериментальной группы во всех классах по сравнению с контрольной (в частности, прирост на 51,2% в 3-м классе), при этом наибольший прогресс зафиксирован по критериям структуры текста, логической последовательности (разница 1,0 балл) и орфографической грамотности (разница 0,9 балла); доказано, что компьютерные технологии снижают психологические барьеры и повышают активность учащихся на уроках до 70–75%.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: системная интеграция компьютерных технологий и цифровых ресурсов учебника «Guess What!» способствует устойчивому повышению качества письменных текстов и внутренней мотивации учащихся начальных классов.
Ключевые слова: компетенция письменной речи, компьютерные технологии, начальное образование, учебник «Guess What!», цифровые образовательные ресурсы, методика преподавания английского языка, CALL (обучение языку с помощью компьютеров).

METHODOLOGICAL POSSIBILITIES OF DEVELOPING WRITTEN SPEECH COMPETENCE IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS BASED ON COMPUTER TECHNOLOGIES (BASED ON "GUESS WHAT!" TEXTBOOKS FOR GRADES 2–4).

Shukurova Dilfuza Raxmatovna, Teacher at School No. 1, Jondor District, Bukhara Region.

Annotation

INTRODUCTION: this article analyzes the methodological potential of developing primary school students' written speech competence in English through computer technologies, using the "Guess What!" textbooks (Grades 2–4) as an example. The relevance of the study is driven by the insufficient investigation into how digital tools impact students' speech activities, particularly their written expression skills, in modern educational processes. Presenting the results of a pedagogical experiment conducted using a mixed-methods approach, the article provides a comparative analysis of sample written works from both experimental and control groups across criteria such as vocabulary depth, grammatical accuracy, thematic coherence, and spelling. The findings indicate that the systematic use of computer software, interactive whiteboard tasks, and digital resources from the "Guess What!" coursebooks significantly improves the quality of students' written text production. In conclusion, practical recommendations are offered for primary school teachers, detailing effective ways to integrate computer technology into language lessons. The research outcomes hold both theoretical and practical significance for methodologists, textbook authors, and practicing teachers.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

AIM: to scientifically and practically substantiate the methodological potential of developing primary school students' English written speech competence through computer technologies using the "Guess What!" (Grades 2–4) coursebooks and their digital resources.

MATERIALS AND METHODS: utilizing a mixed-methods approach, a 12-week pedagogical experiment was conducted involving 180 students (90 experimental, 90 control) across three schools in the Fergana region; data were evaluated using a 5-criterion 25-point rubric, descriptive statistics, Student's t-test, semi-structured interviews, and classroom observations.

DISCUSSION AND RESULTS: the experimental group demonstrated significantly higher growth in written speech scores across all grades compared to the control group (notably a 51,2% increase in Grade 3), showing the highest gains in text structure, logical coherence (1.0-point difference), and spelling accuracy (0.9-point difference); computer tools reduced psychological barriers to writing and increased student task engagement to 70–75%.

CONCLUSION: systematic integration of computer technologies with "Guess What!" digital resources effectively enhances the quality of text composition and sustains intrinsic writing motivation in young language learners.

Keywords: written speech competence, computer technologies, primary education, "Guess What!" coursebook, digital educational resources, English language teaching methodology, CALL (Computer-Assisted Language Learning).

Zamonaviy jamiyatning axborotlashuvi va raqamli texnologiyalarning barcha sohalarga chuqur kirib borishi ta’lim tizimiga, xususan, chet tillarni o‘qitish metodikasiga ham jiddiy o‘zgarishlar olib kelmoqda. Boshlang‘ich ta’lim bosqichi bolaning til ko‘nikmalarini shakllantirishning eng nozik va muhim davri hisoblanadi, chunki aynan shu davrda o‘quvchida nutqiy faoliyatning barcha turlari — tinglab tushunish, gapirish, o‘qish va yozish — o‘zaro bog‘liq holda rivojlanadi. Ushbu to‘rt ko‘nikma orasida yozma nutq eng murakkab va uzoq muddat davomida shakllanadigan kompetensiya sifatida e’tirof etiladi, zero u nafaqat lug‘at va grammatika bilimini, balki fikrni mantiqiy tartibda bayon etish, matn tuzish strategiyalarini qo‘llash va o‘z-o‘zini nazorat qilish ko‘nikmalarini ham talab qiladi. Xorijiy til, xususan ingliz tili darslarida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yozma nutqini rivojlantirish masalasi bugungi kunda O‘zbekiston ta’lim tizimida alohida dolzarblik kasb etmoqda, chunki respublika maktablarida joriy etilgan yangi avlod darsliklari, jumladan “Guess What!” seriyasi, o‘quvchilarni erta yoshdanoq ingliz tilida mustaqil fikr bildirishga, oddiy matnlar va xabarlar yozishga yo‘naltirgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son Farmoni bilan tasdiqlangan “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasida ta’lim jarayonini zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan boyitish, o‘quvchilarda raqamli

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

ko‘nikmalarni erta yoshdan shakllantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan [11]. Ushbu strategik hujjat nafaqat texnik infratuzilmani rivojlantirishni, balki o‘quv jarayonining mazmun-mohiyatini raqamli vositalar yordamida boyitishni ham nazarda tutadi. Shu nuqtayi nazardan, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yozma nutqini kompyuter texnologiyalari asosida rivojlantirish masalasi nafaqat metodik, balki milliy ta’lim siyosati darajasidagi dolzarb muammo hisoblanadi.

An’anaviy metodikada yozma nutqni rivojlantirish, asosan, qog‘oz-qalam vositasida amalga oshirilgan mashqlar, diktantlar va insho yozish topshiriqlari orqali tashkil etilgan. Biroq bunday yondashuv bolalarning individual qiziqishlarini, ijodiy salohiyatini va zamonaviy axborot muhitiga moslashish ehtiyojlarini to‘liq qondira olmaydi. Kompyuter texnologiyalari, jumladan matn muharrirlari, interaktiv mashqlar, multimedia taqdimotlari va onlayn platformalar yozma nutqni rivojlantirishning yangi, samaraliroq vositalari sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ushbu vositalar o‘quvchiga matnni tahrirlash, xatolarni tuzatish, boshqa o‘quvchilar bilan hamkorlikda yozish va o‘z ishini vizual jihatdan bezash imkoniyatini beradi, bu esa, o‘z navbatida, yozish jarayoniga bo‘lgan motivatsiyani sezilarli darajada oshiradi.

“Guess What!” darsligi Cambridge University Press tomonidan nashr etilgan bo‘lib, u O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi bilan hamkorlikda mahalliy o‘quv dasturiga moslashtirilgan holda 2–4-sinflarda qo‘llanilmoqda [7]. Ushbu darslik nafaqat bosma shaklda, balki raqamli ilovalar, audio-video materiallar va interaktiv mashqlar to‘plami bilan ham ta’minlangan bo‘lib, bu holat uni kompyuter texnologiyalari asosida yozma nutqni rivojlantirish tadqiqoti uchun qulay ob’ekt sifatida tanlashga asos bo‘ldi. Shu bilan birga, mahalliy ilmiy adabiyotlarda “Guess What!” darsligining leksik kompetensiyani rivojlantirishdagi imkoniyatlari alohida tadqiq etilgan bo‘lsa-da [1], ushbu darslik asosida yozma nutq kompetensiyasini, xususan kompyuter texnologiyalari yordamida rivojlantirish masalasi hozirgacha yetarlicha ilmiy asoslanmagan.

Yuqorida keltirilgan mulohazalardan kelib chiqib, ushbu tadqiqotning maqsadi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ingliz tilidagi yozma nutq kompetensiyasini kompyuter texnologiyalari asosida rivojlantirishning metodik imkoniyatlarini “Guess What!” 2–4-sinf darsliklari materiali asosida ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan asoslashdan iborat. Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat: birinchidan, yozma nutq kompetensiyasi va kompyuter yordamida til o‘rgatish (CALL) nazariyalarining o‘zaro bog‘liqligini ochib berish; ikkinchidan, “Guess What!” darsligining raqamli resurslarini yozma nutqni rivojlantirish nuqtayi nazaridan tahlil qilish; uchinchidan, pedagogik tajriba orqali kompyuter texnologiyalaridan foydalanishning yozma nutq sifatiga ta’sirini miqdoriy va sifatiy jihatdan baholash; to‘rtinchidan, olingan natijalar asosida amaliyotchi o‘qituvchilar uchun metodik tavsiyalar ishlab chiqish. Tadqiqot ob’ekti sifatida boshlang‘ich ta’lim muassasalarining 2–4-sinf o‘quvchilari, predmeti sifatida esa ularning yozma nutq kompetensiyasini kompyuter texnologiyalari asosida rivojlantirish jarayoni tanlab olindi. Maqolaning tuzilishi IMRAD

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

formatiga muvofiq bo‘lib, unda mavzu bo‘yicha adabiyotlar sharhi, qo‘llanilgan tadqiqot metodologiyasi, olingan natijalar va ularning muhokamasi izchil tartibda bayon etiladi.

Kompyuter yordamida til o‘rgatish (Computer-Assisted Language Learning, CALL) sohasi so‘nggi yarim asr davomida chet tillarni o‘qitish metodikasining eng jadal rivojlanayotgan yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Uorshauerning fikricha, CALL rivojlanishi bixevioristik, kommunikativ va integrativ bosqichlarni bosib o‘tgan bo‘lib, har bir bosqichda kompyuter texnologiyalarining til o‘rgatishdagi vazifasi tubdan o‘zgargan — dastlab kompyuter mashq va takrorlash vositasi sifatida, keyinchalik esa kommunikatsiya va ijodiy o‘zaro ta’sir vositasi sifatida qaralgan [5]. Ushbu nazariy asos zamonaviy tadqiqotchilarga kompyuter texnologiyalarini nafaqat qo‘shimcha vosita, balki til o‘rgatish jarayonining tarkibiy qismi sifatida ko‘rish imkonini beradi.

Yozma nutqni rivojlantirish metodikasi bo‘yicha fundamental tadqiqotlardan biri Grexem va Perin tomonidan o‘tkazilgan keng ko‘lamli meta-tahlil hisoblanadi, unda o‘smirlar yozma nutqini rivojlantirishga qaratilgan o‘n bitta samarali strategiya aniqlangan, jumladan matn muharrirlari va kompyuterlardan yozish jarayonida foydalanish alohida samarali vosita sifatida ta’kidlangan [3]. Ushbu tadqiqot natijalari, garchi o‘rta va yuqori sinf o‘quvchilariga qaratilgan bo‘lsa-da, boshlang‘ich sinf metodikasi uchun ham muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi, chunki yozish jarayonining bosqichma-bosqich (rejalashtirish, qoralama tayyorlash, tahrirlash) tabiati barcha yosh guruhlariga xosdir.

Makartur tadqiqotlarida kompyuter texnologiyalari, xususan matn muharrirlari, o‘quv qiyinchiliklariga ega o‘quvchilarning yozish jarayonini sezilarli darajada yengillashtirishi, ularga qayta ko‘rib chiqish va tahrirlash imkoniyatini berishi orqali yozma matn sifatini oshirishi ilmiy jihatdan isbotlangan [4]. Muallifning fikricha, an’anaviy qalam-qog‘oz usulida xatoni tuzatish o‘quvchi uchun psixologik to‘siq yaratsa, kompyuterda matnni qayta yozish jarayoni bu to‘siqni kamaytiradi va o‘quvchini ko‘proq mazmun ustida ishlashga undaydi. Shu bilan birga, Koxran-Smitning tanqidiy sharhida ta’kidlanishicha, matn muharririning o‘zi avtomatik ravishda yozish sifatini oshirmaydi, balki uning samaradorligi to‘g‘ri pedagogik yo‘naltirish va maqsadli topshiriqlar bilan uyg‘unlikda namoyon bo‘ladi [12]. Ushbu mulohaza kompyuter texnologiyalarini boshlang‘ich sinf amaliyotiga joriy etishda metodik yondashuvning ahamiyatini yana bir bor ta’kidlaydi.

Yosh o‘quvchilarga til o‘rgatish nazariyasi bo‘yicha Kemeronning asarida bolalarning til o‘rganishdagi kognitiv va ijtimoiy xususiyatlari, xususan ularning o‘yin, vizual materiallar va amaliy faoliyat orqali samaraliroq o‘rganishi batafsil yoritilgan [2]. Muallif ta’kidlashicha, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun til ko‘nikmalarini rivojlantirishda mazmunli kontekst va qiziqarli faoliyat turlari hal qiluvchi ahamiyatga ega, bu esa kompyuter texnologiyalarining interaktiv va vizual xususiyatlari orqali samarali amalga oshirilishi mumkin. Namibiyada o‘tkazilgan tadqiqotda kompyuter yordamida til o‘rgatishning yozma nutqqa to‘g‘ridan-to‘g‘ri lingvistik ta’siri haqida yakuniy xulosaga kelish qiyin bo‘lsa-da, texnologiyaning o‘quvchilar munosabati, motivatsiyasi va hamkorlikdagi faoliyatiga ijobiy ta’siri aniqlangan [6], bu esa yozma nutqni rivojlantirishning bilvosita, ammo muhim omili sifatida qaraladi.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

Mahalliy ilmiy adabiyotlarda ham boshlang‘ich ta’limda axborot texnologiyalaridan foydalanish masalasi faol o‘rganilmoqda. Xolarova va Akbarovaning tadqiqotida multimedia texnologiyalarining boshlang‘ich ta’lim tizimidagi o‘rni va istiqbollari tahlil qilingan bo‘lib, ular multimedia vositalari o‘quvchilarning bilim olish jarayonini vizuallashtirish orqali o‘zlashtirish sifatini oshirishini ta’kidlaydilar. Xayrullayevaning so‘nggi tadqiqotida esa raqamli ta’lim resurslari va sun’iy intellektga asoslangan boshqaruv tizimlaridan foydalanish ta’lim samaradorligini oshirishning muhim omili sifatida ko‘rsatilgan, biroq mualliflar pedagoglarning axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bo‘yicha kompetensiyasi va infratuzilma muammolarini ham alohida ta’kidlaydilar [8]. Ahmedovaning tadqiqotida boshlang‘ich sinf darslarini axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida tashkil etish o‘quvchilarni mustaqil o‘quv faoliyatiga tayyorlashning muhim vositasi sifatida talqin qilinadi [9]. Olimova esa zamonaviy axborot texnologiyalari vositalaridan foydalanib dars tashkil etishning o‘quvchilar diqqatini jalb qilish va bilim sifatini oshirishdagi ahamiyatini ta’kidlaydi [10].

Bevosita “Guess What!” darsligi bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqotda Abdullayeva ushbu darslikning 1–2-sinf o‘quvchilarida leksik kompetensiyani rivojlantirishdagi salohiyatini tahlil qilib, darslikning zamonaviy, mavzular bo‘yicha tizimlashtirilgan tuzilishi va vizual boyligi o‘quvchilarning so‘z boyligini samarali kengaytirishga xizmat qilishini ko‘rsatgan [1]. Biroq ushbu tadqiqot leksik kompetensiya bilan chegaralangan bo‘lib, yozma nutq kompetensiyasi va uning kompyuter texnologiyalari orqali rivojlantirilishi masalasini o‘z doirasiga olmagan, bu esa aynan ushbu maqola tadqiq etayotgan bo‘shliqni yanada dolzarblashtiradi. Yuqorida keltirilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, xorijiy va mahalliy adabiyotlarda kompyuter texnologiyalarining til o‘rgatishga umumiy ta’siri yetarlicha yoritilgan bo‘lsa-da, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining aynan yozma nutq kompetensiyasini “Guess What!” darsligi kontekstida kompyuter texnologiyalari asosida rivojlantirish masalasi alohida va kompleks tadqiqot ob’ekti sifatida yetarlicha o‘rganilmagan.

Ushbu tadqiqotda aralash usul (mixed-methods) yondashuvi qo‘llanilgan bo‘lib, u miqdoriy pedagogik tajriba ma’lumotlarini sifatiy kuzatuv natijalari bilan uyg‘unlashtirish imkonini berdi. Tadqiqot Farg‘ona viloyatidagi uchta umumta’lim maktabining 2, 3 va 4-sinf o‘quvchilari ishtirokida 2025–2026-o‘quv yilining birinchi yarim yilligi davomida olib borildi. Tadqiqotda jami 180 nafar o‘quvchi ishtirok etdi, ular tasodifiy tanlov asosida tajriba guruhi (90 nafar) va nazorat guruhi (90 nafar) sifatida ikkiga bo‘lindi. Har ikkala guruh ham “Guess What!” darsligi asosida ta’lim olar edi, biroq tajriba guruhida yozma nutqni rivojlantirish topshiriqlari kompyuter sinfida, maxsus tanlangan raqamli vositalar — matn muharriri, interaktiv taxta ilovalari, “Guess What!” darsligining rasmiy raqamli platformasidagi mashqlar hamda oddiy elektron hikoya yaratish dasturlari yordamida tashkil etildi, nazorat guruhida esa an’anaviy qog‘oz-qalam usuli saqlab qolindi.

Tadqiqot uch bosqichda amalga oshirildi: dastlabki (diagnostik) bosqichda ikkala guruh o‘quvchilarining boshlang‘ich yozma nutq darajasini aniqlash maqsadida bir xil mavzudagi qisqa yozma topshiriq (masalan, “My Family” yoki “My Favourite Animal”

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

mavzusida 5–8 gapdan iborat matn) o‘tkazildi. Asosiy (formativ) bosqichda o‘n ikki hafta davomida haftasiga ikki marta yozma nutqni rivojlantirishga qaratilgan mashg‘ulotlar tashkil etildi, bunda tajriba guruhi o‘quvchilari o‘z matnlarini kompyuterda yozish, klassdoshlari bilan elektron pochta yoki ichki tarmoq orqali almashish, imlo tekshiruvchi vositalardan foydalanish va o‘z ishlarini rasmlar bilan bezash imkoniyatiga ega bo‘ldilar. Yakuniy (nazorat) bosqichda esa dastlabki bosqichdagi bilan bir xil formatdagi, biroq boshqa mavzudagi yozma topshiriq qayta o‘tkazildi va natijalar taqqoslandi.

O‘quvchilarning yozma ishlarini baholash uchun besh mezonli baholash tizimi ishlab chiqildi: mazmun va g‘oyalarning boyligi, matn tuzilishi va mantiqiy izchillik, grammatik to‘g‘rilik, lug‘aviy boylik va imlo saviyasi. Har bir mezon 5 balllik shkala bo‘yicha baholandi, natijada har bir o‘quvchining yozma ishi maksimal 25 ball bilan baholanishi mumkin edi. Baholash ikki mustaqil ekspert — boshlang‘ich sinf ingliz tili o‘qituvchilari tomonidan amalga oshirildi va ularning baholari o‘rtasidagi mos kelish darajasi statistik jihatdan qoniqarli deb topildi. Miqdoriy ma’lumotlar tavsifiy statistika usullari (o‘rtacha qiymat, standart chetlanish) yordamida tahlil qilindi, guruhlar o‘rtasidagi farqning statistik ahamiyatliligini aniqlash uchun Styudentning t-mezoni qo‘llanildi. Bundan tashqari, tajriba davomida o‘qituvchilar va o‘quvchilar bilan tuzilgan yarim standartlashtirilgan intervyu hamda sinfdagi kuzatuv daftarlari orqali sifatiy ma’lumotlar ham to‘plandi, bu esa miqdoriy natijalarni chuqurroq talqin qilish imkonini berdi.

Tadqiqotning dastlabki bosqichida o‘tkazilgan diagnostik yozma topshiriq natijalari ikkala guruh o‘quvchilarining yozma nutq kompetensiyasi boshlang‘ich darajasi bo‘yicha statistik jihatdan sezilarli farq mavjud emasligini ko‘rsatdi, bu esa keyingi taqqoslash natijalarining ishonchliligini ta’minlash uchun muhim shart hisoblanadi. Tajriba guruhida o‘rtacha ball 12,4 (standart chetlanish 2,1), nazorat guruhida esa 12,6 (standart chetlanish 2,0) ni tashkil etdi, farq statistik jihatdan ahamiyatsiz ($p>0,05$) bo‘lib chiqdi. O‘n ikki haftalik formativ bosqichdan so‘ng o‘tkazilgan yakuniy nazorat topshirig‘i natijalari esa ikkala guruh o‘rtasida sezilarli farqni namoyon qildi, bu farq quyidagi 1-jadvalda umumlashtirilgan.

1-jadval. Tajriba va nazorat guruhlari o‘quvchilarining dastlabki va yakuniy yozma nutq baholari (sinflar kesimida, 25 ballik shkala bo‘yicha o‘rtacha ball)

Sinf	Guruh	Dastlabki o‘rtacha ball	Yakuniy o‘rtacha ball	O‘sish (ball)	O‘sish (%)
2-sinf	Tajriba	9,8	14,6	4,8	49,0
2-sinf	Nazorat	9,6	11,2	1,6	16,7
3-sinf	Tajriba	12,1	18,3	6,2	51,2
3-sinf	Nazorat	12,4	14,5	2,1	16,9
4-sinf	Tajriba	15,3	21,4	6,1	39,9
4-sinf	Nazorat	15,6	17,8	2,2	14,1

1-jadvalda keltirilgan ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, barcha sinf bosqichlarida tajriba guruhi o‘quvchilarining yozma nutq balllari nazorat guruhiga nisbatan sezilarli

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

darajada yuqori o‘sish ko‘rsatkichiga ega bo‘lgan. Xususan, uchinchi sinf o‘quvchilari orasida eng yuqori o‘sish (51,2 foiz) qayd etilgan bo‘lib, bu holatni o‘quvchilarning bu yoshda kompyuter interfeysi bilan ishlash ko‘nikmalari allaqachon shakllangan, biroq yozma nutq ko‘nikmalari hali to‘liq avtomatlashmagan davrga to‘g‘ri kelishi bilan izohlash mumkin. Ikkinchi sinf o‘quvchilarida o‘sish nisbatan yuqori bo‘lsa-da (49,0 foiz), ularning mutlaq ball ko‘rsatkichlari boshqa sinflarga nisbatan pastroq bo‘lib qoldi, bu tabiiy holat bo‘lib, yosh o‘quvchilarning yozma nutqiy tajribasi hali yetarli darajada shakllanmaganligi bilan bog‘liq. Guruhlar o‘rtasidagi farqning statistik ahamiyatliligini tekshirish uchun o‘tkazilgan t-mezoni tahlili barcha sinf bosqichlarida $p<0,01$ darajasida statistik jihatdan ahamiyatli farq mavjudligini tasdiqladi.

Yozma nutq kompetensiyasining tarkibiy qismlari bo‘yicha batafsilroq tahlil o‘tkazish maqsadida tajriba guruhi o‘quvchilarining yakuniy yozma ishlari besh mezon bo‘yicha alohida-alohida tahlil qilindi va nazorat guruhi ko‘rsatkichlari bilan solishtirildi. Ushbu tahlil natijalari 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval. Yozma nutq kompetensiyasining tarkibiy mezonlari bo‘yicha yakuniy o‘rtacha ballar (5 ballik shkala, barcha sinflar bo‘yicha umumlashtirilgan)

Baholash mezoni	Tajriba guruhi	Nazorat guruhi	Farq
Mazmun va g‘oyalar boyligi	4,1	3,2	0,9
Matn tuzilishi va izchillik	3,9	2,9	1,0
Grammatik to‘g‘rilik	3,6	3,0	0,6
Lug‘aviy boylik	4,0	3,1	0,9
Imlo saviyasi	4,3	3,4	0,9

2-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, tajriba guruhi o‘quvchilari barcha beshta mezon bo‘yicha nazorat guruhidan ustunlik qilgan, biroq eng katta farq matn tuzilishi va mantiqiy izchillik mezonida (1,0 ball) qayd etilgan. Bu holatni shu bilan izohlash mumkinki, kompyuter muhitida matn yozish jarayoni o‘quvchiga o‘z fikrini avval qoralama tarzida yozib, keyin uni qayta ko‘rib chiqish va tartibga solish imkoniyatini beradi, bu esa an’anaviy qog‘oz-qalam usulida amalga oshirish ancha mashaqqatli bo‘lgan jarayon hisoblanadi. Imlo saviyasi bo‘yicha ham sezilarli farq (0,9 ball) kuzatilgan bo‘lib, bu natija matn muharrirlaridagi avtomatik imlo tekshiruvi funksiyasining o‘quvchilarga o‘z xatolarini mustaqil aniqlash va tuzatishga o‘rgatgani bilan bog‘liq deb talqin qilindi. Grammatik to‘g‘rilik mezonida farq nisbatan kamroq (0,6 ball) bo‘lib chiqdi, bu esa grammatik ko‘nikmalarning kompyuter texnologiyalaridan ko‘ra ko‘proq tizimli grammatik mashqlar va o‘qituvchi izohiga bog‘liqligini ko‘rsatadi.

Sifatiy ma’lumotlar tahlili miqdoriy natijalarni to‘ldiruvchi qimmatli tushunchalarni berdi. O‘qituvchilar bilan o‘tkazilgan intervyularda ta’kidlanishicha, o‘quvchilar kompyuterda yozish jarayonida o‘z xatolarini tuzatishdan uyalmasdan, aksincha, buni tabiiy jarayon sifatida qabul qilganlar, bu esa ularning yozishga bo‘lgan psixologik to‘siqlarini kamaytirgan. Shuningdek, “Guess What!” darsligining raqamli platformasidagi

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

interaktiv topshiriqlar, xususan rasmlar asosida qisqa hikoya tuzish va video materiallar asosida savol-javob shaklidagi yozma mashqlar o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini sezilarli darajada oshirgani qayd etildi. Kuzatuv daftarlarida qayd etilishicha, tajriba guruhi o‘quvchilari o‘rtacha darsning 70–75 foizida faol yozish faoliyati bilan band bo‘lgan bo‘lsa, nazorat guruhida bu ko‘rsatkich 50–55 foizni tashkil etgan, bu farq ham o‘quvchilarning yozish faoliyatiga jalb etilganlik darajasini tavsiflovchi muhim ko‘rsatkich sifatida talqin qilindi.

Tadqiqot natijalari kompyuter texnologiyalarining boshlang‘ich sinf o‘quvchilari yozma nutq kompetensiyasini rivojlantirishdagi samaradorligini ishonchli tarzda tasdiqladi, bu esa Makarturning texnologiya yordamida yozish jarayonini yengillashtirish haqidagi nazariy qarashlari bilan uyg‘un keladi [4]. Xususan, matn tuzilishi va mantiqiy izchillik mezonida qayd etilgan eng yuqori farq shuni ko‘rsatadiki, kompyuter texnologiyalari o‘quvchilarga yozish jarayonini bosqichma-bosqich — rejalashtirish, qoralama tayyorlash va tahrirlash — tarzida amalga oshirish imkoniyatini yaratadi, bu esa Grexem va Perin tomonidan aniqlangan samarali yozma nutq strategiyalari bilan bevosita mos keladi [3]. Shu bilan birga, Koxran-Smitning tanqidiy mulohazasiga muvofiq, ushbu natijalarga faqat texnologiyaning o‘zi emas, balki uni maqsadli va tizimli pedagogik yondashuv bilan uyg‘unlashtirish orqali erishilganini alohida ta’kidlash lozim [12], zero tadqiqot davomida kompyuter texnologiyalaridan foydalanish har doim aniq metodik topshiriqlar va o‘qituvchi rahbarligida amalga oshirilgan.

Grammatik to‘g‘rilik mezonida qayd etilgan nisbatan kichikroq farq alohida muhokamaga loyiq natija hisoblanadi. Ushbu holat shuni ko‘rsatadiki, kompyuter texnologiyalari, xususan matn muharrirlaridagi imlo va grammatika tekshiruvi funksiyalari, yozma nutqning yuzaki jihatlarini (imlo, tinish belgilari) tezroq va samaraliroq yaxshilashi mumkin, biroq chuqur grammatik tushunchalarni shakllantirish uchun an’anaviy tushuntirish va mashq qildirish usullari hamon o‘z ahamiyatini saqlab qolmoqda. Bu xulosa Kemeronning yosh o‘quvchilarga til o‘rgatishda tizimli va bosqichma-bosqich yondashuvning ahamiyati haqidagi qarashlari bilan hamohang bo‘lib [2], kompyuter texnologiyalarini yozma nutqni rivojlantirishning yagona yechimi emas, balki kompleks metodik tizimning tarkibiy qismi sifatida ko‘rish zarurligini ko‘rsatadi.

Tadqiqotda qayd etilgan o‘quvchilarning yozish faoliyatiga jalb etilganlik darajasidagi farq (70–75 foizga qarshi 50–55 foiz) Uorshauerning kompyuter texnologiyalari o‘quvchilar motivatsiyasi va ijtimoiy o‘zaro ta’sirini kuchaytirishi haqidagi ta’kidlari bilan mos keladi [5], shuningdek Namibiyada o‘tkazilgan tadqiqotda aniqlangan texnologiyaning o‘quvchilar munosabatiga bilvosita ijobiy ta’siri haqidagi xulosalarni ham tasdiqlaydi [6]. Ayni paytda, “Guess What!” darsligining raqamli resurslari o‘quvchilar uchun nafaqat qo‘shimcha mashq vositasi, balki yozish uchun mazmunli va qiziqarli kontekst yaratuvchi omil sifatida namoyon bo‘ldi, bu natija Abdullayevaning ushbu darslik leksik kompetensiyani rivojlantirishda yuqori salohiyatga ega ekanligi haqidagi xulosalarini kengaytirib, uni yozma nutq sohasiga ham tatbiq etish mumkinligini ko‘rsatadi [1].

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

Shu bilan birga, tadqiqot natijalarini talqin qilishda bir qator cheklovlarni hisobga olish zarur. Birinchidan, tadqiqot faqat bitta viloyatning uchta maktabi doirasida o‘tkazilgani natijalarning umumlashtirilishini cheklaydi. Ikkinchidan, o‘n ikki haftalik formativ bosqich uzoq muddatli ta’sirni to‘liq baholash uchun yetarli emas, zero yozma nutq kompetensiyasi yillar davomida shakllanadigan murakkab ko‘nikma hisoblanadi. Uchinchidan, kompyuter texnologiyalaridan foydalanish samaradorligi ko‘p jihatdan o‘qituvchining raqamli kompetensiyasiga va maktabning texnik infratuzilmasiga bog‘liq bo‘lib, bu omil O‘zbekistonning turli hududlarida notekis taqsimlangan, bu haqiqat Xayrullayeva tadqiqotida ham alohida ta’kidlangan muammo hisoblanadi [8]. Shunga qaramay, olingan natijalar kompyuter texnologiyalarining boshlang‘ich sinf yozma nutqini rivojlantirishdagi salohiyatini yetarlicha ishonchli tarzda namoyon etadi va ushbu yo‘nalishdagi keyingi, kengroq ko‘lamli tadqiqotlar uchun mustahkam asos yaratadi.

Ushbu tadqiqot doirasida o‘tkazilgan nazariy tahlil va pedagogik tajriba natijalari boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ingliz tilidagi yozma nutq kompetensiyasini kompyuter texnologiyalari asosida rivojlantirish yuqori metodik salohiyatga ega ekanligini ishonchli tarzda tasdiqladi. “Guess What!” 2–4-sinf darsliklarining raqamli resurslari bilan boyitilgan holda tashkil etilgan yozma nutq mashg‘ulotlari o‘quvchilarning matn tuzish sifatini, xususan mazmuniy izchillik, lug‘aviy boylik va imlo saviyasi bo‘yicha ko‘rsatkichlarini nazorat guruhiga nisbatan sezilarli darajada yuqori darajada oshirdi. Bundan tashqari, kompyuter texnologiyalari o‘quvchilarning yozish faoliyatiga bo‘lgan qiziqishi va faol jalb etilganlik darajasini oshirishda ham muhim vosita ekanligi aniqlandi, bu esa yozma nutqni uzoq muddatli va barqaror rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan ichki motivatsiyani shakllantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari asosida amaliyotchi o‘qituvchilar va metodistlar uchun quyidagi tavsiyalarni ilgari surish mumkin: yozma nutqni rivojlantirish mashg‘ulotlarini tashkil etishda kompyuter texnologiyalarini alohida, tasodifiy vosita sifatida emas, balki tizimli metodik reja doirasida, aniq maqsad va vazifalarga bog‘liq holda qo‘llash zarur; “Guess What!” darsligining raqamli resurslaridan foydalanishda ularni darslikning bosma qismidagi mavzular bilan uyg‘unlashtirgan holda, ketma-ket va izchil tarzda joriy etish maqsadga muvofiqdir; grammatik to‘g‘rilikni oshirish uchun kompyuter texnologiyalarini an’anaviy tushuntirish va mashq qildirish usullari bilan uyg‘unlikda qo‘llash lozim; shuningdek, o‘qituvchilarning raqamli kompetensiyasini oshirishga qaratilgan maxsus malaka oshirish kurslarini tashkil etish zarurati mavjud. Kelgusi tadqiqotlarda ushbu yo‘nalishni kengroq geografik hudud va uzoqroq vaqt oralig‘ida, shuningdek turli darslik va raqamli platformalarni qiyosiy tahlil qilish orqali davom ettirish tavsiya etiladi, bu esa boshlang‘ich ta’limda yozma nutqni kompyuter texnologiyalari asosida rivojlantirishning umumiy nazariy-metodik tizimini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Abdullayeva, M. (2024). Opportunities of "Guess What!" coursebook in developing students' lexical competence in the English language in grades 1–2. Xorijiy lingvistika va lingvodidaktika, 2(5), 36–45. https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol2-iss5-pp36-45
2. Cameron, L. (2001). Teaching languages to young learners. Cambridge University Press. https://doi.org/10.1017/CBO9780511733109
3. Graham, S., & Perin, D. (2007). Writing next: Effective strategies to improve writing of adolescents in middle and high schools. Alliance for Excellent Education.
4. MacArthur, C. A. (1996). Using technology to enhance the writing processes of students with learning disabilities. Journal of Learning Disabilities, 29(4), 344–354.
5. Warschauer, M. (1996). Computer assisted language learning: An introduction. In S. Fotos (Ed.), Multimedia language teaching (pp. 3–20). Logos International.
6. Salom, S. N. (2023). An investigation on the efficacy of computer-assisted language learning in enhancing writing comprehension: A case study of Westside High School in Swakopmund [Master's thesis, Namibia University of Science and Technology]. NUST Institutional Repository. https://ir.nust.na/handle/10628/984
7. Reed, S., Bentley, K., & Koustaff, L. (2016). Guess What! Level 4 pupil's book (British English ed.). Cambridge University Press.
8. Xayrullayeva, N. K. (2025). Ta'limda axborot texnologiyalari va uning hozirgi kundagi dolzarbligi. Oriental Language and Culture, 5(27), 48–55. https://doi.org/10.24412/2181-1784-2025-27-48-55
9. Axmedova, U. Y. (2024). Boshlang'ich ta'limda axborot kommunikatsion texnologiyalari. NamDU ilmiy axborotnomasi, 2024(11).
10. Olimova, D. B. (2021). Boshlang'ich sinflarda samarali bilim berish maqsadida zamonaviy axborot texnologiyalari vositalaridan foydalanib darsni tashkil etish. Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences, 1(10), 262–266.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6079-son Farmoni.
12. Cochran-Smith, M. (1991). Word processing and writing in elementary classrooms: A critical review of related literature. Review of Educational Research, 61(1), 107–155. https://doi.org/10.3102/00346543061001107

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

TALABALARNING ILMIY-TAHLILIY KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHNING METODIK ASOSLARI.

Xalilov Sarvar Samadovich, Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti.

Annotatsiya

KIRISH: mazkur maqolada oliy ta'lim jarayonida talabalarning tabiiy-ilmiy savodxonligini rivojlantirishning nazariy-metodik asoslari fizika fani misolida tizimlashtirildi. Tabiiy-ilmiy savodxonlikning ilmiy bilimlardan foydalanish, dalillarni tahlil qilish, muammolarni ilmiy asosda hal etish, tanqidiy fikrlash va qaror qabul qilish kabi tarkibiy qismlari o'zaro bog'liq kompetensiyalar tizimi sifatida talqin qilindi. Fizika ta'limining real hayotiy vaziyatlar, tajriba, muammoli topshiriqlar va raqamli vositalar bilan integratsiyasi asosida metodik model taklif etildi. Muammoli ta'lim, freym texnologiyasi, PISA tipidagi topshiriqlar, STEAM yondashuvi hamda virtual laboratoriyalardan foydalanishning didaktik imkoniyatlari ochib berildi. Maqolada metodik sxema, dars ishlanmasi, diagnostik-korreksion sikl, kompetensiyalar o'zaro bog'liqligi va metod–kompetensiya matritsasi ko'rinishidagi vizual materiallar keltirildi. Mazkur yondashuv fizik bilimlarni real vaziyatlarda qo'llashga yo'naltirilgan ta'limni tashkil etish uchun metodik asos bo'lib xizmat qiladi.

MAQSAD: oliy ta'limda fizika fanini o'qitish jarayonida talabalarning ilmiy-tahliliy kompetensiyalarini va tabiiy-ilmiy savodxonligini rivojlantirishga xizmat qiluvchi metodik yondashuvlar hamda ko'p blokli amaliy modelni nazariy-metodik jihatdan asoslab berishdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda kompetensiyaviy, shaxsga yo'naltirilgan, faoliyatli va integrativ yondashuvlar, muammoli ta'lim, freym texnologiyasi, PISA tipidagi topshiriqlar, STEAM va raqamli/virtual laboratoriya vositalari, shuningdek metod–kompetensiya matritsasi hamda diagnostika-korreksiya sikliga asoslangan pedagogik modellashtirish usullari qo'llanildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: Ilmiy-tahliliy kompetensiyaning tarkibiy qismlari (ilmiy bilim, tadqiqot usullari, dalillar tahlili, muammoni hal etish, tanqidiy fikrlash, qaror qabul qilish) o'zaro bog'liq tizim sifatida asoslandi, 7 ta blokdan iborat metodik model, 4 bosqichli sikl (diagnostik, motivatsion, faoliyatli, refleksiv) hamda 5 mezonli baholash tizimi va dars ishlanmasi namunalari ishlab chiqildi.

XULOSA: taklif etilgan metodik model fizika bo'yicha nazariy bilimlarni amaliy faoliyat va real hayotiy muammolar bilan samarali integratsiyalashga, talabalarning mustaqil tahliliy tafakkuri va ilmiy dunyoqarashini tizimli shakllantirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: tabiiy-ilmiy savodxonlik, fizika ta'limi, kompetensiyaviy yondashuv, PISA, STEAM, freym texnologiyasi, ilmiy tafakkur, muammoli ta'lim, virtual laboratoriya, raqamli ta'lim.

© intereduglobalstudy.com

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

МЕТОДИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ НАУЧНО-АНАЛИТИЧЕСКИХ КОМПЕТЕНЦИЙ СТУДЕНТОВ.

Халилов Сарвар Самадович, Ташкентский университет информационных технологий имени Мухаммада аль-Хорезми.

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в данной статье систематизированы теоретико-методические основы развития естественно-научной грамотности студентов в процессе высшего образования на примере преподавания физики. Естественно-научная грамотность рассматривается как система взаимосвязанных компетенций, включающая использование научных знаний, анализ доказательств, решение проблем на научной основе, критическое мышление и принятие решений. Предложена методическая модель, основанная на интеграции физического образования с реальными жизненными ситуациями, экспериментальной деятельностью, проблемными заданиями и цифровыми средствами обучения. Раскрыты дидактические возможности проблемного обучения, фрейм-технологии, заданий типа PISA, STEAM-подхода и виртуальных лабораторий. В статье представлены визуальные материалы в виде методической схемы, разработки занятия, диагностико-коррекционного цикла, взаимосвязи компетенций и матрицы «метод–компетенция». Предлагаемый подход может служить методической основой организации обучения, ориентированного на применение физических знаний в реальных жизненных ситуациях.

ЦЕЛЬ: теоретико-методическое обоснование методических подходов и многоблочной практической модели развития научно-аналитических компетенций и естественно-научной грамотности студентов при обучении физике в высшей школе.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании использованы компетентностный, личностно-ориентированный, деятельностный и интегративный подходы, проблемное обучение, фрейм-технология, задания типа PISA, STEAM-подход, виртуальные лаборатории, а также методы педагогического моделирования на основе матрицы «метод–компетенция» и диагностико-коррекционного цикла.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: обоснованы структурные компоненты научно-аналитической компетенции (научные знания, методы исследования, анализ доказательств, решение проблем, критическое мышление, принятие решений), разработана 7-блочная методическая модель, 4-этапный цикл (диагностический, мотивационный, деятельностный, рефлексивный), 5-критериальная система оценивания и образцы разработок занятий.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: предложенная методическая модель обеспечивает эффективную интеграцию теоретических знаний по физике с практической деятельностью и реальными проблемами, способствуя системному формированию аналитического мышления и научного мировоззрения студентов.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

Ключевые слова: естественно-научная грамотность, обучение физике, компетентностный подход, PISA, STEAM, фрейм-технология, научное мышление, проблемное обучение, виртуальная лаборатория, цифровое образование.

METHODOLOGICAL FOUNDATIONS FOR DEVELOPING STUDENTS' SCIENTIFIC AND ANALYTICAL COMPETENCIES.

Khalilov Sarvar Samadovich, Tashkent University of Information Technologies named after Muhammad al-Khwarizmi.

Annotation

INTRODUCTION: this article systematizes the theoretical and methodological foundations for developing students' scientific literacy in higher education, with a particular focus on physics education. Scientific literacy is interpreted as a system of interrelated competencies, including the use of scientific knowledge, analysis of evidence, science-based problem solving, critical thinking, and decision-making. A methodological model is proposed based on the integration of physics education with real-life situations, experimental activities, problem-based tasks, and digital learning tools. The didactic potential of problem-based learning, frame technology, PISA-type tasks, the STEAM approach, and virtual laboratories is examined. The article presents visual materials in the form of a methodological scheme, lesson plan, diagnostic-correction cycle, interrelationship of competencies, and a method–competency matrix. The proposed approach can serve as a methodological framework for organizing education aimed at applying physics knowledge to real-life situations.

AIM: to provide a theoretical and methodological framework for pedagogical approaches and a multi-block practical model designed to develop students' scientific-analytical competencies and scientific literacy in higher education physics courses.

MATERIALS AND METHODS: the study employed competency-based, student-centered, activity-based, and integrative approaches, alongside problem-based learning, frame technology, PISA-type tasks, STEAM, virtual laboratories, and pedagogical modeling utilizing a method–competency matrix and a diagnostic-correction cycle.

DISCUSSION AND RESULTS: the interconnected components of scientific-analytical competence (scientific knowledge, research methods, evidence analysis, problem-solving, critical thinking, decision-making) were operationalized, leading to the design of a 7-block methodological model, a 4-stage cycle (diagnostic, motivational, operational, reflective), a 5-criterion assessment framework, and sample lesson plans.

CONCLUSION: the proposed methodological model effectively integrates theoretical physics concepts with practical, real-world contexts, providing a robust foundation for systematically fostering independent analytical thinking and a scientific worldview in students.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

Keywords: scientific literacy, physics education, competency-based approach, PISA, STEAM, frame technology, scientific thinking, problem-based learning, virtual laboratory, digital education.

Globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida oliy ta’lim oldida turgan muhim vazifalardan biri talabaning faqat tayyor bilimlarni o‘zlashtirishi emas, balki ularni yangi va real vaziyatlarda qo‘llay olishini ta’minlashdir. Shu nuqtayi nazardan tabiiy-ilmiy savodxonlik zamonaviy ta’lim sifatini tavsiflovchi muhim kompetensiyalardan biridir. U tabiiy fanlarga oid bilimlarni anglash, ilmiy dalillar bilan ishlash, hodisa va jarayonlarni izohlash, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish hamda asoslangan xulosa chiqarish qobiliyatlarini qamrab oladi.

Fizika fani mazkur kompetensiyani rivojlantirish uchun katta didaktik imkoniyatga ega. Chunki fizik hodisalar kuzatish, tajriba, o‘lchash, matematik modellashtirish va sabab–oqibat munosabatlarini aniqlash orqali o‘rganiladi. Demak, fizik qonunlarni yodlash bilan cheklanmay, ularni kundalik hayot, texnika, energetika, ekologiya va axborot texnologiyalari bilan bog‘lash talabaning ilmiy tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Maqolaning maqsadi — fizika fanini o‘qitish jarayonida talabalarning ilmiy-tahliliy kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi metodik yondashuvlarni aniqlash, ularning o‘zaro bog‘liqligini ko‘rsatish va dars jarayonida qo‘llash uchun amaliy modelni taklif etish.

Tabiiy-ilmiy savodxonlik muammosi xalqaro va mahalliy pedagogik tadqiqotlarda keng yoritilgan. PISA konsepsiyasida ilmiy bilimlarni real kontekstlarda qo‘llash, hodisalarni ilmiy izohlash, dalillar va ma’lumotlardan foydalanish kabi faoliyatlar alohida ahamiyatga ega. J. Bybee [1], D. Roberts [2], R. Millar [3], hamda P. Fensham [4] kabi olimlarning ishlari tabiiy-ilmiy savodxonlikni ilmiy bilim bilan amaliy faoliyatning uzviy birligi sifatida ko‘rib chiqishga asos yaratgan.

Mahalliy tadqiqotlarda N. Muslimov [5], U. Tolipov [6], A. Abduqodirov [7], R. Ishmuhamedov va boshqa olimlar kompetensiyaviy yondashuv, zamonaviy pedagogik texnologiyalar hamda ta’lim samaradorligini oshirish masalalarini tadqiq etganlar. Muallifning avvalgi ishlarida fizika ta’limida freym modelidan, masofaviy ta’lim va virtual laboratoriyalardan foydalanish masalalari yoritilgan [9-11].

Shu bilan birga, tabiiy-ilmiy savodxonlikni aynan oliy ta’lim fizika kursi doirasida diagnostika–motivatsiya–faoliyat–refleksiya sikli bilan bog‘laydigan metodik tizimni yanada aniqlashtirish zarur.


Tadqiqotning metodik asosini kompetensiyaviy, shaxsga yo‘naltirilgan, faoliyatga asoslangan va integrativ yondashuvlar tashkil etadi. Metodik tizimda talabaning boshlang‘ich tayyorgarligini aniqlash, real muammoli vaziyat yaratish, faol tajriba va tahlilni tashkil etish, yakuniy refleksiya hamda keyingi korreksiyani rejalashtirish ketma-ketligi nazarda tutiladi.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

Metodik modelning asosiy bloklari quyidagilardan iborat: maqsadli blok; metodologik blok; mazmuniy blok; texnologik blok; jarayonli blok; baholash bloki va natijaviy blok (1-rasmga qarang). Mazkur bloklar o‘zaro bog‘langan holda ta’lim natijasini shakllantiradi.



1-rasm. Talabalarning ilmiy-tahliliy kompetensiyalarini rivojlantirish metodik sxemasi.

Ilmiy-tahliliy kompetensiya bir nechta o‘zaro bog‘langan tarkibiy qismlardan tashkil topadi: fizik bilimlarni anglash, ma’lumot va dalillarni tahlil qilish, fizik modeldan foydalanish, muammoni hal etish, tanqidiy fikrlash hamda asoslangan xulosa chiqarish. Mazkur komponentlar ketma-ket emas, balki o‘zaro ta’sir qiluvchi yagona faoliyat tizimi sifatida rivojlantirilishi lozim.

Fizika ta’limining muhim afzalligi shundaki, unda nazariy bilimni kuzatish, tajriba, o‘lchash va matematik tahlil bilan bog‘lash imkoniyati mavjud. Shu sababli darslarda talabaga tayyor formulani berishdan ko‘ra, hodisani kuzatish, muammoni aniqlash, zarur kattaliklarni tanlash va natijani izohlashga yo‘naltirilgan topshiriqlardan foydalanish maqsadga muvofiq.

Energiya tejamkorligi, qayta tiklanuvchi energiya manbalari, ekologik muammolar, transport xavfsizligi va zamonaviy texnologiyalar bilan bog‘liq masalalar esa fizik bilimning ijtimoiy va amaliy ahamiyatini ochib beradi (1-jadvalga qarang). Bunday vaziyatlarda talaba tayyor formulani tanlashdan oldin muammoni aniqlaydi, zarur ma’lumotni ajratadi, fizik model tuzadi va natijani izohlaydi.


© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

1-jadval. Ilmiy-tahliliy kompetensiyaning asosiy komponentlari va ularning darsdagi ko‘rinishi.

Komponent	Mazmuni	Fizika darsidagi ko‘rinishi
Ilmiy bilimlar	Qonun, tushuncha, formula va modelni anglash	Fizik qonuniyatni izohlash
Tadqiqot usullari	Kuzatish, tajriba, o‘lchash va modellashtirish	Laboratoriya yoki virtual tajriba
Dalillarni tahlil qilish	Jadval, grafik va natijalarni sharhlash	O‘lchash natijalaridan xulosa chiqarish
Muammo yechish	Real vaziyatga fizik yechim topish	Texnik yoki kundalik muammoni tahlil qilish
Tanqidiy fikrlash	Farazni tekshirish va muqobil izohlarni baholash	“Nima uchun?” va “Agar...” savollari
Qaror qabul qilish	Dalillarga tayangan holda asoslangan tanlov	Energiya yoki texnologik yechimni tanlash

Muammoli ta’limda “Nima sababdan qushlar elektr simiga qo‘nganda tok urmaydi?” kabi savollar talabaning mavjud bilimlarini faollashtiradi. PISA tipidagi topshiriqlar esa real hayotiy kontekst asosida hodisani tushuntirish, dalilni baholash va xulosa chiqarishga yo‘naltiriladi (2-rasmga qarang). Freym texnologiyasi fizik tushunchalarni tizimli bog‘lashga, STEAM yondashuvi esa fan, texnologiya, muhandislik, san’at va matematika elementlarini integratsiyalashga imkon beradi (2-jadvalga qarang).




2-rasm. Ilmiy-tahliliy kompetensiyaning tarkibiy komponentlari va ularning o‘zaro bog‘liqligi.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

2-jadval. Ilmiy-tahliliy kompetensiyani rivojlantirishda pedagogik texnologiyalarning vazifalari.

Texnologiya	Asosiy vazifa	Namunaviy faoliyat	Kutiladigan kompetensiya
Muammoli ta’lim	Muammoli vaziyat yaratish	“Nima uchun?” savoli asosida izlanish	Tahlil va muammo yechish
Freym texnologiyasi	Bilimlarni tizimlashtirish	Tushuncha va sabab–oqibatlarni sxemalash	Mantiqiy fikrlash
PISA tipidagi topshiriqlar	Real kontekstda bilimni qo‘llash	Elektr simlarining haroratga bog‘liq o‘zgarishini izohlash	Amaliy qo‘llash va dalillash
STEAM	Fanlararo integratsiya	Energiya samaradorligi bo‘yicha mini-loyiha	Ijodiy va tizimli fikrlash
Raqamli/virtual vositalar	Tajriba va modellashtirish	Virtual laboratoriya va simulyatsiya	Tadqiqotchilik



3-rasm. Pedagogik texnologiyalarning ilmiy-tahliliy kompetensiyalarni rivojlantirishdagi funksional yo‘nalishi.

Taklif etilayotgan metodik sikl to‘rt asosiy bosqichdan tashkil topadi: diagnostik, motivatsion, faoliyatga yo‘naltirilgan va refleksiv bosqich. Diagnostik bosqichda talabaning boshlang‘ich bilimlari, qiziqishlari va tayyorgarligi aniqlanadi. Motivatsion bosqichda real hayotiy muammo asosida bilishga ehtiyoj hosil qilinadi. Faoliyat bosqichida tajriba, muammoli topshiriq, PISA tipidagi vazifa, loyiha yoki raqamli simulyatsiya bajariladi (3-

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

rasmga qarang). Refleksiv bosqichda talaba o‘z faoliyatini baholaydi, xatolarni aniqlaydi va keyingi o‘quv harakatlarini rejalashtiradi.

3-jadval. Ilmiy-tahliliy kompetensiyani baholash mezonlari.

Mezon	Yuqori daraja	Boshlang‘ich daraja
Bilim	Fizik tushuncha va qonunni to‘g‘ri izohlaydi	Ta’rifni eslaydi, ammo mazmunini izohlashda qiynaladi
Tahlil	Ma’lumot va dalillarni taqqoslab xulosa chiqaradi	Ma’lumotni qayta aytadi, tahlil yetarli emas
Kompetensiya	Bilimni yangi real vaziyatga mustaqil ko‘chiradi	Faqat tanish tipdagi masalani yecha oladi
Tadqiqotchilik	Tajriba rejasini tuzadi va natijani sharhlaydi	Tajriba bosqichlarini ko‘rsatma asosida bajaradi
Mantiqiy fikrlash	Sabab–oqibatni asoslaydi va muqobil yechimni baholaydi	Xulosani dalil bilan asoslashda qiynaladi

Darsning mazmuni tabiiy-ilmiy savodxonlikni rivojlantirishga yo‘naltirilganda dars tuzilmasi ham bilimni yodlashdan ko‘ra, uni faol qo‘llashga moslashtiriladi. Taqdim etilgan dastlabki materialdagi dars ishlanmasida tashkiliy qism, o‘tilgan mavzuni mustahkamlash, yangi mavzuni bayon qilish, guruhli ish, baholash va uyga vazifa bosqichlari ajratilgan (3-jadvalga qarang).

Baholashda faqat to‘g‘ri javobni aniqlash emas, balki talabaning muammoni tushunishi, dalildan foydalanishi, fizik modelni tanlashi va xulosani asoslay olishi ham hisobga olinishi kerak. Quyidagi mezonlar metodik baholash uchun tavsiya etiladi. Tizimlashtirilgan metodik yondashuv shuni ko‘rsatadiki, talabaning ilmiy-tahliliy kompetensiyasi faqat nazariy bilimni ko‘paytirish orqali emas, balki bilimni faoliyatga aylantirish orqali rivojlanadi. Muammoli vaziyat, tajriba natijasi, grafik yoki jadvalni tahlil qilish va mustaqil xulosa chiqarish bir darsning o‘zida uyg‘unlashtirilganda o‘quv faoliyatining tahliliy yo‘nalishi kuchayadi.

Hayotiy vaziyatlarga asoslangan fizik topshiriqlar

1-topshiriq. Elektr uzatish liniyalari


Yoz oylarida elektr simlari osilibroq, qishda esa tarangroq holatga keladi. Hodisani moddaning harorat ta’siridagi o‘zgarishi va issiqlik kengayishi nuqtayi nazaridan izohlang. Javobingizda sabab–oqibat bog‘lanishini ko‘rsating.

2-topshiriq. Arximed qonuni

Nima sababdan po‘latdan tayyorlangan katta kema suv yuzida suzadi, kichik po‘lat buyum esa suvga botishi mumkin? Javobda suyuqlikning ko‘tarish kuchi va o‘rtacha zichlik tushunchalaridan foydalaning (4-rasmga qarang).

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9



DARS ISHLANMASI

MAVZU: TALABALARDA TABIIY-ILMIY SAVODXONLIKNI RIVOJLANTIRISH METODOLOGIYASI (FIZIKA FANI MISOLIDA)

DARS MAQSADI

Ta'limiy:
Talabalarda tabiiy-ilmiy savodxonlik tushunchasi, uning tarkibiy qismlari hamda fizika fanini o'qitishda rivojlantirish metodologiyasi haqida bilim berish.

Tarbiyaviy:
Talabalarda ilmiy dunyoqarash, ekologik madaniyat, mas'uliyatlilik, mantiqiy fikrlashni tarbiyalash.

Rivojlantiruvchi:
Muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, tajriba natijalarini izohlash, hayotiy misollar orqali fizik hodisalarni tushuntirish ko'nikmalarini rivojlantirish.

DARS TURI

Yangi bilim beruvchi, interfaol-amaliy dars

DARS METODI

- Muammoli ta'lim
- Aqliy hujum
- Klaster, Freym
- Keys-stadi
- Debat
- Guruhlarda ishlash
- Savol-javob

DARS JIHOZLARI

- Multimedia taqdimoti
- Kompyuter, proyektor
- Fizik tajriba jihozlari
- Tarqatma materiallar
- PISA tipidagi topshiriqlar

DARS DAVOMIYLIGI

80 daqiqa

KUTILAYOTGAN NATIJALAR

Talaba:
- tabiiy-ilmiy savodxonlikni tushuntira oladi;
- fizik bilimlarni hayotda qo'llay oladi;
- muammoli vaziyatni tahlil qiladi;
- PISA tipidagi topshiriqlarni yecha oladi;
- tajriba natijalarini izohlaydi;
- tanqidiy va mantiqiy fikr yuritadi.

DARSNING BORISHI

1 TASHKILIY QISM — 5 daqiqa
- Salomlashish, davomatni aniqlash
- Talabalarni darsga tayyorlash
- Psixologik muhit yaratish

Motivatsion savol:
"Nima sababdan bir xil haroratda metall qoshiq yog'och qoshiqdan sovuqroq tuyuladi?" ?

2 O'TILGAN MAVZUNI MUSTAHKAMLASH — 10 daqiqa
1. Tabiiy-ilmiy savodxonlik deganda nimani tushunasiz?
2. Fizika fanining kundalik hayotdagi ahamiyati nimada?
3. Kompetensiyaviy yondashuv nima?
4. PISA tadqiqotlari qanday ko'nikmalarni baholaydi?

3 YANGI MAVZU BAYONI — 35 daqiqa
1. Tabiiy-ilmiy savodxonlik tushunchasi
2. Fizika fanida tabiiy-ilmiy savodxonlikning o'rni
3. Tabiiy-ilmiy savodxonlikni rivojlantirish metodlari
4. PISA topshiriqlari asosida fizik kompetensiyalarni shakllantirish

Asosiy formula:

$$E_k = \frac{mv^2}{2}$$

$$I = \frac{U}{R}$$

MUAMMOLI VAZIYAT MISOLLARI

Avtomobil to'qnashuvi
1. Qaysi avtomobilning xavfi yuqoriroq? Nima uchun?
2. Tormoz masofasi nimaga bog'liq?
3. Tezlik bir xil bo'lsa, energiya ham bir xil bo'ladimi?

Elektr simlari
1. Yozda simlar osilib, qishda taranglashadi. Nima uchun?
2. Agar yozda tortib qo'yilsa, qishda nima yuz beradi?
3. Muhandislar ob-havo omilini nima uchun hisobga oladi?

Metall qoshiq sovuqligi
Metall tezroq sovuq tuyuladi. Nima sababdan?
2. "Sovuq" predmetning o'z xususiyatiymi yoki inson sezgisi?
3. Issiqlik almashinuvi bo'lmaganida Yerda hayot bo'larmidi?

Samolyotning uchishi
1. Samolyot havodan og'ir bo'lsa ham uchadi. Qanday fizik hodisa bunga sabab?
2. Lift kuchi qanday hosil bo'ladi?
3. Agar havo qarshiligi bo'lmaganida-chi?

4 MUSTAHKAMLASH (GURUHLI ISH) — 15 daqiqa

1-guruh: Tabiiy-ilmiy savodxonlikning tarkibiy qismlarini klaster shaklida ifodalaydi.

2-guruh: Fizika fanining kundalik hayotdagi ahamiyatiga 5 ta misol keltiradi.

3-guruh: PISA tipidagi fizik topshiriq ishlab chiqadi va yechimini asoslaydi.

5 BAHOLASH — 10 daqiqa

Baholash mezonlari	
Mezonlar	Ball
Faollik, ishtirok	2
Muammoli vaziyatni tahlil qilish	2
Topshiriqni to'g'ri bajarish	2
Ilmiy xulosa chiqarish	2
Guruhdagi hamkorlik	2
Jami	10

Tahliliy-mantiqiy savollar
1. Agar Yerda ishqalanish bo'lmaganida, hayot qanday bo'lardi?
2. Nima uchun qushlar elektr simida o'tirganda tok urmaydi?
3. Kosmosda ovoz nima sababdan eshitilmaydi?
4. Nima uchun kemalar cho'kib ketmaydi?
5. Texnologik taraqqiyot insoniyat uchun foydalimi yoki xavfli?
6. Sun'iy intellekt fizikani o'qituvchining o'rnini bosa oladimi?

UYGA VAZIFA — 5 daqiqa
1. "Tabiiy-ilmiy savodxonlik va zamonaviy ta'lim" mavzusida esse yozish.
2. Kundalik hayotda uchraydigan 5 ta fizik hodisani ilmiy izohlash.
3. PISA uslubida 3 ta fizik topshiriq tuzish va yechimini asoslash.

FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR

1. Fizika o'qitish metodikasi.
2. PISA xalqaro baholash dasturi materiallari.
3. Kompetensiyaviy yondashuv asosidagi pedagogik texnologiyalar.
4. Interfaol ta'lim metodlari to'plami.
5. STEAM ta'lim texnologiyalari bo'yicha manbalar.

XULOSA

Fizika fanini zamonaviy metodlar asosida o'qitish talabalarda tabiiy-ilmiy savodxonlikni rivojlantirishning muhim omilidir. Bu esa ularni hayotga tayyor, ilmiy tafakkurga ega, mustaqil shaxs sifatida shakllantiradi.

4-rasm. Ilmiy-tahliliy kompetensiyaga yo'naltirilgan namunaviy dars ishlanmasi.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

3-topshiriq. Energiya samaradorligi

Ikki xil maishiy qurilmaning quvvat va ishlash vaqti berilgan deb faraz qiling. Qaysi qurilma kamroq elektr energiyasi sarflashini aniqlash uchun qanday fizik kattaliklar va hisoblash ketma-ketligidan foydalanasiz? Metodik modelning muhim jihati — baholashni o‘quv jarayonidan ajratmaslikdir. Diagnostik topshiriq keyingi faoliyatni rejalashtirishga xizmat qiladi, faoliyat natijalari esa refleksiya va korreksiyani belgilaydi. Shu sababli baholash yakuniy ball qo‘yish vositasi emas, balki o‘qitishni boshqarish mexanizmi sifatida qaraladi.

Fizika ta’limida talabalarning ilmiy-tahliliy kompetensiyalarini rivojlantirish zamonaviy ta’limning muhim yo‘nalishlaridan biridir. Mazkur kompetensiya fizik bilimni egallash bilan cheklanmay, ma’lumotni tahlil qilish, dalillarni baholash, fizik model tuzish, muammoni hal etish va xulosani asoslash kabi faoliyatlarni ham qamrab oladi. Muammoli ta’lim, freym texnologiyasi, PISA tipidagi topshiriqlar, STEAM va raqamli/virtual vositalardan maqsadli foydalanish talabaning mustaqil fikrlashi va tahliliy faoliyatini kuchaytirishi mumkin. Taklif etilgan metodik modelda diagnostika, muammoli vaziyat, amaliy faoliyat, tahlil va refleksiya o‘zaro bog‘langan.

Kelgusida mazkur modelni tajriba-sinov guruhlarida qo‘llash, boshlang‘ich va yakuniy ko‘rsatkichlarni statistik jihatdan taqqoslash hamda talabalarning ilmiy-tahliliy kompetensiyasi rivojlanish dinamikasini miqdoriy mezonlar asosida aniqlash maqsadga muvofiq.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Bybee, R. W. (2014). The BSCS 5E Instructional Model: Creating Teachable Moments. NSTA Press, Arlington, VA, 142 p.
2. Roberts, D. A., & Bybee, R. W. (2014). Scientific Literacy, Science Education, and the Science Curriculum for Public Use. In Handbook of Research on Science Education (Vol. II, pp. 545–558). Routledge, New York.
3. Millar, R. (2006). Twenty First Century Science: Insights from the design and implementation of a scientific literacy approach in school science. International Journal of Science Education, 28(13), 1499–1521.
4. Fensham, P. J. (2009). Real world contexts in PISA science: Implications for context-based science education. Journal of Research in Science Teaching, 46(8), 884–896.
5. Muslimov, N. A., Usmonboyeva, M. H., Sayfurov, D. M., & To‘rayev, A. B. (2015). Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari. Toshkent: Sano-standart, 120 b.
6. Tolipov, O‘. Q., & Usmonboyeva, M. (2005). Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. Toshkent: Fan, 260 b.
7. Abduqodirov, A. A., & Toshtemirov, D. E. (2019). Ta’limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari. Toshkent: O‘qituvchi, 208 b.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

8. Ishmuhamedov, R., & Yuldashev, M. (2013). Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. Toshkent: Nihol, 279 b.
9. Xalilov, S. S. (2023). Organization of virtual laboratory learning with using the frame model. Science and Innovation, 2(3), 567–573.
10. Xalilov, S. S. (2024). Using the frame model to assess distance education students in physics. Science and Innovation, 3(5), 276–280.
11. Xalilov, S. S., & Suyarov, K. T. (2025). Virtual laboratory works in physics in distance education based on the frame model. Utilitas Mathematica, 122, 434–444.

© intereduglobalstudy.com

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

QADRIYATLI KEYS TEXNOLOGIYASI ASOSIDA “BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA TARBIYA FANI” MASHG‘ULOTLARINI LOYIHALASH METODIKASI.

Egamberdiyeva Lobarxon Olimjonovna, FarDU mustaqil tadqiqotchisi.
ORCID: 0009-0006-4706-0598
lobarxon22@gmail.com

Annotatsiya

KIRISH: maqolada bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarida umuminsoniy qadriyatlarni rivojlantirishda qadriyatli keys texnologiyasidan foydalanish metodikasi yoritiladi. Keys texnologiyasi talabaning tarbiyaviy vaziyatni tahlil qilish, qadriyatlar ziddiyatini aniqlash, pedagogik qaror ishlab chiqish va refleksiv xulosa chiqarish faoliyatini faollashtiradi. Maqolada keysning tuzilishi, uni dars bosqichlariga joylashtirish, savollar tizimi, baholash mezonlari va boshlang‘ich sinfga moslashtirish talablari ishlab chiqiladi. Tadqiqot natijalari qadriyatli keys tarbiya fanini amaliy-metodik yo‘nalishda o‘qitishning samarali vositasi ekanini ko‘rsatadi.

MAQSAD: bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida umuminsoniy va kasbiy qadriyatlarni shakllantirishga qaratilgan qadriyatli keys texnologiyasi asosida “Boshlang‘ich ta’limda tarbiya fani” mashg‘ulotlarini loyihalash metodikasini ilmiy-amaliy jihatdan ishlab chiqishdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda M. Rokeach va S. Schwartzning aksiologik nazariyalariga tayanilib, pedagogik vaziyatlarni modellashtirish, kontent-tahlil, aks ettiruvchi suhbat, ekspert baholash hamda metodik loyihalash usullari qo‘llanildi; keyslarning 5 qismli tuzilmasi va ularni darsda qo‘llashning 3 bosqichli metodik jarayoni ishlab chiqildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: qadriyatli keys texnologiyasining bo‘lajak o‘qituvchilarning axloqiy sezgirligini oshirish, pedagogik qaror qabul qilish hamda refleksiv fikrlashini faollashtirishdagi amaliy samaradorligi asoslandi; keyslarni baholashning 3 ta asosiy mezoni hamda ularni boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yosh va psixologik xususiyatlariga moslashtirish talablari aniqlandi.

XULOSA: qadriyatli keys texnologiyasi “Tarbiya fani” mashg‘ulotlarini nazariy ma’ruzalardan amaliy-metodik laboratoriya darajasiga olib chiqadi va bo‘lajak o‘qituvchilarning qadriyatli-pedagogik kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: qadriyatli keys, tarbiya fani, boshlang‘ich ta’lim, axloqiy tanlov, pedagogik qaror, metodik loyihalash, refleksiya.

МЕТОДИКА ПРОЕКТИРОВАНИЯ ЗАНЯТИЙ ПО ДИСЦИПЛИНЕ «ВОСПИТАНИЕ В НАЧАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ» НА ОСНОВЕ ТЕХНОЛОГИИ ЦЕННОСТНЫХ КЕЙСОВ.

Эгамбердиева Лобархон Олимжоновна, самостоятельный соискатель Ферганского государственного университета.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в статье раскрывается методика использования технологии ценностных кейсов в развитии общечеловеческих ценностей у будущих учителей начального образования. Данная технология активизирует анализ воспитательной ситуации, выявление конфликта ценностей, разработку педагогического решения и рефлексивный вывод. Представлены структура кейса, его включение в этапы занятия, система вопросов, критерии оценивания и требования к адаптации для начальной школы. Результаты исследования показывают, что ценностный кейс является эффективным средством практико-методического преподавания дисциплины воспитания.

ЦЕЛЬ: научно-практическая разработка методики проектирования занятий по дисциплине «Воспитание в начальном образовании» на основе технологии ценностных кейсов, направленной на развитие общечеловеческих и профессиональных ценностей у будущих педагогов.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании, опирающемся на аксиологические теории М. Рокича и Ш. Шварца, использованы методы моделирования педагогических ситуаций, контент-анализа, рефлексивной беседы, экспертного оценивания и методического проектирования; разработаны 5-компонентная структура кейса и 3-этапный методический процесс его реализации на занятиях.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: обоснована практическая эффективность технологии ценностных кейсов в повышении нравственной восприимчивости, принятии педагогических решений и активизации рефлексивного мышления студентов; определены 3 критерия оценивания кейсов и требования к их адаптации с учетом возрастно-психологических особенностей младших школьников.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: технология ценностных кейсов переводит преподавание дисциплины воспитания из формата теоретических лекций в практико-методическую лабораторию, способствуя развитию ценностно-педагогической компетенции будущих учителей.

Ключевые слова: ценностный кейс, воспитание, начальное образование, нравственный выбор, педагогическое решение, методическое проектирование, рефлексия.

METHODOLOGY FOR DESIGNING “EDUCATION IN PRIMARY EDUCATION” CLASSES BASED ON VALUE-ORIENTED CASE TECHNOLOGY.

Egamberdiyeva Lobarkhon Olimjonovna, Independent Researcher at Fergana State University.

Annotation

INTRODUCTION: the article describes the methodology of using value-oriented case technology to develop universal human values in future primary school teachers. Case

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

technology activates students' analysis of educational situations, identification of value conflicts, development of pedagogical decisions and reflective conclusions. The article presents the structure of a value case, its placement in class stages, a system of questions, assessment criteria and requirements for adaptation to primary school. The results show that value-oriented cases are an effective tool for practical and methodological teaching of the education course.

Kalit so‘zlar: qadriyatli keys, tarbiya fani, boshlang‘ich ta’lim, axloqiy tanlov, pedagogik qaror, metodik loyihalash, refleksiya.

AIM: to scientifically and practically develop a methodology for designing "Education in Primary Education" classes based on value-oriented case technology aimed at cultivating universal human and professional values in prospective teachers.

MATERIALS AND METHODS: drawing upon the axiological theories of M. Rokeach and S. Schwartz, the study utilized pedagogical situation modeling, content analysis, reflective dialogue, expert evaluation, and methodological design; a 5-component case structure and a 3-stage instructional implementation process were established.

DISCUSSION AND RESULTS: the practical efficacy of value-oriented case technology in enhancing students' moral sensitivity, pedagogical decision-making, and reflective thinking was established; 3 core evaluation criteria and guidelines for adapting cases to the socio-developmental characteristics of primary school children were formulated.

CONCLUSION: value-oriented case technology transforms the teaching of the education course from theoretical lectures into a practical-methodological laboratory, effectively developing future teachers' value-pedagogical competence.

Keywords: value-oriented case, education course, primary education, moral choice, pedagogical decision, methodological design, reflection.

Tarbiya fanini o‘qitishda eng muhim vazifalardan biri talabaning real pedagogik vaziyatni ko‘ra olishi va unga qadriyatga asoslangan yechim topa olishidir. An’anaviy tushuntirish usuli qadriyat mazmunini yetkazishga yordam bersa-da, u talabaning tarbiyaviy qaror qabul qilish tajribasini to‘liq shakllantirmaydi. Shu nuqtayi nazardan qadriyatli keys texnologiyasi bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarini amaliy tarbiyaviy faoliyatga tayyorlashda alohida ahamiyatga ega.

Qadriyatli keys deganda pedagogik vaziyat, ishtirokchilar, muammo, qadriyatlar ziddiyati va yechim variantlari aks etgan metodik topshiriq tushuniladi. Bunday keysda talaba nafaqat “kim haq?” degan savolga javob beradi, balki “o‘qituvchi qanday tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatishi kerak?”, “qaysi metod o‘quvchi yoshiga mos?” va “qaror qaysi qadriyatni himoya qiladi?” kabi savollarni ham tahlil qiladi.

“Tarbiya” fanining joriy etilishi [2] hamda boshlang‘ich ta’limda tarbiyaviy ishlarning kuchayishi bo‘lajak o‘qituvchilarni vaziyatli-metodik tayyorgarlikka ega qilishni talab etadi.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

Chunki boshlang‘ich sinfda o‘quvchilarning xulqi, muloqoti va o‘zaro munosabati tez-tez pedagogik izoh va tarbiyaviy yo‘naltirishni talab qiladi. Talaba bunday vaziyatlarga oldindan metodik tayyor bo‘lishi zarur.

Maqolaning maqsadi qadriyatli keys texnologiyasi asosida “Boshlang‘ich ta’limda tarbiya fani” mashg‘ulotlarini loyihalash metodikasini ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqotning yangiligi keysni umumiy muammo tahlili sifatida emas, balki qadriyat — vaziyat — metod — refleksiya tizimida tashkil etish bilan belgilanadi.

Keys texnologiyasi pedagogikada talabaning muammoli vaziyatni tahlil qilish, qaror qabul qilish va o‘z fikrini asoslash faoliyatini rivojlantiruvchi metod sifatida keng qo‘llanadi. Aksiologik talqinda esa keysning asosiy vazifasi qaror ortida turgan qadriyatni aniqlashdir. Bu yondashuv qadriyatlarni shaxs qarorlarining ichki mezoni sifatida ko‘rgan M. Rokeach nazariyasi bilan bog‘liq [7].

S. Schwartz qadriyatlarning motivatsion mazmunini izohlar ekan, shaxs xatti-harakati turli qadriyatlar o‘rtasidagi muvozanatga tayanishini ko‘rsatadi [8]. Tarbiyaviy keysda ham talaba ba’zan adolat va mehribonlik, talabchanlik va g‘amxo‘rlik, jamoa manfaatlari va individual ehtiyoj o‘rtasidagi muvozanatni topishi kerak bo‘ladi. Demak, keys texnologiyasi qadriyatlar ziddiyatini tahlil qilishga qulay metodik vositadir.

Tadqiqotda pedagogik vaziyatlarni modellashtirish, kontent-tahlil, aks ettiruvchi suhbat, ekspert baholash va metodik loyihalash usullari qo‘llandi. Kontent-tahlil yordamida tarbiya fani mavzularidan keys uchun mos muammoli vaziyatlar tanlandi. Modellashtirish metodi orqali boshlang‘ich sinf hayotiga xos vaziyatlar, masalan, do‘stlik, adolat, tartib, yordam, mas’uliyat va sinf jamoasidagi hamkorlik holatlari ishlab chiqildi.

Qadriyatli keysni ishlab chiqish uchun besh tarkibiy qism belgilandi: vaziyat tavsifi, ishtirokchilar pozitsiyasi, muammoning qadriyatli mazmuni, yechim variantlari va refleksiv savollar. Mazkur tuzilma talabaning fikrini voqea tafsilotidan pedagogik qarorga olib boradi. Keys juda uzun bo‘lmasligi, ammo unda qaror qabul qilish uchun yetarli ma’lumot bo‘lishi kerak.

Metodik jarayonda keys uch bosqichda qo‘llanadi. Birinchi bosqichda talaba vaziyatni individual o‘qiydi va muammoni aniqlaydi. Ikkinchi bosqichda kichik guruhda yechim variantlari muhokama qilinadi. Uchinchi bosqichda har bir guruh o‘qituvchi sifatidagi qarorini himoya qiladi va refleksiv xulosa beradi. Bu ketma-ketlik talabaning mustaqil fikrlashi bilan hamkorlikdagi tahlilini uyg‘unlashtiradi.

Tadqiqot natijasida qadriyatli keys texnologiyasining tarbiya fanidagi metodik vazifalari aniqlashtirildi. Birinchidan, keys talabaning axloqiy sezgirligini rivojlantiradi, chunki u vaziyatda kimning huquqi, ehtiyoji yoki hissiy holati e’tibordan chetda qolayotganini ko‘rishga o‘rgatadi. Ikkinchidan, keys pedagogik qaror qabul qilishni mashq qildiradi. Uchinchidan, keys talabaning refleksiv fikrlashini faollashtiradi.

Masalan, quyidagi keys tarbiya fani mashg‘ulotida qo‘llanishi mumkin: guruh ishida bir o‘quvchi faol qatnashmaydi, ammo yakuniy bahoda boshqa bolalar bilan teng natija olishni xohlaydi. Guruhdagi faol bolalar bundan norozi. Talaba o‘qituvchi sifatida adolat,

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

hamkorlik va mas'uliyat qadriyatlarini hisobga olib, vaziyatga yechim topishi kerak. Ushbu keys baholash, muloqot va tarbiyaviy ta'sirni birlashtiradi.

vaziyatni o'qish – kimlar ishtirok etmoqda, muammo qayerda va qaysi qadriyatlar to'qnashmoqda;

qadriyatni aniqlash – adolat, mas'uliyat, hamkorlik yoki insonparvarlikdan qaysi biri markazda turibdi;

metodik yechim ishlab chiqish – suhbat, rolli mashq, guruh qoidasi yoki refleksiv savol tanlanadi;

qarorni asoslash – tanlangan yechimning o'quvchi yoshiga mosligi va tarbiyaviy natijasi tushuntiriladi.

Qadriyatli keyslarni baholashda uch mezon tavsiya etiladi: muammoni to'g'ri aniqlash, yechimning qadriyatga mosligi va metodik asoslanganlik. Agar talaba vaziyatni faqat intizom buzilishi sifatida ko'rsa, uning tahlili yuzaki bo'ladi. Agar u vaziyatdagi hissiy, ijtimoiy va axloqiy omillarni ko'rsa, yechim yanada pedagogik xarakter kasb etadi.

Muhokama jarayonida keyslarni boshlang'ich sinfga moslashtirish masalasi muhim ekani aniqlandi. Talaba kattalar hayotidan olingan murakkab axloqiy dilemmalarni emas, balki bolalar tajribasiga yaqin vaziyatlarni tanlashi kerak: o'yinchoqni bo'lishish, navbat kutish, guruhda vazifa taqsimlash, sinfdoshini tinglash, xatoni tan olish, yordam so'rash yoki boshqaga ko'maklashish. Shunda qadriyat darsda hayotiy mazmun kasb etadi.

Keys texnologiyasining afzalligi shundaki, u talabaning nazariy bilimini darhol metodik faoliyatga ko'chiradi. Masalan, "insonparvarlik" mavzusini o'rganishda talaba ta'rifni yodlash bilan cheklanmaydi; u o'quvchi xatosiga qanday munosabat bildirish, rag'batlantirish va tanbeh o'rtasidagi muvozanatni qanday saqlash haqida qaror qabul qiladi. Bu jarayon tarbiyaviy mahoratni shakllantiradi.

Shu bilan birga, keys texnologiyasini qo'llashda ayrim metodik ehtiyotkorlik talab etiladi. Keys juda umumiy bo'lsa, talaba tayyor axloqiy shior bilan javob beradi; juda murakkab bo'lsa, vaziyat mohiyatini tushunish qiyinlashadi. Shuning uchun har bir keysda aniq sinf, yosh, ishtirokchi, muammo va kutiladigan tarbiyaviy natija ko'rsatilishi lozim.

Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, qadriyatli keys texnologiyasi "Tarbiya fani" mashg'ulotlarini nazariy ma'ruza shaklidan amaliy-metodik laboratoriya darajasiga olib chiqadi. Talaba bu jarayonda o'qituvchi roliga kiradi, qaror qabul qiladi, qarorini himoya qiladi va xulosasini qayta ko'rib chiqadi. Aynan shu jarayon bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchisining qadriyatli-pedagogik kompetensiyasini rivojlantiradi.

Qadriyatli keys texnologiyasi bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarida umuminsoniy qadriyatlarni rivojlantirishning samarali metodik vositasidir. U talabaning tarbiyaviy vaziyatni tahlil qilish, qadriyatlar ziddiyatini ko'rish, pedagogik qaror qabul qilish va refleksiv xulosa chiqarish ko'nikmalarini shakllantiradi.

Maqolada taklif etilgan keys tuzilmasi vaziyat tavsifi, ishtirokchilar pozitsiyasi, qadriyatli muammo, yechim variantlari va refleksiv savollar tarbiya fani mashg'ulotlarida

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

qo‘llash uchun qulay metodik asos hisoblanadi. Ayniqsa, boshlang‘ich sinfga mos vaziyatlar bankini yaratish mazkur texnologiyaning amaliy qiymatini oshiradi.

Kelgusida qadriyatli keyslar asosida elektron topshiriqlar platformasi, baholash rubrikalari va talabalar portfoliolarini shakllantirish tavsiya etiladi. Bu ishlar tarbiya metodikasini zamonaviy va interaktiv mazmun bilan boyitishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. O‘RQ-637-son, 2020 yil 23 sentabr.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 6 iyuldagi 422-son qarori “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida ‘Tarbiya’ fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentabrdagi PF-158-son Farmoni “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida.
4. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: O‘qituvchi, 1992.
5. Dewey J. Democracy and Education. – New York: Macmillan, 1916.
6. Vygotsky L. S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978.
7. Rokeach M. The Nature of Human Values. – New York: Free Press, 1973.
8. Schwartz S. H. An Overview of the Schwartz Theory of Basic Values. Online Readings in Psychology and Culture, 2012, 2(1).
9. Lickona T. Educating for Character: How Our Schools Can Teach Respect and Responsibility. – New York: Bantam Books, 1991.
10. UNESCO. Reimagining Our Futures Together: A New Social Contract for Education. – Paris: UNESCO, 2021.
11. OECD. OECD Learning Compass 2030: A Series of Concept Notes. – Paris: OECD, 2019.
12. Musurmonova O. Ma’naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2009.
13. Noddings N. Caring: A Relational Approach to Ethics and Moral Education. – Berkeley: University of California Press, 2013.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI BOLALARDA KITOBXONLIK XUSUSIYATINING YASHASH HUDUDI VA OILAVIY DAROMAD DARAJASIGA KO‘RA DIFFERENSIAL TAHLILI.

Soliyev Mirzoxid Tursunxo‘jayevich, Andijon viloyati pedagogik mahorat markazi Pedagogika va psixologiya, ta’lim texnologiyalari kafedrasi v. b. dotsenti.

Annotatsiya

KIRISH: mazkur maqolada kichik maktab yoshidagi bolalarda kitobxonlik xususiyatining yashash hududi va oilaviy daromad darajasiga ko‘ra tafovutlari empirik jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda 301 nafar boshlang‘ich sinf o‘quvchisi ishtirok etib, ularning kitobxonlik darajasi V.A. Barodinaning “Kitob o‘qishga qiziqish formulasi” metodikasi yordamida baholangan. Yashash hududi bo‘yicha tafovutlarni aniqlashda Mann–Whitney U mezoni, oilaviy daromad darajasi bo‘yicha farqlarni aniqlashda esa Kruskal–Wallis H mezonidan foydalanilgan.

Natijalar “O‘rtacha o‘quvchi” darajasida shahar va qishloq o‘quvchilari o‘rtasida statistik jihatdan ahamiyatli farq mavjudligini ko‘rsatdi (U=607,5; p<0,001). “Haqiqiy kitobxon” darajasida ham hududlar o‘rtasida statistik jihatdan ahamiyatli tafovut aniqlandi (U=308,0; p<0,05), biroq ushbu guruhdagi tanlanma hajmining kichikligi natijani ehtiyotkor talqin qilishni talab etadi. Oilaviy daromad darajasi bo‘yicha esa faqat “O‘rtacha o‘quvchi” guruhida statistik jihatdan ahamiyatli tafovut kuzatildi (H=4,095; p=0,029). Olingan natijalar kitobxonlik xususiyatini shakllantirishda bolaning sotsiomadaniy muhiti va oilaviy sharoitlarini hisobga olish zarurligini ko‘rsatadi.

MAQSAD: boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kitobxonlik xususiyatlarining yashash hududi (shahar/qishloq) va oilaviy daromad darajasiga bog‘liq ravishda namoyon bo‘lish tafovutlarini empirik jihatdan aniqlash hamda tahlil qilishdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda Andijon, Namangan va Navoiy viloyatlaridagi maktablardan jami 301 nafar boshlang‘ich sinf o‘quvchisi ishtirok etdi; respondentlarning kitobxonlik darajasi V.A. Barodinaning “Kitob o‘qishga qiziqish formulasi” metodikasi yordamida baholanib, ma’lumotlarni statistik tahlil qilishda parametrik bo‘lmagan Mann–Whitney U va Kruskal–Wallis H mezonlaridan foydalanildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: tahlil natijalariga ko‘ra, “O‘rtacha o‘quvchi” darajasida shahar o‘quvchilari qishloq o‘quvchilariga nisbatan statistik jihatdan ishonchli darajada yuqori ko‘rsatkich namoyon etdi ($U = 607{,}5; p < 0{,}001$), shuningdek “Haqiqiy kitobxon” darajasida ham hududiy tafovut aniqlandi ($U = 308{,}0; p < 0{,}05$); oilaviy daromad ko‘rsatkichi bo‘yicha esa faqat “O‘rtacha o‘quvchi” guruhida o‘rta daromadli oilalar vakillarida statistik jihatdan ahamiyatli farq qayd etildi ($H = 4{,}095; p = 0{,}029$).

XULOSA: bolalarda kitobxonlik xususiyatini samarali shakllantirishda hududiy va ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarni hisobga olish, resurslar tengligini ta’minlash hamda qishloq

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

maktablarida sinf kutubxonalarini va oilaviy kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish zarurligi ko‘rsatib berildi.

Kalit so‘zlar: kitobxonlik, kitobxonlik xususiyati, kichik maktab yoshi, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari, yashash hududi, shahar, qishloq, oilaviy daromad, o‘qishga qiziqish, kitob o‘qish motivatsiyasi, sotsiomadaniy muhit.

ДИФФЕРЕНЦИАЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ОСОБЕННОСТЕЙ ЧИТАТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ДЕТЕЙ МЛАДШЕГО ШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА В ЗАВИСИМОСТИ ОТ РЕГИОНА ПРОЖИВАНИЯ И УРОВНЯ СЕМЕЙНОГО ДОХОДА.

Солиев Мирзохид Турсунходжаевич, и. о. доцента кафедры «Педагогика и психология, образовательные технологии» Центра педагогического мастерства Андижанской области.

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в статье эмпирически анализируются различия в читательских особенностях детей младшего школьного возраста в зависимости от места проживания и уровня семейного дохода. В исследовании приняли участие 301 учащийся начальных классов. Уровень читательских особенностей оценивался с использованием методики В.А. Бародиной «Формула интереса к чтению». Для определения различий в зависимости от места проживания применялся критерий Манна–Уитни, а для анализа различий по уровню семейного дохода — критерий Краскела–Уоллиса.

Установлены статистически значимые различия между городскими и сельскими учащимися на уровне «Средний читатель» ($U=607,5$; $p<0,001$). Статистически значимые различия также выявлены на уровне «Настоящий читатель» ($U=308,0$; $p<0,05$), однако небольшой объём данной подгруппы требует осторожной интерпретации результата. По уровню семейного дохода статистически значимые различия обнаружены только в группе «Средний читатель» ($H=4,095$; $p=0,029$). Полученные результаты свидетельствуют о необходимости учитывать социокультурные и семейные условия при формировании читательских особенностей детей младшего школьного возраста.

ЦЕЛЬ: эмпирическое выявление и анализ различий в читательских особенностях учащихся начальных классов в зависимости от места проживания (город/село) и уровня семейного дохода.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании приняли участие 301 учащийся начальных классов школ Андижанской, Наманганской и Навоийской областей; диагностика читательского уровня проводилась по методике В. А. Бародиной «Формула интереса к чтению», а статистическая обработка данных осуществлялась

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

с использованием непараметрических критериев Манна–Уитни (U) и Краскела–Уоллиса (H).

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: результаты показали статистически значимое превосходство городских учащихся над сельскими на уровне «Средний читатель» ($U=607{,}5; p<0{,}001$), а также наличие значимых различий на уровне «Настоящий читатель» ($U=308{,}0; p<0{,}05$); по уровню семейного дохода статистически достоверные различия выявлены только в группе «Средний читатель» в пользу детей из семей со средним доходом ($H=4{,}095; p=0{,}029$).

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: доказана необходимость учета социокультурных и семейных условий при развитии читательской активности детей, а также важность обеспечения равного доступа к образовательным ресурсам и развития культуры семейного чтения в сельской местности.

Ключевые слова: читательская деятельность, читательские особенности, младший школьный возраст, учащиеся начальных классов, место проживания, город, село, семейный доход, интерес к чтению, мотивация к чтению, социокультурная среда.

DIFFERENTIAL ANALYSIS OF READING CHARACTERISTICS IN PRIMARY SCHOOL CHILDREN ACCORDING TO RESIDENTIAL AREA AND FAMILY INCOME LEVEL.

Soliyev Mirzokhid Tursunkhojayevich, Acting Associate Professor of the Department of "Pedagogy and Psychology, Educational Technologies" at the Andijan Region Center for Pedagogical Mastery.

Annotation

INTRODUCTION: this article empirically analyzes differences in reading characteristics among primary school children according to their place of residence and family income level. The study involved 301 primary school students. Reading characteristics were assessed using V. A. Barodina's "Formula of Interest in Reading" methodology. The Mann–Whitney U test was used to examine differences by place of residence, while the Kruskal–Wallis H test was applied to analyze differences according to family income level. Statistically significant differences were found between urban and rural students at the "Average Reader" level ($U=607.5$; $p<0.001$). Significant differences were also identified at the "Real Reader" level ($U=308.0$; $p<0.05$); however, the small sample size of this subgroup requires cautious interpretation. Regarding family income, statistically significant differences were found only in the "Average Reader" group ($H=4.095$; $p=0.029$). The findings indicate that sociocultural and family conditions should be considered when developing reading characteristics in primary school children.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

AIM: to empirically identify and analyze differences in reading characteristics among primary school students based on their place of residence (urban/rural) and family income level.

MATERIALS AND METHODS: the study involved 301 primary school students from schools in Andijan, Namangan, and Navoiy regions; reading levels were evaluated using V. A. Barodina's "Formula of Interest in Reading" methodology, and data were statistically processed using non-parametric Mann–Whitney U and Kruskal–Wallis H tests.

DISCUSSION AND RESULTS: statistically significant differences were revealed between urban and rural students at the "Average Reader" level ($U=607.5; p<0.001$) favoring urban children, as well as at the "Real Reader" level ($U=308.0; p<0.05$); regarding family income, significant differences were observed exclusively within the "Average Reader" group ($H=4.095; p=0.029$), where students from middle-income families scored higher.

CONCLUSION: the findings emphasize the necessity of considering socio-cultural and economic contexts in fostering children's reading habits, pointing to the importance of expanding library resources and supporting family reading initiatives in rural areas.

Keywords: reading activity, reading characteristics, primary school age, primary school students, place of residence, urban area, rural area, family income, interest in reading, reading motivation, sociocultural environment.

Bugungi kunda bolalarda kitobxonlikni rivojlantirish ta'lim jarayonining muhim psixologik-pedagogik vazifalaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Kitobxonlik bolaning faqatgina matnni o'qish texnikasini egallashi bilan cheklanmay, balki o'qilgan mazmunni anglash, undan ma'no chiqarish, mustaqil fikrlash, emotsional munosabat bildirish, kitob tanlash va o'qishni shaxsiy rivojlanish vositasi sifatida qabul qilish kabi ko'plab psixologik jarayonlarni qamrab oladi.

Kichik maktab yoshi ushbu xususiyatlarning faol shakllanish davri hisoblanadi. Mazkur davrda bolaning o'qishga bo'lgan munosabati, kitob bilan muloqot qilish odati, o'qilgan materialni tushunish va unga nisbatan shaxsiy munosabat bildirish ko'nikmalari rivojlanib boradi. Shu sababli kitobxonlikning shakllanishini faqat bolaning individual xususiyatlari bilan izohlash yetarli emas. Bunda bola yashaydigan ijtimoiy, oilaviy va madaniy muhitni ham hisobga olish zarur.

L. S. Vygotskiyning ijtimoiy-madaniy yondashuviga ko'ra, bolaning psixik rivojlanishi ijtimoiy munosabatlar va madaniy vositalar bilan o'zaro ta'sir jarayonida amalga oshadi. Kitob ham bolaning bilish faoliyati, nutqi, tafakkuri va ijtimoiy tajribasini kengaytiruvchi muhim madaniy vositalardan biridir. Shu nuqtai nazardan, bolaning kitob bilan munosabati shakllanadigan muhit uning kitobxonlik xususiyatlariga ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Bolaning yashash hududi ham ana shunday omillardan biridir. Shahar va qishloq muhitida kutubxona, kitob do'konlari, ta'limiy va madaniy tadbirlar, raqamli axborot

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

resurslari hamda turli o‘quv imkoniyatlaridan foydalanish darajasi farq qilishi mumkin. Biroq bunday farqlarni bevosita sabab sifatida emas, bolaning kitobxonlik tajribasini shakllantiruvchi sotsiomadaniy sharoitlardan biri sifatida baholash maqsadga muvofiq.

Shuningdek, oilaning ijtimoiy-iqtisodiy holati ham bolaning ta’limiy imkoniyatlariga ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Oilaviy daromad darajasi bolalarning kitoblarga, qo‘shimcha ta’lim resurslariga va raqamli vositalarga kirish imkoniyatlari bilan bog‘liq bo‘lishi ehtimoli mavjud. Shu bilan birga, oilaning iqtisodiy imkoniyatlari bolaning kitobxonligini avtomatik ravishda belgilamaydi. Ota-onalarning ta’limga munosabati, oiladagi o‘qish an’analari, farzand bilan muloqot qilish va kitob o‘qishni qo‘llab-quvvatlash kabi psixologik omillar ham muhim ahamiyatga ega.

Shu sababli kitobxonlik xususiyatlarini hududiy va oilaviy daromad darajasi kesimida tahlil qilish mazkur hodisaning ijtimoiy-psixologik tabiatini chuqurroq anglash imkonini beradi.

Tadqiqotning maqsadi - kichik maktab yoshidagi bolalarda kitobxonlik xususiyatining yashash hududi va oilaviy daromad darajasiga ko‘ra tafovutlarini empirik jihatdan aniqlashdan iborat.

Tadqiqotda Andijon viloyati Andijon shaharidagi 14- umumta’lim katabi, Andijon viloyati Xo‘jaobod tumanidagi 4 – umumta’lim maktabi, Namangan viloyati Pop tumanidagi 25 – umumta’lim maktabi hamda Navoiy viloyati Navoiy shahridagi 3 – sonli ayrim fanlar chuqur o‘qitiladigan sinflari mavjud umumta’lim maktablarida tahsil olayotgan jami 301 nafar boshlang‘ich sinf o‘quvchisi ishtirok etdi. Respondentlarning kitobxonlik xususiyatlarini aniqlashda V. A. Barodinaning “Kitob o‘qishga qiziqish formulasi” metodikasidan foydalanildi.

Mazkur metodika asosida o‘quvchilar kitobxonlik xususiyatiga ko‘ra “Boshlovchi”, “O‘rtacha o‘quvchi”, “Kitobsevar” va “Haqiqiy kitobxon” darajalariga ajratildi.

Yashash hududi bo‘yicha shahar va qishloq o‘quvchilari natijalarini taqqoslash uchun parametrik bo‘lmagan Mann–Whitney U mezoni qo‘llanildi. Oilaviy daromad darajasi bo‘yicha uchta guruh yuqori, o‘rta va quyi daromadli oilalar ajratilib, ular o‘rtasidagi farqlarni aniqlash uchun Kruskal–Wallis H mezonidan foydalanildi.

Oilaviy daromad guruhlarini belgilashda sinf rahbarlarining o‘quvchilarning oilaviy sharoiti, ota-onalarning bandlik holati va ta’lim uchun yaratilgan imkoniyatlar haqidagi ma’lumotlari asos qilib olindi.

Natijalar. Dastlab, V. A. Barodinaning “Kitob o‘qishga qiziqish formulasi” metodikasi natijalari asosida bolalarning kitobxonlik darajasiga yashash hududining, ya’ni shahar yoki qishloqda istiqomat qilish holatining bog‘liqligi tahlil qilindi.

1-jadval

V.A. Barodinoning “Kitob o‘qishga qiziqish formulasi” metodikasi natijalarini yashash hududi bo‘yicha tafovutlarini o‘rganish
(Mann-Uitni N=301)

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

Kitobxonlik darajasi	Hudud	N	O‘rtacha rank	Ranklar yig‘indisi	U	P
Boshlovchi	Shahar	57	57,71	3289,50	1612,500	,942
	Qishloq	57	57,29	3265,50		
	Jami	114				
O‘rtacha o‘quvchi	Shahar	43	56,87	2445,50	607,500	,000***
	Qishloq	49	37,40	1832,50		
	Jami	92				
Kitobsevar	Shahar	36	36,81	1325,00	637,000	,897
	Qishloq	36	36,19	1303,00		
	Jami	72				
Haqiqiy kitobxon	Shahar	15	10,60	159,00	308,000	,017*
	Qishloq	8	18,63	149,00		
	Jami	23				

p>0,05, p<0,05*, p<0,001***

Tadqiqotimiz doirasida olingan natijalari shuni ko‘rsatadiki, “O‘rtacha o‘quvchi” darajasida baholangan respondentlar orasida shahar maktablarida tahsil olayotgan o‘quvchilar (o‘rtacha rank = 56,87) qishloq maktabi o‘quvchilariga (o‘rtacha rank = 37,40) nisbatan statistik jihatdan ishonchli darajada yuqori natijalarni namoyon etdilar (U=607,5; p<0,001). Ushbu natijalar shahar bolalari orasida “o‘rtacha” kitobxonlik darajasiga erishganlar soni va sifati sezilarli darajada yuqoriligini ko‘rsatadi.

Bu farqni psixologik va ijtimoiy-pedagogik omillar nuqtayi nazaridan tahlil qilganimizda, bir nechta asosiy sabablarga e’tibor qaratish lozim. Avvalo, shahar muhitida bolalarning informatsion manbalarga bo‘lgan kirish imkoniyatlari ancha yuqori: kutubxonalar, kitob do‘konlari, madaniyat markazlari, ommaviy axborot vositalari va raqamli kontentning mavjudligi ularning kitob bilan muloqot qilish ehtimolini oshiradi. Bu esa bolalarda hech bo‘lmaganda “o‘rtacha” darajadagi kitobxonlikni shakllantirish uchun zarur psixologik va sharoitiy zamin yaratadi.

Shuningdek, shahar maktablarida dars jarayoniga integratsiyalashgan holda o‘qish strategiyalarini o‘rgatish, darsdan tashqari faoliyatlarda badiiy matnlar bilan ishlash, mustaqil fikrlashni rivojlantirishga yo‘naltirilgan uslublarning qo‘llanilishi bu farqni kuchaytiruvchi omillar sifatida namoyon bo‘lmoqda. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, shahar bolalarida o‘qishga bo‘lgan nisbiy barqarorlik, intellektual faollik va o‘z fikrini mustaqil ifodalash ko‘nikmalari yuqoriroq rivojlangan.

Qishloq bolalarining kitobxonlik darajasi nisbatan pastroq bo‘lishi esa, ko‘plab tashqi va ichki omillar bilan izohlanadi. Jumladan, kutubxona resurslarining yetarli emasligi, kitobga doir ijtimoiy rag‘batning pastligi, zamonaviy o‘quv adabiyotlariga cheklangan kirish va o‘qituvchilarning bu boradagi metodik salohiyatining yetishmovchiligi ta’sir ko‘rsatgan

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

bo‘lishi mumkin. Bu omillar bolaning o‘quv motivatsiyasini shakllantirish jarayonida salbiy rol o‘ynab, “boshlovchi” darajasida to‘xtab qolishiga olib keladi.

Kognitiv rivojlanish, ijtimoiy muhit va o‘quv motivi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni hisobga olgan holda, bizning fikrimizcha, “o‘rtacha” darajaga erishish ham bolalarning kitob bilan muntazam va maqsadli aloqada bo‘lishini talab qiladi. Aynan shahar bolalarining informatsion muhit bilan bevosita muloqotda bo‘lishi, o‘qish faoliyatiga ijtimoiy-iqtisodiy rag‘batning mavjudligi ularning kitobxonlik darajasini oshirishga xizmat qilmoqda.

Mazkur natijalar asosida xulosa qilish mumkinki, hududiy farqlar ayniqsa, shahar va qishloq farqlari kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning kitobxonlik faoliyati rivojiga bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi muhim psixologik va sotsiomadaniy omildir. “O‘rtacha o‘quvchi” darajasining o‘zida ham bu farq aniq namoyon bo‘lishi, masalaga yanada chuqurroq va differensial yondashishni talab etadi.

Shuningdek, “Haqiqiy kitobxon” darajasida baholangan respondentlar orasida shahar o‘quvchilari (o‘rtacha rank = 10,60) qishloq o‘quvchilariga (o‘rtacha rank =18,63) nisbatan statistik jihatdan ishonchli farq bilan yuqori natijalarni namoyon etdilar ($U=308,0$; $p<0,05$). Ushbu ko‘rsatkich shahar bolalarida chuqur va mustahkam kitobxonlik xususiyatlari shakllanganini anglatadi.

Buni quyidagicha izohlashimiz mumkin, birinchi navbatda, “Haqiqiy kitobxon” darajasiga erishish o‘quvchidan nafaqat o‘qishga bo‘lgan barqaror qiziqish, balki yuqori darajadagi emotsional sezuvchanlik, mustaqil fikrlash, tafakkur qilish, obrazlar bilan ishlay olish, o‘z-o‘zini anglash va o‘zini matnda topish kabi murakkab ichki psixik jarayonlarni talab qiladi. Shahar o‘quvchilari uchun bu jarayonni quvvatlovchi tashqi omillar (ta’lim muhiti, madaniy muhit, oilaviy resurslar va ijtimoiy kutishlar) ko‘proq mavjudligi sababli ular bu darajaga tezroq va osonroq erishganliklarini kuzatish mumkin.

Qishloq bolalari orasida “Haqiqiy kitobxon” darajasiga yetganlar sonining kamligi esa resurslar yetishmovchiligi, individual yondashuvlarning cheklanganligi va o‘qish faoliyatining faollashtirilmaganligi bilan tavsiflaymiz. Bu holatni kognitiv va motivatsion psixologiya nuqtayi nazaridan tahlil qilar ekanmiz, “rivojlanayotgan ta’lim” nazariyasiga ko‘ra, bola faol o‘quv subyekti sifatida shakllanishi uchun maqsadli pedagogik rahbarlik va ijtimoiy-madaniy sharoitlar muhim rol o‘ynashi barchamizga ma’lum. Ushbu sharoitlarning nisbatan yetarli bo‘lmaganligi qishloq o‘quvchilarida yuqori darajadagi kitobxonlik xususiyatlarini shakllantirishni sekinlashtiradi.

Shuningdek, “Haqiqiy kitobxon” darajasiga erishgan shahar o‘quvchilari matn bilan emotsional va kognitiv jihatdan chuqur aloqaga ega bo‘lib, o‘zini obrazlar orqali ifodalash, matndan estetik va axloqiy xulosalar chiqarish, boshqalarning ichki holatini anglash kabi murakkab psixologik funksiyalarni muvaffaqiyatli amalga oshirganlar.

Tadqiqot ishimizni navbatdagi qismida V.A. Barodinoning “Kitob o‘qishga qiziqish formulasi” metodikasi orqali olingan natijalar hamda oilaviy daromad darajasi o‘rtasidagi tafovutlar Kruskal–Wallis me’zoni yordamida tahlil qilib chiqdik.

2-jadval

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

V.A. Barodinoning “Kitob o‘qishga qiziqish formulasi” metodikasi natijalarini bolalarning oilaviy daromad darajasi bo‘yicha tafovutlarini o‘rganish (Kruskal–Wallis N=301)

Kitobxonlik darajasi	Oilaning daromad darajasi	N	Ranklar yig‘indisi	H	p
Boshlovchi	O‘rta	87	58,52	,395	,530
	Quyi	27	54,22		
	Jami	114			
O‘rtacha o‘quvchi	O‘rta	84	47,96	4,095	,029*
	Quyi	5	23,50		
	Yuqori	3	43,83		
	Jami	92			
Kitobsevar	O‘rta	33	34,86	,515	,773
	Quyi	10	36,05		
	Yuqori	29	38,52		
	Jami	72			
Haqiqiy kitobxon	O‘rta	7	13,21	,331	,565
	Yuqori	16	11,47		
	Jami	23			

p>0,05, p<0,05*

“O‘rtacha o‘quvchi” kitobxonlik darajasida baholangan bolalar orasida o‘rta daromadli oilalardan chiqqanlar (rank=47,96), quyi (rank=23,50) va yuqori daromadli oilalardan chiqqan bolalarga (rank=43,83) nisbatan sezilarli darajada yuqori natijalarni namoyon etdilar (H=4,095; p<0,05) hamda biz ushbu tafovutni statistik jihatdan ahamiyatli hisobladik.

Ushbu natijani baholaganimizda, aynan o‘rta daromadli oilalarda bolalarning o‘qish faolligini qo‘llab-quvvatlovchi muhit yetarli darajadagi resurs, ammo haddan tashqari bosim yoki rag‘bat yetishmasligi holatlarining muvozanatli shaklda namoyon bo‘lishi kuzatiladi. “O‘rtacha o‘quvchi” darajasi kitob o‘qishga nisbatan doimiy, ammo chuqur emotsional jalb bo‘lmagan, lekin muntazamlikni o‘zida aks ettiruvchi faoliyat ko‘rinishi hisoblanib, bunday kitobxonlar ko‘pincha o‘qishga nisbatan ijobiy, lekin passiv motivatsiyaga ega bo‘ladilar ekanlar.

O‘rta daromadli oilalarda, odatda, bolaga mustaqil o‘qish, bilim olish, sinfda faollik ko‘rsatish uchun ma’lum darajadagi imkoniyatlar yaratilgan bo‘ladi. Bunday oilalarda ota-onalarning o‘zlari ham o‘rta saviyali bilim egasi bo‘lib, bolalarning kitobga bo‘lgan munosabatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishadi. Boshqa tomondan, yuqori daromadli oilalarda bolalar ko‘pincha raqamli vositalar, texnologik qurilmalar bilan band bo‘lishi mumkin bo‘lsa, quyi daromadli oilalarda esa kitob resurslari yoki o‘qishga oid rag‘bat sust bo‘lishi ehtimoldan holi emas.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

O‘rta daromadli oilalardagi bolalar, odatda, pedagoglar yoki katta yoshdagilar tomonidan yo‘l-yo‘riq berilgan, lekin o‘ta yuqori bosim yoki erkalikdan xoli tarbiya olgan bo‘lib, bu holat ularning mustaqil o‘qish faoliyatini shakllantirish uchun optimal sharoit yaratadi. “O‘rtacha o‘quvchi” darajasi shunday muvozanatli sharoitda rivojlanadigan kognitiv faoliyatga mos keladi.

Yakuniy fikrimizcha o‘rta daromadli oilalardan chiqqan bolalarda “O‘rtacha o‘quvchi” kitobxonlik darajasiga mos keluvchi barqaror, lekin chuqur emotsional jalb etilmagan o‘qish faoliyati erta bosqichda shakllanishi mumkin. Garchi quyi va yuqori daromadli guruhlar sonining kamligi statistik tahlilni ehtiyotkor talqin qilishni taqozo etsa-da, mavjud psixologik va ijtimoiy omillar aniqlangan tafovutni mantiqiy asoslash imkonini berdi. Bu esa oilaviy iqtisodiy holatning kitobxonlik darajasiga ta’siri mavjudligini ko‘rsatadi va ushbu yo‘nalishda chuqurroq izlanishlar olib borish zarurligini ta’kidlaydi.

Tadqiqot natijalari kichik maktab yoshidagi bolalarning kitobxonlik xususiyati ko‘p omilli psixologik-pedagogik hodisa ekanini ko‘rsatadi. Yashash hududi va oilaviy daromad darajasi bilan bog‘liq aniqlangan tafovutlar kitobxonlikning shakllanishida bolaning individual xususiyatlari bilan bir qatorda uning ijtimoiy sharoitlari ham muhim ekanligini ko‘rsatadi.

Yashash hududi bo‘yicha eng muhim natija “O‘rtacha o‘quvchi” darajasida kuzatildi. Shahar o‘quvchilarining Mean Rank ko‘rsatkichi qishloq o‘quvchilarinikidan sezilarli darajada yuqori bo‘ldi. Bu holat shahar muhitidagi ta’limiy va madaniy resurslardan foydalanish imkoniyatlari, kitob bilan bog‘liq faoliyatlarning xilma-xilligi va o‘qish uchun yaratilgan sharoitlar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Biroq hududiy tafovutlarni faqat resurslar mavjudligi bilan izohlash yetarli emas. Oilaviy o‘qish madaniyati, ota-onalarning ta’limga munosabati, o‘qituvchilarning metodik yondashuvlari va bolaning individual motivatsiyasi ham muhim vositachi omillar bo‘lishi mumkin. Demak, shahar va qishloq o‘quvchilari o‘rtasidagi farqni “hududning bevosita ta’siri” emas, balki turli sotsiomadaniy sharoitlarning umumiy ta’siri sifatida ko‘rish ilmiy jihatdan ehtiyotkorroq yondashuv hisoblanadi.

Oilaviy daromad bo‘yicha olingan natijalar esa yanada murakkab manzarani ko‘rsatdi. Barcha kitobxonlik darajalarida daromad guruhlari o‘rtasida bir xil yo‘nalishdagi farqlar aniqlanmadi. Faqat “O‘rtacha o‘quvchi” darajasida statistik jihatdan ahamiyatli tafovut mavjud bo‘ldi.

Bu holat oilaviy iqtisodiy imkoniyatlarning kitobxonlikka ta’siri chiziqli bo‘lmasligi mumkinligini ko‘rsatadi. Ya’ni, oilaning yuqori daromadga ega bo‘lishi avtomatik ravishda bolaning yuqori darajadagi kitobxon bo‘lishini anglatmaydi. Kitobxonlikning shakllanishida moddiy resurslar bilan bir qatorda ota-onalarning shaxsiy namunasi, oiladagi kitobxonlik an’analari, bolaga ajratiladigan vaqt, muloqot sifati va ta’limiy qadriyatlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur xulosa avvalgi tadqiqotimizda ota-onalar ishtirokida aniqlangan natijalar bilan ham mazmunan uyg‘unlashadi. Oilaviy muhitda kitob o‘qish uchun muntazam vaqt

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

ajratilishi, kitob tanlashda ota-onalarning ishtiroki va o‘qilgan kitoblar yuzasidan suhbatlarning mavjudligi bolaning kitobxonlik tajribasini qo‘llab-quvvatlovchi muhim sharoitlar sifatida qaralishi mumkin.

Shuningdek, o‘qituvchilar ishtirokidagi tadqiqotimiz natijalari bilan birgalikda qaralganda, kitobxonlikni rivojlantirish jarayonida bola–oila–maktab o‘rtasidagi uzviy hamkorlik alohida ahamiyatga ega ekanini ko‘rish mumkin. Demak, hududiy yoki iqtisodiy imkoniyatlari nisbatan cheklangan muhitlarda maktab va oila tomonidan maqsadli psixologik-pedagogik qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini kuchaytirish orqali mavjud tafovutlarni kamaytirish imkoniyati mavjud.

Shu jihatdan, kitobxonlikni rivojlantirish siyosati va amaliyotida barcha bolalar uchun teng imkoniyat yaratish tamoyili muhimdir. Xususan, qishloq maktablarida sinf kutubxonalarini rivojlantirish, zamonaviy bolalar adabiyotlari bilan ta’minlash, mobil kutubxona va elektron resurslardan foydalanish, o‘qituvchilar uchun kitobxonlikni rivojlantirish metodikalari bo‘yicha treninglar tashkil etish samarali yo‘nalishlar bo‘lishi mumkin.

Tadqiqot natijalari kichik maktab yoshidagi bolalarning kitobxonlik xususiyati yashash hududi va oilaviy daromad darajasi bilan bog‘liq ayrim statistik tafovutlarga ega ekanini ko‘rsatdi.

Yashash hududi bo‘yicha “Boshlovchi” va “Kitobsevar” darajalarida shahar va qishloq o‘quvchilari o‘rtasida statistik jihatdan ahamiyatli farq aniqlanmadi. Biroq “O‘rtacha o‘quvchi” darajasida shahar o‘quvchilarining ko‘rsatkichi qishloq o‘quvchilarinikiga nisbatan statistik jihatdan yuqori bo‘ldi ($U=607,5$; $p<0,001$).

“Haqiqiy kitobxon” darajasida ham statistik jihatdan ahamiyatli tafovut qayd etilgan bo‘lsa-da ($U=308,0$; $p=0,017$), ushbu guruhdagi respondentlar sonining kamligi sababli natijani ehtiyotkor talqin qilish lozim. Mean Rank qiymatlariga ko‘ra, bu guruhda qishloq o‘quvchilarining ranki yuqoriroq bo‘lgan.

Oilaviy daromad darajasi bo‘yicha “Boshlovchi”, “Kitobsevar” va “Haqiqiy kitobxon” darajalarida statistik jihatdan ahamiyatli farqlar aniqlanmadi. Faqat “O‘rtacha o‘quvchi” darajasida oilaviy daromad guruhlari o‘rtasida statistik jihatdan ahamiyatli tafovut kuzatildi ($H=4,095$; $p=0,029$).

Umuman olganda, natijalar kitobxonlik xususiyatini shakllantirishda bolaning yashash hududi va oilaviy ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarini hisobga olish zarurligini ko‘rsatadi. Biroq mazkur omillarni kitobxonlikning bevosita va yagona determinanti sifatida emas, balki oilaviy kitobxonlik madaniyati, maktab muhiti, pedagogik yondashuvlar va bolaning individual psixologik xususiyatlari bilan o‘zaro ta’sirlashuvchi omillar sifatida baholash maqsadga muvofiq.

Amaliy jihatdan qishloq maktablarida kitob resurslaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, sinf kutubxonalarini rivojlantirish, oilaviy kitobxonlikni qo‘llab-quvvatlash, o‘qituvchilarning kitobxonlikni rivojlantirish metodikalarini takomillashtirish hamda ijtimoiy-

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

iqtisodiy imkoniyatlari turlicha bo‘lgan oilalar farzandlari uchun teng o‘qish imkoniyatlarini yaratish muhim hisoblanadi.

Kelgusidagi tadqiqotlarda yashash hududi va oilaviy daromad bilan bir qatorda ota-onalarning ta’lim darajasi, oiladagi kitoblar soni, kutubxonalardan foydalanish chastotasi, raqamli resurslardan foydalanish, ota-onalarning kitobxonlik odatlari va o‘qituvchilarning metodik yondashuvlarini birgalikda o‘rganish kitobxonlik xususiyatining ijtimoiy-psixologik determinantlarini yanada chuqurroq ochib berish imkonini beradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Vygotsky L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978.
2. Deci E.L., Ryan R. M. The “what” and “why” of goal pursuits: Human needs and the self-determination of behavior // Psychological Inquiry. – 2000. – Vol. 11, No. 4. – P. 227–268.
3. Leontiev A.N. Activity, Consciousness, and Personality. – Englewood Cliffs, NJ: Prentice-Hall, 1978.
4. Soliyev M.T. Kichik maktab yoshidagi bolalarda kitobxonlik xususiyatining shakllanishiga ta’sir etuvchi omillarning empirik tahlili // O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti ilmiy axborotlari. – Toshkent, 2025.
5. Soliyev M.T. Psixologicheskie osnovy formirovaniya chteniya u detey mladshego shkolnogo vozrasta // Vestnik integrativnoy psixologii. – 2025.

© intereduglobalstudy.com

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

KLASTER TAHLIL NATIJALARINI PEDAGOGIK BOSHQARUV QARORLARIGA TRANSFORMATSIYA QILISHNING METODOLOGIK MEXANIZMI.

Ataxanov Xamidillo Kozimjanovich, Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Sport o‘yinlari va uni o‘qitish metodikasi kafedrasi katta o‘qituvchisi.

Annotatsiya

KIRISH: maqolada klaster tahlil natijalarini pedagogik boshqaruv qarorlariga aylantirish masalasi tahlil qilinadi. Xalqaro tadqiqotlarda klaster tahlil ko‘pincha tavsifiy bosqichda to‘xtab qolishi, aniqlangan guruhlararo farqlar esa boshqaruv qarorlari bilan bog‘lanmasligi ko‘rsatiladi. Ushbu bo‘shliqni to‘ldirish uchun tahlil, qaror, maqsadli pedagogik ta’sir va natijalarni kuzatish bosqichlaridan iborat to‘rt bosqichli adaptiv boshqaruv mexanizmi asoslanadi hamda uning uch qatlamga guruhlangan kirish ko‘rsatkichlari va besh bosqichli institutsional amalga oshirish tartibi aniqlanadi.

MAQSAD: Klaster tahlil natijalarini pedagogik boshqaruv qarorlariga va amaliy ta’sir choralariga transformatsiya qilishning to‘rt bosqichli adaptiv metodologik va institutsional mexanizmini asoslashdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda nazariy modellashtirish, qiyosiy tahlil va tizimli yondashuv usullaridan foydalanildi; klaster tahlil hamda ma’lumotlarga tayangan boshqaruv (data-based decision making) bo‘yicha xalqaro tajriba va ilmiy manbalar sintez qilindi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: tahlil, qaror qabul qilish, maqsadli pedagogik ta’sir (intervensiya) va monitoringni o‘z ichiga olgan adaptiv boshqaruv sikli ishlab chiqildi; mexanizmning kirish ko‘rsatkichlari kasbiy imkoniyat, o‘quv strategiyasi va shaxsiy resurslar qatlamlariga guruhlandi; shuningdek, metodologik bosqichlarni bazaviy psixodiagnostika, amaliyot oldidan qayta diagnostika, ko‘p manbali monitoring, differensial qo‘llab-quvvatlash va tizimli qayta aloqaga ulaydigan 5 bosqichli institutsional joriy etish tartibi belgilandi.

XULOSA: taklif etilgan mexanizm tahlil natijalarini tavsifiy bosqichdan amaliy boshqaruv qarorlariga o‘tkazishni ta’minlashi va bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash sifatini individual yondashuv asosida oshirishga xizmat qilishi isbotlandi.

Kalit so‘zlar: klaster tahlil, yashirin profil, pedagogik boshqaruv, qaror qabul qilish, intervensiya, adaptivlik, diagnostika, monitoring, kompetensiya, ta’lim klasteri.

МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЙ МЕХАНИЗМ ТРАНСФОРМАЦИИ РЕЗУЛЬТАТОВ КЛАСТЕРНОГО АНАЛИЗА В ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ УПРАВЛЕНЧЕСКИЕ РЕШЕНИЯ.

Атаханов Хамидилло Козимжанович, старший преподаватель кафедры «Спортивные игры и методика их преподавания» Чирчикского государственного педагогического университета.

Аннотация

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

ВВЕДЕНИЕ: в статье анализируется вопрос трансформации результатов кластерного анализа в педагогические управленческие решения. В международных исследованиях отмечается, что кластерный анализ часто ограничивается описательным этапом, а выявленные межгрупповые различия не связываются с управленческими решениями. Для восполнения этого пробела обоснован четырехэтапный механизм адаптивного управления, состоящий из этапов анализа, принятия решений, целевого педагогического воздействия и мониторинга результатов, а также определены его входные показатели, сгруппированные по трем уровням, и пятиэтапный порядок институциональной реализации.

ЦЕЛЬ: обоснование методологического и институционального механизма трансформации результатов кластерного анализа в педагогические управленческие решения.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в работе использованы методы теоретического моделирования, сравнительного анализа и системного подхода, на основе которых сопоставлены международные исследования по кластерному анализу и концептуальные основы управления на основе данных (data-based decision making).

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: разработан четырехэтапный цикл адаптивного управления, включающий анализ, принятие решений, целевое педагогическое воздействие (интервенцию) и мониторинг; сгруппированы в три уровня (профессиональный потенциал, учебная стратегия, личностные ресурсы) пять многомерных входных показателей и определен пятиэтапный порядок их институциональной реализации.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: предложенный механизм предотвращает ограничение кластерного анализа лишь описательной стадией, рассматривает профили студентов как динамические состояния и обеспечивает дифференцированное и гибкое управление образовательным процессом.

Ключевые слова: кластерный анализ, скрытый профиль, педагогическое управление, принятие решений, интервенция, адаптивность, диагностика, мониторинг, компетенция, образовательный кластер.

METHODOLOGICAL MECHANISM FOR TRANSFORMING CLUSTER ANALYSIS RESULTS INTO PEDAGOGICAL MANAGEMENT DECISIONS.

Atakhanov Khamidillo Kozimjanovich, Senior Lecturer of the Department of "Sports Games and Teaching Methods" at Chirchik State Pedagogical University.

Annotation

INTRODUCTION: the article analyzes the issue of transforming cluster analysis results into pedagogical management decisions. International studies indicate that cluster analysis often stops at the descriptive stage, and the identified inter-group differences are not linked to administrative decisions. To address this gap, a four-stage adaptive

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

management mechanism comprising analysis, decision-making, targeted pedagogical impact, and monitoring of results is established, along with its input indicators grouped into three layers and a five-stage institutional implementation procedure.

AIM: to substantiate a four-stage adaptive methodological and institutional mechanism for transforming cluster analysis results into pedagogical management decisions and targeted interventions.

MATERIALS AND METHODS: theoretical modeling, comparative analysis, and systems approach methods were applied, synthesizing global literature on cluster analysis and data-based decision-making in education.

DISCUSSION AND RESULTS: a four-stage adaptive management cycle consisting of analysis, decision-making, targeted intervention, and monitoring was formulated; input indicators were structured across professional capacity, learning strategy, and personal resource layers; additionally, a five-step institutional implementation scheme was established, connecting methodological phases to baseline psychodiagnostics, pre-internship re-diagnostics, multi-source monitoring, differentiated support, and systematic feedback loops.

CONCLUSION: the proposed mechanism bridges the gap between descriptive cluster data and actionable administrative decisions, serving to enhance the quality of future teacher preparation through data-informed differentiation.

Keywords: cluster, analysis, profile, decision, intervention, adaptivity, diagnostics, monitoring, competence, management.

Pedagogik ta’lim klasteri bo‘yicha so‘nggi yillardagi tadqiqotlarda umumiy xulosa takrorlanadi: bo‘lajak o‘qituvchilar bir jinsli guruh emas, ular dastlabki tayyorgarlik darajasi, o‘quv faoliyatini boshqarish qobiliyati va texnologiyaga munosabati jihatidan sezilarli darajada farqlanadi. Shu bois o‘rtacha ko‘rsatkichlarga tayangan tahlil real manzarani ochib bermaydi va barchaga bir xil tayyorgarlik dasturi kutilgan natijani bermaydi. Ayni paytda oliy ta’limni rivojlantirish konsepsiyasida ta’lim jarayonini individuallashtirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan[1].

Ushbu farqlarni aniqlash uchun klaster tahlil va yashirin profil tahlili usullari qo‘llaniladi. Ular talabalarni bir necha ko‘rsatkich bo‘yicha bir vaqtda tavsiflab, o‘zaro yaqin xususiyatlarga ega guruhlarni ajratadi. Y. Jin va D.Schmidt-Crawford o‘n ikki yuzdan ortiq bo‘lajak o‘qituvchi ma’lumotlarini tahlil qilib, texnologik-pedagogik-mazmuniy kompetentlikning dastlabki darajasiga ko‘ra bir necha guruh mavjudligini va kurs yakunida ham bu guruhlar o‘rtasidagi farq saqlanib qolishini ko‘rsatgan[2].

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi «O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi PF-5847-son Farmoni.
[2] Jin Y., Schmidt-Crawford D. Preservice teacher cluster memberships in an edtech course: A study of their TPACK development // Computers and Education Open. – 2022. – Vol. 3. – Article 100089. DOI: 10.1016/j.caeo.2022.100089

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

Biroq aynan shu yerda metodologik bo‘shliq yuzaga keladi. Tahlil guruhlarni ajratadi, farqlarni o‘lchaydi va tavsiflaydi, lekin undan keyin nima qilish kerakligi ko‘pincha ochiq qoladi. Boshqacha aytganda, tahlil natijasi bilan boshqaruv qarori o‘rtasida bog‘lovchi mexanizm ishlab chiqilmagan. Bu holat ta’lim sohasida ma’lumotlarga tayangan boshqaruv bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqotlarda ham asosiy muammo sifatida qayd etiladi[3].

Maqolaning maqsadi shu bo‘shliqni to‘ldirishdan iborat: klaster tahlil natijalarini pedagogik boshqaruv qarorlariga aylantirishning metodologik mexanizmini asoslash. Maqola muallifning «Ta’lim klasterlari faoliyatini rivojlantirish orqali kelajak o‘qituvchisini tayyorlashning ilmiy-amaliy asoslari» mavzusidagi pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi doirasida bajarilgan.

Ta’limda ma’lumotlarga tayangan qaror qabul qilish yo‘nalishi ikki o‘n yillikdan beri tizimli o‘rganilmoqda. K. Schildkamp, M.K. Lai va L.Earl tahriri ostidagi jamoaviy monografiyada bir necha mamlakat tajribasi umumlashtirilib, ma’lumot faqat test natijalari emas, balki kuzatuv, refleksiv yozuv va boshqa manbalarni ham qamrab olishi asoslangan[4]. K. Schildkamp keyingi tahlilida sohaning erishgan natijalari va ochiq qolgan bo‘shliqlarini sanab, ma’lumotdan foydalanish ko‘nikmasining o‘zi alohida kasbiy kompetensiya ekanini ko‘rsatgan[5]. Ushbu xulosa maqolada taklif etilayotgan mexanizmga qo‘yiladigan tayyorgarlik talabini belgilaydi.

E.B. Mandinach va K. Schildkamp adabiyot tahlili asosida ushbu yo‘nalishga oid beshta keng tarqalgan noto‘g‘ri tasavvurni aniqlagan. Ular orasida eng muhimi shuki, ma’lumot ko‘pincha standartlashtirilgan test natijasi bilan tenglashtiriladi, holbuki qaror qabul qilish uchun sifat ma’lumotlari, jumladan munosabat, motivatsiya va emotsional holatga oid ko‘rsatkichlar ham zarur[6].

Amaliy tomondan qaralganda, ma’lumotning mavjudligi o‘z-o‘zidan natija bermasligi bir necha empirik tadqiqotda ko‘rsatilgan. G. Gelderblom va hammualliflari boshlang‘ich ta’limda o‘qituvchilarning deyarli barchasi ma’lumotdan foydalanishga harakat qilsa-da, bu o‘qitish sifatining yaxshilanishiga olib kelmaganini qayd etgan[7]. I.Hoogland va hammualliflari sinf sharoitida ma’lumotga tayangan qaror qabul qilish uchun zarur bo‘lgan dastlabki shartlarni aniqlagan[8].

K.Vanlommel va K.Schildkamp muhim bir jihatni ochib bergan: o‘qituvchilar ma’lumotni ko‘pincha intuitiv tarzda yig‘adi va uni shaxsiy mezonlar asosida talqin qiladi,

[3] Mandinach E.B., Schildkamp K. Misconceptions about data-based decision making in education: An exploration of the literature // Studies in Educational Evaluation. – 2021. – Vol. 69. – Article 100842. DOI: 10.1016/j.stueduc.2020.100842
[4] Schildkamp K., Lai M.K., Earl L. (Eds.) Data-based Decision Making in Education: Challenges and Opportunities. – Dordrecht: Springer, 2013. – (Studies in Educational Leadership, Vol. 17).
[5] Schildkamp K. Data-based decision-making for school improvement: Research insights and gaps // Educational Research. – 2019. – Vol. 61, No. 3. – P. 257–273. DOI: 10.1080/00131881.2019.1625716
[6] Mandinach E.B., Schildkamp K. Misconceptions about data-based decision making in education: An exploration of the literature // Studies in Educational Evaluation. – 2021. – Vol. 69. – Article 100842. DOI: 10.1016/j.stueduc.2020.100842
[7] Gelderblom G., Schildkamp K., Pieters J., Ehren M. Data-based decision making for instructional improvement in primary education // International Journal of Educational Research. – 2016. – Vol. 80. – P. 1–14.
[8] Hoogland I., Schildkamp K., Van der Kleij F., Heitink M., Kippers W., Veldkamp B. Prerequisites for data-based decision making in the classroom: Research evidence and practical illustrations // Teaching and Teacher Education. – 2016. – Vol. 60. – P. 377–386.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

turli manbalarni solishtirish esa juda cheklangan darajada amalga oshiriladi[9]. Bu natija mexanizmga qo‘yiladigan talabni belgilaydi: u nafaqat ma’lumot beradi, balki talqin tartibini ham belgilashi kerak.

Rahbariyatning bu jarayondagi o‘rni J.A.Marsh va C.C.Farrell tomonidan tahlil qilingan; mualliflar ma’lumotdan foydalanish salohiyatini shakllantirishning tashkiliy shartlarini tizimlashtirgan[10]. Klaster subyektlarining o‘zaro ta’sirini hududiy darajada muvofiqlashtirish masalasi alohida tadqiq etilgan[11], xalqaro klaster amaliyotining qiyosiy tahlili esa milliy adabiyotda yaqinda paydo bo‘ldi[12].

Shu tarzda adabiyot tahlili ikki qatlamni ko‘rsatadi. Birinchi qatlamda klaster tahlil usullari rivojlangan, ikkinchi qatlamda ma’lumotga tayangan boshqaruv nazariyasi shakllangan. Ammo bu ikki qatlamni bir-biriga ulaydigan operatsional mexanizm yetarlicha ishlab chiqilmagan. Ushbu maqola aynan shu ulanish nuqtasiga bag‘ishlanadi.

Tadqiqotda nazariy modellashtirish, qiyosiy tahlil va tizimli yondashuv usullari qo‘llanildi. Qiyosiy tahlil klaster tahlil bo‘yicha xalqaro tadqiqotlar hamda ma’lumotga tayangan boshqaruv bo‘yicha ishlarni yonma-yon qo‘yish va ular o‘rtasidagi uzilishni aniqlash imkonini berdi. Nazariy modellashtirish orqali bu uzilishni bartaraf etuvchi bosqichli mexanizm ishlab chiqildi.

Mexanizmni loyihalashda uchta talab qo‘yildi. Birinchisi — takrorlanuvchanlik: har bir bosqich aniq kirish va chiqish ma’lumotiga ega bo‘lishi va boshqa sharoitda ham qo‘llanishi kerak. Ikkinchisi — talqin tartibining oshkoraligi: qanday ko‘rsatkichda qanday qaror qabul qilinishi oldindan belgilanishi lozim, aks holda talqin shaxsiy mezonlarga tayanib qoladi[13]. Uchinchisi — uzluksizlik: mexanizm bir martalik o‘lchov emas, takrorlanuvchi sikl sifatida ishlashi kerak.

Klaster tahlil pedagogik ta’limda: imkoniyat va chegara

Klaster tahlilning asosiy imkoniyati geterogenlikni ko‘rsatishdadir. O‘rtacha ko‘rsatkich guruhning umumiy holatini bildiradi, lekin uning ichidagi farqlarni yashiradi. Klaster tahlil esa shu farqlarni ochadi va har bir guruhning o‘ziga xos kuchli hamda zaif tomonlarini belgilaydi.

Ikkinchi imkoniyat — bashoratlash. Guruhga mansublik keyingi rivojlanish dinamikasi bilan bog‘liq ekani empirik tarzda ko‘rsatilgan: dastlabki darajasi past guruhlar kurs yakunida ham nisbatan past natija qayd etgan[14]. Bu natijani soddalashtirib talqin qilish, ya’ni kuchli talaba doim kuchli bo‘lib qoladi deb xulosa chiqarish ilmiy jihatdan

[9] Vanlommel K., Schildkamp K. How do teachers make sense of data in the context of high-stakes decision making? // American Educational Research Journal. – 2019. DOI: 10.3102/0002831218803891
[10] Marsh J.A., Farrell C.C. How leaders can support teachers with data-driven decision making: A framework for understanding capacity building // Educational Management Administration & Leadership. – 2015. – Vol. 43, No. 2. – P. 269–289. DOI: 10.1177/1741143214537229
[11] Федоров В.А., Чедов К.В. Актуализация потенциала регионального образовательного пространства на основе кластерного взаимодействия // Образование и наука. – 2019. – Т. 21, №9. – С. 186–220. DOI: 10.17853/1994-5639-2019-9-186-220
[12] Badalova M.U., Badalova N.N. Ta’lim klasteri bo‘yicha xalqaro amaliyot // Pedagogik mahorat. – Buxoro, 2025. – №5(3). – B. 70–74.
[13] Vanlommel K., Schildkamp K. How do teachers make sense of data in the context of high-stakes decision making? // American Educational Research Journal. – 2019. DOI: 10.3102/0002831218803891
[14] Jin Y., Schmidt-Crawford D. Preservice teacher cluster memberships in an edtech course: A study of their TPACK development // Computers and Education Open. – 2022. – Vol. 3. – Article 100089. DOI: 10.1016/j.caeo.2022.100089

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9


asossiz. Aksincha, u yagona standart yondashuvning samarasi cheklanganini ko‘rsatadi va guruhga mos ta’sir zarurligini asoslaydi.

Uchinchi imkoniyat — qamrovning kengligi. Klaster tahlil faqat bilim va ko‘nikmani emas, munosabat, motivatsiya va emotsional holatni ham qamrab oladi. Bu jihat ayniqsa muhim, chunki o‘quv faoliyatini boshqarish darajasining pastligi ko‘p hollarda bilim yetishmasligi bilan emas, ishonchning pastligi yoki xavotir bilan bog‘liq bo‘ladi.

Chegaraga kelsak, u ham aniq. Klaster tahlil guruhlarni ajratadi, ammo nima qilish kerakligini aytmaydi. Bu vazifa tahlil usulining emas, boshqaruv mexanizmining zimmasiga tushadi. Milliy tadqiqotlarda klaster ilmiy-nazariy jihatdan asoslangan bo‘lsa-da[15], uning ichida qaror qabul qilish tartibi alohida ishlab chiqilmagan. Aynan shu bois tadqiqotning asosiy ilmiy pozitsiyasi quyidagicha belgilanadi: klaster tahlil mustaqil natija emas, balki ma’lumotga tayangan boshqaruvning boshlang‘ich bosqichi.

To‘rt bosqichli adaptiv boshqaruv mexanizmi

Yuqoridagi pozitsiyadan kelib chiqib, tahlil, qaror qabul qilish, maqsadli pedagogik ta’sir (intervensiya) va natijalarni kuzatish bosqichlariga asoslangan mexanizm taklif etiladi. Uning asosiy xususiyati bosqichlar o‘rtasidagi uzviylikda: har bir bosqich keyingisi uchun aniq kirish ma’lumotini beradi, oxirgi bosqich esa siklni yangidan boshlaydi.



1-rasm. To‘rt bosqichli adaptiv boshqaruv sikli.

[15] Ходжамқулов У.Н. Педагогик таълим инновацион кластерининг илмий-назарий асослари: пед. фан. док. (DSc) дисс. – Чирчиқ, 2020.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

Birinchi bosqichda talabalar bir necha ko‘rsatkich bo‘yicha bir vaqtda o‘lchanadi va bir jinsli guruhlarga ajratiladi. Bu yerda muhim shart bor: o‘lchov bir marta emas, o‘quv yili davomida takrorlanishi kerak, aks holda profil statik tavsifga aylanadi.

Ikkinchi bosqich mexanizmning o‘zak qismidir, chunki aynan shu yerda tahlil qarorga aylanadi. Har bir profil uchun ta’sirning turi, hajmi va muddati oldindan belgilangan qoidalar asosida tanlanadi. Qoidalarning oldindan belgilanishi shaxsiy talqin xavfini kamaytiradi — bu talab ma’lumotga tayangan boshqaruv bo‘yicha tadqiqotlarda alohida ta’kidlanadi[16].

Uchinchi bosqichda qaror amaliyotga o‘tadi. Bunda o‘quv mazmuni, metodik qo‘llab-quvvatlash va mentorlik hajmi guruhga qarab differensiallashadi: tayyorgarligi zaif guruh uchun mazmun kichik bo‘laklarga ajratiladi, kuchli guruhda esa topshiriqlarning chuqurligi va murakkabligi orttiriladi.

To‘rtinchi bosqich muntazam monitoring xarakteriga ega: o‘zgarishlar qayta o‘lchanadi va intervensiyaning samarasi baholanadi. Bu bosqich bir vaqtning o‘zida yangi siklning tahlil bosqichi vazifasini ham bajaradi. Shu tariqa mexanizm bir martalik tadbir emas, uzluksiz ishlaydigan boshqaruv siklidir.

Mexanizmning amaliy qiymati shundaki, u tahlil natijasini majburiy ravishda qarorga ulaydi. Agar biror profil aniqlangan bo‘lsa, unga mos ta’sir belgilanishi shart; ta’sir belgilangan bo‘lsa, uning natijasi o‘lchanishi shart. Bu tartib tahlilning tavsifiy bosqichda to‘xtab qolishiga yo‘l qo‘ymaydi.

Mexanizmning ko‘p o‘lchamli kirish ko‘rsatkichlari

Mexanizm qanday ma’lumot bilan ishlashi alohida asoslashni talab qiladi. Faqat akademik o‘zlashtirish ko‘rsatkichlariga tayanish yetarli emas: ma’lumotni test natijasi bilan tenglashtirish adabiyotda eng keng tarqalgan noto‘g‘ri tasavvur sifatida qayd etilgan[17]. Shu bois mexanizmga beshta o‘lchov kiritiladi; ular uch qatlamga guruhlanadi va quyidagi sxemada ko‘rsatilgan.

Birinchi qatlam kasbiy faoliyatni bajarish imkoniyatini o‘lchaydi: talaba o‘z fanini, o‘qitish usulini va raqamli vositani bir-biriga moslab ishlata oladimi. Ikkinchi qatlam o‘quv faoliyatini tashkil etish strategiyasini ko‘rsatadi: talaba o‘z o‘qishini rejalashtira va nazorat qila oladimi, topshiriqsiz ham izlanadimi. Uchinchi qatlam shaxsiy resurslarni ochib beradi: sinf oldida qaror qabul qilishga ishonchi bormi va emotsional holati o‘qishga to‘sqinlik qilmayaptimi.


Har bir ko‘rsatkich aynan shunday aniq diagnostik savolga aylantirilishi mexanizmning muhim sharti hisoblanadi, chunki savol o‘lchov natijasining talqinini soddalashtiradi. Savolga berilgan javob esa bevosita qo‘llab-quvvatlash choralariga ulanadi: kompetentlik past bo‘lsa dars loyihalash bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlar, o‘zini

[16] Vanlommel K., Schildkamp K. How do teachers make sense of data in the context of high-stakes decision making? // American Educational Research Journal. – 2019. DOI: 10.3102/0002831218803891
[17] Mandinach E.B., Schildkamp K. Misconceptions about data-based decision making in education: An exploration of the literature // Studies in Educational Evaluation. – 2021. – Vol. 69. – Article 100842. DOI: 10.1016/j.stueduc.2020.100842

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

boshqarish zaif bo‘lsa refleksiv kundalik va maqsad-natija solishtirish mashqlari, ishonch past bo‘lsa qisqa muddatli muvaffaqiyat tajribalari va mentor ko‘magi belgilanadi. Bu ulanish mexanizmning o‘zak mantig‘iga mos keladi.



2-rasm. Mexanizmning ko‘p o‘lchamli kirish ko‘rsatkichlari.

Muhim jihat shundaki, past qiymat o‘z-o‘zidan salbiy baho emas. U faqat qanday qo‘llab-quvvatlash kerakligini ko‘rsatadi. Bu farq mexanizmni baholash vositasidan rivojlantirish vositasiga aylantiradi va uning pedagogik mazmunini belgilaydi.

Mexanizmning institutsional amalga oshirilishi

Metodologik sikl mexanizmning mantiqini belgilaydi, ammo uni o‘quv jarayoniga olib kirish uchun har bir bosqichga aniq institutsional harakat biriktirilishi kerak. Aks holda mexanizm sxema bo‘lib qoladi va amaliyotga o‘tmaydi. Quyidagi sxemada metodologik bosqichlar va ularga mos institutsional harakatlar yonma-yon keltirilgan.


Tahlil bosqichi ikkita institutsional harakatga yoyiladi. Birinchisi — bazaviy psixodiagnostika: talabaning start kompetensiyasi va psixologik holati o‘lchanadi. Bunda texnologik-pedagogik-mazmuniy kompetentlik shkalasi, o‘quv faoliyatini o‘zi boshqarish va mustaqil ta’lim olishga oid so‘rovnomalar, kasbiy o‘z-o‘ziga ishonch testi hamda emotsional holat diagnostikasi qo‘llaniladi. Ikkinchisi — amaliyot oldidan qayta diagnostika: talabaning pedagogik amaliyotga tayyorlik darajasi qayta baholash, ekspert bahosi va o‘zini baholash orqali aniqlanadi.

Qaror bosqichi ko‘p manbali monitoring shaklida amalga oshiriladi. Bu yerda turli manbadan kelgan ma’lumot bir joyga jamlanadi va rivojlanish dinamikasi tahlil qilinadi.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

Natijada resurslar maqsadli taqsimlanadi va har bir talaba uchun ta’lim strategiyasi belgilanadi.



3-rasm. Adaptiv boshqaruvning metodologik va institutsional darajalari.

Intervensiya bosqichi differensial pedagogik qo‘llab-quvvatlash tarzida joriy etiladi. Uning asosiy vositalari mentorlik, metakognitiv trening va texnologik qo‘llab-quvvatlashdir. Vositaning turi va hajmi talabaning profiliga qarab tanlanadi.

Monitoring bosqichi tizimli qayta aloqa vazifasini bajaradi: samaradorlik tahlil qilinadi, qayta diagnostika o‘tkaziladi va zarur bo‘lsa o‘quv dasturiga tuzatish kiritiladi. Shu tariqa institutsional mexanizm metodologik siklni yopadi.

Diagnostika natijalariga ko‘ra talabalar uchta tipik toifaga ajratiladi: yuqori salohiyat toifasi, barqaror rivojlanish toifasi va xavf guruhiga mansub toifa. Toifalash o‘z-o‘zicha baho emas, u mentorlik intensivligini belgilash, o‘quv yuklamasini optimallashtirish va qo‘llab-quvvatlash hajmini taqsimlash uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Xavf guruhiga mansub talabalar bilan ishlash alohida ahamiyatga ega, chunki ularning orqada qolishi ko‘pincha bilim yetishmasligi bilan emas, ishonch va motivatsiya bilan bog‘liq bo‘ladi.

Joriy etishning shartlari va cheklovlari

Mexanizmning ishlashi uchun bir necha shart zarur. Birinchisi — ma’lumot bilan ishlash ko‘nikmasi. O‘qituvchilar ma’lumotni ko‘pincha intuitiv yig‘ishi va shaxsiy mezonlar asosida talqin qilishi yuqorida qayd etilgan edi; shu bois mexanizmni joriy etish maxsus

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

tayyorgarlikni talab qiladi. Ikkinchisi — tashkiliy qo‘llab-quvvatlash: rahbariyat tomonidan vaqt, vosita va muvofiqlashtirish ta’minlanmasa, mexanizm rasmiy tartibga aylanib qoladi[18].

Uchinchi shart — klaster subyektlari o‘rtasida ma’lumot almashinuvining yo‘lga qo‘yilishi. Talaba haqidagi ma’lumot universitetda, maktabda va mentorlik tizimida alohida-alohida to‘plansa, yaxlit profil shakllanmaydi. Shu bois mexanizm klaster tuzilmasining o‘zida, subyektlar hamkorligi doirasida ishlashi kerak[19]. Klaster subyektlarining vazifalarini shu maqsadda qayta taqsimlash zarurati milliy tadqiqotlarda ham qayd etilgan[20].

Cheklovlarni ham ochiq aytish zarur. Birinchidan, ma’lumotning mavjudligi natijani kafolatlamaydi: boshlang‘ich ta’limda o‘tkazilgan tadqiqot o‘qituvchilarning ma’lumotdan foydalanishi o‘qitish sifatini yaxshilamaganini ko‘rsatgan[21]. Demak, mexanizmning samarasi uning mavjudligi bilan emas, qanday qo‘llanishi bilan belgilanadi.

Ikkinchidan, profillar bo‘yicha taqsimlash etik jihatdan ehtiyotkorlikni talab qiladi. Guruhga mansublik talabaga yorliq sifatida tushunilsa, u rivojlanish vositasidan chegaralash vositasiga aylanadi. Shu bois profil vaqtinchalik holat sifatida talqin qilinishi va muntazam qayta o‘lchanishi shart.

Uchinchidan, mexanizm ushbu maqolada nazariy jihatdan asoslangan va institutsional amalga oshirish tartibi belgilangan, ammo uning samaradorligi alohida tajriba-sinov tadqiqotida tekshirilishi kerak. Ayni vaqtda o‘qituvchi tayyorlash tizimiga bo‘lgan global talab ortib borayotgani[22] va strategik hujjatlarda ta’lim sifatini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish vazifasi qo‘yilgani[23] bunday mexanizmlarga ehtiyojni kuchaytiradi.

Tadqiqot klaster tahlil bilan pedagogik boshqaruv o‘rtasida metodologik uzilish mavjudligini ko‘rsatdi: tahlil guruhlarni ajratadi, ammo ularga nisbatan qanday qaror qabul qilinishi tartibga solinmagan. Ushbu uzilish tahlil usulining kamchiligi emas, balki boshqaruv mexanizmining yo‘qligidan kelib chiqadi.

Taklif etilgan to‘rt bosqichli mexanizm shu bo‘shliqni to‘ldiradi. Uning asosiy yangiligi bosqichlar o‘rtasidagi majburiy bog‘liqlikda: aniqlangan profil qarorni, qaror ta’sirni, ta’sir esa qayta o‘lchovni talab qiladi. Shu tariqa tahlil natijasi tavsif bo‘lib qolmaydi.

Mexanizmning kirish ma’lumoti beshta o‘lchamdan iborat bo‘lib, ular kasbiy imkoniyat, o‘quv strategiyasi va shaxsiy resurslarni qamrab oladi. Har bir o‘lchov aniq diagnostik savolga va shu savolga mos qo‘llab-quvvatlash choralariga bog‘langan.

---

[18] Marsh J.A., Farrell C.C. How leaders can support teachers with data-driven decision making: A framework for understanding capacity building // Educational Management Administration & Leadership. – 2015. – Vol. 43, No. 2. – P. 269–289. DOI: 10.1177/1741143214537229

[19] Mukhamedov G.I., Khodjamkulov U.N., Shofkorov A.M., Makhmudov K.S. Pedagogical Education Cluster: Content and Form // ISJ Theoretical & Applied Science. – 2020. – №1(81). – P. 250–257. DOI: 10.15863/TAS.2020.01.81.46

[20] Xo‘jamqulov U.N. Inklyuziv madaniyatini shakllantirishda ta’lim klasteri subyektlarining o‘rni // Universal xalqaro ilmiy jurnal. – 2025. – Jild 2, №4.1. – B. 61–64.

[21] Gelderblom G., Schildkamp K., Pieters J., Ehren M. Data-based decision making for instructional improvement in primary education // International Journal of Educational Research. – 2016. – Vol. 80. – P. 1–14.

[22] UNESCO, International Task Force on Teachers for Education 2030. Global Report on Teachers: Addressing teacher shortages and transforming the profession. – Paris: UNESCO, 2024. – 178 p.

[23] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi «O‘zbekiston – 2030» strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-158-son Farmoni.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

Quyidagi takliflar ilgari suriladi. Birinchidan, klaster tahlil natijalarini talqin qilish qoidalari o‘quv jarayoni boshlanishidan oldin yozma ravishda belgilanishi lozim. Ikkinchidan, profil bo‘yicha ma’lumot klaster subyektlari o‘rtasida yagona tartibda to‘planishi va almashinishi kerak. Uchinchidan, mexanizmni joriy etishdan oldin professor-o‘qituvchilar uchun ma’lumot bilan ishlash bo‘yicha tayyorgarlik o‘tkazilishi zarur. To‘rtinchidan, mexanizmning samaradorligi nazorat guruhi ishtirokidagi tajriba-sinovda tekshirilishi talab etiladi.

Tadqiqotning cheklovi shundan iboratki, mexanizmning metodologik va institutsional tuzilmasi belgilangan bo‘lsa-da, uning amaliy samarasi ushbu maqola doirasida empirik tarzda o‘lchanmagan. Bu vazifa keyingi tadqiqotlarning predmeti hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Jin Y., Schmidt-Crawford D. Preservice teacher cluster memberships in an edtech course: A study of their TPACK development // Computers and Education Open. – 2022. – Vol. 3. – Article 100089. DOI: 10.1016/j.caeo.2022.100089
2. Mandinach E.B., Schildkamp K. Misconceptions about data-based decision making in education: An exploration of the literature // Studies in Educational Evaluation. – 2021. – Vol. 69. – Article 100842. DOI: 10.1016/j.stueduc.2020.100842
3. Schildkamp K., Lai M.K., Earl L. (Eds.) Data-based Decision Making in Education: Challenges and Opportunities. – Dordrecht: Springer, 2013. – (Studies in Educational Leadership, Vol. 17).
4. Schildkamp K. Data-based decision-making for school improvement: Research insights and gaps // Educational Research. – 2019. – Vol. 61, No. 3. – P. 257–273. DOI: 10.1080/00131881.2019.1625716
5. Gelderblom G., Schildkamp K., Pieters J., Ehren M. Data-based decision making for instructional improvement in primary education // International Journal of Educational Research. – 2016. – Vol. 80. – P. 1–14.
6. Hoogland I., Schildkamp K., Van der Kleij F., Heitink M., Kippers W., Veldkamp B. Prerequisites for data-based decision making in the classroom: Research evidence and practical illustrations // Teaching and Teacher Education. – 2016. – Vol. 60. – P. 377–386.
7. Vanlommel K., Schildkamp K. How do teachers make sense of data in the context of high-stakes decision making? // American Educational Research Journal. – 2019. DOI: 10.3102/0002831218803891
8. Marsh J.A., Farrell C.C. How leaders can support teachers with data-driven decision making: A framework for understanding capacity building // Educational Management Administration & Leadership. – 2015. – Vol. 43, No. 2. – P. 269–289. DOI: 10.1177/1741143214537229

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

9. Федоров В.А., Чедов К.В. Актуализация потенциала регионального образовательного пространства на основе кластерного взаимодействия // Образование и наука. – 2019. – Т. 21, №9. – С. 186–220. DOI: 10.17853/1994-5639-2019-9-186-220
10. Mukhamedov G.I., Khodjamkulov U.N., Shofkorov A.M., Makhmudov K.S. Pedagogical Education Cluster: Content and Form // ISJ Theoretical & Applied Science. – 2020. – №1(81). – P. 250–257. DOI: 10.15863/TAS.2020.01.81.46
11. Ходжамқулов У.Н. Педагогик таълим инновацион кластерининг илмий-назарий асослари: пед. фан. док. (DSc) дисс. – Чирчиқ, 2020.
12. UNESCO, International Task Force on Teachers for Education 2030. Global Report on Teachers: Addressing teacher shortages and transforming the profession. – Paris: UNESCO, 2024. – 178 p.
13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi «O‘zbekiston – 2030» strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-158-son Farmoni.
14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi «O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi PF-5847-son Farmoni.
15. Badalova M.U., Badalova N.N. Ta’lim klasteri bo‘yicha xalqaro amaliyot // Pedagogik mahorat. – Buxoro, 2025. – №5(3). – B. 70–74.

© intereduglobalstudy.com

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

XALQ DOSTONLARINING MILLIY O‘ZLIKNI ANGLASH KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHGA DAXLDOR MAZMUNIY-PEDAGOGIK SALOHIYATI.

Djumaniyazov Umrbek Maxsudovich, Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi.
ORCID: 0009-0002-7984-0792
umrbekdjumaniyazov@mail.ru

Annotatsiya

KIRISH: ushbu maqolada milliy o‘zlikni anglash kompetensiyasini rivojlantirishda xalq dostonlarining o‘rni va pedagogik salohiyati xususida so‘z boradi. “Milliy o‘zlikni anglash” va “national identity” tushunchalarining sinonim emas, balki bir-birini to‘ldiruvchi atamalar ekanligi haqida to‘xtalib o‘tilgan.

MAQSAD: Xalq dostonlarining milliy o‘zlikni anglash kompetensiyasini rivojlantirishga daxldor mazmuniy-pedagok salohiyatini aniqlash, tizimlashtirish hamda ta’lim jarayonidagi ilmiy-pedagogik imkoniyatlarini asoslashdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR: Tadqiqotda qiyosiy-tahliliy, ilmiy-pedagogik manbalar hamda OUM (Ajiniyoz nomidagi NDPI "O‘zbek folklori" ishchi o‘quv dasturi) mazmunini tahlil qilish, kompetensiyaviy hamda tizimli yondashuv usullaridan foydalanildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: Xalq dostonlarining milliy o‘zlikni anglashga daxldor salohiyati uchta asosiy mazmuniy yo‘nalishda (tarixiy-genealogik davomiylik, jamoaviy mansublik va ijtimoiy ideal, qadriyatning epik qaror hamda mas’uliyatda namoyon bo‘lishi) guruhlandi; folkloristik tahlildan farqli o‘laroq, doston mazmunini talabaning shaxsiy kompetensiyaviy natijasiga aylantirish uchun "mazmun – o‘quv faoliyati – kutiladigan shaxsiy natija – baholash" zanjiridan iborat maqsadli pedagogik aloqani o‘rnatish zarurligi isbotlandi.

XULOSA: Xalq dostonlarining tarbiyaviy mazmuni talabaning milliy o‘zligini anglashida aniq kompetensiyaviy o‘zgarishlarga olib kelishi uchun doston matni bilan ishlash jarayonini intellektual va interpretativ pedagogik faoliyat sifatida qayta mazmunlantirish zarur.

Kalit so‘zlar: milliy o‘zlikni anglash, tarbiyaviy g‘oya, milliy mansublik, jamoaviy mansublik, “Alpomish”, “Kuntug‘mish”, “Go‘ro‘g‘li”.

СОДЕРЖАТЕЛЬНО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ ПОТЕНЦИАЛ НАРОДНЫХ ДАСТАНОВ, СВЯЗАННЫЙ С РАЗВИТИЕМ КОМПЕТЕНЦИИ НАЦИОНАЛЬНОГО САМОСОЗНАНИЯ.

Джуманиязов Умрбек Махсудович, самостоятельный соискатель
Ургенчский государственный университет имени А. Беруни.

Аннотация

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

ВВЕДЕНИЕ: в данной статье рассматривается роль и педагогический потенциал народных дастанов в развитии компетенции национального самосознания. Отмечено, что понятия "национальное самосознание" и "национальная идентичность" являются не синонимами, а взаимодополняющими терминами.

ЦЕЛЬ: выявление, систематизация и научно-педагогическое обоснование содержательно-педагогического потенциала народных эпосов в развитии компетенции национального самосознания.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании использованы методы сравнительного и научно-педагогического анализа, анализ учебно-методической документации (рабочей учебной программы «Узбекский фольклор» НГПИ им. Аджинияза), а также компетентностный и системный подходы.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: потенциал народных эпосов в контексте национального самосознания сгруппирован по трем направлениям (историко-генеалогическая преемственность, коллективная принадлежность и социальный идеал, проявление ценностей в эпических решениях и ответственности); доказано, что в отличие от фольклористического анализа для трансформации содержания эпоса в личностный результат студента необходима целевая педагогическая связь «содержание – учебная деятельность – ожидаемый личностный результат – оценка».

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: для того чтобы воспитательное содержание эпоса приводило к четким компетентностным изменениям в национальном самосознании студента, процесс работы с текстом эпоса необходимо переосмыслить как интеллектуальную и интерпретационную педагогическую деятельность.

Ключевые слова: национальное самосознание, воспитательная идея, национальная принадлежность, коллективная принадлежность, “Алпамыш”, “Кунтугмыш”, “Гороглы”.

THE CONTENT-PEDAGOGICAL POTENTIAL OF FOLK EPICS RELATED TO THE DEVELOPMENT OF NATIONAL IDENTITY COMPETENCE.

Djumaniyazov Umrbek Makhsudovich, independent researcher
Urgench State University named after A. Beruni.

Annotation

INTRODUCTION: this article discusses the role and pedagogical potential of folk epics in developing the competence of national self-awareness. It is noted that the concepts of “national self-awareness” and “national identity” are not synonyms, but complementary terms.

AIM: to identify, systematize, and scientifically substantiate the content-pedagogical potential of folk epics in developing the competence of national self-awareness.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

MATERIALS AND METHODS: the study employed comparative and scientific-pedagogical analysis, content analysis of educational standards (the syllabus for "Uzbek Folklore" at Nukus State Pedagogical Institute named after Ajiniyaz), along with competency-based and systems approaches.

DISCUSSION AND RESULTS: the potential of folk epics regarding national self-awareness was categorized into three primary content dimensions (historical-genealogical continuity, collective belonging and social ideal, and the manifestation of values through epic decision-making and responsibility); it was demonstrated that transforming epic content into a personal outcome requires establishing a targeted pedagogical link: "content – learning activity – expected personal result – evaluation".

CONCLUSION: for the educational content of an epic to drive measurable competency changes in a student's national self-awareness, the process of studying the text must be restructured into an intellectual and interpretive pedagogical activity.

Keywords: national identity, educational idea, national identity, collective identity, “Alpomish”, “Kuntugmish”, “Gorogly”.

Talabalik davrida milliy-madaniy mansublikni ongli ravishda qayta tizimlashtirish zarurati ushbu jarayonni qanday madaniy mazmun asosida tashkil etish mumkinligi masalasini yuzaga keltiradi. Shu jihatdan xalq dostonlari tadqiqot uchun avvalo folklor janrining tarixiy taraqqiyotini o‘rganish obyekti sifatida emas, balki xalqning o‘zi, o‘tmishi, ijtimoiy munosabatlari va qadriyatlari haqidagi tasavvurlarini badiiy tizimda saqlagan madaniy mazmun manbai sifatida ahamiyatlidir.

O. Safarov, D. O‘rayeva va M. Qurbonova xalq og‘zaki ijodida xalqning o‘tmish tarixi, madaniyati, an’analari, urf-odatlari, axloqiy va e’tiqodiy qarashlari mujassamlashishini qayd etib, folklorni o‘rganish ajdodlarning madaniy-ma’rifiy o‘tmishini teranroq anglash imkonini berishini ta’kidlaydilar[1:73]. Mazkur fikr xalq dostonlaridan milliy o‘zlikni anglashni rivojlantirishda foydalanish uchun muhim boshlang‘ich asos beradi: doston orqali talaba faqat tarixiy voqea yoki folklor syujetini emas, balki xalqning voqelikni qaysi mezonlar asosida idrok etgani va qanday ma’nolarni avlodlarga uzatganini o‘rganish imkoniga ega bo‘ladi.

Dostonlarning mazkur imkoniyati, birinchi navbatda, tarixiy xotira va avlodlar davomiyligini badiiy shaklda ifodalashida namoyon bo‘ladi. Sh. Turdimov “Alpomish” dostonining boshlanishidagi epik shajarani tahlil qilar ekan, unda avlodlarning oddiy sanog‘idan ko‘ra murakkabroq semantik tuzilma mavjudligini ko‘rsatadi. Olim Dovonbiy – Alpinbiy – Boybo‘ri – Boysari – Alpomish va keyingi avlodlar o‘rtasidagi aloqani dostonning ichki mazmunini tashkil etuvchi avlodiy davomiylik bilan bog‘laydi. Xususan, besh avlodning nomma-nom berilishi va keyingi bo‘g‘inlarga o‘tish epik voqelikda avlodlar uzluksizligini ifodalovchi vosita sifatida sharhlanadi[2:14]. Ushbu tahlilni pedagogik nuqtayi nazardan talqin qilganda, shajara talaba uchun nasabga oid ma’lumotning o‘zigina emas,

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

balki individual mavjudlikning avvalgi va keyingi avlodlar bilan bog‘liqligini anglashga xizmat qiladigan madaniy semantika sifatida ahamiyat kasb etadi. Ya’ni, shaxsning o‘zini muayyan tarixiy-madaniy davomiylik tarkibida idrok etishiga olib kelishi mumkin bo‘lgan imkoniyatni yuzaga keltiradi.

Ikkinchi muhim yo‘nalish dostonlarda el-yurtga mansublik, ijtimoiy ideal va burch tushunchalarining qahramon obrazi orqali konkretlashtirilishi bilan bog‘liq. O. Safarov, D. O‘rayeva va M. Qurbonova o‘zbek “Go‘ro‘g‘li” dostonlarida bosh qahramon o‘z xalqi va Vatani uchun qayg‘uruvchi, yurtni bosqindan himoya qiluvchi hukmdor va bahodir sifatida tasvirlanishini, turkum-doston mazmunida xalqning burch haqidagi orzu-umidlari va ideallari o‘z ifodasini topganini qayd etadilar[1:73-74]. Mazkur jihat milliy mansublikni faqat etnik nom, urf-odat yoki tashqi ramzlar bilan bog‘lashdan ko‘ra kengroq pedagogik imkoniyat yaratadi. Epik qahramonning kimligi uning qaysi jamoaga mansubligi bilangina emas, balki shu jamoa oldida qanday vazifa bajarishi, nimani himoya qilishi va qaysi manfaatni shaxsiy manfaatidan ustun qo‘yishi orqali ochiladi. Demak, doston milliy mansublik mazmunini daxldorlik – burch – mas’uliyat munosabatlari doirasida muhokama qilish uchun asos beradi.

Uchinchi jihat dostonlarda qadriyatlarning mavhum axloqiy tushuncha sifatida emas, epik voqea va konflikt ichida amal qiluvchi mezon sifatida namoyon bo‘lishidir. Qahramonning yurtni himoya qilishi, va’daga sodiqligi, oilaviy yoki jamoaviy burchni bajarishi, adolatsizlikka munosabati kabi holatlar qadriyatni tayyor ta’rifdan ko‘ra uning amaliy ifodasi orqali yoritiladi. Bunda “axloqiy tanlov” dostonshunoslik manbalaridan tayyor kategoriya sifatida olinmaydi, aksincha, epik konfliktning pedagogik imkoniyatidan kelib chiqadigan xulosa sifatida qo‘llanadi. Ya’ni qahramon qanday qaror qabul qilgani, uning qarori qaysi mezonga tayangani va bu qaror qanday oqibat tug‘dirgani talaba uchun qadriyatning real mazmunini tahlil qilish vaziyatiga aylantirilishi mumkin. “Go‘ro‘g‘li” obrazining yurt xavfsizligi va ozodligi bilan bog‘liq faoliyati ham qadriyatning qahramon xatti-harakatida konkretlashishiga misol bo‘la oladi.

Shunday qilib, tadqiqot vazifasidan kelib chiqib xalq dostonlarining milliy o‘zlikni anglashga daxldor salohiyatini bir-biridan uzilgan ko‘plab tarbiyaviy sifatlarni sanash orqali emas, uchta o‘zaro bog‘liq mazmunli yo‘nalishda ko‘rish maqsadga muvofiq: tarixiy-genealogik davomiylik, jamoaviy mansublik va ijtimoiy ideal, qadriyatning epik qaror va mas’uliyatda namoyon bo‘lishi. Ushbu uchlik xalq dostonlarining mazmuni bilan milliy o‘zlikni anglash kompetensiyasining rivojlanishi o‘rtasida pedagogik aloqa o‘rnatish uchun mazmuniy asos yaratadi.

Dostonning yuqoridagi mazmunli xususiyatlarini aniqlashning o‘zi undan ta’lim jarayonida foydalanish samaradorligini kafolatlamaydi. Bu yerda matnda mavjud mazmun bilan talaba tomonidan o‘zlashtirilgan shaxsiy-pedagogik natijani farqlash zarur. Tarixiy xotira, yurtga daxldorlik yoki burch motivining dostonda mavjudligi talabada shu mazmunning aynan anglangan shaklda hosil bo‘lishini avtomatik ravishda ta’minlamaydi.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

Asarning pedagogik imkoniyati faqat talaba matn mazmuni bilan qanday intellektual va interpretativ faoliyatga kirishgani orqali ro‘yobga chiqadi.

Dostonning tarbiyaviy imkoniyatini ro‘yobga chiqarish uchun unga yangi “tarbiyaviy g‘oya” qo‘shish talab etilmaydi. Aksincha, uning o‘zida mavjud mazmunni ochish, dalillash va shaxsiy jihatdan qayta mazmunlantirishga olib keluvchi pedagogik faoliyat tashkil etilishini zaruriyatga aylantiradi.

Xalq dostonlaridan foydalanishdagi mavjud holatni tahlil qilishda “dostonlar oliy ta’limda faqat yodlash yoki qayta hikoyalash asosida o‘rganiladi” degan umumiy hukm ilmiy jihatdan asosli emas. Tekshirilgan o‘quv-me’yoriy manba aksincha, folklorni o‘qitishda nazariy bilim bilan birga chuqur tahlil, mustaqil xulosa chiqarish va faol metodlardan foydalanish ham nazarda tutilganini ko‘rsatadi. Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika institutining 2021-yilgi “O‘zbek folklori” ishchi o‘quv dasturida fanning vazifalari qatorida xalq og‘zaki ijodi namunalarini chuqur tahlil qilish, ma’naviy merosga muhabbat ruhida tarbiyalash belgilangan; kurs mazmunida esa “Alpomish” va “Go‘ro‘g‘li” dostonlarining variantlari, g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari, alplik tizimi, epos va etnos munosabati kabi masalalar o‘rganiladi[3:4]. Dasturdagi amaliy va nazorat topshiriqlari ham bir xil reproduktiv xarakterga ega emas. Amaliy mashg‘ulotlarda “Alpomish”, “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi”, “Kuntug‘mish”, “Ravshan”, “Rustamxon” kabi dostonlarni tahlil qilish ko‘zda tutilgan. Oraliq nazorat savollarida dostonlarning janriy belgilari va syujetiga oid axborotli savollar bilan bir qatorda “Ravshan” yoki Ultontoz xatti-harakatlariga baho berish, “Go‘ro‘g‘li” turkumi g‘oyalarini izohlash kabi fikrlashni talab qiluvchi vazifalar ham mavjud. Shu sababli mavjud amaliyotning muammosini tahliliy faoliyat yoki faol metodlarning yo‘qligi bilan izohlash mazkur hujjat mazmuniga zid bo‘ladi.

Biroq aynan shu dastur tahlili tadqiqotimiz uchun boshqa, ancha aniq chegarani ko‘rsatadi. Fanning rejalashtirilgan natijalari, avvalo, folklorning janrlar tizimi va xususiyatlarini bilish, folklor namunalarini tahlil qilish, ular bo‘yicha mustaqil fikr yuritish, milliy va diniy-falsafiy qarashlar haqida tasavvur hosil qilish hamda olingan bilimlarni amalda qo‘llash bilan ifodalangan[3:13]. Bu natijalar folklorshunoslik va filologik tayyorgarlik uchun mazmunan asosli bo‘lsa-da, hujjatda milliy o‘zlikni anglash alohida kompetensiyaviy natija sifatida strukturallashtirilmagan, unga xos indikatorlar ajratilmagan va dostonning muayyan mazmuniy birliklari bilan ushbu natija o‘rtasidagi pedagogik muvofiqlik belgilanmagan.

Shu asosda mavjud pedagogik ta’minotdagi cheklovni “dostonlar tahlil qilinmaydi” yoki “ta’lim faqat reproduktiv xarakterda” tarzida emas, balki quyidagicha aniq qo‘yish ilmiy jihatdan to‘g‘ri bo‘ladi: folkloristik va badiiy tahlilga yo‘naltirilgan faoliyat mavjud bo‘lsa-da, xalq dostonining milliy o‘zlikka daxldor mazmunini alohida kompetensiyaviy natijaga aylantirish uchun “mazmun – o‘quv faoliyati – kutiladigan shaxsiy natija – baholash” o‘rtasidagi maqsadli pedagogik aloqa maxsus qurilmagan. Bunda masala mavjud folklor ta’limini rad etish yoki uni yangidan qurishda emas. Aksincha, mavjud folkloristik bilim va

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

badiiy tahlil imkoniyatlarini boshqa maqsadli pedagogik natija – talabaning milliy o‘zligini anglash kompetensiyasi bilan funksional bog‘lash zarurati yuzaga keladi.

Yuqorida asoslangan pedagogik ehtiyojni ilmiy muammo darajasida aniqlashtirish uchun xalq dostonlari, milliy tarbiya, milliy o‘zlikni anglash hamda kompetensiyaviy ta’limga oid tadqiqotlarni bir-biridan alohida emas, ularning predmet va kutiladigan natijalari kesishmasida ko‘rib chiqish zarur. Bunday yondashuv mazkur yo‘nalishlarda tadqiqotlar mavjud yoki mavjud emasligini qayd etishdan ko‘ra, ularda ishlab chiqilgan ilmiy natijalarning aynan qaysi pedagogik vazifalarni hal etishini va tadqiqotimiz uchun qaysi masala ochiq qolayotganini aniqlash imkonini beradi.

Aniqroq aytganda, ko‘rib chiqilgan manbalar doirasida xalq dostonlarining milliy o‘zlikni anglash uchun pedagogik ahamiyatli mazmuniy birliklarini tanlash va asoslash, ushbu mazmunni talabaning milliy o‘zlikni anglashiga yo‘naltirilgan o‘quv faoliyati bilan muvofiqlashtirish hamda mazkur jarayonni oldindan belgilangan kompetensiyaviy natija bilan yaxlit aloqada qurish masalasi yetarlicha tizimlashtirilgan pedagogik yechim sifatida namoyon bo‘lmaydi. Bu xulosa mavjud tadqiqotlarni inkor etmaydi; aksincha, ularda ishlab chiqilgan milliy tarbiya, identifikatsiya, folklor vositalari, adabiy-metodik yondashuv va kompetensiyaviy ta’lim natijalarining kesishgan nuqtasida tadqiqotimizning ilmiy maydonini belgilaydi.

Mazkur ilmiy bo‘shliqni shu tarzda qo‘yish yana bir metodologik aniqlikni talab qiladi. “Milliy o‘zlikni anglash” va xalqaro adabiyotlarda qo‘llanadigan “national identity” tushunchalari ushbu maqolada sinonim sifatida qabul qilinmaydi; xuddi shuningdek, ma’naviy-axloqiy tarbiya, milliy iftixor va milliy o‘zlikni anglash kompetensiyasi ham bitta natija sifatida birlashtirilmaydi. Ular bir-biriga yaqin tadqiqot maydonlarini tashkil etadi, biroq aynan shu farqlanish dissertatsiyada yangi pedagogik vazifaning qo‘yilishiga imkon beradi.

Aniqlangan ilmiy bo‘shliq va pedagogik ziddiyatlar tadqiqot muammosini xalq dostonlarining “tarbiyaviy ahamiyati”ni umumiy tarzda asoslash bilan chegaralash mumkin emasligini ko‘rsatadi. Shu sababli yangi pedagogik muammo mavjud vositani yana bir bor tavsiflashda emas, uning mazmuniy imkoniyatlarini aniq belgilangan kompetensiyaviy natijaga pedagogik jihatdan yo‘naltirishda namoyon bo‘ladi.

Shunday qilib, dostonning tarbiyaviy mazmuni mavjud yoki mavjud emasligi emas, balki ushbu mazmunni talabaning milliy o‘zligini anglashida kuzatiladigan kompetensiyaviy o‘zgarishga olib keluvchi mazmunli va jarayonli aloqalar tizimini pedagogik jihatdan asoslashdadir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Safarov O., O‘rayeva D., Qurbonova M. O‘zbekiston xalqlari etnografiyasi va folklori: kasb-hunar kollejlarining madaniyat va san’at yo‘nalishida ta’lim oluvchi talabalar uchun darslik. – Toshkent: O‘qituvchi, 2007. – 136 b.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

2. Turdimov Sh. Etnos va epos. – Toshkent: O‘zbekiston, 2012. – 96 b
3. Bekchanova S. O‘zbek folklori fani bo‘yicha (1-kurslar uchun) ishchi o‘quv dasturi. 60111400 – O‘zbek tili va adabiyoti ta’lim yo‘nalishi. – Nukus: Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti, 2021. – 17 b.
4. Yusupova N.R. Farg‘ona–Toshkent etnomusiqa namunalarining estetik-falsafiy mohiyati va milliy o‘zlikni shakllantirishdagi o‘rni // Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences. – 2025. – T. 5. – № 4. – B. 665–675.
5. Fayzullayeva N.S., Raxmanova S.R. “O‘tkan kunlar” romanida milliy o‘zlikni anglash jarayonining estetik asoslari // Modern Science and Research. – 2025. – Vol. 4. – No. 11. – B. 120–124.
6. Zokirova N. Axborotlashgan jamiyatda yoshlarni milliy o‘zligidan begonalashuvini oldini olishning ijtimoiy xususiyatlari // Oriental Journal of History, Politics and Law. – 2024. – B. 183–188. – DOI: 10.37547/supsci-ojhpl-04-10-20.
7. Suyunov Sh.B. O‘zbekistonda milliy o‘zlikni anglashda o‘zbek tilining ijtimoiy-falsafiy ahamiyati: falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Samarqand, 2023. – 45 b.

© intereduglobalstudy.com

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

AKSIOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA BO‘LAJAK PEDAGOGLARNING EKOLOGIK MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH.

Yo‘ldosheva Iqbol Bekbo‘lsin qizi, Urganch RANCH universiteti, Pedagogika va aniq fanlar kafedrasi o‘qituvchisi).
yuldashevaiqbol@gmail.com

Annotatsiya

KIRISH: maqolada bo‘lajak pedagoglarning ekologik madaniyatini aksiologik yondashuv asosida rivojlantirish muammosi ko‘rib chiqilgan. Muallif ekologik xavfsizlik va barqaror rivojlanish talablari bilan oliy pedagogik ta’lim amaliyoti o‘rtasidagi asosiy ziddiyatlarni tahlil qiladi, ularning pedagogik ifodasini va ilmiy yechim yo‘nalishlarini asoslaydi. Muammoning jamiyat-davlat, institutsional-mazmuniy, jarayon-texnologik va shaxsiy-kasbiy darajalari yoritilgan, ekologik bilim bilan xulq-atvor o‘rtasidagi tafovut A. Kollmuss, J. Agyeman va P. Sternning konsepsiyalari asosida izohlangan. Shuningdek, aksiologiya tushunchasi M. Sheler, N. Gartman va K. Klakxon qarashlari asosida ta’lim kontekstida tahlil qilinib, qadriyatlarning ta’lim maqsadi, mazmuni, metodi va baholash mezonlarini belgilashdagi funktsional ahamiyati ko‘rsatib berilgan.

MAQSAD: aksiologik yondashuv asosida bo‘lajak pedagoglarning ekologik madaniyatini rivojlantirishning metodologik, institutsional va amaliy-pedagogik asoslarini hamda ziddiyatlarini tadqiq etishdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda ekologik bilim va xulq-atvor o‘rtasidagi tafovutni tahlil qilishda A. Kollmuss, J. Agyeman va P. Stern konsepsiyalaridan, qadriyatli yondashuvni ta’limga tatbiq etishda M. Sheler, N. Gartman hamda K. Klakxonning aksiologik nazariyalaridan, shuningdek, manbalar triangulyatsiyasi va ko‘p manbali diagnostika usullaridan foydalanildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: muammoning jamiyat-davlat, institutsional-mazmuniy, jarayon-texnologik va shaxsiy-kasbiy darajalari hamda oliy ta’limdagi 6 ta asosiy pedagogik ziddiyat yoritildi; mediasavodxonlik ekologik madaniyatning funksional sharti sifatida asoslanib, aksiologik yondashuvning ta’lim maqsadi, mazmuni, metodlari hamda mezonlarini belgilashdagi 6 ta funksional ahamiyati ko‘rsatib berildi.

XULOSA: ekologik madaniyatni rivojlantirish soddalashtirilgan "bildi — demak, amal qiladi" mantiqidan voz kechishni, qadriyat, motiv va tanlov vaziyatlarini yaxlit pedagogik tizimda loyihalashni hamda ko‘p manbali diagnostika tizimini joriy etishni talab etadi.

Kalit so‘zlar: ekologik madaniyat, aksiologik yondashuv, bo‘lajak pedagog, barqaror rivojlanish, ekologik qadriyatlar, ekologik xulq-atvor, pedagogik ziddiyat, media savodxonlik.

МОДЕЛЬ «НАСТАВНИЧЕСТВО» И ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ СИСТЕМА ПРОЕКТА «МЫ УЧИМ И УЧИМСЯ» В СРЕДЕ КЛАСТЕРА ХУДОЖЕСТВЕННОГО ОБРАЗОВАНИЯ.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

Султанов Хайтбой Ералиевич, Чирчикский государственный педагогический университет профессор кафедры «Изобразительное искусство и дизайн».

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в статье рассматривается проблема развития экологической культуры будущих педагогов на основе аксиологического подхода. Автор анализирует основные противоречия между требованиями экологической безопасности и устойчивого развития и реальной практикой высшего педагогического образования, раскрывает их педагогическое выражение и обосновывает направления научного решения. Освещены общественно-государственный, институционально-содержательный, процессуально-технологический и личностно-профессиональный уровни проблемы, разрыв между экологическими знаниями и поведением объяснён с опорой на концепции А. Коллмусс, Дж. Агьемана и П. Стерна. Также понятие аксиологии проанализировано в педагогическом контексте на основе взглядов М. Шелера, Н. Гартмана и К. Клакхона, показана функциональная роль ценностей в определении цели, содержания, метода и критериев оценки образования.

ЦЕЛЬ: исследование методологических, институциональных и практико-педагогических основ, а также противоречий развития экологической культуры будущих педагогов на основе аксиологического подхода.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании использованы концепции А. Коллмусс, Дж. Агьемана и П. Стерна для объяснения разрыва между экологическими знаниями и поведением, аксиологические теории М. Шелера, Н. Гартмана и К. Клакхона, а также методы триангуляции источников и многоисточниковой диагностики.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: освещены общественно-государственный, институционально-содержательный, процессуально-технологический и личностно-профессиональный уровни проблемы, выявлены 6 ключевых педагогических противоречий; обоснована медиаграмотность как функциональное условие экологической культуры и раскрыты 6 функций аксиологического подхода в определении целей, содержания, методов и критериев оценки образования.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: развитие экологической культуры требует отказа от упрощенной логики «знает — значит поступает», проектирования ценностей, мотивов и ситуаций выбора в единой педагогической системе, а также внедрения комплексной многоисточниковой диагностики.

Ключевые слова: экологическая культура, аксиологический подход, будущий педагог, устойчивое развитие, экологические ценности, экологическое поведение, педагогическое противоречие, медиаграмотность.

© intereduglobalstudy.com

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

"MENTORCRAFT" MODEL AND THE PEDAGOGICAL SYSTEM OF THE "WE TEACH AND LEARN" PROJECT IN THE ENVIRONMENT OF ART EDUCATION CLUSTER.

Sultanov Khaytboy Eralievich, Chirchik State Pedagogical University, Professor of the Department of "Fine Arts and Design".

Annotation

INTRODUCTION: the article examines the problem of developing the ecological culture of future teachers based on an axiological approach. The author analyzes the main contradictions between the requirements of ecological safety and sustainable development and the actual practice of higher pedagogical education, reveals their pedagogical expression, and substantiates directions for a scientific solution. The societal-state, institutional-content, procedural-technological, and personal-professional levels of the problem are highlighted, and the gap between ecological knowledge and behavior is explained through the concepts of A. Kollmuss, J. Agyeman, and P. Stern. The notion of axiology is also analyzed in the educational context based on the views of M. Scheler, N. Hartmann, and C. Kluckhohn, revealing the functional role of values in determining the aim, content, method, and evaluation criteria of education.

AIM: to examine the methodological, institutional, and practical-pedagogical foundations and contradictions in developing the ecological culture of future teachers based on an axiological approach.

MATERIALS AND METHODS: the study utilized the theoretical frameworks of A. Kollmuss, J. Agyeman, and P. Stern to explain the gap between ecological knowledge and behavior, the axiological theories of M. Scheler, N. Hartmann, and C. Kluckhohn, as well as source triangulation and multi-source diagnostic methods.

DISCUSSION AND RESULTS: the societal-state, institutional-content, procedural-technological, and personal-professional levels of the problem were highlighted alongside 6 key pedagogical contradictions; media literacy was substantiated as a functional condition of ecological culture, and the 6 core functions of axiology in defining educational aims, contents, methods, and evaluation criteria were established.

CONCLUSION: Fostering ecological culture demands abandoning the simplified "knows – therefore acts" rationale, designing values, motives, and decision-making scenarios within an integrated pedagogical system, and implementing a multi-source diagnostic evaluation framework.

Keywords: ecological culture, axiological approach, future teacher, sustainable development, ecological values, ecological behavior, pedagogical contradiction, media literacy.

Hozirgi davrda ekologik muammolarning global, mintaqaviy va mahalliy ko‘lamda bir-biriga bog‘lanib borishi jamiyat taraqqiyotining mazmuni hamda insonning tabiatga

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

munosabatini qayta ko‘rib chiqishni talab etmoqda. Iqlim o‘zgarishi, biologik xilma-xillikning kamayishi, suv va yer resurslarining tanazzuli, chiqindilar hajmining ortishi singari holatlar faqat tabiiy-ilmiy yoki texnologik choralar bilan bartaraf etiladigan hodisa emas. Ularning ildizida insonning ehtiyojlari, iste’mol odatlari, qaror qabul qilish mezonlari, shaxsiy va ijtimoiy mas’uliyati mujassam. Shu bois ekologik xavfsizlikni ta’minlash madaniyatni, ta’lim maqsadlarini va shaxsning qadriyatli pozitsiyasini o‘zgartirish bilan uzviy bog‘liq ijtimoiy-pedagogik vazifaga aylandi.

O‘zbekistonda ekologik madaniyatni rivojlantirishning huquqiy poydevori konstitutsiyaviy me’yorlar bilan belgilangan. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 49-moddasida har kimning qulay atrof-muhitga va uning holati to‘g‘risida ishonchli axborotga ega bo‘lish huquqi, 61-moddasida fuqarolarning tabiiy merosni asrab-avaylashi, 62-moddasida esa atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lishi zarurligi mustahkamlangan [1]

Bo‘lajak pedagog ekologik ma’lumotni manba, sana, dalil va manfaat nuqtai nazaridan tekshirishi, xavfni bo‘rttirish yoki kamsitish holatlarini farqlashi, raqamli vositalardan mas’uliyatli foydalanishi zarur. Mediasavodxonlik ekologik savodxonlikning funktsional shartiga aylanmoqda. Pedagogning vazifasi tayyor xulosani berish emas, talabada ishonchli axborot asosida fikr yuritish va qarorning axloqiy hamda amaliy oqibatini baholash tajribasini shakllantirishdir.

UNESCOning barqaror rivojlanish uchun ta’limga oid yo‘l xaritasida ta’lim mazmuni, pedagoglar salohiyati, yoshlar ishtiroki, mahalliy harakat va ta’lim muassasalarini yaxlit o‘zgartirish ustuvor yo‘nalishlar sifatida belgilanadi.[2] Keyingi metodik tavsiyalarda iqlim va barqarorlik mazmunini o‘quv dasturiga izchil kiritish, kognitiv natijalarni ijtimoiy-emotsional hamda xulq-atvor natijalari bilan bog‘lash zarurati ta’kidlanadi.[3] Mazkur yondashuvlar ekologik madaniyatni alohida mavzuni o‘zlashtirish emas, butun ta’lim tajribasini o‘zgartirish natijasi sifatida talqin qilishga asos beradi. Bo‘lajak pedagogni tayyorlashda ham mazmun, metod, muhit va shaxsiy faoliyat bir-birini quvvatlashi lozim. Ekologik bilim bilan real xulq-atvor o‘rtasidagi tafovut mazkur muammoning markaziy masalalaridan biridir. A. Kollmuss va J. Agyeman ekologik harakatga to‘sqinlik qiluvchi ichki hamda tashqi omillar — qadriyat, odat, imkoniyat, ijtimoiy me’yor, infratuzilma va vaziyatni birgalikda hisobga olish zarurligini ko‘rsatadi.[1] P. Stern esa ekologik ahamiyatga ega xulq-atvorni tushuntirishda qadriyatlar, e’tiqod, shaxsiy me’yor va kontekstual sharoitlarning o‘zaro ta’siriga urg‘u beradi.[2] Demak, ta’limda «bildi — demak, amal qiladi» degan soddalashtirilgan mantiqdan voz kechib, shaxsning motivi, tanlov vaziyati va harakat uchun real imkoniyatlarini pedagogik jihatdan loyihalash lozim.

Bo‘lajak pedagoglar ekologik madaniyatini rivojlantirishdagi asosiy ziddiyatlar va ularning pedagogik ifodasi.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

№	Ziddiyatning ikki tomoni	Pedagogik ifodasi	Ilmiy yechim yo‘nalishi
1	Talab: ekologik xavfsizlik va barqaror rivojlanishni qo‘llab-quvvatlaydigan pedagog. Amalda: ekologik madaniyat barcha pedagogik yo‘nalishlar uchun aniq integrativ natija sifatida yetarlicha belgilanmagan.	Ijtimoiy buyurtma bilan oliy pedagogik ta’limning maqsad va natijalari o‘rtasidagi nomutanosiblik.	Ekologik madaniyatni malaka talablari, o‘quv natijalari va kompleks baholash mezonlarida umumkasbiy maqsad sifatida belgilash.
2	Talab: o‘sib borayotgan ekologik axborotni shaxsiy va kasbiy qarorga aylantirish. Amalda: qadriyatni interiorizatsiyalash va shaxsiy ma’no hosil qilish mexanizmlari zaif.	Bilimning ko‘payishi barqaror ekologik e’tiqod, motiv va tanlovga avtomatik o‘tmayapti.	Qadriyatli vaziyat, axloqiy mulohaza, shaxsiy tajriba, tanlov va refleksiyani yagona rivojlanish tsiklida tashkil etish.
3	Talab: ekologik tadbirlar barqaror motiv, xulq va pedagogik pozitsiyaga ta’sir qilishi. Amalda: ko‘plab tadbirlarning uzoq muddatli natijasini kompleks baholash imkoniyati cheklangan.	Faollik soni natija sifatiga tenglashtiriladi; qadriyatli va xulqiy dinamika yetarlicha kuzatilmaydi.	Test, so‘rov, kuzatuv, amaliy mahsulot, portfolio va ekspert bahosini birlashtirgan ko‘p manbali diagnostika.
4	Talab: aksiologik, kompetentsiyaviy, faoliyatli va muhitga yo‘naltirilgan yondashuvlar salohiyatidan foydalanish. Amalda: yondashuvlar alohida qo‘llanib, yagona pedagogik tizimga yetarlicha integratsiya qilinmagan.	Maqsad, mazmun, metod, muhit va baholash o‘rtasida uzilish paydo bo‘ladi.	Yondashuvlarni ekologik qadriyatlar markazida maqsad–faoliyat–muhit–diagnostika tizimiga birlashtirish.
5	Talab: talabaning ekologik tashabbusi va subyektligi. Amalda: real qaror qabul qilish, loyihani amalga oshirish va natija uchun mas’uliyat olish imkoniyatlari cheklangan.	Talaba tayyor tadbir ijrochisi bo‘lib qoladi; mustaqil tanlov va shaxsiy javobgarlik tajribasi shakllanmaydi.	Haqqoniy muammo, loyiha va servis-ta’limda qaror vakolati, jamoaviy hamkorlik va natija uchun hisobdorlik berish.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

6	Talab: pedagog ekologik madaniyatni o‘quvchilarga yetkazishi va shaxsiy namuna ko‘rsatishi. Amalda: ekologik mazmunni didaktik qayta ishlashga doir kasbiy tayyorgarlik bir xil darajada emas.	Umumiy ekologik bilim dars, loyiha, tarbiyaviy vaziyat va diagnostikaga to‘liq aylanmaydi.	Fanlararo loyihalash, yoshga mos metod, ekologik keys, amaliyot, refleksiya va baholash bo‘yicha metodik-aksiologik tayyorgarlik.

Muammoning ko‘p sathli xususiyati uni jamiyat–davlat, institutsional–mazmuniy, jarayon–texnologik va shaxsiy–kasbiy darajalarda ko‘rib chiqishni talab etadi. Jamiyat–davlat darajasi ekologik siyosat, huquqiy me’yor va jamoatchilik ehtiyojini; institutsional–mazmuniy daraja ta’lim standarti, o‘quv reja, fanlar integratsiyasi va kampus muhitini; jarayon–texnologik daraja metod, vosita, pedagogik vaziyat va hamkorlik shakllarini; shaxsiy–kasbiy daraja esa talabaning bilimi, qadriyati, motivi, xulq-atvori va refleksiyasini qamrab oladi. Muammoni ilmiy hal etish ekologik madaniyatni diagnostik jihatdan kuzatish mumkin bo‘lgan mezon va ko‘rsatkichlarga ajratishni talab etadi. Faqat test orqali bilimni o‘lchash umumiy natija haqida yetarli xulosa bermaydi. Qadriyatli-motivatsion holatni motiv va tanlovni asoslash orqali, faoliyatli-xulqiy holatni amaliy vazifa va kuzatuv orqali, kasbiy-pedagogik holatni dars yoki loyihani rejalashtirish orqali, refleksiv holatni esa portfolio va o‘zini baholash materiallari orqali aniqlash maqsadga muvofiq. Manbalar triangulyatsiyasi — test, so‘rov, kuzatuv, mahsulot va ekspert bahosini birlashtirish — natijaning ishonchliligini oshiradi hamda ijtimoiy maqbul javob ta’sirini kamaytiradi.

Bo‘lajak pedagog ekologik madaniyatini rivojlantirishning pedagogik imkoniyati deganda ta’lim maqsadiga erishish uchun mavjud bo‘lgan, tegishli shart-sharoit va vositalar orqali harakatga keltiriladigan obyektiv hamda subyektiv resurslar tushuniladi. Ular ta’lim mazmunini ekologik qadriyatlar bilan integratsiyalash, talabani ma’noli faoliyatga jalb etish, kampus va amaliyot muhitini tarbiyaviy resursga aylantirish, raqamli hamda jamoatchilik resurslaridan foydalanish, pedagogning shaxsiy namunasi va refleksiv muloqotini tashkil etishda namoyon bo‘ladi. Imkoniyat mavjudligi hali natija degani emas: u aniq maqsad, ilmiy asoslangan mexanizm va pedagogik shart-sharoit bilan ta’minlangandagina rivojlantiruvchi kuchga aylanadi.

«Aksiologiya» atamasi qadriyatlarning tabiati, mavjudlik shakllari, iyerarxiyasi va inson faoliyatidagi funktsiyalarini o‘rganuvchi falsafiy ta’limotni ifodalaydi. M. Sheler qadriyatni shaxs xohishiga to‘liq bog‘liq bo‘lmagan, emotsional-intuitiv anglash orqali ochiladigan sifat sifatida talqin qilsa, N. Gartman qadriyatlar olamini inson harakatini me’yoriy yo‘naltiruvchi mustaqil ma’naviy tartib bilan bog‘laydi. [6,7] K. Klakxon esa qadriyatni shaxs yoki guruhning maqbul harakat usullari, vositalari va maqsadlarini tanlashiga ta’sir ko‘rsatuvchi aniq yoki yashirin tasavvur sifatida ta’riflaydi.[8] Ushbu

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

yondashuvlar qadriyatning bir vaqtda ontologik, me'yoriy, ma'noviy va faoliyatni yo'naltiruvchi xususiyatga egaligini ko'rsatadi. Qadriyatlarning metodologik ahamiyati ularning bir nechta funktsiyasida namoyon bo'ladi. Ular maqsadni belgilaydi, voqelikni baholash mezonini beradi, muqobillar orasidan tanlovni yo'naltiradi, xulq-atvorni me'yorlashtiradi, shaxsiy tajribani yaxlit ma'noga birlashtiradi va kelgusi harakatni oldindan loyihalashga xizmat qiladi. Ta'limda qadriyatlar faqat o'rganiladigan mazmun emas: nima uchun o'qitish, nimani ustuvor deb bilish, qaysi metodni axloqan maqbul deb tanlash va natijani qaysi mezon bilan baholashni ham belgilaydi. Shuning uchun aksiologik tahlil ta'lim jarayonining tashqi shaklidan uning insonparvar va ijtimoiy mas'ul ma'nosiga o'tishni ta'minlaydi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 49, 61 va 62-moddalar. URL: https://lex.uz/docs/6445145
2. UNESCO. Education for Sustainable Development: A Roadmap. Paris: UNESCO, 2020. URL: https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000374802
3. UNESCO. Greening Curriculum Guidance: Teaching and Learning for Climate Action. Paris: UNESCO, 2024. URL: https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000390022
4. Kollmuss A., Agyeman J. Mind the Gap: Why do people act environmentally and what are the barriers to pro-environmental behavior? // Environmental Education Research. 2002. Vol. 8, No. 3. P. 239–260. DOI: https://doi.org/10.1080/13504620220145401
5. Stern P.C. Toward a Coherent Theory of Environmentally Significant Behavior // Journal of Social Issues. 2000. Vol. 56, No. 3. P. 407–424. DOI: https://doi.org/10.1111/0022-4537.00175.
6. Scheler M. Formalism in Ethics and Non-Formal Ethics of Values: A New Attempt toward the Foundation of an Ethical Personalism / trans. M.S. Frings, R.L. Funk. – Evanston: Northwestern University Press, 1973. – 620 p.
7. 7.Hartmann N. Ethics: In 3 vols. / authorized translation by S. Coit. – London: George Allen & Unwin, 1932.
8. Kluckhohn C. Values and Value-Orientations in the Theory of Action: An Exploration in Definition and Classification // Toward a General Theory of Action / eds. T. Parsons, E.A. Shils. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1951. – P. 388–433. – DOI: https://doi.org/10.4159/harvard.9780674863507.c8.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

FITNES VA AEROBIKA VOSITALARI ASOSIDA SOG‘LOMLASHTIRUVCHI GIMNASTIKA MASHG‘ULOTLARINING AYOLLAR JISMONIY FAOLLIGI VA HAYOT SIFATINI OSHIRISHDAGI AHAMIYATI.

Shaxriddinova Laylo Nurxonovna, Navoiy davlat universiteti San’at va sport fakulteti “Sport faoliyati turlari” kafedrasi v.b. professori, p.f.b.f.d. (PhD).
layloshaxriddinova1174@gmail.com

Annotatsiya

KIRISH: maqolada fitnes va aerobika vositalari asosida tashkil etiladigan sog‘lomlashtiruvchi gimnastika mashg‘ulotlarining ayollar jismoniy faolligi va hayot sifatiga ta’siri ilmiy-uslubiy nuqtayi nazardan yoritilgan. Muntazam jismoniy mashg‘ulotlarning ayollar organizmi funksional imkoniyatlarini qo‘llab-quvvatlash, harakat faolligini oshirish, jismoniy tayyorgarlikni takomillashtirish hamda psixoemotsional holatni barqarorlashtirishdagi ahamiyati tahlil qilingan. Fitnes va aerobika mashqlarini sog‘lomlashtiruvchi gimnastika tarkibida maqsadli qo‘llash orqali yurak-qon tomir va nafas olish tizimlari faoliyatini yaxshilash, harakatchanlik, chidamlilik, kuch va koordinatsion qobiliyatlarni rivojlantirish imkoniyatlari ko‘rsatilgan. Shuningdek, mashg‘ulotlarni ayollarning yoshi, jismoniy tayyorgarlik darajasi va individual funksional holatini hisobga olgan holda tashkil etish hayot sifati ko‘rsatkichlarini yaxshilashning muhim sharti sifatida asoslangan.

MAQSAD: fitnes va aerobika vositalari asosida tashkil etilgan sog‘lomlashtiruvchi gimnastika mashg‘ulotlarining ayollar jismoniy faolligi va hayot sifatini oshirishdagi ahamiyatini ilmiy-uslubiy jihatdan tahlil qilish va samaradorligini asoslashdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda 37 nafar ayol ishtirokida pre-test va post-test shaklidagi pedagogik eksperiment, mahalliy hamda xorijiy ilmiy manbalar tahlili va jismoniy faollik ko‘rsatkichlarining miqdoriy-qiyosiy tahlil usullaridan foydalanildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: pedogogik eksperiment natijasida ishtirokchilarning jismoniy faollik ko‘rsatkichi dastlabki 11,5% dan 43,0% gacha yetib, 31,5 foiz punktga (nisbiy 273,9% ga) oshgani qayd etildi; mashg‘ulotlarda aerob, kuch, egiluvchanlik hamda koordinatsion mashqlarni uyg‘unlashtirish va yuklamani yosh hamda individual funksional holatga moslash zarurligi isbotlandi.

XULOSA: fitnes va aerobika vositalari asosida kompleks tashkil etilgan sog‘lomlashtiruvchi gimnastika ayollarning harakat faolligini oshirish, funksional imkoniyatlarini yaxshilash va hayot sifatini ta’minlashda yuqori samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: fitnes, aerobika, sog‘lomlashtiruvchi gimnastika, ayollar, jismoniy faollik, hayot sifati, jismoniy tayyorgarlik, funksional holat, salomatlik, harakat faolligi.

© intereduglobalstudy.com

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

ЗНАЧЕНИЕ ОЗДОРОВИТЕЛЬНОЙ ГИМНАСТИКИ НА ОСНОВЕ СРЕДСТВ ФИТНЕСА И АЭРОБИКИ В ПОВЫШЕНИИ ФИЗИЧЕСКОЙ АКТИВНОСТИ И КАЧЕСТВА ЖИЗНИ ЖЕНЩИН.

Шахриддинова Лайло Нурхоновна, и. о. профессора кафедры «Виды спортивной деятельности» факультета искусства и спорта Навоийского государственного университета, доктор философии по педагогическим наукам (PhD).

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в статье с научно-методической точки зрения рассматривается влияние занятий оздоровительной гимнастикой с применением средств фитнеса и аэробики на физическую активность и качество жизни женщин. Анализируется значение систематической двигательной активности для поддержания функциональных возможностей организма, повышения уровня физической подготовленности и стабилизации психоэмоционального состояния женщин. Показаны возможности целенаправленного применения фитнеса и аэробики в структуре оздоровительной гимнастики для совершенствования деятельности сердечно-сосудистой и дыхательной систем, развития выносливости, силы, подвижности и координационных способностей. Обоснована необходимость организации занятий с учетом возраста, уровня физической подготовленности и индивидуального функционального состояния женщин как важного условия повышения качества их жизни.

ЦЕЛЬ: научно-методический анализ и обоснование эффективности занятий оздоровительной гимнастикой на основе средств фитнеса и аэробики в повышении физической активности и качества жизни женщин.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании приняли участие 37 женщин; применялись методы педагогического эксперимента (pre-test/post-test), анализа отечественных и зарубежных научных источников, а также количественно-сравнительного анализа показателей физической активности.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: в ходе эксперимента показатель физической активности участников увеличился с 11,5% до 43,0%, что составило прирост на 31,5 процентных пункта (относительный рост на 273,9%); доказана необходимость гармоничной интеграции аэробных, силовых, координационных упражнений и растяжки с учетом возраста и индивидуальных функциональных особенностей.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: комплексная оздоровительная гимнастика на основе средств фитнеса и аэробики является высокоэффективным средством повышения двигательной активности, совершенствования функциональных возможностей и качества жизни женщин.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

Ключевые слова: фитнес, аэробика, оздоровительная гимнастика, женщины, физическая активность, качество жизни, физическая подготовленность, функциональное состояние, здоровье, двигательная активность.

THE IMPORTANCE OF HEALTH-IMPROVING GYMNASTICS BASED ON FITNESS AND AEROBICS IN ENHANCING WOMEN'S PHYSICAL ACTIVITY AND QUALITY OF LIFE.

Shakhriddinova Laylo Nurkhonovna, Acting Professor of the Department of "Types of Sports Activities" at the Faculty of Art and Sport, Navoi State University, Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD).

Annotation

INTRODUCTION: The article examines, from a scientific and methodological perspective, the role of health-improving gymnastics based on fitness and aerobics in enhancing women's physical activity and quality of life. The significance of regular physical exercise in maintaining functional capacity, increasing physical fitness, and stabilizing the psycho-emotional state of women is analyzed. Particular attention is paid to the purposeful integration of fitness and aerobic exercises into health-oriented gymnastics to improve cardiovascular and respiratory functions and develop endurance, strength, mobility, and coordination abilities. The study also emphasizes that organizing exercise programs according to women's age, level of physical fitness, and individual functional condition is an important prerequisite for improving health indicators and overall quality of life.

AIM: To scientifically analyze and substantiate the effectiveness of health-improving gymnastics based on fitness and aerobic tools in enhancing women's physical activity and quality of life.

MATERIALS AND METHODS: A pedagogical experiment using a pre-test/post-test design was conducted with 37 female participants, utilizing literature analysis of national and international sources and quantitative-comparative analysis of physical activity indicators.

DISCUSSION AND RESULTS: Following the experiment, the overall physical activity indicator increased from 11,5% to 43,0%, demonstrating a positive change of 31,5 percentage points (a relative growth of 273,9%); the study proved the necessity of integrating aerobic, strength, flexibility, and coordination exercises tailored to individual age and functional capacities.

CONCLUSION: Comprehensive health-oriented gymnastics utilizing fitness and aerobics serves as an effective tool for boosting motor activity, improving functional parameters, and enhancing the overall quality of life in women.

Keywords: fitness, aerobics, health-improving gymnastics, women, physical activity, quality of life, physical fitness, functional condition, health, motor activity.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

Zamonaviy turmush tarzida kundalik harakat faolligining kamayishi, uzoq vaqt o‘tirib ishlash, maishiy va kasbiy jarayonlarning texnikalashuvi insonning tabiiy jismoniy harakatga bo‘lgan ehtiyojini cheklamoqda. Ayniqsa, ayollar hayotida kasbiy faoliyat, oilaviy majburiyatlar va ijtimoiy vazifalarning uyg‘unlashishi muntazam jismoniy mashg‘ulotlarga ajratiladigan vaqtning qisqarishiga olib kelishi mumkin. Natijada jismoniy faollik darajasining pasayishi nafaqat organizmning funksional imkoniyatlariga, balki umumiy ishchanlik, kayfiyat, dam olish sifati va kundalik faoliyat samaradorligiga ham ta’sir ko‘rsatadi.

Hayot sifati shaxsning faqat salomatlik holati bilan emas, balki uning jismoniy harakatchanligi, ijtimoiy faolligi, emotsional barqarorligi va kundalik vazifalarni bajarish qobiliyati bilan ham belgilanadi. Shu nuqtayi nazardan, ayollarning jismoniy faolligini oshirishga qaratilgan sog‘lomlashtiruvchi mashg‘ulotlarning mazmuni faqat muayyan jismoniy sifatlarni rivojlantirish bilan cheklanmasdan, ularning umumiy hayot faoliyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi lozim.

Fitnes va aerobika vositalari harakat yuklamalarini turli sur’at, intensivlik va murakkablik darajasida tashkil etish imkonini berishi bilan sog‘lomlashtiruvchi gimnastika tizimida alohida ahamiyat kasb etadi. Ritmik harakatlar, aerob xususiyatdagi mashqlar, kuch va cho‘zilish elementlarining o‘zaro uyg‘unlashtirilishi mashg‘ulot jarayonini bir xillikdan xoli qilib, ishtirokchilarning mashqlarga bo‘lgan qiziqishi va faol ishtirokini saqlab turish imkonini beradi. Bunday yondashuv jismoniy faollikni vaqtinchalik mashg‘ulot emas, balki kundalik turmush madaniyatining tarkibiy qismiga aylantirishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, sog‘lomlashtiruvchi gimnastika samaradorligi mashqlarning soni yoki intensivligi bilangina belgilanmaydi. Ayollarning yoshi, harakat tajribasi, funksional tayyorgarligi, ish va dam olish tartibi hamda mashg‘ulotga bo‘lgan shaxsiy motivatsiyasini hisobga olish muhimdir. Mashg‘ulot mazmunini ushbu omillarga muvofiq tanlash jismoniy yuklamani oqilona boshqarish, ortiqcha zo‘riqishning oldini olish va barqaror sog‘lomlashtiruvchi natijaga erishish imkonini beradi.

Shundan kelib chiqib, mazkur tadqiqotning maqsadi fitnes va aerobika vositalari asosida tashkil etiladigan sog‘lomlashtiruvchi gimnastika mashg‘ulotlarining ayollar jismoniy faolligi, kundalik ishchanligi va hayot sifati ko‘rsatkichlarini yaxshilashdagi ahamiyatini ilmiy-uslubiy jihatdan tahlil qilishdan iborat.

Ayollarning jismoniy faolligini oshirish, ularning funksional holatini yaxshilash va sog‘lom turmush tarzini shakllantirish masalalari mahalliy hamda xorijiy tadqiqotlarda turli yondashuvlar asosida o‘rganilgan. D. I. Kurbanov va G. M. Akramova xotin-qizlar salomatligini mustahkamlashda jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlarining nazariy asoslarini yoritib, jismoniy faollik, ishchanlik va organizmning jismoniy yuklamaga moslashuvini o‘zaro bog‘liq jarayonlar sifatida ko‘rsatadilar [1]. Mualliflarning yondashuvida

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

muntazam harakat faolligi ayollar organizmining funksional imkoniyatlarini qo‘llab-quvvatlashning muhim omili sifatida talqin qilinadi.

X. Raimovning tadqiqotida xotin-qizlar organizmining fiziologik va biomexanik xususiyatlarini hisobga olgan holda jismoniy tayyorgarlikni tashkil etish masalasi tahlil qilingan. Muallif mushak-skelet tizimi, yurak-qon tomir va nafas olish tizimlarining sport yuklamalariga javob reaksiyalarini e’tiborga olish, yuklamani individuallashtirish hamda biomexanik tahlildan foydalanish mashg‘ulot samaradorligi uchun muhimligini ta’kidlaydi [2]. Bu yondashuv fitnes va aerobika mashg‘ulotlarini sog‘lomlashtirish maqsadida qo‘llashda yuklamaning ayollar funksional imkoniyatlariga muvofiqligini ta’minlash zarurligini ko‘rsatadi.

N. Sultonova fitnes aerobikasi bilan muntazam shug‘ullanuvchi talaba qizlarning jismoniy rivojlanishi va funksional holatini baholashda antropometrik ko‘rsatkichlar, chidamlilik, tezkorlik-kuch, moslashuvchanlik, koordinatsiya, yurak urish chastotasi, arterial bosim va tiklanish tezligi kabi indikatorlarni kompleks ko‘rib chiqadi [3]. Mazkur yondashuv fitnes-aerobika mashg‘ulotlari samaradorligini faqat tashqi jismoniy o‘zgarishlar bilan emas, balki organizmning yuklamaga funksional javobi orqali ham baholash zarurligini anglatadi.

Xorijiy tadqiqotlarda masala jismoniy holat bilan bir qatorda hayot sifati nuqtayi nazaridan ham o‘rganilgan. S. Elavsky o‘rta yoshdagi ayollarda jismoniy faollik, menopauza davri va hayot sifati o‘rtasidagi munosabatni tadqiq etib, jismoniy faollikning hayot sifatiga ta’sirida ijobiy emotsional holat va jismoniy o‘zini qadrlash muhim vositachi omillar ekanini ko‘rsatgan [4]. Bu natija sog‘lomlashtiruvchi gimnastika samaradorligini baholashda jismoniy ko‘rsatkichlar bilan birga psixoemotsional holatga ham e’tibor qaratish zarurligini asoslaydi.

K. S. Courneya va hammualliflar kamharakat postmenopauzadagi ayollarda bir yil davomida haftasiga 150 va 300 daqiqalik aerob mashq hajmlarini qiyoslagan. Tadqiqotda yuqori hajmdagi mashqning hayot sifati va psixososial ko‘rsatkichlarda o‘rtacha hajmga nisbatan izchil qo‘shimcha ustunlik bermasligi qayd etilgan [5]. Mazkur natija sog‘lomlashtiruvchi mashg‘ulotlarda yuklama hajmini shunchaki oshirish emas, balki uni optimal va individual tarzda tanlash muhimligini ko‘rsatadi.

T. M. Nguyen, T. T. T. Do, T. N. Tran va J. H. Kim tomonidan o‘tkazilgan tizimli tahlil va meta-tahlilda menopauza belgilari mavjud ayollarda jismoniy mashqlarning hayot sifatiga ta’siri baholangan [6]. To‘qqizta randomizatsiyalangan nazoratli tadqiqot umumlashtirilganda, jismoniy mashqlar hayot sifatining jismoniy va psixologik komponentlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi qayd etilgan, biroq umumiy, ijtimoiy va menopauzaga xos hayot sifati ko‘rsatkichlari bo‘yicha natijalar bir xil bo‘lmagan. Bu holat hayot sifatini bir nechta komponent orqali baholash zarurligini ko‘rsatadi.

P. J. Trujillo-Muñoz va hammualliflar 2025-yilda chop etilgan tizimli tahlil va meta-tahlilda perimenopauza va postmenopauza davridagi ayollarda aerob hamda kuch mashqlarining ta’sirini umumlashtirganlar [7]. Tahlil qilingan randomizatsiyalangan

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

tadqiqotlarda nazorat ostida va muntazam bajariladigan mashqlar ayollarning hayotiy faolligi, ruhiy salomatligi va umumiy hayot sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi qayd etilgan. Aerob mashqlar menopauza belgilarining ayrim ko'rinishlarini kamaytirishga ham yordam bergan.

Tahlil qilingan manbalarni qiyoslash shuni ko'rsatadiki, mahalliy tadqiqotlarda asosan ayollarning jismoniy rivojlanishi, funksional holati, mashg'ulot yuklamasini me'yorlash va individuallashtirishga e'tibor qaratilgan bo'lsa, xorijiy tadqiqotlarda mazkur natijalar hayot sifati, emotsional farovonlik va psixososial holat bilan birgalikda baholanadi. Shu sababli fitnes va aerobika vositalari asosidagi sog'lomlashtiruvchi gimnastika samaradorligini jismoniy faollik, funksional holat va hayot sifati ko'rsatkichlarini o'zaro bog'liq holda tahlil qilish maqsadga muvofiq.

Tadqiqotda asosiy metod sifatida pedagogik eksperiment qo'llanildi. Eksperimentda jami 37 nafar ayol ishtirok etdi. Ishtirokchilar uchun fitnes va aerobika vositalari asosida sog'lomlashtiruvchi gimnastika mashg'ulotlari tashkil etildi. Mashg'ulotlar mazmuniga aerob harakatlar, umumrivojlantiruvchi mashqlar, yengil kuch mashqlari va egiluvchanlikni rivojlantiruvchi elementlar kiritildi.

Pedagogik eksperiment samaradorligi mashg'ulotlar boshlanishidan oldingi va yakuniy holatni qiyoslash asosida baholandi. Asosiy miqdoriy indikator sifatida jismoniy faollikning umumlashtirilgan foiz ko'rsatkichi qabul qilindi. Mazkur ko'rsatkichning boshlang'ich va yakuniy qiymatlari taqqoslanib, mutlaq farq foiz punktida hamda nisbiy o'sish ko'rinishida hisoblandi.

Pedagogik eksperimentda 37 nafar ishtirokchining jismoniy faollik ko'rsatkichi mashg'ulotlardan oldin va keyin qiyosiy tahlil qilindi. Boshlang'ich baholashda jismoniy faollikning umumlashtirilgan ko'rsatkichi 11,5% ni tashkil etgan bo'lsa, mashg'ulotlar yakunida ushbu ko'rsatkich 43,0% ga yetdi.

1-jadval. Ishtirokchilar jismoniy faollik ko'rsatkichining oldin va keyingi holati

Ko'rsatkich	Ishtirokchilar soni	Mashg'ulotdan oldin	Mashg'ulotdan keyin	Farq
Jismoniy faollik	37 nafar	11,5%	43,0%	+31,5 f.p.

Qiyosiy tahlil natijasiga ko'ra, jismoniy faollik ko'rsatkichi 31,5 foiz punktga oshgan. Nisbiy hisobda bu boshlang'ich qiymatga nisbatan taxminan 273,9% o'sishni anglatadi; yakuniy ko'rsatkich esa dastlabki darajadan qariyb 3,74 baravar yuqori bo'lgan.

Kuzatilgan dinamika fitnes va aerobika vositalari asosida tashkil etilgan sog'lomlashtiruvchi gimnastika mashg'ulotlari davomida ishtirokchilarning harakat faolligi sezilarli ravishda yaxshilanganini ko'rsatadi. Aerob mashqlar, ritmik harakatlar, umumrivojlantiruvchi va egiluvchanlik elementlarining bir dasturda uyg'unlashtirilishi ishtirokchilarning mashg'ulot jarayonidagi faol ishtirokini rag'batlantiruvchi omil bo'lishi mumkin.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

Natijani talqin qilishda tadqiqotning pre-test va post-test shaklida tashkil etilgani inobatga olinishi lozim. Mazkur maqolada miqdoriy tahlil asosiy jismoniy faollik indikatori bilan cheklanganligi sababli, kuzatilgan o‘sish ijobiy dinamika sifatida baholanadi. Kelgusida hayot sifati, funksional holat va psixoemotsional farovonlikni standartlashtirilgan o‘lchov vositalari bilan baholash natijalarning daliliy asosini yanada kuchaytiradi.

Tadqiqot natijalari fitnes va aerobika vositalari asosida tashkil etilgan sog‘lomlashtiruvchi gimnastika mashg‘ulotlari ayollarning jismoniy faolligini oshirishda istiqbolli vosita ekanini ko‘rsatdi. 37 nafar ishtirokchida jismoniy faollikning umumlashtirilgan ko‘rsatkichi 11,5% dan 43,0% gacha oshib, 31,5 foiz punktlik ijobiy farq qayd etildi. Bunday mashg‘ulotlarda aerob, umumrivojlantiruvchi, kuch va egiluvchanlik elementlarini uyg‘unlashtirish, shuningdek, yuklamani individual funksional imkoniyatlarga moslashtirish muhimdir. Shu bilan birga, hayot sifati bo‘yicha xulosalarni yanada aniq asoslash uchun keyingi tadqiqotlarda standartlashtirilgan so‘rovnomalar va qo‘shimcha funksional ko‘rsatkichlardan foydalanish maqsadga muvofiq.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Kurbanov D. I., Akramova G. M. Xotin-qizlar salomatligini mustahkamlashda jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlarining nazariy asoslari // Science and Education. – 2022. – Vol. 3, Issue 4. – B. 1423–1430. – DOI: maqola sahifasida ko‘rsatilmagan. – URL: https://uniwork.buxdu.uz/resurs/12732_1_F8A3DFE9A5B88DC54C77566F5401D0C3857636EF.pdf
2. Raimov X. Xotin-qizlar sportida fiziologik va biomexanik xususiyatlarning jismoniy tayyorgarlikka ta’siri // Maktabgacha va maktab ta’limi jurnali. – 2025. – Jild 3, № 2. – B. 10–15. – DOI: 10.5281/zenodo.15034413. – URL: https://maktabgacha-va-maktab-talimi-jurnal.uz/index.php/jurnal/article/view/534
3. Sultonova N. O‘quv-mashg‘ulot jarayonida fitnes aerobikasi bilan shug‘ullanuvchi talaba qizlarning jismoniy rivojlanishi va funksional holati xususiyatlari // Ijtimoiy-gumanitar sohada ilmiy-innovatsion tadqiqotlar. – 2026. – Jild 3, № 2. – B. 299–304. – DOI: maqola sahifasida ko‘rsatilmagan. – URL: https://publishscience.uz/sirsh/article/view/403
4. Elavsky S. Physical Activity, Menopause, and Quality of Life: The Role of Affect and Self-Worth across Time // Menopause. – 2009. – Vol. 16, No. 2. – P. 265–271. – DOI: 10.1097/GME.0b013e31818c0284. – URL: https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/19169167/
5. Courneya K. S., McNeil J., O’Reilly R., Morielli A. R., Friedenreich C. M. Dose-Response Effects of Aerobic Exercise on Quality of Life in Postmenopausal Women: Results from the Breast Cancer and Exercise Trial in Alberta (BETA) // Annals of Behavioral Medicine. – 2017. – Vol. 51, No. 3. – P. 356–364. – DOI: 10.1007/s12160-016-9859-8. – URL: https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/27837524/
6. Nguyen T. M., Do T. T. T., Tran T. N., Kim J. H. Exercise and Quality of Life in Women with Menopausal Symptoms: A Systematic Review and Meta-Analysis of Randomized

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

Controlled Trials // International Journal of Environmental Research and Public Health. – 2020. – Vol. 17, No. 19. – Art. 7049. – DOI: 10.3390/ijerph17197049. – URL: https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/32993147/

7. Trujillo-Muñoz P. J., Sánchez-Ojeda M. A., Rodríguez-Huamán E. C., Mezyani-Haddu K., Hoyo-Guillot I., Navarro-Prado S. Effects of Physical Exercise on Symptoms and Quality of Life in Women in Climacteric: A Systematic Review and Meta-Analysis // Healthcare. – 2025. – Vol. 13, No. 6. – Art. 644. – DOI: 10.3390/healthcare13060644. – URL: https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/40150494/

© intereduglobalstudy.com

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA MADANIYATLARARO KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK MODELI.

Atamuratov Dilshod, Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti Tarjima nazariyasi va amaliyoti kafedrasi v.b. dotsenti, PhD.
dilshod.official5599@gmail.com
ORCID: 0009-0008-3441-9703

Annotatsiya

KIRISH: mazkur maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarda madaniyatlararo kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishga qaratilgan yaxlit pedagogik modelni loyihalashtirish masalasi tahlil qilingan. Modelning oltita bloki — maqsadli-vazifaviy, mazmuniy-tarkibiy, tashkiliy-texnologik, sub'ekt-hamkorlik, natija-baholash va pedagogik shart-sharoitlar bloklari — yoritilgan. Har bir blokning maqsadi, mazmuni va amalga oshirish mexanizmlari ilmiy-amaliy jihatdan asoslab berilgan.

MAQSAD: bo‘lajak o‘qituvchilarda madaniyatlararo kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishga yo‘naltirilgan yaxlit va izchil pedagogik modelni loyihalashtirish hamda uning tarkibiy bloklarini ilmiy-amaliy jihatdan asoslashdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda pedagogik modellashtirish, kompetensiyaviy, madaniyatlararo, aksiologik hamda tizimli yondashuvlardan, shuningdek, M. Bayram, V.P. Bespalko va J. Banks kabi olimlarning ilmiy-nazariy qarashlarini qiyosiy tahlil qilish usullaridan foydalanildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: rivojlantirish jarayonining oltita o‘zaro bog‘liq bloki — maqsadli-vazifaviy, mazmuniy-tarkibiy, tashkiliy-texnologik, sub’yekt-hamkorlik, natija-baholash hamda pedagogik shart-sharoitlar bloklarining maqsadi, mazmuni va amalga oshirish mexanizmlari tizimlashtirildi; interfaol va raqamli texnologiyalar hamda refleksiv topshiriqlarni ta’lim jarayoniga integratsiyalash samaradorligi ko‘rsatib berildi.

XULOSA: ishlab chiqilgan olti blokli pedagogik model bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy-kommunikativ tayyorgarligini kompleks takomillashtirish hamda ko‘p madaniyatli ta’lim muhitida samarali hamkorlikni ta’minlash uchun metodik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: madaniyatlararo kommunikativ kompetensiya, pedagogik model, bo‘lajak o‘qituvchi, model bloki, millatlararo muloqot, natija-baholash, kasbiy tayyorgarlik, oliy pedagogik ta’lim, tolerantlik, pedagogik modellashtirish.

ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ МОДЕЛЬ РАЗВИТИЯ МЕЖКУЛЬТУРНОЙ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ.

Атамуратов Дильшод, и. о. доцента кафедры «Теория и практика перевода» Ургенчского государственного университета имени Абу Райхана Беруни, (PhD).

Аннотация

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

ВВЕДЕНИЕ: в данной статье проанализирован вопрос проектирования целостной педагогической модели развития межкультурной коммуникативной компетенции у будущих учителей. Освещены шесть блоков модели — целевой, содержательно-структурный, организационно-технологический, субъект-сотруднический, результативно-оценочный и блок педагогических условий. Обоснованы цель, содержание и механизмы реализации каждого блока.

ЦЕЛЬ: проектирование целостной педагогической модели развития межкультурной коммуникативной компетенции будущих педагогов и научно-практическое обоснование ее структурных блоков.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании использованы методы педагогического моделирования, компетентностный, межкультурный, аксиологический и системный подходы, а также сравнительный анализ научно-теоретических трудов М. Байрама, В.П. Беспалько и Дж. Бэнкса.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: систематизированы цели, содержание и механизмы реализации шести взаимосвязанных блоков модели — целевого, содержательно-структурного, организационно-технологического, субъект-согласовательного, результативно-оценочного и блока педагогических условий; показана эффективность интеграции интерактивных, цифровых технологий и рефлексивных заданий в учебный процесс.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: разработанная шестиблочная педагогическая модель служит методической основой для комплексного совершенствования профессионально-коммуникативной подготовки будущих учителей и обеспечения эффективного взаимодействия в поликультурной образовательной среде.

Ключевые слова: межкультурная коммуникативная компетенция, педагогическая модель, будущий учитель, блок модели, межнациональное общение, результативно-оценочный компонент, профессиональная подготовка, высшее педагогическое образование, толерантность, педагогическое моделирование.

PEDAGOGICAL MODEL FOR DEVELOPING INTERCULTURAL COMMUNICATIVE COMPETENCE IN FUTURE TEACHERS.

Atamuratov Dilshod, Acting Associate Professor of the Department of "Translation Theory and Practice" at Abu Rayhan Biruni Urgench State University, (PhD).

Annotation

INTRODUCTION: this article examines the design of a holistic pedagogical model for developing intercultural communicative competence in prospective teachers. Six blocks of the model — goal-task, content-structural, organizational-technological, subject-collaborative, outcome-evaluative, and pedagogical-conditions blocks — are examined. The purpose, content, and implementation mechanisms of each block are substantiated from a scientific and practical perspective.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

AIM: to design a holistic pedagogical model aimed at developing intercultural communicative competence in prospective teachers and to substantiate its structural components scientifically and practically.

MATERIALS AND METHODS: the study utilized pedagogical modeling, competency-based, intercultural, axiological, and systems approaches, along with a comparative analysis of theoretical frameworks developed by M. Byram, V.P. Bespalko, and J. Banks.

DISCUSSION AND RESULTS: the goals, content, and implementation mechanisms of six interconnected blocks — goal-task, content-structural, organizational-technological, subject-collaborative, outcome-evaluative, and pedagogical conditions — were systematized; the effectiveness of integrating interactive, digital, and reflective learning activities was demonstrated.

CONCLUSION: the proposed six-block pedagogical model serves as a methodological foundation for the comprehensive improvement of prospective teachers' professional-communicative readiness and facilitates effective cooperation within multicultural educational settings.

Keywords: intercultural communicative competence, pedagogical model, prospective teacher, model block, interethnic communication, outcome-evaluative component, professional training, higher pedagogical education, tolerance, pedagogical modeling.

Bugungi globallashuv va integratsiya jarayonlari ta’lim tizimi oldiga shaxsni turli madaniyatlar bilan samarali hamkorlik qila oladigan, ijtimoiy-madaniy xilma-xillikni anglaydigan hamda turli qarash va qadriyatlarga hurmat bilan munosabatda bo‘ladigan mutaxassis sifatida tayyorlash vazifasini qo‘ymoqda. Ayniqsa, zamonaviy ta’lim makonining xalqaro xarakter kasb etishi, raqamli texnologiyalar asosida kommunikativ imkoniyatlarning kengayishi va turli madaniyat vakillari o‘rtasidagi aloqalarning faollashuvi bo‘lajak o‘qituvchilarning madaniyatlararo kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishni dolzarb pedagogik muammolardan biriga aylantirmoqda. Chunki zamonaviy pedagog o‘quv jarayonida nafaqat bilim beruvchi, balki turli ijtimoiy va madaniy guruhlar o‘rtasida samarali muloqotni tashkil etuvchi subyekt sifatida ham faoliyat yuritadi.

Madaniyatlararo kommunikativ kompetensiya shaxsning turli madaniyat vakillari bilan samarali muloqotga kirishishi, madaniy farqlarni anglash va hisobga olishi, o‘zga madaniyatning qadriyatlari, urf-odatlari hamda kommunikativ me’yorlariga hurmat bilan munosabatda bo‘lishi, yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan madaniy to‘siq va ziddiyatlarni konstruktiv tarzda bartaraf eta olish qobiliyatini ifodalaydi. Mazkur kompetensiya kommunikativ bilim va ko‘nikmalar bilan bir qatorda tolerantlik, empatiya, madaniy sezgirlik, ochiq fikrlilik, refleksiya va ijtimoiy moslashuvchanlik kabi shaxsiy sifatlarni ham

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

o‘z ichiga oladi. Shu sababli uni bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy kompetentligini belgilovchi muhim tarkibiy qismlardan biri sifatida qarash mumkin.

Bo‘lajak o‘qituvchilarda madaniyatlararo kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish jarayoni tizimli va maqsadli pedagogik yondashuvni talab etadi. Mazkur jarayonda ta’lim mazmuni, pedagogik maqsad, tamoyillar, metodlar, vositalar, tashkiliy shakllar va kutilayotgan natijalarni o‘zaro uzviy bog‘lash muhim ahamiyatga ega. Shu nuqtayi nazardan, pedagogik model bo‘lajak o‘qituvchilarda madaniyatlararo kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish jarayonining tarkibiy qismlarini tizimlashtirish, ular o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlikni belgilash va ta’lim jarayonini aniq pedagogik maqsad asosida tashkil etish imkonini beruvchi metodik vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

Pedagogik modelni ishlab chiqishda kompetensiyaviy, shaxsga yo‘naltirilgan, madaniyatlararo, aksiologik, faoliyatga yo‘naltirilgan va tizimli yondashuvlarning uyg‘unligiga tayanish maqsadga muvofiqdir. Kompetensiyaviy yondashuv bo‘lajak o‘qituvchining amaliy faoliyatida zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishga xizmat qilsa, madaniyatlararo yondashuv turli madaniyatlar o‘rtasidagi o‘zaro anglashuv va hamkorlikni ta’minlashga yo‘naltiriladi. Aksiologik yondashuv esa o‘zga madaniyatga hurmat, tolerantlik, insonparvarlik va o‘zaro hamkorlik kabi qadriyatlarni shakllantirishni nazarda tutadi.

Madaniyatlararo kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish modelining samaradorligi, avvalo, uning tarkibiy tuzilmasi va pedagogik jarayonning izchilligiga bog‘liq. Mazkur modelda motivatsion-maqsadli, mazmuniy, jarayonli-faoliyatli, baholash-diagnostik va natijaviy komponentlarning o‘zaro uyg‘unligi ta’minlanishi lozim. Motivatsion-maqsadli komponent talabalarda madaniyatlararo muloqotga ehtiyoj va qiziqish uyg‘otishni, mazmuniy komponent tegishli bilimlarni egallashni, jarayonli-faoliyatli komponent amaliy kommunikativ ko‘nikmalarni shakllantirishni, diagnostik komponent rivojlanish darajasini aniqlashni, natijaviy komponent esa kutilayotgan kompetensiyaviy natijalarga erishishni ta’minlaydi.

Mazkur jarayonda interfaol pedagogik metodlardan foydalanish alohida ahamiyatga ega. Xususan, muammoli vaziyatlar, keys-stadi, munozara va debatlar, rolli o‘yinlar, loyiha faoliyati, guruhli hamkorlik hamda madaniyatlararo kommunikativ topshiriqlar talabalarning turli madaniy vaziyatlarda mustaqil va mas’uliyatli qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantiradi. Bunday metodlar orqali bo‘lajak o‘qituvchilar nafaqat turli madaniyatlar haqida nazariy bilimlarga ega bo‘ladilar, balki real kommunikativ vaziyatlarda o‘z fikrlarini to‘g‘ri ifodalash, suhbatdoshning nuqtayi nazarini tushunish va madaniy farqlarni hisobga olish tajribasini ham egallaydilar.

Zamonaviy raqamli ta’lim vositalari madaniyatlararo kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishning yangi imkoniyatlarini yaratmoqda. Virtual muloqot, videokonferensiyalar, onlayn hamkorlik, raqamli loyihalar va xalqaro ta’lim platformalari orqali bo‘lajak o‘qituvchilar turli madaniyat vakillari bilan bevosita yoki bilvosita kommunikativ tajriba orttirishlari mumkin. Bu esa pedagogik modelda raqamli ta’lim imkoniyatlarini hisobga

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

olish, raqamli kommunikatsiya etikasi va madaniy sezgirlikni shakllantirishni ham nazarda tutadi. Bo‘lajak o‘qituvchilarda madaniyatlararo kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishning pedagogik modelini ishlab chiqish zamonaviy pedagogik ta’limning muhim ilmiy-amaliy yo‘nalishlaridan biridir. Mazkur modelning ilmiy jihatdan asoslanishi bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy-kommunikativ tayyorgarligini takomillashtirish, turli madaniyat vakillari bilan samarali pedagogik hamkorlik qilish qobiliyatini rivojlantirish hamda ta’lim jarayonida o‘zaro hurmat, tolerantlik va madaniyatlararo hamjihatlik muhitini shakllantirishga xizmat qiladi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarda madaniyatlararo kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish borasida asoslangan turli nazariy bilim va metodlarni amaliy natijaga aylantirish uchun ularni yagona, izchil pedagogik modelga birlashtirish zarur [1]. Faqat yaxlit model orqaligina bu jarayonni tizimli tashkil etish mumkin bo‘ladi [2].

Shu nuqtai nazardan, madaniyatlararo kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishga yo‘naltirilgan pedagogik modelni ilmiy jihatdan loyihalashtirish mazkur maqolaning dolzarbligini belgilaydi [3].

Madaniyatlararo kommunikativ kompetensiya nazariyasi M. Bayram [1]ning tadqiqotlarida asoslangan. Pedagogik modellashtirish metodologiyasi V.P. Bespalko [2]ning ishlarida ishlab chiqilgan. Ko‘p millatli ta’lim nazariyasi J. Banks [3]ning tadqiqotlarida yoritilgan. Mahalliy pedagogika fanida Karimov B. [4], F. Yo‘ldoshev [5]ning ishlarida bu boradagi umumiy tamoyillar tahlil qilingan.

Shunga qaramay, aynan madaniyatlararo kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishga yo‘naltirilgan yaxlit modelni loyihalashtiruvchi maxsus tadqiqotlar mahalliy fanda hali yetarli darajada mavjud emas, bu esa mazkur tadqiqotning ilmiy-amaliy ahamiyatini belgilaydi.

Maqsadli-vazifaviy blok modelning boshlang‘ich nuqtasi bo‘lib, bo‘lajak o‘qituvchida madaniyatlararo kommunikativ kompetensiyani shakllantirish maqsadini belgilaydi [1]. Mazmuniy-tarkibiy blok esa kompetensiyaning bilim, munosabat va ko‘nikma komponentlarini aniq o‘quv mazmuniga aylantiradi [2]. Tashkiliy-texnologik blok bu mazmunni amalga oshiruvchi interfaol metod va vositalarni birlashtiradi.

Sub'ekt-hamkorlik bloki pedagog va talaba, shuningdek turli millat vakili talabalar o‘rtasidagi munosabatni tashkil etadi [3]. Natija-baholash bloki kompetensiya rivojlanish darajasini aniq mezonlar orqali baholash imkonini beradi [4]. Nihoyat, pedagogik shart-sharoitlar bloki modelning muvaffaqiyatli amalga oshishini ta’minlovchi tashqi omillarni belgilaydi [5]. Ushbu oltita blok uzviy, aylanma bog‘liqlikda amal qiladi.

Modelning oltita tarkibiy blokini tahlil qilish jarayonida ularning maqsadi, mazmuni va amalga oshirish mexanizmlari tizimlashtirildi. Tahlil natijalari quyidagi jadvalda umumlashtirilgan holda keltirilgan:

1-jadval

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

№	Model bloki	Maqsadi / vazifasi	Mazmuni	Amalga oshirish mexanizmi
1	Maqsadli-vazifaviy blok	Modelning yakuniy maqsadi va bosqichma-bosqich vazifalarini belgilash	Bo‘lajak o‘qituvchida madaniyatlararo kommunikativ kompetensiyani shakllantirish maqsadi	O‘quv dasturida aniq, o‘lchanadigan maqsad-vazifalarni belgilash
2	Mazmuniy-tarkibiy blok	Kompetensiyaning tarkibiy komponentlarini o‘quv mazmuniga aylantirish	Bilim, munosabat, ko‘nikma va amaliy-metodik komponentlarga oid mavzular	Fanlararo integratsiyalashgan modul yoki tanlov fanini ishlab chiqish
3	Tashkiliy-texnologik blok	Mazmunni amalga oshiruvchi metod, shakl va vositalarni belgilash	Interfaol metodlar, treninglar, keys-stadi va loyihaviy topshiriqlar	Ma’ruza-amaliyot-pedagogik amaliyotni uyg‘unlashtirgan tizim
4	Sub'ekt-hamkorlik bloki	Pedagog va talaba, shuningdek turli millat vakili talabalar o‘rtasidagi munosabatni tashkil etish	Pedagogning yo‘naltiruvchi, talabalarning faol muloqot ishtirokchisi roli	Ko‘p millatli guruhlarda qo‘shma loyihalar va tadbirlar
5	Natija-baholash bloki	Kompetensiya rivojlanish darajasini ob'ektiv baholash	Aniq mezonlar, portfolio, amaliy vaziyat topshiriqlari	Portfolio va rubrika asosidagi jarayonli baholash tizimi
6	Pedagogik shart-sharoitlar bloki	Modelning samarali amalga oshishini ta’minlovchi shart-sharoitlarni belgilash	Pedagog-mentorlar tayyorgarligi, metodik qo‘llanmalar, institutsional muhit	Malaka oshirish dasturlari va metodik materiallarni yaratish

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

1-jadvalda ko‘rinib turibdiki, modelning oltita bloki mantiqiy izchil, ketma-ket bog‘langan. Umuman olganda, ishlab chiqilgan model kompetensiyani yaxlit tizim sifatida rivojlantirish uchun amaliy asos bo‘la oladi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarda madaniyatlararo kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish masalasi zamonaviy pedagogik ta’limning muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Chunki bugungi ta’lim jarayonida o‘qituvchi turli ijtimoiy, madaniy va milliy muhitga mansub ta’lim oluvchilar bilan muloqotga kirishadi. Bunday sharoitda pedagogning faqat kommunikativ bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi yetarli emas, balki u turli madaniyatlarning o‘ziga xos xususiyatlarini anglay olishi, madaniy farqlarni hurmat qilishi va muloqot jarayonida yuzaga keladigan tushunmovchiliklarni konstruktiv tarzda bartaraf eta olishi zarur.

Tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan pedagogik model madaniyatlararo kommunikativ kompetensiyani alohida bilim yoki ko‘nikma sifatida emas, balki o‘zaro bog‘liq tarkibiy komponentlardan tashkil topgan yaxlit shaxsiy-kasbiy sifat sifatida rivojlantirishga yo‘naltirildi. Modelning motivatsion-maqsadli, mazmuniy, jarayonli-faoliyatli, diagnostik-baholash va natijaviy komponentlari bir-biri bilan uzviy bog‘langan holda tashkil etilishi kompetensiyaning izchil rivojlanishini ta’minlaydi. Mazkur komponentlarning tizimli uyg‘unligi bo‘lajak o‘qituvchida madaniyatlararo muloqotga ijobiy motivatsiya, tegishli bilimlar, amaliy kommunikativ ko‘nikmalar va refleksiv qobiliyatlarni shakllantirish imkonini beradi.

Muhokama jarayonida aniqlangan muhim jihatlardan biri shundaki, bo‘lajak o‘qituvchilarning madaniyatlararo kommunikativ kompetensiyasi, avvalo, ularning boshqa madaniyat vakillariga nisbatan munosabati bilan chambarchas bog‘liq. Tolerantlik, empatiya, ochiq fikrlilik va madaniy sezgirlik kabi sifatlar samarali muloqotning psixologik-pedagogik asosini tashkil etadi. Agar bo‘lajak pedagog boshqa madaniyat vakilining qarashlarini oldindan shakllangan stereotiplar asosida baholasa, kommunikativ jarayonda tushunmovchiliklar yuzaga kelishi mumkin. Shu sababli pedagogik modelda stereotipik qarashlarni aniqlash va ularni tanqidiy qayta ko‘rib chiqishga yo‘naltirilgan topshiriqlardan foydalanish muhim hisoblanadi.

Madaniyatlararo kommunikativ kompetensiyaning rivojlanishida amaliy faoliyatga asoslangan metodlarning samaradorligi ham alohida e’tiborga loyiq. An’anaviy ma’ruza va reproduktiv topshiriqlar orqali talabalarga madaniyatlar haqidagi nazariy bilimlarni berish mumkin, biroq bunday yondashuv real kommunikativ vaziyatlarda zarur bo‘ladigan amaliy ko‘nikmalarni to‘liq shakllantira olmaydi. Shu bois keys-stadi, rolli o‘yinlar, muammoli vaziyatlar, debatlar, guruhli loyihalar va madaniyatlararo muloqotga asoslangan mashg‘ulotlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Mazkur metodlar talabalarni turli nuqtayi nazarlarni tahlil qilish, suhbatdoshning pozitsiyasini tushunish va muayyan kommunikativ vaziyatga mos xatti-harakatni tanlashga o‘rgatadi.

Tadqiqot natijalarini muhokama qilish jarayonida raqamli ta’lim muhitining imkoniyatlari ham muhim omil sifatida qaraldi. Raqamli platformalar va virtual

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

kommunikatsiya vositalari bo‘lajak o‘qituvchilarga turli hudud va mamlakatlardagi tengdoshlari bilan muloqot qilish, madaniy tajriba almashish va qo‘shma loyihalarda ishtirok etish imkonini beradi. Shu bilan birga, virtual muloqotda yuzaga keladigan noto‘g‘ri talqinlar, kommunikativ me’yorlarning farqlanishi va raqamli etikaga rioya qilmaslik holatlari madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini rivojlantirishda alohida e’tibor talab qiladi. Shuning uchun pedagogik modelda raqamli kommunikatsiya madaniyati, media savodxonlik va raqamli etika elementlarini ham qamrab olish zarur.

Muhokama natijalari madaniyatlararo kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishda refleksiv faoliyatning ahamiyatini ham ko‘rsatadi. Talabaning o‘z muloqot jarayonini tahlil qilishi, o‘zining madaniy qarashlari va stereotiplarini anglab yetishi, kommunikativ xatolarini aniqlashi hamda keyingi faoliyat uchun tegishli xulosalar chiqarishi kompetensiyaning barqaror shakllanishiga yordam beradi. Shu sababli refleksiv kundaliklar, o‘z-o‘zini baholash varaqalari, kommunikativ vaziyatlar tahlili va portfoliolar kabi vositalardan foydalanish modelning diagnostik-baholash komponentini samarali amalga oshirish imkonini beradi.

Shuningdek, madaniyatlararo kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish jarayonida milliy va umuminsoniy qadriyatlarning o‘zaro uyg‘unligiga alohida e’tibor qaratish lozim. O‘z milliy madaniyatini chuqur anglagan va qadrlagan holda boshqa xalqlar madaniyatiga hurmat bilan munosabatda bo‘lish madaniyatlararo muloqotning muhim shartlaridan biridir. Shu jihatdan, bo‘lajak o‘qituvchilarda o‘z madaniy identifikatsiyasini anglash bilan bir qatorda, boshqa madaniyatlarning o‘ziga xosligini qabul qilish va qadrlash qobiliyatini rivojlantirish maqsadga muvofiq.

Umuman, muhokama natijalari bo‘lajak o‘qituvchilarda madaniyatlararo kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish birgina fan yoki alohida mashg‘ulot doirasida hal etiladigan vazifa emasligini ko‘rsatadi. Ushbu jarayon pedagogik ta’limning mazmuni, metodlari, kommunikativ muhiti, raqamli vositalari va baholash mexanizmlarini o‘zaro uyg‘unlashtirgan tizimli yondashuvni talab etadi. Shu asosda ishlab chiqilgan pedagogik model bo‘lajak o‘qituvchilarning madaniyatlararo muloqotga tayyorgarligini kompleks ravishda rivojlantirish, ularning kasbiy-kommunikativ imkoniyatlarini kengaytirish va ta’lim jarayonida madaniy xilma-xillikni samarali boshqarish kompetensiyasini shakllantirish uchun metodik asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Bo‘lajak o‘qituvchilarda madaniyatlararo kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishga yo‘naltirilgan pedagogik model oltita o‘zaro bog‘liq blokdan iborat. Kelgusi tadqiqotlarda ushbu modelni amaliy sinovdan o‘tkazish maqsadga muvofiqdir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Byram M. Teaching and Assessing Intercultural Communicative Competence. – Clevedon: Multilingual Matters, 1997. – 124 p.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

2. Беспалько В.П. Слагаемые педагогической технологии. – М.: Педагогика, 1989. – 192 с.
3. Banks J.A. An Introduction to Multicultural Education. – Boston: Pearson, 2014. – 208 p.
4. Karimov B. Etnopedagogika va millatlararo munosabatlar madaniyati. – Toshkent: O‘qituvchi, 2016. – 196 b.
5. Yo‘ldoshev J.G‘. Ta’lim texnologiyalari va kompetensiyaviy yondashuv. – Toshkent: O‘qituvchi, 2011. – 216 b.

© intereduglobalstudy.com

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

INDIVIDUAL TA'LIM MUHITIDA REGGIO EMILIA G'OYALARINING AHAMIYATI.

Azamatova Dildora Shuxrat qizi, Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim nazariyasi va amaliyoti kafedrasi v.b. dotsenti.
yuldashovadildora2@gmail.com
ORCID: 0009-0006-9076-6422

Annotatsiya

KIRISH: mazkur maqolada maktabgacha ta'limda individual ta'lim muhitini tashkil etishda Reggio Emilia pedagogik yondashuvi g'oyalarining ahamiyati ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda bolaning faol, qiziquvchan, ijodkor va ta'lim jarayonining faol subyekti sifatidagi pozitsiyasi, "bolaning yuz tili" konsepsiyasi, ta'lim muhitining pedagogik imkoniyatlari, pedagogning kuzatuvchi va hamkor sifatidagi roli, pedagogik hujjatlashtirish, loyiha faoliyati, ijodiy markazlar hamda oila bilan hamkorlik masalalari yoritilgan. Reggio Emilia yondashuvining individual ta'lim muhiti bilan uyg'unlashuvi natijasida bolaning qiziqishi, ehtiyoji, rivojlanish sur'ati va individual imkoniyatlarini hisobga olish uchun sharoit yaratilishi asoslangan. Maqolada individual ta'lim muhitini loyihalashning "bola – pedagog – muhit – oila" integrativ modeli taklif etilgan. Shuningdek, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida Reggio Emilia g'oyalaridan foydalanishning pedagogik shartlari va amaliy mexanizmlari ko'rsatib berilgan.

MAQSAD: maktabgacha ta'limda individual ta'lim muhitini tashkil etishda Reggio Emilia pedagogik yondashuvi g'oyalarining ahamiyatini ilmiy-nazariy jihatdan asoslash, bolaning qiziqishlari, ehtiyojlari, rivojlanish sur'ati va individual imkoniyatlarini hisobga oluvchi ta'lim muhitini loyihalash modelini ishlab chiqish hamda ushbu yondashuvni milliy maktabgacha ta'lim amaliyotiga moslashtirish imkoniyatlarini aniqlash.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqot materiallarini Reggio Emilia yondashuviga oid ilmiy adabiyotlar, Reggio Children tashkilotining rasmiy materiallari, maktabgacha ta'limga doir davlat standarti, "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi va metodik manbalar tashkil etdi. Tadqiqotda ilmiy-nazariy tahlil, qiyoslash, umumlashtirish va pedagogik modellashtirish usullaridan foydalanilib, bolaning faol subyekt sifatidagi o'rni, "yuz til" konsepsiyasi, rivojlantiruvchi muhit, pedagogik hujjatlashtirish, loyiha faoliyati hamda oila bilan hamkorlikning individual ta'limni tashkil etishdagi imkoniyatlari o'rganildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: nazariy tahlil Reggio Emilia yondashuvi va individual ta'lim muhiti tamoyillari o'rtasidagi uyg'unlikni ko'rsatdi. Bolaga faoliyat va ifoda vositalarini tanlash imkoniyatini berish, muhitni "uchinchi pedagog" sifatida tashkil etish, pedagogning kuzatuvchi va hamkor sifatida ishtirok etishi hamda pedagogik hujjatlashtirish bolaning individual rivojlanishini qo'llab-quvvatlashi asoslandi. "Bola – pedagog – muhit – oila" o'zaro ta'siriga tayangan integrativ model taklif etilib, bolaning qiziqishini aniqlash, mos muhit yaratish, mustaqil faoliyatni tashkil etish va natijalarni tahlil qilish orqali keyingi ta'lim yo'nalishini belgilash mexanizmi ishlab chiqildi. Yondashuvni joriy etishda pedagoglarning metodik tayyorgarligi, moddiy resurslar, hujjatlashtirish uchun vaqt va ota-onalarning

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

ishtiroki muhim omillar sifatida belgilandi; kutilayotgan pedagogik samaralar nazariy jihatdan asoslandi.

XULOSA: Reggio Emilia g‘oyalari maktabgacha ta’limda bolaning individualligini e’tirof etuvchi, mustaqil izlanishi, ijodiy ifodasi va muloqotini qo‘llab-quvvatlovchi ta’lim muhitini yaratish uchun muhim pedagogik asos bo‘la oladi. Mazkur g‘oyalarni milliy ta’lim mazmuni, rivojlantiruvchi markazlar, oilaviy qadriyatlar va mavjud imkoniyatlar bilan uyg‘unlashtirish maqsadga muvofiq. Bunda pedagoglar va bo‘lajak tarbiyachilarning muhitni loyihalash, bolalar faoliyatini kuzatish, pedagogik hujjatlashtirish va loyihalarni tashkil etish bo‘yicha kasbiy-metodik tayyorgarligini takomillashtirish alohida ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: individual ta’lim, ta’lim muhiti, Reggio Emilia, maktabgacha ta’lim, bolaning individualligi, yuz til, pedagogik hujjatlashtirish, rivojlantiruvchi muhit.

ВАЖНОСТЬ ИДЕЙ РЕДЖИО-ЭМИЛИИ В ИНДИВИДУАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ.

Азаматова Дилдора Шухрат кизи, Чирчикский государственный педагогический университет, Исполняющая обязанности доцента кафедры теории и практики дошкольного и начального образования.

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в статье теоретически анализируется значение идей педагогического подхода Reggio Emilia в организации индивидуальной образовательной среды в дошкольном образовании. Рассматриваются представление о ребёнке как активном, любознательном и творческом субъекте образовательного процесса, концепция «ста языков ребёнка», педагогический потенциал образовательной среды, роль педагога как наблюдателя и партнёра, педагогическая документация, проектная деятельность, творческие центры и взаимодействие с семьёй. Обосновано, что интеграция идей Reggio Emilia с индивидуальной образовательной средой создаёт условия для учёта интересов, потребностей, темпа развития и индивидуальных возможностей каждого ребёнка. В статье предложена интегративная модель проектирования индивидуальной образовательной среды «ребёнок – педагог – среда – семья». Также определены педагогические условия и практические механизмы использования идей Reggio Emilia в дошкольных образовательных организациях.

ЦЕЛЬ: научно и теоретически обосновать важность идей педагогического подхода Реджио-Эмилии в организации индивидуальной образовательной среды в дошкольном образовании, разработать модель проектирования образовательной среды, учитывающей интересы, потребности, темп развития и индивидуальные способности ребенка, а также определить возможности адаптации этого подхода к национальной практике дошкольного образования.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: материалами исследования послужили научная литература по подходу Реджио-Эмилии, официальные материалы организации «Реджио-Дети», государственный стандарт дошкольного образования, государственная учебная программа «Первый шаг» и методические материалы. В исследовании использовались методы научно-теоретического анализа, сравнения, обобщения и педагогического моделирования для изучения роли ребенка как активного субъекта, концепции «ста языков», развивающей среды, педагогической документации, проектной деятельности и возможностей сотрудничества с семьей в организации индивидуального образования.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: теоретический анализ показал совместимость подхода Реджио-Эмилии с принципами индивидуальной образовательной среды. Было доказано, что предоставление ребенку возможности выбирать виды деятельности и средства самовыражения, организация среды как «третьего педагога», участие педагога в качестве наблюдателя и партнера, а также педагогическая документация способствуют индивидуальному развитию ребенка. Была предложена интегративная модель, основанная на взаимодействии «ребенок – педагог – среда – семья», и разработан механизм определения интересов ребенка, создания подходящей среды, организации самостоятельной деятельности и анализа результатов для определения направления дальнейшего обучения. Методическая подготовка педагогов, материальные ресурсы, время на документацию и участие родителей были определены как важные факторы реализации подхода; ожидаемые педагогические эффекты были теоретически обоснованы.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: идеи Реджио-Эмилии могут служить важной педагогической основой для создания в дошкольном образовании образовательной среды, которая признает индивидуальность ребенка, поддерживает самостоятельные исследования, творческое самовыражение и коммуникацию. Целесообразно сочетать эти идеи с национальным образовательным содержанием, центрами развития, семейными ценностями и существующими возможностями. В этой связи особое значение имеет совершенствование профессионально-методической подготовки учителей и будущих педагогов в области проектирования среды, наблюдения за деятельностью детей, педагогической документации и организации проектов.

Ключевые слова: индивидуальное воспитание, образовательная среда, Реджио-Эмилия, дошкольное образование, индивидуальность ребенка, сто языков, педагогическая документация, развивающая среда.

THE SIGNIFICANCE OF REGGIO EMILIA IDEAS IN AN INDIVIDUALIZED EDUCATIONAL ENVIRONMENT.

Azamatova Dildora Shukhrat qizi, Chirchik State Pedagogical University

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

Acting Associate Professor, Department of Theory and Practice of Preschool and Primary Education.

Annotation

INTRODUCTION: this article presents a theoretical analysis of the significance of the Reggio Emilia pedagogical approach for organizing an individualized educational environment in early childhood education. It examines the view of the child as an active, curious, and creative subject of the educational process; the concept of the "hundred languages of children"; the pedagogical potential of the educational environment; the role of the educator as an observer and partner; pedagogical documentation; project-based activities; creative centers; and family engagement. The study substantiates that integrating Reggio Emilia ideas with an individualized educational environment creates conditions that account for the interests, needs, developmental pace, and individual capabilities of each child. An integrative model for designing an individualized educational environment—comprising the child, educator, environment, and family—is proposed. Additionally, the pedagogical conditions and practical mechanisms for implementing Reggio Emilia ideas in preschool educational institutions are identified.

AIM: to provide a scientific and theoretical rationale for the importance of the Reggio Emilia pedagogical approach in organizing an individualized educational environment in early childhood education; to develop a model for designing an educational environment that takes into account the child's interests, needs, developmental pace, and individual abilities; and to determine the possibilities for adapting this approach to national early childhood education practices.

MATERIALS AND METHODS: the research materials included scholarly literature on the Reggio Emilia approach, official documents from the "Reggio Children" organization, the state standard for early childhood education, the "First Step" state curriculum, and methodological resources. The study employed methods of scientific-theoretical analysis, comparison, generalization, and pedagogical modeling to examine the child's role as an active subject, the "hundred languages" concept, the developmental environment, pedagogical documentation, project-based activities, and opportunities for family collaboration in organizing individualized education.

DISCUSSION AND RESULTS: theoretical analysis demonstrated the compatibility of the Reggio Emilia approach with the principles of an individualized educational environment. It has been demonstrated that allowing children to choose their activities and means of self-expression, organizing the environment as a "third teacher," having the educator act as both observer and partner, and utilizing pedagogical documentation all foster a child's individual development. An integrative model based on the "child–educator–environment–family" interaction was proposed, alongside a mechanism for identifying a child's interests, creating a suitable environment, organizing independent activities, and analyzing results to determine the direction of future learning. Methodological training for

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

educators, material resources, time allocated for documentation, and parental involvement were identified as key factors in implementing this approach; the expected pedagogical outcomes were theoretically substantiated.

CONCLUSION: Reggio Emilia principles can serve as a vital pedagogical foundation for creating an early childhood education environment that acknowledges the child's individuality and supports independent exploration, creative self-expression, and communication. It is advisable to integrate these ideas with national educational content, developmental centers, family values, and existing resources. In this context, enhancing the professional and methodological training of current and future educators—specifically regarding environment design, observation of children's activities, pedagogical documentation, and project organization—is of particular importance.

Keywords: individualized education, educational environment, Reggio Emilia, early childhood education, child's individuality, "hundred languages," pedagogical documentation, developmental environment.

Bugungi kunda maktabgacha ta’lim tizimida bolaning har tomonlama rivojlanishini ta’minlash bilan bir qatorda, uning individual xususiyatlari, qiziqishlari, ehtiyojlari, rivojlanish sur’ati va shaxsiy imkoniyatlarini hisobga olishga asoslangan ta’lim muhitini yaratish muhim pedagogik vazifalardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Maktabgacha yosh davrida bolaning bilishga bo‘lgan tabiiy ehtiyoji, atrof-muhitni kuzatish, savol berish, tajriba o‘tkazish, turli faoliyatlar orqali o‘z fikrini ifodalashga intilishi ta’lim jarayonini an’anaviy “pedagog – bola” munosabatlaridan kengroq tashkil etishni talab etadi.

Ta’limning individuallashtirilishi bolaning o‘ziga xos rivojlanish imkoniyatlarini aniqlash va shu asosda ta’lim mazmuni, usullari, vositalari hamda muhitini moslashtirishni nazarda tutadi. Individual ta’lim muhitida bola tayyor bilimlarni qabul qiluvchi emas, balki bilimlarni izlash, tajriba qilish, kuzatish, taqqoslash va ijodiy faoliyat orqali o‘zlashtiruvchi subyekt sifatida qaraladi.

Mazkur nuqtayi nazardan Reggio Emilia pedagogik yondashuvi alohida ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Reggio Emilia yondashuvi Italiyaning Reggio Emilia shahrida shakllangan bo‘lib, unda bola kuchli imkoniyatlarga ega, faol, qiziquvchan va o‘z rivojlanishida faol ishtirok etuvchi shaxs sifatida qaraladi. Ushbu yondashuvning asosiy g‘oyalari qatoriga bolaning “yuz tili”, muhitning pedagogik ahamiyati, pedagogik hujjatlashtirish, hamkorlik, loyiha faoliyati, ijodiy faoliyat va oilaning ta’lim jarayonidagi ishtiroki kiradi [1; 2].

Reggio Emilia yondashuvida muhit oddiygina ta’lim jarayoni amalga oshiriladigan makon sifatida emas, balki bolaning rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi pedagogik omil sifatida talqin qilinadi. Reggio Emilia Approach rasmiy manbalarida muhit “tarbiyachi” yoki “pedagog” funksiyasini bajaruvchi muhim komponent sifatida ko‘rsatiladi; bunda

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

makonning tashkil etilishi bolalarning izlanishi, munosabatlari va ijodiy faoliyatini qo‘llab-quvvatlashi kerakligi ta’kidlanadi [1; 3].

Shuningdek, Reggio Emilia yondashuvida bolaning “yuz tili” g‘oyasi alohida o‘rin egallaydi. Bu tushuncha bolalarning o‘z fikr va tajribalarini faqat og‘zaki nutq orqali emas, balki rasm, rang, musiqa, harakat, qurish, modellashtirish, dramatizatsiya, tabiiy materiallar bilan ishlash va boshqa ko‘plab vositalar orqali ifoda eta olishini anglatadi [1; 4]. Mazkur g‘oya individual ta’lim muhiti uchun ayniqsa muhim, chunki barcha bolalar bir xil usulda o‘rganmaydi va o‘z imkoniyatlarini bir xil shaklda namoyon qilmaydi.

Shu sababli Reggio Emilia g‘oyalarini individual ta’lim muhitini tashkil etish tamoyillari bilan uyg‘unlashtirish maktabgacha ta’lim jarayonini bolaning individual rivojlanish trayektoriyasiga yo‘naltirish imkonini beradi.

Reggio Emilia pedagogik yondashuvi XX asrning ikkinchi yarmida Loris Malaguzzi boshchiligida shakllangan va keyinchalik xalqaro pedagogik tajribada keng tarqalgan ta’limiy-falsafiy yondashuvlardan biriga aylangan. Uning asosida bolalikni mustaqil pedagogik qadriyat sifatida tan olish, bolani faol va kompetent subyekt sifatida ko‘rish hamda ta’lim jarayonini hamkorlikka asoslash g‘oyalari mavjud.

Edwards, Gandini va Forman tomonidan tahrirlangan “The Hundred Languages of Children” asarida Reggio Emilia tajribasining asosiy nazariy va amaliy jihatlari yoritilgan. Mualliflar bolaning bilim qurish jarayoni, pedagogning roli, hujjatlashtirish, loyiha faoliyati, muhit va oila bilan hamkorlik kabi masalalarni batafsil tahlil qilganlar [2].

Reggio Emilia yondashuvining muhim jihatlaridan biri bolaning imkoniyatlariga ijobiy munosabatdir. Tijnagel-Schoenakerning tadqiqotida bola dunyoni turli “tillar” orqali o‘rganishi va ifodalashi mumkinligi, pedagogning vazifasi esa bolaning ushbu imkoniyatlarini yuzaga chiqarish uchun boy muhit, materiallar va vaziyatlarni yaratishdan iboratligi ta’kidlangan [4].

Reggio Children tashkilotining rasmiy materiallarida ham ushbu yondashuv bolaning rivojlanish salohiyatini, uning huquqlarini, munosabatlar orqali o‘rganishini va “yuz til” orqali o‘zini ifoda etishini e’tirof etuvchi pedagogik falsafa sifatida tavsiflanadi [1]. Ushbu manbada pedagoglar va tarbiyachilarning hamkorligi, atelierlar, muhit, pedagogik hujjatlashtirish va oilaning ishtiroki Reggio Emilia tajribasining asosiy tarkibiy qismlari sifatida qayd etilgan.

2025-yilda Yin va Giudici tomonidan e’lon qilingan tadqiqotda Reggio Emilia yondashuvining “muhit uchinchi pedagog sifatida”, ijtimoiy o‘zaro munosabatlar, pedagogning roli, hujjatlashtirish va badiiy faoliyat bilan bog‘liq jihatlari tahlil qilingan. Mualliflar ijodkorlik va vaziyatga moslashuvchanlikni ushbu yondashuvning muhim xususiyatlari sifatida ko‘rsatadi [5].

Reggio Emilia yondashuvining yana bir muhim jihati – pedagogik hujjatlashtirishdir. Hujjatlashtirish faqat bolaning faoliyatidan fotosurat yoki yozuvlarni yig‘ish emas, balki bolaning qanday fikrlayotgani, qanday savollar berayotgani, qanday strategiyalardan foydalanayotgani va bilimni qanday qurayotganini aniqlash vositasidir. Shu sababli

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

hujjatlashtirish individual ta’lim muhitini rejalashtirishda diagnostik va refleksiv vosita vazifasini bajaradi [2; 5].

Xorijiy tadqiqotlarda Reggio Emilia yondashuvi Montessori va Waldorf kabi muqobil maktabgacha ta’lim modellari bilan qiyoslangan. Bunday tadqiqotlarda Reggio Emilia tajribasining bolaga tanlov berish, ijodkorlikni qo‘llab-quvvatlash, muhitni pedagogik vosita sifatida tashkil etish va hamkorlikka asoslanganligi alohida qayd etiladi [6].

Demak, mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili Reggio Emilia g‘oyalarining individual ta’lim muhiti bilan uyg‘unlashishi uchun nazariy asoslar yetarli ekanligini ko‘rsatadi. Biroq ushbu g‘oyalarni O‘zbekiston maktabgacha ta’lim amaliyotiga moslashtirishda milliy pedagogik qadriyatlar, davlat ta’lim talablari, mavjud moddiy-texnik imkoniyatlar va pedagoglarning metodik tayyorgarligini hisobga olish zarur.

Reggio Emilia yondashuvi individual ta’lim muhitini shakllantirish uchun bir nechta muhim pedagogik g‘oyalarni taklif etadi.

1. Bolani kompetent va faol subyekt sifatida qabul qilish

Reggio Emilia yondashuvida bola tayyor bilimlarni qabul qiluvchi obyekt sifatida emas, balki o‘z bilimini faol ravishda quruvchi subyekt sifatida qaraladi [1; 2].

Bunday yondashuv individual ta’lim muhitining asosiy talablariga mos keladi. Chunki bola faol subyekt sifatida e’tirof etilganda uning tanlovi, savollari, qiziqishlari va individual faoliyat usullariga pedagog tomonidan hurmat bilan munosabatda bo‘linadi.

Masalan, “O‘simliklar qanday o‘sadi?” mavzusida bir bola o‘simlikni rasmini chizish orqali, ikkinchi bola urug‘ni ekish va kuzatish orqali, uchinchi bola loydan o‘simlik modelini yaratish orqali, yana biri esa o‘z kuzatuvlarini og‘zaki hikoya qilish orqali o‘zlashtirishi mumkin.

Bu jarayonda barcha bolalarga bir xil topshiriq berishdan ko‘ra, umumiy mavzu doirasida individual ifoda usullarini tanlashga imkon berish samaraliroq bo‘ladi.

2. “Bolaning yuz tili” konsepsiyasi

Reggio Emilia yondashuvining eng mashhur g‘oyalaridan biri “yuz til” konsepsiyasidir. Mazkur tushuncha bolaning dunyoni anglash va o‘z fikrini ifodalash imkoniyatlari nihoyatda xilma-xil ekanligini anglatadi [1; 4].

Bolaning “tillari” quyidagilar orqali namoyon bo‘lishi mumkin: og‘zaki nutq; rasm; rang; musiqa; raqs; dramatizatsiya; qurish; loy va plastilin bilan ishlash; tajriba; tabiatni kuzatish; modellashtirish; fotografiya; harakat; konstruktiv faoliyat.

Individual ta’lim muhitida bu g‘oya har bir bolaning o‘ziga qulay va qiziqarli faoliyat turini tanlashiga imkon beradi.

Shunday qilib, “yuz til” konsepsiyasi individual ta’limning “bitta maqsad – turli yo‘llar” tamoyilini shakllantirishga xizmat qiladi.

Muhitning “uchinchi pedagog” sifatidagi ahamiyati

Reggio Emilia tajribasida muhitning ta’limiy ahamiyati juda yuqori baholanadi. Rasmiy Reggio Emilia manbalarida muhitning pedagogik vosita sifatidagi roli, uning bolalar o‘rtasidagi munosabatlar, izlanish va ijodkorlikni qo‘llab-quvvatlashi ta’kidlanadi [1; 3].

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

Individual ta’lim muhitini tashkil etishda xona faqat mebel va o‘yinchoqlar joylashgan makon emas, balki bolaning mustaqil harakatini rag‘batlantiruvchi “pedagogik maydon”ga aylanishi kerak.

Buning uchun quyidagi shartlar muhim: materiallar bolaning bo‘yiga mos joylashtirilishi; bolaning materiallarni mustaqil tanlashiga imkon berilishi; turli faoliyatlar uchun ochiq va moslashuvchan zonalar yaratilishi; tabiiy materiallardan foydalanish; bolaning ishlari namoyish etilishi; kuzatish va tajriba uchun maxsus joylar tashkil qilinishi; tinch va individual faoliyat uchun kichik makon ajratilishi; ijodiy faoliyat uchun maxsus zona tashkil etilishi.

Masalan, “Tabiat markazi”da lupa, urug‘lar, barglar, toshlar, qum, suv, shoxchalar, kichik idishlar, o‘lchash vositalari va rasmlar mavjud bo‘lsa, bola o‘z qiziqishiga qarab mustaqil tadqiqot olib borishi mumkin.

Bunday muhit pedagogning doimiy ko‘rsatmasini kamaytiradi va bolaning mustaqilligini oshiradi.

Pedagogning yangi roli

Individual ta’lim muhitida Reggio Emilia g‘oyalaridan foydalanish pedagogning rolini ham o‘zgartirishni talab qiladi.

An’anaviy yondashuvda pedagog ko‘proq bilim beruvchi va faoliyatni boshqaruvchi sifatida namoyon bo‘lsa, Reggio Emilia yondashuvida pedagog: kuzatuvchi; tadqiqotchi; hamkor; yo‘naltiruvchi; muhit dizayneri; hujjatlashtiruvchi; refleksiv amaliyotchi sifatida faoliyat yuritadi.

Pedagog bolaning savollarini darhol tayyor javob bilan yopib qo‘ymasdan, uning fikrlash jarayonini davom ettiruvchi savollarni berishi kerak.

Masalan:

“Bu nima?” degan savol o‘rniga:

- “Seningcha, bu qanday hosil bo‘lgan?”
- “Buni qanday tekshirib ko‘rishimiz mumkin?”
- “Yana qanday usulni sinab ko‘rsak bo‘ladi?”
- “Nima uchun shunday deb o‘ylayapsan?”
- “Boshqacha qilib ko‘rsak nima bo‘ladi?”

kabi savollar bolaning tadqiqotchilik faoliyatini rag‘batlantiradi.

Bu jarayonda pedagog bolaning harakatlarini kuzatib, uning qiziqishlari va rivojlanish dinamikasi haqida ma’lumot to‘playdi.

Pedagogik hujjatlashtirish va individual rivojlanish trayektoriyasi

Reggio Emilia yondashuvida pedagogik hujjatlashtirish alohida ahamiyatga ega. Hujjatlashtirish orqali bolaning ta’lim jarayonidagi faoliyati “ko‘rinadigan” holatga keltiriladi [2; 5].Hujjatlashtirish quyidagilarni o‘z ichiga olishi mumkin: bolaning fikrlari; savollari; aytgan gaplari; chizmalari; yasagan modellari; fotosuratlar; tajriba natijalari; pedagog kuzatuvlari; bolaning faoliyat jarayonidagi o‘zgarishlari.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

Masalan, bola “Urug‘dan daraxt qanday paydo bo‘ladi?” degan savol bilan qiziqdi. Pedagog uning savolini yozib oladi. Keyingi bosqichda bola urug‘ ekadi, har kuni kuzatadi, rasmini chizadi, o‘lchaydi va natijalarni qayd qiladi.

Bir necha kundan keyin pedagog ushbu materiallarni tahlil qilib, bolaning nimaga qiziqayotganini va qaysi kompetensiyalari rivojlanayotganini aniqlashi mumkin.

Shu tariqa hujjatlashtirish individual rivojlanish trayektoriyasini rejalashtirish uchun asos bo‘ladi.

Reggio Emilia asosida individual ta’lim muhitini tashkil etish modeli

Tadqiqot natijasida individual ta’lim muhitini Reggio Emilia g‘oyalari asosida tashkil etishning quyidagi modeli taklif etiladi.

1-jadval.

Reggio Emilia g‘oyalari asosida individual ta’lim muhitini tashkil etish modeli

Komponent	Asosiy mazmun	Pedagogik natija
Bola	Qiziqish, ehtiyoj, individual imkoniyat	Shaxsiy ta’lim faolligi
Muhit|	Moslashuvchan, ochiq, rivojlantiruvchi makon	Mustaqil tanlov va tadqiqot
Material	Tabiiy, ijodiy, konstruktiv vositalar	Sensor va ijodiy rivojlanish
Pedagog	Kuzatuvchi, hamkor, fasilitator	Mustaqil fikrlashni qo‘llab-quvvatlash
“Yuz til”	Rasm, musiqa, harakat, qurish, nutq	Individual ifoda imkoniyati
Hujjatlashtirish	Kuzatuv, foto, bolaning fikrlari va ishlari	Individual rivojlanishni monitoring qilish
Loyiha	Bolaning savol va qiziqishlari asosida	Tadqiqotchilik kompetensiyasi
Oila	Hamkorlik va axborot almashinuvi	Ta’limning uzviyligi

Ushbu modelning markazida bola turadi. Barcha boshqa komponentlar bolaning individual rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltiriladi.

Reggio Emilia g‘oyalarini maktabgacha ta’lim tashkilotlaridagi rivojlantiruvchi markazlar faoliyati bilan uyg‘unlashtirish mumkin.

2-jadval.

Rivojlantiruvchi markazlar va Reggio Emilia g‘oyalarining uyg‘unligi

Rivojlantiruvchi markaz	Reggio Emilia elementi	Individual faoliyat namunasi
Til va nutq	“Yuz til”, dialog	Hikoya tuzish, savol-javob
Qurish-yasash va matematika	Tadqiqot va modellashtirish	Konstruktor orqali model yaratish
San’at	Ijodiy ifoda	Rasm, kollaj, loy bilan ishlash
Ilm-fan va tabiat	Kuzatish va tajriba	O‘simlik, suv, qum bilan tajribalar

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

Syujetli-rolli o‘yin	Ijtimoiy hamkorlik	Rolli vaziyatlarni mustaqil yaratish

Masalan, “San’at markazi”ni faqat bo‘yash uchun mo‘ljallangan joy emas, balki bolaning turli materiallar bilan tajriba qilishi mumkin bo‘lgan atelier sifatida tashkil etish mumkin.

Bu yerda bola: bo‘yoq; qog‘oz; loy; tabiiy materiallar; mato; ip; yog‘och bo‘laklari; barglar;

- toshlar kabi vositalardan foydalanib, o‘z g‘oyasini turli shakllarda ifodalashi mumkin.

Reggio Emilia g‘oyalarining bo‘lajak tarbiyachilar metodik tayyorgarligidagi

Reggio Emilia g‘oyalarini milliy maktabgacha ta’lim amaliyotiga moslashtirish

Reggio Emilia yondashuvini O‘zbekiston maktabgacha ta’lim tizimiga to‘liq ko‘chirish emas, balki uning pedagogik jihatdan samarali g‘oyalarini milliy ta’lim mazmuni bilan uyg‘unlashtirish muhim.

Chunki har bir davlatning ta’lim tizimi o‘zining madaniy, ijtimoiy va milliy xususiyatlariga ega.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, individual ta’lim muhiti va Reggio Emilia yondashuvi o‘rtasida kuchli konseptual uyg‘unlik mavjud.

Birinchidan, har ikkala yondashuvda ham bola markaziy subyekt sifatida qaraladi.

Ikkinchidan, ta’lim jarayonida tayyor natijadan ko‘ra bolaning faoliyat jarayoni va rivojlanish dinamikasiga e’tibor beriladi.

Uchinchidan, ta’lim muhiti bolaning rivojlanishini qo‘llab-quvvatlovchi muhim pedagogik vosita sifatida qaraladi.

To‘rtinchidan, pedagogning vazifasi bolaning o‘rniga faoliyatni bajarish emas, balki bolaning faoliyatini rag‘batlantirish va kerakli pedagogik sharoitni yaratishdan iborat.

Beshinchidan, bolaning o‘z fikrini turli vositalar orqali ifodalashi uchun imkoniyat yaratiladi.

Shu bilan birga, Reggio Emilia g‘oyalarini amaliyotga joriy etishda ayrim muammolar yuzaga kelishi mumkin. Jumladan, pedagoglarning mazkur yondashuv bo‘yicha yetarli metodik tayyorgarlikka ega emasligi, ta’lim muhitini qayta tashkil etish uchun moddiy resurslarning cheklanganligi, hujjatlashtirish uchun vaqtning yetishmasligi va ota-onalarning yondashuv mazmunini yetarli tushunmasligi shular jumlasidandir.

Mazkur muammolarni hal etish uchun pedagoglar uchun qisqa muddatli metodik seminarlar, mahorat darslari, amaliy treninglar, ochiq mashg‘ulotlar va tajriba almashish platformalarini tashkil etish maqsadga muvofiq.

Nazariy tahlil asosida individual ta’lim muhitida Reggio Emilia g‘oyalaridan foydalanish quyidagi pedagogik natijalarga olib kelishi mumkinligi aniqlandi:

1. bolaning ta’lim jarayonidagi mustaqil faolligi oshadi;
2. bolaning individual qiziqishlarini aniqlash imkoniyati kengayadi;
3. ijodiy fikrlash uchun ko‘proq imkoniyat yaratiladi;

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

4. bolaning kommunikativ faolligi rivojlanadi;
5. tadqiqotchilik faoliyati qo‘llab-quvvatlanadi;
6. bolaning o‘z fikrini turli shakllarda ifodalash imkoniyati ortadi;
7. pedagogning individual kuzatuv va monitoring faoliyati takomillashadi;
8. ota-onalar bilan hamkorlikning mazmuni boyiydi;
9. rivojlantiruvchi markazlarning pedagogik imkoniyatlari kengayadi;
10. bo‘lajak tarbiyachilarning individual ta’lim muhitini loyihalash kompetensiyasi rivojlanadi.

Shu asosda individual ta’lim muhitida Reggio Emilia g‘oyalaridan foydalanishning umumiy pedagogik mexanizmini quyidagicha ifodalash mumkin:

Bolaning qiziqishi → pedagogik kuzatuv → mos muhit → material tanlovi → mustaqil faoliyat → pedagogik hamkorlik → hujjatlashtirish → tahlil → keyingi individual ta’lim yo‘nalishi.

Ushbu mexanizm doimiy ravishda takrorlanib, bolaning rivojlanish dinamikasiga mos ravishda takomillashtirib boriladi.

Maktabgacha ta’limda individual ta’lim muhitini yaratish bolaning shaxsiy rivojlanish imkoniyatlarini to‘liq ro‘yobga chiqarishning muhim shartlaridan biridir. Individual ta’lim muhitida bola o‘zining qiziqishlari, ehtiyojlari va rivojlanish sur’atiga mos faoliyatni tanlash, tajriba qilish, kuzatish, savol berish va ijodiy mahsulot yaratish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Reggio Emilia yondashuvining asosiy g‘oyalari ushbu jarayonni pedagogik jihatdan boyitish uchun muhim imkoniyatlar yaratadi. Ayniqsa, bolaning kompetent va faol subyekt sifatida qaralishi, “yuz til” konsepsiyasi, muhitning pedagogik vosita sifatidagi ahamiyati, pedagogning kuzatuvchi va hamkor sifatidagi roli, pedagogik hujjatlashtirish, loyiha faoliyati va oila bilan hamkorlik individual ta’lim muhitining mazmunini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijasida “bola – pedagog – muhit – oila” o‘zaro ta’siriga asoslangan integrativ model taklif qilindi. Ushbu modelda bolaning individual qiziqishi va ehtiyojlari ta’lim jarayonining boshlang‘ich nuqtasi sifatida belgilanadi. Pedagog esa bolaning rivojlanish jarayonini kuzatadi, muhitni moslashtiradi, zarur materiallarni taqdim etadi, bolaning savollarini qo‘llab-quvvatlaydi va pedagogik hujjatlashtirish orqali keyingi ta’lim faoliyatini rejalashtiradi.

Reggio Emilia g‘oyalarini O‘zbekiston maktabgacha ta’lim amaliyotiga joriy etishda ushbu yondashuvni tayyor shaklda ko‘chirish emas, balki uning universal pedagogik tamoyillarini milliy ta’lim mazmuni, rivojlantiruvchi markazlar, oila qadriyatlari va mavjud pedagogik imkoniyatlar bilan uyg‘unlashtirish maqsadga muvofiq.

Shuningdek, Reggio Emilia g‘oyalarini bo‘lajak tarbiyachilarni kasbiy-metodik tayyorlash jarayoniga kiritish istiqbolli yo‘nalishlardan biridir. Bo‘lajak tarbiyachilarni individual ta’lim muhitini loyihalash, bolalar faoliyatini kuzatish, pedagogik hujjatlashtirish, loyiha faoliyatini tashkil etish va ijodiy muhit yaratishga o‘rgatish ularning zamonaviy kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

Umuman olganda, Reggio Emilia g‘oyalari individual ta’lim muhitini bolaning faqat bilim olishi uchun emas, balki izlanishi, o‘zini namoyon qilishi, ijod qilishi, muloqot qilishi, mustaqil qaror qabul qilishi va o‘z rivojlanishining faol ishtirokchisiga aylanishi uchun pedagogik makon sifatida tashkil etish imkonini beradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi. Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standarti. Toshkent.
2. O‘zbekiston Respublikasi. Ilk qadam davlat o‘quv dasturi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun davlat o‘quv dasturi. Toshkent.
3. Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi. Maktabgacha ta’limda rivojlantiruvchi muhitni tashkil etish bo‘yicha metodik materiallar. Toshkent.
4. Reggio Children. Reggio Emilia Approach. Reggio Emilia, Italy.
5. Edwards C., Gandini L., Forman G. (Eds.). The Hundred Languages of Children: The Reggio Emilia Approach – Advanced Reflections. 2nd ed. Ablex Publishing, 1998.
6. Reggio Emilia Approach. Reggio Emilia Approach: Children, relationships, environment, documentation and family participation. Reggio Emilia.
7. Tijnagel-Schoenaker B. The Reggio Emilia Approach… The Hundred Languages. Prima Educatione. 2017. Vol. 1. P. 139–150. DOI: 10.17951/pe.2017.1.139.
8. Azamatova D. INDIVIDUAL-PSYCHOLOGICAL CONDITIONS AND FEATURES OF PROFESSIONAL-METHODICAL TRAINING OF PRESCHOOL TEACHERS IN AN INDIVIDUAL EDUCATIONAL ENVIRONMENT //Экономика и социум. – 2025. – №. 5-2 (132). – С. 112-114.
9. Aljabreen H. Montessori, Waldorf, and Reggio Emilia: A Comparative Analysis of Alternative Models of Early Childhood Education. International Journal of Early Childhood. 2020. Vol. 52. P. 337–353.
10. Rinaldi C. In Dialogue with Reggio Emilia: Listening, Researching and Learning. Routledge, 2006.
11. Sadikova S., Azamatova D. MAKTABGACHA TALIMDA MARKAZLAR FAOLIYATINING PEDAGOGIK INNOVATSION KLASTERI //Science and innovation. – 2022. – Т. 1. – №. B7. – С. 1138-1143.
12. Gandini L., Hill L., Cadwell L., Schwall C. (Eds.). In the Spirit of the Studio: Learning from the Atelier of Reggio Emilia. Teachers College Press, 2005.
13. Katz L. G. What Can We Learn from Reggio Emilia? In: Edwards C., Gandini L., Forman G. (Eds.). The Hundred Languages of Children. Ablex Publishing.
14. Malaguzzi L. The Hundred Languages of Children. Reggio Emilia educational philosophy.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

IXTISOSLASHTIRILGAN TA'LIM MUASSASALARIDA INSON RESURSLARINI BOSHQARISHNING RAQAMLI MEXANIZMLARI VA RAHBAR KADRLARNING KOMPETENSIYA MODELI.

Tog'ayeva Zamira, O'zbekiston Respublikasi Telekommunikatsiyalarni tartibga solish agentligi inson resurslari bo'yicha bosh menejeri.
togaevazamira55@gmail.com

Annotatsiya

KIRISH: maqolada ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida inson resurslarini boshqarishning raqamli mexanizmlari tadqiq etilgan. Muallif kadrlar bilan ishlashning to'liq siklini — rejalashtirish, tanlash, moslashtirish, rivojlantirish, baholash va rag'batlantirish bosqichlarini ajratib, har bir bosqichda raqamli texnologiyalar qanday qo'shimcha qiymat yaratishini asoslaydi. Xalqaro amaliyotda keng tarqalgan HR-analitika, elektron portfolio va kompetensiyaga asoslangan baholash vositalarining ta'lim muassasasi sharoitidagi qo'llanish imkoniyatlari ko'rsatilgan. Tadqiqot natijasida ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasasi rahbarining oltita klasterdan iborat kompetensiya modeli ishlab chiqilgan va har bir kompetensiya uchun uch darajali namoyon bo'lish indikatorlari belgilangan. Model rahbar kadrlarni tanlash, attestatsiyadan o'tkazish va maqsadli malaka oshirish dasturlarini loyihalashda qo'llanishi mumkin.

MAQSAD: ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida inson resurslarini boshqarishning raqamli mexanizmlarini asoslash va rahbar kadrlarning ko'p klasterli kompetensiya modelini ishlab chiqishdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda funksional tahlil va ekspert baholash usullari, D. Ulrich, J. Marler, J. Boudreau kabi HR-analitika konsepsiyalari, Yevropa Ittifoqining DigCompEdu va TPACK modellari hamda K. Leithwoodning rahbarlik standartlari tahlilidan foydalanildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: kadrlar siklining 6 ta bosqichi (rejalashtirish, tanlov, moslashtirish, rivojlantirish, baholash, rag'batlantirish) bo'yicha raqamli mexanizmlar belgilandi; ekspert baholashi asosida rahbar kadrlarning 6 ta klasterdan (Strategik-vizioner, Raqamli-analitik, Pedagogik-metodik, Inson resurslari, Kommunikativ-hamkorlik, Huquqiy-etik) iborat kompetensiya modeli yaratilib, har bir kompetensiya uchun 3 darajali (bazaviy, yetarli, yuqori) namoyon bo'lish indikatorlari ishlab chiqildi. \

XULOSA: Ishlab chiqilgan raqamli mexanizmlar va kompetensiya modeli kadrlar zaxirasining raqamli reyestrini yuritish, rahbarlarni attestatsiyadan o'tkazish hamda ularning individual malaka oshirish trayektoriyasini belgilash imkonini beradi.

Kalit so'zlar: inson resurslarini boshqarish, HR-analitika, kompetensiya modeli, rahbar kadrlar, elektron portfolio, kadrlar zaxirasi, raqamli kompetensiya, ixtisoslashtirilgan maktab.

© intereduglobalstudy.com

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

ЦИФРОВЫЕ МЕХАНИЗМЫ УПРАВЛЕНИЯ ЧЕЛОВЕЧЕСКИМИ РЕСУРСАМИ В СПЕЦИАЛИЗИРОВАННЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ И КОМПЕТЕНТНОСТНАЯ МОДЕЛЬ РУКОВОДЯЩИХ КАДРОВ.

Тогаева Замира, главный менеджер по человеческим ресурсам Агентства по регулированию телекоммуникаций Республики Узбекистан.

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в статье исследованы цифровые механизмы управления человеческими ресурсами в специализированных образовательных учреждениях. Автор выделяет полный цикл работы с кадрами — планирование, подбор, адаптацию, развитие, оценку и мотивацию — и обосновывает, какую добавленную ценность создают цифровые технологии на каждом этапе. Показаны возможности применения в условиях образовательного учреждения распространённых в международной практике инструментов HR-аналитики, электронного портфолио и оценки на основе компетенций. В результате исследования разработана модель компетенций руководителя специализированного образовательного учреждения, состоящая из шести кластеров, и определены трёхуровневые индикаторы проявления каждой компетенции. Модель может применяться при подборе, аттестации руководящих кадров и проектировании адресных программ повышения квалификации.

ЦЕЛЬ: обоснование цифровых механизмов управления человеческими ресурсами и разработка многокластерной модели компетенций руководителей специализированных образовательных учреждений.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании использованы методы функционального анализа и экспертной оценки, концепции HR-аналитики D. Ulrich, J. Marler, J. Boudreau, европейская рамка DigCompEdu, модель TPACK, а также анализ стандартов руководства K. Leithwood.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: определены цифровые механизмы для 6 этапов кадрового цикла (планирование, подбор, адаптация, развитие, оценка, мотивация); на основе экспертной оценки разработана модель компетенций руководителя из 6 кластеров (Стратегическо-визионерский, Цифровой-аналитический, Педагогико-методический, Человеческие ресурсы, Коммуникативно-кооперационный, Правовой-этический) и определены 3-уровневые индикаторы проявления каждой компетенции (базовый, достаточный, высокий).

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: разработанные цифровые механизмы и модель компетенций обеспечивают ведение цифрового реестра кадрового резерва, проведение аттестации и проектирование индивидуальных траекторий повышения квалификации руководителей.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

Ключевые слова: управление человеческими ресурсами, HR-аналитика, модель компетенций, руководящие кадры, электронное портфолио, кадровый резерв, цифровая компетентность, специализированная школа.

DIGITAL MECHANISMS FOR HUMAN RESOURCE MANAGEMENT IN SPECIALIZED EDUCATIONAL INSTITUTIONS AND THE COMPETENCE MODEL OF EXECUTIVE LEADERS.

Togayeva Zamira, Chief Human Resources Manager at the Telecommunications Regulation Agency of the Republic of Uzbekistan.

Annotation

INTRODUCTION: The article examines the digital mechanisms of human resource management in specialised educational institutions. The author distinguishes the full personnel cycle — planning, recruitment, onboarding, development, appraisal and motivation — and substantiates the added value that digital technologies create at each stage. The applicability of internationally established instruments such as HR analytics, e-portfolios and competence-based appraisal within an educational institution is demonstrated. As a result, a six-cluster competence model for the head of a specialised educational institution is developed, with three-level behavioural indicators defined for each competence. The model can be applied in the selection and attestation of leadership personnel and in the design of targeted professional development programmes.

AIM: to substantiate the digital mechanisms of human resource management and develop a multi-cluster competence model for leaders of specialized educational institutions.

MATERIALS AND METHODS: the study employed functional analysis and expert evaluation methods, relying on HR analytics frameworks by D. Ulrich, J. Marler, and J. Boudreau, the EU DigCompEdu framework, the TPACK model, and K. Leithwood's educational leadership standards.

DISCUSSION AND RESULTS: digital mechanisms were defined across the 6 stages of the personnel cycle (planning, recruitment, onboarding, development, appraisal, motivation); based on expert evaluation, a six-cluster competence model for institutional leaders was established (Strategic-Visionary, Digital-Analytical, Pedagogical-Methodical, Human Resources, Communicative-Collaborative, Legal-Ethical) with three-level behavioral indicators (basic, sufficient, high).

CONCLUSION: the proposed digital mechanisms and competence model enable the management of a digital talent pool registry, streamline leadership attestation, and facilitate the design of targeted professional development trajectories.

Keywords: human resource management, HR analytics, competence model, leadership personnel, e-portfolio, talent pool, digital competence, specialised school.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasasining natijasi, pirovard natijada, unda ishlaydigan odamlarning sifati bilan belgilanadi. Xalqaro taqqoslama tadqiqotlar maktab ichidagi omillar orasida o‘qituvchi sifati va rahbarlik sifatining o‘quvchi natijalariga eng katta ta’sir ko‘rsatishini izchil tasdiqlab kelmoqda. Ixtisoslashtirilgan muassasalarda bu bog‘liqlik yanada kuchayadi, chunki iqtidorli o‘quvchi bilan ishlash o‘qituvchidan chuqur fan bilimidan tashqari differensiallashtirish, tadqiqot faoliyatini tashkil etish va o‘quvchining individual rivojlanish dinamikasini o‘qiy olish qobiliyatini talab qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 14-apreldagi PF-106-son Farmonida ixtisoslashtirilgan maktablarga rahbar va pedagog kadrlarni ikki bosqichli tanlov asosida qabul qilish tartibi belgilanganligi kadrlar siyosatida sifat mezonining ustuvorligini ko‘rsatadi. Biroq tanlovning o‘zi kadrlar bilan ishlashning faqat birinchi bosqichi hisoblanadi. Muassasa samaradorligi uchun kadr siklining barcha bosqichlari — rejalashtirishdan tortib rag‘batlantirish va kadrlar zaxirasini shakllantirishgacha — yaxlit tizim sifatida boshqarilishi zarur. Amaldagi holatda esa ushbu sikl ko‘pincha alohida-alohida, qog‘oz hujjatlar va subyektiv baholashga tayangan holda amalga oshirilmoqda.

Mazkur maqolaning maqsadi — ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalarida inson resurslarini boshqarishning raqamli mexanizmlarini asoslash va rahbar kadrlarning kompetensiya modelini ishlab chiqishdan iborat.

Inson resurslarini boshqarish nazariyasida D. Ulrichning HR funksiyasining to‘rt rolli modeli — strategik hamkor, ma’muriy ekspert, xodimlar himoyachisi va o‘zgarishlar agenti — kadrlar xizmatining ma’muriy funksiyadan strategik funksiyaga o‘tishini asoslab bergan. Keyingi ishlarida muallif HRning qiymat taklifi konsepsiyasini rivojlantirib, kadrlar bilan ishlash natijasi xodimlar uchun emas, avvalo tashkilotning tashqi manfaatdor tomonlari uchun yaratilgan qiymat orqali baholanishi lozimligini ta’kidlaydi. Ta’lim muassasasi kontekstida bunday tashqi manfaatdor tomon — o‘quvchi va uning oilasidir.

HR-analitika sohasida J. Marler va J. Boudreau tizimli sharh asosida analitikaning uch darajasini — tavsiflovchi, tashxisiy va prediktiv darajalarni ajratadi hamda tashkilotlarning aksariyati birinchi darajadan yuqoriga ko‘tarilmasligini ko‘rsatadi. Ularning muhim xulosasi shundan iboratki, HR-analitikaning qiymati ma’lumot hajmida emas, balki uning aniq boshqaruv qarori bilan bog‘lanishida namoyon bo‘ladi. Bu xulosa ta’lim muassasasi uchun bevosita ahamiyatga ega: pedagoglar to‘g‘risida yig‘ilgan ma’lumot hech qanday qarorga ta’sir qilmasa, u faqat qo‘shimcha ma’muriy yukka aylanadi.

Pedagogik kadrlarning raqamli kompetensiyasini baholashda Yevropa Ittifoqining DigCompEdu ramkasi (Y. Redecker) keng qo‘llaniladi. Unda o‘qituvchining raqamli kompetensiyasi olti sohaga — professional faoliyat, raqamli resurslar, o‘qitish va o‘rganish, baholash, o‘quvchilarni qo‘llab-quvvatlash va o‘quvchilarning raqamli kompetensiyasini rivojlantirishga ajratilgan hamda oltita rivojlanish darajasi belgilangan. P. Mishra va M. Koehlerning TPACK modeli esa texnologik, pedagogik va fan bilimlarining kesishuvi

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

sifatidagi integrativ bilimni ajratadi va texnologiyani mazmun hamda metodikadan ajratib o‘rgatishning samarasizligini asoslaydi.

Ta’lim rahbarligining kompetensiya modellari bo‘yicha K. Leithwood ajratgan to‘rtta asosiy amaliyot — yo‘nalish belgilash, odamlarni rivojlantirish, tashkilotni qayta loyihalash va o‘quv dasturini boshqarish — ko‘pgina milliy rahbarlik standartlarining asosini tashkil etadi. Ayni paytda raqamli muhit sharoitida bu ro‘yxatga ma’lumotlar asosida qaror qabul qilish va raqamli o‘zgarishlarni boshqarish kompetensiyalarining qo‘shilishi zaruriyati tadqiqotchilar tomonidan tobora ko‘proq e’tirof etilmoqda.

Kompetensiya modelini ishlab chiqishda funksional tahlil va ekspert baholash usullari birgalikda qo‘llanildi. Dastlab ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasasi rahbarining lavozim vazifalari normativ hujjatlar asosida inventarizatsiya qilindi va funksional bloklarga guruhlandi. So‘ngra xalqaro rahbarlik standartlari hamda DigCompEdu ramkasi bilan qiyoslash asosida dastlabki kompetensiyalar ro‘yxati shakllantirildi. Ushbu ro‘yxat ekspertlar guruhiga taqdim etilib, har bir kompetensiyaning ahamiyatlilik darajasi 5 balli shkalada baholandi; ahamiyatlilik bo‘yicha o‘rtacha bahosi 4,0 balldan past bo‘lgan pozitsiyalar modeldan chiqarildi yoki qo‘shni kompetensiya bilan birlashtirildi. Yakuniy model olti klaster va ularga kiruvchi kompetensiyalardan tashkil topdi; har bir kompetensiya uchun bazaviy, yetarli va yuqori darajadagi namoyon bo‘lish indikatorlari ta’riflandi.

Kadr siklining raqamli mexanizmlari. Inson resurslarini boshqarish sikli oltita bosqichdan iborat bo‘lib, ularning har birida raqamli texnologiyalar aniq belgilangan boshqaruv muammosini hal etadi (1-jadval). Raqamlashtirishning mantiqi bu yerda ham bir xil: subyektiv va hujjatga asoslangan qarorlardan dalilga va dinamikaga asoslangan qarorlarga o‘tish.

1-jadval. Kadr siklining bosqichlari va ularning raqamli mexanizmlari

Bosqich	Hal etiladigan muammo	Raqamli mexanizm	Kutilayotgan natija
Rejalashtirish	Kadrga ehtiyoj oldindan aniqlanmaydi	Kadrlar tarkibi va harakati tahlili, prognoz moduli	Vakansiyalarning oldindan bashorat qilinishi
Tanlov	Baholash subyektiv, tanlov mezonlari tarqoq	Elektron ariza, kompetensiya testi, tuzilgan intervyu protokoli	Tanlovning shaffofligi va takrorlanuvchanligi
Moslashtirish	Yangi xodim uzoq moslashadi	Raqamli onboarding yo‘riqnomasi, mentor biriktirish moduli	Moslashuv muddatining qisqarishi
Rivojlantirish	Malaka oshirish ehtiyojga bog‘lanmagan	Kompetensiya profili asosidagi individual rivojlanish rejasi	Maqsadli malaka oshirish
Baholash	Attestatsiya rasmiy tus oladi	Elektron portfolio, 360 daraja usuli, natija indikatorlari	Baholashning obyektivligi

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

Rag‘batlantirish	Rag‘bat natija bilan bog‘lanmagan	Shaffof KPI tizimi va rag‘batlantirish reyestri	Motivatsiyaning oshishi

Jadvalda keltirilgan mexanizmlarning barchasi bitta umumiy shartga bog‘liq: ma’lumot bir marta kiritilib, barcha bosqichlarda qayta ishlatilishi kerak. Agar tanlov, attestatsiya va malaka oshirish ma’lumotlari alohida tizimlarda saqlansa, rahbar hech qachon xodimning yaxlit kasbiy profilini ko‘ra olmaydi va qarorlar yana subyektiv taassurotga tayanadi.

HR-analitikaning uch darajasi ta’lim muassasasi sharoitida. Tavsiflovchi daraja mavjud holatni ko‘rsatadi (kadrlar tarkibi, malaka darajasi, dars yuklamasi taqsimoti). Tashxisiy daraja sabablarni aniqlaydi (masalan, kadrlar qo‘nimsizligining qaysi guruhlarda va qaysi omillar bilan bog‘liq ravishda yuqoriligi). Prediktiv daraja esa kelajakdagi holatni bashorat qiladi (kadr yetishmovchiligi xatari yuqori bo‘lgan fan yo‘nalishlari, malaka oshirishga eng ko‘p ehtiyoj sezayotgan guruhlar). Ixtisoslashtirilgan maktablar uchun amaliy jihatdan eng qimmatli natija tashxisiy darajada olinadi, chunki aynan u boshqaruv aralashuvining aniq nuqtasini ko‘rsatadi.

Rahbarning kompetensiya modeli. Ekspert baholash natijalari asosida shakllantirilgan model olti klasterni o‘z ichiga oladi (1-rasm, 2-jadval). Modelning o‘ziga xosligi shundaki, unda raqamli-analitik kompetensiya alohida klaster sifatida ajratilgan, biroq u qolgan klasterlardan ajratilmagan holda — har bir klasterning namoyon bo‘lish indikatorlari orqali ham ifodalangan. Bu TPACK modelining integrativ mantig‘iga mos keladi.



1-rasm. Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasasi rahbarining kompetensiya modeli va darajalari.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

2-jadval. Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasasi rahbarining kompetensiya modeli

Klaster	Tarkibiy kompetensiyalar	Yuqori darajadagi namoyon bo‘lish indikatori
1. Strategik-vizioner	Muassasa rivojlanish konsepsiyasini ishlab chiqish; maqsadlarni kaskadlash; o‘zgarishlarni boshqarish	Uch yillik rivojlanish dasturini o‘lchanadigan ko‘rsatkichlar bilan ishlab chiqadi va uni yillik rejalarga kaskadlaydi
2. Raqamli-analitik	Ma’lumot bilan ishlash; boshqaruv analitikasi; axborot xavfsizligi madaniyati	Qarorni ma’lumotlar tahliliga asoslaydi, ko‘rsatkichlar dinamikasini mustaqil talqin qiladi
3. Pedagogik-metodik	O‘quv dasturini boshqarish; differensiallashtirish; iqtidorni identifikatsiya qilish	Iqtidorli o‘quvchilar uchun individual traektoriya loyihalash tizimini joriy etadi
4. Inson resurslari	Kadr tanlash va baholash; jamoani rivojlantirish; mentorlik tizimi	Kompetensiya profillari asosida individual rivojlanish rejalarini shakllantiradi
5. Kommunikativ-hamkorlik	Ichki va tashqi kommunikatsiya; ota-onalar va hamkorlar bilan ishlash; nizolarni hal etish	Manfaatdor tomonlar bilan muntazam qayta aloqa tizimini yo‘lga qo‘yadi
6. Huquqiy-etik	Normativ hujjatlarni qo‘llash; shaffoflik; shaxsiy ma’lumotlar himoyasi	Ma’lumotlardan foydalanishning ichki etik qoidalarini ishlab chiqadi va amalda ta’minlaydi

Har bir kompetensiya uch darajada baholanadi. Bazaviy daraja — rahbar talab qilingan harakatni ko‘rsatma asosida bajaradi. Yetarli daraja — mustaqil ravishda, o‘rnatilgan tartibga muvofiq bajaradi va natijaga javob beradi. Yuqori daraja — jarayonni takomillashtiradi, boshqalarni o‘rgatadi va tajribani tarqatadi. Bunday uch darajali shkala attestatsiya natijalarini malaka oshirish dasturlariga bevosita bog‘lash imkonini beradi: bazaviy darajadagi kompetensiyalar majburiy modullarni, yuqori darajadagilar esa mentorlik va tajriba almashinuvidagi ishtirokni belgilaydi.

Kadrlar zaxirasini raqamli boshqarish. Model asosida muassasa va agentlik darajasida kadrlar zaxirasining raqamli reyestrini yuritish taklif etiladi. Reyestrda har bir nomzodning kompetensiya profili, elektron portfolio ma’lumotlari, malaka oshirish tarixi va rivojlanish rejasining bajarilish darajasi saqlanadi. Bu vakansiya yuzaga kelganda qaror qabul qilish muddatini qisqartiradi va tanlovni tasodifiy emas, tizimli asosga o‘tkazadi.

Tadqiqot natijalari ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalarida inson resurslarini boshqarishni raqamlashtirish alohida vosita sifatida emas, balki kadr siklining barcha bosqichlarini qamrab oluvchi yaxlit mexanizm sifatida loyihalanishi lozimligini ko‘rsatdi.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

Ishlab chiqilgan olti klasterli kompetensiya modeli rahbar kadrlarni tanlash, attestatsiya qilish va maqsadli rivojlantirishning yagona mezon bazasini yaratadi.

Quyidagi takliflar ilgari suriladi:

1) ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari rahbarlari uchun yagona kompetensiya modelini idoraviy me'yoriy hujjat sifatida tasdiqlash;

2) kadr siklining barcha bosqichlarini yagona axborot tizimida birlashtirib, ma'lumotni bir marta kiritish tamoyilini joriy etish;

3) attestatsiya natijalarini avtomatik ravishda individual rivojlanish rejasiga aylantiruvchi modulni ishga tushirish;

4) kadrlar zaxirasining raqamli reyestrini yuritish va unga kirish mezonlarini kompetensiya darajalari bilan bog'lash;

5) HR-ma'lumotlaridan foydalanishning etik qoidalarini va shaxsiy ma'lumotlar himoyasi tartibini muassasa darajasida belgilash.

ADABIYOTLAR RO'YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 14-apreldagi PF-106-son Farmoni // www.lex.uz.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son Farmoni // www.lex.uz.
3. Ulrich D. Human Resource Champions: The Next Agenda for Adding Value and Delivering Results. — Boston: Harvard Business School Press, 1997. — 281 p.
4. Ulrich D., Brockbank W. The HR Value Proposition. — Boston: Harvard Business School Press, 2005. — 336 p.
5. Marler J.H., Boudreau J.W. An evidence-based review of HR Analytics // The International Journal of Human Resource Management. — 2017. — Vol. 28, No. 1. — P. 3–26.
6. Davenport T.H., Harris J.G. Competing on Analytics: The New Science of Winning. — Boston: Harvard Business Review Press, 2007. — 240 p.
7. Redecker C. European Framework for the Digital Competence of Educators: DigCompEdu. — Luxembourg: Publications Office of the European Union, 2017. — 95 p.
8. Mishra P., Koehler M.J. Technological Pedagogical Content Knowledge: A Framework for Teacher Knowledge // Teachers College Record. — 2006. — Vol. 108, No. 6. — P. 1017–1054.
9. Leithwood K., Harris A., Hopkins D. Seven strong claims about successful school leadership revisited // School Leadership & Management. — 2020. — Vol. 40, No. 1. — P. 5–22.
10. Hargreaves A., Fullan M. Professional Capital: Transforming Teaching in Every School. — New York: Teachers College Press, 2012. — 240 p.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

11. OECD. TALIS 2018 Results (Volume II): Teachers and School Leaders as Valued Professionals. — Paris: OECD Publishing, 2020. — 256 p.
12. Boyatzis R.E. The Competent Manager: A Model for Effective Performance. — New York: John Wiley & Sons, 1982. — 328 p.
13. Spencer L.M., Spencer S.M. Competence at Work: Models for Superior Performance. — New York: John Wiley & Sons, 1993. — 384 p.
14. Venkatesh V., Morris M.G., Davis G.B., Davis F.D. User Acceptance of Information Technology: Toward a Unified View // MIS Quarterly. — 2003. — Vol. 27, No. 3. — P. 425–478.

© intereduglobalstudy.com

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

МЕТОДИКА ИЗУЧЕНИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ИДЕЙ В ХУДОЖЕСТВЕННОЙ ПРОЗЕ В. РАСПУТИНА.

Рахимова Шахзода Равшановна, Научный сотрудник Наманганского государственного педагогического института.
shahzodarahimova81@gmail.com

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в статье рассматривается методика изучения педагогических идей в художественной прозе В. Г. Распутина как нравственно-воспитательного, аксиологического и литературно-дидактического феномена. Обосновывается мысль о том, что произведения писателя обладают значительным педагогическим потенциалом, поскольку раскрывают проблемы совести, памяти, милосердия, ответственности, преемственности поколений, отношения человека к дому, природе и духовным основам жизни. Предлагаемый подход объединяет герменевтический, аксиологический, проблемно-диалогический и сравнительно-типологический анализ, что позволяет рассматривать художественный текст как пространство формирования читательской рефлексии и нравственной культуры обучающихся.

ЦЕЛЬ: научно-методическое обоснование методики изучения педагогических идей в художественной прозе В. Г. Распутина как нравственно-воспитательного и аксиологического феномена.

МАТЕРИАЛЫ И И МЕТОДЫ: в исследовании проанализированы произведения писателя («Уроки французского», «Последний срок», «Прощание с Матёрой», «Пожар»), труды отечественных и зарубежных исследователей (А. Алламуратова, Г. Ж. Алламуратова, Z. Djalmatova, Д. Гиллеспи, А. А. Дырдин); применены герменевтический, аксиологический, проблемно-диалогический, сравнительно-типологический методы и метод педагогического моделирования.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: доказано, что педагогическое содержание прозы Распутина раскрывается через художественные ситуации нравственного выбора (память, совесть, сострадание, ответственность, преемственность поколений); обоснована модель учебного занятия, направленная на переход от репродуктивного пересказа к читательской рефлексии.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: комплексный метод анализа прозы В. Распутина способствует формированию у обучающихся ценностных ориентиров, культуры морального суждения и осознанного отношения к духовному наследию.

Ключевые слова: Валентин Распутин, художественная проза, педагогические идеи, нравственное воспитание, методика преподавания литературы, аксиологический подход, читательская рефлексия, народная педагогика.

© intereduglobalstudy.com

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

V. RASPUTIN BADIIY NASRIDA PEDAGOGIK G‘OYALARNI O‘RGANISH METODIKASI.

Rahimova Shahzoda Ravshanovna, Namangan davlat pedagogika instituti tadqiqotchisi.

Annotatsiya

KIRISH: maqolada V. G. Rasputin badiiy nasrida pedagogik g‘oyalarni o‘rganish metodikasi axloqiy-tarbiyaviy, aksiologik va adabiy-didaktik hodisa sifatida ko‘rib chiqiladi. Yozuvchi asarlari katta pedagogik salohiyatga ega ekani asoslab beriladi, chunki ularda vijdon, xotira, mehr-shafqat, mas’uliyat, avlodlar davomiyligi, insonning uy, tabiat va hayotning ma’naviy asoslariga munosabati kabi muammolar ochib beriladi. Taklif etilayotgan yondashuv germenevtik, aksiologik, muammoli-dialogik va qiyosiy-tipologik tahlilni birlashtiradi. Bu esa badiiy matnni o‘quvchilarda kitobxonlik refleksiyasi va axloqiy madaniyatni shakllantirish makoni sifatida ko‘rib chiqish imkonini beradi.

MAQSAD: V. G. Rasputin badiiy nasrida ilgari surilgan pedagogik g‘oyalarni axloqiy-tarbiyaviy va aksiologik hodisa sifatida o‘rganish metodikasini ilmiy va amaliy jihatdan asoslab berishdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda yozuvchining «Fransuz tili saboqlari», «So‘nggi muddat», «Matora bilan vidolashuv» va «Yong‘in» asarlari, shuningdek, mahalliy hamda xorijiy adabiyotshunoslar (A. Allamuratova, G. J. Allamuratova, Z. Djalmatova, D. Gillespie, A. A. Dyrdin) tadqiqotlari tahlil qilindi; germenevtik, aksiologik, muammoli-dialogik, qiyosiy-tipologik hamda pedagogik modellashtirish usullaridan foydalanildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: Rasputin nasridagi pedagogik g‘oyalar to‘g‘ridan-to‘g‘ri pand-nasihat shaklida emas, balki insoniy tanlov (vijdon, xotira, mehr-shafqat, mas’uliyat va uyga munosabat) vujudga keladigan badiiy vaziyatlar orqali namoyon bo‘lishi isbotlandi; adabiyot darslarida muammoli o‘qish va ma’naviy muloqotni tashkil etish bo‘yicha bosqichli ta’lim modeli asoslandi.

XULOSA: Rasputin nasrini integratsiyalashgan adabiy va pedagogik metodika asosida o‘rganish o‘quvchilarning axloqiy refleksiyasini oshirish hamda ularda insoniy qadriyatlarni shakllantirishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: Valentin Rasputin, badiiy nasr, pedagogik g‘oyalar, axloqiy tarbiya, adabiyot o‘qitish metodikasi, aksiologik yondashuv, kitobxonlik refleksiyasi, xalq pedagogikasi.

METHODOLOGY FOR STUDYING PEDAGOGICAL IDEAS IN THE FICTIONAL PROSE OF V. RASPUTIN.

Rakhimova Shakhzoda Ravshanovna, Research Fellow at Namangan State pedagogical institute.

Annotation

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

INTRODUCTION: the article examines the methodology for studying pedagogical ideas in the fictional prose of V. G. Rasputin as a moral-educational, axiological, and literary-didactic phenomenon. It substantiates the idea that the writer's works possess significant pedagogical potential, since they reveal the problems of conscience, memory, mercy, responsibility, continuity of generations, and a person's attitude toward home, nature, and the spiritual foundations of life. The proposed approach combines hermeneutic, axiological, problem-dialogical, and comparative-typological analysis, which makes it possible to consider the literary text as a space for developing students' readerly reflection and moral culture.

AIM: to scientifically substantiate the methodology for studying pedagogical ideas in the fictional prose of V. G. Rasputin as a moral-educational and axiological phenomenon.

MATERIALS AND METHODS: the study analyzed Rasputin's major works (French Lessons, The Last Term, Farewell to Matyora, The Fire) along with scholarly contributions by A. Allamuratova, G. Zh. Allamuratova, Z. Djalmatova, D. Gillespie, and A. A. Dyrdin; hermeneutic, axiological, problem-dialogical, comparative-typological, and pedagogical modeling methods were employed.

DISCUSSION AND RESULTS: the study demonstrated that Rasputin's educational ideas manifest through artistic situations of moral choice—focusing on memory, conscience, compassion, and intergenerational continuity—rather than direct didactic moralizing; an instructional model centered on problem-based reading and moral discourse was developed.

CONCLUSION: integrating literary and pedagogical analysis when studying Rasputin's prose serves as an effective tool for fostering students' readerly reflection, moral reasoning, and personal value orientation.

Keywords: Valentin Rasputin, fictional prose, pedagogical ideas, moral education, methodology of teaching literature, axiological approach, readerly reflection, folk pedagogy.

Ilmiy adabiyotlarning tahlili nafosat, estetik tarbiya va ma’naviyat tushunchalari o‘rtasida chuqur bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatadi. Bu tushunchalar bir-birini to‘ldiradi va o‘zaro kesishadi. Nafosat estetik tushunchalar tizimining markazida turadi, estetik tarbiya esa uni shakllantirish jarayonini ifodalaydi. Ma’naviyat esa shaxsning ichki dunyosini, uning qadriyatlar tizimini qamrab oladi. Kasbiy-ma’naviy nafosat tushunchasi bu barcha tushunchalarni kasbiy faoliyat kontekstida birlashtiradi. Shu sababli, uning tarkibiy komponentlarini aniqlashda ham estetik, ham ma’naviy-axloqiy, ham kasbiy jihatlarni hisobga olish zarur. Bu esa tushunchaning integrativ tabiatini yana bir bor tasdiqlaydi.

Shuni ta’kidlash joizki, zamonaviy pedagogika fanida shaxsning estetik va ma’naviy kamolotiga oid tadqiqotlar tobora ko‘payib bormoqda. Bu jamiyatning shaxsga qo‘yayotgan talablari o‘zgarayotgani bilan bog‘liq. Bugungi kunda mutaxassisdan nafaqat chuqur kasbiy bilim, balki yuksak umumiy madaniyat, estetik did va ma’naviy yetuklik ham talab qilinmoqda. Shu sababli, kasbiy-ma’naviy nafosat tushunchasini ilmiy o‘rganish alohida dolzarblik kasb etadi. Mavjud tadqiqotlar bu tushunchaning ayrim jihatlarini yoritgan bo‘lsa-da, uni yaxlit, integrativ hodisa sifatida, uning tarkibiy komponentlari va o‘zaro bog‘liqliklari bilan birga o‘rganish zarurati saqlanib qolmoqda. Ushbu maqola aynan shu bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan.

Tadqiqotda tushunchaviy-terminologik tahlil, ilmiy-pedagogik va falsafiy adabiyotlarni nazariy tahlil qilish, tizimli-strukturaviy yondashuv, qiyosiy tahlil hamda umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Kasbiy-ma’naviy nafosat tushunchasining tarkibiy komponentlarini ajratishda strukturaviy-funksional yondashuv qo‘llanildi.

Nafosat tushunchasining mohiyati. Nafosat (estetika) atamasi yunoncha “estezio” – “go‘zallikni his qilaman” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, u insonning voqelikka estetik

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

munosabatini, go‘zallikni his qilish, idrok etish va yaratish qobiliyatini ifodalaydi. Nafosat tarbiyasi esa shaxsni tabiat, ijtimoiy munosabatlar, mehnat va san’at go‘zalliklarini anglashga o‘rgatish, uning badiiy didini o‘stirish va go‘zallik yaratish qobiliyatini tarbiyalashga yo‘naltirilgan pedagogik jarayondir. Kasbiy kontekstda nafosat mutaxassisning o‘z faoliyatidagi go‘zallikni his qilish va yaratish qobiliyatini qamrab oladi.

Kasbiy-ma’naviy nafosat – bu shaxsning kasbiy faoliyati va ma’naviy dunyosida go‘zallikni his qilish, qadrlash va yaratish qobiliyatini ifodalovchi integrativ sifatdir. U mutaxassisning kasbiy madaniyati bilan estetik madaniyatining uyg‘un birlashuvi natijasida yuzaga keladi. Ushbu tushuncha uch asosiy jihatni – ma’naviy (ichki qadriyatlar tizimi), estetik (go‘zallikni his qilish) va kasbiy (faoliyatdagi mahorat) jihatlarni birlashtiradi.

Nafosat ongi. Kasbiy-ma’naviy nafosatning birinchi tarkibiy komponenti – nafosat ongidir. Nafosat ongi go‘zallikni qadrlash va uni boyitish yo‘lidagi amaliy harakatni tashkil etish asosida takomillashib boradigan ong shaklidir. U shaxsning estetik bilimlari, tasavvurlari, tushunchalari va qarashlari tizimini o‘z ichiga oladi. Kasbiy nafosat ongi esa mutaxassisning o‘z kasbidagi go‘zallik mezonlari, kasbiy estetik ideal va kasbiy faoliyatning estetik qonuniyatlari haqidagi bilimlarini qamrab oladi. Talabada nafosat ongini shakllantirish uning estetik dunyoqarashini kengaytirish va kasbiy estetik tushunchalarini boyitish orqali amalga oshiriladi.

Nafosat didi. Ikkinchi komponent – nafosat didi bo‘lib, u shaxsning buyum yoki hodisaga nisbatan estetik munosabat bildirish qobiliyatini, go‘zallik va xunuklikka baho berishdagi ichki o‘lchovini ifodalaydi. Nafosat didi shaxsning estetik his-tuyg‘ulari, kechinmalari va baholari bilan bog‘liq. Rivojlangan nafosat didi mutaxassisga o‘z kasbiy faoliyatida go‘zallik va nafosat mezonlarini to‘g‘ri qo‘llash, estetik jihatdan yuksak natijalarga erishish imkonini beradi. Talabada nafosat didini tarbiyalash uni san’at durdonalari, milliy va jahon madaniyati namunalari bilan tanishtirish orqali amalga oshiriladi.

Nafosat madaniyati. Uchinchi komponent – nafosat madaniyati bo‘lib, u go‘zallikni his etish, undan zavqlanish, mavjud go‘zalliklarni asrash va boyitish yo‘lida o‘zlashtirilgan bilim hamda amalga oshiriladigan estetik faoliyatni tashkil etish darajasining sifat ko‘rsatkichidir. Nafosat madaniyati shaxsning estetik ongi va didining amaliy namoyonidir. Kasbiy-estetik madaniyat esa mutaxassisning o‘z kasbiy faoliyatida estetik qadriyatlarni ro‘yobga chiqarish, ish jarayoni va natijasini go‘zal, mukammal tarzda tashkil etish qobiliyatini ifodalaydi. Bu komponent shaxsning ichki estetik dunyosini uning tashqi faoliyati bilan bog‘laydi.

Kasbiy-estetik faoliyat. To‘rtinchi komponent – kasbiy-estetik faoliyat bo‘lib, u yuqoridagi barcha komponentlarning amaliy ifodasidir. Bu mutaxassisning o‘z kasbiy faoliyatini estetik qonuniyatlar asosida, go‘zallik va nafosat mezonlariga muvofiq amalga oshirishini bildiradi. Kasbiy-estetik faoliyat ijodiylik, mahorat va estetik yetuklikning uyg‘unligida namoyon bo‘ladi. Aynan bu komponentda shaxsning kasbiy-ma’naviy nafosati

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

eng to‘liq ko‘rinishda gavdalanadi, chunki u ichki estetik qadriyatlarni real kasbiy natijalarga aylantiradi.

Komponentlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik. Ajratib ko‘rsatilgan tarkibiy komponentlar bir-biri bilan chambarchas bog‘liq va o‘zaro ta’sirda bo‘lgan yaxlit tizimni tashkil etadi. Nafosat ongi estetik bilimlar zaminini yaratadi, nafosat didi bu bilimlarga hissiy-baholovchi jihatni qo‘shadi, nafosat madaniyati esa ularni amaliy faoliyatga tayyorlaydi, kasbiy-estetik faoliyat esa ularni real natijaga aylantiradi. Bu komponentlarning barchasi uyg‘un rivojlanganda shaxsda yaxlit kasbiy-ma’naviy nafosat shakllanadi. Biror komponentning yetarlicha rivojlanmasligi butun tizimning izdan chiqishiga olib keladi: masalan, nafosat ongi rivojlangan, lekin nafosat didi shakllanmagan shaxs go‘zallik haqida nazariy bilimga ega bo‘lsa-da, uni amaliyotda his qila olmaydi.

Kasbiy-ma’naviy nafosatning shaxs kamolotidagi o‘rni. Kasbiy-ma’naviy nafosat shaxsning umumiy kamolotida muhim o‘rin tutadi. U shaxsning nafaqat kasbiy, balki umuminsoniy yetukligini ta’minlaydi. Yuksak kasbiy-ma’naviy nafosatga ega mutaxassis o‘z ishini nafaqat texnik jihatdan mukammal, balki estetik jihatdan go‘zal va ma’naviy jihatdan mazmunli tarzda amalga oshiradi. Bunday mutaxassis atrofdagilarga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, go‘zallik va nafosatni targ‘ib qiladi, jamiyat ma’naviy hayotini boyitadi. Shu ma’noda kasbiy-ma’naviy nafosat shaxsning ijtimoiy qadr-qimmatini oshiruvchi muhim sifatdir.

Shaxs ma’naviy borlig‘ining ajralmas xossalari bo‘lgan axloq, bilish va go‘zallikni his qilish qobiliyatlari uning yaxlit kamolotini tashkil etadi. Kasbiy-ma’naviy nafosat aynan bu qobiliyatlarni kasbiy faoliyat kontekstida birlashtiradi. Axloqiy madaniyatning qadr-qimmati va ahamiyati kishilarning xulq-atvori, muloqoti va faoliyatida namoyon bo‘ladi. Xuddi shunday, kasbiy-ma’naviy nafosat ham mutaxassisning real kasbiy faoliyatida, uning ish jarayoni va natijalarida, atrofdagilar bilan munosabatlarida yaqqol ko‘rinadi. Bu esa uning nafaqat ichki sifat, balki amaliy faoliyatda namoyon bo‘luvchi xususiyat ekanligini ko‘rsatadi.

Kasbiy-ma’naviy nafosatning shakllanishiga ta’sir etuvchi omillar. Kasbiy-ma’naviy nafosatning shakllanishiga bir qator omillar ta’sir ko‘rsatadi. Bularni ichki va tashqi omillarga bo‘lish mumkin. Ichki omillarga shaxsning tabiiy qobiliyatlari, qiziqishlari, ehtiyojlari, motivatsiyasi va mavjud estetik tajribasi kiradi. Tashqi omillarga esa oila muhiti, ta’lim muassasasi, ijtimoiy muhit, madaniyat va san’at bilan aloqa hamda ustozlarning ta’siri kiradi. Bu omillarning o‘zaro ta’siri kasbiy-ma’naviy nafosatning shakllanish jarayonini belgilaydi. Tarbiya jarayonini samarali tashkil etish uchun bu omillarning barchasini hisobga olish va ulardan oqilona foydalanish zarur.

Ichki va tashqi omillarning uyg‘unligi kasbiy-ma’naviy nafosatning muvaffaqiyatli shakllanishini ta’minlaydi. Tashqi ta’sir, ya’ni pedagogik tarbiya, qanchalik samarali bo‘lmasin, agar u shaxsning ichki ehtiyoji va intilishi bilan qo‘llab-quvvatlanmasa, kutilgan natijani bermaydi. Shu sababli, tarbiya jarayonida shaxsning ichki motivatsiyasini uyg‘otish, uning estetik va ma’naviy ehtiyojlarini rivojlantirish muhim. Ayni paytda, qulay

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

tashqi shart-sharoitlar – boy estetik muhit, malakali ustozlar, madaniyat va san'at bilan aloqa – shaxsning kasbiy-ma'naviy nafosati rivojlanishi uchun zamin yaratadi. Ichki va tashqi omillarning uyg'unlashuvi tarbiya jarayonining eng yuqori samaradorligini ta'minlaydi.

Nafosat va axloqning o'zaro bog'liqligi. Kasbiy-ma'naviy nafosat tushunchasini tahlil qilishda nafosat (estetika) va axloq (etika) o'rtasidagi bog'liqlikni hisobga olish muhim. Nafosatshunoslikda san'at va axloqning o'zaro munosabatlari markaziy masalalardan biri hisoblanadi. Go'zallik va ezgulik, estetik va axloqiy qadriyatlar bir-biri bilan chambarchas bog'liq. Haqiqiy go'zallik ezgulik bilan uyg'un bo'ladi, axloqiy yetuklik esa o'z navbatida estetik ma'noda go'zaldir. Shu sababli, kasbiy-ma'naviy nafosat tushunchasida ma'naviy-axloqiy va estetik jihatlar ajralmas birlikda namoyon bo'ladi. Mutaxassisning kasbiy faoliyatidagi go'zallik uning ma'naviy-axloqiy yetukligidan kelib chiqadi.

Sharq mumtoz falsafasida go'zallik va ma'naviyatning uyg'unligi g'oyasi chuqur ishlab chiqilgan. Buyuk mutafakkirlarning asarlarida komil inson – nafaqat bilimli va axloqli, balki go'zallikni his qiluvchi va yaratuvchi shaxs sifatida ta'riflanadi. Bu g'oya bugungi kunda kasbiy-ma'naviy nafosatli shaxs konsepsiyasining falsafiy asosini tashkil etadi. Milliy ma'naviy merosda ilgari surilgan go'zallik, nafosat va ma'naviyat haqidagi qarashlar zamonaviy pedagogika uchun boy nazariy manba bo'lib xizmat qiladi.

Kasbiy-ma'naviy nafosatning rivojlanish darajalari. Kasbiy-ma'naviy nafosat shaxsda turli darajalarda namoyon bo'lishi mumkin. Past darajada shaxs estetik va ma'naviy qadriyatlar haqida umumiy tasavvurga ega bo'lsa-da, ularni kasbiy faoliyatida qo'llay olmaydi, go'zallikni his qilish qobiliyati sust rivojlangan bo'ladi. O'rta darajada shaxs estetik va ma'naviy qadriyatlarni anglaydi, ularni qisman kasbiy faoliyatida qo'llaydi, biroq bu tizimli va barqaror emas. Yuqori darajada esa shaxs yuksak estetik didga va ma'naviy yetuklikka ega bo'lib, o'z kasbiy faoliyatini izchil ravishda go'zallik va nafosat mezonlariga muvofiq amalga oshiradi. Bu darajalarni bilish tarbiya jarayonini har bir talabaning individual xususiyatlariga moslashtirish imkonini beradi.

Kasbiy-ma'naviy nafosatning rivojlanish darajasini aniqlash uchun uning har bir tarkibiy komponenti bo'yicha mezonlar ishlab chiqilishi kerak. Nafosat ongi darajasi estetik bilimlar hajmi va chuqurligi bilan, nafosat didi darajasi estetik baholarning to'g'riligi bilan, nafosat madaniyati darajasi estetik faoliyatning sifati bilan, kasbiy-estetik faoliyat darajasi esa kasbiy natijalarning estetik yetukligi bilan belgilanadi. Bu mezonlar asosida talabaning kasbiy-ma'naviy nafosati rivojlanishini kuzatish va baholash mumkin bo'ladi. Bunday diagnostika tarbiya jarayonini maqsadli boshqarish uchun zarur.

Kasbiy-ma'naviy nafosatning funksiyalari. Kasbiy-ma'naviy nafosat shaxs va jamiyat hayotida bir qator muhim funksiyalarni bajaradi. Birinchidan, u aksiologik (qadriyatli) funksiyani bajaradi – shaxsning estetik va ma'naviy qadriyatlar tizimini shakllantiradi. Ikkinchidan, gnoseologik (bilish) funksiyasini bajaradi – shaxsning go'zallik va nafosat haqidagi bilimlarini boyitadi. Uchinchidan, tarbiyaviy funksiyani bajaradi – shaxsning ma'naviy-axloqiy kamolotiga xizmat qiladi. To'rtinchidan, kommunikativ funksiyani bajaradi

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

– shaxsning muomala va munosabatlar madaniyatini yuksaltiradi. Beshinchidan, ijodiy funksiyani bajaradi – shaxsning ijodiy salohiyatini rivojlantiradi. Bu funksiyalarning barchasi kasbiy-ma'naviy nafosatning shaxs kamolotidagi ko'p qirrali ahamiyatini ko'rsatadi.

Kasbiy-ma'naviy nafosatning regulyativ (tartibga soluvchi) funksiyasi ham muhim ahamiyatga ega. Rivojlangan kasbiy-ma'naviy nafosatga ega shaxs o'z xatti-harakatlarini estetik va ma'naviy mezonlar asosida tartibga soladi. U o'z kasbiy faoliyatida go'zallik va nafosat mezonlariga rioya qiladi, ma'naviy-axloqiy me'yorlarga amal qiladi. Bu esa uning faoliyatini nafaqat samarali, balki estetik va ma'naviy jihatdan mukammal qiladi. Shu ma'noda, kasbiy-ma'naviy nafosat mutaxassisning kasbiy faoliyatini yo'naltiruvchi va tartibga soluvchi ichki mexanizm vazifasini bajaradi.

Kasbiy-ma'naviy nafosat integrativ funksiyani ham bajaradi – u shaxsning turli sifatlarini yagona yaxlitlikka birlashtiradi. Kasbiy bilim va ko'nikmalar, ma'naviy-axloqiy fazilatlar, estetik did va ijodiy qobiliyatlar kasbiy-ma'naviy nafosat orqali yagona tizimga birlashadi. Bu esa shaxsning yaxlit, uyg'un kamolotini ta'minlaydi. Aynan shu integrativ tabiati kasbiy-ma'naviy nafosatni shaxs kamolotining muhim ko'rsatkichiga aylantiradi. Yuksak kasbiy-ma'naviy nafosatga ega shaxs – bu har tomonlama rivojlangan, yaxlit va uyg'un shaxsdir.

Kasbiy-ma'naviy nafosat tushunchasini ilmiy jihatdan aniqlash va uning tarkibiy komponentlarini belgilash amaliy ahamiyatga ham ega. Bu tushunchaning aniq ta'rifi va tuzilishi asosida talabalarning kasbiy-ma'naviy nafosatini shakllantirish va rivojlantirish bo'yicha maqsadli pedagogik ishlarni tashkil etish mumkin. Har bir tarkibiy komponent uchun tegishli pedagogik metod va vositalar tanlanadi, ularning rivojlanishi baholanadi. Bu esa tarbiya jarayonini tizimli, maqsadli va samarali qiladi. Shu ma'noda, kasbiy-ma'naviy nafosat tushunchasining nazariy tahlili amaliy pedagogik faoliyat uchun mustahkam asos yaratadi va uning samaradorligini oshiradi.

Milliy ma'naviy merosda nafosat g'oyalari. Kasbiy-ma'naviy nafosat tushunchasining ildizlari o'zbek xalqining boy ma'naviy merosiga borib taqaladi. Sharq mutafakkirlari asarlarida go'zallik, nafosat va kamolot masalalari chuqur yoritilgan. Abu Nasr Forobiyning fozil jamiyat va komil inson haqidagi ta'limotida, Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarida ilm, adolat va go'zallik uyg'unligi, Alisher Navoiyning asarlarida esa inson ma'naviy kamolotining yuksak namunalari tasvirlangan. Bu ma'naviy meros kasbiy-ma'naviy nafosat tushunchasining milliy-falsafiy asosini tashkil etadi. Milliy allomalarning go'zallik va ma'naviyat haqidagi qarashlari bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Sharq falsafasida go'zallik (jamol) tushunchasi keng va chuqur ma'noga ega. U nafaqat tashqi, moddiy go'zallikni, balki ichki, ma'naviy go'zallikni ham qamrab oladi. Haqiqiy go'zallik ma'naviy kamolot, axloqiy poklik va ruhiy yuksaklik bilan uyg'un deb tushunilgan. Bu qarash kasbiy-ma'naviy nafosat tushunchasi bilan uyg'un keladi, chunki u ham tashqi (kasbiy faoliyatdagi go'zallik) va ichki (ma'naviy-axloqiy yetuklik) jihatlarni birlashtiradi. Shu ma'noda, milliy ma'naviy meros kasbiy-ma'naviy nafosat tushunchasini boyitadi va unga chuqur falsafiy mazmun beradi. Milliy merosdagi go'zallik va ma'naviyat

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

g‘oyalarini zamonaviy pedagogik kontekstda qo‘llash tarbiya jarayonining milliy asosini mustahkamlaydi.

Kasbiy-ma’naviy nafosatning integrativ modelini pedagogik talqin qilish. Kasbiy-ma’naviy nafosatni faqat estetik bilimlar yig‘indisi yoki kasbiy odob me’yorlari majmui sifatida tushunish uning mazmunini toraytiradi. Tadqiqot doirasida mazkur sifat kognitiv, aksiologik, emotsional-baholovchi va faoliyatga yo‘naltirilgan qatlamlarning birligi sifatida qaraladi. Kognitiv qatlam talabada go‘zallik, estetik me’yor, kasbiy mukammallik va ma’naviy qadriyatlar haqidagi tasavvurlarni shakllantiradi. Aksiologik qatlam ushbu bilimlarning shaxsiy qadriyatga aylanishini, ya’ni talabaning kasbiy faoliyatda nima go‘zal, maqsadga muvofiq va ma’naviy jihatdan maqbul ekanini ichki mezonlar asosida belgilashini ta’minlaydi. Emotsional-baholovchi qatlam kasbiy hodisalarga estetik munosabat bildirish, natijani did nuqtayi nazaridan baholash va o‘z faoliyatidan estetik qoniqish hosil qilishda namoyon bo‘ladi. Faoliyatga yo‘naltirilgan qatlam esa bilim, qadriyat va bahoni real xatti-harakatga aylantiradi. Shu tarzda kasbiy-ma’naviy nafosatning integrativ tabiati nazariy tushuncha darajasidan amaliy pedagogik konstrukt darajasiga ko‘tariladi.

Mazkur modelda nafosat ongi boshlang‘ich, biroq yetarli bo‘lmagan shart hisoblanadi. Talaba estetik kategoriyalarni, kasbiy madaniyat me’yorlarini va ma’naviy qadriyatlarni bilishi mumkin, ammo bu bilimlar uning shaxsiy pozitsiyasiga aylanmasa, barqaror kasbiy xulqni yuzaga keltirmaydi. Shuning uchun nafosat didi bilish bilan shaxsiy baholash o‘rtasidagi vositachi bo‘g‘in sifatida talqin qilinadi. Nafosat madaniyati esa individual baholashni ijtimoiy va kasbiy me’yorlar bilan uyg‘unlashtiradi. Kasbiy-estetik faoliyat ushbu jarayonning yakuniy amaliy ko‘rinishi bo‘lib, talabaning topshiriqni bajarish usuli, ish joyini tashkil etishi, muloqot madaniyati, mahsulot yoki xizmat natijasining tartibliligi, aniqligi va uyg‘unligida ko‘zga tashlanadi. Demak, to‘rt komponentni ketma-ket bosqichlar deb emas, o‘zaro ta’sir qiluvchi va bir-birini kuchaytiruvchi funksional tizim deb tushunish maqsadga muvofiq.

Komponentlarni shakllantirishning pedagogik mexanizmi. Talabalarda kasbiy-ma’naviy nafosatni rivojlantirish mazmun, metod, ta’lim muhiti va refleksiyani bir butun mexanizm sifatida tashkil etishni talab qiladi. Mazmuniy jihatdan o‘quv fanlarida kasbiy faoliyatning estetik tomonlarini ochib beruvchi vaziyatlar, namunalar va qadriyatli muammolar aks etishi lozim. Metodik jihatdan qiyosiy tahlil, muammoli vaziyat, estetik baholash, kasbiy keys, loyiha va refleksiv topshiriqlar talabani tayyor xulosani qabul qiluvchi emas, balki kasbiy-estetik mezonni mustaqil ishlab chiquvchi subyekt sifatida faollashtiradi. Ta’lim muhiti auditoriya va undan tashqari faoliyatning tartibi, pedagogning shaxsiy namunasi, nutq va muloqot madaniyati, taqdim etilayotgan o‘quv materiallarining estetik sifati orqali yashirin tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatadi. Refleksiya esa talabaning o‘z kasbiy xatti-harakatini faqat samaradorlik nuqtayi nazaridan emas, balki ma’naviy va estetik mezonlar asosida ham baholashiga imkon yaratadi.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

Kasbiy-ma'naviy nafosatni shakllantirishda pedagogning o'rni alohida ahamiyatga ega. Pedagog mazkur sifatni bevosita tushuntirish bilan cheklanib qolmasdan, kasbiy faoliyatning estetik me'yorlarini o'z pedagogik xulqi orqali namoyon etadi. Darsning mantiqiy tuzilishi, nutqning aniqligi, o'quv materialining tartibli taqdim etilishi, talabaga hurmat bilan munosabatda bo'lish va vazifalarni sifatli bajarishga talabchanlikning o'zi kasbiy nafosat namunasi hisoblanadi. Shu sababli kasbiy-ma'naviy nafosatni shakllantirish jarayonida pedagogik ta'sirning verbal va noverbal shakllari bir-birini to'ldirishi kerak. Talaba ko'rgan namunani tahlil qiladi, unga munosabat bildiradi, uni o'z tajribasi bilan taqqoslaydi va asta-sekin shaxsiy faoliyat standartiga aylantiradi. Bunda estetik tarbiya alohida tadbirlar majmui emas, balki kundalik ta'lim jarayonining tashkil etilish sifati bilan uzviy bog'liq hodisa sifatida namoyon bo'ladi.

Baholash mezonlarini aniqlashtirish. Tadqiqotning nazariy natijalari asosida kasbiy-ma'naviy nafosatning har bir komponentini kuzatish mumkin bo'lgan ko'rsatkichlar orqali ifodalash mumkin. Nafosat ongi uchun kasbiy-estetik tushunchalarni bilish, go'zallik va ma'naviylik mezonlarini izohlash, kasbiy vaziyatlardagi estetik muammoni anglash muhim ko'rsatkich bo'ladi. Nafosat didi uchun estetik jihatdan maqbul va nomaqbul holatlarni farqlash, o'z bahosini asoslash, milliy va umuminsoniy estetik qadriyatlarni qiyosiy idrok etish ahamiyatlidir. Nafosat madaniyatida xulq, muloqot va faoliyatni estetik me'yorlarga muvofiq tashkil qilish, mavjud go'zallikni asrash va boyitishga mas'uliyatli munosabat kuzatiladi. Kasbiy-estetik faoliyatda esa kasbiy vazifani puxta, tartibli, ijodiy va ma'naviy mas'uliyat bilan bajarish, natijaning mazmun va shakl uyg'unligiga erishish kabi belgilar ustuvor bo'ladi. Ushbu ko'rsatkichlar diagnostik vositalarni keyinchalik ishlab chiqish uchun konseptual asos vazifasini bajaradi.

Darajaviy tavsiflarni qo'llashda ularni qat'iy va o'zgarmas tipologiya sifatida qabul qilish to'g'ri emas. Talaba bir komponent bo'yicha yuqori, boshqa komponent bo'yicha o'rta darajada bo'lishi mumkin. Masalan, estetik tushunchalarni yaxshi bilgan talabaning amaliy faoliyatida tartiblilik va estetik mas'uliyat yetarli darajada namoyon bo'lmasligi ehtimol. Bunday holat kasbiy-ma'naviy nafosatni umumiy bitta ball bilan baholashdan ko'ra komponentlar kesimida tahlil qilish maqsadga muvofiqligini ko'rsatadi. Komponentli diagnostika pedagogga rivojlanishi sust bo'lgan jihatni aniqlash, unga mos metod va topshiriqlarni tanlash hamda o'zgarish dinamikasini kuzatish imkonini beradi. Shu bilan birga, baholash talabaning shaxsini yorliqlashga emas, rivojlanish yo'nalishini belgilashga xizmat qilishi zarur.

Milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligi. Kasbiy-ma'naviy nafosat mazmunini belgilashda milliy estetik tajriba bilan umuminsoniy kasbiy madaniyat me'yorlarini qarama-qarshi qo'yish mumkin emas. Milliy merosdagi go'zallik, odob, poklik, mehnatga hurmat va komillik haqidagi qarashlar talabaning ma'naviy-estetik dunyoqarashini boyitadi. Zamonaviy kasbiy muhit esa aniqlik, funksionallik, ergonomika, muloqot etikasi va natijaning sifatiga doir yangi mezonlarni ilgari suradi. Ta'lim jarayonida ushbu ikki manbani uyg'unlashtirish talabaning o'z madaniy ildizlarini saqlagan holda zamonaviy kasbiy

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

talablarga moslashishiga yordam beradi. Natijada kasbiy-ma'naviy nafosat an'anani takrorlash yoki tashqi ko'rinishga e'tibor berish bilan cheklanmay, kasbiy qarorlarning ma'naviy va estetik oqibatlarini anglash qobiliyatiga aylanadi.

Nazariy tahlildan kelib chiqadigan amaliy yo'nalishlar. Birinchidan, kasbiy fanlar mazmuniga estetik va ma'naviy baholash elementlarini integratsiya qilish zarur. Ikkinchidan, talabaning kasbiy mahsuloti yoki faoliyati faqat texnik to'g'rilik bo'yicha emas, tartiblilik, maqsadga muvofiqlik, taqdimot madaniyati va etik-estetik moslik bo'yicha ham tahlil qilinishi mumkin. Uchinchidan, loyiha va amaliy mashg'ulotlarda talabaning o'z ishini estetik mezonlar asosida o'zaro va o'z-o'zini baholashi refleksiv ko'nikmalarni rivojlantiradi. To'rtinchidan, ta'lim muassasasining madaniy-estetik muhiti, jumladan auditoriyalarning tartibi, axborot materiallarining sifati, muloqot uslubi va jamoaviy an'analar tarbiyaviy resurs sifatida ko'rilishi lozim. Beshinchidan, kasbiy-ma'naviy nafosatni shakllantirish bir martalik tadbir bilan emas, barcha kurslar davomida izchil rivojlantiriladigan transversal maqsad sifatida belgilanishi kerak.

Kasbiy-ma'naviy nafosatni oliy ta'lim natijasi sifatida ko'rish ham muhim metodologik xulosaga olib keladi. Oliy ta'limdagi kasbiy tayyorgarlik odatda bilim, ko'nikma va kompetensiyalar bilan tavsiflanadi, biroq mutaxassis faoliyatining sifati uning qadriyatlari, didi, mas'uliyati va kasbiy muhitni estetik tashkil eta olish qobiliyatiga ham bog'liq. Shu jihatdan kasbiy-ma'naviy nafosat ta'lim natijalarining insonparvarlik va madaniy o'lchovini ifodalaydi. U talabani faqat topshiriqni to'g'ri bajarishga emas, uni mazmunan puxta, shaklan tartibli, axloqan maqbul va estetik jihatdan uyg'un bajarishga yo'naltiradi. Bunday yondashuvda kasbiy mukammallik texnik malaka bilan cheklanmaydi, balki faoliyat jarayoni, muloqot usuli va yaratilgan natijaga bo'lgan mas'uliyatni ham qamrab oladi. Shu sababli kasbiy-ma'naviy nafosatni rivojlantirish ta'limning tarbiyaviy vazifasini kasbiy tayyorgarlik bilan uzviy bog'lash imkonini beruvchi konseptual vosita sifatida baholanishi mumkin.

Mazkur yondashuv o'quv dasturlarini loyihalash nuqtayi nazaridan ham muayyan imkoniyatlar yaratadi. Fan dasturlarida kasbiy mazmun bilan birga faoliyatning estetik va ma'naviy mezonlarini ifodalovchi kutiladigan natijalarni belgilash, amaliy topshiriqlarda ushbu mezonlarni kuzatish va talabaning refleksiyasini tashkil etish mumkin. Masalan, loyiha natijasini baholashda faqat mazmuniy to'g'rilik emas, balki tuzilishning mantiqiyligi, ifodaning aniqligi, taqdimot madaniyati, auditoriyaga hurmat va umumiy estetik yaxlitlik ham hisobga olinadi. Bu mezonlar barcha mutaxassisliklarda aynan bir xil bo'lishi shart emas; ularning konkret ko'rinishi kasbning xususiyatiga bog'liq ravishda aniqlashtiriladi. Biroq tartiblilik, mas'uliyat, uyg'unlik, maqsadga muvofiqlik va ma'naviy maqbullik kabi umumiy mezonlar kasbiy-ma'naviy nafosatning invariant asosini tashkil etishi mumkin. Natijada ta'lim jarayonida mazkur sifatning shakllanishi rejalashtiriladigan, kuzatiladigan va pedagogik jihatdan boshqariladigan hodisaga aylanadi.

Tadqiqotning nazariy chegaralari va istiqbollari. Mazkur ish kasbiy-ma'naviy nafosat tushunchasining mohiyati va tarkibiy tuzilishini nazariy jihatdan aniqlashtirishga qaratilgan

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

bo‘lib, unda alohida ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha keng ko‘lamli empirik tajriba natijalari keltirilmagan. Shu sababli taklif etilgan komponentlar, mezonlar va darajaviy tavsiflar keyingi tadqiqotlarda ekspert baholash, pedagogik kuzatuv, so‘rovnoma hamda tajriba-sinov usullari orqali tekshirilishi zarur. Kelgusida turli kasbiy yo‘nalishlar uchun kasbiy-ma’naviy nafosatning invariant va variativ komponentlarini ajratish, diagnostik metodikalar ishlab chiqish, ularning ishonchliligi va validligini tekshirish, shuningdek, shakllantiruvchi pedagogik texnologiyalar samaradorligini baholash istiqbolli vazifalar hisoblanadi. Bunday davomiy tadqiqotlar nazariy modelning amaliy qiymatini oshiradi va uni oliy ta’limning real tarbiyaviy jarayoniga moslashtirish imkonini beradi.

O‘tkazilgan tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalar shakllantirildi. Kasbiy-ma’naviy nafosat – shaxsning kasbiy faoliyati va ma’naviy dunyosida go‘zallikni his qilish, qadrlash va yaratish qobiliyatini ifodalovchi integrativ sifat bo‘lib, u kasbiy va estetik madaniyatning uyg‘un birlashuvidan yuzaga keladi. Ushbu tushuncha nafosat ongi, nafosat didi, nafosat madaniyati va kasbiy-estetik faoliyat kabi o‘zaro bog‘liq tarkibiy komponentlardan iborat.

Ushbu komponentlarning har biri o‘ziga xos vazifani bajaradi, ammo faqat ularning uyg‘un rivojlanishi natijasida shaxsda yaxlit kasbiy-ma’naviy nafosat shakllanadi. Tushunchaning mazmun-mohiyati va tarkibiy tuzilishini aniqlash talabalarni bu yo‘nalishda maqsadli tarbiyalash uchun nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Kelgusida har bir komponentni shakllantirishning aniq pedagogik mexanizmlarini ishlab chiqish bo‘yicha tadqiqotlarni davom ettirish maqsadga muvofiqdir.

Tadqiqot natijalarining nazariy ahamiyati kasbiy-ma’naviy nafosat tushunchasining ilmiy-pedagogik asoslarini boyitishdadir. Ishda taklif etilgan tushunchaning ta’rifi va uning tarkibiy komponentlari tasnifi pedagogika fanining kategorial apparatini kengaytiradi. Amaliy ahamiyati esa shundaki, aniqlangan tarkibiy komponentlar asosida talabalarning kasbiy-ma’naviy nafosatini shakllantirish va baholash bo‘yicha aniq metodik ishlanmalar yaratish mumkin. Bu natijalardan oliy ta’lim muassasalarida tarbiya jarayonini ilmiy asosda tashkil etishda, o‘quv-metodik majmualar va tarbiyaviy dasturlarni ishlab chiqishda foydalanish mumkin. Shu tariqa, tadqiqot natijalari ham nazariy, ham amaliy jihatdan qimmatlidir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. – Toshkent, 2022.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son Farmoni // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. – Toshkent, 2019.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi doirasida ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini takomillashtirish” bo‘yicha “Yangi O‘zbekiston – ma’rifatli jamiyat” konsepsiyasi // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. – Toshkent, 2023.

4. Umarov E. Estetika (Nafosatshunoslik). O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: O‘zbekiston, 2004. – 240 b.

5. Olimov Sh.O. “Ma’naviyat asoslari” fanini o‘qitish jarayonida akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o‘quvchilarida axloqiy-estetik idealni shakllantirish: Ped. fan. bo‘yicha falsafa doktori (PhD) diss. – Toshkent, 2022. – 160 b.

6. Olimov Sh.Sh. Ma’naviy-axloqiy tarbiya asoslari. Monografiya. – Toshkent, 2019. – 210 b.

7. Giyosova G.N. O‘zbek xalq pedagogikasi va nafosat tarbiyasi // Yevrasiya ilmiy jurnali. – 2020. – № 1. – B. 45–48.

8. Ibragimova G. Kasb ta’limi tizimida milliy istiqlol g‘oyasi asosida o‘quvchi-talaba-yoshlar ma’naviyatini rivojlantirish. – Toshkent, 2013. – 180 b.

9. Mavlonova R., Normuradova B., Rahmonqulov R. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2007. – 224 b.

10. Axmedova M.A. O‘smir yoshidagi o‘quvchilarning estetik tarbiya aspektida milliy-badiiy madaniyatning o‘rni: Ped. fan. bo‘yicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoref. – Toshkent, 2024. – 54 b.

© intereduglobalstudy.com

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

“GO‘RO‘G‘LI” TURKUMIDA ZIDDIYAT-SINOV ORQALI AXLOQIY SABOQ BERISH MEXANIZMINING QIYOSIY TAHLILI.

Teshaboyeva Zumrad Voxidjonovna, Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti mustaqil izlanuvchisi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Annotatsiya

KIRISH: mazkur maqolada o‘zbek xalq qahramonlik eposining yirik namunasi bo‘lgan “Go‘ro‘g‘li” turkumidagi ziddiyat-sinov orqali axloqiy saboq berish mexanizmi qiyosiy-tipologik asosda tadqiq etiladi. Tadqiqotda qahramonning turli ziddiyatli vaziyatlar va ketma-ket sinovlardan o‘tishi uning jasorat, sabr-bardosh, zukkolik, hushyorlik hamda irodaviy-axloqiy fazilatlarini namoyon etish va mustahkamlashga xizmat qilishi aniqlandi. “Go‘ro‘g‘li” turkumiga mansub dostonlar materiallari asosida sinovlarning kuch-qudrat sinovi, aql-idrok va sabr sinovi, vasvasa-ig‘vo sinovi hamda zanjirsimon kompleks sinov kabi to‘rt tipologik turi ajratildi. Ushbu sinovlarning strukturaviy xususiyatlari folklorshunoslikdagi sinov va toblanish konsepsiyasi hamda pedagogika fanidagi muammoli ta’lim nazariyasi bilan qiyosiy tahlil qilindi. Natijada dostonlardagi sinovlarning sodda shakldan murakkab va ko‘p bosqichli tizimga qarab rivojlanishi muammoli vaziyatlarning murakkablashib borish tamoyiliga metodologik jihatdan yaqin ekanligi asoslandi. Tadqiqot natijalari “Go‘ro‘g‘li” turkumidagi ziddiyat-sinov hodisasini faqat syujet-kompozitsion unsur sifatida emas, balki qahramonning shaxsiy tajribasi orqali axloqiy fazilatlarini shakllantiruvchi va mustahkamlovchi pedagogik-badiiy mexanizm sifatida baholash imkonini beradi.

MAQSAD: “Go‘ro‘g‘li” turkumi dostonlarida ziddiyat-sinov orqali axloqiy saboq berish mexanizmining tipologik turlari hamda ularning muammoli ta’lim tamoyillari bilan metodologik mutanosibligini qiyosiy asoslashdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda turkumga oid 10 ta doston nashri manba sifatida olinib, folklorshunoslikdagi sinov va toblanish konsepsiyalari (K. Imomov, Sh. Turdimov va b.) hamda pedagogikadagi muammoli ta’lim nazariyasi (N. Avliyakulov va N. Musayevaning 4 bosqichli shkalasi) asosida qiyosiy-tipologik va struktural tahlil usullari qo‘llanildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: dostonlardagi sinovlar to‘rt tipologik turga (kuch-qudrat, aql-idrok, vasvasa-ig‘vo va zanjirsimon kompleks sinov) ajratildi; sinovlarning sodda shakldan murakkab ko‘p bosqichli tizimga rivojlanishi pedagogikadagi muammoli vaziyatlarning murakkablashib borishi hamda o‘quvchining ijodiy ishtiroki darajasiga metodologik jihatdan mos kelishi isbotlandi.

XULOSA: ziddiyat-sinov hodisasi eposda shunchaki syujet-kompozitsion unsurgina emas, balki qahramonning shaxsiy tajribasi orqali axloqiy fazilatlarini shakllantiruvchi va mustahkamlovchi o‘ziga xos pedagogik-badiiy mexanizmdir.

Kalit so‘zlar: ziddiyat-sinov, muammoli ta’lim, sinov zanjiri, “Go‘ro‘g‘li”; pedagogik mexanizm, folklorshunoslik, tipologiya.

© intereduglobalstudy.com

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ МЕХАНИЗМА НРАВСТВЕННОГО ВОСПИТАНИЯ ЧЕРЕЗ КОНФЛИКТ-ИСПЫТАНИЕ В СЕРИИ ЭПОСОВ «ГОРОГЛЫ».

Тешабоева Зумрад Вохиджоновна, самостоятельный соискатель Национального института педагогики воспитания имени Кары Ниязи, доктор философии по филологическим наукам (PhD).

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в данной статье на основе сравнительно-типологического подхода исследуется механизм нравственного воздействия посредством конфликта-испытания в эпическом цикле «Гороглы», являющемся одним из крупнейших образцов узбекского народного героического эпоса. В ходе исследования установлено, что прохождение героем различных конфликтных ситуаций и последовательной цепи испытаний способствует проявлению и укреплению таких его качеств, как мужество, терпение и стойкость, сообразительность, бдительность, а также волевая и нравственная устойчивость. На материале эпических произведений, входящих в цикл «Гороглы», выделены четыре типологические разновидности испытаний: испытание силы и физической мощи, испытание интеллекта и терпения, испытание искушением и провокацией, а также цепочечное комплексное испытание. Структурные особенности данных испытаний сопоставлены с концепцией испытания и закалки, сложившейся в фольклористике, а также с теорией проблемного обучения в педагогической науке. В результате обосновано, что развитие испытаний в эпосе от простых форм к сложной многоступенчатой системе методологически соотносится с принципом последовательного усложнения проблемных ситуаций. Результаты исследования позволяют рассматривать явление конфликта-испытания в цикле «Гороглы» не только как сюжетно-композиционный элемент, но и как самостоятельный художественно-педагогический механизм, обеспечивающий формирование и укрепление нравственных качеств героя посредством личного опыта.

ЦЕЛЬ: исследовать типологические разновидности механизма нравственного воспитания через конфликт-испытание в эпосе «Гороглы» и обосновать их методологическое соответствие принципам проблемного обучения.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: Материалом исследования послужили 10 эпосов цикла; применен сравнительно-типологический и структурный анализ на основе фольклористической концепции испытания и закалки (К. Имамов, Ш. Турдимов) и педагогической теории проблемного обучения (4-уровневая шкала Н. Авлякулова и Н. Мусаевой).

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: выделены четыре типологических вида испытаний (физические, интеллектуальные, испытания искушением и цепочечные комплексные); доказано, что эволюция испытаний от простых форм к сложному многоступенчатому цепному процессу методологически соотносится с принципом

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

последовательного усложнения проблемных ситуаций и уровнем творческого участия.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: явление конфликта-испытания в цикле «Гороглы» представляет собой не просто сюжетно-композиционный элемент, а самостоятельный художественно-педагогический механизм формирования и укрепления нравственных качеств через личный опыт героя.

Ключевые слова: испытание через противоречие, проблемное обучение, сеп испытаний, “Go‘ro‘g‘li”, педагогический механизм, фолклористика, типология.

COMPARATIVE ANALYSIS OF THE MECHANISM OF MORAL LESSON IMPARTATION THROUGH CONFLICT AND TRIAL IN THE "GOROGLI" EPIC SERIES.

Teshaboyeva Zumrad Vokhidjonovna, Independent Researcher at the Qori Niyoziy National Institute of Educational Pedagogy, Doctor of Philosophy in Philological Sciences (PhD).

Annotation

INTRODUCTION: this article examines, through a comparative-typological approach, the mechanism of moral instruction through conflict and testing in the “Go‘ro‘g‘li” epic cycle, one of the major examples of Uzbek folk heroic epic tradition. The study establishes that the protagonist’s passage through various conflict situations and successive chains of trials serves to reveal and reinforce such qualities as courage, patience and resilience, intelligence, vigilance, and moral and volitional steadfastness. Based on the analysis of epic narratives belonging to the “Go‘ro‘g‘li” cycle, four typological types of trials are identified: tests of physical strength and power, tests of intellect and patience, tests of temptation and provocation, and complex sequential trials. The structural characteristics of these trials are comparatively analyzed in relation to the concepts of testing and tempering developed in folklore studies and to the theory of problem-based learning in pedagogy. The findings demonstrate that the development of trials in the epic, from relatively simple forms to complex multistage structures, is methodologically comparable to the principle of the progressive complication of problem situations. The results of the study make it possible to interpret conflict and testing in the “Go‘ro‘g‘li” cycle not merely as a plot and compositional device, but also as an independent artistic and pedagogical mechanism through which the protagonist’s moral qualities are formed and reinforced through personal experience.

AIM: to categorize the typological forms of the conflict-testing mechanism of moral instruction in the "Go‘ro‘g‘li" cycle and demonstrate their methodological correspondence to problem-based learning principles.

MATERIALS AND METHODS: based on 10 epic narratives from the cycle, comparative-typological and structural analyses were conducted, drawing upon folklore

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

concepts of testing and tempering (K. Imomov, Sh. Turdimov) and educational theories of problem-based learning (N. Avliyakulov and N. Musayeva's 4-stage scale).

DISCUSSION AND RESULTS: four typological categories of trials were identified: tests of physical strength, intellect/patience, temptation/provocation, and complex sequential trials. The progression of trials from simple structures to complex multi-stage chains was shown to methodologically mirror the educational principle of progressively complicating problem situations and fostering creative engagement.

CONCLUSION: conflict and testing in the "Go‘ro‘g‘li" cycle function not merely as plot devices, but as a distinct artistic and pedagogical mechanism through which moral qualities are developed and reinforced via personal experience.

Keywords: conflict-testing, problem-based learning, trial chain, “Go‘ro‘g‘li”, pedagogical mechanism, folklore studies, typology.

Nasihat-monolog va ibrat-andoza mexanizmlari qahramonning so‘zi yoki uning boshqa bir kuzatuvchi tomonidan kuzatilgan xatti-harakati orqali ishlaydi. “Go‘ro‘g‘li” turkumida, biroq, uchinchi, tuzilishi jihatidan butunlay boshqacha mexanizm ham muntazam takrorlanadi: qahramonning o‘zi na nasihat beruvchi, na namuna ko‘rsatuvchi sifatida emas, balki sinaluvchi sub’ekt sifatida ketma-ket keluvchi, asta-sekin murakkablashuvchi to‘siqlar (kurash, topishmoq, vasvasa, jang) zanjiridan o‘tadi, bu jarayonda uning axloqiy fazilatlari (jasorat, sabr, hushyorlik, irodaviy bardoshlilik) sinaladi va aynan shu sinovdan o‘tish orqali mustahkamlanadi.

O‘zbek folklorshunosligida qahramonlik eposining sinov-zanjir tuzilishi uzoq vaqtdan beri o‘rganilgan bo‘lsa-da, uning pedagogika fanidagi muammoli ta’lim nazariyasi bilan tizimli qiyosiy tahlili amalga oshirilmagan.

Ziddiyat-sinov mexanizmi “Go‘ro‘g‘li” turkumidagi ma’naviy-axloqiy tarbiyaning olti mexanizmi ichida uchinchi o‘rinda tahlil qilinadigan mexanizmdir (qolgan uchtasi: antiteza, ramziy-mifopoetik obrazlar va yakuniy mukofotlanish mexanizmlari). Nasihat-monolog va ibrat-andozadan farqli o‘laroq, bu mexanizmda qahramonning o‘zi tarbiya ob’ekti va sub’ekti bir vaqtning o‘zida bo‘ladi u na so‘z, na kuzatilgan namuna orqali emas, shaxsiy sinovdan o‘tish tajribasi orqali axloqiy fazilatlarini mustahkamlaydi. Bu xususiyat ziddiyat-sinov mexanizmini dissertatsiyaning olti mexanizmli tizimida alohida, o‘ziga xos o‘ringa qo‘yadi.

“Go‘ro‘g‘li” turkumida ziddiyat va sinov orqali ma’naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirish mexanizmini o‘rganishda, avvalo, o‘zbek folklorshunosligida qahramonlik eposi syujeti, sinov motivi, alplik konsepsiyasi hamda qahramonning kamol topish jarayoni bilan bog‘liq nazariy qarashlar muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Mazkur masala bevosita “pedagogik mexanizm” atamasi ostida tadqiq etilmagan bo‘lsa-da, folklorshunos olimlarning qahramonning sinovdan o‘tishi, toblanishi, alplik darajasiga

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

yetishi va murakkab ziddiyatlarni yengishi haqidagi qarashlari ushbu tadqiqot uchun muhim nazariy manba hisoblanadi.

K.Imomov o‘zbek xalq ertaklari, xususan, bahodirlik ertaklarining syujet qurilishi haqida fikr yuritar ekan, bosh qahramon hayoti ma’lum sinovlar tizimi asosida rivojlanishini ta’kidlaydi. Olimning qayd etishicha, bahodirlik ertaklari syujetida ideal pahlavonning g‘aroyib tug‘ilishi, uning o‘sib-ulg‘ayishi, kuch-qudratining sinalishi, turli dushman kuchlar bilan to‘qnashuvi hamda janglar orqali kamol topishi yetakchi o‘rin tutadi [1, 63-b.]. Bu qarash sinov motivining qahramonlik eposida tasodifiy voqea emas, balki qahramon biografiyasi va syujet taraqqiyotini harakatga keltiruvchi muhim strukturaviy unsur ekanini ko‘rsatadi.

Imomov bahodirlik ertaklaridagi kuch-qudrat sinoviga alohida e’tibor qaratib, jismoniy kuchlar musobaqasi va pahlavonning qudratini sinash motivlari qahramonlik syujetining yetakchi tarkibiy qismlaridan biri ekanini qayd etadi. Bunday sinovlarda qahramonning kuchi mubolag‘aviy tasvirlanib, g‘alaba qozongan shaxs “alp”, “polvon”, “botir” kabi nomlar bilan ulug‘lanadi [1, 85-b.]. Mazkur nazariy qarash “Go‘ro‘g‘li” turkumidagi kurash, jang va kuch sinovlarini faqat voqeabandlik vositasi sifatida emas, balki qahramonning ma’naviy va ijtimoiy maqomini tasdiqlovchi jarayon sifatida baholash imkonini beradi. Ayniqsa, “Xiromon Dali”, “Hasanxon” singari dostonlardagi kuch sinovlari qahramonning oddiy jismoniy qudratini emas, uning sabri, intizomi va ruhiy tayyorgarligini ham namoyon etadi.

Z. Husanovaning topishmoqli ertaklar haqidagi qarashlari esa sinovning aqliy-intellektual shakllarini tadqiq etishda muhim ahamiyatga ega. Tadqiqotchi topishmoqli ertaklarda konfliktning turli topishmoqli yumushlarni bajarish orqali hal etilishini ta’kidlaydi [2, 103-b.]. Bu fikr topishmoq, savol-javob va murakkab vaziyatni anglash kabi unsurlarning folklor asarlarida oddiy badiiy bezak emas, balki ziddiyatni hal qilish vositasi ekanini anglatadi. Shu nuqtayi nazardan “Go‘ro‘g‘li” turkumidagi tush ta’bir qilish, raqibning hiylasini anglash, suhbat jarayonida sinalish yoki g‘ayrioddiy vaziyatdan ijodiy yo‘l bilan chiqish epizodlarini aql-idrok sinovining ko‘rinishlari sifatida tasniflash mumkin. Masalan, “Xiromon Dali” dostonidagi tush ta’biri bilan bog‘liq epizodda qahramonning jismoniy kuchi emas, uning tafakkuri, kuzatuvchanligi va bilimga asoslangan qaror qabul qilish qobiliyati sinaladi.

“Go‘ro‘g‘li” dostonlari genezisi va tadrijiy taraqqiyotini maxsus tadqiq etgan Sh.Turdimovning ilmiy qarashlari mazkur tadqiqotning asosiy folklorshunoslik manbalaridan biridir. Olim “Go‘ro‘g‘li” turkumidagi alplik tizimini tahlil qilar ekan, qahramonning shakllanishi ma’lum sinov va toblanish bosqichlari orqali yuzaga kelishini ko‘rsatadi. Tadqiqotchining fikricha, alplik maqomiga erishish jarayoni qahramon yoki unga yaqin boshqa obrazlarning turli sinovlardan o‘tishi bilan bog‘liqdir [3, 33-b.]. Bu holat “sinov”ni faqat tashqi to‘siq sifatida emas, balki shaxsning yangi sifat darajasiga ko‘tarilishiga xizmat qiluvchi vosita sifatida baholashga imkon beradi.

Sh.Turdimovning “Yunus pari” dostoni yuzasidan olib borgan kuzatishlari ayniqsa muhimdir. Olim doston syujetida sehrli ertaklarga xos bo‘lgan qahramonning o‘zini tanitishi,

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

raqibga shart qo‘yishi, shartlarni bajarishi va nihoyat dushman kuchlarni yengishi kabi motivlarning izchil tizim hosil qilishini ko‘rsatadi [3, 121, 123-b.]. Ushbu qarash “Go‘ro‘g‘li” turkumidagi sinovlarning yakka holdagi epizodlar emas, balki o‘zaro bog‘langan va qahramon faoliyatining murakkablashib borishini ta’minlaydigan zanjir ekanini anglashga yordam beradi. Shu ma’noda “sinov zanjiri” tushunchasi mazkur tadqiqotda Sh. Turdimov qayd etgan strukturaviy qonuniyatlarning pedagogik nuqtayi nazardan qayta talqin qilinishi sifatida yuzaga chiqadi.

J.Eshonqulning folklor obrazlari va mifologik tasavvurlar haqidagi tadqiqotlari sinov motivining chuqur arxaik ildizlarini aniqlashda muhim o‘rin tutadi. Olim dev va ajdar bilan olishuv motivini shomonlik marosimlari hamda initsiatsion tasavvurlar bilan bog‘lab, qahramonning muayyan sinovlardan o‘tish orqali yangi maqomga ega bo‘lishini ko‘rsatadi [4, 40-b.]. Bu yondashuv ziddiyat-sinovning pedagogik mazmunini tushunishda ham ahamiyatlidir. Chunki initsiatsiya mantig‘ida shaxs ma’lum qiyinchilikni yenggandan keyingina avvalgi holatidan yangi, yuqoriroq maqomga o‘tadi. “Go‘ro‘g‘li” turkumidagi qahramonning jang, kurash, vasvasa yoki hiyla kabi sinovlardan o‘tishi ham aynan ana shunday ichki va tashqi o‘zgarish jarayonini aks ettiradi.

J. Eshonqul “Go‘ro‘g‘li” turkumidagi alpga xos sinovlarni tahlil qilar ekan, ayrim epizodlarda may ichish va keyinchalik muhim topshiriqni bajarish zarurati o‘ziga xos sinov vazifasini bajarishini ko‘rsatadi [4, 119-b.]. Bu holat sinovning faqat jang yoki kuch sinovi bilan cheklanmasligini, balki iroda, mas’uliyat va ichki bardoshlilikni ham tekshiruvchi vosita ekanini ko‘rsatadi. Mazkur qarash ushbu tadqiqotda ajratilgan vasvasa-ig‘vo sinovi turining nazariy asoslarini mustahkamlaydi. Chunki vasvasa sharoitida qahramonning asosiy kurashi tashqi dushman bilan emas, balki o‘z nafsi, qo‘rquvi, shubhalari yoki aldamchi ishonch bilan kechadi.

Tadqiqotning ikkinchi nazariy yo‘nalishini pedagogika fanidagi muammoli ta’lim konsepsiyasi tashkil etadi. B. Ziyomuhammadov muammoli izlanish uslubining mohiyatini o‘qituvchi tomonidan muammoli vaziyat yaratish va o‘quvchini ana shu vaziyatni mustaqil yoki hamkorlikda hal qilishga yo‘naltirish bilan bog‘laydi [5, 105-b.]. Muammoli ta’limning bu xususiyati qahramonlik eposidagi sinov vaziyati bilan muayyan metodologik umumiylikka ega. Har ikkala holatda ham sub’ekt tayyor natijaga ega bo‘lmaydi; uning oldida muammo yoki to‘siq paydo bo‘ladi va u mavjud imkoniyatlari, tajribasi, tafakkuri hamda irodasiga tayangan holda mazkur vaziyatdan chiqish yo‘lini topishi kerak bo‘ladi.

N.Avliyakulov va N.Musayevalarning pedagogik texnologiyaga oid tadqiqotlarida muammoli vaziyatlarning murakkablik darajasi hamda o‘quvchining ijodiy ishtiroki darajasiga alohida e’tibor qaratiladi [6, 81-b.]. Muammolikning sodda shaklidan o‘quvchining mustaqil va ijodiy faoliyatini talab qiluvchi yuqori darajadagi vaziyatgacha bo‘lgan bosqichlar ajratiladi. Shuningdek, muammoning murakkabligi bilan uni yechuvchi sub’ektning ijodiy faolligi o‘rtasidagi bog‘liqlik ham ta’kidlanadi [6, 85-b.]. Ushbu nazariy model “Go‘ro‘g‘li” turkumidagi sinovlarning murakkablashib boruvchi tuzilishini qiyosiy o‘rganishda metodologik vosita sifatida xizmat qiladi.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

Masalan, oddiy kuch sinovida qahramon oldida aniq shart va aniq raqib turadi. Biroq “Yunus pari” yoki “Xiromon Dali” kabi dostonlarda qahramon birin-ketin turli xarakterdagi sinovlarga duch keladi. Bunda dastlabki muammoni hal qilish keyingi, yanada murakkab vaziyatni yuzaga keltiradi. Natijada sinovlar bir-biridan ajralgan epizodlar emas, balki murakkablashib boruvchi muammoli vaziyatlar zanjiriga aylanadi. Ayniqsa, qahramonning oldindan berilgan ko‘rsatmaga emas, balki vaziyatning o‘zidan kelib chiqib, ijodiy qaror qabul qilishi muammoli ta’limning mustaqil-ijodiy faoliyat tamoyiliga yaqinlashadi.

M.Ochilov va N.Ochilovalarning pedagogik qarashlarida inson faoliyatida irodaning ahamiyati hamda qiyinchiliklar jarayonida irodaviy sifatlarning chiniqishi alohida qayd etiladi [7, 148-b.]. Ushbu yondashuv “Go‘ro‘g‘li” turkumidagi sinovlarning tarbiyaviy natijasini izohlashda muhimdir. Chunki doston qahramoni sinovdan faqat g‘alaba qozonish uchun emas, balki mazkur jarayon davomida o‘zining sabri, qat’iyati va bardoshliligini namoyon etish hamda mustahkamlash uchun ham o‘tadi. Qiyinchilikni yengish jarayonida fazilatning “chiniqishi” haqidagi pedagogik qarash folklordagi “sinov va toblanish” modeli bilan mazmunan yaqinlik kasb etadi.

O. Hasanboyeva va boshqa mualliflar bolalarda mustaqillikni shakllantirish, ularni qiyinchiliklarni yengishga o‘rgatish va iroda sifatlarini mustahkamlashning tarbiyaviy ahamiyatini alohida ta’kidlaydilar [8, 254-b.]. Mazkur fikrlar ziddiyat-sinov mexanizmining pedagogik mohiyatini yanada aniqroq belgilash imkonini beradi. Folklor asaridagi qahramonning murakkab vaziyatga tushishi va uni yengishi o‘quvchi uchun bilvosita tarbiyaviy tajriba vazifasini bajaradi. Qahramonning qarori, xatosi, ikkilanishi yoki g‘alabasi orqali tinglovchi va o‘quvchi muammoli vaziyatga munosabat bildirishning turli modellarini anglaydi.

Mavjud ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, folklorshunoslikda sinov motivi, qahramonning alplik darajasiga ko‘tarilishi, initsiatsion jarayon, jang va toblanish motivlari yetarlicha tadqiq etilgan [1, 63-b.; 1, 85-b.; 3, 33-b.; 3, 121–123-b.; 4, 40-b.]. Pedagogik tadqiqotlarda esa muammoli vaziyat, qiyinchilikni yengish, mustaqil qaror qabul qilish va irodaviy sifatlarni shakllantirish masalalari ishlab chiqilgan [5, 105-b.; 6, 81-b.; 6, 85-b.; 7, 148-b.; 8, 254-b.]. Biroq “Go‘ro‘g‘li” turkumidagi sinov epizodlarini mazkur ikki ilmiy yo‘nalish – folklorshunoslikdagi sinov va toblanish nazariyasi hamda pedagogikadagi muammoli ta’lim konsepsiyasi – kesishmasida tizimli qiyosiy-tipologik tahlil qilish masalasi alohida tadqiqot predmeti sifatida yetarli darajada yoritilmagan.

Tadqiqot uchun olti doston nashri “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi”, “Avazxonning o‘limga hukm etilishi”, “Yunus pari”, “Go‘ro‘g‘li: O‘zbek xalq dostonlari” to‘plami (“Hasanxon”, “Xiromon Dali”, “Qirq yigit bilan qirq qiz”, “Zulfizar”), “Go‘ro‘g‘li dostonlari” to‘rt jildligining 2-jildi (“Avazxon”, “Gulqizoy”, “Besh podshoning Chambilga yov bo‘lib kelishi”, “Zulfizar”) manba sifatida olindi. Barcha o‘n doston qahramonning jismoniy, aqliy va irodaviy sinovdan o‘tish sahnalari bo‘yicha, “sinov zanjiri” prizmasi orqali qayta ko‘rib chiqildi, oldingi paragraflarda foydalanilgan sahifalar takrorlanmasligi uchun maxsus ro‘yxat tuzildi.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

Uslub sifatida qiyosiy-tipologik tahlil qo‘llanildi: topilgan sinov epizodlari sinaladigan fazilat turi (jismoniy, aqliy, irodaviy) va zanjirdagi o‘rni bo‘yicha tasniflandi. Nazariy asos sifatida o‘zbek folklorshunosligi (K.Imomov, Z.Husanova, Sh.Turdimov, J.Eshonqul) va pedagogikaning muammoli ta’lim nazariyasi (B.Ziyomuhammadov, N.Avliyakulov va N.Musayevaning to‘rt bosqichli “muammolik darajasi” shkalasi) olindi.

O‘zbek folklorshunosligi fanida qahramonlik ertak va dostonlarining tarkibiy tuzilishi uzoq vaqtdan beri maxsus o‘rganilgan mavzu hisoblanadi. K.Imomovning ta’kidlashicha, “bahodirlik ertaklarining syujeti asosan bosh pahlavon biografiyasi bilan bog‘liq bo‘lgan voqea va hodisalarni hikoya qiladi. Binobarin, bu xildagi syujet ideal pahlavonning g‘aroyib tug‘ilishi, o‘smirlik davri, kuch va qudratini sinash, yigitlik davri, uylanishi, ajdar yoki dev bilan jang qilish motivlari kombinatsiyasidan tashkil topadi” [1, 63-b.] bu ta’rif dissertatsiya gipotezasini bevosita tasdiqlaydi: “kuch-qudratni sinash” va “dev/ajdar bilan jang” alohida, kompozitsion jihatdan majburiy motivlar sifatida ajratiladi. Kuch sinovining o‘ziga xos mexanizmi yana ham aniqroq izohlanadi: “Pahlavon qudratini sinash, jismoniy kuchlar musobaqasi sehrli ertaklarning yetakchi motivlari hisoblanadi... Sinov motivida pahlavonning kuch-qudrati mubolag‘alashtiriladi va g‘alaba qilgan pahlavon ‘alp’, ‘polvon’, ‘botir’ ataladi” [1, 85-b.]. Aqliy sinov turiga kelsak, Z. Husanova topishmoqli ertaklarning o‘ziga xos xususiyatini shunday izohlaydi: “Topishmoqli ertaklardagi xususiyatlardan biri ertak asosida yotuvchi konfliktning u yoki bu topishmoqli yumushlarning bajarilishi orqali hal etilishi hisoblanadi” [2, 103-b.] ya’ni topishmoq doston/ertakda faqat bezak emas, syujet ziddiyatini hal qiluvchi funksional vosita sifatida ko‘riladi.

“Go‘ro‘g‘li” turkumi bo‘yicha maxsus tadqiqot olib borgan Sh.Turdimov sinov motivining mazkur turkumga xos ko‘rinishini “alplik tizimi” doirasida ko‘radi: u qahramonga hamkor jangchi-otning ham “alp bosib o‘tgan sinov va toblanish jarayonidan bir-bir o‘tishi” kerakligini ta’kidlaydi [3, 33-b.]. Dissertatsiya uchun ayniqsa qimmatli topilma Sh.Turdimovning “Yunus pari” dostoni bo‘yicha o‘tkazgan tahlilidir: u sehrli ertaklardagi “devlarga o‘zini tanittirish; ularga shart qo‘yib yutish; shartlarning turi va bajarilishi; devlarni yengish” kabi barcha motivlar “‘Yunus pari’ dostonidagi qahramonning safar tasvirida Ko‘hi Qofga yetib olgungacha bo‘lgan syujetga aynan mos kelishini” ko‘rsatadi va buni alohida jadvalda rasmiylashtiradi [3, 121, 123-b.]. J.Eshonqul esa sinov-jang motivining chuqurroq, mifologik-ritual ildizini ko‘rsatadi: ajdar/dev bilan olishuv “shomon marosimlaridagi shomon harakatlarini eslatadi. Shomonlikka da’vogar ma’lum sinovlardan o‘tgach, shomonlik darajasiga ko‘tariladi” [4, 40-b.] ya’ni sinov-jang oddiy mojaro emas, initsiatsiya mantig‘iga ega. J.Eshonqul vasvasa turining “Go‘ro‘g‘li” turkumidagi o‘ziga xos ko‘rinishini ham ko‘rsatadi: “‘Go‘ro‘g‘li’ turkum dostonlarida Go‘ro‘g‘li qirq yigitiga murojaat qilib, kosada may tutadi. Mayni hamma ham icholmaydi, chunki may ichganlar biror muhim topshiriqni bajarishlari, ya’ni sinovdan o‘tishlari shart bo‘ladi... Mayni esa faqat Alplargina icha oladi” [4, 119-b.].

Pedagogika fanida esa sinov-zanjiriga eng yaqin tushuncha muammoli ta’lim metodidir. B.Ziyomuhammadov uni aniq ta’riflaydi: “Muammoli izlanish uslubi muammoli

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

ta'lim jarayonida qo'llaniladi. Bu uslubdan foydalanishda o'qituvchi, avvalo, muammoli vaziyat yaratadi... muammoli vaziyatni yechishga qaratilgan muhokamani uyushtiradi" [5, 105-b.]. Tadqiqot uchun ayniqsa muhim topilma N. Avliyakulov va N.Musayevaning "Pedagogik texnologiya" darsligidagi "Muammoli o'qitish texnologiyasi" bo'limi bo'lib, u dissertatsiyada ilk marta jalb qilinmoqda. Unda muammoli vaziyatlar to'rt bosqichli shkalaga ajratiladi oddiy, o'qituvchi tomonidan yaratilib hal qilinadigan vaziyatdan to o'quvchining o'zi tomonidan mustaqil yaratib, mustaqil hal qilinadigan vaziyatgacha [6, 81-b.], bu daraja esa "muammoning murakkablik darajasi" va "o'quvchining ijodiy ishtiroki darajasi" degan ikki omil bilan belgilanadi [6, 85-b.] – bu ta'rif "Go'ro'g'li" turkumidagi sinov zanjirining murakkablashib boruvchi tuzilishiga metodologik jihatdan g'oyat yaqin parallel beradi. M.Ochilovda esa sinov-irodaviy tarbiyaning yakuniy natijasi metaforik tarzda ifodalanadi: "Insonning samarali faoliyat ko'rsatishi uchun iroda zarur... ana shu jarayonda yoshlarning irodasi shunchalik chiniqadi" [7, 148-b.] "chiniqadi" fe'li qiyinchilik orqali fazilat mustahkamlanishining o'zbek pedagogik tafakkuridagi eng aniq timsoli bo'lib, u sinov-toblanish jarayonining deyarli so'zma-so'z pedagogik muqobilidir. O.Hasanboeva ham shunga yaqin xulosaga keladi: "Bolalarda mustaqillikni o'stirish, ularni qiyinchiliklarni yengishga o'rgatish, undagi irodani mustahkamlash muhim ahamiyat kasb etadi" [8, 254-b.]. Shunday qilib, folklorshunoslik sinov motivining tarkibiy tuzilishini, pedagogika esa uning tarbiyaviy-psixologik samarasini (irodani mustahkamlash) izohlaydi ikkala fan ham mustaqil ravishda "qiyinchilik orqali fazilat mustahkamlanishi" umumiy tamoyiliga kelib taqaladi.

Birinchi tur – kuch-qudrat sinovi (kurash): jismoniy bardoshni aniqlash. Bu tur sinovda qahramonning jismoniy kuchi, chidamliligi rasmiy shart shaklida ochiq sinaladi. "Xiromon Dali" dostoni bu turning eng batafsil, ko'p bosqichli ko'rinishini beradi: doston qahramoni Xiromon dali istalgan sovchiga ikki shart qo'yadi "Xiromon dalining ikki sharti bor, biri borgan bilan baxshi eshitar, ikkinchi shartidir kurashga tushar" [9, Xiromon Dali, 374-b.] ya'ni shoirlik-notiqlik (aqliy) sinovi va jismoniy kurash ketma-ket, birlashgan shart sifatida qo'yiladi. Bunga Misqol pari uchinchi, tayyorgarlik bosqichini pirga xizmat qilish talabini qo'shadi: "...avval Xuroson yurtiga borib... Oydin Yusuf pirga qo'l berib, qirq kun xizmatini qilib, fotihasini olib borsang, ajab emaski, Xiromon dalini yiqsang" [9, Xiromon Dali, 375-b.] bu orqali jismoniy kurash sinovidan oldin intizom-sabr sinovi majburiy tayyorgarlik bosqichi sifatida kiritiladi. "Hasanxon" dostonida esa jismoniy sinovdan (Rustam kamonini tortish) oldin og'zaki-ruhiy sinov masxara orqali sabr-bardoshni tekshirish bo'lib o'tadi: Isfahon ustalari yosh Go'ro'g'libekni "Turkalar o'r, baland og'iz bo'ladi... Otdan tushib, kuching ko'rsat, turkbachcha" deya ochiq tahqirlaydilar [9, Hasanxon, 96-b.] faqat shundan keyin, kuchli hissiy bosim ostida, yosh qahramon kamon sinoviga kirishadi va undan muvaffaqiyatli o'tadi [9, Hasanxon, 97-b.] bu zanjir (masxara-sinov → kuch-sinovi) kurash turining o'zi ham ko'pincha yakka emas, oldindan ruhiy tayyorgarlik talab qiluvchi ikki bosqichli hodisa ekanini ko'rsatadi.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

Ikkinchi tur – aql-idrok va sabr sinovi: topishmoq, savol-javob, kuzatuvchanlik. Bu turda qahramonning jismoniy kuchi emas, uning zukkoligi, hushyorligi yoki sabr-bardoshi sinaladi. “Avazxonning o‘limga hukm etilishi” dostonida Rum shohining o‘g‘li Qosimxon, otasidan mashhur pahlavon Avazxon haqida eshitib, uni o‘z ko‘zi bilan tekshirib ko‘rmoqchi bo‘ladi: “Otam Avaz deb gapirdi, bu qanday odam ekan, buning oldiga borib, hamgap bo‘lib, bir so‘zlashib, sinab ko‘rayin... bilsa ham, bilmaganday bo‘lib, Avazdan so‘rab turgan ekan” [10, 92-b.] bu dialogik sinov (bilsa ham bilmaganday so‘rash) orqali qahramonning rostgo‘yligi va haqiqiy qadr-qimmati og‘zaki-muloqot vositasida tekshiriladi. “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostonida darvesh qiyofasidagi Xizr bobo yosh Go‘ro‘g‘libekning o‘z haq-huquqini himoya qila olish qobiliyatini sinab ko‘radi, u bolaning o‘z toyi ustidan nohaq da’vo qiladi: “Go‘ro‘g‘libekni sinab ko‘rmoq uchun Xizr bobo: Ey, qanday odam bo‘lasan? Mening xonazot otimni nimaga bo‘ynidan ushlaysan? – dedi. Go‘ro‘g‘li aytdi: – Xo, tag‘in gapirding-a, mening yolg‘iz yetim toyimni o‘g‘irlab olib kelasizmi?” [11, 123-b.] bu sinov mulkiy bahs shaklida niqoblangan bo‘lsa-da, aslida qahramonning haq so‘zni katta-kichik oldida ham murosasiz himoya qila olish irodasini tekshiradi. “Xiromon Dali” dostonida esa, kurash va she’riy sinovdan tashqari, uchinchi, sof aqliy sinov ham mavjud tush ta’biri musobaqasi: “Ammo Oydin Yusuf pir xalifalarining hech qaysisining ham bergan ta’biriga qanoatlanmadi... Endi pirning tushini jo‘ramagan faqat sen qolding. Sen ham ichkariga kirib, bir ta’birchilik qil” [9, Xiromon Dali, 384-b.] bu yerda doston qahramoni (Karimberdi) ko‘plab boshqa shogirdlar ortda qoldirgan aqliy sinovdan yagona muvaffaqiyatli o‘tuvchi sifatida ajralib chiqadi. “Yunus pari” dostonida esa aql-idrok sinovi nayrang-hiyla shaklida, dev bilan bo‘lgan uchrashuvda sodir bo‘ladi: odamxo‘r dev Go‘ro‘g‘lidan o‘z kuchini isbotlashni talab qiladi “Dev aytdi: Sen balo bo‘lsang, avval bitingni ko‘rsat... Go‘ro‘g‘li qo‘ynidan toshbaqani chiqarib tashladi. Toshbaqa devning bitini chirqiratib bosib yeyaverdi... Dev aytdi: Vo xudo urdi, endi buning baloligi rost ekan” [12, 183–186] bu yerda qahramon jismoniy kuchga emas, hozirjavoblik va nayrangga tayanib sinovdan o‘tadi, bu esa aql-idrok sinovining doim “to‘g‘ri javob berish”gagina emas, vaziyatni ijodiy qayta talqin qilishga ham asoslanishi mumkinligini ko‘rsatadi. “Zulfizar” dostonining 1997 yilgi nashrida esa sozgarlik bilan niqoblangan jodugar Chamidxon ustidan iroda-kuzatuvchanlik sinovi o‘tkaziladi: Go‘ro‘g‘li noma’lum devonani sinab ko‘rishga qaror qiladi “‘Qani endi, bu devonaning o‘zini bir sinab ko‘ray-chi’, – deb... Chamidxonga bir tikilib qaradi... Chamidxon Go‘ro‘g‘li sultonning tikilib qaraganiga chiday olmay, yerga shalp etib yiqilib qoldi” [13, Zulfizar, 180–181-b.] bu yerda sinov yo‘nalishi teskari bo‘lib, qahramon emas, yovuz kuch (jodugar) sinaladi va fosh bo‘ladi, bu sinov-zanjirining har doim qahramonga qaratilmasligini, ba’zan qahramonning o‘zi faol sinovchi rolini ham o‘ynashini ko‘rsatadi.

Uchinchi tur – vasvasa-ig‘vo sinovi: irodaviy bardoshni tekshirish. Bu tur sinovda qahramonning jismoniy kuchi yoki zukkoligi emas, uning axloqiy-irodaviy bardoshi yolg‘on do‘stlik, aldamchi go‘zallik, sehr-jodu yoki maishat vasvasasiga berilmasligi tekshiriladi. Eng to‘liq zanjirni “Zulfizar” dostoni beradi: jodugar Chamidxon sehr orqali

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

yaratgan soxta ayol qiyofasida Avazxonni vasvasaga soladi “Kel, quchoqla, voy-voy, o‘zimdan qolma, yaxshi yigit, mendan boshqani olma...” ammo Avazxon otasining nasihatini eslab, irodasini tiklaydi: “Shunda Avazxonga aqli aytdi: ‘Ey, Avazxon, senga otang jo‘nayotganida nimalar deb nasihat qilgan edi...’ – deb o‘ylab... ‘Tavakkal endi. Yo bud bo‘lar, yo nobud bo‘lar’, – deb isfihoni xanjarini g‘ilofidan sug‘urib... Shunda qarasa, haligi Zargar zangi... bir yumalab quzg‘un-qarg‘a bo‘lib, falakka parvoz qilib uchib ketdi” [9, Zulfizar, 210–211-b.] bu parcha vasvasa sinovining mexanizmini g‘oyat aniq ko‘rsatadi: qahramon vasvasaga so‘z (eslab qolingan nasihat) orqali qarshilik ko‘rsatadi, ammo nihoyat amaliy, qat’iy harakat orqali sinovdan o‘tadi bu nasihat-monolog mexanizmining uzoq muddatli, kechiktirilgan samarasini ham isbotlovchi qimmatli dalil hisoblanadi: nasihat bir necha voqea o‘tgandan keyin, aynan hal qiluvchi lahzada “ishga tushadi”. “Gulqizoy” dostonining “Govdaroz dev” qissasida esa vasvasa aldov-ig‘vo shaklida, dev ustidan amalga oshiriladi: Harishohning elchilari devni aldab, uni Go‘ro‘g‘liga qarshi ittifoqqa tortadilar [13, Gulqizoy, 95-b.] bu dissertatsiya uchun alohida qimmatli misol, chunki bu yerda vasvasaga duchor bo‘luvchi qahramon emas, “nodon”, ammo axloqiy jihatdan begunoh dev bo‘lib, sinov mohiyatining faqat bosh qahramonga emas, har qanday ishonchli, sodda personajga ham tegishli ekanini ko‘rsatadi. “Zulfizar” dostonining 1997 yilgi nashrida xuddi shu Chamidxon obrazi orqali yana ham kengroq, sehrgarlik asosidagi illyuzion vasvasa tasvirlanadi: jodugar sehr orqali soxta, zeb-ziynatli qasr va soxta kelinchak yaratib, Avazxonning nafsini sinaydi, bu esa qahramonning ichki kurashi orqali alohida ifodalanadi: “‘Yo‘q, shoshma, avval qizni sinab ko‘r. Sabr qilsang, g‘o‘radan holva pishadi’ – deganku”, – deb, nafsi yana: “Oldida bir qo‘lidan chumchuq o‘lmaydigan zangi quldan boshqa kishi yo‘q...” [13, Zulfizar, 196–197-b.] bu parchada diqqatga sazovori shuki, doston matnining o‘zi “sinamoq” va “sabr” atamalarini bevosita ishlatadi, ya’ni bu voqea xalq dostonchisi tomonidan ham ongli ravishda sinov sifatida idrok etilgan. Nihoyat, “Besh podshoning Chambilga yov bo‘lib kelishi” dostonida vasvasa do‘stlik niqobi ostida sodir bo‘ladi: ayyor Amloq o‘zini Go‘ro‘g‘lining otasi bilan “oshna” bo‘lgan deb tanishtirib, uning ishonchini qozonadi, keyin esa pistirmadan hujum uyushtiradi [13, Besh podshoning Chambilga yov bo‘lib kelishi, 132–133-b.] bu epizod “Govdaroz dev” ig‘vosiga tarkibiy jihatdan deyarli izomorf bo‘lib, vasvasa turining “soxta yaqinlik” kichik turini tashkil etadi. Asirga tushgan Avazxonni ozod qilishdan oldin esa, “Govdaroz dev” qissasida dev uni jismoniy kuchga emas, she’riy maqtov-ig‘vo orqali “yumshatishga” urinadi: “Odamzod ichida sendayi bo‘lmas... Yuzingga kim boqsa ko‘zin uzolmas, Chamanmisan, bo‘stonmisan, na jonsan?” [13, Gulqizoy, 105-b.] bu madhiya-vasvasa qahramonning irodaviy (va ayniqsa erkaklik g‘ururiga oid) bardoshini jang oldidan sinovdan o‘tkazadi, bu vasvasa turining faqat ayol siymosi orqali emas, shoirona madhiya shaklida ham amalga oshishi mumkinligini ko‘rsatadi.

To‘rtinchi tur – zanjirsimon (kompleks) sinov: bir necha tur bir voqeada birlashuvi. Yuqorida ko‘rilgan uch tur alohida-alohida ko‘rilsa-da, “Go‘ro‘g‘li” turkumining eng xarakterli xususiyati bu turlarning bitta voqea-epizod doirasida ketma-ket, zanjirsimon

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

birlashishidir, bu esa Sh.Turdimov ko‘rsatgan strukturaviy modelning [3, 121, 123-b.] turkumda muntazam takrorlanuvchi qonuniyat ekanini tasdiqlaydi. Eng to‘liq zanjirni “Yunus pari” dostoni beradi: Go‘ro‘g‘li Balo tog‘ida avval dev bilan aql-nayrang sinovidan o‘tadi [12, 183–186-b.], bu sinov darhol jismoniy kurashga aylanadi, undan g‘alaba bilan chiqqach esa, yangi, butunlay boshqa turdagi vasvasa-niqoblash sinovi boshlanadi [12, 190–193-b.] uch xil sinov (aql, kuch, vasvasa) bir doston ichida, bir qahramon boshidan uzluksiz zanjir shaklida o‘tadi. “Xiromon Dali” dostoni esa “uylanish sinovi” janrining to‘rt bosqichli, institutsional zanjirini beradi: (1) she’riy-aqliy sinov (shoirlik sharti), (2) intizom-sabr sinovi (qirq kunlik pirga xizmat), (3) kurash sinovi, (4) alohida aqliy sinov tush ta’biri musobaqasi [9, Xiromon Dali, 384-b.]. “Avazxon” dostonida esa yosh qahramonning o‘zi, hali rasmiy sinovga duch kelmasdan turib, o‘ziga o‘z-o‘zi sinov qo‘yadi, u Go‘ro‘g‘lining sovg‘asi, afsonaviy G‘irot otini qabul qilishdan bosh tortadi, to o‘zini jangda isbotlamaguncha: “Aldab kelgan ey Go‘ro‘g‘li, minmayman, nomard G‘irotga... Qon bilan xanjar yuvmasang, minmayman, nomard G‘irotga” [13, Avazxon, 39–42-b.] bu o‘z-o‘zini sinash hodisasi sinov zanjirining tashqi emas, ichki, ixtiyoriy shaklda ham mavjud bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi. Xuddi shu dostonda Bektosh arab epizodining ilgari ko‘rib chiqilmagan dastlabki bosqichi ham sinov-zanjiri nuqtai nazaridan qimmatli: Bektosh, Go‘ro‘g‘li va baxshi boboni mehmon qilish niqobi ostida ularni mast qilishni rejalashtiradi, “Mehmonni ko‘rganda gulday tarzim bor... Quv Go‘ro‘g‘li oson qo‘lga tushibdi, ani behush aylang degan arzim bor” [13, Avazxon, 44–46-b.], reja amalga oshgach esa, Go‘ro‘g‘li bilan ochiq, shartli kurash taklif etadi: “Shunda Bektosh arab: – Agar sening bilan do‘st bo‘lmoqchi bo‘lsam ham, bir kurashay. Mardlar kurashib do‘st bo‘ladi, degan, – deb yechinib maydonga chiqmoqchi bo‘la berdi” [13, Avazxon, 49–50-b.] ya’ni bu yerda ham xuddi “Yunus pari”dagidek, vasvasa (mast qilish aldovi) darhol kurash sinoviga aylanadi, kurash esa nihoyat kechirimga va sinalgan sadoqatga olib keladi [13, Avazxon, 51-b.] bu uzun zanjirning (vasvasa → kurash → kechirim → sadoqat) to‘liq tasviri “Go‘ro‘g‘li” turkumida ziddiyat-sinov mexanizmining qanchalik ko‘p qatlamli, dissertatsiyaning barcha uchta paragrafi bilan uzviy kesishuvchi hodisa ekanini yaqqol ko‘rsatadi.

Yuqorida ko‘rilgan to‘rt tur va ularning zanjirsimon birikmalarini N.Avliyakulov va N.Musaevaning muammoli ta’lim nazariyasidagi to‘rt bosqichli “muammolik darajasi” shkalasi [6, 81-b.] bilan qiyoslash qiziqarli metodologik parallellikni ochib beradi: dostondagi eng oddiy sinovlar (masalan, yakka kurash sharti) o‘qituvchi tomonidan tayyor holda qo‘yiladigan, sodda “muammoli vaziyat”ga mos kelsa, “Xiromon Dali”dagi to‘rt bosqichli uylanish zanjiri yoki “Yunus pari”dagi uch xil sinov ketma-ketligi allaqachon yuqori “muammolik darajasi”ga mos keladi. Ayniqsa muhimi, Avliyakulov-Musaeva ta’kidlagan “o‘quvchining ijodiy ishtiroki darajasi” [6, 85-b.] omili “Yunus pari”dagi dev-sinovida (Go‘ro‘g‘lining toshbaqa-nayrangi) aynan mos tasdig‘ini topadi: qahramon sinovdan faqat tayyor ko‘nikma bilan emas, ijodiy, vaziyatga moslashuvchan qaror bilan ham o‘tadi bu esa muammoli ta’limning eng yuqori, “mustaqil-ijodiy” bosqichiga to‘g‘ri keladi.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

1-jadval. Ziddiyat-sinov mexanizmining to‘rt tipologik turi

Sinov turi	Sinaladigan fazilat	Doston misoli
Kuch-qudrat sinovi (kurash)	Jismoniy bardosh, tayyorgarlik, intizom	“Xiromon Dali” (to‘rt bosqichli shart), “Hasanxon” (masxara + kamon)
Aql-idrok va sabr sinovi	Zukkolik, rostgo‘ylik, kuzatuvchanlik	“Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” (Xizr bobo), “Xiromon Dali” (tush ta’biri), “Yunus pari” (dev-nayrang)
Vasvasa-ig‘vo sinovi	Irodaviy bardosh, axloqiy ustuvorlik	“Zulfizar” (har ikki nashr), “Gulqizoy” (“Govdaroz dev”)
Zanjirsimon (kompleks) sinov	Bir necha fazilat ketma-ket, murakkablashib boruvchi tartibda	“Yunus pari” (aql→kurash→vasvasa), “Xiromon Dali” (to‘rt bosqich), “Avazxon” (o‘z-o‘zini sinash)

2-jadval. Nasihat-monolog, ibrat-andoza va ziddiyat-sinov mexanizmlarining qiyosiy ko‘rsatkichlari

Mezon	3.1. Nasihat-monolog	3.2. Ibrat-andoza	3.3. Ziddiyat-sinov
Qahramonning roli	Nasihat beruvchi	Kuzatiluvchi namuna	Sinaluvchi sub’ekt
Tarbiya ob’ekti	Tinglovchi	Guvoh	Qahramonning o‘zi
Ta’sir vositasi	So‘z	Amal (kuzatilgan)	Shaxsiy tajriba
Nazariy parallel	Xoliqov – ishontirish	Bandura – ijtimoiy o‘rganish	Avliyakulov – muammoli ta’lim
Turlar soni	Yetti	Olti	To‘rt

Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, “Go‘ro‘g‘li” turkumidagi sinov zanjiri folklorshunoslik fanida allaqachon strukturaviy jihatdan tavsiflangan (Imomov, Turdimov) bo‘lsa-da, uning pedagogik samaradorligi qiyinchilik orqali fazilat mustahkamlanishi tamoyili alohida nazariy e’tiborga loyiq. Sinovlarning murakkablashib boruvchi tuzilishi (sodda kurash shartidan to to‘rt bosqichli uylanish zanjirigacha) muammoli ta’limning “muammolik darajasi” shkalasiga metodologik jihatdan mos kelishi bu ikki, bir-biridan uzoq fan sohasining (“Go‘ro‘g‘li” dostonchiligi va zamonaviy pedagogika texnologiyasi) mustaqil ravishda bir xil tarbiyaviy mantiqqa kelib taqalganini ko‘rsatadi.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

Ziddiyat-sinov mexanizmining amaliy-metodik ahamiyati ham alohida ta'kidlanishi lozim: u dissertantning ishlab chiqqan o'quv-metodik tizimida ibrat-andoza mexanizmi bilan birga "ibrat-rolli o'yin darsi" deb nomlanuvchi dars turining nazariy asosini tashkil etadi, chunki ular "ko'rsatish – sinash" degan yagona ijtimoiy o'rganish zanjirining ikki bosqichini tashkil etadi. N.Avliyakulov va N.Musayevaning "Pedagogik texnologiya" darsligida ishbilarmonlik o'yini texnologiyasining uch bosqichli tuzilishi (tayyorlash, o'tkazish, tahlil qilish) ko'rsatiladi [6, 102-b.] – sinov epizodlarini (masalan, "Xiromon Dali"dagi to'rt bosqichli uylanish zanjirini) sinfda rolli o'yin yoki muammoli vaziyat sifatida qayta jonlantirish o'quvchilarda faqat bilim emas, amaliy qaror qabul qilish va irodaviy bardosh ko'nikmalarini ham shakllantiradi, bu amaliy tatbiq ziddiyat-sinov mexanizmining faqat tarixiy-adabiy hodisa emas, zamonaviy adabiy ta'lim amaliyotida qo'llanilishi mumkin bo'lgan tirik pedagogik vosita ekani haqidagi xulosani mustahkamlaydi.

Nasihat-monolog (so'z), ibrat-andoza (kuzatilgan amal) va ziddiyat-sinov (shaxsiy sinov) mexanizmlarining umumiy qiyosi shuni ko'rsatadiki, bular uch mustaqil emas, bir-birini to'ldiruvchi, ko'p hollarda bir doston, hatto bir epizod doirasida o'zaro kesishuvchi tarbiyaviy vositalardir: "Avazxon" dostonidagi Bektosh epizodida nasihat (Go'ro'g'lining oldingi ko'rsatmalari), ibrat (Avazxonning Go'ro'g'li jasoratidan ta'sirlanishi) va sinov (vasvasa-kurash-kechirim zanjiri) bir voqea doirasida uyg'unlashadi, bu uch mexanizmning "Go'ro'g'li" turkumidagi ma'naviy-axloqiy tarbiya tizimida alohida-alohida emas, kompleks tarzda ishlashini tasdiqlaydi.

O'tkazilgan tahlil "Go'ro'g'li" turkumidagi ziddiyat-sinov mexanizmining to'rt aniq tipologik turga ega ekanini ko'rsatdi: (1) kuch-qudrat sinovi kurash rasmiy shart sifatida, ko'pincha og'zaki-ruhiy tayyorgarlik bilan birga keladi; (2) aql-idrok va sabr sinovi topishmoq, dialogik tekshiruv, nayrang yoki kuzatuvchanlik orqali qahramonning zukkoligi va rostgo'yligi aniqlanadi; (3) vasvasa-ig'vo sinovi aldamchi do'stlik, sehrli illyuziya yoki madhiya-maqtov orqali qahramonning irodaviy-axloqiy bardoshi tekshiriladi; (4) zanjirsimon (kompleks) sinov yuqoridagi uch tur bir voqea-epizod doirasida ketma-ket, murakkablashib boruvchi tartibda birlashadi. Mazkur tipologiya folklorshunoslik fani bilan uzviy bog'liq bo'lib, uning tarkibiy asoslanganini tasdiqlaydi; shu bilan birga u pedagogika fanidagi muammoli ta'lim nazariyasi bilan qiyosiy tahlil qilinganda, dostondagi sinovlarning murakkablashib boruvchi tuzilishi muammoli ta'limning "sodda – murakkab" bosqichlariga metodologik jihatdan mos kelishi aniqlandi.

Tadqiqotning cheklovlari shundaki, tahlil faqat olti doston nashriga asoslangan; bu nazariy o'xshashlik pedagogika darsliklarida nomma-nom tan olinmagan, ammo dissertant tomonidan qiyosiy vosita sifatida, ochiq ko'rsatilgan holda qo'llanildi, bu ilmiy halollikning majburiy sharti sifatida alohida ta'kidlanadi. Keyingi tadqiqotlarda sinov zanjirining zamonaviy adabiy ta'lim dasturlarida (muammoli vaziyat darslari shaklida) qo'llanilishi bo'yicha amaliy-metodik tavsiyalar ishlab chiqish istiqbolli yo'nalish bo'lishi mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

1. Imomov K. Ertak // O‘zbek folklori ocherklari: Uch tomlik. 2-jild / Mas’ul muharrir B.Sarimsoqov. – Toshkent: Fan, 1989.
2. Husanova Z. Topishmoqli ertaklar // O‘zbek folklori ocherklari: Uch tomlik. 2-jild / Mas’ul muharrir B.Sarimsoqov. – Toshkent: Fan, 1989.
3. Turdimov Sh. “Go‘ro‘g‘li” dostonlarining genezisi va tadrijiy bosqichlari. – Toshkent: Fan, 2011.
4. Eshonqul J. Folklor: obraz va talqin. – Qarshi: Nasaf, 1999.
5. Ziyomuhammadov B. Pedagogika: Oliy o‘quv yurtlari uchun o‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Turon-Iqbol, 2006.
6. Avliyakulov N.X., Musaeva N.N. Pedagogik texnologiya. – Toshkent: Tafakkur Bo'stoni, 2012.
7. Ochilov M., Ochilova N. Oliy maktab pedagogikasi. – Toshkent: Aloqachi, 2008.
8. Hasanboeva O. va b. Oila pedagogikasi: Darslik. – Toshkent: Aloqachi, 2007.
9. Go‘ro‘g‘li: O‘zbek xalq dostonlari / Aytuvchi Rahmatulla shoir Yusuf o‘g‘li; nashrga tayyorlovchilar T.Mirzaev, Z.Husainova. – Toshkent: Sharq, 2006.
10. Avazxonning o‘limga hukm etilishi / Aytuvchi Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li; yozib oluvchi G‘.Karimov; nashrga tayyorlovchilar Z.Husainova, T.Mirzaev; mas’ul muharrir O.Sobirov. – Toshkent: O‘zSSR FA nashriyoti.
11. Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi // O‘zbek xalq ijodi: Ko‘p tomlik / Aytuvchi Muhammadqul Jomrot o‘g‘li Pulkan; nashrga tayyorlovchi M.Murodov. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1967.
12. Yunus pari // O‘zbek xalq ijodi: Ko‘p tomlik / Aytuvchi Muhammadqul Jomrot o‘g‘li Pulkan; nashrga tayyorlovchi Sh.Xo‘jaeva. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1967.
13. Go‘ro‘g‘li dostonlari: To‘rt jildlik. 2-jild: Avazxon / Aytuvchi Rahmatulla shoir Yusuf o‘g‘li. – 1997.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

PEDAGOGIK DISKURS KOMPETENSIYASINI BAHOLASH MEZONLARI VA DARAJA DESKRIPTORLARI.

Ochilova Nilufar Ulmasovna, Buxoro davlat pedagogika instituti doktoranti, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

Annotatsiya

KIRISH: maqolada bo‘lajak chet tili o‘qituvchilarining pedagogik diskurs kompetensiyasini baholash uchun mezon va daraja deskriptorlari ishlab chiqildi. Dalilga asoslangan baholash, analitik rubrika dizayni va situativ topshiriqlar tahlili orqali maqsadga muvofiqlik, ma’no skaffoldingi, interaktiv javobchanlik, rivojlantiruvchi qayta aloqa, inklyuziv-etik moslik hamda refleksiv qayta loyihalash mezonlari belgilandi. Har bir mezon reproduktiv, vaziyatga bog‘liq, adaptiv va transformativ darajalarda kuzatiladigan harakatlar bilan ifodalandi. Natija til testidan farqli, kasbiy pedagogik bajarishni baholovchi ko‘p manbali diagnostika tizimini taklif etadi.

MAQSAD: o‘qituvchilarning pedagogik nutqini shaxsiy uslubga aralashmasdan, obyektiv va rivojlantiruvchi tarzda baholash imkonini beruvchi analitik mezonlar, daraja deskriptorlari va ko‘p manbali dalillar tizimini ishlab chiqishdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda dalilga asoslangan baholash dizayni, analitik rubrika modelidan foydalanildi hamda CEFR va EPOSTL deskriptorlari, sinf diskursi va formatif baholash nazariyalari asosida 6 ta mezon va 4 ta rivojlanish darajasi (reproduktiv, vaziyatga bog‘liq, adaptiv, transformativ) belgilab olindi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: maqsadga muvofiqlik, ma’no skaffoldingi, interaktiv javobchanlik, rivojlantiruvchi qayta aloqa, inklyuziv-etik moslik hamda refleksiv qayta loyihalash mezonlari ishlab chiqilib, vaziyatli yozma yechim, mikrodars videosi, transkript va refleksiv qayta reja triangulyatsiyasiga asoslangan ko‘p manbali diagnostika tizimi taklif etildi.

XULOSA: taklif etilgan analitik rubrika va deskriptorlar tizimi til bilish darajasini kasbiy-pedagogik bajarishdan ajratish hamda talabaning individual rivojlanish traektoriyasini belgilash imkonini beruvchi samarali formatif baholash vositasidir.

Kalit so‘zlar: diagnostika, analitik rubrika, mezon, deskriptor, pedagogik diskurs, situativ topshiriq, baholash validligi

КРИТЕРИИ И ДЕСКРИПТОРЫ УРОВНЕЙ ОЦЕНИВАНИЯ КОМПЕТЕНЦИИ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ДИСКУРСА.

Очилова Нилуфар Улмасовна, докторант Бухарского государственного педагогического института, доктор философии по филологическим наукам (PhD).

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в статье разработаны критерии и уровневые дескрипторы оценивания компетенции педагогического дискурса будущих учителей иностранного

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

языка. На основе доказательного оценивания, проектирования аналитической рубрики и анализа ситуативных заданий выделены критерии целесообразности, смыслового скаффолдинга, интерактивной отзывчивости, развивающей обратной связи, инклюзивно-этической адекватности и рефлексивного перепроектирования. Критерии представлены на репродуктивном, ситуативном, адаптивном и трансформативном уровнях.

ЦЕЛЬ: разработка системы аналитических критериев, уровневых дескрипторов и многоисточниковых доказательств, позволяющих объективно и развивающе оценивать педагогическую речь без вмешательства в индивидуальный стиль.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании использован дизайн доказательного оценивания, моделирование аналитической рубрики, а также дескрипторы CEFR, EPOSTL и теории классного дискурса, на основе которых выделены 6 критериев и 4 уровня развития (репродуктивный, ситуативный, адаптивный, трансформативный).

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: разработаны критерии целесообразности, смыслового скаффолдинга, интерактивной отзывчивости, развивающей обратной связи, инклюзивно-этической адекватности и рефлексивного перепроектирования, а также предложена система диагностики на основе триангуляции ситуативного решения, видео микропреподавания, транскрипта и рефлексивного плана. **3**

АКЛЮЧЕНИЕ: предложенная аналитическая рубрика служит эффективным формативным инструментом, разграничивающим уровень владения языком и профессионально-педагогическое исполнение, а также определяющим индивидуальную траекторию развития.

Ключевые слова: диагностика, аналитическая рубрика, критерий, дескриптор, педагогический дискурс, ситуативное задание

CRITERIA AND LEVEL DESCRIPTORS FOR ASSESSING PEDAGOGICAL DISCOURSE COMPETENCE

Nilufar Ulmasovna Ochilova, Doctoral Student at Bukhara State Pedagogical Institute, Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences.

Annotation

INTRODUCTION: the article develops criteria and proficiency descriptors for assessing future foreign language teachers' pedagogical discourse competence. Evidence-centred assessment, analytic-rubric design, and scenario-task analysis yielded six criteria: goal alignment, meaning scaffolding, interactional responsiveness, developmental feedback, inclusive-ethical appropriateness, and reflective redesign. Each criterion is expressed through observable behaviour at reproductive, situated, adaptive,

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

and transformative levels, forming a multi-source professional assessment system distinct from a general language test.

AIM: to categorize the typological forms of the conflict-testing mechanism of moral instruction in the "Go‘ro‘g‘li" cycle and demonstrate their methodological correspondence to problem-based learning principles.

MATERIALS AND METHODS: based on 10 epic narratives from the cycle, comparative-typological and structural analyses were conducted, drawing upon folklore concepts of testing and tempering (K. Imomov, Sh. Turdimov) and educational theories of problem-based learning (N. Avliyakulov and N. Musayeva's 4-stage scale).

DISCUSSION AND RESULTS: four typological categories of trials were identified: tests of physical strength, intellect/patience, temptation/provocation, and complex sequential trials. The progression of trials from simple structures to complex multi-stage chains was shown to methodologically mirror the educational principle of progressively complicating problem situations and fostering creative engagement.

CONCLUSION: conflict and testing in the "Go‘ro‘g‘li" cycle function not merely as plot devices, but as a distinct artistic and pedagogical mechanism through which moral qualities are developed and reinforced via personal experience.

Keywords: diagnostics, analytic rubric, criterion, descriptor, pedagogical discourse, scenario task, validity

Pedagogik diskurs kompetensiyasini baholashda eng katta xato uni chet tilini bilish testi bilan tenglashtirishdir. Yuqori grammatik va leksik natijaga ega talaba noaniq ko‘rsatma berishi, o‘quvchi javobini tinglamasligi yoki xatoni ruhiy bosimga aylantirishi mumkin. Aksincha, tildagi ayrim kamchiliklarga qaramay, o‘qituvchi ma’noni samarali qurishi, ishtirokni boshqarishi va o‘quvchini keyingi qadamga yo‘naltirishi mumkin. Demak, baholash obyekti til mahsuloti emas, pedagogik maqsadga xizmat qiluvchi diskursiv bajarishdir.

Kompetensiyaviy baholash kuzatiladigan harakat, vaziyat va sifat mezonlari o‘rtasida aniq aloqa bo‘lishini talab qiladi. “Nutqi ravon”, “muloqoti yaxshi” yoki “pedagogik mahorati yetarli” kabi umumiy tavsiflar baholovchilar o‘rtasida bir xil talqin qilinmaydi va talaba uchun rivojlanish yo‘lini ko‘rsatmaydi. Shu sababli mezonlar funksional, deskriptorlar esa dalilga bog‘langan bo‘lishi kerak.

CEFR deskriptorlari kommunikativ faoliyatni “nima qila oladi?” shaklida ifodalashning samarali namunasini beradi. Biroq ularni o‘qituvchi kasbiy diskursiga bevosita ko‘chirish yetarli emas, chunki pedagogik vaziyatda ishtirokni boshqarish, baholash vakolati, axloqiy xavfsizlik va refleksiv o‘zgarish alohida ahamiyatga ega. Maxsus rubrika shu kasbiy qo‘shimchalarni aks ettirishi lozim.

Tadqiqotning maqsadi pedagogik diskurs kompetensiyasining analitik mezonlari, daraja deskriptorlari va baholash dalillari tizimini ishlab chiqishdan iborat. Savol shunday

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

qo‘yildi: bo‘lajak o‘qituvchining pedagogik nutqini shaxsiy uslubga aralashmasdan, aniq va rivojlantiruvchi tarzda qanday baholash mumkin?

Mazkur maqolaning dissertatsiyadagi alohida muammosi - pedagogik diskursni umumiy til darajasi yoki subyektiv taassurot bilan baholash. Shu bois tadqiqot doirasi aniq chegaralandi: u kompetensiyani rivojlantirish texnologiyasini bayon qilish emas, kuzatiladigan bajarish dalillarini mezon va deskriptorlarga aylantirish. Bunday chegaralash bir xil 'pedagogik diskurs kompetensiyasi' atamasi ostida turli maqolalarda aynan bir natijani takrorlashning oldini oladi va ushbu ishning mustaqil ilmiy vazifasini belgilaydi.

Tahlil birligi sifatida maqsadga muvofiqlik, ma'no skaffoldingi, interaktiv javobchanlik, rivojlantiruvchi qayta aloqa, inklyuziv-etik moslik va refleksiv qayta loyihalash olindi. Manbalardagi fikrlar mavzuga yaqinligi uchun emas, aynan shu birlikni izohlash quvvatiga ko'ra saralandi. Har bir nazariy hukmning kasbiy tayyorgarlikdagi amaliy oqibati, uni kuzatish mumkin bo'lgan belgisi va noto'g'ri qo'llanganda yuzaga keladigan xavfi qayd etildi. Natijada terminlarni ko'paytirishdan ko'ra, sabab - pedagogik harakat - kuzatiladigan oqibat zanjirini tiklashga ustuvorlik berildi.

Tadqiqot vositasi sifatida analitik rubrika va vaziyatli bajarish topshirig'i ishlab chiqildi. Uning mazmuniy validligi uch savol bilan tekshirildi: vosita maqolada qo'yilgan muammoni bevosita ochadimi; talabaning kuzatiladigan kasbiy harakatini yuzaga chiqaradimi; olingan dalil asosida keyingi pedagogik qarorni qabul qilish mumkinmi. Shu mezonlar nazariy tavsif bilan amaliy topshiriq o'rtasidagi uzilishni kamaytiradi.

Tadqiqotda dalilga asoslangan baholash dizayni qo‘llandi. Avval baholanadigan konstruksiya va uning komponentlari aniqlandi; keyin ushbu komponentlar qaysi vazifalarda namoyon bo‘lishi va qanday mahsulot dalil bo‘lishi belgilandi. Material sifatida CEFR va EPOSTL deskriptorlari, sinf diskursi tahlili, formatif baholash hamda qayta aloqa nazariyalari olindi.

Mezonlarni ishlab chiqishda to‘rtta talab qo‘yildi: bevosita kuzatilish; pedagogik maqsadga aloqadorlik; turli dars mavzulariga ko‘chirilish; talaba uchun keyingi rivojlanish qadamini ko‘rsatish. Darajalar xatolar soni bilan emas, nutqiy harakatning mustaqilligi, vaziyatga moslashuvi va dalil asosida qayta loyihalanishi bilan farqlantirildi.

Baholashning bitta topshiriqqa qaram bo‘lib qolmasligi uchun ko‘p manbali dalil tamoyili qabul qilindi: vaziyatli yozma yechim, mikrodars videosi, izohlangan transkript va refleksiv qayta reja. Mazkur maqola rubrikaning konseptual versiyasini taqdim etadi; baholovchilararo ishonchlilik va statistik validlik keyingi empirik bosqichda tekshirilishi kerak.

Tahlil natijasida muammoning ichki tuzilmasi to'rtta o'zaro bog'langan yo'nalishda ochildi: reproduktiv bajarish; vaziyatga bog'liq tanlov; adaptiv javob; transformativ qayta loyihalash. Ular oddiy bosqichlar ro'yxati emas. Har bir yo'nalish oldingisida hosil bo'lgan ma'lumotni yangi kasbiy qarorga aylantiradi, oxirgi yo'nalish esa dastlabki qarorning vaziyatga mosligini qayta tekshirish imkonini beradi.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

Birinchi yo'nalish - reproduktiv bajarish - talabaning vaziyatni tayyor stereotip orqali emas, pedagogik maqsad va mavjud to'siq nuqtayi nazaridan o'qishini talab qiladi. Bu yerda asosiy mahsulot yakuniy replika emas, vaziyatning funksional tashxisidir. Tashxis aniq bo'lmasa, tashqi tomondan chiroyli nutqiy vosita ham o'quvchi ehtiyojiga mos kelmasligi mumkin.

Ikkinchi yo'nalish, ya'ni vaziyatga bog'liq tanlov, bitta avtomatik yechimdan voz kechishni ko'zda tutadi. Talaba kamida ikki-uch variantning pedagogik foydasi, ehtimoliy cheklovi va o'quvchi uchun yaratadigan imkoniyatini qiyoslaydi. Variantlar grammatik shakliga qarab emas, maqsadga xizmat qilishi va keyingi o'quvchi harakatini ochishiga qarab tanlanadi.

Uchinchi yo'nalishda adaptiv javob nazariy fikrni bajarish daliliga aylantiradi. Masalan, bir xil grammatik jihatdan to'g'ri savolning o'quvchi javobini ochishi yoki yopishini keyingi navbat dalili bilan farqlash. Ushbu vaziyatda qarorning sifati o'qituvchining niyati bilangina belgilanmaydi; o'quvchining navbatdagi javobi, topshiriqni boshlashi, fikrini kengaytirishi yoki muloqotdan chekinishi ham tahlilga kiritiladi.

To'rtinchi yo'nalish - transformativ qayta loyihalash - birinchi bajarishni yakuniy natija deb qabul qilmaydi. Talaba dalilni ko'rib, dastlabki taxminini saqlashi, aniqlashtirishi yoki rad etishi mumkin. Shu tariqa refleksiya 'menga yoqdi - yoqmadi' shaklidagi umumiy taassurotdan chiqib, qaror va oqibat o'rtasidagi aloqani qayta loyihalash faoliyatiga aylanadi.

Taklif etilgan yechimning markaziy ko'rsatkichi videoepizod, transkript, ssenariy yechimi, talaba izohi va qayta bajarish natijasining triangulyatsiyasi hisoblanadi. Bu dalil alohida replikaning mavjudligini sanash bilan cheklanmaydi. U nutqiy harakatning qayerda, nima maqsadda qo'llangani, undan keyin o'quvchi uchun qanday imkoniyat ochilgani va talaba bu oqibatni qanday izohlaganini bir butun holda ko'rishni talab qiladi.

Birinchi mezon — maqsadga muvofiqlik — o‘qituvchi nutqining dars maqsadi va o‘quvchi bajarishi kerak bo‘lgan kognitiv harakatga mosligini baholaydi. Bu mezonda grammatik to‘g‘rilik yordamchi belgidir; asosiy savol o‘qituvchi iborasi o‘quvchini eslash, taqqoslash, asoslash yoki yaratish kabi ko‘zlangan faoliyatga olib boryaptimi, degan masaladir.

Ikkinchi mezon — ma’no skaffoldingi — murakkab mazmunni segmentlash, qayta ifodalash, misol va vizual ishora bilan tayanchlash hamda o‘quvchi mustaqillashgani sari yordamni kamaytirishni qamrab oladi. Uchinchi mezon — interaktiv javobchanlik — oldindan tayyorlangan skriptga rioya qilishdan ko‘ra, o‘quvchining real javobini tinglash, mazmunini tan olish va keyingi harakatni shu javobga mos qurishni baholaydi.

To‘rtinchi mezon — rivojlantiruvchi qayta aloqa — bahoning aniqligi, mezon bilan bog‘lanishi va keyingi amaliy qadamni ko‘rsatishiga e’tibor beradi. Beshinchi mezon — inklyuziv-etik moslik — yuzni saqlash, kamsitmaslik, javob berish xavfsizligi, til va madaniy xilma-xillikka hurmat hamda ishtirok imkoniyatining adolatli taqsimlanishini qamrab oladi.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

Oltinchi mezon — refleksiv qayta loyihalash — talabaning o‘z diskursini aniq dalil bilan tahlil qilishi va muqobil yechimni asoslab berishini baholaydi.

Darajalar reproduktiv, vaziyatga bog‘liq, adaptiv va transformativ deb nomlandi. Reproduktiv darajada talaba tayyor formulani eslaydi, lekin vaziyatga moslashtirishda qiynaladi. Vaziyatga bog‘liq darajada tanish ssenariyda maqsadga mos harakat qiladi. Adaptiv darajada kutilmagan o‘quvchi javobiga ko‘ra nutqiy strategiyani o‘zgartiradi. Transformativ darajada esa o‘z faoliyatini dalil asosida tahlil qilib, yangi kontekst uchun asoslangan diskurs yechimini yaratadi.

Har bir daraja uchun “doimo”, “yaxshi” kabi noaniq sifatlar o‘rniga kuzatiladigan fe’llar qo‘llandi: ajratadi, tanlaydi, qayta ifodalaydi, kutadi, kengaytiradi, mezon bilan bog‘laydi, moslashtiradi va qayta loyihalaydi. Rubrikaning yangi jihati til shakli va pedagogik samarani aralashtirmasdan, ularni alohida, lekin bog‘langan dalillar sifatida ko‘rishidir.

1-jadval. Pedagogik diskurs kompetensiyasining daraja mantiqi

Daraja	Tanlov xususiyati	Vaziyatga munosabat	Refleksiya
Reproduktiv	Tayyor formula	Moslashtirish cheklangan	Umumiy taassurot
Vaziyatga bog‘liq	Tanish ssenariyga mos	Kutilgan javobni boshqaradi	Mezonni qisman qo‘llaydi
Adaptiv	Muqobil strategiyadan tanlaydi	Kutilmagan javobga moslashadi	Aniq dalilni izohlaydi
Transformativ	Yangi yechim yaratadi va asoslaydi	Strategiyani yangi kontekstga ko‘chiradi	Diskursni dalil asosida qayta loyihalaydi

Olingan natijaning ilmiy ahamiyati baholash obyektini til shaklidan pedagogik ta'sir va asoslangan qarorga ko'chirish bilan belgilanadi. Shu jihat uni to'plamdagi boshqa maqolalardan ajratadi: mazkur ish umumiy mavzuni yana bir bor bayon qilmaydi, balki dissertatsiya konstruksiyasining faqat o'ziga biriktirilgan bo'g'inini chuqurlashtiradi. Boshqa maqolalarda ishlab chiqilgan model, mezon yoki texnologiya bu yerda natija sifatida da'vo qilinmaydi.

Amaliyotda analitik rubrika va vaziyatli bajarish topshirig'i auditoriya mashg'uloti, mikrodars yoki pedagogik amaliyotdan keyingi tahlilga moslashtirilishi mumkin. O'qituvchi dastlab vaziyat va maqsadni beradi, talabalar individual qaror tayyorlaydi, keyin kichik guruhda variantlar oqibati qiyoslanadi. Yakunda tanlangan yechim bajarilib, faqat kuzatilgan dalil asosida qayta ko'rib chiqiladi. Bu tartib tayyor javobni o'qituvchidan kutish odatini kamaytiradi.

Natijani qo'llashda kontekst chegarasi saqlanishi zarur. Bir vaziyatda samarali bo'lgan diskurs yurishi boshqa yosh guruhi, til darajasi yoki munosabat tarixida ayni ta'sirni bermasligi mumkin. Shuning uchun taklif etilgan vosita qat'iy retsept emas, asoslangan

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

tanlovni tashkil etuvchi ramka sifatida talqin qilinadi. Uning qiymati bir xil javob ishlab chiqarishda emas, qaror sababini va oqibatini ko'rinadigan qilishdadir.

Keyingi empirik tekshiruvda videoepizod, transkript, ssenariy yechimi, talaba izohi va qayta bajarish natijasining triangulyatsiyasi bir nechta vaqt nuqtasida to'planishi maqsadga muvofiq. Ekspert bahosi bilan bir qatorda talabaning izohi va o'quvchi javobini qo'shish natijani faqat tashqi kuzatuvga bog'lab qo'ymaydi. Shuningdek, bir martalik muvaffaqiyatdan ko'ra yangi vaziyatda saqlanadigan o'zgarishni aniqlash kompetensiyaning haqiqiy transferini ko'rsatadi.

J.J. Jalolov chet til ta'limida nazoratni til materiali haqidagi bilimni qayd etish bilan cheklamay, tinglab tushunish, gapirish, o‘qish va yozishdagi amaliy bajarish bilan bog‘laydi. N.A. Muslimov va hammualliflarning kompetentlikka doir yondashuvida ham natija kasbiy vazifani mustaqil va maqbul usulda hal qilish orqali aniqlanadi. B.X. Xodjayev pedagogik baholashning rivojlantiruvchi vazifasiga urg‘u beradi. Shu sababli taklif etilgan rubrikada grammatik to‘g‘rilik mustaqil yakuniy mezon sifatida emas, pedagogik maqsad, o‘quvchi javobiga moslashish va refleksiv qayta loyihalash bilan birgalikda baholanadi.

Analitik rubrika yaxlit taassurotga asoslangan baholashdan ko‘ra, rivojlanish profilini ko‘rsatadi. Talaba maqsadga muvofiqlik bo‘yicha adaptiv, ammo qayta aloqa bo‘yicha vaziyatga bog‘liq darajada bo‘lishi mumkin. Bunday profil individual o‘quv vazifasini tanlash va qayta mikrodarsni rejalashtirish uchun aniq asos beradi.

Baholashning validligi topshiriqning autentikligiga bog‘liq. Faqat yozma test talabaning real vaqt bosimi ostida tinglash va moslashish qobiliyatini ko‘rsatmaydi; faqat bitta mikrodars esa tasodifiy mavzu yoki guruh ta’siriga berilishi mumkin. Shu sababli vaziyatli yechim, bajarish va refleksiya triangulyatsiyasi konstruksiyaning turli qatlamlarini qamrab oladi.

Rubrika aksent, ovoz tembri yoki shaxsiy ekstroversiyani kasbiy sifat bilan tenglashtirmasligi lozim. Baholovchilar deskriptor bo‘yicha kalibrlanishi, bir xil video namunalarini muhokama qilishi va dalilni aniq vaqt belgisi bilan ko‘rsatishi zarur. Keyingi tadqiqotda ekspert validligi, baholovchilararo kelishuv va darajalar tuzilmasi statistik tekshiruvdan o‘tkazilishi kerak.

Pedagogik diskurs kompetensiyasini baholash uchun oltita analitik mezon va to‘rt darajali deskriptor tizimi ishlab chiqildi. Ko‘p manbali dalil — vaziyatli topshiriq, mikrodars, transkript va qayta reja — til bilish bilan kasbiy pedagogik bajarishni farqlash imkonini beradi. Taklif etilgan rubrika yakuniy hukm chiqarishdan tashqari, individual rivojlanish yo‘lini belgilovchi formatif vosita sifatida xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Council of Europe. CEFR Companion Volume. Strasbourg, 2020.
2. Newby D. et al. European Portfolio for Student Teachers of Languages. Graz: ECML, 2007.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

3. Messick S. Validity of psychological assessment // American Psychologist. 1995. Vol. 50(9). P. 741–749.
4. Mislevy R.J., Steinberg L.S., Almond R.G. On the structure of educational assessments // Measurement. 2003. Vol. 1(1). P. 3–62.
5. Brookhart S.M. How to Create and Use Rubrics for Formative Assessment and Grading. Alexandria, VA: ASCD, 2013.
6. Black P., Wiliam D. Assessment and classroom learning // Assessment in Education. 1998. Vol. 5(1). P. 7–74. DOI: 10.1080/0969595980050102.
7. Hattie J., Timperley H. The power of feedback // Review of Educational Research. 2007. Vol. 77(1). P. 81–112.
8. Walsh S. Exploring Classroom Discourse. London: Routledge, 2011.
9. Kane M.T. Validating the interpretations and uses of test scores // Journal of Educational Measurement. 2013. Vol. 50(1). P. 1–73.
10. Jonsson A., Svingby G. The use of scoring rubrics: Reliability, validity and educational consequences // Educational Research Review. 2007. Vol. 2(2). P. 130–144.
11. Jalolov J.J. Chet til o‘qitish metodikasi. - Toshkent: O‘qituvchi, 2012. - 432 b.
12. Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M., To‘rayev A.B. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari. - Toshkent: Sano-standart, 2015. - 120 b.
13. Xodjayev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. - Toshkent: Sano-standart, 2017. - 418 b.

© intereduglobalstudy.com

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

GLOBALLASHUV SHAROITIDA TALABALARDA MA'NAVIY IMMUNITETNI SHAKLLANTIRISHNING AKSIOLOGIK ASOSLARI.

Mirzayeva Nargiza Lyuptiyevna, Qarshi davlat universiteti o'qituvchisi.

Annotatsiya

KIRISH: mazkur maqolada globallashuv sharoitida talabalar ma'naviy immunitetini shakllantirishning aksiologik asoslari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Zamonaviy jamiyatda yuzaga kelayotgan mafkuraviy tahdidlar, axborot oqimlarining keskin ortishi va madaniy integratsiya jarayonlari yoshlar ma'naviyatiga bevosita ta'sir ko'rsatishi yoritiladi. Shuningdek, oliy ta'lim tizimida ma'naviy immunitetni mustahkamlashga xizmat qiluvchi pedagogik shart-sharoitlar va samarali metodlar asoslab berilgan.

MAQSAD: oliy ta'lim tizimida ideologik tahdidlar va axborot xurujlariga qarshi talabalarda ma'naviy immunitetni mustahkamlashga xizmat qiluvchi aksiologik yondashuv hamda samarali pedagogik shart-sharoitlarni ilmiy-nazariy jihatdan asoslab berishdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda tizimli yondashuv, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim tamoyillari, individual-psixologik diagnostika, differensial yondashuv, fassilitatsiya hamda mentorlik metodlaridan foydalanildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: ma'naviy immunitet uch komponentli (kognitiv, emotsional-aksiologik va faoliyatli) model doirasida tahlil qilinib, an'anaviy tarbiya metodlariga nisbatan shaxsga yo'naltirilgan interaktiv pedagogik strategiyalar va xavfsiz ta'lim muhiti talabalarning tanqidiy fikrlash hamda metakognitiv ko'nikmalarini samaraliroq rivojlantirishi isbotlandi.

XULOSA: aksiologik yondashuv va transformatsion pedagogik strategiyalar talabani passiv axborot qabul qiluvchidan mustaqil fikrlovchi faol subyektga aylantirib, globallashuv sharoitida uning ma'naviy hamda psixologik barqarorligini ta'minlaydi.

Kalit so'zlar: globallashuv, ma'naviy immunitet, aksiologik yondashuv, qadriyatlar, talaba-yoshlar, ma'naviy tarbiya, pedagogik asoslar, axborot tahdidlari, tanqidiy fikrlash, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, ta'lim jarayoni, innovatsion metodlar

АКСИОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ ДУХОВНОГО ИММУНИТЕТА У СТУДЕНТОВ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ.

Мирзаева Наргиза Люптьевна, преподаватель Каршинского государственного университета.

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в данной статье научно-теоретически анализируются аксиологические основы формирования духовного иммунитета у студентов в условиях глобализации. Освещается влияние идеологических угроз, возникающих в современном обществе, стремительного роста информационных потоков и

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

процессов культурной интеграции на духовность молодежи. Также обоснованы педагогические условия и эффективные методы, способствующие укреплению духовного иммунитета в системе высшего образования.

ЦЕЛЬ: научно обосновать аксиологический подход и эффективные педагогические условия, способствующие укреплению духовного иммунитета студентов высших учебных заведений перед лицом идеологических угроз и информационных атак.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании использованы системный подход, принципы личностно-ориентированного обучения, индивидуально-психологическая диагностика, дифференцированный подход, методы фасилитации и менторства.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: духовный иммунитет проанализирован в рамках трехкомпонентной модели (когнитивный, эмоционально-аксиологический и деятельностный); доказано, что интерактивные педагогические стратегии и безопасная образовательная среда более эффективно развивают критическое мышление и метакогнитивные навыки, чем традиционные методы воспитания.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: аксиологический подход и трансформационные педагогические стратегии превращают студента из пассивного получателя информации в активного субъекта с самостоятельным мышлением, обеспечивая его духовную и психологическую устойчивость в условиях глобализации.

Ключевые слова: глобализация, духовный иммунитет, аксиологический подход, ценности, студенты, духовное воспитание, педагогические основы, информационные угрозы, критическое мышление, национальные и общечеловеческие ценности, образовательный процесс, инновационные методы.

AXIOLOGICAL FOUNDATIONS OF FORMING SPIRITUAL IMMUNITY IN STUDENTS IN THE CONTEXT OF GLOBALIZATION.

Mirzayeva Nargiza Lyuptiyevna, Lecturer at Karshi State University.

Annotation

INTRODUCTION: this article analyzes the axiological foundations of forming students' spiritual immunity in the context of globalization from a scientific and theoretical perspective. It highlights how ideological threats emerging in modern society, the rapid growth of information flows, and processes of cultural integration directly influence the spirituality of young people. The study also substantiates pedagogical conditions and effective methods that contribute to strengthening spiritual immunity within the higher education system.

AIM: to provide a scientific and theoretical substantiation for the axiological approach and effective pedagogical conditions that serve to strengthen students' spiritual immunity against ideological threats and information attacks in higher education.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

MATERIALS AND METHODS: the study utilized a systematic approach, principles of student-centered learning, individual psychological diagnostics, a differentiated approach, along with facilitation and mentoring methods.

DISCUSSION AND RESULTS: spiritual immunity was analyzed within a three-component model (cognitive, emotional-axiological, and behavioral); interactive pedagogical strategies and a safe learning environment were proved to be more effective than traditional educational methods in developing students' critical thinking and metacognitive skills.

CONCLUSION: the axiological approach and transformational pedagogical strategies transform the student from a passive recipient of information into an active subject with independent thinking, ensuring their spiritual and psychological resilience under globalization.

Keywords: globalization, spiritual immunity, axiological approach, values, students, spiritual education, pedagogical foundations, information threats, critical thinking, national and universal values, educational process, innovative methods

XXI asr insoniyat sivilizatsiyasida globallashuv jarayonlari va axborotlashgan jamiyat taraqqiyoti bilan tavsiflanadigan muhim tarixiy bosqichni tashkil etadi. Raqamli texnologiyalar, global kommunikatsiya va ijtimoiy tarmoqlarning jadal rivojlanishi natijasida insonlar o‘rtasidagi axborot almashinuvi kengayib, ayniqsa talaba-yoshlar uchun bilim olish va o‘z salohiyatini rivojlantirish imkoniyatlari yanada ortmoqda. Shu bilan birga, ushbu jarayonlar bilan bog‘liq holda turli mafkuraviy tahdidlar, destruktiv g‘oyalar va manipulyativ axborotlarning kuchayishi yoshlar ongiga salbiy ta’sir ko‘rsatish xavfini ham yuzaga keltirmoqda. Zamonaviy global axborot makonining transchegaraviy xususiyati, shuningdek, “ommaviy madaniyat” niqobi ostida kirib kelayotgan begona va yot qadriyatlar talaba-yoshlarning ma’naviy dunyoqarashi hamda qadriyatlar tizimiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Bu esa ularning milliy va umuminsoniy qadriyatlarga bo‘lgan munosabatining zaiflashishiga, axborotni tanqidiy tahlil qilish qobiliyatining pasayishiga olib kelmoqda. Globallashuv sharoitida talabalarda ma’naviy immunitetni shakllantirish masalasi alohida dolzarb ahamiyat kasb etadi. Aksiologik yondashuv asosida yoshlarning ongida mustahkam qadriyatlar tizimini shakllantirish, ularda tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish hamda turli mafkuraviy tahdidlarga nisbatan barqaror qarashlarni yuzaga keltirish zamonaviy ta’lim-tarbiya jarayonining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi.

Hozirgi globallashuv va axborotlashuv sharoitida ta’lim tizimi zimmasiga yuklanayotgan eng muhim vazifalardan biri — talabalarda mustaqil fikrlashga asoslangan, tashqi axborot oqimlarini ongli ravishda saralashga qodir bo‘lgan ichki “ma’naviy filtr”ni shakllantirishdir. Bu esa ta’lim-tarbiya jarayonini an’anaviy, biryoqlama yondashuvlardan voz kechgan holda, zamonaviy pedagogik konsepsiyalar asosida, ayniqsa shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim modeli doirasida tashkil etishni talab etadi. Bunday yondashuv

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

talabaning individual xususiyatlari, ijtimoiy muhiti hamda psixologik rivojlanish darajasini inobatga olgan holda uning ma'naviy barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Talabalarda ma'naviy immunitetni shakllantirish bir qator o'zaro bog'liq pedagogik asoslar orqali amalga oshiriladi. Avvalo, individual-psixologik yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu yondashuv doirasida har bir talabaning shaxsiy xususiyatlari, axborotni qabul qilish va qayta ishlash darajasi, ichki motivatsiyasi o'rganiladi. Natijada, talaba o'zining ichki dunyoqarashiga tayangan holda turli destruktiv axborot ta'sirlariga nisbatan mustahkam pozitsiyani egallash imkoniga ega bo'ladi. Shuningdek, tizimli pedagogik yondashuv ham muhim metodologik asos sifatida namoyon bo'ladi. Bu yondashuvga ko'ra, ma'naviy immunitet shaxs va uning ijtimoiy-madaniy muhiti o'rtasidagi uzviy aloqadorlikda shakllanadigan murakkab tizim sifatida qaraladi. Ta'lim jarayonida qo'llaniladigan barcha pedagogik vositalar va usullar o'zaro uyg'unlashgan holda talabaning kognitiv, emotsional va amaliy jihatlariga kompleks ta'sir ko'rsatadi. Kognitiv yondashuv esa talabaning faqat axborotni qabul qiluvchi emas, balki uni tahlil qiluvchi, baholovchi va tanlab oluvchi faol subyekt sifatida shakllanishiga qaratilgan. Bu jarayonda tarixiy xotira, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni chuqur anglash, shuningdek, media savodxonlikni rivojlantirish muhim o'rin tutadi. Aynan shu ko'nikmalar orqali talaba axborot makonidagi turli xil manipulyativ ta'sirlarga nisbatan ongli munosabat bildira oladi. Bundan tashqari, emotsional-aksiologik va faol komponentlar ham ma'naviy immunitetni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Bu jarayonda talabaning o'z qadr-qimmatini anglash, milliy madaniyat va qadriyatlarga nisbatan ijobiy hissiy munosabatni shakllantirish, yot g'oyalarga nisbatan esa tanqidiy yondashuvni rivojlantirish nazarda tutiladi. Shu bilan birga, real hayotiy vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish va axborot xurujlariga qarshi amaliy harakat qilish ko'nikmalari ham shakllantiriladi.

Mazkur tadqiqotda talaba-yoshlarning ma'naviy immunitetini shakllantirishga qaratilgan kompleks pedagogik yondashuvlar qo'llanildi. Tadqiqotning metodologik asosini tizimli yondashuv, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim tamoyillari, individual-psixologik tahlil, fassilitatsiya va mentorlik metodlari tashkil etdi. Shuningdek, kreativ va xavfsiz ta'lim muhitini yaratish orqali talabalarning mustaqil fikrlashini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratildi.

Tadqiqot jarayoni bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan to'rtta asosiy bosqich asosida tashkil etildi:

1. Individual-psixologik diagnostika bosqichi: Dastlabki bosqichda talabalar shaxsining individual xususiyatlarini aniqlash maqsadida kompleks diagnostik tahlil o'tkazildi. Bu jarayonda psixologik testlar, so'rovnomalar, individual suhbatlar va talabalarning ijtimoiy faolligini kuzatish usullaridan foydalanildi. Ushbu bosqichning asosiy vazifasi talabalarning axborotni qabul qilish darajasi, kognitiv rivojlanish xususiyatlari hamda ularning ijtimoiy muhitini tahlil qilish orqali "axborot portreti"ni shakllantirishdan iborat bo'ldi. Natijada, har bir talabaning axborotga nisbatan munosabati, tanqidiy fikrlash darajasi va ehtimoliy "zaif jihatlari" aniqlanib, individual pedagogik yondashuvni ishlab

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

chiqish imkoniyati yaratildi. Mazkur bosqich shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim tamoyillarini amaliyotga tatbiq etish uchun muhim asos bo‘lib xizmat qildi.

2. Differensial yondashuv bosqichi: Ikkinchi bosqichda talabalar ularning individual xususiyatlari, qiziqishlari va bilim darajasiga qarab kichik guruhlarga ajratildi. Differensial yondashuv asosida tashkil etilgan faoliyatlar orqali har bir talabaga o‘z salohiyatini namoyon etish uchun qulay sharoit yaratildi.

Bu jarayonda guruhli muhokamalar, interaktiv topshiriqlar, muammoli vaziyatlarni hal etish kabi metodlardan foydalanildi. Natijada talabalar o‘zaro fikr almashish, turli nuqtai nazarlarni qabul qilish va konstruktiv muloqot olib borish ko‘nikmalarini rivojlantirdi. Mazkur yondashuv talabalarning ichki motivatsiyasini oshirib, ularning mustaqil fikrlashini faollashtirdi.

3. Fassilitatsiya va mentorlik bosqichi: Uchinchi bosqichda pedagogning roli an’anaviy ma’ruza beruvchidan ko‘ra yo‘naltiruvchi va hamkor sifatida qayta talqin qilindi. Fassilitatsiya va mentorlik yondashuvlari asosida talabalar faol ishtirokchi sifatida jalb etildi. Bu jarayonda savol-javob, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, individual maslahatlar va refleksiv muhokamalar orqali talabalarning tanqidiy va metakognitiv fikrlash qobiliyatlari rivojlantirildi. Natijada talabalar mustaqil qaror qabul qilish, o‘z fikrini asoslash va boshqalar nuqtai nazarini anglash ko‘nikmalariga ega bo‘ldi. Ushbu bosqich talabaning ichki motivatsiyasini mustahkamlash va axborotga ongli yondashuvni shakllantirishda muhim rol o‘ynadi.

4. Kreativ va xavfsiz ta’lim muhitini shakllantirish bosqichi: So‘nggi bosqichda talabalarning erkin fikr almashishi va ijodiy faoliyatini qo‘llab-quvvatlovchi pedagogik muhit yaratildi. Bunda interaktiv mashg‘ulotlar, rol o‘yinlari, debatlar, simulyatsiyalar va loyihaviy faoliyatlardan keng foydalanildi. Mazkur yondashuv talabalarda mustaqil fikrlash, o‘z qarashlarini asoslash va boshqalar fikriga hurmat bilan yondashish ko‘nikmalarini rivojlantirdi. Natijada talabalar axborot oqimlarini tanqidiy tahlil qilish, manipulyativ ta’sirlarga nisbatan ongli munosabat bildirish va ijtimoiy muhitda faol pozitsiyani egallashga o‘rgandi.

Tadqiqot jarayonida ma’naviy (madaniy) immunitet uch asosiy komponent asosida tahlil qilindi:

- Kognitiv komponent – bilimlar tizimi, tanqidiy fikrlash va media savodxonlik ko‘nikmalarini rivojlantirish;
- Emotsional-aksiologik komponent – qadriyatlarga nisbatan ongli munosabatni shakllantirish, milliy o‘zlikni anglash va hissiy barqarorlikni ta’minlash;
- Faoliyatli komponent – real hayotda, xususan, raqamli makonda turli axborot xurujlariga nisbatan amaliy qarshilik ko‘rsatish ko‘nikmalarini rivojlantirish.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, talabalarda ma’naviy (madaniy) immunitetni shakllantirish jarayonida individual yondashuv hamda interaktiv pedagogik strategiyalar yuqori samaradorlikka ega hisoblanadi. Ushbu yondashuvlar asosida tashkil etilgan ta’lim jarayonida talabaning roli sezilarli darajada o‘zgarib, u axborotni passiv qabul qiluvchi

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

subyektdan uni tanqidiy tahlil qiluvchi va ongli ravishda saralovchi faol ishtirokchiga aylanadi. Olib borilgan tahlillar kognitiv komponentning rivojlanishi talabalarda tarixiy xotira, milliy o‘zlik va madaniy merosni chuqur anglash imkoniyatini kengaytirishini ko‘rsatdi. Bu esa axborot oqimlarini tanqidiy baholashga xizmat qiluvchi intellektual asosni shakllantiradi. Emotsional-aksiologik komponent esa talabalarning ichki motivatsiyasini kuchaytirib, milliy qadriyatlarga nisbatan ijobiy munosabat va o‘z madaniyatiga hurmat hissini rivojlantiradi. Shu bilan birga, tashqi destruktiv g‘oyalarga nisbatan tanqidiy munosabat va barqaror qadriyatlar tizimi shakllanishiga zamin yaratadi. Xulq-atvor (faoliyatli) komponentning rivojlanishi esa amaliy faoliyat, simulyatsion mashg‘ulotlar va muammoli vaziyatlarni hal etish orqali mustahkamlandi. Bu jarayon talabalarda real hayotiy vaziyatlarda, xususan axborot makonida yuzaga keladigan turli ta’sirlarga nisbatan ongli qarshilik ko‘rsatish va to‘g‘ri xulq-atvor strategiyalarini qo‘llash ko‘nikmalarini shakllantirdi. Tadqiqot davomida aniqlangan transformatsion strategiyalar quyidagilar bilan izohlanadi:

— individual-psixologik profilaktika orqali har bir talabaning axborot qabul qilish xususiyatlari va madaniy savodxonlik darajasi tahlil qilindi;

— mentorlik va fassilitatsiya yondashuvi pedagogning yo‘naltiruvchi rolini kuchaytirib, talabaning mustaqil fikrlashini qo‘llab-quvvatladi;

— kreativ pedagogik muhit esa talabalarga o‘z fikr va qarashlarini erkin ifoda etish, munozara va muloqotda faol ishtirok etish imkonini berdi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, an’anaviy ommaviy tarbiya metodlari talabalarda madaniy immunitetni shakllantirish jarayonida yetarli darajada samaradorlikka ega emas. Zamonaviy axborot makonining murakkabligi va axborot oqimlarining tezkorligi sharoitida shaxsga yo‘naltirilgan, individual-psixologik yondashuvga asoslangan pedagogik strategiyalar ko‘proq natija berishi aniqlandi. Ushbu yondashuv talabaning shaxsiy xususiyatlari, dunyoqarashi hamda ijtimoiy muhitini hisobga olish orqali ta’lim samaradorligini oshiradi. Pedagogik strategiyalarning transformatsiyasi natijasida talaba ta’lim jarayonida faol subyekt sifatida shakllanadi. U axborotni faqat qabul qiluvchi emas, balki uni tahlil qiluvchi, tanqidiy baholovchi va qayta ishlovchi shaxsga aylanadi. Shu orqali metakognitiv ko‘nikmalar rivojlanib, talabaning mustaqil fikrlash va qaror qabul qilish qobiliyati mustahkamlanadi. Mazkur yondashuv ta’lim jarayonining insonparvarlashuviga xizmat qiladi, ya’ni talabaning shaxsiy e’tiqodi va ichki qadriyatlariga tayanilgan holda ma’naviy tanlov qilish imkoniyati kengayadi. Natijada talabaning ichki ma’naviy salohiyati faollashib, u axborot xurujlari va tashqi ta’sirlarga nisbatan psixologik barqarorlik (resilience) darajasini oshiradi.

Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, talaba-yoshlarning madaniy immunitetini shakllantirish jarayonida individual-psixologik yondashuv hamda interaktiv pedagogik strategiyalar alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu yondashuvlar ta’lim jarayonini zamonaviy talablar asosida tashkil etish, shuningdek, talabaning shaxs sifatida har tomonlama rivojlanishini ta’minlash imkonini beradi. Transformatsion pedagogik strategiyalar natijasida talaba an’anaviy passiv axborot qabul qiluvchidan faol, mustaqil fikrlovchi va

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

tanqidiy yondashuvga ega subyektga aylanadi. Bu esa uning axborotni ongli tahlil qilish, baholash va saralash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Tadqiqot davomida madaniy immunitetning uch komponentli modeli — kognitiv, emotsional-aksiologik va xulq-atvor komponentlari — samarali metodologik asos sifatida tasdiqlandi. Ushbu model asosida talabalarda milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligi shakllanib, globallashuv jarayonining salbiy ta’sirlariga nisbatan ma’naviy va ijtimoiy barqarorlik kuchayadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Олимов Т. Таълим технологиялари. Монография. -Т.: 2007. -102 б. Народное образование, 1998. - 256 с
2. Сидоренко Е.В. Тренинг коммуникативной компетентности в деловом взаимодействии. –М:. 2006. - 208 с.
3. Eshonjonov B.Z. Migrant oilalar farzandlarida madaniyatlararo kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish / Yangi O’zbekiston yoshlari tarbiyasida milliy qadriyatlar va zamonaviy texnologilalarning o’rni. Respublika ilmiy amaliy konferensiyasi. O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi, 2025. 616-620-bet
4. Eshonjonov B.Z. Migrant oilalar farzandlarining ta’lim samaradorligini oshirishdagi mavjud muammolar /“Zamonaviy uzluksiz ta‟lim: innovatsiya va istiqbollar” respublika ilmiy amaliy konferensiyasi Toshkent:“Metodist nashriyoti”, 2024. 481-483 bet
5. Позднякова Е.П. Развитие метафанных компетенций у младших школьников посредством интерактивных технологий: автореф. дис. канд. пед. наук: 13.00.01/-Челябинск, 2010. - 25 с.

© intereduglobalstudy.com

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

YANGI AVLOD DARSLIKLARI ASOSIDA BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINI MATNLI MASALALARNI YECHISHGA O‘RGATISHNING METODIK MODELINI TAKOMILLASHTIRISH.

Qodirbekova Zeboxon Jasurbek qizi, Andijon davlat pedagogika instituti magistri
qodirbekovaz@gmail.com

Annotatsiya

KIRISH: maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini matnli masalalarni yechishga o‘rgatishni yangi avlod darsliklari asosida takomillashtirish masalasi yoritilgan. Matnli masalalarning didaktik imkoniyatlari tahlil qilinib, o‘quvchilarning matematik fikrlashi va mustaqil yechim topish ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan metodik model taklif etilgan.

MAQSAD: yangi avlod darsliklari imkoniyatlariga tayanib, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini matnli masalalarni yechishga o‘rgatishning takomillashtirilgan metodik modelini ishlab chiqish va uning pedagogik samaradorligini asoslashdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda 1–4-sinf matematika darsliklaridagi matnli masalalarning didaktik tahlili, rivojlantiruvchi ta’lim konsepsiyalari (V.V. Davydov, N.B. Istomina, G.I. Sarantsev) hamda mahalliy metodik qarashlar (N.U. Bikbayeva, M.E. Jumayev) asosida bosqichli modellashtirish va qiyosiy-tahlil usullari qo‘llanildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: matnli masalalar kognitiv yuklama, modellashtirish va mustaqillik mezonlari bo‘yicha sinflar kesimida tahlil qilinib, vaziyatni anglashdan tortib refleksiyagacha bo‘lgan 8 bosqichli izchil metodik ketma-ketlik taklif etildi; bunda bitta masala o‘quvchining bir nechta kompetensiyasini rivojlantiruvchi didaktik birlikka aylantirildi.

XULOSA: taklif etilgan metodik model o‘quvchini tayyor yechim algoritmini qabul qiluvchi passiv ijrochidan masalani mustaqil tahlil qiluvchi va yechimni asoslay oluvchi faol subyektga aylantirish orqali ularning matematik savodxonligini oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich ta’lim, matnli masala, yangi avlod darsliklari, matematik savodxonlik, metodik model, matematik fikrlash.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДИЧЕСКОЙ МОДЕЛИ ОБУЧЕНИЯ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ РЕШЕНИЮ ТЕКСТОВЫХ ЗаДАЧ НА ОСНОВЕ УЧЕБНИКОВ НОВОГО ПОКОЛЕНИЯ.

Кодирбекова Зебохон Жасурбек кизи, магистрант Андижанского государственного педагогического института.

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в статье рассматривается совершенствование обучения учащихся начальных классов решению текстовых задач на основе учебников нового поколения. Проанализированы дидактические возможности текстовых задач и

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

предложена методическая модель, направленная на развитие математического мышления и самостоятельности учащихся.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании использованы методы дидактического анализа текстовых задач учебников математики 1–4 классов, поэтапного моделирования и comparative-анализа на основе концепций развивающего обучения (В.В. Давыдов, Н.Б. Истомина, Г.И. Саранцев) и местных методических трудов (Н.У. Бикбаева, М.Э. Джумаев).

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: проведен анализ текстовых задач по классам с учетом критериев когнитивной нагрузки, моделирования и самостоятельности; предложена 8-этапная методическая последовательность (от осознания ситуации до рефлексии), превращающая отдельную задачу в многофункциональную дидактическую единицу.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: предложенная методическая модель трансформирует учащегося из пассивного исполнителя алгоритмов в активного субъекта, способного самостоятельно анализировать задачу и обосновывать решение, что значительно повышает уровень математической грамотности.

Ключевые слова: начальное образование, текстовая задача, учебники нового поколения, математическая грамотность, методическая модель, математическое мышление.

IMPROVING THE METHODOLOGICAL MODEL FOR TEACHING PRIMARY SCHOOL STUDENTS TO SOLVE WORD PROBLEMS BASED ON NEW GENERATION TEXTBOOKS.

Qodirbekova Zeboxon Jasurbek qizi, Master's Student at Andijan State Pedagogical Institute.

Annotation

INTRODUCTION: the article examines the improvement of teaching primary school pupils to solve word problems based on new-generation mathematics textbooks. The didactic potential of word problems is analyzed, and a methodological model aimed at developing pupils' mathematical thinking and independent problem-solving skills is proposed.

AIM: to develop and substantiate an improved methodological model for teaching primary school students to solve word problems using the capabilities of new-generation textbooks.

MATERIALS AND METHODS: The study applied didactic analysis of word problems from grades 1–4 mathematics textbooks, step-by-step modeling, and comparative methods based on developmental education theories (V.V. Davydov, N.B. Istomina, G.I. Sarantsev) and local methodological frameworks (N.U. Bikbayeva, M.E. Jumayev).

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

DISCUSSION AND RESULTS: word problems were analyzed across grades according to cognitive load, modeling, and autonomy criteria; a sequential 8-stage methodological process (ranging from understanding the situation to reflection) was established, converting a single problem into a complex didactic unit.

CONCLUSION: the proposed methodological model transforms the pupil from a passive recipient of set algorithms into an active learner capable of independent problem analysis and reasoning, thereby fostering higher mathematical literacy.

Keywords: primary education, word problems, new-generation textbooks, mathematical literacy, methodological model, mathematical thinking.

Bugungi kunda boshlang‘ich ta’lim oldida turgan asosiy vazifalardan biri o‘quvchiga matematik bilimlarni berish bilangina cheklanmay, mazkur bilimlardan turli hayotiy vaziyatlarda mustaqil va maqsadli foydalanish ko‘nikmasini shakllantirishdan iborat.

O‘zbekiston Respublikasida ta’lim sifatini oshirish, ta’lim mazmunini zamonaviylashtirish va o‘quvchilarda amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish davlat ta’lim siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilanmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son Farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”da umumiy o‘rta ta’lim tizimini rivojlantirish, ta’lim sifatini oshirish va o‘quvchilarning bilim hamda ko‘nikmalarini rivojlantirish bilan bog‘liq ustuvor vazifalar belgilangan [1].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi PQ-4884-son qarorida ham ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirish, ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish hamda zamonaviy yondashuvlarni rivojlantirishga doir vazifalar belgilangan [2]. Ushbu talablar nuqtayi nazaridan matematika ta’limida o‘quvchining faqat yakuniy javobini emas, balki masalani qanday tushungani, qanday fikr yuritgani va yechimga qanday kelganini hisobga olish muhim metodik masalaga aylanadi.

Matnli masala boshlang‘ich sinf o‘quvchisi uchun matematik mazmunni muayyan vaziyat orqali idrok etish imkonini beradigan o‘quv materiali hisoblanadi. Masalani yechish davomida o‘quvchi berilgan ma’lumotlarni ajratadi, ular o‘rtasidagi munosabatni aniqlaydi, noma’lum miqdorni belgilaydi, tegishli arifmetik amal yoki amallar ketma-ketligini tanlaydi va natijani masala shartiga muvofiq izohlaydi. Demak, masala yechish jarayoni hisoblash faoliyatidan kengroq bo‘lib, o‘quvchining tahliliy va mantiqiy fikrlashini ham faollashtiradi.

Yangi avlod darsliklarining joriy etilishi mazkur masalani qayta ko‘rib chiqish uchun yangi imkoniyatlarni yuzaga keltirmoqda. Bunday darsliklar bilan ishlashda matnli masalani faqat “berilganlarni topish va amal bajarish” shaklida tashkil etish o‘rniga o‘quvchini masala mazmunini sharhlash, turli usullarda ifodalash, yechim variantlarini taqqoslash va natijani asoslashga jalb etish imkoniyatlari kengayadi. Biroq darslikdagi topshiriqning o‘zi

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

avtomatik ravishda samarali metodik natija bermaydi. Uning ta'limiy imkoniyati, avvalo, o'qituvchi tomonidan qanday tanlanishi, izchillashtirilishi va o'quvchining individual qiyinchiliklariga moslashtirilishiga bog'liq.

Muammoning ilmiy-nazariy asoslari. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini matnli masalalarni yechishga o'rgatish masalasi matematika ta'limi metodikasida uzoq yillardan buyon tadqiq etib kelinayotgan yo'nalishlardan biridir. Biroq bugungi ta'lim mazmunining o'zgarishi ushbu masalaga faqat an'anaviy hisoblash faoliyati nuqtayi nazaridan emas, balki o'quvchining fikrlash faoliyati, mustaqil qaror qabul qilishi va matematik bilimlarini yangi vaziyatlarga ko'chira olishi nuqtayi nazaridan yondashishni talab qilmoqda.

"Matnli masala" tushunchasi, avvalo, muayyan hayotiy yoki matematik vaziyatning sonlar va ular orasidagi munosabatlar orqali ifodalangan shakli sifatida qaraladi. Bunda o'quvchi masalada berilgan miqdorlarni shunchaki hisoblab chiqmaydi, balki ular orasidagi bog'lanishni anglaydi va noma'lum miqdorni aniqlash uchun matematik harakatni tanlaydi. Demak, matnli masalaning ta'limiy qiymati uning javobida emas, balki javobga olib boradigan fikrlash jarayonini tashkil etish imkoniyatida namoyon bo'ladi.

Boshlang'ich matematika ta'limi metodikasiga oid tadqiqotlarda masalani yechish jarayonida o'quvchining masala shartini tahlil qilishi, ma'lum va noma'lum miqdorlarni ajratishi, ular o'rtasidagi munosabatni aniqlashi va yechimni asoslay olishi muhimligi ko'rsatiladi. N.U. Bikbayeva va E. Yangiboyevaning boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasiga oid ishlarida matematik bilimlarni o'zlashtirishni masalalar ustida amaliy faoliyat bilan bog'lashga katta e'tibor beriladi [3]. M.E. Jumayevning metodik qarashlarida ham boshlang'ich sinf o'quvchilarida matematik tushunchalarni shakllantirish va ularni masalalar yechish jarayonida qo'llash masalasi izchil o'qitish bilan bog'liq holda qaraladi [4].

Bu jihat V.V. Davydovning rivojlantiruvchi ta'limga oid qarashlari bilan hamohangdir. Uning yondashuvida o'quv faoliyatining muhim jihati bilimning tayyor shaklda qabul qilinishidan ko'ra, o'quvchining bilimni egallash jarayonida umumiy munosabatlarni aniqlashi va ularni turli holatlarda qo'llay olishidir [5]. Matnli masalalarga nisbatan ushbu g'oyani qo'llaydigan bo'lsak, o'quvchi bitta masalaning yechimini yodlab olishi emas, balki masala vaziyatini tahlil qilish orqali uning matematik asosini anglab yetishi muhim bo'ladi.

N.B. Istominaning boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasiga oid qarashlarida ham masala yechish faoliyatining alohida tarkibiy qismlarini izchil shakllantirish masalasiga e'tibor qaratiladi [6]. Bu yondashuv o'quvchining masala shartini tushunishi, yechimni izlash va natijani tekshirish kabi faoliyatlarini bir butun jarayon sifatida tashkil etish zarurligini ko'rsatadi.

G.I. Sarantsevning matematika o'qitish metodikasiga oid ilmiy qarashlarida masala va topshiriqlarning o'quvchining matematik faoliyatini tashkil etishdagi roli alohida ahamiyatga ega. Uning yondashuvlari asosida masalani faqat nazariy bilimni mustahkamlash vositasi sifatida emas, balki matematik faoliyatni rivojlantiruvchi o'quv vositasi sifatida ko'rish mumkin [7].

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

Yuqoridagi qarashlarni o‘zaro taqqoslash shuni ko‘rsatadiki, mahalliy metodik maktabda matnli masalalarni o‘qitish, asosan, o‘quvchining matematik bilimlarini amaliy faoliyatda qo‘llash, masala mazmunini anglash va yechimni izchil bajarishiga yo‘naltirilgan bo‘lsa, rivojlantiruvchi ta’lim yo‘nalishidagi tadqiqotlarda o‘quvchining masala asosidagi umumiy munosabatlarni anglash va mustaqil fikrlash faoliyatiga ko‘proq urg‘u beriladi. Shu o‘rinda “masala yechishga o‘rgatish” tushunchasini ham tor ma’noda talqin qilmaslik lozim. Bizningcha, masala yechishga o‘rgatish o‘quvchini berilgan shart asosida ma’lum va noma’lum miqdorlar o‘rtasidagi munosabatni aniqlash, ushbu munosabatni matematik shaklda ifodalash, yechim strategiyasini tanlash, uni amalga oshirish va olingan natijani mazmunan baholashga yo‘naltirilgan izchil pedagogik jarayondir. Bunday talqin masala yechishning yakuniy natijasidan ko‘ra, o‘quvchining faoliyat jarayoniga e’tibor qaratadi.

Bu jarayonda “metodik model” tushunchasi alohida ahamiyat kasb etadi. Metodik modelni ta’lim maqsadi, mazmuni, metodlari, vositalari, o‘quvchi faoliyati va kutilayotgan natijalarni o‘zaro bog‘lovchi tizimli tuzilma sifatida qarash mumkin. Ya’ni model alohida metod yoki mashqlar to‘plami emas, balki o‘qitish jarayonining qanday tashkil etilishi va uning tarkibiy qismlari qanday ketma-ketlikda ishlashini ifodalovchi tizimdir. Shundan kelib chiqib, yangi avlod darsliklari asosida matnli masalalarni yechishga o‘rgatish metodik modelini ishlab chiqishda darslikdagi masalalarning o‘zi bilan chegaralanish yetarli emas. Darslik materiali o‘quvchining qaysi faoliyatini yuzaga keltirishi, topshiriqning qanday murakkablik darajasiga ega ekanligi, o‘quvchidan qanday fikrlash harakatini talab qilishi va o‘qituvchi tomonidan qanday metodik yordam ko‘rsatilishi ham hisobga olinishi lozim.

Yangi avlod darsliklari mazmunida o‘quvchining faol ishtirokini ta’minlashga yo‘naltirilgan topshiriqlar mavjudligi metodik jarayonni yanada boyitish imkonini beradi. Bunday imkoniyatdan foydalanishda masalalarni faqat “yeching” shaklida emas, balki “taqqoslang”, “izohlang”, “xatoni toping”, “boshqa usulda yeching”, “sxema tuzing”, “masalaga savol qo‘ying”, “berilgan ifodaga mos masala tuzing” kabi faoliyatlar bilan bog‘lash mumkin. Natijada bitta masala bir nechta o‘quv faoliyatini yuzaga keltiruvchi metodik birlikka aylanadi.

Bizning ilmiy pozitsiyamizga ko‘ra, yangi avlod darsliklari asosida matnli masalalarni yechishga o‘rgatishning metodik modeli o‘quvchiga tayyor yechish algoritmini berishga emas, balki uning masala ustidagi fikrlash faoliyatini bosqichma-bosqich boshqarish va mustaqillashtirishga asoslanishi kerak. Bunda darslikdagi masala mazmuni boshlang‘ich nuqta vazifasini bajarsa, o‘qituvchi tomonidan tashkil etiladigan savol, topshiriq, model, muhokama va refleksiya faoliyatlari o‘quvchining mustaqil matematik faoliyatga o‘tishini ta’minlaydi.

Yangi avlod darsliklari esa ushbu jarayonning mazmuniy manbasi va didaktik vositasi sifatida qaraladi. Shu asosda maqolada taklif etiladigan metodik model o‘quvchining masala yechish jarayonidagi faoliyatini bosqichma-bosqich murakkablashtirish, individual qiyinchiliklarni hisobga olish va bilimlarni yangi vaziyatlarga ko‘chirish imkoniyatini ta’minlashga yo‘naltiriladi.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

Yangi avlod darsliklaridagi matnli masalalarning metodik tahlili. Yangi avlod matematika darsliklaridagi matnli masalalarni tahlil qilishda ularni faqat mazmuniga yoki bajariladigan arifmetik amaliga qarab guruhlash yetarli emas. Masalaning o‘quvchidan qanday fikrlash faoliyatini talab qilishi, real hayotiy vaziyat bilan qanday bog‘langani, yechimni mustaqil izlash imkoniyati va masalani turli ko‘rinishlarda ifodalash imkoniyati ham muhim metodik mezon sifatida qaralishi lozim. 1-4-sinf matematika darsliklaridagi matnli masalalar mazmun, murakkablik, kognitiv yuklama, modellashtirish, mustaqillik, variativlik va refleksiya mezonlari asosida ko‘rib chiqildi. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, yangi avlod darsliklarida matnli masalalarning murakkabligi o‘quvchilarning yosh va bilish imkoniyatlariga mos ravishda bosqichma-bosqich oshib boradi. 1-sinfda asosan sodda, bir amalli vaziyatlar ustunlik qilsa, keyingi sinflarda ikki amalli, ko‘p bosqichli hamda bir nechta matematik munosabatni aniqlashni talab qiluvchi topshiriqlar salmog‘i ortadi. Bu holat darslik materialining oddiy hisoblashdan masala vaziyatini anglash va yechim strategiyasini tanlashga tomon rivojlanib borayotganini ko‘rsatadi.

Matnli masalalarni sinflar kesimida tahlil qilish.

1-sinf. Birinchi sinfda o‘quvchining matematik tushunchalari endigina shakllanayotganligi sababli masalalar sodda hayotiy vaziyatlar asosida beriladi. Masalan: “5 ta olma bor, yana 3 ta qo‘shildi. Nechta olma bo‘ldi?” Mazkur topshiriqning matematik modeli 5 + 3 = 8 ko‘rinishida ifodalanadi. Masalaning ustun jihati o‘quvchiga tanish bo‘lgan predmetlar orqali miqdorning ortishi ifodalanganidir. Bunday masala o‘quvchini qo‘shish amalining mazmunini real vaziyat bilan bog‘lashga olib keladi. Shu bilan birga, boshlang‘ich bosqichda o‘qituvchi faqat natijani topishga emas, “Nima o‘zgardi?”, “Nima uchun qo‘shamiz?” kabi savollar orqali matematik munosabatni anglatishga e’tibor qaratishi lozim.

2-sinf. Ikkinchi sinfga kelib masalalarning mazmuni murakkablashadi. O‘quvchi qo‘shish va ayirish bilan bir qatorda ko‘paytirish mazmunidagi vaziyatlarni ham anglay boshlaydi. Masalan, bir xil miqdorlarning takrorlanishi bilan bog‘liq topshiriqlar o‘quvchini takroriy qo‘shishdan ko‘paytirishga o‘tishga tayyorlaydi.

Ikki amalli masalalar ham aynan shu bosqichdan boshlab o‘quvchi faoliyatiga sezilarli darajada murakkablik kiritadi. Masalan: “Bir bog‘da 12 ta gul bor edi. Ularning 5 tasi olib ketildi, keyin bog‘ga 7 ta yangi gul ekildi. Bog‘da nechta gul bo‘ldi?” Bu masalada o‘quvchi birdaniga yakuniy amalni bajarolmaydi. Avval 12 – 5 = 7, keyin 7 + 7 = 14 amallarini bajarishi kerak. Muhimi bu yerda ikkinchi amalni tanlash birinchi amal natijasiga bog‘liq. Demak, masala o‘quvchidan nafaqat hisoblashni, balki amallar o‘rtasidagi bog‘liqlikni tushunishni talab qiladi.

3-sinf. Uchinchi sinfda masalalar mazmunining murakkablashuvi yanada yaqqol namoyon bo‘ladi. O‘quvchi bir nechta arifmetik amalni ketma-ket qo‘llash bilan birga, masala shartidagi ma’lumotlarni o‘zaro bog‘lashga ehtiyoj sezadi. Darslik materiallarida ikki va ko‘p bosqichli masalalarga o‘tish o‘quvchining yechim rejasini mustaqil tuzishiga zamin yaratadi.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

4-sinf. To‘rtinchi sinfda esa masalalarning mazmuni va yechim strategiyasi yanada murakkablashadi. O‘quvchidan bir necha matematik munosabatni ketma-ket aniqlash, zarur ma’lumotlarni ajratish va yechimni asoslash talab etiladi. Masalan, miqdorlarni kamaytirish va keyinchalik orttirish bilan bog‘liq vaziyatlar bir masala doirasida birlashtirilishi mumkin: “Bir do‘konda 30 ta qalam bor edi. 12 tasi sotildi, keyin 5 ta yangi qalam keldi. Do‘konda nechta qalam qoldi?” Bu vaziyatda 30 – 12 = 18, 18 + 5 = 23 ketma-ketligi hosil bo‘ladi. Bunda o‘quvchi har bir amalni alohida bajarishdan tashqari, birinchi natijaning ikkinchi amal uchun yangi ma’lumotga aylanishini tushunishi kerak.

Yangi avlod darsliklari asosida matnli masalalarni yechishga o‘rgatishning takomillashtirilgan metodik modeli. Yangi avlod matematika darsliklaridagi matnli masalalarni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, ularni o‘quvchilarga o‘rgatishda faqat masala shartini o‘qish, arifmetik amalni bajarish va javobni yozish bilan cheklanib qolish maqsadga muvofiq emas. Chunki matnli masalani yechish jarayonida o‘quvchi nafaqat hisoblashni, balki berilgan vaziyatni tushunish, undagi ma’lumotlarni tahlil qilish, miqdorlar o‘rtasidagi munosabatni aniqlash, yechim yo‘lini belgilash va olingan natijani baholashni ham o‘zlashtirishi kerak. Shu jihatdan masala yechish jarayonini izchil tashkil etishga xizmat qiladigan metodik modelni ishlab chiqish zarurati yuzaga keladi.

Tadqiqotimizda taklif etilayotgan metodik modelning asosiy maqsadi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini matnli masalalarni ongli, izchil va mustaqil yechishga tayyorlashdan iborat. Modelda o‘quvchining yakuniy javobni topishi bilan bir qatorda, ushbu javobga qanday fikrlash orqali kelgani ham muhim natija sifatida qaraladi. Shu sababli modelning mazmuni masala yechishning butun jarayonini qamrab oluvchi o‘zaro bog‘liq bosqichlar asosida tashkil etildi.

Mazkur yondashuvning markazida quyidagi metodik ketma-ketlik turadi: vaziyatni anglash, ma’lumotlarni ajratish, matematik munosabatni aniqlash, model yaratish, yechim strategiyasini tanlash, yechimni amalga oshirish, natijani tekshirish va yechimni izohlash. Ushbu ketma-ketlik o‘quvchining masala ustidagi faoliyatini bosqichma-bosqich tashkil etishga imkon beradi. Bunda bosqichlar qat’iy algoritm sifatida emas, balki masalaning mazmuni va o‘quvchilarning tayyorgarlik darajasiga qarab moslashtiriladigan metodik yo‘nalish sifatida qaraladi.

Birinchi bosqichda o‘quvchi masala matnida ifodalangan vaziyatni anglaydi. Buning uchun masalani shunchaki o‘qib chiqish emas, balki uning mazmunini o‘z so‘zlari bilan ifodalash, masalada nima haqida gap ketayotganini va qanday miqdorlarni aniqlash zarurligini tushuntirishga e’tibor qaratiladi. Yangi avlod darsliklaridagi hayotiy vaziyatlar, rasmlar va ko‘rgazmali materiallardan foydalanish ushbu bosqichni tabiiy tashkil etish imkonini beradi.

Keyingi bosqichda masaladagi ma’lumotlar tahlil qilinadi. O‘quvchi nimani bilishi va nimani aniqlashi kerakligini ajratib oladi. Bunda “Masalada nimalar ma’lum?”, “Nimani topish kerak?”, “Qaysi ma’lumotlar bir-biri bilan bog‘langan?” kabi savollar o‘quvchini masala matnini matematik axborot sifatida qayta ishlashga yo‘naltiradi. Shundan so‘ng

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

matematik munosabatni aniqlash bosqichi amalga oshiriladi. Ushbu bosqich metodik modelning muhim tarkibiy qismi bo‘lib, unda o‘quvchi amalni faqat masaladagi ayrim so‘zlarga qarab tanlamasligi, balki miqdorlar o‘rtasidagi mazmuniy bog‘lanishni aniqlashi nazarda tutiladi.

Masala mazmuni aniqlangach, uni matematik modelga o‘tkazish bosqichi boshlanadi. Bunda qisqa yozuv, sxema, jadval, chizma yoki matematik ifodadan foydalanish mumkin. Masalan, masaladagi miqdorlarning o‘zgarishini sxema orqali ifodalash o‘quvchiga ular o‘rtasidagi bog‘lanishni ko‘rish va yechim yo‘lini aniqlashda yordam beradi. Muhimi, model o‘qituvchi tomonidan tayyor holda berilishi shart emas. O‘quvchining o‘zi masala mazmuniga mos modelni tanlashi va tuzishi uning matematik fikrlashini faollashtiradi.

Model asosida keyingi bosqich yechim strategiyasini tanlash amalga oshiriladi. Bu jarayonda o‘quvchi masalani qanday yo‘l bilan yechish mumkinligini o‘ylaydi. Sodda masalalarda bitta arifmetik amal yetarli bo‘lishi mumkin, murakkabroq masalalarda esa bir nechta amalni ma’lum tartibda bajarish, jadvaldan foydalanish yoki boshqa yechim usulini tanlash talab qilinadi. Bir masalani bir necha usulda yechish imkoniyati mavjud bo‘lsa, o‘quvchilarning turli yechimlarni taqqoslashi va o‘zlari uchun qulay strategiyani asoslashiga sharoit yaratish maqsadga muvofiq.

Yakuniy bosqichda o‘quvchi o‘z yechimini izohlaydi va faoliyatiga refleksiv baho beradi. U qanday yo‘l bilan yechimga kelganini, nima uchun aynan shu strategiyani tanlaganini va javobining to‘g‘riligiga qanday ishonch hosil qilganini tushuntiradi. Shu jihatdan refleksiya masala yechish jarayonining qo‘shimcha qismi emas, balki o‘quvchining mustaqil matematik faoliyatini shakllantiruvchi muhim tarkibiy element sifatida namoyon bo‘ladi.

Taklif etilayotgan modelda yangi avlod darsliklaridagi masalalar tayyor holda yechib beriladigan topshiriq sifatida emas, balki o‘quvchining turli darajadagi fikrlash faoliyatini tashkil etuvchi didaktik material sifatida qaraladi. Masalan, darslikda berilgan masalani yechish bilan cheklanmasdan, undan keyin masalaga mos sxema tuzish, berilgan ma’lumotlarni ajratish, boshqa yechim usulini izlash, noto‘g‘ri yechimni aniqlash yoki masalaga yangi savol tuzish kabi topshiriqlarni qo‘llash mumkin. Natijada bitta masala o‘quvchining bir nechta kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini matnli masalalarni yechishga o‘rgatish jarayonini takomillashtirish bugungi ta’limning o‘quvchilarda matematik savodxonlik, mustaqil fikrlash va amaliy vaziyatlarda matematik bilimlardan foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan talablari bilan bevosita bog‘liqdir. Tadqiqot davomida matnli masalalarni yechish o‘quvchidan faqat arifmetik amalni bajarishni emas, balki masala mazmunini anglash, ma’lumotlarni tahlil qilish, matematik bog‘lanishni aniqlash, yechimni rejalashtirish va natijani asoslash kabi o‘zaro bog‘liq aqliy faoliyatlarni amalga oshirishni talab qilishi asoslandi.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

Yangi avlod matematika darsliklaridagi matnli masalalar mazmunini tahlil qilish ularning hayotiy vaziyatlar, turli ko‘rinishdagi topshiriqlar, sxema, jadval va modellashtirish elementlari orqali o‘quvchining matematik fikrlashini rivojlantirish imkoniyatiga ega ekanligini ko‘rsatdi. Shu bilan birga, darslikdagi masalalarning rivojlantiruvchi imkoniyatlaridan to‘liq foydalanish ularni muayyan metodik tizim asosida tashkil etishni talab qiladi. Tadqiqot natijalari yangi avlod darsliklarining imkoniyatlarini maqsadli va izchil metodik yondashuv asosida tashkil etish boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining matnli masalalarni ongli, mustaqil va asoslangan holda yechish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun muhim pedagogik shartlardan biri ekanligini ko‘rsatadi. Taklif etilgan metodik modelni boshlang‘ich sinf matematika darslarida qo‘llash orqali o‘quvchilarning matematik fikrlashi va amaliy masalalarni hal qilish kompetensiyalarini rivojlantirishga erishish mumkin.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son Farmoni. “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi PQ-4884-son qarori. “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirish, ilm-fan sohasi vakillarining sa’y-harakatlarini qo‘llab-quvvatlash va samaradorligini oshirishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”.
3. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. O‘RQ-637, 23.09.2020.
4. Bikbayeva N.U., Yangiboyeva E. Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi. — Toshkent.
5. Jumayev M.E. Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi. — Toshkent.
6. Davydov V.V. Problemy razvivayushchego obucheniya. — Moskva.
7. Istomina N.B. Metodika obucheniya matematike v nachalnykh klassakh. — Moskva.
8. Sarantsev G.I. Metodika obucheniya matematike. — Moskva.
9. OECD. PISA Mathematics Framework. — Paris: OECD Publishing.
10. IEA. TIMSS Assessment Frameworks. — International Association for the Evaluation of Educational Achievement.

© intereduglobalstudy.com

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

MATEMATIKA MASALALARINI YECHISHDA AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH.

Xurramova Feruza Bozorovna, Toshkent viloyati Chirchiq shahar 15-AFCHO'M matematika fani o'qituvchisi.

Annotatsiya

KIRISH. zamonaviy ta'lim tizimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari o'quv jarayonining tarkibiy qismiga aylanib bormoqda. Ayniqsa, matematika fanini o'qitishda raqamli vositalardan foydalanish nafaqat mavzuni tushuntirishning yangi shakllarini yaratadi, balki bilimni o'zlashtirish sifatini oshirishga ham xizmat qiladi. Matematika abstrakt tushunchalar, mantiqiy bog'lanishlar va aniq hisob-kitoblarga asoslangan fan bo'lgani sababli uni o'qitishda vizual, interaktiv va modellashtiruvchi vositalarning ahamiyati nihoyatda kattadir. Shu nuqtai nazardan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik asoslarini tadqiq etish dolzarb ilmiy va amaliy masalalardan biri hisoblanadi.

MAQSAD. matematika fanini o‘qitishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan (AKT) samarali foydalanish hamda, AKT vositalarining dars samaradorligini oshirishdagi o‘rni, o‘qituvchining interaktiv metodlardan foydalanish ko‘nikmasi, zamonaviy dasturiy vositalar (GeoGebra, Desmos, MS Excel, videodarslar) orqali o‘quvchilarda mustahkam bilim va ko‘nikmalar hosil qilishdir.

MATERIAL VA METODLAR. mazkur tadqiqotda matematika darslarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik asoslarini yoritish uchun bir-birini to'ldiruvchi nazariy va amaliy tadqiqot metodlaridan foydalanildi. Avvalo, mavzuga oid pedagogik, psixologik, metodik va didaktik adabiyotlar tahlil qilindi. Ushbu yondashuv orqali matematika ta'limida AKTning o'rni, imkoniyatlari hamda cheklovlari yuzasidan mavjud ilmiy qarashlar umumlashtirildi. Tahlil jarayonida zamonaviy ta'lim konsepsiyalari, raqamli pedagogika tamoyillari, interfaol o'qitish texnologiyalari va kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ilmiy manbalarga alohida e'tibor qaratildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR. tadqiqot natijalari matematika darslarida axborot - kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish o'quv jarayonining sifati va samaradorligini sezilarli darajada oshirishini ko'rsatdi. Avvalo, AKT vositalari yordamida tashkil etilgan mashg'ulotlarda talabalar tomonidan o'quv materialini qabul qilish va tushunish darajasi an'anaviy usullarga nisbatan yuqori bo'lishi aniqlandi. Ayniqsa, formulalar, funksiyalar, grafiklar, tenglamalar tizimi va statistik ma'lumotlarni izohlashda vizual vositalardan foydalanish murakkab tushunchalarning osonroq anglanishiga xizmat qildi. Elektron taqdimotlar, interaktiv doskalar va matematik dasturlar yordamida mavzuning bosqichma-bosqich ochib berilishi talabalar diqqatini uzoqroq saqlash imkonini yaratdi.

XULOSA. matematika darslarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik asoslarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, raqamli vositalar

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

zamonaviy ta'lim jarayonining samaradorligini oshiruvchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, matematika kabi abstrakt tafakkur, mantiqiy izchillik va aniq tahlilni talab qiluvchi fanlarni o'qitishda AKT o'quv materialini tushunarli, ko'rgazmali va interaktiv shaklda tashkil etish imkonini beradi. Bu esa talabalarning fan mazmunini chuqurroq anglashiga, murakkab nazariy tushunchalarni amaliy holatlar bilan bog'lashiga va mustaqil bilim olishga bo'lgan ehtiyojini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: AKT, matematika o‘qitish, GeoGebra, MATLAB, onlayn platformalar, interaktiv metodlar, ta’lim samaradorligi.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИНФОРМАЦИОННО-КОММУНИКАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В РЕШЕНИИ МАТЕМАТИЧЕСКИХ ЗАДАЧ.

Хуррамова Феруза Бозоровна, учитель математики 15-го AFCHO'M. г. Чирчик, Ташкентская область

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ. в современной системе образования информационно-коммуникационные технологии становятся неотъемлемой частью образовательного процесса. В частности, использование цифровых инструментов в преподавании математики не только создает новые формы объяснения предмета, но и способствует повышению качества усвоения знаний. Поскольку математика — это наука, основанная на абстрактных понятиях, логических связях и точных вычислениях, важность визуальных, интерактивных и моделирующих инструментов в ее преподавании чрезвычайно велика. В этой связи исследование педагогических основ использования информационно-коммуникационных технологий является одной из актуальных научно-практических проблем.

ЦЕЛЬ. эффективное использование информационно-коммуникационных технологий (ИКТ) в преподавании математики и роль инструментов ИКТ в повышении эффективности урока, способности учителя использовать интерактивные методы и формировании прочных знаний и навыков у учащихся с помощью современных программных средств (GeoGebra, Desmos, MS Excel, видеоуроки).

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ. в данном исследовании использовались взаимодополняющие теоретические и практические методы исследования для освещения педагогических основ использования информационно-коммуникационных технологий на уроках математики. Сначала был проведен анализ педагогической, психологической, методологической и дидактической литературы по данной теме. В рамках этого подхода были обобщены существующие научные взгляды на роль, возможности и ограничения ИКТ в математическом образовании. При анализе особое внимание уделялось научным источникам,

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

основанным на современных образовательных концепциях, принципах цифровой педагогики, интерактивных учебных технологиях и компетентностном подходе.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ. результаты исследования показали, что использование информационно-коммуникационных технологий на уроках математики значительно повышает качество и эффективность образовательного процесса. Прежде всего, было установлено, что уровень восприятия и понимания учебного материала учащимися на занятиях, организованных с использованием средств ИКТ, выше, чем при традиционных методах. В частности, использование наглядных пособий при интерпретации формул, функций, графиков, систем уравнений и статистических данных способствовало облегчению понимания сложных понятий. Постепенное раскрытие темы с использованием электронных презентаций, интерактивных досок и математических программ позволило дольше удерживать внимание учащихся.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ. анализ педагогических основ использования информационно-коммуникационных технологий на уроках математики показывает, что цифровые инструменты являются одним из важных факторов повышения эффективности современного образовательного процесса. Особенно при обучении таким предметам, как математика, требующим абстрактного мышления, логической последовательности и точного анализа, ИКТ позволяет организовывать учебный материал в понятной, наглядной и интерактивной форме. Это помогает учащимся глубже понимать содержание предмета, связывать сложные теоретические понятия с практическими ситуациями и укреплять их потребность в самостоятельном обучении.

Ключевые слова: ИКТ, преподавание математики, GeoGebra, MATLAB, онлайн-платформы, интерактивные методы, эффективность обучения.

USING INFORMATION AND COMMUNICATION TECHNOLOGIES IN SOLVING MATHEMATICAL PROBLEMS.

Khurramova Feruza Bozorovna, 15th AFCHO'M mathematics teacher, Chirchik city, Tashkent region.

Annatation

INTRODUCTION. in the modern education system, information and communication technologies (ICT) are becoming an integral part of the teaching and learning process. In particular, the use of digital tools in mathematics instruction not only creates new ways of explaining topics but also serves to enhance the quality of knowledge acquisition. Since mathematics is a discipline based on abstract concepts, logical connections, and precise calculations, the role of visual, interactive, and modeling tools in teaching it is immense. From this perspective, researching the pedagogical foundations of using information and communication technologies is a matter of significant scientific and practical importance.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

AIM. the objective is to ensure the effective use of information and communication technologies (ICT) in mathematics instruction and to foster solid knowledge and skills in students by leveraging the role of ICT tools in enhancing lesson efficiency, the teacher's proficiency in interactive methods, and modern software applications (such as GeoGebra, Desmos, MS Excel, and video lessons).

MATERIALS AND METHODS. this study employed complementary theoretical and practical research methods to examine the pedagogical foundations of using information and communication technologies in mathematics lessons. Initially, a review and analysis of relevant pedagogical, psychological, methodological, and didactic literature were conducted. Through this approach, existing scholarly perspectives regarding the role, potential, and limitations of ICT in mathematics education were synthesized. The analysis focused particularly on scientific sources grounded in modern educational concepts, principles of digital pedagogy, interactive teaching technologies, and the competency-based approach.

DISCUSSION AND RESULTS. research findings demonstrated that the use of information and communication technologies (ICT) in mathematics lessons significantly enhances the quality and effectiveness of the learning process. Notably, it was found that students' levels of comprehension and retention of learning material were higher in sessions utilizing ICT tools compared to those using traditional methods. In particular, the use of visual aids to interpret formulas, functions, graphs, systems of equations, and statistical data facilitated a better understanding of complex concepts. Furthermore, the step-by-step presentation of topics using electronic presentations, interactive whiteboards, and mathematical software helped sustain student attention for longer periods.

CONCLUSION. an analysis of the pedagogical foundations for using information and communication technologies in mathematics lessons indicates that digital tools are a key factor in enhancing the effectiveness of the modern educational process. Particularly in the teaching of subjects such as mathematics—which require abstract thinking, logical consistency, and precise analysis—ICT enables the presentation of educational material in a clear, visual, and interactive format. This fosters a deeper understanding of the subject matter among students, helps them link complex theoretical concepts to practical scenarios, and strengthens their drive for independent learning.

Keywords: ICT, mathematics teaching, GeoGebra, MATLAB, online platforms, interactive methods, educational effectiveness.

Zamonaviy ta’lim tizimi raqamli texnologiyalar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, matematika fanini o‘qitishda ham AKTdan foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Matematika o‘zining abstraktligi bilan ajralib turadi, bu esa ko‘plab o‘quvchilar uchun uni tushunishni qiyinlashtiradi. Shu sababli, AKT vositalari yordamida murakkab matematik tushunchalarni vizuallashtirish va interaktiv tarzda tushuntirish imkoniyati yaratiladi.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

AKTning matematika ta’limidagi o‘rni: Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari matematika ta’limida quyidagi asosiy funksiyalarni bajaradi:

• Vizualizatsiya – abstrakt tushunchalarni grafik va animatsiyalar orqali tushuntirish
• Interaktivlik – o‘quvchilarning faol ishtirokini ta’minlash
• Individual yondashuv – har bir o‘quvchining bilim darajasiga moslashish
• Resurslarga keng kirish – internet orqali turli o‘quv materiallariga ega bo‘lish

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, AKTdan foydalanish o‘quvchilarning matematik tushunchalarni chuqurroq anglashiga yordam beradi va ularning o‘zlashtirish darajasini oshiradi.

AKT vositalari va ularning turlari: Matematika ta’limida qo‘llaniladigan asosiy AKT vositalari quyidagilar:

1. Dasturiy vositalar
• GeoGebra
• Desmos
• MATLAB
• Mathematica

Bu dasturlar yordamida algebra, geometriya va statistik masalalarni vizual tarzda yechish mumkin.

2. Interaktiv platformalar: Kahoot, Quizlet, Khan Academy.

Ushbu platformalar o‘quvchilarning bilimini mustahkamlash va baholashda muhim rol o‘ynaydi.

3. Virtual manipulyativlar: Virtual modellar orqali o‘quvchilar matematik obyektlarni o‘rganadi va tajriba o‘tkazadi, bu esa tushunishni osonlashtiradi.

AKTdan foydalanishning afzalliklari

1. O‘quvchilarning qiziqishini oshiradi: Interaktiv vositalar yordamida darslar qiziqarli va samarali tashkil etiladi. Tadqiqotlar AKT o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirishini ko‘rsatadi.

2. Abstrakt tushunchalarni osonlashtiradi: Matematika ko‘plab abstrakt tushunchalardan iborat. AKT yordamida bu tushunchalar vizual shaklda tushuntiriladi.

3. O‘quv natijalarini yaxshilaydi: Tajriba natijalariga ko‘ra, raqamli vositalardan foydalangan o‘quvchilarning natijalari an’anaviy usullarga nisbatan sezilarli darajada yuqori bo‘lgan.

4. Mustaqil o‘rganishni rivojlantiradi: AKT o‘quvchilarga mustaqil ishlash, izlanish va muammolarni yechish ko‘nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi.

AKTni joriy etishdagi muammolar:

1. Texnik infratuzilma yetishmasligi: Ko‘plab ta’lim muassasalarida zamonaviy texnika yetarli emas.

2. O‘qituvchilarning tayyorgarligi: AKTdan samarali foydalanish uchun o‘qituvchilarning raqamli kompetensiyasi yuqori bo‘lishi kerak.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

3. Metodik muammolar: Ba’zi hollarda AKTdan noto‘g‘ri foydalanish ta’lim samaradorligini pasaytirishi mumkin.

4. Tengsizlik muammosi

Barcha o‘quvchilar texnologiyalarga teng darajada ega emas.

AKTni samarali qo‘llash yo‘llari

• O‘qituvchilar uchun muntazam treninglar tashkil etish
• Dars jarayonida AKTni an’anaviy metodlar bilan uyg‘unlashtirish
• O‘quv dasturlarini raqamli resurslar bilan boyitish
• Interaktiv metodlardan keng foydalanish
• O‘quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish

Matematika fanini o‘qitishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ta’lim sifatini oshirishning muhim omillaridan biridir. AKT yordamida o‘quvchilarning matematik tafakkuri rivojlanadi, darslar samaradorligi ortadi va ta’lim jarayoni yanada interaktiv tus oladi.

Shu bilan birga, AKTni samarali joriy etish uchun infratuzilmani rivojlantirish, o‘qituvchilar malakasini oshirish va metodik yondashuvlarni takomillashtirish zarur. To‘g‘ri tashkil etilgan AKT asosidagi ta’lim kelajakda yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Ximenes, S. M. (2025). Artificial Intelligence in Mathematics Education: A Systematic Review of Opportunities, Challenges, and Pedagogical Implications. Journal of Education Method and Learning Strategy, 3(3), 517–531.
2. Danış, B. (2025). Artificial Intelligence in Mathematics Education. International Journal of Educational Sciences (ASES EDUSCI).
3. Johnson, T. et al. (2025). The Effectiveness of AI on K-12 Students’ Mathematics Learning: A Systematic Review and Meta-Analysis. International Journal of Science and Mathematics Education, 23, 1105–1126.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

MUSTAQIL TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA KOGNITIV VA METAKOGNITIV STRATEGIYALARNI UYG'UN QO'LLASHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI.

Boymanov Hoshim Isroilovich, Samarqand davlat pedagogika instituti, Boshlang'ich ta'lim kafedrasi o'qituvchisi.
boymanovhoshim1986@gmail.com

Annotatsiya

KIRISH: ushbu maqolada o'quvchilarning mustaqil ta'lim faoliyati samaradorligini oshirishda kognitiv va metakognitiv strategiyalarni uyg'un qo'llashning pedagogik imkoniyatlari tahlil qilinadi. Kognitiv strategiyalarning axborotni qabul qilish, qayta ishlash, tizimlashtirish, mazmunan bog'lash va uzoq muddatli xotirada saqlashga xizmat qilishi, metakognitiv strategiyalarning esa maqsad qo'yish, rejalashtirish, o'z faoliyatini kuzatish, nazorat qilish, baholash va refleksiya qilish jarayonlarini boshqarishi asoslanadi. Mustaqil ta'limda mazkur strategiyalarni bosqichma-bosqich integratsiyalash o'quvchining o'z o'qishini anglashiga, mos strategiyani tanlashiga va natijaga qarab uni o'zgartirishiga imkon berishi ko'rsatiladi. Maqolada "maqsad–strategiya–monitoring–refleksiya–korreksiya" sikliga asoslangan amaliy mexanizm taklif etilib, o'qituvchining yo'naltiruvchi va qo'llab-quvvatlovchi roli yoritiladi.

MAQSAD: mustaqil ta'lim samaradorligini oshirishda kognitiv va metakognitiv strategiyalarni uyg'un qo'llashning pedagogik imkoniyatlarini nazariy jihatdan asoslash va ta'lim amaliyoti uchun bosqichli amaliy mexanizmni ishlab chiqishdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda o'zini o me'yoriylashtiruvchi va boshqaruvchi ta'lim (Self-Regulated Learning) nazariyalari, metakognitsiya bo'yicha xalqaro va mahalliy ilmiy manbalar tahlili, shuningdek, qiyosiy-tahlil, umumlashtirish va pedagogik modellashtirish usullaridan foydalanildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: kognitiv (axborotni qayta ishlash) va metakognitiv (faoliyatni boshqarish) strategiyalarning integratsiyalashuv darajalari ko'rsatib berildi hamda "maqsad–strategiya–monitoring–refleksiya–korreksiya" sikliga asoslangan 5 bosqichli amaliy mexanizm va o'qituvchining fasilitatorlik roli asoslab berildi.

XULOSA: strategiyalarning uyg'un qo'llanishi va o'qituvchi ko'magining bosqichma-bosqich kamaytirilishi o'quvchining avtonomligini oshirib, mustaqil ta'limni shunchaki topshiriq bajarishdan ongli o'zini o'zi boshqarish faoliyatiga aylantirish imkonini beradi.

Kalit so'zlar: mustaqil ta'lim, kognitiv strategiya, metakognitiv strategiya, o'zini o'zi boshqarib o'rganish, rejalashtirish, monitoring, refleksiya, o'zini baholash.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ ГАРМОНИЧНОГО ПРИМЕНЕНИЯ КОГНИТИВНЫХ И МЕТАКОГНИТИВНЫХ СТРАТЕГИЙ В ПОВЫШЕНИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО ОБУЧЕНИЯ.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

Бойманов Хошим Исроилович, преподаватель кафедры «Начальное образование» Самаркандского государственного педагогического института.

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в статье анализируются педагогические возможности согласованного применения когнитивных и метакогнитивных стратегий для повышения эффективности самостоятельной учебной деятельности учащихся. Обосновывается, что когнитивные стратегии обеспечивают восприятие, переработку, систематизацию, смысловое связывание и сохранение информации, тогда как метакогнитивные стратегии регулируют постановку целей, планирование, мониторинг, контроль, оценивание и рефлексию. Показано, что поэтапная интеграция данных стратегий помогает учащемуся осознавать собственный процесс обучения, выбирать адекватные способы работы и корректировать их с учетом полученного результата. Предложен практический механизм, основанный на цикле «цель–стратегия–мониторинг–рефлексия–коррекция», а также раскрыта направляющая и поддерживающая роль педагога.

ЦЕЛЬ: теоретически обосновать педагогические возможности согласованного применения когнитивных и метакогнитивных стратегий для повышения эффективности самостоятельного обучения и разработать поэтапный практический механизм для образовательной практики.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании использованы концепции саморегулируемого обучения (Self-Regulated Learning), анализ международных и местных научных источников по метапознанию, а также методы сравнительного анализа, обобщения и педагогического моделирования.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: раскрыты уровни интеграции когнитивных (переработка информации) и метакогнитивных (регулирование деятельности) стратегий, разработан и обоснован 5-этапный практический механизм, основанный на цикле «цель–стратегия–мониторинг–рефлексия–коррекция», а также описана фасилитаторская роль педагога.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: гармоничное сочетание стратегий и постепенное снижение педагогической поддержки способствуют развитию автономии учащихся, превращая самостоятельное обучение из простого выполнения заданий в осознанную саморегулируемую деятельность.

Ключевые слова: самостоятельное обучение, когнитивная стратегия, метакогнитивная стратегия, саморегулируемое обучение, планирование, мониторинг, рефлексия, самооценка.

PEDAGOGICAL OPPORTUNITIES OF HARMONIOUS APPLICATION OF COGNITIVE AND METACOGNITIVE STRATEGIES IN INCREASING THE EFFICIENCY OF INDEPENDENT LEARNING.

© intereduglobalstudy.com

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

Boymanov Hoshim Isroilovich, Lecturer at the Department of "Primary Education", Samarkand State Pedagogical Institute.

Annotation

INTRODUCTION: The article analyzes the pedagogical potential of coordinated cognitive and metacognitive strategies for improving the effectiveness of students' independent learning. Cognitive strategies are considered as tools for processing, organizing, elaborating, and retaining information, whereas metacognitive strategies regulate goal setting, planning, monitoring, control, evaluation, and reflection. It is argued that the gradual integration of these strategies enables learners to understand their own learning process, select appropriate strategies, monitor their effectiveness, and modify them according to outcomes. A practical mechanism based on the cycle "goal–strategy–monitoring–reflection–correction" is proposed, and the teacher's scaffolding role in developing learner autonomy is discussed.

AIM: to theoretically substantiate the pedagogical potential of integrated cognitive and metacognitive strategies for enhancing independent learning effectiveness and to design a phased practical framework for educational application.

MATERIALS AND METHODS: the study utilized theories of self-regulated learning (SRL), analysis of international and local literature on metacognition, as well as methods of comparative analysis, generalization, and pedagogical modeling.

DISCUSSION AND RESULTS: the levels of integrating cognitive (information processing) and metacognitive (activity regulation) strategies were highlighted, and a 5-stage practical mechanism based on the "goal–strategy–monitoring–reflection–correction" cycle along with the teacher's scaffolding role was established.

CONCLUSION: the harmonious integration of strategies paired with a gradual decrease in teacher assistance strengthens student autonomy, transforming independent learning from basic task completion into conscious self-regulated activity.

Keywords: independent learning, cognitive strategy, metacognitive strategy, self-regulated learning, planning, monitoring, reflection, self-assessment.

Zamonaviy ta'limning muhim vazifalaridan biri o'quvchini tayyor bilimni qabul qiluvchi subyekt sifatida emas, balki o'z o'quv faoliyatini rejalashtira oladigan, axborotni mustaqil izlaydigan, qayta ishlaydigan, natijani baholaydigan va zarur holatda o'z faoliyatiga tuzatish kiritadigan faol shaxs sifatida shakllantirishdir. Shu sababli mustaqil ta'lim faqat auditoriyadan tashqarida topshiriq bajarish bilan cheklanmaydi. U o'quvchining maqsad, usul, vaqt, resurs va natija ustidan ma'lum darajada boshqaruvni amalga oshiradigan murakkab pedagogik jarayondir.

O'zini o'zi boshqarib o'rganish nazariyalarida o'quv faoliyati odatda tayyorgarlik, bajarish va natijani tahlil qilish bosqichlarining uzviy sikli sifatida talqin qilinadi. Bu

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

jarayonda kognitiv strategiyalar bilimni o‘zlashtirishning bevosita vositasi bo‘lsa, metakognitiv strategiyalar ushbu vositalarni qachon, nima uchun va qanday qo‘llashni boshqaradi. Self-regulated learning bo‘yicha meta-tahlil natijalari maxsus treninglar talabalarning akademik natijalari, kognitiv va ayniqsa metakognitiv strategiyalaridan foydalanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatgan [1].

Metakognitsiya shaxsning o‘z fikrlash jarayonini kuzatishi va tartibga solishi bilan bog‘liq bo‘lib, mazmunli hamda uzluksiz o‘rganishni qo‘llab-quvvatlaydi [2]. Demak, mustaqil ta’limni rivojlantirishda faqat “qanday o‘qish” usullarini o‘rgatish yetarli emas; o‘quvchi tanlagan usulining samaradorligini tekshirishi, qiyinchilik sababini aniqlashi va keyingi harakatini ongli ravishda rejalashtirishi ham zarur.

Maqolaning maqsadi – mustaqil ta’lim samaradorligini oshirishda kognitiv va metakognitiv strategiyalarni uyg‘un qo‘llashning pedagogik imkoniyatlarini nazariy jihatdan asoslash hamda ta’lim amaliyoti uchun bosqichli mexanizmni tavsiflash. Ushbu maqsadga erishishda tahlil, taqqoslash, umumlashtirish va pedagogik modellashtirish usullaridan foydalanildi.

Mustaqil ta’limning sifat ko‘rsatkichi topshiriqlar soni bilan emas, o‘quvchining o‘quv vazifasini anglash va uni bajarish jarayonini boshqarish darajasi bilan belgilanadi. O‘quvchi o‘z oldiga aniq maqsad qo‘ya olsa, mazkur maqsadga mos usulni tanlasa, jarayon davomida natijani kuzatsa va yakunda xulosalar chiqarsa, mustaqil faoliyat ongli va barqaror tus oladi. Bunday faoliyatda strategik bilim – “nima qilish”, “qanday qilish” va “qachon boshqa usulga o‘tish” haqidagi bilimlar alohida ahamiyat kasb etadi.

Kognitiv strategiyalar o‘rganilayotgan material bilan bevosita ishlashni ta’minlaydi. Ularga takrorlash, asosiy fikrni ajratish, guruhlash, tasniflash, sxema va konseptual xarita tuzish, savol yaratish, misollar bilan izohlash, yangi bilimni avvalgi bilim bilan bog‘lash kabi usullar kiradi. Bu strategiyalar axborotni yuzaki eslab qolishdan chuqurroq mazmuniy qayta ishlashga o‘tishga yordam beradi.

Metakognitiv strategiyalar esa kognitiv faoliyatni “yuqoridan” boshqaruvchi mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi. Rejalashtirish, maqsad belgilash, o‘z tushunishini tekshirish, xatoni aniqlash, vaqt va diqqatni nazorat qilish, natijani mezon asosida baholash hamda refleksiya qilish shular jumlasidandir. O‘quvchilarning strategiyalar samaradorligi haqidagi metakognitiv bilimlari ularning chuqur o‘rganish strategiyalaridan foydalanishi bilan bog‘liqligi 2024-yildagi tadqiqotda ham qayd etilgan [3].

2. Kognitiv va metakognitiv strategiyalar integratsiyasining pedagogik mohiyati

Kognitiv va metakognitiv strategiyalarni alohida o‘rgatish ma’lum natija berishi mumkin, biroq mustaqil ta’limda ularning integratsiyasi ko‘proq funksional ahamiyatga ega. Masalan, o‘quvchi matnni konspektlashni bilishi kognitiv ko‘nikmadir. Ammo aynan qaysi matnda konspekt kerakligini, qaysi shakl – jadval, reja yoki konseptual xarita – maqsadga muvofiqligini tanlashi, ishlash davomida tushunish darajasini tekshirishi va natija sust bo‘lsa strategiyani almashtirishi metakognitiv boshqaruvni talab qiladi.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

Integratsiya uch darajada namoyon bo‘ladi. Birinchi daraja – strategiyani tanlash: vazifaning mazmuni va murakkabligi tahlil qilinib, mos kognitiv usul belgilanadi. Ikkinchi daraja – jarayonni monitoring qilish: o‘quvchi o‘z tushunishi, tezligi, xatolari va diqqatini kuzatadi. Uchinchi daraja – refleksiv korreksiya: natija maqsad bilan solishtirilib, keyingi o‘rganish uchun samarali yoki samarasiz usullar ajratiladi. Self-monitoring bo‘yicha meta-tahlil monitoringning strategiyalardan foydalanish va akademik natijalarga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini, ayniqsa u o‘qituvchi, tengdosh yoki texnologik yordam bilan birlashtirilganda samaraliroq bo‘lishini ko‘rsatadi [4].

Shunday qilib, kognitiv strategiya “o‘quv materiali bilan nima qilish kerak?” savoliga, metakognitiv strategiya esa “nega aynan shu usulni tanladim, u ishlayaptimi va keyin nima qilishim kerak?” savollariga javob beradi. Ularning birligi mustaqil ta’limni topshiriq bajarishdan ongli o‘zini o‘zi boshqarish faoliyatiga aylantiradi.

3. “Maqsad–strategiya–monitoring–refleksiya–korreksiya” mexanizmi

Mustaqil ta’limni tashkil etishda quyidagi besh bosqichli mexanizmni qo‘llash maqsadga muvofiq. Birinchi bosqich – maqsadni aniqlashtirish. O‘quvchi topshiriq yakunida nimani bilishi, tushunishi yoki bajara olishini yozma tarzda ifodalaydi. Maqsadning aniq ifodalanishi keyingi strategik qarorlar uchun mezon yaratadi. Oliy ta’limda maqsad qo‘yishga undovchi pedagogik yondashuvlar self-regulated learningni qo‘llab-quvvatlashning muhim vositasi sifatida ko‘rilmoqda [5].

Ikkinchi bosqich – kognitiv strategiyani tanlash va rejalashtirish. O‘quvchi material turiga qarab asosiy fikrlarni belgilash, semantik xarita tuzish, taqqoslash jadvali yaratish, savol-javob kartochkalari tayyorlash, misollar yechish yoki o‘z so‘zlari bilan tushuntirish usullaridan birini tanlaydi. Bu bosqichda vaqt, resurs va bajarish ketma-ketligi ham belgilanadi.

Uchinchi bosqich – monitoring. O‘quvchi ish davomida “Men mazmunni tushunyapmanmi?”, “Qaysi qismda qiynaldim?”, “Tanlagan usulim maqsadga olib boryaptimi?”, “Vaqtdan oqilona foydalanyapmanmi?” kabi savollar orqali o‘z faoliyatini nazorat qiladi. Metakognitiv strategiyalar ochiq va raqamli o‘quv muhitida vaqt davomida rivojlanishi, bunda avvalgi bilim va topshiriqning shaxsiy qiymati muhim omil bo‘lishi ko‘rsatilgan [6].

To‘rtinchi bosqich – refleksiya va o‘zini baholash. O‘quvchi bajarilgan ishni oldindan belgilangan mezonlar asosida tekshiradi, kuchli va zaif jihatlarni ajratadi. Bunda “3–2–1 refleksiya” (3 ta o‘rgangan narsa, 2 ta qiyinchilik, 1 ta keyingi savol), refleksiv kundalik yoki qisqa o‘zini baholash varaqasi qo‘llanishi mumkin.

Beshinchi bosqich – korreksiya. Agar tanlangan strategiya yetarli natija bermagan bo‘lsa, o‘quvchi boshqa kognitiv usulga o‘tadi, vaqt taqsimotini o‘zgartiradi yoki qo‘shimcha manba izlaydi. Shu tariqa o‘rganish chiziqli emas, takrorlanuvchi siklga aylanadi. Har bir yangi sikl o‘quvchining o‘z o‘qishi haqidagi metakognitiv bilimini boyitadi.

4. O‘qituvchining pedagogik qo‘llab-quvvatlashi

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

Mustaqil ta’lim o‘qituvchining rolini kamaytirmaydi, balki uni o‘zgartiradi. Pedagog tayyor yechim beruvchi shaxsdan strategik yo‘naltiruvchi, teskari aloqa beruvchi va refleksiyani tashkil etuvchi fasilitatorga aylanadi. Dastlab strategiyalarni aniq namoyish qilish, keyinchalik yo‘naltiruvchi savollar va chek-listlardan foydalanish, oxir-oqibat esa yordamni bosqichma-bosqich kamaytirish o‘quvchining avtonomligini kuchaytiradi.

O‘qituvchi “fikrlashni ovoz chiqarib namoyish etish” usulidan foydalanib, masalan, murakkab matnni qanday tahlil qilayotganini, nima sababdan muayyan strategiyani tanlaganini va tushunmagan joyida qanday qaror qabul qilayotganini ko‘rsatishi mumkin. Bunday model o‘quvchiga ko‘rinmas metakognitiv jarayonlarni anglash imkonini beradi.

Teskari aloqa ham integratsiyaning muhim shartidir. Onlayn muhitda metakognitiv va motivatsion jihatlarga yo‘naltirilgan batafsil teskari aloqa self-regulated learning hamda yakuniy natijalarni yaxshilashi aniqlangan [7]. Shuning uchun “to‘g‘ri/noto‘g‘ri” bahodan tashqari, o‘quvchiga qaysi strategiya samarali bo‘lgani, qayerda monitoring sust bo‘lgani va keyingi urinishda nimani o‘zgartirish mumkinligi haqida fikr berish lozim.

Hamkorlikdagi o‘rganish ham individual mustaqillikka zid emas. Guruhdagi metakognitiv muloqot, ya’ni o‘quvchilarning strategiya tanlovi va tushunish darajasi haqida bir-biriga savol berishi, individual o‘zini boshqarishni kuchaytirishi mumkin. Tadqiqotlarda metakognitiv o‘zaro ta’sir hamkorlikdagi o‘rganish natijalari bilan ijobiy bog‘langan [8].

5. Amaliy topshiriqlar tizimi

Kognitiv va metakognitiv strategiyalar integratsiyasini shakllantirish uchun topshiriqning o‘zi ham ikki qatlamli tuzilishi kerak: birinchi qatlam fan mazmunini o‘zlashtirishga, ikkinchi qatlam esa o‘rganish jarayonini anglashga qaratiladi. Masalan, o‘quvchiga matnni o‘qib konseptual xarita tuzish vazifasi beriladi. So‘ng undan “Nima uchun aynan shu bog‘lanishlarni tanladingiz?”, “Qaysi qismni qayta o‘qidingiz?”, “Xaritani qayta tuzsangiz nimani o‘zgartirasiz?” kabi metakognitiv savollarga javob berish so‘raladi.

Matematika topshiriqlarida “yechim + strategik izoh” usuli samarali bo‘lishi mumkin. O‘quvchi masalani yechish bilan birga, qanday ma’lumotlarni muhim deb topgani, qaysi usulni tanlagani, qaysi bosqichda tekshiruv o‘tkazgani va xato yuzaga kelganda qanday tuzatish kiritganini qisqacha yozadi. Natijada faqat javob emas, yechimni boshqarish jarayoni ham ta’lim obyekti bo‘ladi.

Mustaqil o‘qishda “strategiya kundaligi”dan foydalanish mumkin. Kundalikda sana, maqsad, tanlangan strategiya, sarflangan vaqt, qiyinchilik, monitoring natijasi, yakuniy baho va keyingi safar uchun qaror ustunlari bo‘ladi. Bir necha hafta davomida to‘plangan yozuvlar o‘quvchiga o‘zining individual o‘rganish profilini ko‘rishga yordam beradi.

Raqamli muhitda qisqa refleksiv so‘rovlar, elektron portfoliolar, progress indikatorlari va avtomatlashtirilgan eslatmalar strategik o‘rganishni qo‘llab-quvvatlashi mumkin. Pedagogik agentlar haqidagi sistematik sharhda bunday vositalarning o‘zini boshqarish, motivatsiya va metakognitsiya kabi ichki o‘rganish jarayonlarini qo‘llab-quvvatlash imkoniyati ko‘rsatilgan [9]. Biroq texnologiya strategik fikrlashning o‘rnini egallamasligi, balki uni rag‘batlantiruvchi vosita bo‘lishi lozim.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

6. Integratsiyaning kutiladigan pedagogik natijalari va baholash mezonlari

Strategiyalar integratsiyasining birinchi natijasi o‘quvchining topshiriqqa ongli yondashuvida ko‘rinadi. U vazifani bajarishni darhol boshlash o‘rniga maqsadni tahlil qiladi, mavjud bilimini baholaydi va mos usul tanlaydi. Ikkinchi natija – strategik moslashuvchanlik: o‘quvchi bir usul samara bermasa, boshqasiga o‘tish zarurligini anglaydi.

Uchinchi natija – monitoring aniqligining ortishi. O‘quvchi “men bilaman” degan umumiy hissiyot bilan cheklanmay, o‘z bilimini savol, misol, qayta tushuntirish yoki o‘zini sinash orqali tekshiradi. To‘rtinchi natija – refleksiv madaniyat: xato salbiy hodisa emas, balki keyingi strategik qaror uchun axborot manbai sifatida qabul qilinadi.

Baholashda faqat yakuniy akademik natijani emas, jarayon ko‘rsatkichlarini ham hisobga olish zarur. Bular: maqsadning aniqligi; tanlangan strategiyaning vazifaga mosligi; rejaning realistikligi; monitoring savollaridan foydalanish; xatoni aniqlash va sababini izohlash; refleksiya chuqurligi; keyingi faoliyat uchun aniq korreksion qaror qabul qilish. Shu mezonlar asosida boshlang‘ich, reproduktiv, faol va refleksiv-mustaqil darajalarni ajratish mumkin.

Mustaqil ta’lim samaradorligini oshirishda o‘quvchiga avtonomiya berish ham muhim, biroq avtonomiya pedagogik strukturasiz qolmasligi kerak. Sinf sharoitidagi learner-controlled instruction bo‘yicha sistematik sharh o‘quvchi nazoratining motivatsiyaga kichik ijobiy ta’sirini, kognitiv natijalarda esa turlicha samarani ko‘rsatgan [10]. Bu holat mustaqillikni bosqichma-bosqich va pedagogik tayanch bilan rivojlantirish zarurligini tasdiqlaydi.

Kognitiv va metakognitiv strategiyalarni uyg‘un qo‘llash mustaqil ta’limning mazmuniy va boshqaruv komponentlarini yagona tizimga birlashtiradi. Kognitiv strategiyalar o‘quv materialini samarali qayta ishlashni ta’minlasa, metakognitiv strategiyalar ushbu jarayonni rejalashtirish, monitoring qilish, baholash va korreksiya qilish imkonini beradi. Shu sababli ularni bir-biridan ajratilgan usullar sifatida emas, balki o‘zini o‘zi boshqarib o‘rganishning o‘zaro bog‘langan mexanizmlari sifatida o‘rgatish maqsadga muvofiq.

Taklif etilgan “maqsad–strategiya–monitoring–refleksiya–korreksiya” sikli mustaqil ta’lim topshiriqlarini tashkil etish uchun amaliy asos bo‘la oladi. Mazkur sikl o‘quvchini o‘z faoliyatining subyekti sifatida qaror qabul qilishga, tanlangan usul samaradorligini tekshirishga va keyingi faoliyatini dalillarga tayangan holda o‘zgartirishga o‘rgatadi.

Pedagogik amaliyotda strategiyalarni modellashtirish, metakognitiv savollar, refleksiv kundalik, o‘zini baholash mezonlari, konstruktiv teskari aloqa va raqamli qo‘llab-quvvatlash vositalarini uyg‘un qo‘llash tavsiya etiladi. Bunda o‘qituvchi yordami o‘quvchi tajribasi ortgani sari bosqichma-bosqich kamaytirilib, mustaqillik va mas’uliyatning oshishiga sharoit yaratilishi lozim.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

1. Theobald M. Self-regulated learning training programs enhance university students' academic performance, self-regulated learning strategies, and motivation: A meta-analysis // Contemporary Educational Psychology. 2021. Vol. 66. Article 101976. DOI: 10.1016/j.cedpsych.2021.101976.
2. Chen S., McDunn B.A. Metacognition: History, measurements, and the role in early childhood development and education // Learning and Motivation. 2022. Vol. 78. Article 101786. DOI: 10.1016/j.lmot.2022.101786.
3. Students' metacognitive knowledge of learning-strategy effectiveness and their recall of teachers' strategy instructions // Frontiers in Education. 2024. Vol. 9. DOI: 10.3389/feduc.2024.1307485.
4. Guo L. The effects of self-monitoring on strategy use and academic performance: A meta-analysis // International Journal of Educational Research. 2022. Vol. 112. Article 101939. DOI: 10.1016/j.ijer.2022.101939.
5. Goal setting in higher education: how, why, and when are students prompted to set goals? A systematic review // Frontiers in Education. 2024. DOI: 10.3389/feduc.2024.1511605.
6. The evolution of metacognitive strategy use in an open-ended learning environment: Do prior domain knowledge and motivation play a role? // Contemporary Educational Psychology. 2022. Vol. 69. Article 102064. DOI: 10.1016/j.cedpsych.2022.102064.
7. How am I going and where to next? Elaborated online feedback improves university students' self-regulated learning and performance // The Internet and Higher Education. 2022. Vol. 55. Article 100872. DOI: 10.1016/j.iheduc.2022.100872.
8. Individuals in a group: Metacognitive and regulatory predictors of learning achievement in collaborative learning // Learning and Individual Differences. 2022. Vol. 96. Article 102146. DOI: 10.1016/j.lindif.2022.102146.
9. Sikström P., Valentini C., Sivunen A., Kärkkäinen T. How pedagogical agents communicate with students: A two-phase systematic review // Computers & Education. 2022. Vol. 188. Article 104564. DOI: 10.1016/j.compedu.2022.104564.
10. Hauk D., Gröschner A. How effective is learner-controlled instruction under classroom conditions? A systematic review // Learning and Motivation. 2022. Vol. 80. Article 101850. DOI: 10.1016/j.lmot.2022.101850.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

ZAMONAVIY TA'LIMDA METAKOGNITIV KO'NIKMALARNI SHAKLLANTIRISHDA IBN SINO MEROSINING PEDAGOGIK AHAMIYATI.

Usmanova E'zoza Zokirjonovna, Namangan davlat universiteti tadqiqotchisi.

Annotatsiya

KIRISH: ushbu maqolada metakognitiv ko'nikmalarni zamonaviy ta'lim jarayonida shakllantirishda Abu Ali ibn Sino (Avitsenna) ilmiy va falsafiy merosining pedagogik salohiyati ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Metakognitsiya – bu o'z fikrlash jarayonlarini tushunish, nazorat qilish va boshqarish qobiliyati bo'lib, u zamonaviy ta'limning samaradorligini oshirishda muhim vosita sifatida qaraladi. Tadqiqotda Ibn Sino metodologik yondashuvlari, xususan, uning "Sharh al-Qonun" va "Kitab al-Shifa" asarlaridagi bilimlarni tizimli o'rganish, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish va o'zini baholashga yo'naltirilgan yondashuvlari o'rganiladi.

MAQSAD: Abu Ali ibn Sino ilmiy va falsafiy merosining metakognitiv ko'nikmalarni shakllantirishdagi pedagogik salohiyatini nazariy jihatdan asoslash va uni zamonaviy ta'lim jarayoniga integratsiya qilish imkoniyatlarini yoritishdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda kompleks pedagogik-metodologik yondashuv qo'llanilib, Ibn Sinoning "Sharh al-Qonun" va "Kitab al-Shifa" asarlarini o'rganishda tarixiy-analitik, zamonaviy metakognitiv texnologiyalar bilan qiyoslashda komparativ hamda o'quvchilarning reflektiv va self-monitoring qobiliyatlarini baholashda eksperimental metodlardan foydalanildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: Ibn Sino asarlaridagi bilimlarni tizimli o'rganish va tanqidiy tahlil qilish prinsiplari J. H. Flavell hamda D. Kuhnning metakognitsiya nazariyalari bilan solishtirildi; individual kognitiv va ijtimoiy-interaktiv yondashuvlarni birlashtiruvchi pedagogik mexanizmlar asoslandi.

XULOSA: Ibn Sino pedagogik merosini zamonaviy ta'lim texnologiyalari bilan integratsiya qilish o'quvchilarning mustaqil fikrlash, tanqidiy tafakkur, o'zini baholash va o'quv faoliyatini boshqarish kompetensiyalarini samarali rivojlantirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: metakognitsiya, ta'lim jarayoni, Ibn Sino, pedagogik meros, tanqidiy fikrlash, o'zini baholash, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, mustaqil fikrlash, o'quvchilarning kognitiv rivojlanishi.

ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ НАСЛЕДИЯ ИБН СИНО В ФОРМИРОВАНИИ МЕТАКОГНИТИВНЫХ НАВЫКОВ В СОВРЕМЕННОМ ОБРАЗОВАНИИ.

Усманова Эъзоза Зокиржоновна, исследователь Наманганского государственного университета.

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в данной статье научно анализируется педагогический потенциал научного и философского наследия Абу Али Ибн Сино (Авиценны) при

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

формировании метакогнитивных навыков в современном образовательном процессе. Метакогниция — это способность понимать, контролировать и управлять собственными мыслительными процессами, рассматриваемая как важный инструмент повышения эффективности современного обучения. В исследовании изучаются методологические подходы Ибн Сино, в частности его подходы к систематическому изучению знаний, развитию критического мышления и направлению на самооценку, представленные в трудах «Шарх аль-Конун» и «Китаб аль-Шифа».

ЦЕЛЬ: научно обосновать педагогический потенциал научного и философского наследия Абу Али Ибн Сины (Авиценны) в формировании метакогнитивных навыков и определить возможности его интеграции в современный образовательный процесс.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании использован комплексный педагогико-методологический подход, сочетающий историко-аналитический метод при изучении трудов Ибн Сины «Шарх аль-Канун» и «Китаб аль-Шифа», компаративный метод при сопоставлении с современными метакогнитивными технологиями и экспериментальный метод для оценки рефлексивных навыков учащихся.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: раскрыта взаимосвязь между методологическими подходами Ибн Сины к систематизации знаний и теориями метапознания Дж. Флавелла и Д. Кун; обоснован интегративный подход, объединяющий индивидуальную когнитивную деятельность и социальное взаимодействие.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: синтез историко-педагогического наследия Ибн Сины и современных образовательных технологий способствует эффективному развитию у учащихся критического мышления, самооценки и навыков самостоятельного управления учебной деятельностью.

Ключевые слова: метакогниция, образовательный процесс, Ибн Сино, педагогическое наследие, критическое мышление, самооценка, современные педагогические технологии, самостоятельное мышление, когнитивное развитие учащихся.

THE PEDAGOGICAL SIGNIFICANCE OF IBN SINA'S HERITAGE IN DEVELOPING METACOGNITIVE SKILLS IN MODERN EDUCATION.

Usmanova E'zoza Zokirjonovna, Researcher, Namangan State University.

Annotation

INTRODUCTION: this article scientifically analyzes the pedagogical potential of the scientific and philosophical heritage of Abu Ali Ibn Sina (Avicenna) in developing metacognitive skills in the modern educational process. Metacognition—the ability to

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

understand, monitor, and regulate one's own thinking processes—is viewed as an essential tool for enhancing the effectiveness of contemporary education. The study examines Ibn Sina's methodological approaches, particularly his strategies for systematic study of knowledge, fostering critical thinking, and promoting self-assessment, as reflected in his works Sharh al-Qanun and Kitab al-Shifa.

AIM: to scientifically substantiate the pedagogical potential of Abu Ali Ibn Sina's (Avicenna) scientific and philosophical heritage in developing metacognitive skills and to examine its integration into contemporary educational practices.

MATERIALS AND METHODS: a comprehensive methodological framework was applied, combining a historical-analytical examination of Ibn Sina's works Sharh al-Qanun and Kitab al-Shifa, a comparative analysis against modern metacognitive frameworks, and experimental methods to evaluate students' reflective and self-regulatory skills.

DISCUSSION AND RESULTS: the study aligned Ibn Sina's systematic knowledge strategies with the metacognitive theories of J. H. Flavell and D. Kuhn, establishing a model that harmonizes individual cognitive control with interactive learning mechanisms.

CONCLUSION: Integrating Ibn Sina's pedagogical heritage with modern teaching technologies enhances students' critical thinking, self-assessment, and autonomous learning capacities, transforming passive study into conscious self-regulated cognition.

Keywords: metacognition, educational process, Ibn Sina, pedagogical heritage, critical thinking, self-assessment, modern pedagogical technologies, independent thinking, students' cognitive development.

Zamonaviy ta'lim jarayonlarida o‘quvchilarning kognitiv va metakognitiv kompetensiyalarini rivojlantirish pedagogikaning eng dolzarb muammolaridan biridir. Metakognitsiya – bu insonning o‘z fikrlash jarayonlarini anglash, nazorat qilish va boshqarish qobiliyati bo‘lib, u ta'limning samaradorligini oshirishda markaziy o‘rin tutadi. Bugungi kunda ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, metakognitiv ko‘nikmalarga ega bo‘lgan shaxslar nafaqat murakkab muammolarni yechishda yuqori natijaga erishadi, balki o‘z bilim jarayonlarini tizimli ravishda tahlil qilish va optimallashtirish imkoniyatiga ham ega bo‘ladi. Shu nuqtai nazardan, metakognitiv yondashuvlarni o‘quv jarayoniga integratsiya qilish pedagogik innovatsiyalarning ajralmas qismi hisoblanadi [1].

Metakognitiv ko‘nikmalarni shakllantirish masalasi nafaqat zamonaviy pedagogika, balki tarixiy pedagogik meros nuqtai nazaridan ham katta ahamiyatga ega. Shu bilan bog‘liq holda, Abu Ali ibn Sino (Avitsenna) pedagogik va ilmiy merosi, ayniqsa uning “Sharh al-Qonun” va “Kitab al-Shifa” asarlaridagi tizimli yondashuvlari, tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan metodik tamoyillari zamonaviy ta'lim jarayonlarida metakognitiv kompetensiyalarni shakllantirish uchun muhim manba sifatida baholanadi. Ibn Sino tafakkur va kognitiv jarayonlarni sistematik o‘rganishga oid konseptual yondashuvlari, shuningdek, o‘z-o‘zini baholash va bilimlarni mustaqil qayta ishlashga yo‘naltirilgan

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

metodologik prinsiplari ta'lim jarayonida o'quvchilarning metakognitiv rivojlanishini rag'batlantirishda asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi[2]. Zamonaviy pedagogik amaliyotda metakognitiv yondashuvlarni shakllantirishning bir qancha strategiyalari mavjud. Ular orasida reflektiv mashg'ulotlar, o'qituvchilar tomonidan kognitiv strategiyalarni targ'ib qilish, o'quvchilarning o'z faoliyatini rejalashtirish va natijalarni tahlil qilishga yo'naltirilgan metodikalar muhim o'rin tutadi [3]. Shu bilan birga, tarixiy pedagogik manbalarni o'rganish, xususan Ibn Sino ilmiy merosi, metakognitiv yondashuvlarni shakllantirishda konseptual asoslarni yaratadi va o'quv jarayonini chuqurlashtiradi. Ibn Sino pedagogik qarashlarida ta'lim jarayoni nafaqat bilim olish, balki shaxsning o'z tafakkur jarayonlarini nazorat qilish va o'zini rivojlantirish vositasi sifatida qaraladi.

Tadqiqotning asosiy vazifalaridan biri – zamonaviy ta'limda metakognitiv ko'nikmalarni shakllantirishda Ibn Sino merosining pedagogik ahamiyatini ilmiy asoslashdir. Bu esa o'z navbatida quyidagi masalalarni o'z ichiga oladi: 1) metakognitiv kompetensiyalarni nazariy tushuntirish; 2) Ibn Sino asarlaridagi metodologik yondashuvlar va ularning zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan integratsiyasi; 3) o'quvchilarning kognitiv va metakognitiv rivojlanishini baholash mezonlarini ishlab chiqish[4]. Shu maqsadlar doirasida maqola quyidagi tadqiqot yo'nalishlarini qamrab oladi: metakognitiv ko'nikmalarni shakllantirishning nazariy asoslari, Ibn Sino pedagogik merosi va uning zamonaviy ta'limga tatbiqi, shuningdek o'quv jarayonida metakognitiv yondashuvlarni amalga oshirish strategiyalari. Tadqiqot natijalari o'quv jarayonida mustaqil fikrlash, o'zini baholash va tanqidiy tafakkurni rivojlantirishda tarixiy va zamonaviy pedagogik tajribani uyg'unlashtirish zaruratini tasdiqlaydi.

Pedagogik jarayonda metakognitiv kompetensiyalarni shakllantirishning ilmiy asoslari bilan bir qatorda, maqolada bu jarayonni amalga oshirishda metodologik yondashuvlar, o'quvchilarning kognitiv faoliyatini nazorat qilish, o'z-o'zini tahlil qilish va mustaqil bilim olishga yo'naltirish usullari ham yoritiladi. Shu bilan birga, maqola Ibn Sino merosi va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni uyg'unlashtirish orqali ta'lim jarayonida o'quvchilarning metakognitiv rivojlanishini optimallashtirish imkoniyatlarini ochib beradi[5].

Umuman olganda, tadqiqot nafaqat nazariy pedagogik asoslarni, balki amaliy jihatlarni ham qamrab oladi, bu esa zamonaviy ta'limda metakognitiv ko'nikmalarni shakllantirish jarayonini tizimli va samarali tarzda tashkil etishga imkon yaratadi. Shu nuqtai nazardan, maqola pedagogik nazariya va amaliyot o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni mustahkamlash, o'quvchilarda yuqori darajadagi tanqidiy tafakkur va o'zini rivojlantirish qobiliyatlarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Metakognitsiya va uning ta'lim jarayonida shakllantirilishiga oid ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish pedagogika fanining zamonaviy holatini anglashda muhim ahamiyat kasb etadi. Metakognitsiya kontseptsiyasining asosiy nazariy asoslarini ishlab chiqqanlardan biri amerikalik rivojlanish psixologi John H. Flavell bo'lib, u metakognitsiyani "fikrlashni fikrlash", ya'ni insonning o'z fikrlash jarayonini anglash va nazorat qilish qobiliyati sifatida aniqladi. Flavell metakognitsiyaning ikki asosiy komponenti – metakognitiv bilimlar (o'quv

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

jarayoni, vazifalar va strategiyalar haqidagi bilimlar) va metakognitiv nazorat (rejalashtirish, monitoring va baholash jarayonlari) olduğunu ta'kidladi, bu esa ta'lim jarayonida o'quvchilarning o'zlarini boshqarish hamda rejalashtirish ko'nikmalarini rivojlantirishga zamin yaratadi[6]. Flavellning ishlari metakognitsiya tadqiqotlarini nazariy asoslash bilan cheklanmay, shu fenomenni ta'lim jarayonida faol qo'llash bo'yicha ko'plab tadqiqotlarning poydevorini yaratdi. U kognitiv va metakognitiv strategiyalarni birgalikda qo'llash orqali o'quvchilarning muammolarni yechish qobiliyatini va mustaqil fikrlash darajasini oshirish mumkinligini ko'rsatadi. Flavell metakognitiv yondashuvlarni pedagogik amaliyotga tatbiq etishning nazariy va metodologik yo'nalishlarini ilgari surib, o'quvchilarning bilim olish jarayonini chuqur tushunish va boshqarish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qildi[7]. Zamonaviy metakognitsiya tadqiqotlarining yana bir yetakchi olimi amerikalik psixolog va pedagog Deanna Kuhn bo'lib, u tanqidiy fikrlash va ilmiy asoslangan o'ylash ko'nikmalarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratadi. Kuhnning tadqiqotlari ta'lim jarayonida metakognitiv strategiyalarni integratsiya qilish hamda muhokama, bahs va argumentatsiya orqali o'quvchilarning ilmiy fikrlash qobiliyatlarini mustahkamlash jarayonlarini o'rganishga yo'naltirilgan.

U metakognitsiyaning faqat individual bilim-harakatlari bilan chegaralanmasdan, balki kollektiv o'rganish va muloqotdagi ijtimoiy-asosli mexanizmlar orqali ham shakllanishini ta'kidladi. Bu yondashuv o'quvchilarning o'z fikrlarini izchil asoslash, qarama-qarshi nuqtai nazarlarni tahlil qilish va qaror qabul qilish strategiyalarini rivojlantiradi[8]. Flavell va Kuhnning ilmiy ishlari, shuningdek, keng jahon adabiyotlarida metakognitsiya tadqiqotlari sohasining rivojlanishiga asos bo'lgan. Masalan, so'nggi metakognitsiya bo'yicha bibliometrik tadqiqotlar metakognitiv strategiyalar, ularning baholanishi va pedagogik qo'llanilishi bo'yicha ko'plab ilmiy yo'nalishlarning shakllanganini va ular o'quvchilarning o'rganish jarayonida chuqur anglash va nazorat strategiyalarini rivojlantirishda muhim o'rin tutishini ko'rsatadi . Shu bilan birga, ta'lim sohasidagi ilmiy adabiyotlarda metakognitiv yondashuvlarning amaliy qo'llanilishi, masalan, til o'rganish yoki yuqori ta'lim darajasidagi o'quv jarayonlarida metakognitsiya strategiyalarini mustahkamlash bo'yicha empiric tadqiqotlar ham mavjud.

Bu tadqiqotlar o'quvchilarning metakognitiv bilimlar va strategiyalarni amalda qo'llash orqali o'z o'rganish faoliyatini muvaffaqiyatli boshqarish qobiliyatini oshirganini ko'rsatadi. Natijada, Flavell va Kuhn singari xorijiy olimlarning ishlari metakognitsiya nazariyasi va uning pedagogik implikatsiyalarini chuqur tadqiq etib, ilmiy hamjamiyatda metakognitsiyaning ta'lim jarayonidagi o'rni va ahamiyatini mustahkamladi. Bu tadqiqotlar zamonaviy pedagogik strategiyalarni shakllantirish, ta'lim jarayonini individual va ijtimoiy kontekstda samarali tashkil etish hamda o'quvchilarning mustaqil fikrlash va o'zini baholash ko'nikmalarini rivojlantirish bo'yicha konseptual asoslarni beradi.

Ushbu maqolada metakognitiv ko'nikmalarni shakllantirish jarayonini o'rganishda kompleks pedagogik-metodologik yondashuv qo'llanildi, bunda tarixiy-analitik, komparativ va eksperimental metodlar birlashtirildi. Tarixiy-analitik metod orqali Ibn Sino merosidagi

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

pedagogik qarashlar, xususan, “Sharh al-Qonun” va “Kitab al-Shifa” asarlarida metakognitiv ko‘nikmalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan prinsiplari tizimli tarzda o‘rganildi; bu esa zamonaviy ta’lim kontekstida metakognitiv strategiyalarni shakllantirish uchun nazariy asos yaratdi[9]. Komparativ metod orqali Ibn Sino pedagogik yondashuvlari va zamonaviy metakognitiv texnologiyalar o‘rtasidagi uyg‘unlik va farqlar aniqlanib, pedagogik integratsiya imkoniyatlari tahlil qilindi. Eksperimental metod esa o‘quv jarayonida o‘quvchilarning metakognitiv ko‘nikmalarini baholash, ular orasida reflektiv, rejalashtiruvchi va o‘zini nazorat qilish qobiliyatlarini aniqlashga qaratildi. Shu bilan birga, metodologiyada nazariy va amaliy yondashuvlarni uzviylashtirishga alohida e’tibor qaratilib, o‘quvchilarning mustaqil fikrlash va o‘z-o‘zini baholash qobiliyatlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan strategiyalar ishlab chiqildi. Natijada, maqolada qo‘llangan metodlar nafaqat metakognitiv kompetensiyalarni aniqlash va tahlil qilish, balki Ibn Sino merosini zamonaviy pedagogik amaliyotga samarali tatbiq etish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, zamonaviy ta’lim jarayonida metakognitiv ko‘nikmalarni shakllantirishda Ibn Sino merosi sezilarli pedagogik ahamiyatga ega bo‘lib, u o‘quvchilarning kognitiv va metakognitiv rivojlanishini bir vaqtning o‘zida rag‘batlantiradi. Tadqiqot doirasida o‘rganilgan ma’lumotlar shuni ko‘rsatdiki, Ibn Sino asarlaridagi tizimli yondashuvlar o‘quvchilarga o‘z bilim jarayonlarini rejalashtirish, monitoring qilish va natijalarni baholash imkonini beradi, bu esa metakognitiv strategiyalarni amalda qo‘llashga zamin yaratadi. Shu bilan birga, metakognitiv ko‘nikmalarni rivojlantirish jarayonida o‘quvchilarning tanqidiy tafakkurini rivojlantirish, qaror qabul qilish va o‘z-o‘zini baholash qobiliyatlarini shakllantirish mumkinligi aniqlanadi.

Tadqiqot natijalari shuni ham ko‘rsatdiki, Flavell va Kuhn nazariyalari bilan solishtirganda, Ibn Sino merosi metakognitiv kompetensiyalarni rivojlantirishda integratsiyalashgan yondashuv sifatida xizmat qiladi, bunda individual kognitiv faoliyat va ijtimoiy-interaktiv metodlar uyg‘unlashadi. O‘quvchilarning o‘rganish jarayonida reflektiv mashg‘ulotlar va o‘z-o‘zini baholash mexanizmlarini qo‘llash, shuningdek, bilimlarni tizimli qayta ishlash, muammolarni tahlil qilish va mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantirish metakognitiv rivojlanishni sezilarli darajada kuchaytiradi. Bundan tashqari, tadqiqot amaliy qismida o‘quvchilarga berilgan vazifalar va mashg‘ulotlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, Ibn Sino merosi asosida yaratilgan pedagogik yondashuvlar o‘quvchilarning o‘z faoliyatini rejalashtirish va natijalarni tahlil qilish ko‘nikmalarini yaxshilashda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Shu bilan birga, o‘quvchilarning metakognitiv faoliyatini doimiy monitoring qilish va reflektiv mashg‘ulotlarni tatbiq etish ularning tanqidiy fikrlash darajasini oshirish va bilimlarni chuqur anglash imkonini beradi. Natijalar shuni ham ko‘rsatadiki, zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan Ibn Sino pedagogik prinsiplari integratsiyalashganda, o‘quv jarayoni nafaqat ma’lumotlarni qabul qilish, balki ularni tizimli tahlil qilish, mustaqil qayta ishlash va yangi bilimlarni yaratish jarayoniga aylanadi. Bu esa o‘quvchilarning metakognitiv va kognitiv kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi, shuningdek, ular

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

o‘quv jarayonida faol ishtirok etish, o‘z fikrlarini asoslash va qaror qabul qilish qobiliyatlarini mustahkamlash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Shu tarzda, tadqiqot natijalari Ibn Sino merosining zamonaviy ta’limda metakognitiv ko‘nikmalarni shakllantirishda amaliy va nazariy ahamiyatini tasdiqlaydi, bu esa pedagogik strategiyalarni takomillashtirish va o‘quvchilarning tanqidiy tafakkur, reflektiv baholash va mustaqil o‘rganish qobiliyatlarini oshirish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Metakognitsiya nazariyasi va uning ta’lim jarayonida qo‘llanilishi masalasida John H. Flavell va Deanna Kuhn tadqiqotlarida sezilarli ilmiy bahslar mavjud. Flavell metakognitsiyani asosan individual kognitiv jarayonlar kontekstida tushuntirib, uning ta’lim jarayonidagi rolini o‘quvchining o‘z fikrlashini rejalashtirish, monitoring qilish va baholash qobiliyatlarini rivojlantirish orqali amalga oshirish mumkinligini ta’kidladi. Flavell fikricha, metakognitiv bilimlar va nazoratning uyg‘unligi o‘quvchilarda chuqur anglash va mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirishning asosiy omili bo‘lib, ta’lim jarayonining samaradorligini belgilaydi[10].

Shu nuqtai nazardan, u metakognitsiya pedagogikasini individual psixologik xususiyatlarni hisobga olgan holda o‘quv jarayonini tashkil etish bilan bog‘laydi. Boshqa tomondan, Kuhn metakognitsiyani faqat individual kognitiv yondashuv sifatida emas, balki ijtimoiy interaktiv jarayonlar orqali shakllanadigan kompleks fenomen sifatida ko‘radi. U tanqidiy fikrlash, argumentatsiya va muhokama orqali metakognitiv strategiyalarni rivojlantirishni ta’kidlaydi, shuningdek, o‘quvchilar o‘z fikrlarini izchil asoslash va qarama-qarshi nuqtai nazarlarni tahlil qilish orqali kognitiv va metakognitiv ko‘nikmalarini chuqurlashtiradi. Kuhnning yondashuvi metakognitsiyani jamiyat bilan bog‘liq kontekstda rivojlantirishni taklif qiladi, bu esa o‘quvchilarning kollektiv o‘rganish jarayonidagi faol ishtirokini rag‘batlantiradi.

Flavell va Kuhnning qarashlari orasidagi ilmiy bahsning markaziy nuqtasi – metakognitsiya shakllanishida individual psixologik jarayonlar va ijtimoiy interaktiv jarayonlarning ahamiyati masalasi. Flavellning yondashuvi metodologik aniqlik va nazariy tizimni rivojlantirishga qaratilgan bo‘lsa, Kuhn yondashuvi amaliy pedagogik kontekst va o‘quvchilarning ijtimoiy muloqot orqali o‘z fikrlashini rivojlantirishga urg‘u beradi. Shu bilan birga, har ikki yondashuv bir-birini inkor etmay, balki metakognitsiyani shakllantirishning kompleks modelini yaratish imkoniyatini beradi, bunda individual nazorat va reflektiv faoliyat bilan jamiyat bilan bog‘liq muhokama jarayonlari uyg‘unlashadi. Bu bahslar, ayniqsa,

Ibn Sino merosini zamonaviy ta’lim jarayoniga integratsiya qilish nuqtai nazaridan muhimdir, chunki Ibn Sino pedagogik prinsiplari ham o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish va bilimlarni tizimli qayta ishlashga yo‘naltirilgan bo‘lib, Flavell va Kuhnning yondashuvlarini birlashtirish orqali metakognitiv kompetensiyalarni shakllantirishga ilmiy asos yaratadi. Shu tariqa, metakognitsiya nazariyasi va amaliyotining bu ikki yondashuvi zamonaviy ta’limda Ibn Sino merosini pedagogik jihatdan samarali tatbiq etish

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

imkoniyatlarini ochib beradi va o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash, reflektiv baholash va o‘z-o‘zini boshqarish ko‘nikmalarini optimallashtiradi.

Ushbu maqolada zamonaviy ta’lim jarayonida metakognitiv ko‘nikmalarni shakllantirishda Ibn Sino pedagogik merosining ahamiyati ilmiy tarzda tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, Ibn Sino asarlaridagi tizimli yondashuvlar va metakognitiv prinsiplardan foydalanish o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, tanqidiy tafakkur, reflektiv baholash va o‘z-o‘zini boshqarish ko‘nikmalarini sezilarli darajada rivojlantiradi. Flavell va Kuhnning metakognitsiya nazariyasi bilan taqqoslash orqali, maqola metakognitiv strategiyalarni shakllantirishda individual kognitiv va ijtimoiy-interaktiv yondashuvlarning uyg‘unligi muhimligini ko‘rsatdi. Shu bilan birga, maqola zamonaviy pedagogik texnologiyalar va tarixiy pedagogik merosni integratsiya qilish orqali o‘quv jarayonini chuqurlashtirish va o‘quvchilarning kognitiv va metakognitiv rivojlanishini optimallashtirish imkoniyatlarini aniqladi. Natijada, Ibn Sino merosini pedagogik amaliyotga tatbiq etish metakognitiv ko‘nikmalarni rivojlantirishda ilmiy asoslangan va samarali strategiya sifatida xizmat qiladi, bu esa zamonaviy ta’lim tizimida o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash va mustaqil o‘rganish qobiliyatlarini mustahkamlash imkonini beradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Turg‘unboyev K., Tolipov M., Oxunov I. Ijtimoiy pedagogika asoslari //O'quv qo'llanma. Toshkent" Fan va texnologiya. – 2008.
2. Alimova K. D. Abu ali ibn sino: inson kamolotida innovatsion pedagogik-psixologik qarashlar //tanqidiy nazar, tahliliy tafakkur va innovatsion g‘oyalar. – 2025. – T. 1. – №. 1. – C. 79-82.
3. Xamidova M. U. Maxsus pedagogika //T.: Fan va texnologiya. – 2018.
4. Kodirova S. A. Buyuk mutafakkir abu ali ibn sinoning ma’naviy-ma’rifiy qarashlari. – 2025.
5. Hasanboyev J. et al. „Pedagogika (pedagogika nazaryasi va tarixi) //O'zR Oliy va o'rta ta'lim vazirligi Toshkent Nashir. – 2011.
6. Tolibov S. O. Pedagogik fikrda mahorat tarixi va maktab amaliyotida o’qituvchi mahorati pedagogik imkoniyatlar //pedagogik islohotlar va ularning yechimlari. – 2026. – T. 18. – №. 02. – C. 333-336.
7. Mamurov B. Umumiy pedagogika //Darslik. Toshkent. – 2020.
8. Dostanova K. Ibn Sino Asarlarida Emotsiyalarning Shaxs Faoliyatiga Ta'siri Talqini //Maktabgacha va Maktab Ta’limi Jurnali. – C. 675285.
9. Ochilov M., Ochilova N. Oliy maktab pedagogikasi //T.-2008. – 2014.
10. Rahmonqulova N. X., Matnazarova K. O. Pedagogika nazariyasi va tarixi //Toshkent-2010. – 2010.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABLARIDA ROBOTOTEXNIKANI O‘QITISHDA INTERAKTIV TA’LIM METODLARIDAN FOYDALANISH.

Axunbetova Zuxra Nailevna, Nukus davlat texnika universiteti, assistant-o‘qituvchisi.
axunbetovazuxra@gmail.com

Annotatsiya

KIRISH: mazkur maqolada umumiy o‘rta ta’lim maktablarida robototexnikani o‘qitishda interaktiv ta’lim metodlaridan foydalanish masalalari tahlil qilingan. Robototexnika mashg‘ulotlarida kichik guruhlarda ishlash, muammoli topshiriqlar, savol-javob va o‘zaro muhokamadan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari yoritilgan. Interaktiv metodlarni mashg‘ulotning mazmuni va amaliy topshiriqlar xususiyatiga mos tanlashga alohida e’tibor qaratilgan. Tahlil natijasida mazkur metodlarni robototexnika mashg‘ulotlarining turli bosqichlarida qo‘llashga doir metodik tavsiyalar shakllantirilgan.

MAQSAD: maktablarda robototexnika darslarida interaktiv ta’lim metodlaridan foydalanish imkoniyatlarini tahlil qilish hamda ularni mashg‘ulotning turli bosqichlariga mos holda qo‘llash bo‘yicha metodik tavsiyalar va amaliy ketma-ketlikni ishlab chiqishdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqot nazariy-tahliliy xarakterga ega bo‘lib, unda robototexnika va interaktiv ta’limga oid mahalliy va xalqaro ilmiy adabiyotlarni o‘rganish, qiyosiy tahlil, umumlashtirish va pedagogik modellashtirish metodlaridan foydalanildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: robototexnika mashg‘ulotlarida interaktiv metodlarni tanlash bajariladigan topshiriq va dars bosqichiga bog‘liqligi ko‘rsatib berildi, guruhlarda amaliy vazifalarni taqsimlash mexanizmlari hamda “muammoni qo‘yish → fikr almashish → yechim tanlash → amaliy bajarish → sinov → muhokama → xatoni aniqlash → xulosa” shaklidagi interaktiv faoliyat ketma-ketligi taklif etildi.

XULOSA: interaktiv metodlar va o‘qituvchining yo‘naltiruvchi savollari o‘quvchilarning hamkorlikdagi muloqotini hamda muammoli yechimlarni izlash ko‘nikmalarini rivojlantirib, dars jarayonini tayyor ko‘rsatmalarni takrorlashdan faol ta’lim muhitiga aylantirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: robototexnika, interaktiv ta’lim, interaktiv metod, umumiy o‘rta ta’lim, guruhli faoliyat, muammoli topshiriq, hamkorlik, amaliy mashg‘ulot.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ ОБУЧЕНИЯ ПРИ ПРЕПОДАВАНИИ РОБОТОТЕХНИКИ В ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛАХ.

Ахунбетова Зухра Наилевна, ассистент Нукусского государственного технического университета.

Аннотация

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

ВВЕДЕНИЕ: в статье рассматриваются вопросы использования интерактивных методов при обучении робототехнике в общеобразовательных школах. Раскрываются педагогические возможности работы в малых группах, проблемных заданий, вопросов и ответов, а также совместного обсуждения на занятиях по робототехнике. Особое внимание уделяется выбору интерактивных методов в соответствии с содержанием занятия и характером практических заданий. На основе проведённого анализа сформулированы методические рекомендации по их применению на различных этапах занятий по робототехнике.

ЦЕЛЬ: анализ возможностей использования интерактивных методов на уроках робототехники и разработка методических рекомендаций по их адаптации к различным этапам учебного занятия.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: исследование носит теоретико-аналитический характер; применялись методы анализа отечественной и зарубежной научной литературы по робототехнике и интерактивному обучению, сравнительного анализа, обобщения и педагогического моделирования.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: обосновано, что выбор интерактивного метода зависит от характера практических задач и этапа урока; предложены механизмы распределения ролей при работе в малых группах и поэтапная последовательность интерактивной деятельности: «постановка проблемы → обмен мнениями → выбор решения → практическая реализация → тестирование → обсуждение → поиск ошибок → выводы».

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: сочетание интерактивных методов и направляющих вопросов педагога способствует развитию коммуникации и навыков совместного решения проблем, превращая уроки робототехники из воспроизведения инструкций в среду активного обучения.

Ключевые слова: робототехника, интерактивное обучение, интерактивные методы, общее среднее образование, групповая деятельность, проблемное задание, сотрудничество, практическое занятие.

USING INTERACTIVE TEACHING METHODS IN TEACHING ROBOTICS IN GENERAL SECONDARY SCHOOLS.

Axunbetova Zuxra Nailevna, Assistant Teacher at Nukus State Technical University.

Annotation

INTRODUCTION: the article examines the use of interactive teaching methods in robotics education in general secondary schools. The pedagogical possibilities of small-group work, problem-based tasks, question-and-answer activities and collaborative discussion in robotics lessons are considered. Particular attention is paid to selecting interactive methods according to lesson content and the nature of practical tasks. Based

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

on the analysis, methodological recommendations for using interactive methods at different stages of robotics lessons are presented.

AIM: to analyze the opportunities for applying interactive learning methods in school robotics education and to formulate stage-specific methodological recommendations and operational frameworks for classroom implementation.

MATERIALS AND METHODS: the study followed a theoretical and analytical approach, employing scientific literature analysis of domestic and international sources on robotics and interactive pedagogy, alongside comparative analysis, synthesis, and pedagogical modeling.

DISCUSSION AND RESULTS: the findings demonstrate that selecting interactive methods depends on task characteristics and lesson stages; a target-oriented role distribution in small groups was established, and an interactive cycle ("problem statement → brainstorming → solution choice → practical task → testing → discussion → error detection → conclusion") was proposed.

CONCLUSION: integrating interactive techniques with scaffolded teacher questioning enhances peer collaboration and problem-solving skills, shifting the robotics learning process from passive task replication to an active, student-centered environment.

Keywords: robotics, interactive learning, interactive methods, general secondary education, group activity, problem-based task, collaboration, practical lesson.

Robototexnika umumiy o‘rta ta’limda nazariy bilimni amaliy faoliyat bilan bog‘lash imkonini beradigan yo‘nalishlardan biridir. Mashg‘ulot davomida o‘quvchi robot konstruksiyasini yig‘ish, elektron elementlarni ulash, algoritm tuzish, dasturlash va tayyor qurilmani sinovdan o‘tkazish kabi bir-biri bilan bog‘liq vazifalarni bajaradi. Bunday faoliyat o‘quvchidan faqat o‘qituvchi ko‘rsatmasini takrorlashni emas, balki muammoni tushunish, yechim izlash va o‘z qarorini asoslashni ham talab qiladi. Shu jihatdan robototexnika mashg‘ulotlarida interaktiv ta’lim metodlaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Interaktiv metodlarda o‘quvchi ta’lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylanadi, o‘qituvchi esa faoliyatni tashkil etish va yo‘naltirish vazifasini bajaradi [1].

Robototexnika darslarida bunday yondashuv kichik guruhlarda ishlash, muammoli topshiriqlarni yechish, savol-javob va o‘zaro muhokama orqali amalga oshirilishi mumkin. Robototexnikaning amaliy xususiyati o‘quvchilar o‘rtasida tabiiy hamkorlik muhitini yaratadi. Bir guruh doirasida konstruksiyani yig‘ish, dastur tuzish, sensorlarning ishlashini tekshirish va aniqlangan xatoni bartaraf etish jarayonida o‘quvchilar o‘z fikrlarini taqqoslaydi va umumiy qarorga keladi. Hamkorlikda robototexnikani o‘rganishga oid tadqiqotlarda ham o‘quvchilarning birgalikdagi faoliyati ta’lim jarayonining muhim tarkibiy qismi sifatida ko‘rsatilgan [2].

Biroq darsda o‘quvchilarni guruhlarga ajratishning o‘zi interaktiv ta’limni ta’minlamaydi. Topshiriqning mazmuni, guruh a’zolarining vazifalari va o‘qituvchining

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

yo‘naltiruvchi savollari o‘zaro bog‘liq bo‘lishi kerak. Aks holda, guruhdagi faoliyatning asosiy qismini bir yoki ikki o‘quvchi bajarib, qolgan o‘quvchilar kuzatuvchi bo‘lib qolishi mumkin. Mazkur tadqiqotning maqsadi umumiy o‘rta ta’lim maktablarida robototexnikani o‘qitishda interaktiv ta’lim metodlaridan foydalanish imkoniyatlarini tahlil qilish va ularni mashg‘ulotning turli bosqichlariga mos qo‘llash yo‘llarini aniqlashdan iborat.

Interaktiv ta’lim masalasi pedagogik tadqiqotlarda o‘quvchining faol ishtiroki va ta’lim jarayoni ishtirokchilari o‘rtasidagi hamkorlik bilan bog‘liq holda o‘rganiladi. U. Sodiqov va D. Bozorova interfaol metodlarni qo‘llashda o‘qituvchining vazifasi faqat bilim berish bilan chegaralanmasligini, balki moderator, fasilitator va muvofiqlashtiruvchi faoliyatni ham qamrab olishini qayd etadi [1].

M. Serik, G. Dimirovski va N. Nurym robototexnikani hamkorlikda o‘rganish jarayonini tahlil qilib, robot konstruktorlari bilan birgalikda ishlashda o‘quvchilarning o‘zaro hamkorligi va hisoblash tafakkuri o‘rtasidagi bog‘liqlikka e’tibor qaratgan [2]. Bu robototexnika mashg‘ulotlarida guruhli faoliyatni maqsadli tashkil etish zarurligini ko‘rsatadi. Interaktiv ta’limning umumiy pedagogik asoslarini o‘rgangan G.A. Karaxanova va E.E. Orudjaliyeva ham ta’lim jarayonida o‘quvchilarning faol muloqoti va mustaqil faoliyatini tashkil etish imkoniyatlarini qayd etgan [3].

O‘zbekiston umumta’lim maktablarida interaktiv yondashuvlardan foydalanishga oid tadqiqotlarda esa kichik guruhlar, ijodiy topshiriqlar, hamkorlik va muammoni hal qilishga asoslangan faoliyatlarga alohida e’tibor beriladi [4]. Robototexnika bilan bog‘liq tadqiqotlarda hamkorlik va muammoli faoliyatning o‘rni ham o‘rganilgan. F. Avcı robot modullaridan foydalanilgan mashg‘ulotlarni kooperativ ta’lim asosida tashkil etishning o‘quv jarayoniga ta’sirini tadqiq qilgan [5]. T. Saygılı Yıldırım va O. Şahin İzmirli esa robotik kodlashni muammoga asoslangan ta’lim bilan birlashtirib, maktab o‘quvchilarining kodlash va hisoblash tafakkuri bilan bog‘liq natijalarni tahlil qilgan [6]. R. Barradas va hammualliflarning tadqiqotida ham robototexnika muammoga asoslangan topshiriqlar bilan birgalikda qo‘llanib, o‘quvchilarning muammoni yechish jarayonidagi faoliyatiga e’tibor qaratilgan [7]. Ushbu tadqiqotlar robototexnikani faqat texnik qurilma bilan ishlash sifatida emas, balki o‘quvchilar o‘rtasidagi muloqot va birgalikdagi amaliy faoliyatni tashkil etish imkonini beruvchi ta’lim muhiti sifatida ko‘rib chiqishga asos beradi.

Tadqiqot nazariy-tahliliy yo‘nalishda olib borildi. Unda robototexnika va interaktiv ta’lim metodlariga oid ilmiy adabiyotlarni o‘rganish, qiyosiy tahlil qilish, umumlashtirish va tizimlashtirish usullaridan foydalanildi. Manbalarni tahlil qilishda interaktiv metodlarning robototexnika mashg‘ulotidagi amaliy vazifasiga e’tibor qaratildi. Kichik guruhlarda ishlash, muammoli topshiriq, savol-javob va o‘zaro muhokamaning mashg‘ulotning qaysi bosqichida qo‘llanishi mumkinligi ko‘rib chiqildi. Tadqiqotda tajriba-sinov ishlari o‘tkazilmaganligi sababli natijalar ilmiy manbalarni pedagogik tahlil qilish asosida shakllantirildi.

Tahlil natijalari robototexnika mashg‘ulotlarida interaktiv metodni tanlash, avvalo, bajariladigan vazifaning mazmuniga bog‘liq ekanligini ko‘rsatdi. Robot konstruksiyasini

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

yig‘ish, algoritm tuzish, dasturlash yoki xatoni aniqlash jarayonlari bir xil metodni talab qilmaydi. Shu sababli interaktiv faoliyatni mashg‘ulot bosqichlariga mos tashkil etish maqsadga muvofiq. Mashg‘ulotning boshlanishida muammoli savoldan foydalanish o‘quvchilarning mavzuga qiziqishini uyg‘otishi mumkin.

Masalan, “Robot to‘siqni qanday aniqlaydi?”, “Nima uchun robot belgilangan yo‘nalishdan chiqib ketdi?” yoki “Qaysi sensor ushbu vazifa uchun mos?” kabi savollar o‘quvchini tayyor javobni eslashdan ko‘ra muammoni tahlil qilishga undaydi. Muammoga asoslangan robototexnika mashg‘ulotlarida ham o‘quvchilarning yechim izlash faoliyatiga alohida ahamiyat beriladi [6, 7]. Amaliy bosqichda kichik guruhlarda ishlash qulay hisoblanadi. Guruhli ish samarali bo‘lishi uchun vazifalar aniq taqsimlanishi kerak. Bir o‘quvchi konstruksiyani yig‘ishi, ikkinchisi elektron ulanishlarni tekshirishi, uchinchisi dastur bilan ishlashi, yana biri sinov natijalarini qayd etishi mumkin. Keyingi topshiriqlarda vazifalarning almashtirilishi har bir o‘quvchining turli faoliyatlarda qatnashishiga imkon beradi. Robototexnika bo‘yicha hamkorlikdagi faoliyatni o‘rgangan tadqiqotlar o‘quvchilarning robot bilan birgalikda ishlashi jarayonida o‘zaro muloqot va vazifalarni birgalikda bajarish muhimligini ko‘rsatadi [2, 5].

Shuning uchun guruhli ishda faqat yakuniy robotning ishlashi emas, guruh a’zolarining vazifani qanday bajargani ham e’tiborga olinishi lozim. Savol-javob metodidan robototexnika darsida bilimni tekshirish bilan bir qatorda o‘quvchining tanlagan yechimini tushuntirish uchun ham foydalanish mumkin. “Nima uchun shu sensor tanlandi?”, “Bu buyruq olib tashlansa nima o‘zgaradi?” yoki “Boshqa yechimdan foydalanish mumkinmi?” kabi savollar o‘quvchining o‘z qarorini asoslashiga yordam beradi. Robotni sinovdan o‘tkazish bosqichi o‘zaro muhokama uchun qulay imkoniyat yaratadi. Agar qurilma kutilganidek ishlamasa, o‘qituvchi xatoni darhol ko‘rsatib berish o‘rniga o‘quvchilarga sababni aniqlashga yordam beradigan savollar berishi mumkin. O‘quvchilar dastur, sensor, elektron ulanish yoki konstruksiyani navbat bilan tekshirib, muammoning sababini birgalikda aniqlaydi.

Interaktiv faoliyatni quyidagi tartibda tashkil etish mumkin: muammoni qo‘yish → fikr almashish → yechim variantini tanlash → guruhda amaliy bajarish → sinovdan o‘tkazish → natijani muhokama qilish → xatolarni aniqlash → xulosa chiqarish. Ushbu ketma-ketlik qat’iy dars modeli emas. Mashg‘ulot mavzusi va o‘quvchilarning tayyorgarligiga qarab ayrim bosqichlar qisqartirilishi yoki o‘zgartirilishi mumkin.

Tahlil interaktiv metodlardan foydalanishda uchta jihatga e’tibor berish zarurligini ko‘rsatdi. Interaktiv faoliyat aniq o‘quv vazifasi bilan bog‘lanishi, guruhdagi barcha o‘quvchilar faoliyatda qatnashishi va o‘qituvchi tayyor yechimni berishdan ko‘ra o‘quvchilarni yechimga yo‘naltirishi lozim. Shu shartlarda interaktiv metod robototexnika mashg‘ulotining amaliy mazmuniga mos keladi.

Robototexnikani o‘qitishda interaktiv ta’lim metodlaridan foydalanish o‘quvchilarni amaliy faoliyat va o‘zaro muhokamaga jalb etish imkonini beradi. Kichik guruhlarda ishlash, muammoli topshiriqlar va savol-javob kabi metodlar robototexnika mashg‘ulotining

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

mazmuniga mos ravishda tanlanganda o‘quv jarayonining faol shaklda tashkil etilishiga xizmat qiladi. Interaktiv metodni tanlashda uning nomi yoki yangiligidan ko‘ra, mashg‘ulotda qanday vazifani bajarishi muhimdir. Guruhli ishda o‘quvchilar vazifalarining aniq taqsimlanishi, muammoli topshiriqda esa mustaqil yechim izlash uchun imkoniyat yaratilishi zarur.

Robototexnika mashg‘ulotida o‘qituvchining yo‘naltiruvchi savollari, o‘quvchilarning o‘zaro fikr almashishi va bajarilgan ish natijasini birgalikda tahlil qilishi interaktiv faoliyatning asosiy jihatlari sifatida namoyon bo‘ladi. Bu esa robototexnika darsini tayyor ko‘rsatmalarni takrorlashdan ko‘ra o‘quvchining faol ishtirokiga asoslangan tarzda tashkil etishga imkon beradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Sodikov U., Bozorova D. Interactive methods in the educational process and requirements applied to them // ACTA NUUz. – 2025. – Vol. 1, No. 1.6. – B. 168–170. DOI: 10.69617/nuuz.v1i1.6.8198.
2. Serik M., Dimirovski G., Nurym N. Formation of the computational thinking of students in the process of collaborative learning in robotics // Bulletin of Abai KazNPU. Series of Physical and Mathematical Sciences. – 2023. – Vol. 81, No. 1. – P. 257–264. DOI: 10.51889/2959-5894.2023.81.1.029.
3. Караханова Г.А., Оруджалиева Е.Е. Интерактивные образовательные технологии в подготовке будущего учителя // Известия Дагестанского государственного педагогического университета. Психолого-педагогические науки. – 2020. – Т. 14, № 2. – С. 49–53. DOI: 10.31161/1995-0659-2020-14-2-49-53.
4. Dushaboev O., Mirmuxamedov J., Shodmonqulova Sh. Umumta’lim maktablarida ta’lim sifatini oshirishda interaktiv yondashuvlar asosida dars jarayonini tashkil etish // O‘zMU xabarlari. – 2023. – № 1/12/2.
5. Avcı F. Effects of robotic module-supported experimental activities with the cooperative learning method on student achievement, 21st-century skills, and students’ opinions // Journal of Computer Assisted Learning. – 2024. – Vol. 40, No. 5. – P. 2325–2338. DOI: 10.1111/jcal.13030.
6. Saygılı Yıldırım T., Şahin İzmirli O. Teaching Robotics with Problem Based Learning to Improve Students’ Computational Thinking Skills, Coding Skills and Positive Affects // Croatian Journal of Education. – 2024. – Vol. 26, No. 4. – P. 1249–1295. DOI: 10.15516/cje.v26i4.5651.
7. Barradas R., Lencastre J.A., Soares S.P., Valente A. Arduino-Based Mobile Robotics for Fostering Computational Thinking Development: An Empirical Study with Elementary School Students Using Problem-Based Learning Across Europe // Robotics. – 2024. – Vol. 13, No. 11. – Article 159. DOI: 10.3390/robotics13110159.

© intereduglobalstudy.com

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

RESULTS OF A PEDAGOGICAL EXPERIMENT ON THE MORAL-AESTHETIC EDUCATION OF FUTURE PHYSICAL EDUCATION TEACHERS BASED ON A PERSON-CENTERED APPROACH.

Salokhiddin Qodirov, Professor, Department of Individual Combat Sports, Faculty of Sports Activity, Urgench State University named after Abu Rayhan Beruniy.
qodirovsalohiddin118@gmail.com

Annotation

INTRODUCTION: this article reports the organization, procedure and results of a three-stage pedagogical experiment (ascertaining, formative and control) conducted to evaluate the practical effectiveness of a pedagogical model for developing the moral-aesthetic culture of future physical education teachers on a person-centered basis. The experiment was carried out between 2023 and 2025 at three higher education institutions in Uzbekistan (Urgench State University, Bukhara State University and Navoi State Pedagogical Institute) with 450 students, divided equally into an experimental group (n=225) and a control group (n=225). Students' moral-aesthetic culture was assessed against cognitive, motivational-value and practical-activity criteria, each rated as high, medium or low. Data were analysed using Pearson's χ^2 test. At the ascertaining stage, no statistically significant difference was found between the groups (χ^2=0.16, p>0.05), confirming their initial equivalence. Following the formative stage, in which the model was implemented in the experimental group only, the control stage revealed a statistically significant difference in favour of the experimental group (χ^2=36.61, p<0.01): the share of students at the high level rose from 17.8% to 41.3% in the experimental group, compared with an increase from 16.9% to 21.3% in the control group. The findings confirm that the proposed model produces a significantly greater pedagogical effect than traditional forms of moral-aesthetic education.

AIM: taining, formative, control) was conducted from 2023 to 2025 across three universities in Uzbekistan (UrSU, BSU, NSPI) involving 450 students divided into experimental (n=225) and control (n=225) groups; data were analyzed using Pearson's χ^2 test. **DISCUSSION AND RESULTS:** The ascertaining stage showed no statistically significant difference between groups ($\chi^2 = 0.16, p > 0.05$), whereas the control stage revealed a statistically significant advantage in favor of the experimental group ($\chi^2 = 36.61, p < 0.01$): high-level performance in the experimental group increased from 17.8% to 41.3%, compared to a minor shift from 16.9% to 21.3% in the control group. **CONCLUSION:** The proposed person-centered model demonstrates significantly greater pedagogical effectiveness than traditional instruction, supporting its broader application in physical education teacher training.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

Keywords: person-centered approach; moral-aesthetic education; pedagogical experiment; physical education teacher education; Pearson's χ^2 test.

SHAXSGA YO‘NALTIRILGAN YONDASHUV ASOSIDA BO‘LAJAK JISMONIY TARBIYA O‘QITUVCHILARINI AXLOQIY-ESTETIK TARBIYALASH BO‘YICHA PEDAGOGIK TAJRIBA-SINOV NATIJALARI.

Qodirov Salohiddin, Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti Sport faoliyati fakulteti Yakka kurash sport turlari kafedrasi professori.

Annotatsiya

KIRISH: ushbu maqolada shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv asosida bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining axloqiy-estetik madaniyatini rivojlantirish bo‘yicha pedagogik modelning amaliy samaradorligini baholash maqsadida o‘tkazilgan uch bosqichli (aniqlovchi, shakllantiruvchi va nazorat) pedagogik tajriba-sinov ishlarining tashkil etilishi, borishi va natijalari yoritilgan. Tajriba-sinov ishlari 2023–2025-yillar davomida O‘zbekistonning uchta oliy ta’lim muassasasida (Urganch davlat universiteti, Buxoro davlat universiteti va Navoiy davlat pedagogika instituti) 450 nafar talaba ishtirokida o‘tkazildi hamda ular teng ravishda tajriba (n=225) va nazorat (n=225) guruhlariga bo‘lindi. Talabalarning axloqiy-estetik madaniyati kognitiv, motivatsion-qadriyatli va amaliy-faoliyatli mezonlar bo‘yicha yuqori, o‘rta va quyi darajalarda baholandi. Olingan ma’lumotlar Pirsonning χ^2 (xi-kvadrat) mezonidan foydalanib tahlil qilindi. Aniqlovchi bosqichda guruhlar o‘rtasida statistik jihatdan sezilarli farq aniqlanmadi (χ^2=0.16, p>0.05), bu esa ularning dastlabki tengligini tasdiqladi. Modellashtirish faqat tajriba guruhida amalga oshirilgan shakllantiruvchi bosqichdan so‘ng, nazorat bosqichi tajriba guruhi foydasiga statistik jihatdan muhim farqni ko‘rsatdi (χ^2=36.61, p<0.01): tajriba guruhida yuqori darajaga ega talabalar ulushi 17,8% dan 41,3% ga oshdi, nazorat guruhida esa bu ko‘rsatkich 16,9% dan 21,3% gacha o‘sdi. Olingan natijalar taklif etilgan model axloqiy-estetik tarbiyaning an’anaviy shakllariga qaraganda sezilarli darajada yuqori pedagogik samara berishini tasdiqlaydi.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqot 2023–2025-yillarda O‘zbekistonning uchta oliy ta’lim muassasasida (UrDU, BuxDU, NDPI) 450 nafar talaba ishtirokida uch bosqichda (aniqlovchi, shakllantiruvchi va nazorat) olib borildi; respondents teng ravishda tajriba (n=225) va nazorat (n=225) guruhlariga ajratildi hamda ma’lumotlar Pirsonning χ^2 (chi-kvadrat) mezonidan foydalanib tahlil qilindi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: Aniqlovchi bosqichda guruhlar o‘rtasida statistik farq aniqlanmadi ($\chi^2 = 0{,}16,\ p > 0{,}05$), shakllantiruvchi bosqichdan so‘ng nazorat bosqichida tajriba guruhi foydasiga ishonchli statistik farq qayd etildi ($\chi^2 = 36{,}61, p < 0{,}01$): tajriba guruhida yuqori darajadagi talabalar ulushi 17,8% dan 41,3% ga oshdi, nazorat guruhida esa bu ko‘rsatkich 16,9% dan 21,3% ga o‘sdi.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

XULOSA: taklif etilgan shaxsga yo‘naltirilgan model va bosqichli texnologiya an’anaviy ta’lim usullariga nisbatan sezilarli darajada yuqori pedagogik samaradorlikni namoyon etib, uni o‘qituvchilar tayyorlash amaliyotiga keng joriy etishni asoslaydi.

Kalit so‘zlar: shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv, ma’naviy-estetik tarbiya, pedagogik tajriba, jismoniy tarbiya o‘qituvchilarini tayyorlash, Pirsonning χ^2 mezoni.

РЕЗУЛЬТАТЫ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ЭКСПЕРИМЕНТА ПО НРАВСТВЕННО-ЭСТЕТИЧЕСКОМУ ВОСПИТАНИЮ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ НА ОСНОВЕ ЛИЧНОСТНО-ОРИЕНТИРОВАННОГО ПОДХОДА.

Кадиров Салохиддин, профессор кафедры «Виды спортивных единоборств» факультета спортивной деятельности Ургенчского государственного университета имени Абу Райхана Беруни.

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в данной статье освещаются организация, ход и результаты трехэтапного педагогического эксперимента (констатирующего, формирующего и контрольного), проведенного с целью оценки практической эффективности педагогической модели развития духовно-эстетической культуры будущих учителей физической культуры на основе личностно-ориентированного подхода. Эксперимент проводился в период с 2023 по 2025 год в трех высших учебных заведениях Узбекистана (Ургенчский государственный университет, Бухарский государственный университет и Навоийский государственный педагогический институт) с участием 450 студентов, распределенных поровну на экспериментальную (n=225) и контрольную (n=225) группы. Нравственно-эстетическая культура студентов оценивалась по когнитивному, мотивационно-ценностному и практико-деятельностному критериям на высоком, среднем и низком уровнях. Данные анализировались с использованием критерия χ^2 Пирсона. На констатирующем этапе между группами не было обнаружено статистически значимых различий ($\chi^2 = 0{,}16,\ p > 0{,}05$), что подтвердило их исходную эквивалентность. После формирующего этапа, на котором модель внедрялась только в экспериментальной группе, контрольный этап выявил статистически значимое различие в пользу экспериментальной группы ($\chi^2 = 36{,}61,\ p < 0{,}01$): доля студентов с высоким уровнем в экспериментальной группе выросла с 17,8% до 41,3%, тогда как в контрольной группе — с 16,9% до 21,3%. Полученные результаты подтверждают, что предлагаемая модель обеспечивает значительно больший педагогический эффект по сравнению с традиционными формами нравственно-эстетического воспитания.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

ЦЕЛЬ: экспериментально обосновать практическую эффективность педагогической модели развития духовно-эстетической культуры будущих учителей физической культуры на основе личностно-ориентированного подхода.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: Исследование проводилось в 2023–2025 гг. на базе трех вузов Узбекистана (УрГУ, БухГУ, НГПИ) с участием 450 студентов, разделенных на экспериментальную (n=225) и контрольную (n=225) группы; оценка результатов проводилась в три этапа (констатирующий, формирующий, контрольный) с применением критерия χ^2 Пирсона.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: на констатирующем этапе статистически значимых различий между группами не выявлено ($\chi^2 = 0{,}16$, $p > 0{,}05$), тогда как на контрольном этапе зафиксировано достоверное преимущество экспериментальной группы ($\chi^2 = 36{,}61$, $p < 0{,}01$): доля студентов с высоким уровнем культуры в экспериментальной группе выросла с 17,8% до 41,3%, а в контрольной — с 16,9% до 21,3%.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: Разработанная личностно-ориентированная модель и поэтапная технология обеспечивают существенно более высокий педагогический эффект по сравнению с традиционными формами обучения, что обосновывает ее внедрение в систему подготовки педагогических кадров.

Ключевые слова: личностно-ориентированный подход, духовно-эстетическое воспитание, педагогический эксперимент, подготовка учителей физической культуры, критерий χ^2 Пирсона.

The moral-aesthetic culture of a physical education teacher is widely regarded as an integral component of professional competence, since the teacher's own ethical conduct and aesthetic expressiveness exert a direct educational influence on learners. Traditional approaches to moral-aesthetic education in teacher training institutions tend to rely on verbal, reproductive methods that give insufficient weight to students' individual value orientations. This study was designed to test the hypothesis that a person-centered pedagogical model—comprising a staged technology (diagnosis → cognitive-theoretical → practical-activity → reflection) together with interactive methods such as discussion, case study, role play, moral dilemma analysis and the use of works of art—produces significantly greater gains in students' moral-aesthetic culture than traditional instruction.

The pedagogical experiment was conducted between 2023 and 2025 on the basis of the “Pedagogy and Psychology”, “Primary Education and Sports-Educational Work”, and “Preschool Education” degree programmes at Urgench State University (UrSU), Bukhara State University (BSU) and Navoi State Pedagogical Institute (NSPI). A total of 450 students participated, allocated to an experimental group (EG, n=225) and a control group (CG, n=225) (Table 1).

Table 1. Composition of the research sample

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

Institution	Degree programme	EG (n)	CG (n)	Total
UrSU	Pedagogy and Psychology	45	45	90
UrSU	Primary Education and Sports-Educational Work	40	40	80
BSU	Pedagogy and Psychology	38	37	75
BSU	Preschool Education	35	35	70
NSPI	Primary Education and Sports-Educational Work	37	38	75
NSPI	Preschool Education	30	30	60
Total		225	225	450

The experiment comprised three stages: an ascertaining stage, in which students' initial level of moral-aesthetic development was assessed using questionnaires, tests, observation and interviews, and the equivalence of the two groups was established; a formative stage, in which the pedagogical model and its staged technology were implemented in the experimental group only, while the control group continued with the standard curriculum; and a control stage, in which repeated diagnostics were conducted and initial and final indicators were compared.

Students' moral-aesthetic culture was assessed against three criteria, derived from the cognitive, affective and psychomotor domains of Bloom's taxonomy [2]: a cognitive criterion (knowledge and understanding), a motivational-value criterion (attitudes and values), and a practical-activity criterion (behaviour and conduct). For each criterion, students were classified into high, medium or low levels of development, using knowledge tests, a Likert-scale value-orientation questionnaire, behavioural observation sheets, expert assessment and analysis of reflective diaries and essays. Data were processed using Pearson's χ^2 test (H0: no difference between group distributions; H1: a statistically significant difference exists; $\alpha=0.05$; degrees of freedom $f=2$; critical value $\chi^2_{crit}=5.99$).

At the ascertaining stage, the experimental and control groups showed closely comparable indicators: the share of students at the high level was 17.8% in the EG and 16.9% in the CG; at the medium level, 43.6% and 42.7% respectively; and at the low level, 38.6% and 40.4% respectively (Table 2).

Table 2. Initial (ascertaining-stage) indicators, averaged across the three criteria

Group	High	Medium	Low	Total
Experimental (n=225)	40 (17.8%)	98 (43.6%)	87 (38.6%)	225
Control (n=225)	38 (16.9%)	96 (42.7%)	91 (40.4%)	225

The calculated value was $\chi^2_{emp} \approx 0.16$, well below the critical value of 5.99 ($0.16 < 5.99$). H0 was therefore accepted: no statistically significant difference existed between

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

the groups at the outset, confirming their equivalence and providing a sound basis for the subsequent comparison.

Following the formative stage, repeated diagnostics produced the results shown in Table 3.

Table 3. Final (control-stage) indicators, averaged across the three criteria

Group	High	Medium	Low	Total
Experimental (n=225)	93 (41.3%)	109 (48.4%)	23 (10.2%)	225
Control (n=225)	48 (21.3%)	109 (48.4%)	68 (30.2%)	225

In the experimental group, the share of students at the high level rose from 17.8% to 41.3% (+23.5 percentage points), while the share at the low level fell from 38.6% to 10.2% (−28.4 percentage points). In the control group, change was markedly slower: the high level rose from 16.9% to 21.3% (+4.4 percentage points), and the low level fell from 40.4% to 30.2% (−10.2 percentage points).

The overall χ^2emp value at the control stage was 36.61, substantially exceeding the critical value of 5.99 (and also exceeding the α=0.01 critical value of 9.21). H0 was therefore rejected in favour of H1: the difference between the experimental and control groups was statistically significant at both the 95% and 99% confidence levels. χ^2 values calculated separately for each criterion (cognitive, motivational-value, practical-activity) were 36.72, 35.07 and 38.11 respectively, all well above the critical value, confirming the robustness of the result.

The high-level indicator increased by 23.5 percentage points in the experimental group, compared with 4.4 percentage points in the control group—a rate of growth roughly 5.3 times higher, yielding a net effectiveness gain of 19.1 percentage points attributable to the proposed model. These results support the hypothesis that a person-centered pedagogical model, implemented through a staged technology and interactive methods, produces substantially greater gains in future physical education teachers' moral-aesthetic culture than traditional, predominantly verbal forms of instruction. The magnitude and consistency of the effect across all three criteria suggest that the model's combination of individualized diagnosis, theoretical grounding, guided practice and structured reflection (described in detail in a companion theoretical article [5]) is a plausible mechanism for the observed gains, although the present design does not isolate the relative contribution of each component.

The three-stage pedagogical experiment confirmed that the experimental and control groups were statistically equivalent at the outset (χ^2=0.16<5.99) and that, following implementation of the proposed model, the experimental group showed a statistically significant advantage over the control group at the control stage (χ^2=36.61>5.99, p<0.01), with an overall effectiveness gain of 19.1 percentage points. These findings provide empirical support for the person-centered pedagogical model and justify its wider application in the professional training of physical education teachers.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Law of the Republic of Uzbekistan “On Education”, No. O‘RQ-637, 23 September 2020.
2. Bloom, B. S., Engelhart, M. D., Furst, E. J., Hill, W. H., & Krathwohl, D. R. (1956). Taxonomy of educational objectives: The classification of educational goals. Handbook I: Cognitive domain. New York: Longman.
3. Yo‘ldoshev, J. G‘., & Usmonov, S. A. (2004). Fundamentals of pedagogical technology [Pedagogik texnologiya asoslari]. Tashkent.
4. Yo‘ldoshev, J. G‘. (2000). Towards the renewal of education [Ta’lim yangilanish yo’lida]. Tashkent.

© intereduglobalstudy.com

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

OLIY TA'LIMDA TALABALARNING MUSTAQIL ISHLARINI TASHKIL ETISHDA RAQAMLI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH METODIKASI

Qabulova Sayyora Odilboy qizi, Nukus davlat pedagogika instituti magistranti.
sayyoraqabulova67@gmail.com
Qabulov Bahrom Rustamovich, O.X.U. Xorazm filiali Pedagogika mutaxassisligi 2-bosqich magistranti.

Annotatsiya

KIRISH: mazkur maqolada oliy ta'limda talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etishda raqamli pedagogik texnologiyalardan foydalanish metodikasi yoritilgan. Raqamli ta'lim muhitining elektron ta'lim platformalari, multimedia resurslari, interaktiv topshiriqlar, elektron baholash vositalari va sun'iy intellekt asosidagi yordamchi vositalar orqali mustaqil ta'limni tashkil etish imkoniyatlari tahlil qilingan. Tadqiqotda raqamli texnologiyalarning samaradorligi ularning mavjudligi yoki texnik imkoniyatlari bilan emas, balki aniq pedagogik maqsadlarga muvofiq va metodik jihatdan asoslangan holda qo'llanilishi bilan belgilanishi asoslangan.

MAQSAD: oliy ta'limda talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etishda raqamli pedagogik texnologiyalardan foydalanish metodikasini va uning amaliy metodik modelini ishlab chiqish hamda nazariy jihatdan asoslashdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda ilmiy-metodik adabiyotlarni tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirish, pedagogik kuzatish va modellashtirish metodlaridan foydalanildi; shaxsga yo'naltirilgan, kompetensiyaviy va faoliyatga asoslangan yondashuvlar metodologik basis sifatida olindi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: mustaqil ishni raqamli muhitda tashkil etishning 5 bosqichli (maqsadni belgilash, raqamli resursni tanlash, mustaqil faoliyat, monitoring va teskari aloqa, baholash va refleksiya) metodik modeli hamda 8 bosqichli amaliy tizimi ishlab chiqildi; raqamli texnologiyalardan foydalanish samaradorligi texnik vositaning mavjudligiga emas, balki uning pedagogik maqsadga muvofiqligi va akademik halollik, axborot savodxonligi hamda raqamli tenglik tamoyillariga mosligiga bog'liqligi asoslandi.

XULOSA: taklif etilgan metodik model mustaqil ishni oddiy topshiriq topshirish jarayonidan uzluksiz pedagogik faoliyatga aylantirishga xizmat qiladi hamda o'qituvchining metodik loyihalash va monitoring vazifalarini kuchaytiradi.

Kalit so'zlar: oliy ta'lim, mustaqil ish, mustaqil ta'lim, raqamli pedagogika, raqamli texnologiyalar, elektron ta'lim, LMS, raqamli kompetensiya, akademik halollik, axborot savodxonligi, sun'iy intellekt, refleksiya.

МЕТОДИКА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЦИФРОВЫХ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОРГАНИЗАЦИИ САМОСТОЯТЕЛЬНОЙ РАБОТЫ СТУДЕНТОВ В ВЫСШЕМ ОБРАЗОВАНИИ.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

Кабулова Сайёра Одилбой кизи, магистрант Нукусского государственного педагогического института.
Кабулов Бахром Рустамович, магистрант 2-го курса по специальности «Педагогика» Хорезмского филиала О.Х.У.

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в данной статье освещается методика использования цифровых педагогических технологий при организации самостоятельной работы студентов в высшем образовании. Анализируются возможности организации самостоятельного обучения посредством электронных образовательных платформ, мультимедийных ресурсов, интерактивных заданий, электронных средств оценивания и вспомогательных инструментов на основе искусственного интеллекта. В исследовании обосновано, что эффективность цифровых технологий определяется не их наличием или техническими возможностями, а их целесообразным и методически обоснованным применением в соответствии с конкретными педагогическими целями.

ЦЕЛЬ: разработать и научно обосновать методику и методическую модель применения цифровых педагогических технологий при организации самостоятельной работы студентов в вузе.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании использованы методы анализа научно-методической литературы, сравнения, обобщения, педагогического наблюдения и моделирования на основе личностно-ориентированного, компетентностного и деятельностного подходов.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: разработаны пятиэтапная методическая модель (целеполагание, выбор цифрового ресурса, организация деятельности, мониторинг и обратная связь, оценивание и рефлексия) и практическая модель организации самостоятельной работы; доказано, что эффективность цифровых технологий определяется не их наличием или техническими характеристиками, а целесообразным методическим применением с учетом академической честности, информационной грамотности и цифрового равенства.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: предложенная модель трансформирует самостоятельную работу из формального выполнения заданий в непрерывный педагогический процесс, повышая роль преподавателя в методическом проектировании и сопровождении студентов.

Ключевые слова: высшее образование, самостоятельная работа, самостоятельное обучение, цифровая педагогика, цифровые технологии, электронное обучение, LMS, цифровая компетентность, академическая честность, информационная грамотность, искусственный интеллект, рефлексия.

© intereduglobalstudy.com

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

METHODOLOGY OF USING DIGITAL PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN ORGANIZING THE INDEPENDENT WORK OF STUDENTS IN HIGHER EDUCATION.

Qabulova Sayyora Odilboy qizi, Master's Student at Nukus State Pedagogical Institute.
Qabulov Bahrom Rustamovich, 2nd-year Master's Student in Pedagogy, Khorezm Branch of O.I.U.

Annotation

INTRODUCTION: this article examines the methodology of using digital pedagogical technologies to organize students' independent work in higher education. It analyzes the possibilities of organizing independent learning through electronic learning platforms, multimedia resources, interactive assignments, electronic assessment tools, and artificial intelligence-based educational assistants. The study substantiates that the effectiveness of digital technologies is determined not by their availability or technical capabilities, but by their purposeful and methodologically justified use in accordance with specific pedagogical objectives.

AIM: to develop and methodologically substantiate a framework for integrating digital pedagogical technologies into the organization of students' independent work in higher education.

MATERIALS AND METHODS: the study employed analysis of scientific and methodological literature, comparison, generalization, pedagogical observation, and modeling based on student-centered, competency-based, and activity-based approaches.

DISCUSSION AND RESULTS: a five-stage methodological model (goal setting, resource selection, self-directed activity, monitoring and feedback, assessment and reflection) alongside an 8-step practical model was established; the findings prove that digital technology effectiveness is driven not by technical presence, but by purposeful pedagogical alignment addressing academic integrity, information literacy, and the digital divide.

CONCLUSION: the proposed model converts independent work from mere task submission into a continuous pedagogical process, strengthening the educator's role in instructional design, progress monitoring, and meaningful feedback.

Keywords: higher education, independent work, self-directed learning, digital pedagogy, digital technologies, e-learning, LMS, digital competence, academic integrity, information literacy, artificial intelligence, reflection.

Oliy ta'lim tizimida ta'lim mazmunining yangilanishi, kredit-modul tizimining rivojlanishi va raqamli ta'lim muhitining kengayishi talabaning o'quv jarayonidagi rolini tubdan o'zgartirmoqda. Zamonaviy ta'lim sharoitida talaba tayyor bilimlarni qabul qiluvchi subyekt sifatida emas, balki axborotni mustaqil izlash, tahlil qilish, qayta ishlash va uni amaliy faoliyatda qo'llashga qodir bo'lgan faol o'rganuvchi sifatida shakllanishi zarur. Shu

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

nuqtayi nazardan, talabalarning mustaqil ishlarini samarali tashkil etish oliy ta'limning muhim pedagogik vazifalaridan biri hisoblanadi.

Mustaqil ish talabaning o'qituvchi bevosita ishtirokisiz bajaradigan oddiy topshirig'i emas, balki maqsadni anglash, axborot izlash, manbalarni tanlash, muammoni tahlil qilish, xulosa chiqarish va o'z faoliyatini baholash kabi o'zaro bog'liq jarayonlarni qamrab oluvchi murakkab pedagogik faoliyatdir. Shu sababli o'qituvchi mustaqil ishni faqat topshiriq berish va yakuniy natijani baholash bilan cheklamasligi, balki talabaning mustaqil faoliyatini tashkil etish, yo'naltirish va monitoring qilish uchun zarur metodik sharoitlarni yaratishi lozim.

Ta'lim texnologiyalaridan foydalanish o'quv imkoniyatlarini kengaytirishi mumkin, biroq texnologiyaning ta'limiy qiymati uning aniq pedagogik maqsad bilan bog'langanligiga bevosita aloqador [1]. Shu sababli raqamli texnologiyalarni ta'lim jarayoniga joriy etishning o'zi mustaqil ta'lim sifatining avtomatik ravishda oshishini anglatmaydi. Raqamli vosita pedagogik maqsad, mazmun, topshiriq, metod, teskari aloqa va baholash tizimi bilan uzviy bog'langan taqdirdagina kutilgan natijani berishi mumkin.

Raqamli texnologiyalar talabalarning auditoriyadan tashqaridagi faoliyatini tashkil etish uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Elektron kutubxonalar, LMS platformalari, videodarslar, virtual laboratoriyalar, elektron testlar, forumlar, elektron portfoliolar va boshqa raqamli vositalar mustaqil ta'lim jarayonini tizimli tashkil etish imkonini beradi [2]. Bunday vositalar orqali talaba o'quv materiallariga istalgan vaqtda murojaat qilishi, topshiriqlarni elektron shaklda bajarishi, o'z natijalarini kuzatishi va o'qituvchidan teskari aloqa olishi mumkin.

UNESCOning ta'limda texnologiyalardan foydalanishga oid hisobotlarida ham raqamli vositalardan foydalanish o'quv maqsadlariga mos bo'lishi va ta'lim jarayonining real ehtiyojlari bilan uyg'unlashtirilishi zarurligi ta'kidlangan [3]. Demak, asosiy masala raqamli vositalarning mavjudligi emas, balki ularning mustaqil ishning maqsadi, mazmuni, topshirig'i, monitoringi va baholashi bilan metodik jihatdan qanday uyg'unlashtirilishidadir.

Tadqiqotda ilmiy-metodik adabiyotlarni tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirish, pedagogik kuzatish va modellashtirish metodlaridan foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosini shaxsga yo'naltirilgan, kompetensiyaviy va faoliyatga asoslangan yondashuvlar tashkil etdi.

Raqamli pedagogik texnologiya mazkur tadqiqotda faqat texnik vosita sifatida emas, balki pedagogik maqsad, metod, topshiriq, raqamli resurs, teskari aloqa va baholashning o'zaro bog'langan tizimi sifatida talqin qilinadi. Bunday yondashuvda texnologiya ta'lim jarayonining maqsadi emas, balki belgilangan o'quv natijasiga erishish vositasi hisoblanadi [3].

Mustaqil ishni raqamli muhitda tashkil etish quyidagi ketma-ketlik asosida qaraldi:

maqsad → topshiriq → raqamli resurs → mustaqil faoliyat → monitoring → teskari aloqa → baholash → refleksiya.

Raqamli vositalar funksional jihatdan quyidagi guruhlarga ajratildi:

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

-ta'limni boshqarish vositalari — LMS va elektron kurslar;
-axborot-resurs vositalari — elektron kutubxonalar va ilmiy ma'lumotlar bazalari;
-kommunikativ vositalar — forum, chat va videokonferensiyalar;
-interaktiv vositalar — test, viktorina, simulyatsiya va virtual laboratoriyalar;
-ijodiy vositalar — taqdimot, infografika, video va elektron portfolio;
-baholash vositalari — elektron test, rubrika va o'z-o'zini baholash vositalari;
-sun'iy intellekt asosidagi yordamchi vositalar.

Raqamli texnologiyalarni tanlashda ularning pedagogik maqsadga muvofiqligi, foydalanish qulayligi, talabalar uchun ochiqligi, topshiriq mazmuniga mosligi va natijani baholash imkoniyati hisobga olinishi lozim. Shuningdek, internet va texnik qurilmalardan foydalanish imkoniyatlaridagi farqlar, ya'ni raqamli tengsizlik muammosi ham e'tiborga olinishi zarur [3].

Tahlil natijasida talabalarning mustaqil ishlarini raqamli muhitda tashkil etishning besh bosqichli metodik modeli ishlab chiqildi.

1-bosqich. Maqsadni belgilash. "Mavzuni o'rganish" yoki "referat yozish" kabi umumiy topshiriqlar o'rniga talabaning tahliliy, muammoli va amaliy fikrlashini rivojlantirishga yo'naltirilgan aniq vazifalarni belgilash maqsadga muvofiq.

Mustaqil topshiriq talaba nimani bilishi yoki bajara olishi kerakligini aniq ifodalashi lozim. "Mavzuni o'rganish" yoki "referat yozish" kabi umumiy topshiriqlar o'rniga tahliliy, muammoli va amaliy xarakterdagi vazifalarni berish maqsadga muvofiq.

Masalan, "Raqamli ta'lim vositalarini o'rganing" topshirig'i o'rniga "Uchta raqamli ta'lim vositasini taqqoslang, ularning imkoniyatlarini aniqlang va muayyan fan uchun ulardan foydalanish ssenariysini ishlab chiqing" tarzidagi topshiriq talabaning tahliliy faoliyatini kuchaytiradi.

2-bosqich. Raqamli resursni tanlash

Raqamli vosita topshiriqning mazmuniga mos ravishda tanlanishi kerak. Bir xil vositadan barcha turdagi mustaqil ishlar uchun foydalanish metodik jihatdan samarali emas.

1-jadval.

Mustaqil ish turlari va raqamli texnologiyalardan foydalanish

№	Mustaqil ish turi	Talaba faoliyati	Raqamli vosita	Natija
1	Nazariy tahlil	Manbalarni izlash va taqqoslash	Elektron kutubxona, LMS	Tahliliy matn
2	Muammoli topshiriq	Muammoni aniqlash va yechim topish	Forum, interaktiv platforma	Muammoli yechim
3	Loyiha	Rejalashtirish va mahsulot yaratish	Hamkorlik platformasi	Raqamli loyiha
4	Test	Bilimni tekshirish	Elektron test	Individual natija

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

5	Taqdimot	Axborotni tizimlashtirish	Multimedia vositalari	Taqdimot
6	Portfolio	Ishlarni jamlash va tahlil qilish	Elektron portfolio	Rivojlanish dinamikasi
7	Virtual tajriba	Jarayonni modellashtirish	Virtual laboratoriya	Tajriba va xulosa

Jadvaldan ko‘rinadiki, raqamli vositani tanlashda uning “zamonaviyligi” emas, balki muayyan didaktik vazifani bajarish imkoniyati asosiy mezon hisoblanadi.

3-bosqich. Mustaqil faoliyatni tashkil etish

Talabaga faqat elektron manbalarni taqdim etish yetarli emas. Topshiriqni bajarish algoritmi ham berilishi lozim. Talaba mavzu bo‘yicha muammoni aniqlaydi, ishonchli manbalarni izlaydi, ularni tahlil qiladi, asosiy fikrlarni ajratadi va o‘z xulosasini ishlab chiqadi. Natija belgilangan raqamli formatda taqdim etiladi.

Bunday yondashuv talabaning tayyor axborotni qabul qilishidan ko‘ra uni izlash, qayta ishlash va yangi mazmunga aylantirish faoliyatini kuchaytiradi. Raqamli texnologiyalar mustaqil o‘rganish uchun resurslarni kengaytirishi bilan birga, axborot savodxonligiga bo‘lgan talabni ham oshiradi [4].

4-bosqich. Monitoring va teskari aloqa

Mustaqil ishni faqat yakunda tekshirish o‘rniga uning bajarilish jarayonini bosqichma-bosqich monitoring qilish samarali metodik yondashuv hisoblanadi.

Masalan, loyiha ishida:

-birinchi bosqichda mavzu va maqsad;

-ikkinchi bosqichda foydalaniladigan manbalar;

-uchinchi bosqichda ish rejasi;

-to‘rtinchi bosqichda dastlabki natija;

-yakuniy bosqichda tayyor mahsulot tekshiriladi.

Bunday monitoring o‘qituvchiga talabaning qiyinchiliklarini o‘z vaqtida aniqlash va unga tegishli teskari aloqa berish imkonini beradi.

5-bosqich. Baholash va refleksiya

Mustaqil ishni baholashda faqat tayyor mahsulot emas, balki talabaning uni yaratish jarayoni ham hisobga olinishi lozim. Baholash mezonlari topshiriq berilgan vaqtda talabalarga ma’lum qilinishi kerak.

Baholashda quyidagi mezonlardan foydalanish mumkin:

-mavzuni tushunish;

-manbalardan to‘g‘ri foydalanish;

-tahliliy fikrlash;

-mustaqil xulosa;

-raqamli mahsulot sifati;

-akademik halollik;

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

-refleksiya.

Refleksiya orqali talaba o‘zining nimani o‘rganganini, qaysi bosqichda qiyinchilikka duch kelganini va kelgusida faoliyatini qanday takomillashtirishini aniqlaydi.

Raqamli pedagogik texnologiyalardan foydalanishning metodik shartlari. Raqamli texnologiyalar asosida mustaqil ishlarni tashkil etishda bir nechta muhim metodik shartlarga amal qilish talab etiladi.

Birinchi shart - maqsad va texnologiya mosligi. Har bir raqamli vosita muayyan o‘quv natijasiga xizmat qilishi kerak. Texnologiyadan faqat zamonaviy ko‘rinish yaratish uchun foydalanish metodik jihatdan yetarli emas [1].

Ikkinchi shart - topshiriqning individual xususiyatga ega bo‘lishi. Talabalarning tayyorgarlik darajasi va qiziqishlarini hisobga olgan holda bir mavzu doirasida turli murakkablikdagi topshiriqlar ishlab chiqilishi mumkin.

Uchinchi shart - interaktivlik. Talaba faqat elektron matnni o‘qish yoki videoni ko‘rish bilan cheklanmasdan, savollarga javob berishi, muammolarni yechishi, fikr almashishi va o‘z natijasini tekshirishi zarur.

To‘rtinchi shart - muntazam teskari aloqa. Elektron platformalar orqali o‘qituvchi talabaning xatolarini ko‘rsatishi va ularni tuzatish bo‘yicha tavsiyalar berishi mumkin.

Beshinchi shart - akademik halollik. Talabaning internetdagi tayyor materiallardan yoki sun’iy intellekt vositalaridan foydalanishi butunlay taqiqlanishi emas, balki ulardan foydalanish chegaralari aniq belgilanishi muhim. UNESCOning generativ sun’iy intellekt bo‘yicha tavsiyalarida ham ta’limda AI vositalaridan foydalanish inson markazli yondashuv, etik me’yorlar va tegishli nazorat asosida amalga oshirilishi zarurligi ko‘rsatilgan [5].

Tadqiqot natijalari raqamli pedagogik texnologiyalar talabalarning mustaqil faoliyatini tashkil etish uchun keng imkoniyatlar yaratishini ko‘rsatadi. Biroq raqamlashtirishni an’anaviy topshiriqni elektron shaklga o‘tkazish bilan cheklash mumkin emas. Raqamli vosita mustaqil fikrlash, tahlil qilish, muammoli vaziyatlarni hal etish va o‘z-o‘zini baholash kabi yuqori darajadagi o‘quv faoliyatlarini qo‘llab-quvvatlashi kerak.

Mustaqil ishni raqamlashtirishni shartli ravishda uch darajada ko‘rish mumkin. Birinchi darajada qog‘ozdagi topshiriq elektron shaklga o‘tkaziladi. Ikkinchi darajada interaktiv testlar, forumlar, multimedia va elektron portfolio kabi vositalar orqali talabaning faol ishtiroki ta’minlanadi. Uchinchi darajada esa talabaning natijalariga mos individual topshiriqlar va adaptiv ta’lim elementlaridan foydalaniladi.

Raqamli muhitning muhim muammolaridan biri — axborotning haddan tashqari ko‘pligidir. Internetdagi barcha materiallar ilmiy jihatdan ishonchli emas. Shu sababli talaba manbaning muallifi, nashr sanasi, ilmiy darajasi va mazmuniy ishonchliligini baholashni o‘rganishi kerak [6]. Bu jarayon talabaning axborot savodxonligini rivojlantirish bilan bir qatorda, uning tanqidiy fikrlash kompetensiyasini ham mustahkamlaydi.

Ikkinchi muammo — tayyor materiallardan foydalanish. Mustaqil ish topshiriqlari reproduktiv emas, balki tahliliy va ijodiy shaklda ishlab chiqilsa, talabaning o‘z fikrini ifodalash imkoniyati kengayadi. Masalan, tayyor matnni qayta yozish o‘rniga bir nechta

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

manbani qiyosiy tahlil qilish, mualliflar qarashlarini taqqoslash va mustaqil xulosa chiqarishni talab qiluvchi topshiriqlar berilishi mumkin.

Uchinchi muammo — sun'iy intellektdan foydalanish. AI vositalari ma'lumot izlash, savol shakllantirish, g'oyalarni tartibga solish yoki matnni tahlil qilishda yordamchi vosita bo'lishi mumkin. Biroq yakuniy xulosa va akademik javob talabaning o'z intellektual faoliyatiga asoslanishi kerak [5]. Shu sababli topshiriqlarda AI vositalaridan foydalanishga ruxsat etilgan va taqiqlangan holatlar aniq ko'rsatilishi maqsadga muvofiq.

To'rtinchi muammo — raqamli tengsizlik. Barcha talabalar bir xil texnik imkoniyatga ega bo'lmasligi mumkin. Shu sababli topshiriqlar mobil qurilmada ham bajarilishi, katta hajmdagi fayllarni talab qilmasligi va zarur hollarda muqobil topshirish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak. UNESCO raqamli texnologiyalar ta'limdagi mavjud tengsizliklarni kuchaytirmasligi lozimligini ta'kidlaydi [3].

Beshinchi muammo — o'qituvchining raqamli kompetensiyasi. O'qituvchi nafaqat texnik vositalardan foydalanishni, balki ularni pedagogik maqsad bilan bog'lashni ham bilishi zarur. Raqamli texnologiyalar o'qituvchining rolini kamaytirmaydi; aksincha, uning metodik loyihalash, monitoring va teskari aloqa berish vazifalarini kuchaytiradi [2].

Raqamli muhitda mustaqil ishni tashkil etish modeli. Tadqiqot asosida oliy ta'limda talabalarning mustaqil ishlarini raqamli muhitda tashkil etishning quyidagi amaliy modeli taklif etiladi:

1. Diagnostika – talabaning boshlang'ich bilimlari va raqamli kompetensiyasini aniqlash.
2. Maqsadni belgilash – mustaqil ishning aniq o'quv natijasini shakllantirish.
3. Resurslarni tayyorlash – elektron manbalar, videolar, topshiriqlar va yo'riqnomalarni taqdim etish.
4. Mustaqil faoliyat – talabaning individual yoki guruh shaklida topshiriqni bajarishi.
5. Monitoring – ishning oraliq natijalarini kuzatish.
6. Teskari aloqa – aniqlangan kamchiliklar bo'yicha tavsiyalar berish.
7. Yakuniy baholash – oldindan belgilangan mezonlar asosida natijani baholash.
8. Refleksiya – talabaning o'z faoliyati va natijasini tahlil qilishi.

Mazkur modelning asosiy farqi mustaqil ishni "topshiriq berish – faylni qabul qilish – baho qo'yish" jarayonidan chiqarib, uni uzluksiz pedagogik faoliyat sifatida tashkil etishdan iborat.

Modelning har bir bosqichi keyingi bosqich bilan uzviy bog'langan. Masalan, diagnostika natijalari topshiriq murakkabligini belgilashga xizmat qiladi, maqsadga muvofiq tanlangan raqamli resurs mustaqil faoliyatni qo'llab-quvvatlaydi, monitoring va teskari aloqa esa talabaning xatolarini o'z vaqtida tuzatishga imkon beradi. Yakuniy baholashdan keyingi refleksiya esa mustaqil ishni faqat yakunlangan topshiriq emas, balki keyingi o'quv faoliyatini takomillashtirish vositasiga aylantiradi.

Oliy ta'limda talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etishda raqamli pedagogik texnologiyalardan foydalanish ta'lim jarayonining mazmuni va shakllarini takomillashtirish

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

imkonini beradi. Elektron resurslar, LMS, interaktiv topshiriqlar, virtual laboratoriyalar, elektron portfolio, raqamli baholash vositalari va sun'iy intellekt asosidagi yordamchi texnologiyalar talabaning mustaqil faoliyatini tizimli, uning pedagogik maqsadga muvofiq tanlanishi va ta'lim jarayonining boshqa tarkibiy qisml tashkil etishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijasida raqamli texnologiyalardan foydalanish samarasi texnik vositaning mavjudligidan ko'ra, uning pedagogik maqsadga muvofiq tanlanishi va ta'lim jarayonining boshqa tarkibiy qismlari bilan uyg'unlashtirilishiga bog'liqligi asoslandi. Mustaqil ishni maqsad → topshiriq → raqamli resurs → faoliyat → monitoring → teskari aloqa → baholash → refleksiya ketma-ketligi asosida tashkil etish metodik jihatdan izchil yondashuv sifatida qaraladi.

Raqamli ta'lim muhitida axborot savodxonligi, akademik halollik, raqamli tenglik va sun'iy intellektdan mas'uliyatli foydalanish masalalari alohida ahamiyatga ega. Shu sababli raqamli pedagogikaning asosiy vazifasi an'anaviy topshiriqlarni elektron shaklga o'tkazish emas, balki talabaning mustaqil fikrlashi, axborotni tahlil qilishi, muammolarni hal qilishi va o'z faoliyatini baholashiga imkon beruvchi ta'lim muhitini yaratishdan iborat.

Shuningdek, raqamli vositalardan foydalanishda talabaning individual imkoniyatlari, tayyorgarlik darajasi va texnik sharoitlarini hisobga olish zarur. O'qituvchi esa raqamli vositalarni tanlash, topshiriqlarni loyihalash, jarayonni monitoring qilish va sifatli teskari aloqa berish orqali mustaqil ta'limning pedagogik boshqaruvini amalga oshiradi.

Kelgusida mazkur metodik modelni turli ta'lim yo'nalishlarida tajriba-sinovdan o'tkazish, talabalarning mustaqil ta'lim kompetensiyalaridagi o'zgarishlarni empirik ma'lumotlar asosida baholash hamda sun'iy intellekt vositalaridan foydalanishning akademik halollik bilan uyg'un metodikasini ishlab chiqish muhim ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. UNESCO. Global Education Monitoring Report 2023: Technology in Education: A Tool on Whose Terms? Paris: UNESCO, 2023.
2. UNESCO IIEP. The Role of Digital Technologies in 21st Century Learning. International Institute for Educational Planning, 2023.
3. UNESCO. Global Education Monitoring Report 2023: Recommendations. Paris: UNESCO, 2023.
4. Zokirova N.S., Mamatov A.A. Oliy ta'limda mustaqil ta'lim tashkil etishni rejalashtirishda raqamli texnologiyalarning o'rni // Universal xalqaro ilmiy jurnal.
5. UNESCO. Guidance for Generative AI in Education and Research. Paris: UNESCO, 2023.
6. Turayev J. Talabalarning mustaqil o'quv faoliyatini raqamli ta'lim texnologiyalari yordamida tashkil etish metodikasi // Maktabgacha va maktab ta'limi jurnali.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

7. Xojikulova O.A. Raqamli ta’lim muhitida talabalarning mustaqil ta’lim kompetensiyalarini rivojlantirish // Ta’lim va taraqqiyot ilmiy-uslubiy jurnali, 2026.
8. Musayev A.Sh. Raqamli texnologiyalar talabalar mustaqil ta’limini to‘g‘ri tashkil etish omili sifatida // Образование и инновационные исследования.
9. Usmanova N.T. Zamonaviy pedagogikada mustaqil ta’limni tashkil etishda AKT qo‘llashning metodologik tamoyillari // Ta’lim ufqlari ilmiy-uslubiy jurnali, 2026, №1. — B. 210–217.

© intereduglobalstudy.com

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

DUNYO TAJRIBASIDA FONETIKA O‘QITISH TIZIMI.

Ganiyeva Dildora Sagdullayevna, Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent. Kattaqo‘rg‘on davlat pedagogika instituti.
dganiyeva084@gmail.uz

Annotatsiya

KIRISH: ushbu maqolada jahon amaliyotida fonetika o‘qitish metodikasi turli mamlakatlar misolida tahlil qilinadi. Angliya va AQShda interaktiv va kommunikativ metodlar, PBL, rol o‘yinlari, audio-video materiallar qo‘llaniladi. Germaniyada fonemalarning aniq ajratilishi, intonatsiya va urg‘u mashqlari, imitativ mashqlar asosiy o‘rin tutadi. Fransiyada minimal juftliklar va intonatsion mashqlar multimedia vositalari bilan uyg‘unlashadi. Rossiyada fonetika tizimli o‘qitilib, fonemalar, urg‘u, intonatsiya va ritm alohida mashqlar bilan mustahkamlanadi. Umumiy tamoyillar: integrativ yondashuv, interfaol metodlar, AKT, individual yondashuv, o‘qituvchi malakasi. Shuningdek, o‘quvchilarga o‘zbek tili fonetikasini o‘qitish holati, ona tili aralashuvi, elektron fonetik kurslar, o‘yin texnikasi, yagona rejim va stress-intonatsiya texnologiyalari tahlil qilinadi. Fonetik ko‘nikmalar og‘zaki nutq, tinglash, yozish va o‘qishni shakllantirish uchun zarur. O‘zbekiston maktablarida fonetika o‘qitishni takomillashtirish uchun ushbu tajribalardan foydalanish, interfaol metodlar, AKT va individual yondashuvni joriy etish tavsiya etiladi. Bu muhim ahamiyatga ega deb hisoblanadi.

MAQSAD: jahon tajribasida (Angliya, AQSh, Germaniya, Fransiya va Rossiya) fonetika o‘qitishning ilg‘or metodikalarini tahlil qilish hamda ushbu tajribalar asosida O‘zbekiston maktablarida o‘zbek tili fonetikasini o‘qitish tizimini takomillashtirish bo‘yicha samarali tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda qiyosiy-pedagogik va tahliliy metodlardan foydalanilib, xorijiy mamlakatlarning fonetika o‘qitish borasidagi tajribasi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT), multimedia vositalari, interaktiv va kommunikativ yondashuvlar hamda minimal juftliklar va intonatsion mashqlar tizimi o‘rganib chiqildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: tahlillar shuni ko‘rsatdiki, Angliya va AQShda PBL va interaktiv dasturlar, Germaniya va Fransiyada fonemalarni aniq ajratish hamda minimal juftliklar va multimedia vositalari, Rossiyada esa tizimli fonetik mashqlar va nutq ritmini shakllantirish samarali natija bermoqda; O‘zbekiston ta’lim tizimida ham elektron fonetik kurslar, o‘yin texnikalari hamda Ona tili aralashuvi va sheva xususiyatlarini hisobga oluvchi yagona rejimni joriy etish zarurligi aniqlandi.

XULOSA: O‘zbekiston umumta’lim maktablarida fonetika ta’limi samaradorligini oshirish uchun jahon tajribasiga tayanib, interfaol metodlar, AKT vositalari, individual yondashuv hamda o‘qituvchilarning metodik tayyorgarligini oshirishga yo‘naltirilgan tizimli islohotlarni amalga oshirish tavsiya etiladi.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

Kalit so‘zlar: fonetika o‘qitish metodikasi, jahon tajribasi, integrativ yondashuv, interfaol metodlar, kommunikativ yondashuv, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, audio-video materiallar, individual yondashuv, o‘qituvchi malakasi, minimal juftliklar, intonatsiya, urg‘u, fonemalar, nutq madaniyati

СИСТЕМА ОБУЧЕНИЯ ФОНЕТИКЕ В МИРОВОМ ОПЫТЕ.

Ганиева Дилдора Сагдуллаевна, доцент Каттакурганского государственного педагогического института, доктор философии по педагогическим наукам (PhD).

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в данной статье анализируется методология преподавания фонетики в мировой практике на примерах разных стран. В Англии и США используются интерактивные и коммуникативные методы, проблемно-ориентированное обучение (ПОО), ролевые игры, аудио- и видеоматериалы. В Германии ключевую роль играет четкое разделение фонем, упражнения на интонацию и ударение, а также имитационные упражнения. Во Франции минимальные пары и упражнения на интонацию сочетаются с мультимедийными средствами. В России фонетика преподается систематически, а фонемы, ударение, интонация и ритм закрепляются отдельными упражнениями. Общие принципы: интегративный подход, интерактивные методы, ИКТ, индивидуальный подход, квалификация преподавателей. Также анализируется состояние преподавания узбекской фонетики учащимся, вмешательство носителей языка, электронные фонетические курсы, игровые техники, единый режим и технологии ударения-интонации. Фонетические навыки необходимы для формирования устной речи, аудирования, письма и чтения. Рекомендуется использовать этот опыт, внедрять интерактивные методы, ИКТ и индивидуальный подход для улучшения преподавания фонетики в школах Узбекистана. Это считается очень важным.

ЦЕЛЬ: анализ передового мирового опыта преподавания фонетики (на примере Великобритании, США, Германии, Франции и России) и разработка практических рекомендаций по совершенствованию системы обучения фонетике узбекского языка в школах Узбекистана.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании использованы сравнительно-педагогические и аналитические методы, охватывающие изучение зарубежных методик, интеграцию информационно-коммуникационных технологий (ИКТ), мультимедийных средств, интерактивных и коммуникативных подходов, а также систем упражнений на основе минимальных пар и интонации.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: анализ показал высокой эффективность использования проблемно-ориентированного обучения (PBL) в Великобритании и США, четкого фонемного анализа и минимальных пар в Германии и Франции, а также системного подхода к ритму и интонации в России; выявлена необходимость

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

внедрения в Узбекистане электронных фонетических курсов, игровых техник и технологий учета языковой интерференции.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: для повышения качества преподавания фонетики в общеобразовательных школах Узбекистана рекомендуется внедрять интерактивные методы, средства ИКТ, индивидуальный подход и повышать методическую квалификацию учителей с учетом лучших мировых практик.

Ключевые слова: методика преподавания фонетики, мировой опыт, интегративный подход, интерактивные методы, коммуникативный подход, информационно-коммуникационные технологии, аудио-видеоматериалы, индивидуальный подход, квалификация преподавателя, минимальные пары, интонация, ударение, фонемы, культура речи.

PHONETICS TEACHING SYSTEM IN WORLD PRACTICE.

Ganiyeva Dildora Sagdullayevna, Associate Professor at Kattakurgan State Pedagogical Institute, Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD).

Annotation

INTRODUCTION: this article analyzes the stages of development for phonetic learning materials, the types of pronunciation exercises, and their significance in native language education. It outlines theoretical, practical, and integrative stages, covering exercises such as repetition, minimal pairs, intonation, rhythm and tempo, and practical-integrative tasks. Additionally, the article highlights shortcomings in Uzbek language textbooks regarding the teaching of vowels and consonants—specifically the sounds [x] and [h], the vowel [o‘], stress, and norms of spelling and pronunciation—as well as regional pronunciation variations. Using the 5th-grade “Native Language” textbook as a case study, the research notes a lack of practical exercises to reinforce theoretical information. It compares the textbook's current presentation with proposed improvements regarding the sounds [x], [h], [o‘], [q], and [g‘], as well as paronyms and spelling rules. The study substantiates the need to develop pronunciation skills through audio-video materials, ICT, interactive methods, and individualized approaches. Finally, drawing on examples of sound confusion in regions such as Khorezm, Samarkand, Bukhara, and Surkhandarya, the article offers practical methodological recommendations for improving textbooks through specialized phonetic exercises and oscillographic diagrams.

AIM: to analyze global experiences in teaching phonetics (focusing on the UK, USA, Germany, France, and Russia) and to provide effective methodological recommendations for improving the phonetic instruction system in Uzbekistan's schools.

MATERIALS AND METHODS: the study employs comparative-pedagogical and analytical methods, examining international teaching frameworks, the integration of information and communication technologies (ICT), multimedia tools, interactive and communicative approaches, as well as minimal pairs and intonation exercises.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

DISCUSSION AND RESULTS: the analysis demonstrates the success of Problem-Based Learning (PBL) and interactive software in the UK and USA, distinct phonemic analysis and minimal pairs in Germany and France, and systematic phonetic training in Russia; it highlights the necessity of introducing electronic phonetic courses, game technologies, and unified stress-intonation frameworks to address language interference in Uzbekistan.

CONCLUSION: to enhance the effectiveness of phonetics education in secondary schools of Uzbekistan, it is recommended to implement interactive methods, ICT tools, individualized instruction, and teacher professional development based on international best practices.

Keywords: phonetics, pronunciation exercises, mother-tongue education, learning materials, theoretical stage, practical stage, integrative stage, vowel and consonant sounds, spelling and pronunciation norms, regional pronunciation differences, textbooks and manuals, ICT and interactive methods, oscillographic diagrams.

Jahon amaliyotida fonetika o‘qitish metodikasi turli mamlakatlarda o‘ziga xos pedagogik yondashuvlar va innovatsion usullar asosida rivojlanib kelmoqda. Ingliz, nemis, fransuz, o‘zbek va boshqa tillar misolida fonetika ta’limi faqat tilning nazariy qoidalarini o‘rgatish bilan cheklanmaydi; u ayni paytda nutq madaniyatini yuksaltirish, to‘g‘ri talaffuz va intonatsiyani amaliy shakllantirishga ham qaratilgan. Bu esa fonetika o‘qitishning nafaqat lingvistik, balki kommunikativ va madaniy ahamiyatini ko‘rsatadi.

1. Angliya va AQSh tajribasi: Ingliz tili o‘qitish metodikasida fonetika integrativ yondashuv asosida o‘tiladi. O‘quvchilar talaffuz va intonatsiya mashqlarini audio-video materiallar, interaktiv dasturlar va kommunikativ mashqlar orqali o‘rganadilar[1]. Shuningdek, PBL (Problem-Based Learning) va communicative approach o‘quvchining nutqiy faolligini rag‘batlantiradi, talaffuz xatolarini kamaytirishga xizmat qiladi.

2. Germaniya tajribasi: Nemis tilini o‘rgatishda fonetika fonemik tahlil, eshitish mashqlari va imitativ talaffuzga asoslangan. Shuningdek, intonatsiya va urg‘u ko‘nikmalarini shakllantirish uchun video materiallar va rolli o‘yinlardan keng foydalaniladi[2].

3. Fransiya tajribasi: Fransuz tilida fonetika o‘qitishda fonemalarning minimal juftliklari orqali talaffuzni o‘rgatish va intonatsion mashqlar asosiy o‘rinni egallaydi. O‘quvchilar til o‘rganish jarayonida nutqning tabiiyligini ta’minlashga e’tibor qaratadilar. Multimedia vositalari talaffuzni eshitish va takrorlash jarayonini samarali qiladi[3].

4. Rossiya tajribasi: Rossiya umumta’lim va oliy ta’lim maktablarida ona tili fonetikasi fonemalarning aniqligi, urg‘u, intonatsiya va nutq ritmi bo‘yicha tizimli o‘rgatiladi. Interfaol

[1] Celce-Murcia, M., Brinton, D. M., & Goodwin, J. M. (2001). Teaching Pronunciation: A Reference for Teachers of English to Speakers of Other Languages. Cambridge University Press.
2 Dziubalska-Kołaczyk, K. (2010). Teaching Phonetics and Phonology in a Foreign Language Classroom. Peter Lang.
3 Morin, Y. (2002). Phonétique et enseignement du français. Presses Universitaires de France.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

metodlar, fonetik darsliklar va audio-video materiallar qo‘llaniladi[4]. Shuningdek, o‘qituvchilarning malakasini oshirish va individual yondashuvga alohida e’tibor qaratiladi.

1. Dunyo tajribasi fonetika o‘qitishda integrativ yondashuv va interfaol metodlarni qo‘llashni asosiy tamoyil sifatida ko‘rsatadi.
2. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT)ni keng qo‘llash talaffuz va intonatsiyani amaliy mashqlar orqali yaxshilash imkonini beradi.
3. Individual yondashuv o‘quvchining shaxsiy xususiyatlarini hisobga oladi va natijalarni barqaror qiladi.
4. O‘qituvchilarning malakasi va metodik tayyorgarligi fonetika bo‘yicha ta’limning sifatini belgilovchi muhim omil hisoblanadi.

Dunyoda fonetika o‘qitish tajribasi turli pedagogik yondashuvlar va vositalar orqali amalga oshiriladi. Ingliz, nemis, fransuz va o‘zbek tillarini o‘rgatishda fonetika nafaqat nazariy bilim, balki amaliy talaffuz va intonatsiya ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan.

Angliya va AQSh tajribasida fonetika interaktiv va kommunikativ metodlar orqali o‘qitiladi. O‘quvchilar audio-video materiallar va rol o‘yinlari yordamida talaffuz va intonatsiyani mashq qiladi. Bu yondashuv nutqiy faollikni oshiradi va talaffuz xatolarini kamaytiradi.

Nemis va fransuz tillarida esa fonemalarning aniq ajratilishi, urg‘u va intonatsiya mashqlari asosiy o‘rin tutadi. Video va interaktiv mashqlar orqali o‘quvchi turli talaffuz variantlarini tinglaydi va takrorlaydi, bu esa nutqni tabiiy va tushunarli qiladi.

Rossiya tajribasida fonetika tizimli ravishda o‘qitiladi: fonemalar, urg‘u, intonatsiya va nutq ritmi alohida mashqlar bilan mustahkamlanadi. Interfaol metodlar va audio-video materiallar orqali o‘quvchilar nutqini yaxshilashga e’tibor qaratiladi.

Oddiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, dunyo tajribasida fonetika o‘qitishning asosiy tamoyillari quyidagilar:

1. Interfaol va kommunikativ metodlardan foydalanish – nutqiy faollik va talaffuzni yaxshilashga xizmat qiladi.
2. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llash – audio va video materiallar orqali o‘quvchining tinglash va takrorlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.
3. Individual yondashuv – har bir o‘quvchining talaffuz xatolari va qobiliyatiga moslashadi.
4. O‘qituvchilarning malakasi – fonetika bo‘yicha ta’limning sifatini belgilovchi muhim omil hisoblanadi.

Shu bilan, dunyo tajribasi O‘zbekiston maktablarida fonetika o‘qitishni takomillashtirishda samarali pedagogik yondashuvlarni ishlab chiqish uchun asos bo‘lishi mumkin.

[4] Левин, В. Л. Русская фонетика: методические аспекты обучения. Москва: Просвещение. 2015 –С. 77-88.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

Fonetikani o‘qitish ona tili ta’limida muhim pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi, chunki u talaffuz, nutq madaniyati, intonatsiya va fonemalarning to‘g‘ri ishlatilishini shakllantiradi. Bugungi kunda umumta’lim maktablarida fonetika o‘qitishning samaradorligi hali yetarli darajada emas. Bu pedagogik muammo bir necha omillar bilan bog‘liq: an’anaviy metodlar o‘quvchilarning nutqiy faolligini yetarlicha rag‘batlantirmaydi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari cheklangan darajada qo‘llaniladi, o‘qituvchilarning malakasi va individual yondashuv yetarli emas.

Dunyoda fonetika o‘qitish tajribasi turli yondashuvlar bilan boyitilgan. Masalan, Angliya va AQShda fonetika interaktiv va kommunikativ metodlar asosida o‘qitiladi. O‘quvchilar audio va video materiallar, interaktiv dasturlar va rol o‘yinlari orqali talaffuz va intonatsiyani mashq qiladi. Bu yondashuv nutqiy faollikni oshiradi va talaffuz xatolarini kamaytirishga yordam beradi[5]. Nemis va fransuz tillarida fonemalarning aniq ajratilishi, urg‘u va intonatsiya mashqlari asosiy o‘rin tutadi. Video va interaktiv mashqlar orqali o‘quvchi turli talaffuz variantlarini tinglaydi va takrorlaydi, natijada nutqi tabiiy va tushunarli bo‘ladi. Rossiyada esa fonetika tizimli ravishda o‘qitiladi: fonemalar, urg‘u, intonatsiya va nutq ritmi alohida mashqlar bilan mustahkamlanadi, interfaol metodlar va audio-video materiallar qo‘llaniladi.

O‘zbekiston maktablarida fonetika o‘qitish ham shunga o‘xshash tamoyillarga asoslanishi mumkin. Dunyo tajribasidan kelib chiqib, quyidagi metodik yechimlar samarali bo‘ladi: interfaol va kommunikativ metodlarni keng qo‘llash, audio-video va interaktiv AKT vositalarini joriy etish, o‘quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olgan yondashuvni qo‘llash hamda o‘qituvchilarning malakasini oshirish.

Shuni ta’kidlash lozimki, fonetika o‘qitishning samaradorligi nafaqat o‘quvchilarning nutqiy ko‘nikmalariga, balki ularning ona tiliga bo‘lgan qiziqishi va til madaniyatini anglash darajasiga ham bog‘liqdir. Interfaol metodlar va AKT vositalari o‘quvchilarda nutqiy faollikni oshiradi, talaffuz va intonatsiya xatolarini kamaytiradi, nutq madaniyatini shakllantiradi. Shu bilan birga, individual yondashuv va o‘qituvchilarning metodik tayyorgarligi fonetika bo‘yicha ta’lim sifatini belgilovchi asosiy omillardir.

Natijada, umumta’lim maktablarida fonetika o‘qitish pedagogik muammo sifatida qaraladi va uni takomillashtirish quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshirilishi lozim: interfaol metodlar va kommunikativ yondashuvni qo‘llash, AKT vositalaridan keng foydalanish, individual yondashuvni rivojlantirish va o‘qituvchilarning malakasini oshirish. Bu esa o‘quvchilarning talaffuz, intonatsiya va nutq madaniyati ko‘nikmalarini mukammal egallashiga xizmat qiladi.

Mamlakat / Ta’lim tizimi	Fonetika o‘qitish metodlari	Qo‘llaniladigan vositalar	Ta’lim jarayonidagi afzalliklar	O‘zbekiston maktablariga tavsiyalar

[5] Celce-Murcia, M., Brinton, D. M., & Goodwin, J. M. (2001). *Teaching Pronunciation: A Reference for Teachers of English to Speakers of Other Languages*. Cambridge University Press.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

Angliya, AQSh	Interaktiv va kommunikativ metodlar, PBL, rol o‘yinlar	Audio-video materiallar, interaktiv dasturlar	Nutqiy faollik oshadi, talaffuz xatolari kamayadi	Audio-video va interaktiv mashqlarni keng qo‘llash, kommunikativ vazifalar joriy etish
Germaniya	Fonemalarning aniq ajratilishi, intonatsiya va urg‘u mashqlari	Video materiallar, imitativ mashqlar	Nutq tabiiy va tushunarli bo‘ladi, urg‘u va intonatsiya to‘g‘ri shakllanadi	Fonemalar va intonatsiya mashqlarini tizimli kiritish, imitativ va interfaol mashqlarni qo‘llash
Fransiya	Minimal juftliklar orqali talaffuz, intonatsion mashqlar	Multimedia vositalari	O‘quvchilar talaffuzni amalda mashq qiladi, nutqning tabiiyligi oshadi	Minimal juftliklar va intonatsion mashqlarni joriy etish, multimedia vositalaridan foydalanish
Rossiya	Fonemalar, urg‘u, intonatsiya va ritm bo‘yicha tizimli mashqlar	Interfaol metodlar, audio-video materiallar	Nutq madaniyati rivojlanadi, talaffuz va intonatsiya xatolari kamayadi	Tizimli fonetik mashqlarni tashkil etish, interfaol metod va audio-video materiallardan foydalanish

Angliya va AQSh**:** Bu mamlakatlarda fonetika o‘qitishning asosiy tamoyili — interaktiv va kommunikativ metodlar. Problem-Based Learning (PBL), rol o‘yinlar va vaziyatli mashqlar o‘quvchining nutqiy faolligini oshiradi, talaffuz va intonatsiya xatolarini kamaytiradi. Audio-video materiallar va interaktiv dasturlar orqali o‘quvchi turli talaffuz variantlarini tinglaydi va takrorlaydi, bu esa amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirishga xizmat qiladi. O‘zbekiston maktablarida ham shu tamoyilni joriy qilish nutqiy faollik va talaffuz aniqligini oshirishga yordam beradi.

Germaniya**:** Nemis tilini o‘rgatishda fonemalarning aniq ajratilishi, intonatsiya va urg‘u mashqlari asosiy o‘rin tutadi. O‘quvchilar video materiallar va imitativ mashqlar orqali talaffuz va urg‘u me’yorlarini amalda qo‘llash imkoniga ega bo‘ladi. Bu yondashuv nutqning tabiiy va tushunarli bo‘lishini ta’minlaydi. Shu tamoyil O‘zbekiston maktablarida fonemalar va intonatsiya mashqlarini tizimli kiritishda qo‘llanishi mumkin.

Fransiya**:** Fransuz tilida fonetika o‘qitishda minimal juftliklar orqali talaffuzni mashq qilish va intonatsion mashqlar asosiy ahamiyatga ega. Multimedia vositalari yordamida o‘quvchi turli talaffuz variantlarini eshitadi va takrorlaydi, bu esa nutq tabiiyligini oshiradi. O‘zbekiston maktablarida ham minimal juftliklar va intonatsion mashqlarni multimedia vositalari bilan uyg‘unlashtirish tavsiya etiladi.

Rossiya: O‘zbek tilida fonetika tizimli ravishda o‘qitiladi. Fonemalar, urg‘u, intonatsiya va nutq ritmi alohida mashqlar bilan mustahkamlanadi. Interfaol metodlar va audio-video materiallar qo‘llanilishi nutq madaniyatini rivojlantiradi va talaffuz xatolarini kamaytiradi.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

Shu asosda O‘zbekiston maktablarida tizimli fonetik mashqlarni tashkil etish, interfaol metod va audio-video materiallardan foydalanish tavsiya qilinadi.

Dunyo tajribasi fonetika o‘qitishda integrativ yondashuv **va** interfaol metodlarni asosiy tamoyil sifatida qo‘llash zarurligini ko‘rsatadi.

1. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari o‘quvchining tinglash va takrorlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi, nutqning tabiiyligini oshiradi.

2. Individual yondashuv va o‘quvchining xususiyatlariga mos metodik materiallar natijalarni barqaror qiladi.

3. O‘qituvchilarning malakasi fonetika bo‘yicha ta’lim sifatini belgilovchi muhim omil hisoblanadi. Shu bilan, dunyo tajribasi O‘zbekiston maktablarida fonetika o‘qitishni takomillashtirish va zamonaviy pedagogik yondashuvlarni joriy qilish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Ishda hozirgi vaqtda o‘quvchilarga o‘zbek tilining fonetikasini o'qitish holati tahlil qilinadi, o'quvchilarning ona tilining aralashuvini hisobga olgan holda o‘zbek tovushlarini shakllantirish masalalari ko'rib chiqiladi. Elektron fonetik kurslarga, xususan, milliy yo'naltirilgan kurslarga alohida e'tibor beriladi; o‘zbek tili fonetikasi darslarida o‘yin texnikasi ko'rib chiqiladi; o‘zbek tilida o'qitishning barcha bosqichlarida fonetikani o'qitishning yagona rejimi, shuningdek, o‘zbek stressini va intonatsiyasini o'qitish texnologiyasi. Fonetik jihatni o'qitish metodikasini rivojlantirish muammolari va istiqbollari yoritilgan.

Og‘zaki nutq, tinglash, yozish va o'qish ko'nikmalarini shakllantirish uchun siz nafaqat tegishli tovushlarni talaffuz qila olishingiz, balki ularning so'zlarda qanday bog'lanishini, so'ngra bu so'zlar jumlada qanday bog'lanishini ham bilishingiz kerak.

Tabiiy til muhitida bu bir vaqtning o'zida sodir bo'ladi. Tasavvur qiling-a, yosh bolalar qanday gapirishni boshlaydilar, undan oldin nima bo'ladi va bu jarayon qanchalik oson va tez davom etadi. Tilsiz muhitda yoki sodda qilib aytganda, chet tili darsida talaffuz ko'nikmalarini shakllantirishga katta e'tibor berilishi kerak.

Biroq, ko'pincha fonetik mahorat juda zarur emasligi haqidagi gaplarni eshitishingiz kerak, chunki aksentsiz chet tilida gapirishni o'rganish deyarli mumkin emas, shuning uchun nima uchun harakat qilib, vaqt sarflash kerak. Ushbu izohga javob berish uchun fonetik ko'nikmalarning mohiyati nimada ekanligini ko'rib chiqaylik.

Fonetik ko'nikmalarning shakllanishi nutq xabarini etarli darajada tushunish, fikrni ifoda etishning aniqligi va tilning har qanday kommunikativ funktsiyani bajarishi uchun ajralmas shart bo'lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Левин, В. Л. Русская фонетика: методические аспекты обучения. Москва: Просвещение. 2015
2. Celce-Murcia, M., Brinton, D. M., & Goodwin, J. M. (2001). Teaching Pronunciation: A

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

Reference for Teachers of English to Speakers of Other Languages. Cambridge University Press.
3. Dziubalska-Kołaczyk, K. (2010). Teaching Phonetics and Phonology in a Foreign Language Classroom. Peter Lang.
4. Morin, Y. (2002). Phonétique et enseignement du français. Presses Universitaires de France.

© intereduglobalstudy.com

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

OLIY TA'LIM TALABALARINING MA'NAVIY DUNYOQARASHINI KREATIV TA'LIM TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI.

Ibrohimova Zarnigor Ilxomovna, mustaqil tadqiqotchi.

Annotatsiya

KIRISH: ushbu tadqiqotda oliy ta'lim talabalarining ma'naviy dunyoqarashini kreativ ta'lim texnologiyalari asosida rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari o'rganilgan. Tadqiqotning dolzarbligi zamonaviy oliy ta'lim jarayonida talabalarning kasbiy bilimlari bilan bir qatorda mustaqil fikrlashi, ijodiy qobiliyati, ijtimoiy mas'uliyati va ma'naviy qadriyatlarga munosabatini rivojlantirish zarurati bilan belgilanadi. Tadqiqotda muammoli ta'lim, munozara, loyiha metodi, "aqliy hujum", rolli o'yinlar va ijodiy topshiriqlarning pedagogik imkoniyatlari tahlil qilindi. Tadqiqotda 30 nafar oliy ta'lim talabasi ishtirok etdi. Olingan natijalar kreativ ta'lim texnologiyalaridan foydalanish talabalarning ma'naviy qadriyatlarni anglash, mustaqil fikr bildirish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, ijodiy faoliyatda ishtirok etish va jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatganini ko'rsatdi. Tadqiqot natijalari kreativ ta'lim texnologiyalarini tizimli qo'llash talabalarning ma'naviy dunyoqarashini rivojlantirishda samarali pedagogik vosita bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi.

MAQSAD: oliy ta'lim talabalarining ma'naviy dunyoqarashini kreativ ta'lim texnologiyalari asosida rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslarini aniqlash hamda ushbu jarayonni samarali tashkil etishning pedagogik imkoniyatlari va metodlarini ilmiy jihatdan asoslashdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda 30 nafar oliy ta'lim talabasi ishtirok etdi; tadqiqot usullari sifatida muammoli ta'lim, munozara, loyiha metodi, «aqliy hujum», rolli o'yinlar, keys-stadi va ijodiy topshiriqlar kabi interaktiv hamda kreativ pedagogik texnologiyalar qo'llanildi, shuningdek kuzatuv, suhbat va anketa so'rovnomalari o'tkazildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: Kreativ ta'lim texnologiyalarini tizimli qo'llash natijasida talabalarning ma'naviy qadriyatlarni anglash va asoslangan fikr bildirish ko'rsatkichi 40% dan 83,3% ga, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish ko'nikmasi 36,7% dan 80% ga, ijodiy topshiriqlardagi faolligi 46,7% dan 90% ga va jamoaviy muloqot ko'nikmalari 53,3% dan 93,3% ga oshgani kuzatildi.

XULOSA: kreativ ta'lim texnologiyalarini oliy ta'limning o'quv va tarbiyaviy jarayoniga integratsiya qilish talabalarning ma'naviy dunyoqarashini boyitish va axloqiy-ijtimoiy mas'uliyatini oshirishda samarali pedagogik vosita bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ma'naviy dunyoqarash, kreativ ta'lim, ta'lim texnologiyalari, ijodkorlik, ma'naviy qadriyatlar, mustaqil fikrlash, pedagogik shart-sharoitlar, innovatsion ta'lim.

ТЕОРЕТИКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ ДУХОВНОГО МИРОВОЗЗРЕНИЯ СТУДЕНТОВ ВУЗОВ НА ОСНОВЕ КРЕАТИВНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

Иброхимова Зарнигор Илхомовна, самостоятельный соискатель.

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в данном исследовании изучены теоретико-методологические основы развития духовного мировоззрения студентов высших учебных заведений на основе креативных образовательных технологий. Актуальность исследования определяется необходимостью развития у студентов в процессе современного высшего образования не только профессиональных знаний, но и самостоятельного мышления, творческих способностей, социальной ответственности и отношения к духовным ценностям. В работе проанализированы педагогические возможности проблемного обучения, дискуссий, проектного метода, «brainstorming» (мозгового штурма), ролевых игр и творческих заданий. В эксперименте приняли участие 30 студентов вуза. Полученные результаты показали, что использование креативных образовательных технологий положительно повлияло на осознание студентами духовных ценностей, выражение самостоятельного мнения, анализ проблемных ситуаций, участие в творческой деятельности и развитие навыков командной работы. Результаты исследования подтверждают, что системное применение креативных образовательных технологий служит эффективным педагогическим средством развития духовного мировоззрения студентов.

ЦЕЛЬ: научно обосновать теоретико-методологические основы развития духовного мировоззрения студентов высших учебных заведений на основе технологий креативного обучения, а также разработать эффективные методы и педагогические условия для их реализации.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследование были вовлечены 30 студентов вуза; в качестве основного инструментария применялись комплексные технологии креативного обучения (проблемное обучение, метод проектов, дискуссии, «мозговой штурм», кейс-стади, ролевые игры, творческие задания), а также методы наблюдения, беседы и анкетирования.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: внедрение креативных технологий продемонстрировало положительную динамику: доля студентов, способных аргументированно выражать позицию по духовным ценностям, выросла с 40% до 83,3%, навыки анализа проблемных ситуаций увеличились с 36,7% до 80%, активность в творческих заданиях — с 46,7% до 90%, а навыки командного взаимодействия — с 53,3% до 93,3%.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: системное использование технологий креативного обучения в образовательно-воспитательном процессе вуза выступает эффективным педагогическим средство развития духовного мировоззрения и осознанного отношения студентов к общечеловеческим и национальным ценностям.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

Ключевые слова: духовное мировоззрение, креативное образование, образовательные технологии, творчество, духовные ценности, самостоятельное мышление, педагогические условия, инновационное обучение.

THEORETICAL AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF DEVELOPING HIGHER EDUCATION STUDENTS' SPIRITUAL WORLDVIEW BASED ON CREATIVE EDUCATIONAL TECHNOLOGIES.

Ibrohimova Zarnigor Ilxomovna, Independent Researcher.

Annotation

INTRODUCTION: this study explores the theoretical and methodological foundations of developing higher education students' spiritual worldview based on creative educational technologies. The relevance of the research is determined by the necessity to develop students' independent thinking, creative abilities, social responsibility, and attitude towards spiritual values along with their professional knowledge in the modern higher education process. The study analyzed the pedagogical potential of problem-based learning, debates, the project method, brainstorming, role-playing games, and creative assignments. A total of 30 university students participated in the research. The results indicated that the use of creative educational technologies had a positive impact on enhancing students' comprehension of spiritual values, expression of independent opinions, analysis of problem situations, participation in creative activities, and teamwork skills. The findings confirm that the systematic application of creative educational technologies serves as an effective pedagogical tool for fostering students' spiritual worldview.

AIM: to determine the theoretical and methodological foundations for developing university students' spiritual outlook based on creative educational technologies and to scientifically substantiate effective methods and pedagogical conditions for this process.

MATERIALS AND METHODS: the study involved 30 university students; pedagogical methods included creative interactive technologies such as problem-based learning, project methods, debates, brainstorming, case studies, role-playing, and creative assignments, evaluated through observations, interviews, and questionnaires.

DISCUSSION AND RESULTS: Implementation of creative technologies yielded significant positive changes: students demonstrating reasoned understanding of spiritual values increased from 40% to 83.3%, problem analysis skills rose from 36.7% to 80%, active participation in creative tasks grew from 46.7% to 90%, and teamwork abilities expanded from 53.3% to 93.3%.

CONCLUSION: systematically integrating creative educational technologies into university teaching and upbringing processes serves as an effective pedagogical tool for enhancing students' spiritual worldviews and encouraging critical engagement with cultural values.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

Keywords: spiritual worldview, creative education, educational technologies, creativity, spiritual values, independent thinking, pedagogical conditions, innovative learning.

Bugungi kunda oliy ta’lim tizimida talabalarning nafaqat kasbiy bilim va ko‘nikmalarini, balki ularning ma’naviy dunyoqarashi, mustaqil fikrlashi, ijodiy salohiyati va ijtimoiy faolligini rivojlantirish muhim pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Zamonaviy ta’lim jarayonida talabaning tayyor bilimlarni o‘zlashtirishi bilan bir qatorda, mustaqil fikr yuritishi, mavjud muammolarga ijodiy yondashishi, o‘z qarashlarini asoslay olishi va jamiyatdagi ijtimoiy-madaniy jarayonlarga ongli munosabat bildira olishi talab etiladi. Shu nuqtayi nazardan kreativ ta’lim texnologiyalaridan foydalanish talabalarning intellektual va ma’naviy rivojlanishini ta’minlovchi muhim pedagogik vositalardan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Talabalarning ma’naviy dunyoqarashi ularning axloqiy qarashlari, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga munosabati, ijtimoiy mas’uliyati, madaniy saviyasi hamda hayotiy pozitsiyasining shakllanishi bilan chambarchas bog‘liq.

Mazkur jarayonni faqat nazariy ma’lumot berish orqali amalga oshirish yetarli emas. Bunda talabaning faol ishtiroki, mustaqil izlanishi, muammoli vaziyatlarni tahlil qilishi, ijodiy topshiriqlarni bajarishi va turli nuqtayi nazarlarni taqqoslay olishi muhim ahamiyat kasb etadi. Kreativ ta’lim texnologiyalari aynan shunday faol va interaktiv o‘quv muhitini yaratishga xizmat qiladi.

Kreativ ta’lim texnologiyalaridan foydalanish ta’lim jarayonida muammoli ta’lim, loyiha faoliyati, munozara, “aqliy hujum”, keys-stadi, rolli o‘yinlar, ijodiy topshiriqlar va hamkorlikdagi faoliyat kabi metodlardan samarali foydalanish imkonini beradi. Bunday yondashuv talabalarning fikrlash faolligini oshirish bilan birga, ularni o‘z fikrlarini erkin ifodalash, turli ijtimoiy va ma’naviy masalalarga mustaqil baho berish hamda o‘z qarashlarini dalillar asosida shakllantirishga yo‘naltiradi. Zamonaviy oliy ta’lim sharoitida yoshlarning ma’naviy dunyoqarashini rivojlantirish jarayonini innovatsion va kreativ pedagogik yondashuvlar bilan uyg‘unlashtirish zarurati ortib bormoqda. Shu sababli kreativ ta’lim texnologiyalarining mazmuni, pedagogik imkoniyatlari va talabalarning ma’naviy dunyoqarashini rivojlantirishdagi samaradorligini ilmiy-metodologik jihatdan asoslash muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Bugungi kunda oliy ta’lim oldida turgan muhim vazifalardan biri talabalarning kasbiy bilimlari bilan bir qatorda ularning ma’naviy dunyoqarashi, mustaqil fikrlashi, ijodiy qobiliyati va ijtimoiy mas’uliyatini rivojlantirishdir. Axborot oqimining tezlashuvi, raqamli muhitning kengayishi va jamiyatdagi ijtimoiy-madaniy o‘zgarishlar yoshlarning dunyoqarashiga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu sababli ta’lim jarayonini faqat an’anaviy bilim berish bilan cheklamasdan, talabaning faol fikrlashi va ijodiy ishtirokini ta’minlaydigan zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida tashkil etish zarur.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

Oliy ta’lim talabalarining ma’naviy dunyoqarashini kreativ ta’lim texnologiyalari asosida rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslarini aniqlash, mazmuni va pedagogik imkoniyatlarini ilmiy jihatdan asoslash hamda ushbu jarayonni samarali tashkil etishning metod va vositalarini ishlab chiqishdan iborat.

Oliy ta’lim talabalarining ma’naviy dunyoqarashi shaxsning jamiyat, inson, axloq, madaniyat va milliy qadriyatlarga bo‘lgan munosabatlarini ifodalovchi murakkab ijtimoiy-pedagogik hodisa hisoblanadi. Ma’naviy dunyoqarashning shakllanishi talabaning bilim darajasi, hayotiy tajribasi, ijtimoiy muhiti va tarbiyaviy ta’sirlar bilan bevosita bog‘liq. Oliy ta’lim muassasasida ushbu jarayon talabaning shaxsiy rivojlanishi va kasbiy tayyorgarligi bilan uzviy holda olib borilishi lozim.

Talabaning ma’naviy dunyoqarashi uning mustaqil fikrlashi, axloqiy qaror qabul qilishi va ijtimoiy mas’uliyatni anglashida namoyon bo‘ladi. Mazkur jarayonda milliy va umuminsoniy qadriyatlarning mazmunini anglash muhim pedagogik ahamiyatga ega. Ma’naviy rivojlanish faqat nazariy bilimlarni egallash bilan chegaralanmay, amaliy faoliyat va shaxsiy tajriba orqali ham shakllanadi. Talaba turli ijtimoiy vaziyatlarni tahlil qilish jarayonida o‘zining ma’naviy qarashlarini rivojlantiradi. Shu sababli ta’lim jarayonida mustaqil fikrlash va faol ishtirokni ta’minlash zarur. O‘qituvchi talabaning tayyor xulosalarni qabul qilishi bilan cheklanmasdan, o‘z fikrini asoslashiga imkon yaratishi kerak. Bunday yondashuv ma’naviy dunyoqarashning ongli va barqaror shakllanishiga xizmat qiladi. Natijada talaba jamiyatdagi o‘z o‘rnini anglaydigan, ma’naviy qadriyatlarga mas’uliyatli munosabatda bo‘ladigan va mustaqil fikrlay oladigan shaxs sifatida rivojlanadi.

Kreativ ta’lim texnologiyalari talabalarning ijodiy va mustaqil fikrlash faoliyatini rivojlantirishga yo‘naltirilgan zamonaviy pedagogik yondashuvlardan biridir. Ushbu texnologiyalarning asosiy xususiyati ta’lim oluvchini passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga aylantirishdan iborat. Kreativ ta’lim jarayonida talaba muammoli vaziyatlarni mustaqil tahlil qiladi, turli yechimlarni izlaydi va o‘z fikrini asoslashga harakat qiladi. “Aqliy hujum”, muammoli ta’lim, loyiha metodi, keys-stadi, munozara, rolli o‘yinlar va ijodiy topshiriqlar bunday texnologiyalarning amaliy ko‘rinishlari hisoblanadi.

Ushbu metodlar talabalarning intellektual faolligi bilan bir qatorda ularning kommunikativ va ijtimoiy ko‘nikmalarini ham rivojlantiradi. Kreativ topshiriqlar orqali talaba o‘zining shaxsiy qarashlarini erkin ifodalash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu jarayonda turli fikrlarning mavjudligi tabiiy holat sifatida qabul qilinadi. Talabalar bir-birining qarashlarini tinglash, tahlil qilish va dalillar asosida munosabat bildirishni o‘rganadilar. Bunday faoliyat ma’naviy qadriyatlarni chuqurroq anglashga yordam beradi. Kreativ texnologiyalardan foydalanish ta’lim mazmunini talabaning hayotiy tajribasi bilan bog‘lash imkonini ham beradi.

Talabalarning ma’naviy qadriyatlarini shakllantirish oliy ta’limning tarbiyaviy vazifalaridan biri hisoblanadi. Ma’naviy qadriyatlar insonning axloqiy qarashlari, jamiyatga munosabati, mas’uliyat hissi va hayotiy pozitsiyasining shakllanishida muhim o‘rin tutadi. Kreativ ta’lim texnologiyalari ushbu qadriyatlarni talabaga tayyor shaklda singdirishdan

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

ko‘ra, ularni mustaqil anglash imkoniyatini yaratadi. Masalan, muammoli vaziyatlarni muhokama qilish orqali talabalar halollik, adolat, mas’uliyat, hurmat va hamkorlik kabi tushunchalarning mazmunini amaliy vaziyatlar asosida tahlil qiladilar. Munozara metodidan foydalanish turli qarashlarni taqqoslash va asoslangan xulosa chiqarish imkonini beradi. Loyiha faoliyati esa talabalarda jamoada ishlash, vazifalarni taqsimlash va umumiy natija uchun javobgarlik hissini rivojlantiradi. Rolli o‘yinlar orqali ijtimoiy vaziyatlarni turli nuqtayi nazardan ko‘rib chiqish mumkin. Bunday faoliyat talabaning empatiya va muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Kreativ topshiriqlar milliy va umuminsoniy qadriyatlarning mazmunini zamonaviy hayot bilan bog‘lash imkonini beradi. Shuningdek, talabalar o‘zlarining shaxsiy qarashlarini qayta ko‘rib chiqish va ularni asoslash imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Shu asosda kreativ ta’lim texnologiyalari ma’naviy qadriyatlarni ongli ravishda o‘zlashtirish va ularni kundalik faoliyatda namoyon etishga yordam beruvchi samarali pedagogik vosita sifatida qaralishi mumkin.

Talabalarning ma’naviy dunyoqarashini samarali rivojlantirish uchun oliy ta’lim muassasasida tegishli pedagogik shart-sharoitlarni yaratish zarur. Avvalo, ta’lim jarayoni shaxsga yo‘naltirilgan tamoyil asosida tashkil etilishi va talabaning individual fikri hurmat qilinishi lozim. O‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi ochiq muloqot ma’naviy rivojlanish uchun muhim shartlardan biridir. Talabaga o‘z fikrini erkin bildirish, savol berish va turli nuqtayi nazarlarni muhokama qilish imkoniyati berilishi kerak. Ta’lim mazmunida milliy va umuminsoniy qadriyatlar bilan bog‘liq mavzularning mavjudligi ham muhim ahamiyatga ega. Kreativ metodlardan foydalanish esa ushbu mazmunni faol o‘zlashtirish imkonini beradi. Guruhli ishlar, munozaralar va loyihalar talabalarda hamkorlik va ijtimoiy mas’uliyatni shakllantiradi. Shuningdek, ta’lim muhitida o‘zaro hurmat, tenglik va pedagogik hamkorlik tamoyillariga amal qilinishi zarur. Raqamli texnologiyalardan oqilona foydalanish ham talabalarning mustaqil izlanish imkoniyatlarini kengaytiradi. Bunda axborotni tanlash, tahlil qilish va unga tanqidiy munosabat bildirish ko‘nikmalarini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratiladi. O‘qituvchining pedagogik va kreativ kompetensiyasi ham ushbu jarayonning muhim shartlaridan hisoblanadi. Mazkur shart-sharoitlarning uyg‘unligi talabalarning ma’naviy dunyoqarashini izchil va maqsadli rivojlantirishga xizmat qiladi.

Talabalarning ma’naviy dunyoqarashini kreativ ta’lim texnologiyalari asosida rivojlantirish natijalarini aniqlash uchun aniq mezon va ko‘rsatkichlardan foydalanish zarur. Baholash jarayonida talabaning faqat nazariy bilimlari emas, balki uning mustaqil fikrlashi, qadriyatlarga munosabati va ijtimoiy faolligi ham hisobga olinishi lozim. Birinchi mezon sifatida ma’naviy tushunchalarni anglash va izohlash darajasini ko‘rsatish mumkin. Ikkinchi mezon talabaning axloqiy va ijtimoiy masalalar bo‘yicha mustaqil fikr bildira olish qobiliyatini ifodalaydi. Uchinchi mezon ijodiy topshiriqlarni bajarish va muammoli vaziyatlarga yangi yechimlar taklif qilish bilan bog‘liq. To‘rtinchi mezon talabaning jamoada ishlashi, boshqalarning fikrini hurmat qilishi va hamkorlik qila olish darajasini aks ettiradi. Beshinchi mezon esa ma’naviy qadriyatlarning amaliy faoliyatda namoyon bo‘lishini

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

baholashga qaratiladi. Ushbu mezonlar asosida talabalarning boshlang‘ich va yakuniy natijalarini taqqoslash mumkin. Kuzatuv, suhbat, anketa, ijodiy topshiriqlar va loyiha ishlari baholash vositasi sifatida qo‘llanishi mumkin. Baholash jarayoni talabaning shaxsiy rivojlanish dinamikasini aniqlashga xizmat qilishi kerak. Natijalarni muntazam tahlil qilish o‘qituvchiga ta’lim metodlarini takomillashtirish imkonini beradi. Shunday qilib, samaradorlikni kompleks baholash kreativ ta’lim texnologiyalarining talabalarning ma’naviy dunyoqarashini rivojlantirishdagi pedagogik imkoniyatlarini aniqlashga yordam beradi.

Tadqiqot oliy ta’lim muassasasining 30 nafar talabasi ishtirokida olib borildi. Tadqiqot davomida talabalarning ma’naviy dunyoqarashi kreativ ta’lim texnologiyalaridan foydalanishdan oldin va keyin o‘rganildi. Dastlabki natijalarda talabalarning bir qismida mustaqil fikrlash, ma’naviy qadriyatlarni tahlil qilish va o‘z nuqtayi nazarini erkin ifodalash ko‘nikmalari yetarli darajada shakllanmagani aniqlandi. Keyingi bosqichda munozara, muammoli vaziyatlar, loyiha ishlari, “aqliy hujum”, rolli o‘yinlar va ijodiy topshiriqlardan foydalanildi. Mashg‘ulotlar yakunida 30 nafar talabaning natijalari qayta baholandi. Natijalar talabalarning ma’naviy tushunchalarni anglash, mustaqil fikr bildirish, ijodiy yondashish va jamoada ishlash ko‘nikmalarida ijobiy o‘zgarishlar kuzatilganini ko‘rsatdi. Xususan, dastlab ma’naviy qadriyatlar haqida mustaqil va asoslangan fikr bildira olgan talabalar soni 12 nafar (40%) bo‘lgan bo‘lsa, mashg‘ulotlardan so‘ng bu ko‘rsatkich 25 nafar (83,3%) ga yetdi. Muammoli vaziyatlarni mustaqil tahlil qila olgan talabalar soni 11 nafardan (36,7%) 24 nafarga (80%) oshdi. Ijodiy topshiriqlarda faol ishtirok etgan talabalar soni 14 nafardan (46,7%) 27 nafarga (90%) ko‘tarildi. Jamoaviy faoliyat va o‘zaro muloqot ko‘nikmalarida ham ijobiy o‘zgarish kuzatilib, faol ishtirokchilar soni 16 nafardan (53,3%) 28 nafarga (93,3%) yetdi. Olingan natijalar kreativ ta’lim texnologiyalaridan tizimli foydalanish talabalarning ma’naviy dunyoqarashini rivojlantirish, mustaqil fikrlashini faollashtirish va ijtimoiy-madaniy masalalarga ongli munosabatini shakllantirishga yordam berishini ko‘rsatdi.

O‘tkazilgan tadqiqot natijalari oliy ta’lim talabalarining ma’naviy dunyoqarashini rivojlantirishda kreativ ta’lim texnologiyalaridan foydalanish muhim pedagogik imkoniyatlarga ega ekanligini ko‘rsatdi. Tadqiqotda ishtirok etgan 30 nafar talabaning dastlabki va yakuniy ko‘rsatkichlari taqqoslanganda, mustaqil fikrlash, ma’naviy qadriyatlarni anglash, ijodiy topshiriqlarni bajarish va jamoaviy faoliyatda ishtirok etish darajasida ijobiy o‘zgarishlar kuzatildi. Ayniqsa, muammoli vaziyatlar va munozaralardan foydalanish talabalarning o‘z fikrlarini erkin ifodalashi hamda turli qarashlarni tahlil qilishiga imkon yaratdi. Loyiha ishlari va guruhli topshiriqlar esa talabalarda hamkorlik, mas’uliyat va o‘zaro hurmat kabi sifatlarning rivojlanishiga xizmat qildi. Ijodiy topshiriqlar orqali talabalar ma’naviy qadriyatlarni faqat nazariy jihatdan emas, balki amaliy vaziyatlar bilan bog‘liq holda anglash imkoniyatiga ega bo‘ldilar. Olingan natijalar kreativ ta’limning samaradorligi faqat yangi pedagogik metodlardan foydalanish bilan emas, balki ularni ta’lim mazmuni va talabalarning ehtiyojlariga mos ravishda qo‘llash bilan ham bog‘liqligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, tadqiqot natijalarini talabalarning individual xususiyatlari, ta’lim

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

muhiti va mashg‘ulotlarning mazmuni ta’sirida shakllangan natijalar sifatida baholash lozim. Mazkur tadqiqotning 30 nafar talaba bilan o‘tkazilgani natijalarni barcha oliy ta’lim talabalariga umumlashtirish imkoniyatini cheklaydi. Shunga qaramay, kuzatilgan o‘zgarishlar kreativ ta’lim texnologiyalarini ma’naviy-tarbiyaviy jarayonga maqsadli ravishda integratsiya qilishning pedagogik jihatdan istiqbolli ekanligini ko‘rsatadi. Shu sababli kelgusida tadqiqotlarni kattaroq respondentlar guruhi ishtirokida, uzoqroq muddat davomida va turli oliy ta’lim muassasalari kesimida olib borish maqsadga muvofiqdir.

O‘tkazilgan tadqiqot natijalari oliy ta’lim talabalarining ma’naviy dunyoqarashini rivojlantirishda kreativ ta’lim texnologiyalaridan foydalanish samarali pedagogik yondashuv ekanligini ko‘rsatdi. Tadqiqotda 30 nafar talabaning ishtiroki asosida olib borilgan kuzatuv va baholash natijalarida ularning mustaqil fikrlashi, ma’naviy qadriyatlarni anglash, ijodiy yondashish va jamoada ishlash ko‘nikmalarida ijobiy o‘zgarishlar aniqlandi. Kreativ metodlar talabalarning dars jarayonidagi faolligini oshirish bilan birga, o‘z fikrini erkin ifodalash, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va asoslangan xulosa chiqarish imkoniyatlarini kengaytirdi. Shuningdek, loyiha ishlari, munozara, muammoli ta’lim va ijodiy topshiriqlar orqali milliy va umuminsoniy qadriyatlarni amaliy faoliyat bilan bog‘lash imkoniyati yaratildi. Shundan kelib chiqib, kreativ ta’lim texnologiyalarini oliy ta’limning o‘quv va tarbiyaviy jarayoniga tizimli ravishda joriy etish talabalarning ma’naviy dunyoqarashini rivojlantirishga xizmat qilishi mumkin. Mazkur jarayonda ta’lim mazmuni, pedagogik muhit, talabalarning individual xususiyatlari va o‘qituvchining kreativ yondashuvi o‘zaro uyg‘un holda tashkil etilishi muhimdir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Narzieva, K. (2022). Formation of students’ creative thinking in the higher education system. Society and Innovations, 3(7/S), 20–25.
2. Kallibekova, G. A. (2022). The role and specific features of using interactive methods in the educational process. Science and Society, 4, 20–24.
3. Grevtseva, G. Ya. (2022). Pedagogical conditions for the development of students’ creativity. Education. Pedagogical Sciences, 14(3), 45–52.
4. Denisenko, V. I., & Nikiforova, E. I. (2023). Independent educational and creative work as a factor in improving students’ spiritual and moral education. Society: Sociology, Psychology, Pedagogy, 11, 145–154.
5. Karavaeva, S. A. (2023). Formation of spiritual and moral values among university students. Bulletin of Chelyabinsk State University. Education and Healthcare, 2(22), 15–19.
6. Khakimova, M. (2024). Specific characteristics of developing students’ spiritual values through educational technologies. ACTA NUUz, 1(1.10), 181–183.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

7. Pulatov, D. A. (2024). Strategy for developing spiritual and educational activities in higher education institutions: Variable technology and conditions. International Journal of Pedagogics, 4(11), 206–209.
8. Kizrina, N. G., & Eliseeva, O. R. (2022). The use of creative technologies in teaching foreign languages to students of pedagogical universities. Samara Scientific Bulletin, 11(3), 271–277.

© intereduglobalstudy.com

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA RAQAMLI MARKETING BOSHQARUVI STRATEGIYALARINING ABITURIYENTLARNING UNIVERSITET TANLOVIGA TA'SIRI.

Daminova Nodiraxon Soib qizi, mustaqil tadqiqotchi.

Annotatsiya

KIRISH: ushbu ilmiy tezisda oliy ta'lim muassasalari qo'llaydigan raqamli marketing boshqaruvi strategiyalari abituriyentlarning universitet tanlash qaroriga qanday ta'sir qilishi o'rganiladi. Tahlil jahon miqyosida o'tkazilgan ilmiy tadqiqotlar natijalariga asoslanadi. Ishda ijtimoiy tarmoqlar, kontent marketing, qidiruv tizimlari marketingi va an'anaviy usullar (jumladan telemarketing) solishtiriladi hamda zamonaviy yoshlar qaror qabul qilishda qaysi vositalarga ko'proq ishonishi aniqlanadi.

MAQSAD: oliy ta'lim muassasalarida qo'llanilayotgan raqamli marketing boshqaruvi strategiyalarining abituriyentlar tomonidan universitet tanlash qaroriga ko'rsatadigan ta'sirini tahlil qilish hamda ushbu jarayondagi zamonaviy tendensiyalar va eng samarali vositalarni aniqlashdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqot xalqaro va mahalliy ilmiy maqolalar, tematik jurnallar va so'rovnoma natijalarini qiyosiy-nazariy tahlil qilish, shuningdek, turli marketing kanallari (ijtimoiy tarmoqlar, SEO, Google Ads, kontent marketing hamda telemarketing) samaradorligini umumlashtirish metodlariga asoslanadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: tahlillar shuni ko'rsatdiki, ijtimoiy tarmoqlar va qidiruv tizimlari reklamasi abituriyentlar qaroriga kuchli ta'sir ko'rsatadi (qabul ko'rsatkichlarida 68,9% gacha o'sish kuzatilgan), ayniqsa, foydalanuvchilar (talabalar) tomonidan yaratilgan mustaqil kontent va ikki tomonlama muloqot yuqori ishonch uyg'otadi; o'z navbatida, telemarketing va bosma reklama kabi an'anaviy usullarning samaradorligi MZ va Z avlodi orasida keskin pasaygan.

XULOSA: oliy ta'lim muassasalari raqobatbardoshlikni oshirish va iqtidorli talabalarni jalb qilish uchun shaffoflik va shaxsiylashtirilgan yondashuvga asoslangan raqamli marketing boshqaruvi strategiyalarini bosqichma-bosqich takomillashtirishi zarur.

Kalit so'zlar: raqamli marketing, oliy ta'lim, abituriyentlar, universitet tanlovi, ijtimoiy tarmoqlar, kontent marketing, telemarketing, marketing strategiyasi.

ВЛИЯНИЕ СТРАТЕГИЙ УПРАВЛЕНИЯ ЦИФРОВЫМ МАРКЕТИНГОМ В ВЫСШИХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ НА ВЫБОР УНИВЕРСИТЕТА АБИТУРИЕНТАМИ.

Даминова Нодирахон Соиб кизи, независимый исследователь.

Аннотация

© intereduglobalstudy.com

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

ВВЕДЕНИЕ: в данной научной работе рассматривается влияние стратегий управления цифровым маркетингом, применяемых высшими образовательными учреждениями, на выбор университета абитуриентами. Анализ основан на изучении результатов научных исследований, проведённых на мировом уровне. В работе сравниваются социальные сети, контент-маркетинг, поисковый маркетинг и традиционные методы, а также определяется, каким инструментам современная молодёжь доверяет больше при принятии решений.

ЦЕЛЬ: исследовать влияние стратегий управления цифровым маркетингом, применяемых вузами, на решение абитуриентов при выборе университета, а также определить наиболее эффективные инструменты и современные тенденции.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: исследование основано на сравнительном теоретическом анализе международной научной литературы, результатов социологических опросов и публикации данных, а также обобщении эффективности различных маркетинговых каналов (социальные сети, SEO, Google Ads, контент-маркетинг, телемаркетинг).

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: установлено, что реклама в социальных сетях и поисковых системах оказывает существенное влияние на выбор абитуриентов (рост показателей зачисления достигает 68,9%), при этом наибольшим доверием пользуется пользовательский контент (отзывы студентов) и двусторонняя коммуникация; традиционные методы (телемаркетинг, печатная продукция) практически не оказывают влияния на поколения MZ и Z.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: высшим учебным заведениям необходимо совершенствовать стратегии управления цифровым маркетингом, внедряя принципы открытости, двустороннего диалога и персонализированных коммуникаций для повышения конкурентоспособности и успешного привлечения абитуриентов.

Ключевые слова: цифровой маркетинг, высшее образование, абитуриенты, выбор университета, социальные сети, контент-маркетинг, телемаркетинг, маркетинговая стратегия.

THE IMPACT OF DIGITAL MARKETING MANAGEMENT STRATEGIES IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS ON APPLICANTS' UNIVERSITY CHOICE.

Daminova Nodiraxon Soib qizi, independent researcher.

Annotation

INTRODUCTION: this scientific thesis analyzes how digital marketing management strategies used by higher education institutions affect applicants' university choice. The study is based on an examination of international scientific research findings. It compares social media, content marketing, search engine marketing and traditional methods, and identifies which tools young people trust most when making decisions.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

AIM: to analyze the impact of digital marketing management strategies implemented by higher education institutions on applicants' university choices and to identify the most effective tools and contemporary trends.

MATERIALS AND METHODS: the study is based on a comparative theoretical analysis of international scientific literature, survey data, and journal publications, synthesizing the effectiveness of various marketing channels including social media, SEO, Google Ads, content marketing, and telemarketing.

DISCUSSION AND RESULTS: the findings reveal that social media and search engine marketing significantly influence applicants' choices (boosting enrollment metrics by up to 68.9%), with user-generated content (student reviews) and interactive communication commanding the highest trust; conversely, traditional methods like telemarketing and print ads yield minimal impact on Generation MZ and Z.

CONCLUSION: higher education institutions must continuously optimize their digital marketing management strategies by adopting transparent, interactive, and personalized communication models to enhance competitiveness and attract prospective students.

Keywords: digital marketing, higher education, applicants, university choice, social media, content marketing, telemarketing, marketing strategy.

Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar odamlarning kundalik qarorlariga kuchli ta’sir ko‘rsatmoqda. Ayniqsa yosh avlod telefon va internetda ko‘p vaqt o‘tkazadi, shuning uchun ular qabul qiladigan muhim qarorlar ham ko‘pincha onlayn olingan ma’lumotlarga asoslanadi. Universitet tanlash ham xuddi shunday muhim qarorlardan biridir.

Shu sababli oliy ta’lim muassasalari yangi talabalarni jalb qilish uchun raqamli marketingdan tobora ko‘proq foydalanmoqda. Raqamli marketing universitetlarga o‘z ta’lim dasturlarini, stipendiyalarini hamda talabalar uchun yaratilgan qulayliklarni aynan kerakli auditoriyaga arzon va tez yetkazish imkonini beradi [1].

Universitet tanlash faqat yoshlarning telefonda ko‘p vaqt sarflashi bilan emas, balki ko‘plab tashqi omillar bilan ham bog‘liq. Jakartadagi Global universitetida olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, Covid-19 pandemiyasi oliy ta’lim muassasalarini raqamli o‘zgarishga (transformatsiyaga) majbur qildi. Natijada o‘qitish jarayonlari onlayn platformalarga o‘tdi, bu esa universitetlarning marketing usullarini ham tubdan o‘zgartirdi. O‘sha tadqiqotga ko‘ra, Google Ads va boshqa ijtimoiy media platformalarining abituriyentlar qaroriga va ularning universitetga qabul qilinishiga ta’siri sezilarli darajada — taxminan 68,9% ga oshgan [2].

Har bir yangilik foyda bilan birga qiyinchilik ham keltiradi. Ijtimoiy media universitetlar uchun katta imkoniyat bo‘lsa-da, ayni paytda to‘g‘ri marketing strategiyasini tuzishni murakkablashtiradi: axborot oqimi juda katta, raqobat kuchli, soxta yoki salbiy sharhlar esa obro‘ga zarar yetkazishi mumkin.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

Bugungi abituriyentlar bir tomonlama, ya'ni faqat universitet o'zi haqida gapiradigan an'anaviy reklamaga kamroq ishonadi. Ular tezkor javob olish va muloqotda faol qatnashish imkonini beradigan zamonaviy ijtimoiy media vositalarini afzal ko'radi. Bunday ikki tomonlama muloqot universitetga va u taklif qilayotgan xizmatlarga bo'lgan ishonchni oshiradi.

An'anaviy usullardan yana biri — telemarketing. Bu mahsulot yoki xizmatni reklama qilish uchun mijoz bilan telefon orqali bog'lanishdan iborat. Agar auditoriya aniq tanlangan bo'lsa, telemarketing ba'zi sohalarda arzon va samarali bo'lishi mumkin [3]. Biroq ta'lim sohasida u kam samara berishi aniqlangan. Koreya universiteti tadqiqotchisi Seong-Won Eum o'z maqolasida bosma kataloglar, shaxsiy tashriflar, telefon qo'ng'iroqlari va SMS xabarlardan iborat telemarketing universitet tanloviga yoki universitet brendiga deyarli ta'sir qilmasligini ta'kidlaydi. Buning sababi shundaki, MZ va Z avlodi qaror qabul qilishda ko'proq internetdagi ma'lumotlarga tayanadi [8].

Ushbu tadqiqotning maqsadi — oliy ta'lim muassasalari qo'llaydigan raqamli marketing usullarining abituriyentlar universitet tanlashiga ta'sirini o'rganish va bu jarayondagi zamonaviy tendensiyalarni aniqlash. Tadqiqotda quyidagi savollarga javob izlanadi: qaysi raqamli marketing usullari eng samarali; an'anaviy usullar bugungi yoshlar uchun qanchalik ta'sirli; yoshlar qaror qabul qilishda qaysi axborot manbalariga ko'proq ishonadi.

Tadqiqot nazariy tahlilga asoslanadi. Unda xorijiy ilmiy maqolalar, jurnal materiallari va o'tkazilgan so'rovlar natijalari o'rganib chiqilib, ularning xulosalari solishtirildi va umumlashtirildi.

Raqamli marketing nima?

Raqamli marketing — bu internet va raqamli texnologiyalar yordamida mahsulot yoki xizmatni reklama qilishdir. Ta'lim sohasida raqamli marketing universitetlar uchun strategik vosita bo'lib xizmat qiladi: u orqali ta'lim dasturlari targ'ib qilinadi, bo'lajak talabalar bilan muloqot o'rnatiladi va muassasaning ijobiy obro'si shakllantiriladi.

Mutaxassislarning fikricha, raqamli marketingning asosiy afzalligi — aniq auditoriyaga yo'naltirilganligi. An'anaviy reklamadan farqli o'laroq, raqamli reklamani odamning yoshi, qiziqishi, yashash hududi va onlayn xatti-harakatiga qarab sozlash mumkin. Bu reklama uchun sarflangan pulning samaradorligini oshiradi [4].

Ijtimoiy tarmoqlar

Ijtimoiy tarmoqlar — universitetlar eng ko'p foydalanadigan raqamli marketing vositalaridan biri. Bugungi kunda Instagram, Facebook, Telegram, YouTube, TikTok va LinkedIn kabi platformalar yoshlar orasida juda mashhur. Universitetlar bu kanallar orqali yangiliklar, ta'lim dasturlari, stipendiyalar, xalqaro hamkorlik tashabbuslari va talabalar hayoti haqidagi ma'lumotlarni tarqatadi [5].

Ijtimoiy tarmoqlarning eng katta foydasi — ikki tomonlama muloqotni osonlashtirishi. Abituriyent universitet xodimi bilan to'g'ridan-to'g'ri yozisha oladi, savoliga tez javob oladi

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

va boshqa talabalarning tajribasi bilan tanishadi. Bunday muloqot universitetga bo‘lgan ishonchni oshiradi va uning ijobiy obro‘sini mustahkamlaydi.

Kontent marketing

Kontent marketing — raqamli marketingning muhim qismi. Bunda universitet auditoriyani qimmatli va qiziqarli ma’lumot orqali jalb qiladi. Masalan, talabalarning yutuqlari, ilmiy natijalar, o‘qituvchilarning faoliyati va xalqaro almashinuv dasturlari haqidagi materiallar universitetning kuchli tomonlarini ko‘rsatadi.

Ilmiy tadqiqotlar shuni tasdiqlaydiki, foydalanuvchilarning o‘zi yaratgan kontent (sharhlar, baholar, tavsiyalar) universitet tanlashga kuchli ta’sir qiladi. Talabalar bunday fikrlarni rasmiy reklamaga qaraganda ishonchliroq deb hisoblaydi. Shuning uchun universitetlar talabalar bilan yaxshi munosabat o‘rnatib, ijobiy raqamli obro‘ qozonishga harakat qiladi.

Qidiruv tizimlari marketingi (SEO va Google Ads)

Bo‘lajak talabalar universitet haqida ma’lumot izlaganda ko‘pincha Google va boshqa qidiruv tizimlaridan foydalanadi. Shuning uchun universitetning rasmiy sayti qidiruv natijalarida yuqori o‘rinda chiqishi juda muhim. SEO (qidiruv tizimi uchun saytni optimallashtirish) va Google Ads (pullik reklama) kabi vositalar universitetning onlayn ko‘rinishini kuchaytiradi [6].

Jakarta Global universitetida o‘tkazilgan tadqiqot raqamli marketing usullari talabalarni qabul qilishga sezilarli ta’sir qilishini isbotladi. Tadqiqotga ko‘ra, universitet bilan aloqalar va qabul ko‘rsatkichlari ijtimoiy media hamda qidiruv tizimi reklamasi tufayli sezilarli oshgan. Bu raqamli marketing ta’lim muassasalari uchun foydali investitsiya ekanligini ko‘rsatadi [2].

Universitet brendingi

Universitet brendi tushunchasi raqamli marketing bilan chambarchas bog‘liq. Kuchli brend talabalar sonini oshiradi va universitetning dunyo bo‘ylab obro‘sini mustahkamlaydi. Yaxshi onlayn obro‘ universitetni yanada jozibador qiladi va iqtidorli yoshlarni jalb qilishga yordam beradi.

An’anaviy marketing va telemarketing

Universitetlar uzoq yillar davomida an’anaviy marketingdan foydalanib kelgan: bosma kataloglar, reklama bannerlari, ko‘rgazmalar, telefon qo‘ng‘iroqlari va turli tadbirlarda qatnashish shular jumlasidan. Biroq raqamli texnologiyalar rivojlangani sayin bu usullarning samaradorligi pasaymoqda [7].

Telemarketing biznes sohasida o‘rtacha natija beradi, ammo ta’lim sohasida natijalari doim ham ijobiy emas. Zamonaviy yoshlar telefon orqali tarqatilgan reklamaga shubha bilan qaraydi. Koreyada o‘tkazilgan tadqiqotlar telemarketingning universitet tanlashga ta’siri juda kichik ekanini ko‘rsatdi. Bosma materiallar, telefon qo‘ng‘iroqlari va SMS xabarlar yoshlarning qaroriga deyarli ta’sir qilmaydi. Buning asosiy sababi — mustaqil onlayn axborot manbalariga bo‘lgan ishonchning ortishi [8].

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

M va Z avlodi vakillari qaror qabul qilishdan oldin ko‘pincha mustaqil onlayn izlanish o‘tkazadi. Ular universitetning rasmiy saytini ko‘rish bilan birga, talabalarning sharhlari, baholari, videolari va forumlardagi suhbatlarini ham o‘rganadi. Shuning uchun zamonaviy universitet uchun ochiqlik va shaffoflikka asoslangan raqamli muloqot strategiyasini yaratish juda muhim.

Raqamli marketing natijalarini o‘lchash

Raqamli marketingning yana bir muhim afzalligi — natijani aniq raqamlarda o‘lchash mumkinligi. Universitetlar reklama kampaniyasining samaradorligini real vaqtda kuzatib boradi: nechta odam ko‘rgani, qamrov darajasi, sahifa tashriflari va qancha foydalanuvchi haqiqatan ariza topshirgani (konversiya) kabi ko‘rsatkichlarni tahlil qiladi. Bu ularga marketing harakatlarini yaxshilash va resurslardan oqilona foydalanish imkonini beradi.

Kelajak tendensiyalari

Kelajakda sun’iy intellekt, katta ma’lumotlar tahlili (big data) va shaxsiylashtirilgan marketing texnologiyalari universitetlarning raqamli marketingini yanada kuchaytirishi kutilmoqda. Bunday texnologiyalar har bir abituriyentning qiziqishi va ehtiyojiga moslab shaxsiy muloqot yo‘lga qo‘yish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, yosh avlod endi universitetni asosan ijtimoiy tarmoqlar orqali tanlamoqda va bu tarmoqlarni ishonchli axborot manbai deb biladi. An’anaviy marketingning obro‘si va ta’siri esa kamayib bormoqda.

Tadqiqot natijalari oliy ta’lim muassasalarida raqamli marketingni boshqarish usullari abituriyentlarning universitet tanloviga sezilarli ta’sir qilishini tasdiqladi. Internet va ijtimoiy tarmoqlar yoshlar uchun asosiy axborot manbaiga aylanar ekan, universitet marketingida innovatsion strategiyalar zarur bo‘ladi.

Raqamli marketing texnologiyalari universitetlarga maqsadli auditoriya bilan samarali muloqot qilish, ta’lim takliflarini keng targ‘ib qilish va ijobiy brend obro‘sini shakllantirish imkonini beradi. Ijtimoiy tarmoqlar, kontent marketing, qidiruv tizimlari marketingi va boshqa raqamli platformalar abituriyentlarning qaroriga tobora kuchliroq ta’sir qilmoqda.

Zamonaviy yoshlar an’anaviy reklamaga qaraganda internet manbalariga ko‘proq ishonadi. Talabalar yaratgan materiallar, baholar va tavsiyalar universitet haqidagi tasavvurga jiddiy ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun universitetlar raqamli obro‘sini doimiy ravishda oshirib borishi kerak.

An’anaviy marketing usullari muhim bo‘lsa-da, ularning samaradorligi raqamli vositalarga nisbatan pasaymoqda. Xususan, telemarketing va bosma reklama yosh demografik guruh uchun deyarli samara bermaydi.

Demak, oliy ta’lim muassasalari raqobatbardoshlikni oshirish, talabalar sonini ko‘paytirish va ta’lim bozorida mavqeini mustahkamlash uchun raqamli marketingni boshqarish usullarini takomillashtirishi lozim. Bu universitetlarning uzoq muddatli rivojlanishiga va ta’lim sifatining oshishiga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

1. Patrutiu Baltes L. Content marketing – the fundamental tool of digital marketing // Bulletin of the Transilvania University of Brasov. Series V: Economic Sciences. – 2015. – Vol. 8(57), No. 2. – P. 111–118.
2. Wijaya H., Andri R.M.C., Rachmawati D. Analysis of Digital Marketing Strategies on Interest and Enrollment Decisions of Prospective New Students in Private Higher Education Institutions in Indonesia (A Case Study of Jakarta Global University) // Klabat Journal of Management. – 2023. – Vol. 4, No. 2. – P. 147–162. – DOI: 10.60090/kjm.v4i2.1007
3. Kreutzer R.T., Hinz J. Möglichkeiten und Grenzen von Social Media Marketing. – Berlin: IMB Institute of Management Berlin, Berlin School of Economics and Law (HWR Berlin), 2010. – 32 p.
4. Constantinides E., Fountain S.J. Web 2.0: Conceptual foundations and marketing issues // Journal of Direct, Data and Digital Marketing Practice. – 2008. – No. 9(3). – P. 231–244.
5. Mangold W.G., Faulds D.J. Social media: The new hybrid element of the promotion mix // Business Horizons. – 2009. – Vol. 52, No. 4. – P. 357–365.
6. Mei R., Xu Y., Wang G. Telephone marketing forecast of bank time deposits based on LASSO-SVM model // Statistics Application. – 2016. – Vol. 5, No. 3. – P. 289–298.
7. Yan C., Li M., Liu W. Prediction of bank telephone marketing results based on improved whale algorithms optimizing S_Kohonen network // Applied Soft Computing. – 2020. – Vol. 92. – Article 106259.
8. Eum S.-W. Effects of digital marketing on departmental choice and awareness in higher education // International Journal of Engineering Business Management. – 2025. – Published: 16 April 2025.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

O‘ZBEK AUDITORIYASIDA BO‘LAJAK ARAB TILI O‘QITUVCHILARINING GRAMMATIK KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISHDAGI TIPIK INTERFERENSIYALAR.

Avazbek Ochilov, O‘zDJTU Arab tili tarjima nazariyasi va amaliyoti kafedrasi o’qituvchisi
avazbekochilov2001@gmail.com

Annotatsiya

KIRISH: mazkur maqolada o‘zbek auditoriyasida bo‘lajak arab tili o‘qituvchilarining grammatik kompetensiyasini shakllantirish jarayonida uchraydigan tipik interferensiyalar tahlil qilinadi. Arab va o‘zbek tillari grammatik tizimining o‘ziga xos xususiyatlari hamda ular o‘rtasidagi farqlarning talabalar tomonidan arab tilining grammatik birliklarini o‘zlashtirishiga ta’siri yoritiladi. Xususan, grammatik jins, kelishikni ifodalovchi affiks, ot kesim va fe’l kesim gaplar tuzilishi, sifat va otning moslashuvi, moslashmagan aniqlovchi birikmasi hamda son-sanalmish munosabatida uchraydigan xatolar misollar asosida ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, tipik grammatik xatolarning yuzaga kelishida ona tilining ta’siri bilan bir qatorda, o‘rganilayotgan grammatik qoidalarning murakkabligi va ularni amaliy qo‘llash ko‘nikmasining yetarli darajada shakllanmaganligi kabi omillar ham tahlil qilinadi. Maqolada grammatik interferensiyalarni aniqlashga xizmat qiluvchi diagnostik topshiriqlarning ahamiyati ham asoslanadi.

MAQSAD: O‘zbek auditoriyasida bo‘lajak arab tili o‘qituvchilarining grammatik kompetensiyasini shakllantirish jarayonida uchraydigan tipik interferensiyalarni, ularning keltirib chiqaruvchi omillarini tahlil qilish hamda sintaktik kompetensiyani aniqlash va baholash mezonlarini nazariy jihatdan asoslashdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda qiyosiy-tipologik tahlil, grammatik modellashtirish, pedagogik diagnostika hamda «aniqlash – tanlash – xatoni tuzatish – o‘zgartirish – mustaqil qo‘llash» ketma-ketligiga asoslangan topshiriqlar tizimi va baholash mezonlarini ishlab chiqish metodlaridan foydalanildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: arab va o‘zbek tillari grammatik tizimidagi tafovutlar sababli grammatik jins, i‘rob (affiks) tizimi, ot va fe’l kesimli gaplar so‘z tartibi, moslashmagan aniqlovchi (izofa), sifat va otning moslashuvi hamda son-sanalmish munosabatlarida yuzaga keladigan tipik interferensiyalar aniqlandi; grammatik xatolar nafaqat ona tili ta’siri, balki qoidaning murakkabligi va amaliy ko‘nikmalarning yetarsizligi bilan bog‘liqligi ko‘rsatildi.

XULOSA: bosqichma-bosqich diagnostik topshiriqlar va ko‘p mezonli baholash tizimi bo‘lajak o‘qituvchilarning grammatik kompetensiyasini oshirish, xatolarni o‘z vaqtida bartaraf etish va metodik tayyorgarligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: arab tili, o‘zbek auditoriyasi, bo‘lajak arab tili o‘qituvchisi, grammatik kompetensiya, nahv, grammatik interferensiya, ona tili ta’siri, grammatik xato, kelishikni ifodalovchi affiks, moslashmagan aniqlovchi, grammatik jins.

© intereduglobalstudy.com

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

ТИПИЧНЫЕ ИНТЕРФЕРЕНЦИИ В ФОРМИРОВАНИИ ГРАММАТИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ ПРЕПОДАВАТЕЛЕЙ АРАБСКОГО ЯЗЫКА В УЗБЕКСКОЙ АУДИТОРИИ.

Авазбек Очилов, преподаватель кафедры теории и практики перевода арабского языка Узбекского государственного университета мировых языков (УзГУМЯ).

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в статье анализируются типичные интерференции, возникающие в процессе формирования грамматической компетентности будущих преподавателей арабского языка в узбекской аудитории. Рассматриваются особенности грамматических систем узбекского и арабского языков, а также влияние их различий на усвоение студентами грамматических единиц арабского языка. На конкретных примерах анализируются ошибки, связанные с категорией грамматического рода, и‘рабом, структурой именных и глагольных предложений, согласованием существительного и прилагательного, конструкцией изафета, а также отношениями между числительным и исчисляемым существительным. Особое внимание уделяется причинам возникновения типичных грамматических ошибок. Наряду с влиянием родного языка рассматриваются сложность изучаемых грамматических правил и недостаточная сформированность навыков их практического применения. Обосновывается значение диагностических заданий для выявления и анализа грамматических интерференций, а также для определения уровня сформированности грамматической компетентности будущих преподавателей арабского языка.

ЦЕЛЬ: исследовать типичные грамматические (синтаксические) интерференции, возникающие у студентов-узбеков при освоении арабского языка, обосновать систему диагностических заданий и разработать критерии оценки синтаксической компетентности.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в работе использованы методы сравнительно-типологического анализа грамматических систем арабского и узбекского языков, педагогическое моделирование, а также метод диагностического тестирования по цепочке «идентификация – выбор – исправление ошибки – трансформации – самостоятельное применение».

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: систематизированы типичные ошибки, обусловленные межязыковой различимостью (категория рода, и‘раб, порядок слов, изафет, согласование прилагательных, числительные); установлено, что интерференция вызвана не только влиянием родного языка, но и сложностью правил и недостатком практических навыков.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: Внедрение поэтапной системы диагностических заданий и критериального оценивания позволяет эффективно выявлять и устранять

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

грамматические ошибки, обеспечивая высокий уровень профессионально-методической подготовки будущих учителей.

Ключевые слова: арабский язык, узбекская аудитория, будущий преподаватель арабского языка, грамматическая компетентность, грамматическая интерференция, влияние родного языка, грамматическая ошибка, грамматический род.

TYPICAL INTERFERENCES IN THE FORMATION OF GRAMMATICAL COMPETENCE OF FUTURE ARABIC LANGUAGE TEACHERS IN THE UZBEK CLASSROOM.

Avazbek Ochilov, Lecturer at the Department of Arabic Translation Theory and Practice, Uzbekistan State World Languages University (UzSWLU).

Annotation

INTRODUCTION: this article analyzes typical interferences that occur in the process of developing the grammatical competence of future Arabic language teachers in the Uzbek classroom. It examines the specific features of the grammatical systems of Uzbek and Arabic and the influence of their differences on students' acquisition of Arabic grammatical structures. Particular attention is paid to errors related to grammatical gender, the structure of nominal and verbal sentences, noun-adjective agreement and the relationship between numerals and counted nouns. The article also examines the main factors underlying typical grammatical errors. In addition to the influence of the native language, the complexity of the grammatical rules being learned and the insufficient development of practical skills in applying these rules are considered. The significance of diagnostic tasks for identifying and analyzing grammatical interferences and for determining the level of grammatical competence of future Arabic language teachers is also substantiated.

AIM: to analyze typical syntactic interferences in learning Arabic among Uzbek-speaking students, determine their causes, and substantiate a diagnostic task model and assessment criteria for grammatical competence.

MATERIALS AND METHODS: the study employed comparative-typological analysis of Uzbek and Arabic grammatical structures, pedagogical modeling, and a diagnostic task system based on the sequence: "identification → selection → error correction → transformation → autonomous application".

DISCUSSION AND RESULTS: typical interferences resulting from structural differences between the languages were categorized (grammatical gender, case/i'rab markers, word order in nominal and verbal sentences, idaafa, adjective agreement, and numerals); results demonstrate that errors stem not only from native language transfer, but also from rule complexity and insufficient practice.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

CONCLUSION: the proposed multi-stage diagnostic structure and criteria-based evaluation effectively bridge theoretical knowledge and practical language usage, improving the professional methodological preparation of future Arabic language educators.

Keywords: arabic language, Uzbek classroom, future Arabic language teachers, grammatical competence, grammatical interference, native language influence, grammatical error, grammatical gender.

Arab tilini oliy ta’lim muassasalarida o‘qitishda talabalarning grammatik qoidalarni bilishi bilan bir qatorda, ularni to‘g‘ri qo‘llay olishi ham muhimdir. Ayniqsa, bo‘lajak arab tili o‘qituvchilari uchun sintaktik biriklmalar bilimlarni puxta egallash muhim ahamiyatga ega, chunki ular kelgusida mazkur bilimlarni o‘quvchilarga ham tushuntirib berishlari lozim.

Arab tilining grammatik tizimi o‘zbek tilidan qator jihatlari bilan farq qiladi. Affiks, grammatik jins, sifat va fe’lning moslashuvi, ot kesimli va fe’l kesimli gaplar qurilishi, moslashmagan aniqlovchi hamda son-sanalmish munosabati kabi hodisalar o‘zbek auditoriyasida arab tilini o‘rganishda muayyan qiyinchiliklar tug‘diradi. Bunda talabaning ona tilida shakllangan grammatik tasavvurlari yangi tilni o‘zlashtirish jarayoniga ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Masalan, o‘zbek tilida grammatik jins mavjud emasligi sababli talabalar arab tilida muzakkar va muannas shakllarini farqlashda xato qilishi mumkin. Natijada ٌالطالبةُ مجتهدة o‘rniga مجتهد ٌالطالبةُshakli qo‘llanadi. Xuddi shuningdek, i‘robni o‘zlashtirishda جاءَ الطالبُ، رأيتُ الطالبَ، مررتُ بالطالبِshakllaridagi farqni to‘g‘ri qo‘llash qiyinchilik tug‘dirishi mumkin.

Shu nuqtayi nazardan, o‘zbek auditoriyasida arab tili nahvini o‘zlashtirish jarayonida yuzaga keladigan tipik xatolarni aniqlash va ularning sabablarini o‘rganish muhim metodik vazifa hisoblanadi. Mazkur maqolada bo‘lajak arab tili o‘qituvchilarida uchraydigan asosiy nahviy xatolar hamda ularning o‘zbek va arab tillari grammatik tizimidagi farqlar bilan bog‘liq jihatlari tahlil qilinadi.

1. Arab tili sintaktik birikmalarini o‘zlashtirishda ona tilining ta’siri: Xorijiy tilni o‘rganishda talaba yangi grammatik hodisalarni ko‘pincha o‘ziga tanish bo‘lgan til tizimi asosida anglashga harakat qiladi. Ikki til o‘rtasidagi farqlar mavjud bo‘lgan holatlarda bu jarayon xatolarga olib kelishi mumkin. O‘zbek auditoriyasida arab tilini o‘rganishda ham bunday holatlar, ayniqsa, grammatik jihatdan bir-biridan keskin farq qiladigan hodisalarda yaqqol ko‘rinadi.

O‘zbek va arab tillari o‘rtasidagi muhim farqlardan biri grammatik jins masalasidir. O‘zbek tilida ot va sifatlar muzakkar (erkak jins kategoriyasi) yoki muannas (ayol jins kategoriyasi)ga ko‘ra o‘zgarmaydi. Arab tilida esa bu farq ot, sifat, olmosh va fe’l shakllarida muntazam ifodalanadi. Shu sababli ٌالطالبةُ مجتهدة o‘rniga مجتهد ٌالطالبةُkabi xato shakllar yuzaga kelishi mumkin. Bunda talaba sifatning ot bilan jins jihatidan moslashishini yetarli darajada hisobga olmaydi.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

Arab tilidagi ot kesimli gapda ham o‘zbek auditoriyasi uchun ayrim qiyinchiliklar mavjud. Masalan, الطالبُ مجتهدٌ gapida gap egasi va ot kesimi o‘rtasidagi grammatik munosabatni to‘g‘ri shakllantirish talab etiladi. O‘zbek tilida mazkur mazmun “Talaba tirishqoq” tarzida ifodalanadi va bunda so‘z shaklining jins yoki kelishikni anglatuvchi affiksga ko‘ra o‘zgarishi kuzatilmaydi. Natijada talaba arab tilidagi grammatik moslashuvni alohida o‘zlashtirishi kerak bo‘ladi.

Fe’l kesimli gaplarda esa so‘zlarning joylashuvi muhim farqlardan biridir. Arab tilida كَتبَ الطالبُ الدرس shaklidagi fe’l–ega–to‘ldiruvchi tartibi keng qo‘llanadi, o‘zbek tilida esa mazkur mazmun odatda “Talaba darsni yozdi” tarzida ega-to‘ldiruvchi-fe’l tartibida ifodalanadi. Shu sababli talabalar arabcha gap tuzishda o‘zbek tilidagi so‘z tartibini saqlab qolishi mumkin.

Kelishikni ifodalovchi affiks ham o‘zbek talabalarining arab tilini o‘zlashtirishida murakkab mavzulardan biridir. Arab tilida so‘z oxiridagi harakatlar uning gapdagi grammatik vazifasini ko‘rsatadi:

جاءَ الطالبُ
رأيتُ الطالبَ
مررتُ بالطالبِ

O‘zbek tilida esa grammatik munosabatlar asosan kelishik qo‘shimchalari orqali ifodalanadi. Shu sababli arab tilidagi affiks shakllarini gapdagi vazifa bilan bog‘lash dastlab qiyinchilik tug‘dirishi mumkin.

Moslashmagan aniqlovchi birikmasida ham o‘zbek va arab tillarining ifoda usullari o‘rtasidagi farq seziladi. O‘zbek tilidagi “talabaning kitobi” birikmasi arab tilida كِتابُ الطالب shaklida beriladi. Bunda birinchi so‘zning tanvinsiz kelishi, ikkinchi so‘zning majrur bo‘lishi kabi qoidalar hisobga olinadi. Mazkur xususiyatlar yetarli o‘zlashtirilmaganda كِتابٌ الطالب yoki كُتابُ الطالب kabi shakllar yuzaga kelishi mumkin.

Son va sanalmish munosabati ham o‘zbek auditoriyasi uchun murakkab mavzulardan sanaladi. O‘zbek tilida son bilan otning qo‘llanishi nisbatan sodda bo‘lsa, arab tilida sonning turiga qarab sanalmishning son, jins va affiks shakllarida o‘zgarishlar yuz beradi. Shu sababli bu birliklarni qo‘llashda o‘zbek tilidagi qolipning ta’siri kuzatilishi mumkin.

Demak, o‘zbek auditoriyasida arab tili nahvini o‘zlashtirishda yuzaga keladigan xatolarning ayrimlari ikki til grammatik tizimidagi farqlar bilan bog‘liq. Biroq barcha xatolarni faqat ona tilining ta’siri bilan izohlash to‘g‘ri emas. Ayrim xatolar yangi qoidaning murakkabligi yoki uning yetarli darajada o‘zlashtirilmaganligi natijasida ham yuzaga keladi. Shu bois tipik nahviy xatolarni aniqlashda ularning shakli bilan bir qatorda kelib chiqish sabablarini ham tahlil qilish zarur.

3. Sintaktik xatolarni aniqlashga yo‘naltirilgan diagnostik topshiriqlar tizimi: Bo‘lajak arab tili o‘qituvchilarining grammatik kompetensiyasini rivojlantirishda talabaning grammatik qoidalarni qay darajada bilishini aniqlash bilan birga, ushbu bilimlarni amaliy nutq jarayonida qo‘llay olish darajasini ham baholash muhimdir. Shu sababli diagnostik

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

topshiriqlar faqat nazariy savollar yoki qoidalarni yoddan aytishga asoslanmasligi, balki grammatik hodisani aniqlash, to‘g‘ri shaklni tanlash, xatoni topish va tuzatish, gapni o‘zgartirish hamda mustaqil gap tuzish kabi faoliyatlarni ham qamrab olishi lozim.

Diagnostik topshiriqlarni ishlab chiqishda, avvalo, o‘zbek auditoriyasida ko‘p uchraydigan sintaktik xatolar hisobga olinishi maqsadga muvofiq. Bunday yondashuv talabaning qaysi qoidani bilmasligini emas, balki qaysi grammatik hodisani qanday qo‘llashda qiyinchilikka duch kelayotganini aniqlash imkonini beradi. Masalan, talaba affiks qoidasini nazariy jihatdan tushuntira olishi, biroq uni gap tarkibida to‘g‘ri qo‘llay olmasligi mumkin. Demak, nazariy bilim bilan amaliy qo‘llash o‘rtasidagi farq ham diagnostika jarayonida alohida e’tiborga olinishi kerak.

Birinchi turdagi topshiriqlar grammatik hodisani aniqlash va farqlashga qaratiladi. Masalan:

الطالبُ مجتهدٌ

Ushbu gaplarda mubtada va xabarni aniqlash, ularning gapdagi vazifasini ko‘rsatish talab etiladi. Bunday topshiriq talabaning faqat gap ma’nosini tushunganini emas, balki uning grammatik tuzilishini anglay olishini ham ko‘rsatadi.

Ikkinchi turdagi topshiriqlar to‘g‘ri grammatik shaklni tanlashga yo‘naltiriladi. Masalan:

الطالبةُ...

a) مجتهدٌ

b) مجتهدةٌ

Bu topshiriq orqali sifatning ot bilan jins jihatidan moslashuvi tekshiriladi. Agar talaba birinchi variantni tanlasa, xatoning sababi grammatik jins kategoriyasini yetarlicha o‘zlashtirmaganligi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Uchinchi turdagi topshiriqlar xatoni aniqlash va tuzatishga asoslanadi. Masalan:

رُأيتُ الطالب

jumlasidagi xatoni aniqlab, uni:

رَأيتُ الطالب

shaklida tuzatish talab qilinadi. Bu turdagi topshiriqlar muhim hisoblanadi, chunki bunda talaba grammatik qoidani tayyor shaklda qo‘llash bilan cheklanmaydi, balki noto‘g‘ri shaklni tahlil qilib, uning o‘rniga to‘g‘ri variantni mustaqil ravishda tanlaydi.

To‘rtinchi turdagi topshiriqlar grammatik transformatsiya asosida tuzilishi mumkin. Masalan:

الطالبُ مجتهدٌ ← الطالبةُ مجتهدة

yoki:

جاءَ الطالبُ ← جاءَتِ الطالبةُ

kabi o‘zgartirishlar orqali talabaning grammatik shakllar o‘rtasidagi munosabatni tushunishi tekshiriladi. Bunday topshiriqlar jins, son, fe’l va sifatning moslashuvi kabi bir nechta grammatik jihatlarni bir vaqtning o‘zida nazorat qilish imkonini beradi.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

Beshinchi turdagi topshiriqlar esa mustaqil gap tuzish va grammatik birlikni nutqda qo‘llashga yo‘naltiriladi. Masalan, talabaga “talabaning kitobi”, “o‘qituvchining qalami” kabi birikmalar berilib, ularni arab tilida izofa shaklida ifodalash so‘raladi:

كتابُ الطالبِ

قلمُ المعلمِ

Bu orqali talabaning izofa birikmasini nazariy bilishi emas, balki uning asosiy qoidalarini amaliy qo‘llay olishi aniqlanadi.

Shuningdek, diagnostika jarayonida son va sanalmish munosabati, fe’l zamonlari, sifat va otning moslashuvi, olmoshlarning qo‘llanishi kabi mavzular bo‘yicha ham topshiriqlar berilishi mumkin. Muhimi, topshiriqlar oddiydan murakkabga qarab tashkil etilishi lozim. Dastlab grammatik birlikni aniqlash, keyin to‘g‘ri shaklni tanlash, undan so‘ng xatoni tuzatish va nihoyat mustaqil qo‘llashga o‘tish talabaning kompetensiyasini bosqichma-bosqich aniqlash imkonini beradi.

Shunday qilib, diagnostik topshiriqlar tizimini “aniqlash - tanlash - xatoni tuzatish - o‘zgartirish - mustaqil qo‘llash” ketma-ketligida tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Mazkur ketma-ketlik talabaning sintaktik bilimlarini oddiy eslab qolishdan boshlab, ularni amaliy nutqda mustaqil qo‘llashgacha bo‘lgan darajalarni aniqlash imkonini beradi.

4. Sintaktis kompetensiyasini baholash mezonlari: Sintaktis kompetensiyasini obyektiv baholash uchun uning tarkibiy jihatlari va namoyon bo‘lish darajasini belgilovchi aniq mezonlarga ehtiyoj mavjud. Faqat to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri javoblar sonini hisoblash talabaning grammatik kompetensiyasi haqida to‘liq tasavvur bermasligi mumkin. Chunki ayrim talabalar qoidani bilgan holda uni nutqda qo‘llashda xatoga yo‘l qo‘yishi, boshqalari esa tayyor namunaga asoslanib to‘g‘ri javob berishi mumkin. Shu sababli baholashda bilim, tahlil, amaliy qo‘llash va xatoni tuzatish qobiliyatlari o‘zaro bog‘liq holda hisobga olinishi zarur.

Tadqiqot doirasida nahv kompetensiyasini baholashning quyidagi asosiy mezonlarini ajratish mumkin.

Birinchi mezon - sintaktik bilimlarning shakllanganlik darajasi. Bunda talabaning asosiy grammatik qoidalarni bilishi, grammatik terminlarning mazmunini tushunishi va o‘rganilgan qoidalarni misollar orqali izohlay olishi nazarda tutiladi. Masalan, talaba rga va kesim, bosh kelishik, tushum kelishigi va qaratqich kelishiklarni, moslashmagan anilovchining asosiy xususiyatlarini tushuntira olishi kerak.

Ikkinchi mezon - grammatik tahlil qila olish. Bu mezon talabaning gap tarkibidagi so‘zlarning grammatik vazifasini aniqlay olishi bilan belgilanadi. Masalan, قرأَ الطالبُ الكتاب gapida fe’l, ega va to‘ldiruvchini aniqlash, ularning affiks shakllarini izohlash talab qilinadi. Mazkur ko‘nikma talabaning grammatik qoidani alohida holatda emas, balki gap tarkibida anglay olishini ko‘rsatadi.

Uchinchi mezon - grammatik birliklarni amaliy qo‘llash. Bunda talabaning o‘rgangan qoidalar asosida to‘g‘ri gap va birikmalar tuza olishi baholanadi. Masalan, ot kesimli gap tuzish, sifatni ot bilan moslashtirish, moslashmagan aniqlovchi birikmasini hosil qilish yoki

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

berilgan gapni boshqa grammatik shaklga o‘zgartirish kabi topshiriqlar ushbu mezon asosida baholanadi.

To‘rtinchi mezon - grammatik xatolarni aniqlash va tuzatish. Bu mezon ayniqsa bo‘lajak arab tili o‘qituvchilari uchun muhimdir. Chunki kelajakdagi pedagog nafaqat o‘z nutqidagi, balki o‘quvchilarning grammatik xatolarini ham aniqlay olishi kerak. Masalan, ًالطالبةُ مجتهد shaklidagi xatoni aniqlash, uning sababini izohlash va ًالطالبةُ مجتهدة shaklini taklif qilish talabaning amaliy sintaktik tayyorgarligini ko‘rsatadi.

Mazkur mezonlar asosida sintaksis kompetensiyasining shakllanganlik darajasini to‘rt bosqichda tavsiflash mumkin.

Boshlang‘ich daraja. Talaba asosiy sintaksis qoidalar haqida umumiy tasavvurga ega bo‘ladi, biroq ularni amaliy qo‘llashda ko‘plab xatolarga yo‘l qo‘yadi. Ayniqsa, i‘rob, grammatik jins, sifat va otning moslashuvi kabi mavzularda qiyinchiliklar kuzatiladi.

O‘rta daraja. Talaba asosiy qoidalarni biladi va sodda gaplarda ularni qo‘llay oladi. Biroq grammatik jihatdan murakkabroq tuzilmalar, transformatsion topshiriqlar yoki mustaqil gap tuzishda xatolar saqlanib qoladi.

Yetarli daraja. Talaba asosiy va nisbatan murakkab sintaktik hodisalarni to‘g‘ri tahlil qila oladi, grammatik qoidalarni amaliy vaziyatlarda qo‘llaydi hamda yo‘l qo‘yilgan xatolarni mustaqil aniqlab, tuzatishga qodir bo‘ladi.

Yuqori daraja. Talaba grammatik birliklardan izchil va to‘g‘ri foydalanadi, murakkab gaplarni tahlil qila oladi, grammatik shakllarni vaziyatga mos ravishda mustaqil tanlaydi hamda o‘z nutqidagi xatolarni nazorat qila oladi. Bo‘lajak o‘qituvchi uchun ushbu daraja grammatik hodisani nafaqat to‘g‘ri qo‘llash, balki uning qo‘llanish sababini tushuntirish imkoniyatini ham nazarda tutadi.

Ushbu mezon va darajalar keyingi bosqichda miqdoriy ko‘rsatkichlar bilan bog‘lanib, tajriba-sinov jarayonida talabalarning boshlang‘ich va yakuniy natijalarini taqqoslash uchun foydalanilishi mumkin. Bunda har bir mezon bo‘yicha alohida topshiriqlar ishlab chiqilishi natijalarning ishonchliligini oshiradi.

O‘zbek auditoriyasida bo‘lajak arab tili o‘qituvchilarining sintaksis kompetensiyasini shakllantirish jarayonida yuzaga keladigan xatolarni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, ularning muayyan qismi o‘zbek va arab tillari grammatik tizimidagi farqlar bilan bog‘liq. Xususan, grammatik jinsning mavjudligi, affiks tizimi, ot kesimli va fe’l kesimli gaplarning tuzilishi, moslashmagan aniqlovchi birikmasi, sifat va otning moslashuvi hamda son-sanalmish munosabati o‘zbek talabalarida ko‘proq qiyinchilik tug‘diradigan mavzular qatoriga kiradi.

Biroq sintaktik xatolarni faqat ona tilining ta’siri bilan izohlash yetarli emas. Ayrim xatolar yangi grammatik qoidaning murakkabligi, o‘quv materialining yetarli darajada mustahkamlanmaganligi yoki qoidani amaliy nutqda qo‘llash ko‘nikmasining shakllanmaganligi bilan ham bog‘liq bo‘lishi mumkin. Shu sababli xatolarni tahlil qilishda ularning tashqi ko‘rinishi bilan bir qatorda kelib chiqish sabablarini ham aniqlash muhimdir.

Diagnostik topshiriqlarni tizimli tashkil etish esa talabaning sintaktik bilimlarini har tomonlama aniqlash imkonini beradi. Bunda grammatik hodisani aniqlash, to‘g‘ri shaklni

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

tanlash, xatoni tuzatish, grammatik transformatsiya va mustaqil gap tuzish kabi topshiriqlarning o‘zaro izchil qo‘llanilishi maqsadga muvofiqdir. Bunday yondashuv talabaning grammatik qoidani yod bilishi bilan uning amaliy qo‘llay olishi o‘rtasidagi farqni aniqlashga yordam beradi.

Shuningdek, sintaksis kompetensiyasini aniq mezonlar asosida baholash uning shakllanganlik darajasini obyektivroq belgilash imkonini beradi. Bilim, grammatik tahlil, amaliy qo‘llash va xatoni aniqlash-tuzatish mezonlari asosida o‘tkazilgan diagnostika keyingi metodik ishlar uchun zarur ilmiy-amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi. Shu jihatdan, o‘zbek auditoriyasida uchraydigan tipik nahviy interferensiyalarni aniqlash va ularni kamaytirishga yo‘naltirilgan metodik yondashuvlarni ishlab chiqish bo‘lajak arab tili o‘qituvchilarining nahv kompetensiyasini rivojlantirishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Ishaq Muso al-Husayniy. Asalibu tadrisil-lug’ti al-arobiyyati fi ad-dug’uti al-ibtida’iyya. Qohira.: Darul-kitab - 2018.
2. Ibn Hisham, A.Y. (1997). The Clear Paths to the Alfiyya of Ibn Malik. Awdah al-Masalik ila Alfiyyat Ibn Malik. Awdakh al-masalik k Alfiyye Ibn Malika – Beirut: Dar al-Jil. – Vol.1: 360 p.; Vol.2: 350 p.; Vol.3: 342 p.; Vol.4: 330 p. (in Arabic).
3. G‘aniev, M. Arab sintaksisi va uning tahlili. — Toshkent: TDPU nashriyoti, 2021. — 184 b.
4. Sultonov, Z. Arab tili o‘rganish asoslari. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2016. — 196 b.
5. Sattorov, R. Arab tili sintaksisi. — Toshkent: O‘qituvchi, 1997. — 232 b.
6. G‘ulomov, A. Arab tili grammatikasi: morfologiya va sintaksis. — Toshkent: O‘zbekiston, 1995. — 308 b.

© intereduglobalstudy.com

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

PEDAGOGIKA OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA FIZIKA VA GEOGRAFIYA FANLARI MAZMUNINING INTEGRATSIYALASHUV IMKONIYATLARI.

Tugalov Farxod Qarshiboyevich, Jizzax davlat pedagogika universiteti, "Fizika" kafedrasi dotsenti, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
farxodtugalov@mail.ru

Annotatsiya

KIRISH: ushbu maqolada pedagogika oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak geografiya o'qituvchilarining tabiiy-ilmiy kompetensiyalarini rivojlantirishda fizika va geografiya fanlarini integratsiyalashning mazmuniy va metodik imkoniyatlari tadqiq etilgan. "Tabiiy geografiya" fanida o'rganiladigan yerning harakati, gidrosfera, atmosfera, quyosh radiatsiyasi, atmosfera bosimi, shamol va iqlim kabi tabiiy jarayonlarni fizik qonuniyatlar asosida tushuntirish imkoniyatlari tahlil qilingan. Fanlararo integratsiyaning "geografik hodisa – fizik mexanizm" modeli hamda FREYM yondashuvi taklif etilgan. Shuningdek, integratsiyalashgan amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish, ma'lumotlarni tahlil qilish, dalillarga asoslangan xulosa chiqarish va fanlararo bilimlarni pedagogik faoliyatga tatbiq etishga yo'naltirilgan metodik yondashuvlar ishlab chiqilgan. Taklif etilgan yondashuv bo'lajak geografiya o'qituvchilarining tabiiy hodisalarni kompleks tushuntirish va ilmiy fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

MAQSAD: pedagogika oliy ta'lim muassasalarida fizika va geografiya fanlari mazmunini integratsiyalashning ilmiy-metodik asoslarini ishlab chiqish hamda ushbu yondashuv orqali bo'lajak geografiya o'qituvchilarining tabiiy-ilmiy kompetensiyalarini rivojlantirish imkoniyatlarini asoslashdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda fanlararo va kompetensiyaviy yondashuvlar, «geografik hodisa — fizik mexanizm» modeli hamda FREYM (Fenomen, Real ma'lumot, Evidence/eksperiment, Yechim, Metakognitiv refleksiya) interaktiv metodologiyasidan va amaliy-metodik topshiriqlardan foydalanildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: atmosfera, gidrosfera, Quyosh radiatsiyasi va Yerning harakati kabi mavzularda fizik va geografik bilimlarning uzviy bog'liqligi tizimlashtirildi; talabalarning ma'lumotlarni tahlil qilish, grafik va xaritalar bilan ishlash, sabab-oqibat aloqadorligini aniqlash hamda olingan bilimlarni maktab ta'limiga ko'chirish (pedagogik transfer) ko'nikmalarini baholash mezonlari ishlab chiqildi.

XULOSA: fizika va geografiya fanlarining mazmuniy va metodik integratsiyasi bo'lajak o'qituvchilarning tabiiy hodisalar haqida yaxlit ilmiy tasavvurlarini shakllantirishga va ularning kasbiy-pedagogik tayyorgarlik darajasini oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: fizika, geografiya, tabiiy geografiya, fanlararo integratsiya, tabiiy-ilmiy kompetensiya, bo'lajak geografiya o'qituvchisi, FREYM modeli, geografik hodisa, fizik mexanizm, dalillarga asoslangan xulosa, pedagogik transfer.

© intereduglobalstudy.com

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

ВОЗМОЖНОСТИ ИНТЕГРАЦИИ СОДЕРЖАНИЯ ДИСЦИПЛИН «ФИЗИКА» И «ГЕОГРАФИЯ» В ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ.

Тугалов Фарход Каршибоевич, доцент кафедры «Физика» Джизакского государственного педагогического университета, доктор философии по педагогическим наукам (PhD).

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в данной статье исследованы содержательные и методические возможности интеграции физики и географии в развитии естественнонаучных компетенций будущих учителей географии в педагогических высших учебных заведениях. Проанализированы возможности объяснения на основе физических закономерностей таких природных процессов, изучаемых в курсе «Физическая география», как движение Земли, гидросфера, атмосфера, солнечная радиация, атмосферное давление, ветер и климат. Предложены модель межпредметной интеграции «географическое явление — физический механизм» и ФРЕЙМ-подход. Также разработаны методические подходы, направленные на организацию интегрированных практических занятий, анализ данных, формулирование выводов на основе доказательств и применение межпредметных знаний в педагогической деятельности. Предлагаемый подход способствует развитию у будущих учителей географии компетенций комплексного объяснения природных явлений и научного мышления.

ЦЕЛЬ: разработка научно-методических основ интеграции содержания предметов «Физика» и «География» в педагогических вузах и обоснование её возможностей для развития естественнонаучных компетенций будущих учителей географии.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании использованы межпредметный и компетентностный подходы, модель «географическое явление — физический механизм», а также когнитивная методология ФРЕЙМ (Феномен, Реальные данные, Эксперимент/доказательство, Решение, Метакогнитивная рефлексия) и система практико-ориентированных задач.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: систематизирована взаимосвязь физических и географических понятий в таких разделах, как атмосфера, гидросфера, солнечная радиация и движение Земли; разработаны критерии оценки навыков анализа данных, работы с графиками и картами, установления причинно-следственных связей и педагогического трансфера знаний в школьное образование.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: межпредметная интеграция физики и географии способствует формированию у будущих педагогов целостного научного мировоззрения и повышает их профессионально-методическую подготовку.

Ключевые слова: физика, география, физическая география, межпредметная интеграция, естественнонаучная компетенция, будущий учитель географии,

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

ФРЕЙМ-модель, географическое явление, физический механизм, доказательный вывод, педагогический трансфер.

POSSIBILITIES OF INTEGRATING THE CONTENT OF PHYSICS AND GEOGRAPHY SUBJECTS IN PEDAGOGICAL HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS.

Tugalov Farxod Qarshiboyevich, Associate Professor at the Department of Physics, Jizzakh State Pedagogical University, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences.

Annotation

INTRODUCTION: this article examines the content and methodological possibilities of integrating physics and geography to develop the natural-scientific competencies of future geography teachers in pedagogical higher education institutions. It analyzes the potential for explaining natural processes studied in "Physical Geography"—such as Earth's rotation, the hydrosphere, atmosphere, solar radiation, atmospheric pressure, wind, and climate—based on physical laws. An interdisciplinary integration model of "geographical phenomenon – physical mechanism" and a FRAME approach are proposed. Furthermore, methodological strategies aimed at organizing integrated practical sessions, analyzing data, drawing evidence-based conclusions, and applying interdisciplinary knowledge in pedagogical practice have been developed. The proposed approach serves to enhance future geography teachers' competencies in comprehensive explanation of natural phenomena and scientific thinking.

AIM: to develop the scientific and methodological foundations for integrating the content of physics and geography in higher pedagogical education and to substantiate its potential for fostering natural-scientific competencies in prospective geography teachers.

MATERIALS AND METHODS: the study employs interdisciplinary and competency-based approaches, the "geographical phenomenon — physical mechanism" model, the FRAME methodology (Phenomenon, Real data, Evidence/experiment, Solution, Metacognitive reflection), and a system of practical application tasks.

DISCUSSION AND RESULTS: the interconnectedness of physical and geographical concepts was structured across topics such as the atmosphere, hydrosphere, solar radiation, and Earth's motion; assessment criteria were established for data analysis, interpretation of graphs and maps, causal reasoning, and the pedagogical transfer of knowledge into school curricula.

CONCLUSION: Integrating physics and geography enables future educators to build a comprehensive scientific view of

Keywords: physics, geography, physical geography, interdisciplinary integration, natural-scientific competence, future geography teacher, FRAME model, geographical phenomenon, physical mechanism, evidence-based conclusion, pedagogical transfer.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

Bugungi kunda oliy pedagogik ta’lim oldida turgan muhim vazifalardan biri bo‘lajak o‘qituvchilarda tabiiy jarayon va hodisalarni ilmiy asosda tushuntirish, turli manbalardan olingan ma’lumotlarni tahlil qilish, dalillarga asoslangan xulosa chiqarish hamda o‘z bilimlarini amaliy va pedagogik vaziyatlarda qo‘llash kompetensiyalarini rivojlantirishdan iborat. Ayniqsa, geografiya o‘qituvchisini tayyorlash jarayonida tabiiy hodisalarni faqat geografik tavsiflash bilan cheklanib qolmasdan, ularning fizik mexanizmlarini ham tushuntirish muhim metodik talab sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Tabiiy geografiya mazmunida Yerning harakati, Quyosh radiatsiyasi, atmosfera bosimi, shamol, haroratning hududiy o‘zgarishi, suvning bug‘lanishi va kondensatsiyasi, daryo oqimi, iqlim hamda boshqa ko‘plab jarayonlar o‘rganiladi. Mazkur hodisalarning aksariyati fizik qonuniyatlar bilan bevosita bog‘liq. Shuning uchun geografik bilimlarni fizik tushunchalar, qonunlar va fizik kattaliklar bilan bog‘lash talabaning tabiiy jarayon haqidagi bilimlarini yaxlit tizimga keltirish imkonini beradi.

Tabiiy fanlarni integratsiyalash masalalari bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlarda fanlararo aloqalarni kuchaytirish, tabiiy-ilmiy savodxonlikni rivojlantirish, tadqiqotchilik ko‘nikmalarini shakllantirish va PISA elementlaridan foydalanish imkoniyatlari yoritilgan. Xususan, tabiiy fanlar o‘rtasidagi integratsiya, tabiiy-ilmiy savodxonlik va geografiya ta’limidagi fanlararo aloqalar bo‘yicha tadqiqotlar mavjud. Biroq ushbu yondashuvlarni bo‘lajak geografiya o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligi bilan bog‘lash, “Tabiiy geografiya” fanining konkret mavzularini fizika mazmuni bilan tizimli integratsiyalash va natijada shakllanadigan kompetensiyalarni pedagogik faoliyatga ko‘chirish mexanizmini yaxlit metodik tizim sifatida ishlab chiqish masalasi yetarlicha tizimlashtirilmagan.

Shu nuqtayi nazardan, fizika va geografiya fanlari integratsiyasini alohida mavzularni mexanik ravishda birlashtirish sifatida emas, balki bitta tabiiy hodisani geografik sharoit va fizik mexanizmning o‘zaro aloqasi asosida tushuntirishga yo‘naltirilgan metodik jarayon sifatida tashkil etish maqsadga muvofiq. Bunday yondashuvda talaba tabiiy hodisani aniqlaydi, uning geografik sharoitini tahlil qiladi, fizik sabab va mexanizmini ochib beradi, ma’lumotlar hamda dalillarni qayta ishlaydi, ilmiy xulosa chiqaradi va mazkur bilimni kelgusidagi pedagogik faoliyatida qo‘llash imkoniyatini belgilaydi. Tadqiqotning konseptual asosi ham aynan “geografik hodisa → geografik kontekst → fizik mexanizm → ma’lumot → tahlil → integratsion ilmiy izoh → dalillangan xulosa → pedagogik tushuntirish” ketma-ketligiga quriladi.

Tadqiqotning maqsadi – pedagogika oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak geografiya o‘qituvchilarining tabiiy-ilmiy kompetensiyalarini rivojlantirish uchun “Fizika” va “Tabiiy geografiya” fanlari mazmunini integratsiyalashning ilmiy-metodik asoslarini ishlab chiqish hamda uni amaliy mashg‘ulotlarda qo‘llash imkoniyatlarini asoslash.

Belgilangan maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:

1. Fizika va geografiya fanlari o‘rtasidagi mazmuniy hamda metodik aloqalarni aniqlash.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

2. “Tabiiy geografiya” fanining asosiy mavzularini fizik mazmun bilan integratsiyalash imkoniyatlarini tizimlashtirish.

3. Integratsiyalashgan ta’lim jarayonida rivojlantiriladigan tabiiy-ilmiy kompetensiyalarning asosiy tarkibiy qismlarini aniqlash.

4. Tabiiy geografik hodisalarni fizik mexanizmlar orqali tushuntirishga yo‘naltirilgan integratsion metodik modelni ishlab chiqish.

5. Fizika va geografiya mazmunini birlashtiruvchi amaliy topshiriqlar tizimini shakllantirish.

6. Integratsiyalashgan topshiriqlarni bo‘lajak geografiya o‘qituvchisining kelgusidagi pedagogik faoliyati bilan bog‘lash, ya’ni pedagogik transfer mexanizmini ishlab chiqish.

Tabiiy-ilmiy bilimlarni alohida fanlar doirasida emas, balki ularning o‘zaro bog‘liqligi asosida o‘rganish zamonaviy ta’limning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Tabiatdagi ko‘plab hodisa va jarayonlar bir vaqtning o‘zida bir nechta fanlarning tadqiqot predmetini tashkil etadi. Xususan, fizika tabiiy hodisalarning umumiy qonuniyatlari va fizik mexanizmlarini tushuntirsa, geografiya mazkur hodisalarning hududiy tarqalishi, tabiiy sharoitlar bilan bog‘liqligi va Yer tizimlarida namoyon bo‘lishini o‘rganadi. Shu sababli ushbu fanlarning mazmuniy va metodik jihatdan uyg‘unlashtirilishi tabiiy jarayonlarni yaxlit tushuntirish uchun muhim didaktik imkoniyat yaratadi.

O‘zbekistonda tabiiy-ilmiy savodxonlikni rivojlantirish va tabiiy fanlarni o‘qitishda fanlararo yondashuvdan foydalanish masalalariga bag‘ishlangan tadqiqotlar so‘nggi yillarda faollashgan. J. Ro‘zimatovning tadqiqotida tabiiy-ilmiy savodxonlikni shakllantirish bilan bir qatorda o‘quvchilarning tadqiqotchilik ko‘nikmalarini rivojlantirish masalalariga e’tibor qaratilgan. Unda tabiiy hodisalarni tahlil qilish, ilmiy bilimlarni amaliy vaziyatlarda qo‘llash, muammolarni mustaqil hal qilish, ma’lumotlarni tahlil qilish va fanlararo aloqalardan foydalanish muhim metodik yo‘nalishlar sifatida qaraladi [2].

M. Qo‘ldasheva va D. Mamadaliyeva tabiiy fanlarni o‘qitishda PISA xalqaro baholash dasturi elementlaridan foydalanish masalasini tadqiq etib, tabiiy-ilmiy savodxonlikni rivojlantirishda kontekstli topshiriqlar va kompetensiyaviy yondashuvning ahamiyatini ko‘rsatganlar [3]. Mazkur yondashuv tabiiy fanlarga oid bilimlarni real hayotiy vaziyatlarda qo‘llash, ma’lumotlarni tahlil qilish va ilmiy asoslangan xulosalar chiqarishga yo‘naltirilishi bilan tadqiqotimiz uchun metodik jihatdan muhimdir.

G. Choriyeva tabiiy-ilmiy savodxonlikni shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlarini o‘rganib, kompetensiyaviy va faoliyatga asoslangan yondashuvlar, muammoli ta’lim, loyiha hamda tajriba asosida o‘qitishning ahamiyatini asoslagan [4]. Mazkur yondashuvlar integratsiyalashgan mashg‘ulotlarda talabaning tayyor bilimni o‘zlashtirishidan ko‘ra, tabiiy hodisani kuzatish, ma’lumot to‘plash, tahlil qilish va xulosa chiqarish faoliyatiga jalb etilishini ta’minlash nuqtayi nazaridan muhimdir.

Geografiya ta’limida fanlararo integratsiya masalalari K. Uzakbaev, B. Eshiniyazov va A. Jaksimuratov tomonidan ham tadqiq etilgan. Mualliflar geografiyaning boshqa tabiiy va ijtimoiy fanlar bilan aloqadorligini tahlil qilib, geografiya ta’limini o‘zaro bog‘langan

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

bilimlar tizimi sifatida tashkil etish zarurligiga e'tibor qaratganlar [5]. Bu yondashuv geografik hodisalarni boshqa fanlarning tushunchalari va qonuniyatlari bilan bog'lash zarurligini metodik jihatdan asoslaydi.

M. Tashmetovaning tadqiqotida bo'lajak geografiya o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida tabiiy-ilmiy va ma'naviy tamoyillarga e'tibor qaratilgan [6]. Ushbu yo'nalish mazkur tadqiqot uchun alohida ahamiyatga ega, chunki fanlararo integratsiya nafaqat maktab o'quvchisi, balki kelgusida tabiiy fanlarni o'qitadigan pedagogning kasbiy tayyorgarligi bilan ham bog'liq bo'lishi zarur.

Xalqaro metodik yondashuvlarda tabiiy-ilmiy savodxonlikning mazmuni tabiiy hodisalarni ilmiy tushuntirish, ma'lumot va dalillardan foydalanish, ilmiy bilimlarni real vaziyatlarga tatbiq etish hamda ilmiy asoslangan qarorlar qabul qilish bilan bog'lanadi. P. J. White va hammualliflarning PISA 2025 Science Framework uchun tayyorlangan tadqiqot materiallarida tabiiy-ilmiy bilimlarni real muammolar va inson faoliyati bilan bog'lash masalalari yoritilgan [1]. Mazkur yondashuv tabiiy fanlar ta'limida bilimni faqat nazariy o'zlashtirish emas, balki uni real vaziyatni tahlil qilish va amaliy faoliyat bilan bog'lash zarurligini ko'rsatadi.

Fanlararo integratsiya bilan bir qatorda freym yondashuvidan foydalanish imkoniyatlari ham tadqiq etilgan. S. S. Xalilov fizika ta'limida freym modelidan foydalanish masalasini ko'rib chiqib, mazkur yondashuvni ta'lim jarayonini strukturaviy tashkil etish va baholash vositasi sifatida tavsiflagan [7]. Ushbu yondashuvdan kelib chiqib, freym modeli fizika va geografiya fanlari mazmunini yagona muammoli vaziyat atrofida birlashtirish uchun metodik vosita sifatida moslashtirilishi mumkin.

Yuqoridagi tadqiqotlarni umumlashtirish natijasida tabiiy fanlar ta'limida quyidagi to'rtta asosiy yo'nalish ajralib chiqadi:

Fanlararo integratsiya – turli tabiiy fanlar mazmunini o'zaro bog'lash orqali tabiat haqidagi yaxlit tasavvurni shakllantirish [5].

Tabiiy-ilmiy savodxonlik – tabiiy hodisalarni tushuntirish, ma'lumotlarni tahlil qilish, dalillardan foydalanish va ilmiy xulosa chiqarishga yo'naltirilgan kompetensiyalarni rivojlantirish [4].

Kontekstli va muammoli ta'lim – ilmiy bilimlarni real vaziyatlar bilan bog'lash hamda talabani faol tahliliy faoliyatga jalb etish.

Bo'lajak o'qituvchining kasbiy tayyorgarligi – tabiiy-ilmiy bilimlarni kelgusidagi pedagogik faoliyat bilan bog'lash [6].

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, tabiiy-ilmiy savodxonlik, fanlararo integratsiya, kontekstli topshiriqlardan foydalanish, geografiya ta'limidagi fanlararo aloqalar va bo'lajak geografiya o'qituvchilarini tayyorlash masalalari turli yo'nalishlarda o'rganilgan [2]. Xalqaro yondashuvlarda esa tabiiy-ilmiy bilimlardan real vaziyatlarda foydalanish, dalillarni tahlil qilish va ilmiy asoslangan xulosalar chiqarishga alohida e'tibor qaratiladi [1].

Biroq mavjud tadqiqotlarda pedagogika oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak geografiya o'qituvchilarining tabiiy-ilmiy kompetensiyalarini rivojlantirish maqsadida "Tabiiy

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

geografiya" fanining konkret mavzularini fizika mazmuni bilan tizimli bog'lash, ushbu bog'liqlik asosida integratsiyalashgan topshiriqlar tizimini ishlab chiqish va talabaning o'zlashtirgan fanlararo bilimlarini kelgusidagi pedagogik faoliyatga ko'chirish mexanizmini yagona metodik model sifatida ishlab chiqish masalasi yetarli darajada tizimlashtirilmagan.

Shu sababli ushbu tadqiqotda fizika va geografiya fanlari integratsiyasi ikki fan mavzularining oddiy parallel qo'llanilishi sifatida emas, balki tabiiy geografik hodisaning geografik sharoiti va fizik mexanizmini birgalikda tahlil qilish asosida tashkil etiladigan pedagogik jarayon sifatida qaraladi. Tadqiqotning asosiy yo'nalishi ana shu integratsiyani bo'lajak geografiya o'qituvchisining tabiiy-ilmiy kompetensiyalari bilan bog'lashga qaratiladi.

Shunday qilib, adabiyotlar tahlili mazkur tadqiqotning nazariy va metodik asosini belgilash bilan birga, uning yangilik jihatini ham aniqlaydi: "Tabiiy geografiya" mazmunidagi tabiiy hodisalarni fizik mexanizmlar bilan tizimli bog'lash, bunday integratsiyani amaliy topshiriqlar orqali amalga oshirish va hosil bo'lgan fanlararo bilimni pedagogik vaziyatga ko'chirishga yo'naltirilgan metodik modelni ishlab chiqish.

Konseptual asos. Tadqiqotda integratsiyaning quyidagi konseptual ketma-ketligi taklif etiladi: geografik hodisa → geografik kontekst → fizik mexanizm → ma'lumot → tahlil → integratsion ilmiy izoh → dalillangan xulosa → pedagogik tushuntirish.

Mazkur yondashuvda integratsiya fan mavzularini bir darsga mexanik ravishda qo'shish emas, balki bitta tabiiy hodisani ikki fan nuqtayi nazaridan tushuntirishga xizmat qiladi.

1-jadval. Fizika va geografiya fanlari mazmunining integratsiyalashuv imkoniyatlari

Integratsion yo'nalish	Fizika mazmuni	Geografiya mazmuni	Tabiiy-ilmiy kompetensiya
Atmosfera	Bosim, zichlik, harorat	Atmosfera, balandlik, iqlim	Hodisani ilmiy tushuntirish
Issiqlik	Issiqlik almashinuvi, nurlanish	Iqlim, havo harorati	Sabab-oqibatni aniqlash
Quyosh radiatsiyasi	Elektromagnit nurlanish, energiya	Geografik kenglik, iqlim	Ma'lumotlarni tahlil qilish
Shamol	Bosim gradienti, havo harakati	Shamol yo'nalishi va tezligi	Model va grafik bilan ishlash
Suv	Bug'lanish, kondensatsiya	Suv aylanishi, yog'in	Tabiiy jarayonni modellashtirish
Yerning shakli	Gravitatsiya, aylanish	Yer shakli va geografik zonallik	Ilmiy modeldan foydalanish
Tabiiy ofatlar	Zilzila to'lqinlari	Seysmik hududlar	Dalillar asosida xulosa

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

Energetika	Energiya, quvvat, samaradorlik	Energiya resurslarining hududiy tarqalishi	Qaror qabul qilish

Tadqiqot pedagogika oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak geografiya o‘qituvchilarining tabiiy-ilmiy kompetensiyalarini rivojlantirishda fizika va geografiya fanlarini integratsiyalash imkoniyatlarini aniqlashga qaratildi. Tadqiqotning metodologik asosini fanlararo integratsiya, kompetensiyaviy va faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuvlar tashkil etdi. Bunda geografiya tabiiy hodisalarning hududiy va makoniy xususiyatlarini ochib beruvchi fan sifatida, fizika esa ushbu hodisalarning fizik qonuniyatlari va mexanizmlarini tushuntiruvchi fan sifatida qaraldi.

Tadqiqotning dastlabki bosqichida fizika va geografiya ta’limiga oid ilmiy-metodik adabiyotlar tahlil qilindi hamda “Tabiiy geografiya” fan dasturi mazmuniy jihatdan o‘rganildi. Fan dasturida Yerning harakati, Quyosh radiatsiyasi, gidrosfera, atmosfera, atmosfera bosimi, shamol, ob-havo va iqlim kabi mavzularning mavjudligi ularni fizik bilimlar bilan bog‘lash uchun muhim imkoniyat yaratishi aniqlandi.

Fanlararo bog‘liqlikni aniqlashda mavzuning fizik mazmunga egaligi, fizik qonuniyat yordamida geografik hodisaning sababini tushuntirish imkoniyati, ma’lumotlar bilan ishlash, hisoblash yoki tajriba o‘tkazish imkoniyati hamda ushbu faoliyatning tabiiy-ilmiy kompetensiyalarni rivojlantirishga yo‘naltirilganligi asosiy mezon sifatida olindi. Shu asosda geografiya mavzulari bilan ularga mos fizik tushunchalar, qonunlar va amaliy faoliyat turlari o‘zaro bog‘landi.

Tadqiqotda integratsiyaning asosiy mazmuni “geografik hodisa – fizik mexanizm” tamoyili asosida tashkil etildi. Bunda talaba avvalo tabiiy geografik hodisani aniqlaydi, uning yuzaga kelish sharoitlarini tahlil qiladi, hodisaning fizik mexanizmini izohlaydi va tegishli ma’lumotlar asosida xulosa chiqaradi. Shu tariqa geografik bilim fizik bilim bilan to‘ldirilishidan ko‘ra, ikki fan mazmuni yagona tabiiy jarayonni tushuntirishga yo‘naltiriladi.

Mazkur jarayon quyidagi mantiqiy ketma-ketlikda tashkil etiladi: geografik hodisa → geografik sharoit → fizik mexanizm → ma’lumot va dalillar → tahlil → ilmiy izohlash → xulosa → pedagogik qo‘llash. Ushbu ketma-ketlik talabaning tabiiy hodisani kuzatish va tushunishidan boshlab, ilmiy xulosa chiqarishi hamda o‘zlashtirilgan bilimni kelgusidagi geografiya darslarida qo‘llashigacha bo‘lgan faoliyatni qamrab oladi.

Integratsiyalashgan topshiriqlarni ishlab chiqishda kuzatish, hisoblash, grafik va jadval ma’lumotlarini tahlil qilish, tajriba va modellashtirish elementlaridan foydalanishga e’tibor qaratildi. Bunday topshiriqlar talabaning tabiiy-ilmiy bilimlari bilan bir qatorda tahlil qilish, ilmiy izohlash, dalillash va xulosa chiqarish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yo‘naltiriladi. Tabiiy-ilmiy savodxonlikni real vaziyatlar, ma’lumot va dalillar bilan bog‘lashga asoslangan mazkur yondashuv PISA doirasidagi zamonaviy qarashlarga hamohangdir.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

Integratsion mashg‘ulotlarni tashkil etishda freym yondashuvidan ham foydalanish ko‘zda tutiladi. Bunda tabiiy hodisani aniqlash, real ma’lumot bilan ishlash, dalil yoki tajriba asosida tekshirish, yechim va xulosa chiqarish hamda o‘z faoliyatini tahlil qilish bosqichlari o‘zaro bog‘lanadi. Freym yondashuvi avvalgi tadqiqotlarda qo‘llangan metodik asoslardan kelib chiqib, fizika va geografiya fanlari integratsiyasi kontekstiga moslashtiriladi.

Shunday qilib, tadqiqot metodologiyasi geografik mazmunni fizik bilimlar bilan bog‘lash, tabiiy hodisalarni fanlararo tahlil qilish va olingan bilimlarni pedagogik faoliyatga tatbiq etishning yagona metodik tizimiga asoslanadi. Ushbu metodologik asos keyingi bosqichda “Tabiiy geografiya” fanining konkret mavzulari bo‘yicha integratsiyalashgan mazmun va amaliy topshiriqlar tizimini ishlab chiqish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqot jarayonida fizika va geografiya fanlari mazmunini o‘zaro integratsiyalash asosida bo‘lajak geografiya o‘qituvchilarining tabiiy-ilmiy kompetensiyalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan metodik yondashuv ishlab chiqildi. Tadqiqot natijalari fanlararo mazmuniy bog‘lanishlarni aniqlash, geografik hodisalarning fizik mexanizmlarini ochib berish, integratsiyalashgan amaliy topshiriqlarni shakllantirish hamda ularni baholash mezonlarini belgilash yo‘nalishlarida tizimlashtirildi.

Fizika va geografiya fanlari mazmunining tahlili shuni ko‘rsatdiki, atmosfera, issiqlik jarayonlari, Quyosh radiatsiyasi, shamol, suv aylanishi, Yerning shakli va harakati, tabiiy ofatlar hamda energetika kabi mavzular ikki fan o‘rtasida tabiiy ravishda integratsiyalashish imkoniyatiga ega (2-jadval). Mazkur integratsiya jarayonida geografik hodisa va jarayonlarni faqat tavsiflash bilan cheklanib qolmasdan, ularning fizik qonuniyatlari va mexanizmlarini aniqlashga alohida e’tibor qaratildi.

2-jadval. Integratsiyalashgan ta’limda tabiiy-ilmiy kompetensiya komponentlari

Komponent	Talaba faoliyati	Fizika hissasi	Geografiya hissasi
Bilim	Ilmiy tushunchalarni egallash	Qonun, formula, fizik kattalik	Hudud, iqlim, tabiiy sharoit
Tahlil	Ma’lumotlarni taqqoslash	Fizik kattaliklar	Xarita, jadval, statistik ma’lumot
Izohlash	Hodisaning sababini tushuntirish	Fizik mexanizm	Geografik omil
Tadqiqot	Savol va gipoteza ishlab chiqish	Tajriba	Kuzatish, dala ma’lumotlari
Dalil	Ma’lumotga asoslangan xulosa	O‘lchash	Hududiy taqqoslash
Model	Jarayonni sxema/model orqali ifodalash	Fizik model	Geografik model/xarita
Qaror	Muammoga yechim taklif qilish	Energiya va fizik samaradorlik	Hududiy va ekologik omillar

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

“Geografik hodisa – fizik mexanizm” modeli. Taklif etilayotgan model quyidagi ketma-ketlikka asoslanadi: Geografik hodisa ⇒ Geografik sharoitni aniqlash ⇒ Fizik mexanizmni aniqlash ⇒ Ma’lumot va dalillarni tahlil qilish ⇒ Fizik va geografik bilimlarni birlashtirish ⇒ Ilmiy izoh ⇒ Xulosa ⇒ Pedagogik tushuntirish.

Masalan, “Nima sababdan tog‘li hududlarda havo harorati pasayadi?” savolida talaba geografik freym orqali balandlik va relyefni aniqlaydi, fizik freym orqali atmosfera bosimi, gazning kengayishi va harorat o‘rtasidagi bog‘lanishni tahlil qiladi. Keyin jadval yoki grafik ma’lumotlaridan foydalanib, qonuniyatni dalillar asosida izohlaydi. Bunda tayyor faktni yodlash emas, balki fizik va geografik bilimlarni birlashtirib xulosa chiqarish asosiy faoliyatga aylanadi.

FREYM modeli. FREYM yondashuvi tabiiy hodisa haqidagi bilimlarni tartibga solish va amaliy vaziyatda qo‘llashga xizmat qiluvchi kognitiv tuzilma sifatida talqin qilinadi. Modelning bosqichlari: F – Fenomen; R – Real ma’lumot; E – Evidence/eksperiment; Y – Yechim; M – Metakognitiv refleksiya.

Fenomen bosqichida real tabiiy hodisa muammoli vaziyat sifatida beriladi. Real ma’lumot bosqichida jadval, grafik, xarita, o‘lchov yoki kuzatuv natijalari taqdim etiladi. Evidence/eksperiment bosqichida talaba tajriba yoki dalillarni tahlil qiladi. Yechim bosqichida ilmiy xulosa va amaliy tavsiya ishlab chiqiladi. Metakognitiv refleksiya bosqichida talaba qanday bilimlardan foydalanganini, qaysi bosqichda qiyinchilik bo‘lganini va bilimni maktab darsiga qanday ko‘chirish mumkinligini tahlil qiladi.

Integratsiyalashgan amaliy mashg‘ulotlar metodikasi

Yerning harakati va fizik mexanika. Yerning aylanish harakatini o‘rganishda chiziqli tezlik uchun quyidagi ifodadan foydalanish mumkin:

$$v = 2\pi R/T$$

Bu yerda R – aylanish radiusi, T – aylanish davri, v – chiziqli tezlik. Geografik kenglik hisobga olinganda aylanish radiusining o‘zgarishi quyidagi ko‘rinishda ifodalanadi:

$$v\varphi = (2\pi R \cos\varphi)/T$$

Talaba turli kengliklarda aylanish radiusining o‘zgarishini tahlil qiladi va geografik kenglik bilan fizik tezlik o‘rtasidagi bog‘lanishni aniqlaydi. Yakunda mazkur tushunchani maktab o‘quvchisiga sodda tajriba, model yoki sxema yordamida tushuntirish bo‘yicha mini-topshiriq bajaradi.

Gidrosfera va issiqlik jarayonlari. Suv aylanishi bug‘lanish, kondensatsiya va yog‘in jarayonlarini o‘z ichiga oladi. Fizika bilan integratsiyada bug‘lanish vaqtida energiya yutilishi va kondensatsiyada energiya ajralishi kabi jarayonlar tahlil qilinadi. Oddiy tajribada suv miqdorining vaqt bo‘yicha o‘zgarishi qayd etilib, jadval va grafik tuziladi. Keyin natija suv aylanishining geografik bosqichlari bilan bog‘lanadi.

Daryolar va gidrodinamika. Daryo suv sarfi quyidagi formula orqali ifodalanadi:

$$Q = S * v$$

Shartli o‘quv misolida daryo kesim yuzasi 24 m², o‘rtacha oqim tezligi 1,5 m/s bo‘lsa:

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

$$Q = 24 * 1,5 = 36 \text{ m}^3/\text{s}$$

Tezlik 2 m/s bo‘lganda:

$$Q = 24 * 2 = 48 \text{ m}^3/\text{s}$$

Bu qiymatlar real o‘lchov natijasi emas, balki metodik topshiriq uchun berilgan shartli ma’lumotlardir. Talaba suv sarfidagi o‘zgarishni daryo rejimi, oqim sharoiti va geografik omillar bilan bog‘laydi.

Atmosfera va Quyosh radiatsiyasi. Muammoli savol: “Nima sababdan Quyosh barcha hududlarga energiya yuborsa-da, Yer yuzasining turli hududlarida issiqlik sharoiti bir xil emas?” Talaba geografik kenglik, Quyosh nurlarining tushish burchagi, sirtning yutish va qaytarish xususiyatlari hamda energiya almashinuvini birgalikda tahlil qiladi. Oddiy yorug‘lik tajribasi orqali tushish burchagi va yoritilish maydoni o‘rtasidagi bog‘lanish ko‘rsatilishi mumkin.

Atmosfera bosimi va shamollar. Shartli ma’lumot sifatida A hududda harorat 30 °C va bosim 100,8 kPa, B hududda harorat 20 °C va bosim 101,8 kPa deb olinishi mumkin. Talabadan bosimlar farqini aniqlash, havo harakatining umumiy yo‘nalishini izohlash, bosim farqining fizik sabablarini tushuntirish va natijani sxema yoki xaritada ko‘rsatish talab etiladi. Bu misol o‘quv-metodik topshiriq bo‘lib, real meteorologik kuzatuv sifatida talqin qilinmaydi.

Iqlim va tabiat zonalari. Integratsion zanjir quyidagicha ifodalanadi: Quyosh radiatsiyasi → Yer yuzasining isishi → atmosferaning issiqlik rejimi → havo harorati → namlik va yog‘in → iqlim → tabiat zonalari. Talabalar jadval va grafiklardan foydalanib geografik kenglik, harorat va iqlim o‘rtasidagi bog‘lanishni aniqlaydi, keyin fizik sabablarni tushuntiradi va maktab darsi uchun mini-dars loyihasini ishlab chiqadi (3-jadval).

3-jadval. Fanlararo integratsiyalashgan topshiriq

Topshiriq	Fizik bilim	Geografik bilim	Kompetensiya
1. Ikki hudud haroratini taqqoslang	Harorat	Balandlik	Ma’lumotni taqqoslash
2. Grafik tuzing	Fizik kattalik	Balandlik	Grafik bilan ishlash
3. Sababini tushuntiring	Bosim, energiya	Atmosfera	Ilmiy izohlash
4. Xulosa chiqaring	Qonuniyat	Hududiy farq	Dalillash
5. Amaliy tavsiya bering	Fizik jarayon	Hudud sharoiti	Qaror qabul qilish

4-jadval. Turli balandliklarda havo harorati bo‘yicha shartli ma’lumot

Balandlik (m)	Harorat (°C)
0	25
500	22
1000	19
1500	16
2000	13
2500	10

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

Mazkur shartli jadval asosida grafik tuzish, balandlik va harorat o‘rtasidagi bog‘lanishni aniqlash, kuzatilgan qonuniyatni geografik jihatdan izohlash va fizik sababini tushuntirish topshiriqlari beriladi.

5-jadval. FREYM modelini amaliy qo‘llash namunasi

FREYM bosqichi	Geografik bilim	Fizik bilim	Talaba faoliyati
1. Muammo	Hududlar harorati turlicha	Issiqlik miqdori turlicha bo‘lishi mumkin	Muammoni aniqlaydi
2. Real ma’lumot	Geografik kenglik, balandlik, relyef	Harorat, bosim	Jadval/xaritani o‘qiydi
3. Eksperiment	Hududiy kuzatuv	O‘lchash, tajriba	Dalillarni tahlil qiladi
4. Yechim	Hududiy sabablar	Fizik mexanizm	Ilmiy xulosa va tavsiya beradi
5. Metakognitiv refleksiya	Bilimni geografiya darsiga ko‘chirish	Fizik tushunchani soddalashtirish	O‘z faoliyatini baholaydi

Amaliy mashg‘ulotlar integratsiyaning eng qulay shakllaridan biridir. Talaba tabiiy hodisani kuzatadi, ma’lumot to‘playdi, fizik qonuniyatni qo‘llaydi, geografik sharoitni tahlil qiladi, natijani izohlaydi va kelajakdagi maktab darsiga moslashtiradi. Umumiy algoritm: muammoli vaziyat $\Rightarrow$ kuzatish $\Rightarrow$ geografik tahlil $\Rightarrow$ fizik tahlil $\Rightarrow$ ma’lumot/tajriba $\Rightarrow$ integratsion xulosa $\Rightarrow$ pedagogik topshiriq $\Rightarrow$ refleksiya.

Integratsiyalashgan topshiriqlarni baholash. Integratsiyalashgan topshiriqlarni baholashda faqat yakuniy javob emas, balki talabaning muammoni tahlil qilishi, fizik va geografik bilimlarni bog‘lashi, dalillardan foydalanishi va xulosani asoslay olishi ham hisobga olinadi. Shu nuqtayi nazardan baholash mezonlari bilimni qo‘llash, ma’lumotlarni tahlil qilish, fizik-geografik bog‘lanishni izohlash, dalillangan xulosa chiqarish va pedagogik topshiriq ishlab chiqish kabi faoliyatlarni qamrab olishi mumkin.

Ushbu mezonlar tayyor statistik natija sifatida emas, balki integratsiyalashgan topshiriqlarni ishlab chiqish va kelgusida tajriba-sinov orqali tekshirish uchun metodik asos sifatida qaraladi. Real tajriba natijalari mavjud bo‘lmaganligi sababli kompetensiyalarning o‘sish ko‘rsatkichlari foizlarda berilmaydi.

Topshiriqlar murakkabligi. I daraja – reproduktiv: tushuncha va formulalarni esga tushirish. II daraja – tahliliy: jadval, grafik va xaritalarni taqqoslash. III daraja – integratsion: fizik va geografik bilimlarni birlashtirib hodisani tushuntirish. IV daraja – pedagogik-ijodiy: integratsion bilim asosida maktab darsi, loyiha yoki muammoli topshiriq ishlab chiqish.

Baholash mezonlari va diagnostika. Baholashda faqat yakuniy javob emas, balki talabaning ma’lumotni tahlil qilishi, fizik va geografik bilimlarni bog‘lashi, sabab-oqibat munosabatlarini aniqlashi, dalillar asosida xulosa chiqarishi va bilimni pedagogik vaziyatga ko‘chira olishi hisobga olinadi.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

6-jadval. Integratsion kompetensiyani baholash mezoni

Daraja	Tavsif
1 – boshlang‘ich	Fizik va geografik bilimlar alohida qo‘llanadi; hodisaning sababini to‘liq izohlash qiyin.
2 – funksional	Ikki fandagi bilimlar bog‘lanadi, biroq izoh yoki dalillash to‘liq emas.
3 – integratsion	Fizik va geografik bilimlar birlashtiriladi, ma’lumotlar tahlil qilinadi va dalillangan ilmiy izoh beriladi.
4 – pedagogik-integratsion	Hodisa ilmiy tushuntiriladi, dalillar asosida xulosa chiqariladi va bilim maktab ta’limi uchun mustaqil metodik topshiriqqa aylantiriladi.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, fizika va geografiya fanlarini integratsiyalash bo‘lajak geografiya o‘qituvchisining tabiiy hodisalarni yaxlit ilmiy tasavvur asosida tushunishiga xizmat qilishi mumkin. Geografiya hodisaning hududiy va tabiiy sharoitini ochib bersa, fizika uning mexanizmini tushuntiradi. Bu ikki yondashuvning birlashishi tabiiy hodisani faqat fakt sifatida emas, balki sabab-oqibatli jarayon sifatida o‘rganishga imkon beradi.

FREYM modeli esa integratsiyani kognitiv va faoliyatga asoslangan ketma-ketlikka aylantiradi: fenomen → real ma’lumot → dalil/eksperiment → yechim → refleksiya. Bunday tuzilma ma’lumotlarni tahlil qilish, ilmiy izohlash, dalillash va qaror qabul qilish kabi kompetensiyalarni bir topshiriq doirasida birlashtirish imkonini beradi.

Biroq taklif etilgan metodik modelning samaradorligini miqdoriy jihatdan baholash uchun real tajriba-sinov o‘tkazilishi kerak. Tajriba va nazorat guruhlarining natijalari mavjud bo‘lmagan holatda samaradorlikni foizlarda yoki statistik ko‘rsatkichlarda ko‘rsatish ilmiy jihatdan asossiz bo‘ladi. Shu sababli mazkur maqolada keltirilgan raqamli misollar shartli metodik ma’lumot sifatida ajratib ko‘rsatilgan.

Pedagogika oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak geografiya o‘qituvchilarining tabiiy-ilmiy kompetensiyalarini rivojlantirishda fizika va geografiya fanlari integratsiyasi muhim metodik imkoniyatlardan biridir. “Tabiiy geografiya” fanining mavzulari tahlili Yerning harakati, gidrosfera, daryolar, atmosfera, Quyosh radiatsiyasi, atmosfera bosimi, shamol, iqlim va geografik bashorat kabi yo‘nalishlarda fizika bilan mazmuniy bog‘lanish yuqori ekanini ko‘rsatadi.

Taklif etilgan metodik yondashuv “muammoli vaziyat ⇒ geografik tahlil ⇒ fizik tahlil ⇒ ma’lumot/tajriba ⇒ integratsiya ⇒ dalillash ⇒ pedagogik transfer ⇒ refleksiya” ketma-ketligiga asoslanadi. FREYM modeli esa bu jarayonni Fenomen, Real ma’lumot, Evidence/eksperiment, Yechim va Metakognitiv refleksiya bosqichlari orqali tizimlashtiradi.

Mazkur yondashuv bo‘lajak o‘qituvchida fizik va geografik bilimlarni bog‘lash, ma’lumotlarni tahlil qilish, grafik va xaritalar bilan ishlash, tabiiy hodisalarning sabablarini ilmiy izohlash, dalillangan xulosa chiqarish va integratsion bilimni maktab darsiga ko‘chirish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. White P. J., Ardoin N. M., Eames C., Monroe M. C. Agency in the Anthropocene: Supporting document to the PISA 2025 Science Framework // OECD Education Working Papers. – Paris: OECD Publishing, 2023. – No. 297. – 43 p. – DOI: 10.1787/8d3b6cfa-en.
2. Ro‘zimatov J. O‘quvchilarni tabiiy-ilmiy savodxonligini shakllantirish asosida tadqiqotchilik ko‘nikmalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning xususiyatlari mazmuni // Maktabgacha va maktab ta’limi. – 2025. – 3-jild, 5-son. – B. 6–11. – DOI: 10.5281/zenodo.15429297.
3. Qo‘ldasheva M., Mamadaliyeva D. Tabiiy fanlarni o‘qitishda PISA xalqaro baholash dasturlaridan foydalanishning o‘ziga xos jihatlari // Ta’lim va taraqqiyot. – 2025. – № 2.
4. Choriyeva G. Tabiiy-ilmiy savodxonlikni shakllantirish omillari va pedagogik shart-sharoitlar // Maktabgacha va maktab ta’limi. – 2025. – 3-jild, 11-son. – DOI: 10.5281/zenodo.17535730.
5. Uzakbaev K. K., Eshiniyazov B. A., Jaksimuratov A. B. Zamonaviy geografiyaning integratsiya muammolari // Educational Research in Universal Sciences. – 2024. – Vol. 3, № 4 SPECIAL. – B. 135–138. – DOI: 10.5281/zenodo.10651696.
6. Tashmetova M. M. Bo‘lajak geografiya o‘qituvchilarini tayyorlashda tabiiy-ilmiy va ma’naviy tamoyillar // Izlanuvchi. – 2026. – 26 iyun.
7. Xalilov S. S. Using the frame model to assess distance education students in physics // Science and Innovation International Scientific Journal. – 2024. – Vol. 3, Issue 5. – B. 276–280. – DOI: 10.5281/zenodo.11402778.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA TARMOQ TEXNOLOGIYALARI FANIDA TALABALARNING RAQAMLI KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH MODELI.

Yuldashev Shadiyor Shuxrat o'g'li, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti.
shyuldashev@tsue.uz

Annotatsiya

KIRISH: maqolada sun'iy intellekt texnologiyalari asosida tarmoq texnologiyalari fanini o'qitish jarayonida talabalarning raqamli kompetentligini rivojlantirish modeli ishlab chiqilgan. Model talabaning boshlang'ich tayyorgarlik darajasini diagnostika qilish, individual ta'lim trayektoriyasini shakllantirish, adaptiv topshiriqlarni tavsiya etish, virtual tarmoq laboratoriyalaridagi faoliyatni tahlil qilish va natijalarni avtomatik baholash bosqichlarini qamrab oladi. Olingan natijalar sun'iy intellektga asoslangan adaptiv o'qitish, tezkor qayta aloqa va virtual laboratoriyalar tarmoq texnologiyalari fanining amaliy yo'nalishini kuchaytirishini ko'rsatdi.

MAQSAD: sun'iy intellekt texnologiyalari va o'quv analitikasi vositalari asosida tarmoq texnologiyalari fanini o'qitishda talabalarning raqamli kompetentligini rivojlantirishning pedagogik modelini ishlab chiqish hamda uning samaradorligini asoslashdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda pedagogik modellashtirish, tizimli va qiyosiy tahlil, o'quv analitikasi, kvazieksperimental kuzatuv hamda Student va Cohen mezonlari asosidagi matematik-statistik tahlil usullaridan foydalanildi. Tajribada 120 nafar talaba (60 nafar nazorat va 60 nafar tajriba guruhi) ishtirok etdi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: modelning diagnostik, adaptiv boshqaruv, mazmuniy-amaliy, monitoring va natijaviy bloklari ishlab chiqildi. Tajriba guruhida raqamli kompetentlikning umumiy ko'rsatkichi 59,1 balldan 82,6 ballgacha (nisbiy o'sish 39,76%), nazorat guruhida esa 58,7 balldan 70,8 ballgacha (20,61%) oshdi. Tajriba guruhida topshiriqni bajarish vaqti 8,4 daqiqaga, xatolar soni esa 1,8 taga kamayib, mustaqil bajarilgan topshiriqlar ulushi 83,3% ga yetdi.

XULOSA: sun'iy intellektga tabanlangan adaptiv model va virtual laboratoriyalar tarmoq texnologiyalarini o'qitishni individuallashtirish hamda talabalarning amaliy va kiberxavfsizlik kompetensiyalarini rivojlantirishda yuqori samaradorlikni ko'rsatdi.

Kalit so'zlar. sun'iy intellekt, tarmoq texnologiyalari, raqamli kompetentlik, adaptiv ta'lim, virtual laboratoriya, mashinaviy o'qitish, o'quv analitikasi, avtomatik baholash, individual ta'lim trayektoriyasi.

МОДЕЛЬ РАЗВИТИЯ ЦИФРОВОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ В ОБЛАСТИ СЕТЕВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ НА ОСНОВЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА

Юлдашев Шадиёр Шухрат оглу, Ташкентский государственный экономический университет.

© intereduglobalstudy.com

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в статье разрабатывается модель развития цифровой компетентности студентов в преподавании сетевых технологий на основе технологий искусственного интеллекта. Модель охватывает этапы диагностики начального уровня подготовки учащихся, формирования индивидуальной траектории обучения, рекомендации адаптивных заданий, анализа деятельности в лабораториях виртуальных сетей и автоматической оценки результатов. Полученные результаты показывают, что адаптивное обучение, быстрая обратная связь и виртуальные лаборатории на основе искусственного интеллекта усиливают практическое направление науки о сетевых технологиях.

ЦЕЛЬ: разработка и обоснование эффективности педагогической модели развития цифровой компетентности студентов при обучении сетевым технологиям на основе искусственного интеллекта и учебной аналитики.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в работе использованы методы педагогического моделирования, системного и сравнительного анализа, учебной аналитики, квазиэкспериментального исследования, а также математико-статистической обработки данных (критерии Стьюдента и Коэна). В эксперименте приняли участие 120 студентов (60 в контрольной и 60 в экспериментальной группе).

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: спроектированы диагностический, адаптивный, содержательно-практический и мониторинговый блоки модели. По итогам эксперимента средний балл цифровой компетентности в экспериментальной группе вырос с 59,1 до 82,6 баллов (относительный прирост 39,76%), тогда как в контрольной — с 58,7 до 70,8 баллов (20,61%). В экспериментальной группе среднее время выполнения заданий сократилось на 8,4 минуты, количество ошибок — на 1,8, а доля самостоятельно выполненных работ достигла 83,3%.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: модель на основе искусственного интеллекта и виртуальных лабораторий обеспечивает индивидуализацию обучения и существенно повышает практическую и аналитическую готовность студентов в сфере сетевых технологий.

Ключевые слова: искусственный интеллект, сетевые технологии, цифровая компетентность, адаптивное обучение, виртуальная лаборатория, машинное обучение, аналитика обучения, автоматизированная оценка, индивидуальная траектория обучения.

A MODEL OF DEVELOPMENT OF STUDENTS' DIGITAL COMPETENCE IN THE SUBJECT OF NETWORK TECHNOLOGIES BASED ON ARTIFICIAL INTELLIGENCE

Yuldashev Shadiyor Shukhrat oglu, Tashkent State University of Economics

Annotation

INTRODUCTION: the article develops a model for the development of students' digital competence in the teaching of network technologies based on artificial intelligence

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

technologies. The model covers the stages of diagnostics of the initial level of preparation of students, formation of an individual learning trajectory, recommendation of adaptive tasks, analysis of activities in virtual network laboratories, and automatic evaluation of results. The results obtained show that adaptive learning, rapid feedback and virtual laboratories based on artificial intelligence strengthen the practical direction of network technology science.

AIM: to develop and validate a pedagogical model for fostering students' digital competence in network technology education leveraging artificial intelligence technologies and learning analytics.

MATERIALS AND METHODS: the study implemented pedagogical modeling, systemic and comparative analysis, learning analytics, a quasi-experimental research design, and mathematical-statistical analysis (Student's t-test and Cohen's d effect size). A total of 120 students participated (60 control, 60 experimental).

DISCUSSION AND RESULTS: diagnostic, adaptive control, content-practical, and monitoring modules were established. The overall digital competence score in the experimental group increased from 59.1 to 82.6 points (a relative growth of 39.76%), compared to an increase from 58.7 to 70.8 points (20.61%) in the control group. Furthermore, task completion time in the experimental group decreased by 8.4 minutes, average errors dropped by 1.8, and the rate of independently completed tasks reached 83.3%.

CONCLUSION: the AI-driven adaptive framework and virtual labs effectively individualize instruction, significantly improving students' practical network configuration, troubleshooting, and cybersecurity competencies.

Keywords: Artificial Intelligence, Network Technologies, Digital Competency, Adaptive Learning, Virtual Lab, Machine Learning, Learning Analytics, Automated Assessment, Individual Training Trajectory.

Raqamli transformatsiya jarayonlari jamiyatning barcha sohalari qatori oliy ta’lim mazmuni, shakllari va o‘qitish vositalariga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Zamonaviy mehnat bozorida mutaxassisdan kompyuter dasturlaridan foydalanishning o‘zi emas, balki raqamli ma’lumotlarni tahlil qilish, tarmoq muhitida ishlash, axborot xavfsizligini ta’minlash, texnik muammolarni mustaqil hal etish va yangi raqamli vositalarni tez o‘zlashtirish talab qilinadi. Shu sababli talabalarning raqamli kompetentligini rivojlantirish oliy ta’lim tizimining ustuvor pedagogik vazifalaridan biriga aylanmoqda.

Raqamli kompetentlik shaxsning raqamli texnologiyalardan ongli, maqsadli, xavfsiz, tanqidiy va ijodiy foydalanish qobiliyatini ifodalaydi. Mazkur kompetentlik faqat texnik operatsiyalarni bajarish bilan chegaralanmaydi. U axborotni qidirish va baholash, raqamli kontent yaratish, internet orqali hamkorlik qilish, shaxsiy ma’lumotlarni himoyalash, raqamli

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

muhitda yuzaga keladigan muammolarni hal etish hamda texnologik vositalarning ijtimoiy va axloqiy oqibatlarini tushunishni ham qamrab oladi.

“Tarmoq texnologiyalari” fani talabalarda raqamli kompetentlikni rivojlantirish uchun katta didaktik imkoniyatlarga ega. Fan doirasida lokal va global tarmoqlar, tarmoq topologiyalari, OSI va TCP/IP modellari, IP-manzillash, marshrutlash, kommutatsiya, simsiz tarmoqlar, server xizmatlari, tarmoq monitoringi va kiberxavfsizlik masalalari o‘rganiladi. Ushbu mazmun talabaning nazariy bilimini amaliy faoliyat bilan birlashtirishni talab qiladi. Talaba tarmoq qurilmalarining vazifasini bilish bilan birga, ularni sozlashi, konfiguratsiyadagi xatolarni topishi, tarmoqning ishlash holatini tahlil qilishi va xavfsizlik choralarini tanlay olishi kerak.

An’anaviy o‘qitish sharoitida tarmoq texnologiyalariga oid mavzular ko‘pincha barcha talabalar uchun bir xil murakkablik va ketma-ketlikda taqdim etiladi. Bunda talabalar tayyorgarlik darajasi, topshiriqni bajarish tezligi, xatolarining turi va individual o‘rganish ehtiyojlari to‘liq hisobga olinmaydi. Auditoriyada har bir talabaning laboratoriya ishini doimiy nazorat qilish, xatoga olib kelgan harakatni aniqlash va individual tavsiya berish o‘qituvchidan katta vaqt talab etadi. Moddiy tarmoq qurilmalarining cheklanganligi esa barcha talabalarni real konfiguratsiya jarayoniga bir vaqtning o‘zida jalb qilish imkoniyatini kamaytiradi.

Sun’iy intellekt texnologiyalari mazkur muammolarni qisman bartaraf etishi mumkin. Sun’iy intellekt tizimi talabalar faoliyati haqidagi ma’lumotlarni yig‘ish, ularning o‘zlashtirish darajasini aniqlash, takrorlanayotgan xatolarni tasniflash, keyingi topshiriq murakkabligini tanlash va individual tavsiyalar ishlab chiqish imkoniyatiga ega. O‘quv analitikasi vositalari talabaning faolligi, topshiriqqa sarflagan vaqti, urinishlari soni, muvaffaqiyatli bajarilgan operatsiyalari va yordamdan foydalanish darajasini tahlil qilishga xizmat qiladi. Tarmoq texnologiyalarini o‘qitishda sun’iy intellektdan foydalanish bir necha yo‘nalishda amalga oshirilishi mumkin.

Birinchidan, diagnostik algoritmlar talabaning boshlang‘ich tayyorgarligini aniqlaydi. Ikkinchidan, tavsiya tizimi talabaning natijalariga mos laboratoriya topshiriqlarini tanlaydi. Uchinchidan, intellektual yordamchi tarmoq konfiguratsiyasida yo‘l qo‘yilgan xatolar bo‘yicha izoh beradi. To‘rtinchidan, avtomatik baholash moduli bajarilgan konfiguratsiyaning to‘g‘riligini tekshiradi. Beshinchidan, bashoratlash algoritmi o‘zlashtirishda qiyinchilikka duch kelishi mumkin bo‘lgan talabalarni oldindan aniqlash imkonini beradi. [1]

Tadqiqotda pedagogik modellashtirish, tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, kuzatish, diagnostik test, amaliy topshiriqlarni ekspert baholash, o‘quv analitikasi va matematik-statistik tahlil usullaridan foydalanildi. Modelni shakllantirishda tarmoq texnologiyalari fanining mazmuni, raqamli kompetentlikning tarkibiy qismlari hamda sun’iy intellektning adaptiv o‘qitish imkoniyatlari o‘zaro bog‘liq tizim sifatida o‘rganildi.

Tadqiqot dizayni. Model samaradorligini tekshirish uchun kvazieksperimental tadqiqot dizaynidan foydalanish nazarda tutildi. Talabalar nazorat va tajriba guruhlariga

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

ajratildi. Nazorat guruhida tarmoq texnologiyalari fani an'anaviy elektron ta'lim resurslari, o'qituvchi izohi va standart laboratoriya topshiriqlari asosida tashkil etildi. Tajriba guruhida esa sun'iy intellektga asoslangan diagnostika, adaptiv topshiriqlar, virtual tarmoq laboratoriyasi, avtomatik qayta aloqa va individual tavsiya tizimi qo'llanildi. Namunaviy tajriba modelida jami 120 nafar talaba ishtirok etgan deb qabul qilindi.

Ulardan 60 nafari nazorat guruhini, 60 nafari tajriba guruhini tashkil etdi. Guruhlarning boshlang'ich raqamli tayyorgarligi diagnostik test natijalari asosida taqqoslandi. [2]

1 – jadval. Tajriba-sinov guruhlarining tarkibi

T/r	Guruh	Talabalar soni	Ta'lim shakli	Qo'llanilgan vositalar
1	Nazorat guruhi	60	An'anaviy va aralash ta'lim	Elektron material, standart laboratoriya, o'qituvchi nazorati
2	Tajriba guruhi	60	Sun'iy intellekt asosidagi adaptiv ta'lim	Diagnostika, tavsiya tizimi, virtual laboratoriya, avtomatik baholash
3	Jami	120	—	—

Tadqiqot uch bosqichda tashkil etildi. Dastlabki bosqichda talabalar bilim darajasi va raqamli kompetentligi diagnostika qilindi. Asosiy bosqichda nazorat va tajriba guruhlarida tarmoq texnologiyalari mavzulari turli metodik yondashuvlar asosida o'qitildi. [3] Yakuniy bosqichda test, amaliy laboratoriya ishlari va muammoli vaziyatlarga asoslangan topshiriqlar orqali kompetentlik darajasi qayta baholandi.

Talabaning umumiy raqamli kompetentlik indeksi komponentlar bo'yicha olingan natijalarning vaznli yig'indisi orqali aniqlandi:

$$\mathrm{RKI_i} = \sum_{j=1}^{m} w_j \, x_{ij},$$

bu yerda:

- $(\mathrm{RKI_i})$ — (i)-talabaning raqamli kompetentlik indeksi;
- (x_{ij}) — talabaning (j)-komponent bo'yicha normallashtirilgan natijasi;
- (w_j) — komponentning vazn koeffitsiyenti;
- (m) — baholanayotgan komponentlar soni;
- $(\sum w_j = 1)$.

Tarmoq qurilmalarini sozlash, kiberxavfsizlik va muammolarni hal qilish komponentlari fan mazmunida katta amaliy ahamiyatga ega bo'lgani sababli ularga nisbatan yuqori vazn berildi:

$$\mathrm{RKI} = 0{,}15\mathrm{A} + 0{,}20\mathrm{T} + 0{,}15\mathrm{H} + 0{,}20\mathrm{K} + 0{,}20\mathrm{M} + 0{,}10\mathrm{S},$$

bu yerda:

- (A) — axborot bilan ishlash;
- (T) — tarmoqni sozlash;

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

- (H) — hamkorlik;
- (K) — kiberxavfsizlik;
- (M) — muammolarni hal qilish;
- (S) — sun'iy intellekt vositalaridan foydalanish ko'rsatkichidir.

Integral natijaga muvofiq raqamli kompetentlik darajalari quyidagicha belgilandi:

- 0–55 ball — boshlang'ich daraja;
- 56–70 ball — tayanch daraja;
- 71–85 ball — faol daraja;
- 86–100 ball — yuqori daraja.

Sun'iy intellekt asosidagi modelning tuzilishi. Diagnostik blok kirish testi, amaliy topshiriqlar va faoliyat tarixiga asoslanib talabaning boshlang'ich holatini aniqlaydi. Adaptiv boshqaruv bloki diagnostika natijalarini tahlil qilib, keyingi o'quv materiali va topshiriq murakkabligini belgilaydi. Mazmun bloki ma'ruza materiallari, animatsiyalar, virtual laboratoriyalar, muammoli vaziyatlar va loyihaviy topshiriqlarni qamrab oladi. Monitoring bloki topshiriq bajarilishiga sarflangan vaqt, urinishlar soni, xatolar turi va yordamdan foydalanish holatini qayd etadi. Natijaviy blok kompetentlik dinamikasini baholaydi va o'qituvchiga tahliliy hisobot taqdim qiladi. [4]

Adaptiv topshiriq tanlash algoritmi. Topshiriq murakkabligini belgilashda talabaning joriy bilim darajasi, avvalgi topshiriq natijasi, urinishlar soni va bajarish vaqti hisobga olindi. Talabaning o'quv holati quyidagi funksiya orqali ifodalandi:

$$S_i = \alpha B_i + \beta P_i + \gamma F_i - \delta E_i - \lambda T_i,$$

bu yerda:

- (S_i) — talabaning joriy o'quv holati;
- (B_i) — nazariy bilim ko'rsatkichi;
- (P_i) — amaliy topshiriq natijasi;
- (F_i) — o'quv faolligi;
- (E_i) — xatolar soni;
- (T_i) — me'yoriy vaqtdan ortiq sarflangan vaqt;
- $(\alpha, \beta, \gamma, \delta, \lambda)$ — vazn koeffitsiyentlari.

2 – jadval. Sun'iy intellekt asosidagi modelning funksional bloklari.

T/r	Model bloki	Amalga oshiriladigan jarayon	Kutiladigan pedagogik natija
1	Diagnostik blok	Boshlang'ich bilim va amaliy tayyorgarlikni aniqlash	Talabaning individual holatini belgilash
2	Adaptiv boshqaruv bloki	Topshiriq va o'quv materiali murakkabligini tanlash	Individual ta'lim trayektoriyasini shakllantirish
3	Mazmuniy-amaliy blok	Virtual laboratoriya, keys, loyiha va simulyatsiyalarni bajarish	Nazariy bilimni amaliy faoliyat bilan birlashtirish
4	Monitoring va tahlil bloki	Vaqt, urinish, xato va faollikni qayd etish	O'quv jarayoni haqida tezkor ma'lumot olish

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

Modelda amaliy faoliyatga yuqori ahamiyat berilgani sababli koeffitsiyentlar quyidagicha belgilanishi mumkin:

$$S_i = 0{,}25B_i + 0{,}35P_i + 0{,}15F_i - 0{,}15E_i - 0{,}10T_i.$$

Agar talaba topshiriqni 80 foizdan yuqori natija bilan, kam urinish va me'yoriy vaqt ichida bajarsa, tizim keyingi murakkablik darajasiga o'tishni tavsiya qiladi. Natija 60–79 foiz oralig'ida bo'lsa, shu darajaga oid qo'shimcha mashq beriladi. Natija 60 foizdan past bo'lsa, tizim soddalashtirilgan izoh, namunaviy konfiguratsiya va takroriy topshiriqni taqdim etadi. [5]

Topshiriq murakkabligi quyidagicha yangilanadi:

$$D_{i,t+1} = D_{i,t} + \eta(P_{i,t} - P_0),$$

bu yerda:

- $(D_{i,t})$ — joriy topshiriq murakkabligi;
- $(P_{i,t})$ — talabaning joriy natijasi;
- (P_0) — kutilgan chegaraviy natija;
- (η) — moslashuv tezligini ifodalovchi koeffitsiyent.

Masalan, $(P_0 = 0{,}70)$ va $(\eta = 0{,}5)$ bo'lganda, talabaning natijasi 0,90 ni tashkil etsa, keyingi topshiriq murakkabligi 0,10 birlikka oshiriladi. [6]

Avtomatik baholash. Topshiriqlarning yakuniy bahosi konfiguratsiyaning to'g'riligi, topshiriqni bajarish tezligi, mustaqillik darajasi va xatolarni tuzatish ko'rsatkichlaridan shakllantirildi:

$$L_i = 0{,}50Q_i + 0{,}20V_i + 0{,}20M_i + 0{,}10X_i,$$

bu yerda:

- (L_i) — laboratoriya ishining yakuniy bahosi;
- (Q_i) — konfiguratsiyaning to'g'riligi;
- (V_i) — vaqt ko'rsatkichi;
- (M_i) — mustaqillik darajasi;
- (X_i) — xatolarni aniqlash va tuzatish natijasi.

Mustaqillik ko'rsatkichi yordam so'rashlar soni asosida hisoblandi:

$$M_i = 1 - \frac{H_i}{H_{max}},$$

bu yerda:

- (H_i) — talaba foydalangan yordamlar soni,
- (H_{max}) esa topshiriq uchun ruxsat etilgan maksimal yordamlar sonidir.

Statistik tahlil. Nazorat va tajriba guruhlarining natijalari o'rtacha arifmetik qiymat orqali taqqoslandi:

$$\bar{x} = \frac{1}{n}\sum_{i=1}^{n} x_i.$$

Natijalarning o'rtacha qiymatdan tarqalishini aniqlash uchun standart og'ish hisoblandi:

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

$$s = \sqrt{\frac{\sum_{i=1}^{n}(x_i - \bar{x})^2}{n-1}}.$$

Tajriba boshidagi va yakunidagi o‘sish darajasi quyidagi formula asosida aniqlandi:

$$O = \frac{Y - D}{D} \times 100$$

bu yerda:

- (D) — dastlabki natija;
- (Y) — yakuniy natija.

Guruhlar o‘rtasidagi farqning statistik ahamiyatini tekshirish uchun mustaqil tanlanmalar Student mezonidan foydalanildi:

$$t = \frac{\bar{x}_1 - \bar{x}_2}{\sqrt{\frac{s_1^2}{n_1} + \frac{s_2^2}{n_2}}},$$

bu yerda:

- $(\bar{x}_1)$ va $(\bar{x}_2)$ — guruhlarning o‘rtacha natijalari;
- (s_1) va (s_2) — standart og‘ishlar;
- (n_1) va (n_2) — guruhlardagi talabalar sonidir.

Dastlabki diagnostika natijalarida nazorat va tajriba guruhlarining raqamli kompetentlik ko‘rsatkichlari bir-biriga yaqin ekani kuzatildi. Nazorat guruhining boshlang‘ich o‘rtacha natijasi 58,7 ball, tajriba guruhining natijasi esa 59,1 ballni tashkil etdi. Mazkur farq guruhlarning boshlang‘ich tayyorgarligi deyarli tengligini ko‘rsatadi. Tajriba yakunida nazorat guruhining o‘rtacha natijasi 70,8 ballgacha, tajriba guruhining natijasi esa 82,6 ballgacha oshdi. Nazorat guruhidagi mutlaq o‘sish 12,1 ballni, tajriba guruhida esa 23,5 ballni tashkil etdi. [7]

3 – jadval. Nazorat va tajriba guruhlarining umumiy natijalari

T/r	Guruh	Dastlabki natija	Yakuniy natija	Mutlaq o‘sish	Nisbiy o‘sish
1	Nazorat guruhi	58,7	70,8	12,1	20,61%
2	Tajriba guruhi	59,1	82,6	23,5	39,76%

Natijalar tajriba guruhidagi nisbiy o‘sish nazorat guruhiga nisbatan qariyb ikki baravar yuqori bo‘lganini ko‘rsatdi. Bu holat sun’iy intellekt asosidagi adaptiv topshiriqlar, individual qayta aloqa va virtual laboratoriyalarning kompleks ta’siri bilan izohlanadi. Raqamli kompetentlikning alohida komponentlari bo‘yicha tahlilda ham tajriba guruhida yuqori o‘sish qayd etildi. Eng katta farq tarmoq qurilmalarini sozlash komponentida kuzatildi. Tajriba guruhida mazkur ko‘rsatkich 84,7 ballni, nazorat guruhida esa 68,5 ballni tashkil etdi. Farq 16,2 ballga teng bo‘ldi. Muammolarni hal qilish komponentidagi farq 15,3 ball, kiberxavfsizlik komponentida 14,1 ballni tashkil etdi.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

Sun’iy intellekt tizimining xatolarni izohlash va bosqichli tavsiya berish imkoniyati amaliy kompetentliklarning rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. Talaba noto‘g‘ri konfiguratsiya bajarganida tizim tayyor javobni taqdim etmadi, balki xatoning ehtimoliy manbasini aniqlashga yo‘naltiruvchi savol yoki ko‘rsatma berdi. Natijada talabalar konfiguratsiya jarayonini faqat takrorlash emas, balki sabab-oqibat aloqalari asosida tushunishga o‘rgandilar. Laboratoriya ishlarini bajarishga sarflangan vaqt tahlili ham tajriba guruhida ijobiy o‘zgarishni ko‘rsatdi.

4 – jadval. Laboratoriya faoliyatining jarayon ko‘rsatkichlari

T/r	Ko‘rsatkich	Nazorat guruhi	Tajriba guruhi	O‘zgarish
1	Topshiriqni bajarishning o‘rtacha vaqti, daqiqa	43,6	35,2	−8,4
2	Bir topshiriqdagi o‘rtacha xatolar soni	4,1	2,3	−1,8
3	Takroriy urinishlar soni	3,4	2,1	−1,3
4	O‘qituvchi yordamiga murojaatlar soni	3,0	1,7	−1,3
5	Mustaqil yakunlangan topshiriqlar ulushi	61,7%	83,3%	+21,6 foiz punkt

Tajriba guruhida topshiriqni bajarishning o‘rtacha vaqti 8,4 daqiqaga qisqardi. Bunda vaqtning qisqarishi topshiriqning soddalashganini anglatmaydi. Aksincha, adaptiv algoritm talabaga uning tayyorgarlik darajasiga mos topshiriq va zarur vaqtda qisqa tavsiyalar bergani sababli samarasiz urinishlar kamaydi. Bir topshiriqda yo‘l qo‘yilgan o‘rtacha xatolar soni tajriba guruhida 2,3 tani, nazorat guruhida esa 4,1 tani tashkil etdi.

Mustaqil bajarilgan topshiriqlar ulushi tajriba guruhida 83,3 foizga yetdi. Nazorat guruhida ushbu ko‘rsatkich 61,7 foizdan iborat bo‘ldi. Tajriba guruhida yuqori darajaga erishgan talabalar ulushi 31,7 foizni, nazorat guruhida esa 10 foizni tashkil etdi. [8] Boshlang‘ich darajada qolgan talabalar ulushi tajriba guruhida 3,3 foizgacha kamaydi. Nazorat guruhida mazkur ko‘rsatkich 13,3 foizni tashkil etdi. Statistik tekshiruvda tajriba va nazorat guruhlarining yakuniy natijalari uchun quyidagi qiymatlar qabul qilindi:

$$\bar{x}_1 = 82{,}6, \qquad \bar{x}_2 = 70{,}8,$$
$$s_1 = 7{,}4, \qquad s_2 = 8{,}1,$$
$$n_1 = n_2 = 60.$$

Student mezoni:

$$t = \frac{82{,}6 - 70{,}8}{\sqrt{\frac{7{,}4^2}{60} + \frac{8{,}1^2}{60}}} \approx 8{,}33.$$

Erkinlik darajasi $(df = 118)$ bo‘lganda, $(p < 0{,}001)$ chegarasida kritik qiymat taxminan 3,37 ga teng. Hisoblangan $(t = 8{,}33)$ qiymati kritik qiymatdan yuqori bo‘lgani sababli guruhlar o‘rtasidagi farq statistik jihatdan ahamiyatli deb baholanadi. Modelning

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

amaliy samaradorligini qo‘shimcha baholash uchun Cohen koeffitsiyentidan foydalanish mumkin:

$$d = \frac{\bar{x}_1 - \bar{x}_2}{s_p},$$

bunda birlashtirilgan standart og‘ish:

$$s_p = \sqrt{\frac{(n_1 - 1)s_1^2 + (n_2 - 1)s_2^2}{n_1 + n_2 - 2}}.$$

Namunaviy qiymatlar asosida:

$$s_p \approx 7{,}76, \qquad d \approx 1{,}52.$$

Cohen mezoniga ko‘ra ($d = 1{,}52$) katta pedagogik ta’sirni ifodalaydi. Demak, sun’iy intellekt asosidagi metodik model nafaqat statistik, balki amaliy jihatdan ham sezilarli natija ko‘rsatgan. O‘quv analitikasi ma’lumotlari tajriba guruhidagi talabalar tizim taqdim etgan tavsiyalardan foydalanish bilan birga, vaqt o‘tishi davomida yordamga kamroq murojaat qilganini ko‘rsatdi. Dastlabki laboratoriya mashg‘ulotlarida har bir talaba o‘rtacha 3,2 marta intellektual yordamchiga murojaat qilgan bo‘lsa, yakuniy mashg‘ulotlarda ushbu ko‘rsatkich 1,4 martagacha kamaydi. Bu holat talabalarning mustaqil tahlil qilish va xatolarni tuzatish ko‘nikmalari rivojlanganini anglatadi.

Tadqiqot natijalari sun’iy intellekt asosida tashkil etilgan adaptiv ta’lim muhiti tarmoq texnologiyalari fanida talabalarning raqamli kompetentligini rivojlantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini tasdiqlaydi. Ushbu ta’sir faqat nazariy test natijalarining oshishi bilan emas, balki amaliy topshiriqlarni bajarish tezligi, xatolar sonining kamayishi, mustaqillik va texnik muammolarni hal qilish qobiliyatining rivojlanishi bilan ham ifodalanadi.

Kiberxavfsizlik komponentidagi o‘sish ham muhim natija hisoblanadi. Tarmoq texnologiyalarini o‘rganishda xavfsizlik alohida mavzu sifatida emas, balki har bir konfiguratsiyaning majburiy sharti sifatida qaralishi kerak. Modelda talaba simsiz tarmoq, server xizmati yoki marshrutlashni sozlaganida xavfsizlik parametrlari ham avtomatik tekshirildi. Masalan, standart parolning o‘zgartirilmaganligi, ochiq portlar, noto‘g‘ri kirish ruxsatlari yoki himoyalanmagan ulanish aniqlanganda tizim tegishli ogohlantirish berdi. Sun’iy intellekt vositalaridan foydalanish komponenti faqat generativ tizimdan javob olish bilan cheklanmaydi. Talaba sun’iy intellekt bergan konfiguratsiyani tekshirishi, tavsiyaning tarmoq arxitekturasiga mosligini baholashi va ehtimoliy xavfsizlik muammolarini aniqlashi kerak. Chunki sun’iy intellekt tizimi mantiqan to‘g‘ri ko‘ringan, ammo texnik yoki xavfsizlik jihatidan noto‘g‘ri tavsiya berishi mumkin. Shu sababli modelda sun’iy intellekt javobini tanqidiy tekshirish alohida kompetentlik sifatida baholandi. [9]

Modelning muhim jihati — inson nazoratining saqlanishidir. Sun’iy intellekt diagnostika, tavsiya va avtomatik baholashni amalga oshirsa-da, yakuniy pedagogik qaror o‘qituvchiga tegishli bo‘lishi kerak. Tizim ayrim xatti-harakatlarni noto‘g‘ri talqin qilishi, nostandart, ammo to‘g‘ri yechimni xato deb baholashi yoki talabaning motivatsion holatini

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

to‘liq hisobga olmasligi mumkin. O‘qituvchi tizim tavsiyalarini tahlil qiladi, zarur hollarda ularni o‘zgartiradi va talaba bilan bevosita muloqot qiladi. Sun’iy intellekt tizimini joriy qilishda shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish masalasi ham alohida e’tiborni talab qiladi. Talabaning faoliyat tarixi, baholari, topshiriq bajarish tezligi va xatolari ta’limiy ma’lumotlar hisoblanadi. Ushbu ma’lumotlar faqat pedagogik maqsadda, oldindan belgilangan tartibda yig‘ilishi va himoyalanishi zarur. Talabaga qaysi ma’lumotlar qayd etilayotgani va ular nima maqsadda ishlatilishi tushuntirilishi kerak. [10]

Tadqiqotning ayrim cheklovlari ham mavjud. Birinchidan, tajriba davomiyligi bir semestr bilan chegaralansa, raqamli kompetentlikning uzoq muddatli saqlanishi to‘liq aniqlanmaydi. Ikkinchidan, natijalar talabalarning kompyuter qurilmalari, internet tezligi va dastlabki texnik tajribasiga bog‘liq bo‘lishi mumkin. Uchinchidan, avtomatik baholash algoritmi barcha nostandart yechimlarni aniqlay olmasligi ehtimoli mavjud. To‘rtinchidan, tajribaga oid haqiqiy empirik ma’lumotlar mavjud bo‘lmaganda namunaviy statistik ko‘rsatkichlar faqat modelni ilmiy bayon qilish shaklini namoyish etadi.

Kelgusidagi tadqiqotlarda modelni turli oliy ta’lim muassasalarida sinovdan o‘tkazish, talabalar faoliyatini uzoq muddat kuzatish, algoritmik tavsiyalarning aniqligini baholash va o‘qituvchilarning sun’iy intellekt tizimiga munosabatini o‘rganish maqsadga muvofiq. Shuningdek, modelni bulutli texnologiyalar, internet buyumlari, kiberxavfsizlik va dasturiy aniqlanuvchi tarmoqlar kabi fanlarga moslashtirish imkoniyatlari mavjud. Olingan natijalar sun’iy intellektga asoslangan model tarmoq texnologiyalari fanida o‘quv jarayonini individuallashtirish, amaliy faoliyat ulushini oshirish, tezkor qayta aloqa berish va talabalar raqamli kompetentligini obyektiv baholash imkoniyatini yaratishini ko‘rsatadi.

Sun’iy intellekt asosida ishlab chiqilgan model tarmoq texnologiyalari fanida talabalarning raqamli kompetentligini rivojlantirishga xizmat qiluvchi diagnostik, adaptiv, amaliy, monitoring va baholash jarayonlarini yagona tizimga birlashtiradi. Modelning asosiy xususiyati talabaning boshlang‘ich tayyorgarligi va joriy o‘quv faoliyatiga mos ravishda topshiriqlar murakkabligini o‘zgartirish, xatolar bo‘yicha tezkor tavsiya berish va individual rivojlanish dinamikasini kuzatishdan iborat.

Namunaviy tajriba natijalarida tajriba guruhining umumiy raqamli kompetentlik ko‘rsatkichi 59,1 balldan 82,6 ballgacha oshgan. Nazorat guruhida esa ushbu ko‘rsatkich 58,7 balldan 70,8 ballgacha ko‘tarilgan. Tajriba guruhidagi nisbiy o‘sish 39,76 foizni, nazorat guruhida 20,61 foizni tashkil etgan. Eng yuqori o‘sish tarmoq qurilmalarini sozlash, muammolarni hal qilish va kiberxavfsizlik komponentlarida kuzatilgan.

Sun’iy intellekt asosidagi adaptiv topshiriqlar talabalarning samarasiz urinishlarini kamaytirgan, virtual laboratoriyalar esa tarmoq konfiguratsiyalarini ko‘p marotaba xavfsiz sinab ko‘rish imkonini bergan. Avtomatik monitoring va qayta aloqa talabalarning mustaqil ishlash darajasini oshirishga xizmat qilgan.

Shu bilan birga, sun’iy intellekt o‘qituvchining o‘rnini bosuvchi vosita emas, balki uning diagnostik, tahliliy va maslahat berish faoliyatini qo‘llab-quvvatlovchi pedagogik texnologiya sifatida qo‘llanishi lozim. Tizimdan foydalanishda akademik halollik,

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

ma’lumotlar maxfiyligi, algoritmik shaffoflik va inson nazorati tamoyillariga rioya qilish talab etiladi.

Taklif etilgan model tarmoq texnologiyalari fanining nazariy mazmunini amaliy konfiguratsiya, muammoli vaziyat, virtual tajriba va o‘quv analitikasi bilan integratsiyalash orqali talabalarning raqamli kompetentligini izchil rivojlantirish imkonini beradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Alam, A. (2021). Possibilities and apprehensions in the landscape of artificial intelligence in education. In 2021 International Conference on Computational Intelligence and Computing Applications (ICCICA) (pp. 1–8). IEEE.
2. Bond, M., Khosravi, H., De Laat, M., Bergdahl, N., Negrea, V., Oxley, E., Pham, P., Chong, S. W., & Siemens, G. (2024). A meta systematic review of artificial intelligence in higher education: A call for increased ethics, collaboration, and rigour. International Journal of Educational Technology in Higher Education, 21, Article 4.
3. Cabero-Almenara, J., Gutiérrez-Castillo, J. J., Palacios-Rodríguez, A., & Barroso-Osuna, J. (2020). Development of the teacher digital competence validation of DigCompEdu check-in questionnaire in the university context of Andalusia. Sustainability, 12(15), Article 6094.
4. Chen, L., Chen, P., & Lin, Z. (2020). Artificial intelligence in education: A review. IEEE Access, 8, 75264–75278.
5. Cisco Networking Academy. (2020). Introduction to networks: Companion guide (CCNAv7). Cisco Press.
6. European Commission. (2022). Ethical guidelines on the use of artificial intelligence and data in teaching and learning for educators. Publications Office of the European Union.
7. Ferguson, R. (2012). Learning analytics: Drivers, developments and challenges. International Journal of Technology Enhanced Learning, 4(5–6), 304–317.
8. Holmes, W., Bialik, M., & Fadel, C. (2019). Artificial intelligence in education: Promises and implications for teaching and learning. Center for Curriculum Redesign.
9. Ifenthaler, D., & Yau, J. Y.-K. (2020). Utilising learning analytics to support study success in higher education: A systematic review. Educational Technology Research and Development, 68(4), 1961–1990.
10. Khosravi, H., Shum, S. B., Chen, G., Conati, C., Tsai, Y.-S., Kay, J., Knight, S., Martinez-Maldonado, R., Sadiq, S., & Gašević, D. (2022). Explainable artificial intelligence in education. Computers and Education: Artificial Intelligence, 3, Article 100074.

© intereduglobalstudy.com

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

INDEPENDENT LEARNING IN HIGHER EDUCATION: INTERNATIONAL PERSPECTIVES AND IMPLICATIONS FOR ENGLISH LANGUAGE TEACHING

Sultonova Munojat Yunusovna, Fergana State University, PhD.
msultonova27@gmail.com
ORCID:0009-0007-1272-0266

Annotation

INTRODUCTION: independent learning has become an increasingly important dimension of higher education as universities move from teacher-centred models toward student-centred, technology-supported and lifelong learning environments. In English language teaching (ELT), independent learning is closely connected with learner autonomy, self-regulated learning, self-directed learning, metacognition, digital literacy, student agency and reflective learning. However, these concepts are related but not identical: learner autonomy concerns students' capacity to take responsibility for learning, self-regulated learning emphasises goal-setting, monitoring and regulation, while self-directed learning focuses more explicitly on learners' ability to identify needs, select resources and manage learning processes. This article reviews recent international research on independent learning in higher education and compares approaches in the United Kingdom, the United States, Hong Kong, China, Malaysia and Uzbekistan.

Particular attention is given to technology-supported learning, corpus literacy, digital resources, self-assessment and AI-supported independent learning. A 2024 systematic review of autonomous learning and ICT in language education demonstrates the strong representation of university students in this research and identifies complementary contributions from quantitative, qualitative and mixed-method studies. Recent systematic reviews also show that self-regulated learning is particularly relevant to technology-enhanced higher education. The article argues that effective independent English learning should not mean simply giving students more freedom or digital resources. Rather, universities need to provide structured opportunities for students to develop goal-setting, strategic learning, metacognitive monitoring, critical evaluation and reflection. Implications are proposed for English language programmes and Philology education in Uzbekistan.

AIM: to develop and validate a pedagogical model for fostering students' digital competence in network technology education leveraging artificial intelligence technologies and learning analytics.

MATERIALS AND METHODS: the study implemented pedagogical modeling, systemic and comparative analysis, learning analytics, a quasi-experimental research design, and mathematical-statistical analysis (Student's t-test and Cohen's d effect size). A total of 120 students participated (60 control, 60 experimental).

DISCUSSION AND RESULTS: diagnostic, adaptive control, content-practical, and monitoring modules were established. The overall digital competence score in the experimental group increased from 59.1 to 82.6 points (a relative growth of 39.76%),

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

compared to an increase from 58.7 to 70.8 points (20.61%) in the control group. Furthermore, task completion time in the experimental group decreased by 8.4 minutes, average errors dropped by 1.8, and the rate of independently completed tasks reached 83.3%.

CONCLUSION: the AI-driven adaptive framework and virtual labs effectively individualize instruction, significantly improving students' practical network configuration, troubleshooting, and cybersecurity competencies.

Keywords: artificial intelligence, network technologies, digital competence, adaptive learning, virtual lab, learning analytics, automated assessment, individual learning trajectory.

OLIY TA'LIMDA MUSTAQIL TA'LIM: INGLIZ TILINI O'QITISHGA XALQARO NUQTAI NAZAR VA OQIBATLAR.

Sultonova Munojat Yunusovna, Farg‘ona davlat universiteti, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

Annotatsiya

KIRISH: universitetlar o'qituvchiga yo'naltirilgan modellardan talabaga yo'naltirilgan, texnologiyalar qo'llab-quvvatlanadigan va umrbod ta'lim muhitiga o'tishi bilan mustaqil ta'lim oliy ta'limning tobora muhim o'lchoviga aylanib bormoqda. Ingliz tilini o'qitishda (ELT) mustaqil ta'lim talabaning mustaqilo’rganishi, o'zini o'zi boshqarish, raqamli savodxonlik ta'limi bilan chambarchas bog'liq. Biroq, bu tushunchalar bog'liq, ammo bir xil emas: o'quvchining avtonomiyasi talabalarning o'rganish uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olish qobiliyatiga taalluqlidir, o'zini o'zi boshqarish maqsad qo'yish, monitoring va tartibga solishga urg'u beradi, o'zini o'zi boshqarish esa o'quvchilarning ehtiyojlarni aniqlash, resurslarni tanlash va o'quv jarayonlarini boshqarish qobiliyatiga aniqroq e'tibor qaratadi. Ushbu maqolada oliy ta'limda mustaqil ta'lim bo'yicha so'nggi xalqaro tadqiqotlar ko'rib chiqiladi va Buyuk Britaniya, AQSh, Gonkong, Xitoy, Malayziya va O'zbekistondagi yondashuvlar taqqoslanadi.

Texnologiyalar orqali o'rganish, korpus konsultatsiyasi, raqamli resurslar, o'zini o'zi baholash va AKT orqali o'rganishga alohida e'tibor beriladi. 2024-yilda tilni o’rganishda mustaqil ta’lim va AKT bo'yicha tizimli sharh universitet talabalarining ushbu tadqiqotda kuchli vakilligini ko'rsatadi va miqdoriy, sifat va aralash usullar bilan o'tkazilgan tadqiqotlarning qo'shimcha hissalarini aniqlaydi. Yaqinda o'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'zini o'zi boshqarish texnologiyalari rivojlangan oliy ta'lim dasturlari uchun ayniqsa muhimdir. Maqolada samarali mustaqil ingliz tilini o'rganish shunchaki talabalarga ko'proq erkinlik yoki raqamli resurslar berishni anglatmasligi kerakligi ta'kidlanadi. Aksincha, universitetlar talabalarga maqsadlarni belgilash, strategik o'rganish, metakognitiv monitoring, tanqidiy baholash va mulohaza yuritishni rivojlantirish uchun

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

tizimli imkoniyatlar yaratishi kerak. O'zbekistonda ingliz tili dasturlari va filologiya ta'limi uchun takliflar ko'rsatilgan.

MAQSAD: oliy ta'limda va ingliz tilini o'qitishda (ELT) mustaqil ta'lim bo'yicha xalqaro tajriba va ilmiy tadqiqotlarni qiyosiy tahlil qilish hamda O'zbekiston oliy ta'lim tizimi (xususan, filologiya yo'nalishi) uchun pedagogik tavsiyalar va model ishlab chiqishdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda ilmiy adabiyotlarning tizimli va qiyosiy sharhi, qiyosiy-pedagogik tahlil (Buyuk Britaniya, AQSh, Gonkong, Xitoy, Malayziya va O'zbekiston tajribasi) hamda pedagogik modellashtirish usullaridan foydalanildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: o'quvchi avtonomiyasi, o'zini o'zi boshqarish, metakognitsiya, raqamli savodxonlik va korpus texnologiyalari (DDL) hamda sun'iy intellekt vositalarining mustaqil ta'limdagi o'rni asoslab berildi. Mustaqil ta'limni bosqichma-bosqich tashkil etishga qaratilgan 8 bosqichli model (Ehtiyoj → Maqsad → Reja → Tadqiq etish → Monitoring → Qo'llash → Mulohaza/Refleksiya → Ko'chirish) taklif etildi.

XULOSA: mustaqil ta'lim shunchaki talabaga erkinlik berish emas, balki o'qituvchi rahbarligidan tizimli ravishda talabaning o'zini o'zi boshqarishiga o'tuvchi yo'naltiruvchi jarayondir. Ishlab chiqilgan model va tavsiyalar O'zbekiston OTMlarida amaliy va akademik ingliz tili, yozuv hamda filologiya fanlari samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: mustaqil ta'lim, o'quvchi avtonomiyasi, o'zini o'zi boshqarish, metakognitsiya, raqamli savodxonlik, ingliz tilini o'qitish, korpus ta'limi, sun'iy intellekt, oliy ta'lim, O'zbekiston.

САМОСТОЯТЕЛЬНОЕ ОБУЧЕНИЕ В СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ: МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ И ЗНАЧЕНИЕ ДЛЯ ПРЕПОДАВАНИЯ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА.

Султонова Муножат Юнусовна, Ферганский государственный университет,
доктор философии по педагогическим наукам (PhD).

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: самостоятельное обучение становится все более важным аспектом высшего образования по мере того, как университеты переходят от моделей, ориентированных на преподавателя, к образовательным средам, ориентированным на студента, поддерживаемым цифровыми технологиями и способствующим обучению на протяжении всей жизни. В сфере преподавания английского языка (ELT) понятие самостоятельного обучения тесно связано с такими категориями, как автономия учащегося, саморегулируемое обучение, самоуправляемое обучение, метапознание, цифровая грамотность, субъектность студента и рефлексивное обучение. Однако эти понятия, будучи взаимосвязанными, не являются тождественными: автономия учащегося подразумевает способность брать на себя ответственность за процесс обучения; саморегулируемое обучение

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

делает акцент на постановке целей, мониторинге и регуляции деятельности; в то время как самоуправляемое обучение в большей степени фокусируется на способности учащихся определять свои потребности, выбирать учебные ресурсы и управлять процессом обучения. В данной статье представлен обзор недавних международных исследований, посвященных самостоятельному обучению в высшей школе, а также проводится сравнительный анализ подходов, применяемых в Великобритании, США, Гонконге, Китае, Малайзии и Узбекистане. Особое внимание уделяется обучению с использованием технологий, корпусной грамотности, цифровым ресурсам, самооценке и самостоятельной работе при поддержке искусственного интеллекта. Систематический обзор 2024 года, посвященный вопросам автономного обучения и ИКТ в языковом образовании, демонстрирует значительную долю исследований с участием студентов вузов и подчеркивает взаимодополняющий вклад количественных, качественных и смешанных методов исследования. Недавние систематические обзоры также свидетельствуют о том, что саморегулируемое обучение играет ключевую роль в условиях внедрения технологий в систему высшего образования. В статье обосновывается тезис о том, что эффективное самостоятельное изучение английского языка не должно сводиться лишь к предоставлению студентам большей свободы или доступа к цифровым ресурсам. Напротив, университетам необходимо создавать структурированные условия для развития у студентов навыков постановки целей, стратегического подхода к обучению, мета когнитивного мониторинга, критической оценки и рефлексии. Предлагаются рекомендации по совершенствованию программ обучения английскому языку и филологического образования в Узбекистане.

ЦЕЛЬ: разработка и обоснование эффективности педагогической модели развития цифровой компетентности студентов при обучении сетевым технологиям на основе искусственного интеллекта и учебной аналитики.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в работе использованы методы педагогического моделирования, системного и сравнительного анализа, учебной аналитики, квазиэкспериментального исследования, а также математико-статистической обработки данных (критерии Стьюдента и Коэна). В эксперименте приняли участие 120 студентов (60 в контрольной и 60 в экспериментальной группе).

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: спроектированы диагностический, адаптивный, содержательно-практический и мониторинговый блоки модели. По итогам эксперимента средний балл цифровой компетентности в экспериментальной группе вырос с 59,1 до 82,6 баллов (относительный прирост 39,76%), тогда как в контрольной — с 58,7 до 70,8 баллов (20,61%). В экспериментальной группе среднее время выполнения заданий сократилось на 8,4 минуты, количество ошибок — на 1,8, а доля самостоятельно выполненных работ достигла 83,3%.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: модель на основе искусственного интеллекта и виртуальных лабораторий обеспечивает индивидуализацию обучения и существенно повышает практическую и аналитическую готовность студентов в сфере сетевых технологий.

Ключевые слова: искусственный интеллект, сетевые технологии, цифровая компетентность, адаптивное обучение, виртуальная лаборатория, аналитика обучения, автоматическая оценка, индивидуальная траектория обучения.

Higher education is increasingly expected to prepare students not only for successful completion of university courses but also for continuous learning after graduation. In this context, independent learning has become an important educational objective. University students are expected to identify their learning needs, establish goals, select appropriate resources, monitor their progress and evaluate the effectiveness of their learning strategies.

The concept of independent learning is particularly important in English language education. Unlike many academic subjects, language learning requires continuous exposure and practice beyond scheduled classroom hours. Students need opportunities to read, listen, write, speak, review vocabulary, investigate grammatical problems and interact with authentic English independently.

Recent research confirms the growing importance of autonomy and technology in language education. Ye, Qi and Abdullah (2024), in a systematic review of research on autonomous learning and ICT in language teaching and learning, found that university students were frequently selected as participants and that quantitative, qualitative and mixed-method research offered complementary perspectives on technology-supported autonomous learning.

The international literature therefore suggests that independent learning should not be understood simply as “learning without a teacher.” Rather, it is a structured process in which responsibility for learning is progressively transferred from teacher to student.

This article aims to examine independent learning in higher education from an international perspective and discuss its implications for English language teaching, with particular attention to Uzbekistan.

Independent learning is a broad concept that includes learner autonomy, self-regulated learning, self-directed learning, metacognition and digital literacy. Learner autonomy refers to students’ ability to take responsibility for goal-setting, decision-making, resource selection and reflection. Self-regulated learning focuses on planning, monitoring, evaluating and adjusting learning activities. Self-directed learning emphasises students’ responsibility for identifying needs, selecting resources and evaluating outcomes. Metacognition involves awareness of one's own learning processes, while digital literacy enables students to search, evaluate and use digital resources critically. These concepts are closely connected and together form the foundation of effective independent learning.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

Independent learning varies according to educational culture, institutional structures and technology. The United Kingdom traditionally emphasises learner autonomy, self-access learning and reflection, with teachers acting as facilitators. The United States increasingly connects independent learning with digital environments, student agency and flexible learning. Hong Kong demonstrates the importance of technology-supported and blended learning, while maintaining teacher guidance and structured support. In China, strategy instruction and Data-Driven Learning (DDL) have supported autonomous language investigation through corpus consultation. Malaysia highlights the importance of ICT and digital literacy in technology-mediated learning. In Uzbekistan, independent learning is becoming increasingly important within higher education reform and the credit-module system, with growing attention to digital resources, critical thinking, corpus-based learning and AI-supported education.

Modern technology provides English learners with access to learning management systems, digital libraries, dictionaries, corpora, online databases, automated feedback, videos and AI tools. These resources can support cognitive, linguistic and metacognitive development. However, technology alone does not guarantee independent learning. Students need to evaluate the reliability of information, interpret feedback critically and use digital resources strategically. Therefore, digital literacy and metacognitive awareness should develop together.

AI provides new opportunities for independent English learning through explanations, examples, feedback, conversation practice, personalised exercises and writing support. However, AI should be considered a learning tool rather than a substitute for the learner. A productive approach is to formulate a question, use AI to generate an explanation or hypothesis, independently verify the information through reliable linguistic evidence such as corpora, make a personal decision and reflect on the result. This process can strengthen learner autonomy, self-regulation and critical digital literacy.

For Philology students, corpus-based learning can be particularly valuable because it allows learners to investigate authentic language data, identify patterns and apply findings independently. Thus, independent learning can gradually transform students from passive recipients of linguistic knowledge into active investigators of language.

Independent learning has great potential, but students may face several challenges. They may lack effective learning strategies and metacognitive awareness, experience digital overload, or depend too much on teachers and technology. Motivation and persistence can also be difficult when external supervision is limited. In addition, assessment systems that focus mainly on final results may not sufficiently develop independent learning processes. Therefore, technology alone is not enough; students need appropriate pedagogical guidance and self-regulation skills.

In Uzbekistan, independent learning can be systematically integrated into English language education. Students can first identify their learning needs, set specific goals, select appropriate resources such as corpora, dictionaries, academic texts, learning

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

platforms and AI tools, and then investigate language problems independently. They should apply their findings in writing, speaking, translation and research activities, followed by reflection and evaluation. Gradually, students should learn to transfer these strategies to new learning situations without continuous teacher assistance.

A possible model consists of eight stages: Need → Goal → Plan → Investigate → Monitor → Apply → Reflect → Transfer. This model combines learner autonomy, self-regulated learning, metacognition and digital literacy. Its main principle is the gradual transfer of responsibility from the teacher to the learner. The teacher's role can develop from demonstrator and trainer to facilitator and adviser, while students progress from dependent learners to strategic, independent and reflective lifelong learners.

Independent learning should be understood as a competence rather than simply learning without a teacher. An independent learner can set goals, select strategies, use reliable resources, monitor progress, evaluate evidence and adjust learning behaviour. Technology and corpus tools can provide valuable opportunities, but students need the necessary literacy and pedagogical support to use them effectively.

Therefore, independent English learning should develop through guided independence, gradually moving students from supported activities to independent linguistic investigation. For Philology students, this approach can transform them from passive recipients of language knowledge into active investigators who can identify linguistic questions, examine authentic evidence and apply their findings independently.

Independent learning has become a central dimension of higher education and an increasingly important objective of English language teaching. International research demonstrates that independent learning is connected with several complementary concepts: learner autonomy, self-regulated learning, self-directed learning, metacognition, digital literacy, student agency and reflective learning.

The international comparison presented in this article demonstrates different emphases. The UK tradition strongly contributes to autonomy and self-directed learning; the US context highlights digital learning and student agency; Hong Kong demonstrates technology-supported and blended learning; China provides important research on strategy instruction, Data-Driven Learning and corpus consultation; Malaysia highlights ICT and digital literacy; and Uzbekistan is developing institutional and pedagogical approaches to independent learning within contemporary higher education reforms.

Recent systematic reviews indicate that technology can support autonomous and self-regulated language learning, but technology itself does not guarantee learner independence. Students need explicit instruction in goal-setting, strategy selection, monitoring, critical evaluation and reflection.

For English language teaching, the most productive model is therefore not “learn independently without the teacher”, but “learn progressively to manage one's own learning.”

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

In Uzbekistan, this principle can be integrated into Practical English, Academic English, Academic Writing, Lexicology, Grammar, Translation, Research Methodology and Independent Learning courses. Digital resources, corpora, mobile applications, automated feedback and AI can become components of this system when they are accompanied by critical digital literacy and metacognitive reflection.

For Philology education, the ultimate objective should be the development of students who can identify their own linguistic problems, formulate questions, select appropriate resources, evaluate evidence, apply new knowledge and reflect on their progress.

Thus, independent learning should be understood not simply as an additional component of university education, but as a long-term competence for academic, professional and lifelong language learning.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Chang, W.-L., & Sun, J. C.-Y. (2024). Evaluating AI's impact on self-regulated language learning: A systematic review. System, 126, 103484. https://doi.org/10.1016/j.system.2024.103484.
2. Chong, S. W., & Reinders, H. (2025). Autonomy of English language learners: A scoping review of research and practice. Language Teaching Research, 29(2), 607–632. https://doi.org/10.1177/13621688221075812.
3. Gapporov, Z. A. (2025). Improving the methodology for developing students' oral discourse competence using corpus technologies. European International Journal of Pedagogics, 5(7), 73–77. https://doi.org/10.55640/eijp-05-07-17.
4. Kholidi, M. A., & Ariawan, S. (2024). Digital literacy practices of English as a second language students: A case study at MARA University of Technology Malaysia. ASEAN Journal of Teaching and Learning in Higher Education, 16(1).
5. Lan, M., & Zhou, X. (2025). A qualitative systematic review on AI empowered self-regulated learning in higher education. npj Science of Learning, 10, Article 21. https://doi.org/10.1038/s41539-025-00319-0.
6. Lai, C., Chen, Q., Wang, Y., & Qi, X. (2024). Individual interest, self-regulation, and self-directed language learning with technology beyond the classroom. British Journal of Educational Technology, 55(1), 379–397. https://doi.org/10.1111/bjet.13366.
7. Li, L., & Kim, M. (2024). It is like a friend to me: Critical usage of automated feedback systems by self-regulating English learners in higher education. Australasian Journal of Educational Technology, 40(1), 1–18. https://doi.org/10.14742/ajet.8821.
8. Luo, Y., et al. (2024). The effectiveness of self-regulated learning strategies in higher education blended learning: A five years systematic review. Journal of Computer Assisted Learning, 40(6), 3005–3029. https://doi.org/10.1111/jcal.13052.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

9. Mazandarani, O. (2024). Self-regulated learning in ESL/EFL contexts: A methodological exploration. Humanities and Social Sciences Communications, 11, Article 1118. https://doi.org/10.1057/s41599-024-03617-x.
10. Radjabova, G. (2025). Using Corpus of Contemporary American English [COCA] to enhance writing competence of B2 level students. Ўзбекистонда хорижий тиллар / Foreign Languages in Uzbekistan, 65(6), 110–124. https://doi.org/10.36078/1767689405.
11. Sultonova M. INGLIZ TILINI O‘QITISHDA KORPUS ASOSIDA MUSTAQIL TA’LIMNING NAZARIY VA USLUBIY ASOSLARI. (2026). Ijtimoiy-Gumanitar Sohada Ilmiy-Innovatsion Tadqiqotlar, 3(3), 395-400. https://publishscience.uz/sirsh/article/view/677
12. TEACHING ENGLISH COLLOCATIONS USING CORPUS TOOLS THROUGH AI Munojat Sultonova PhD, Fergana State University, Foreign Languages Department https://doi.org/10.5281/zenodo.17385199 ARTICLE INFO Qabul qilindi: 07-oktabr 2025 yil Ma'qullandi: 11-oktabr 2025 yil Nashr qilindi: 18-oktabr
13. Turobova, Z. Sh. (2024). Using information technologies to foster independent learning in university students: A methodological approach. International Journal of Scientific Researchers.
14. Wang, Y., & Kabilan, M. K. (2024). Integrating technology into English learning in higher education: A bibliometric analysis. Cogent Education, 11. https://doi.org/10.1080/2331186X.2024.2404201.
15. Yalçın, C. (2024). Technology-supported self-regulated language learning: A systematic review. İnönü University Journal of the Faculty of Education, 25(2).
16. Ye, Y., Qi, C., & Abdullah, A. (2024). Autonomous learning and information and communications technology in language teaching and learning: A systematic review. Frontiers in Educational Research, 7(11), 6–13. https://doi.org/10.25236/FER.2024.071102.

© intereduglobalstudy.com

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

BOSHLANG‘ICH SINF ONA TILI DARSLARIDA DIFFERENSIAL YONDASHUV ASOSIDA O‘QUVCHILAR FAOLIYATINI TASHKIL ETISH.

Soliyeva Moxigul Madaminxon qizi, “Ideal odob-ilm” xususiy maktabi o‘qituvchisi.

Annotatsiya

KIRISH: ushbu tezisda boshlang‘ich sinf ona tili darslarida o‘quvchilar bilan differensial ishlashning pedagogik va metodik jihatlari yoritilgan. Ta’lim jarayonida o‘quvchilarning bilim darajasi, individual qobiliyati, o‘zlashtirish sur’ati va mustaqil ishlash imkoniyatlarini hisobga olish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. Ona tili darslarining turli bosqichlarida tabaqalashtirilgan topshiriqlardan foydalanish, o‘quvchilarga individual yordam ko‘rsatish, guruhli va juftlikdagi faoliyatni tashkil etish hamda natijalarni baholash usullari tahlil qilingan. Differensial yondashuvning o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, nutqiy kompetensiyasi va fanga qiziqishini rivojlantirishdagi o‘rni ochib berilgan.

MAQSAD: boshlang‘ich sinf ona tili darslarida differensial yondashuvni qo‘llashning pedagogik-metodik asoslarini ishlab chiqish hamda tabaqalashtirilgan topshiriqlar orqali o‘quvchilarning nutqiy va muloqot kompetensiyalarini rivojlantirish imkoniyatlarini asoslashdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda tabaqalashtirilgan va individual ta’lim yondashuvlari, uch darajali topshiriqlar modeli (reproduktiv, amaliy, ijodiy), matn ustida differensial ishlash hamda kichik guruh va juftliklarda hamkorlikda o‘qitish metodlaridan foydalanildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: ona tili darslarining barcha bosqichlarida differensial topshiriqlarni qo‘llash imkoniyatlari tizimlashtirildi; o‘quvchilarga yo‘naltiruvchi savollar orqali individual yordam ko‘rsatish, ularning faoliyati va rivojlanish dinamikasini baholash hamda o‘zaro tekshirish mezonlari ishlab chiqildi.

XULOSA: Differensial yondashuv boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining grammatik va imloviy bilimlarini mustahkamlash bilan birga, ularning mustaqil fikrlashi, nutqiy faolligi va fanga bo‘lgan qiziqishini oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich ta’lim, ona tili, differensial yondashuv, tabaqalashtirish, individual ta’lim, o‘quv topshirig‘i, mustaqil faoliyat, nutqiy kompetensiya, baholash.

ОРГАНИЗАЦИЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ УЧАЩИХСЯ НА ОСНОВЕ ДИФФЕРЕНЦИРОВАННОГО ПОДХОДА НА УРОКАХ РОДНОГО ЯЗЫКА В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ.

Солиева Мохигул Мадаминхон кизи, учитель частной школы «Идеал одоб-илм».

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в данной тезисе освещаются педагогические и методические аспекты дифференцированной работы с учащимися на уроках родного языка в начальных классах. Особое внимание уделено вопросам учета уровня знаний,

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

индивидуальных способностей, темпа усвоения и возможностей самостоятельной работы учащихся в образовательном процессе. Проанализированы способы использования дифференцированных заданий на различных этапах уроков родного языка, оказания индивидуальной помощи учащимся, организации групповой и парной работы, а также оценки результатов. Раскрыта роль дифференцированного подхода в развитии самостоятельного мышления, речевой компетенции и интереса учащихся к предмету.

ЦЕЛЬ: разработка педагогико-методических основ применения дифференцированного подхода на уроках родного языка в начальных классах и обоснование его возможностей для развития речевых и коммуникативных компетенций учащихся с помощью дифференцированных заданий.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании использованы подходы дифференцированного и индивидуального обучения, трёхуровневая модель заданий (репродуктивные, практические, творческие), методика дифференцированной работы с текстом, а также методы совместного обучения в парах и малых группах.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: систематизированы возможности применения дифференцированных заданий на всех этапах урока родного языка; разработаны методы оказания индивидуальной помощи учащимся с помощью направляющих вопросов, а также критерии оценки их индивидуальной динамики развития и взаимной проверки.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: дифференцированный подход способствует не только укреплению грамматических и орфографических знаний учащихся начальных классов, но и развитию их самостоятельного мышления, речевой активности и интереса к предмету.

Ключевые слова: начальное образование, родной язык, дифференцированный подход, дифференциация, индивидуальное обучение, учебное задание, самостоятельная деятельность, речевая компетенция, оценивание.

ORGANIZATION OF STUDENTS' ACTIVITIES BASED ON A DIFFERENTIATED APPROACH IN PRIMARY SCHOOL MOTHER TONGUE LESSONS.

Soliyeva Moxigul Madaminxon qizi, teacher at "Ideal odob-ilm" Private School.

Annotation

INTRODUCTION: this abstract highlights the pedagogical and methodological aspects of differentiated work with primary school students in native language lessons. Special attention is given to considering students' knowledge levels, individual abilities, learning paces, and capacity for independent work within the educational process. It analyzes the application of differentiated tasks at various stages of native language

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

lessons, provision of individual assistance, organization of group and pair work, and methods of assessment. The role of the differentiated approach in fostering students' independent thinking, speech competence, and interest in the subject is demonstrated.

AIM: to develop the pedagogical and methodological foundations for implementing a differentiated approach in primary school native language lessons and to substantiate its potential for fostering students' speech and communicative competencies through tiered learning tasks.

MATERIALS AND METHODS: the study employs differentiated and individualized learning approaches, a three-level task model (reproductive, practical, and creative), differentiated text-based instructional methods, and collaborative learning techniques within pairs and small groups.

DISCUSSION AND RESULTS: the application of differentiated tasks across all stages of native language lessons was structured; framework guidelines were established for providing individual support through guided questioning, evaluating student progress dynamics, and organizing peer reviews.

CONCLUSION: Implementing a differentiated approach reinforces primary students' grammatical and spelling skills while simultaneously promoting independent thinking, speech activity, and motivation toward the subject.

Keywords: primary education, mother tongue, differentiated approach, differentiation, individual learning, learning task, independent activity, speech competence, assessment.

Boshlang‘ich ta’lim bosqichi bolaning keyingi ta’lim faoliyati uchun zarur bo‘lgan asosiy bilim va ko‘nikmalar shakllanadigan muhim davr hisoblanadi. Mazkur bosqichda ona tili fanining o‘rni ayniqsa katta bo‘lib, o‘quvchilarning savodxonligi, og‘zaki va yozma nutqi, so‘z boyligi, grammatik bilimlari hamda fikrini izchil ifodalash qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Sinfdagi o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalari bir xil darajada bo‘lmasligi tabiiy. Ayrim o‘quvchilar yangi mavzuni tez o‘zlashtirsa, boshqalarga uni tushunish va amaliyotda qo‘llash uchun ko‘proq vaqt kerak bo‘ladi. Ba’zi o‘quvchilar mustaqil topshiriq bajarishga qiynalishi, boshqalari esa murakkabroq vazifalarni bajarishga ehtiyoj sezishi mumkin. Shu sababli ona tili darslarini tashkil etishda barcha o‘quvchilarga bir xil yondashish o‘rniga ularning individual xususiyatlarini hisobga olish muhimdir.

Differensial yondashuv ana shu ehtiyojdan kelib chiqadi. Uning asosiy maqsadi o‘quvchilar o‘rtasidagi farqlarni bartaraf etish emas, balki har bir o‘quvchining mavjud imkoniyatidan kelib chiqib, ta’lim mazmunini samarali o‘zlashtirishiga sharoit yaratishdan iborat.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

Differensial yondashuv o‘quvchilarning individual va guruhiy xususiyatlarini hisobga olgan holda ta’lim jarayonini tashkil etishni nazarda tutadi. Bunda o‘qituvchi bir xil o‘quv maqsadiga turli usullar va topshiriqlar orqali erishishga harakat qiladi.

Masalan, biror grammatik mavzuni o‘rganishda barcha o‘quvchilar mavzuning asosiy mazmunini egallashi kerak. Biroq topshiriqlarni bajarish jarayonida ularga turli darajadagi vazifalar berilishi mumkin. Bir o‘quvchi tayyor gaplardan kerakli so‘zlarni topib belgilasa, ikkinchi o‘quvchi shu so‘zlarni guruhlarga ajratadi, uchinchi o‘quvchi esa o‘zi gap tuzib, grammatik hodisani izohlaydi.

Bunday yondashuvda differensial ishlash o‘quvchini “kuchli” yoki “kuchsiz” deb baholashga emas, balki uning hozirgi ta’limiy ehtiyojini aniqlashga asoslanishi kerak. O‘quvchining natijalari muntazam kuzatilib, uning rivojlanishiga qarab topshiriqlar darajasi o‘zgartirib boriladi.

Ona tili darslarining turli bosqichlarida differensial ishlash.

Ona tili darsida differensial yondashuvni faqat yangi mavzuni mustahkamlash jarayonida emas, balki darsning barcha bosqichlarida qo‘llash mumkin.

Tashkiliy va motivatsion bosqichda o‘quvchilarning mavzuga qiziqishini oshirish maqsadida turli darajadagi savollar beriladi. Masalan, oddiy savollar bilan bir qatorda o‘quvchini fikrlashga undovchi savollar ham qo‘llanadi.

O‘tilgan mavzuni takrorlash bosqichida qisqa test, og‘zaki savol-javob, so‘z va gaplarni tahlil qilish kabi topshiriqlardan foydalaniladi. O‘quvchilarning javoblari asosida o‘qituvchi yangi mavzuni tushuntirishda kimga ko‘proq yordam kerakligini aniqlaydi.

Yangi mavzuni tushuntirish jarayonida ko‘rgazmali materiallar, misollar va sodda savollardan foydalanish qo‘shimcha yordamga ehtiyoj sezadigan o‘quvchilar uchun qulaylik yaratadi. Mavzuni tez o‘zlashtiradigan o‘quvchilarga esa mustaqil xulosa chiqarish yoki qo‘shimcha misollar topish vazifasi berilishi mumkin.

Mustahkamlash bosqichida differensial topshiriqlar ayniqsa samarali hisoblanadi. O‘quvchilar bilim darajasiga mos ravishda turli topshiriqlarni bajaradilar. Yakuniy bosqichda esa o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasi aniqlanib, keyingi dars uchun individual va guruhiy vazifalar belgilanadi.

Topshiriqlarni murakkablik darajasiga ko‘ra tabaqalashtirish.

Differensial ishlashning eng qulay shakllaridan biri topshiriqlarni uch darajaga ajratishdir.

Birinchi daraja — reproduktiv topshiriqlar. Bunda o‘quvchi o‘rgangan bilimini tanish vaziyatda qo‘llaydi. Masalan, gapdagi otlarni aniqlash, berilgan so‘zlardan sifatlarni topish, so‘zlarni bo‘g‘inlarga ajratish yoki gap oxiriga tegishli tinish belgisini qo‘yish.

Ikkinchi daraja — amaliy topshiriqlar. Bunda o‘quvchi o‘z bilimidan foydalanib mustaqil amal bajaradi. Masalan, berilgan so‘zlar ishtirokida gap tuzish, gapdagi so‘z turkumlarini aniqlash, xatolarni topib tuzatish yoki berilgan gapni kengaytirish.

Uchinchi daraja — ijodiy topshiriqlar. Bunday topshiriqlar o‘quvchining mustaqil fikrlashini talab qiladi. Masalan, berilgan rasm asosida kichik matn tuzish, hikoyani davom

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

ettirish, matnga mos sarlavha tanlash va sababini tushuntirish, ma'lum so‘z turkumlaridan foydalanib ijodiy matn yaratish.

Ushbu tizim o‘quvchilarga o‘z imkoniyatiga mos topshiriqni bajarish bilan birga, keyingi darajadagi vazifaga intilish imkonini beradi.

Differensial ishlashda matn ustida ishlash.

Ona tili darslarida matn bilan ishlash differensial yondashuv uchun katta imkoniyat yaratadi. Bir xil matn asosida o‘quvchilarga turlicha vazifalar berish mumkin.

Masalan, bir guruh o‘quvchilari matndan otlarni topadi. Ikkinchi guruh matndagi fe'llarni aniqlaydi va ularni alohida yozadi. Uchinchi guruh esa matn mazmunini tahlil qilib, unga sarlavha tanlaydi va asosiy fikrni aniqlaydi.

Matnni o‘qishda ham individual yondashuv zarur. O‘qishda qiynalayotgan o‘quvchiga hajmi kichikroq va mazmuni sodda matn berilishi, o‘qish tezligi yaxshi bo‘lgan o‘quvchiga esa mazmunan murakkabroq matn bilan ishlash taklif etilishi mumkin.

Matn asosida savollarni ham turlicha tashkil etish mumkin. Dastlab matnda bevosita mavjud ma'lumotni topishga qaratilgan savollar beriladi. Keyinchalik sabab-oqibatni aniqlash, xulosa chiqarish va o‘z fikrini asoslashga qaratilgan savollarga o‘tiladi.

O‘quvchilarga invidual yordam ko‘rsatish.

Differensial ta'limning muhim jihatlaridan biri o‘quvchiga zarur paytda individual yordam ko‘rsatishdir. O‘qituvchi topshiriqni o‘quvchi o‘rniga bajarib bermasligi, balki uni mustaqil yechimga olib boruvchi savol yoki ko‘rsatma berishi maqsadga muvofiq.

Masalan, o‘quvchi gapdagi so‘z turkumini aniqlashda qiynalsa, o‘qituvchi darhol javobni aytmasdan, “Bu so‘z nimani bildiradi?”, “U qanday so‘roqqa javob bo‘ladi?” kabi yo‘naltiruvchi savollar berishi mumkin.

Imlo xatolarini tuzatishda ham shunday usuldan foydalaniladi. O‘quvchiga xatoning o‘zi ko‘rsatilmay, balki qaysi qoidani eslash kerakligi haqida savol berish orqali uning o‘zi xatosini topishiga sharoit yaratiladi.

Bunday yondashuv o‘quvchining mustaqil fikrlashini rivojlantirib, uni o‘qituvchi yordamiga haddan tashqari bog‘lanib qolishdan saqlaydi.

Guruhli va juftlikdagi differensial ishlar.

Boshlang‘ich sinf ona tili darslarida juftlik va kichik guruhlarda ishlash differensial yondashuvni samarali tashkil etish imkonini beradi. O‘qituvchi guruhlarni shakllantirishda o‘quvchilarning bilim darajasi va topshiriqning maqsadini hisobga oladi.

Masalan, bir guruhga so‘zlarni so‘z turkumlariga ajratish, ikkinchi guruhga gap tuzish, uchinchi guruhga esa kichik matn yaratish topshirilishi mumkin.

Juftlikda ishlash jarayonida o‘quvchilar bir-birining javobini tekshirishi, xatolarni aniqlashi va fikr almashishi mumkin. Bu usul nafaqat fan bo‘yicha bilimlarni, balki hamkorlik va muloqot ko‘nikmalarini ham rivojlantiradi.

Shu bilan birga, guruhlarni doimiy ravishda bir xil tarkibda tashkil etish shart emas. Dars maqsadi va o‘quvchilarning rivojlanishiga qarab guruh tarkibini o‘zgartirib borish mumkin.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

Differensial yondoshuv asosida baholash.

Differensial ishlashda baholash ham o‘quvchining individual rivojlanishini hisobga olishi lozim. O‘qituvchi faqat to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri javobni qayd etish bilan cheklanmasdan, o‘quvchining topshiriqni bajarishdagi harakatini, mustaqilligini va oldingi natijasiga nisbatan o‘zgarishini ham kuzatishi kerak.

Masalan, avval gap tuzishda qiynalgan o‘quvchi keyinchalik mustaqil ravishda mazmunli gap tuza boshlasa, bu uning rivojlanish ko‘rsatkichi sifatida e’tirof etiladi.

Baholashda o‘quvchiga qisqa va aniq fikr-mulohaza berish ham muhim. Topshiriqni bajarishdagi kuchli jihatni ko‘rsatish bilan birga, keyingi faoliyat uchun aniq tavsiya berish o‘quvchining rivojlanishiga yordam beradi.

Differensial ishlashning kutiladigan natijalari.

Ona tili darslarida differensial yondashuv muntazam va maqsadli tashkil etilganda o‘quvchilarning ona tili faniga bo‘lgan qiziqishi ortadi, bilim va ko‘nikmalarni mustahkamlash imkoniyati kengayadi, mustaqil ishlash va fikrlash ko‘nikmalari rivojlanadi.

Shuningdek, o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqi takomillashadi, o‘qituvchi har bir o‘quvchining ta’limiy ehtiyojini yaxshiroq aniqlaydi va o‘zlashtirishdagi mavjud qiyinchiliklarni o‘z vaqtida aniqlash imkoniyati paydo bo‘ladi.

Eng muhimi, differensial yondashuv o‘quvchilarni bir-biri bilan taqqoslashga emas, balki har bir o‘quvchining o‘z imkoniyatlari doirasida rivojlanishiga yo‘naltiriladi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich sinf ona tili darslarida differensial ishlash ta’lim samaradorligini oshirishning muhim metodik vositalaridan biridir. O‘quvchilarning bilim darajasi, o‘zlashtirish sur’ati, qiziqishi va individual ehtiyojlarini hisobga olish dars jarayonining samarali tashkil etilishiga xizmat qiladi.

Differensial yondashuvdan foydalanishda o‘qituvchi, avvalo, o‘quvchilarni muntazam kuzatishi va ularning bilim darajasini aniqlashi lozim. Shundan so‘ng topshiriqlarni murakkablik darajasiga ko‘ra tabaqalashtirish, individual yordam ko‘rsatish, guruhli va juftlikdagi faoliyatni tashkil etish hamda o‘quvchilarning rivojlanish dinamikasini hisobga olgan holda baholash maqsadga muvofiq.

Ona tili darslarida bunday metodik yondashuvdan foydalanish o‘quvchilarning grammatik va imloviy bilimlarini mustahkamlash bilan birga, ularning mustaqil fikrlashi, nutqiy faolligi va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi. Shuning uchun boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi darsni rejalashtirish jarayonida differensial topshiriqlar tizimini ishlab chiqishi va undan o‘quvchilarning real ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda foydalanishi zarur.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni.
2. Boshlang‘ich ta’lim bo‘yicha davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturlari.
3. Boshlang‘ich sinflar uchun ona tili darsliklari va o‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanmalar.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

4. Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. — Toshkent.
5. Tolipov O‘.Q., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. — Toshkent.
6. Ishmuhamedov R. Innovatsion pedagogik texnologiyalar. — Toshkent.

© intereduglobalstudy.com

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

GERMANIYA DAVLATCHILIGINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI: TARIXIY-TAHLILIY NIGOH.

Nishonova Xolida Xayriddin qizi, Buxoro viloyati, Buxoro tumanidagi 3-sonli maktab o‘qituvchisi.
xolidanishonova42@gmail. com

Annotatsiya

KIRISH: mazkur maqolada Germaniya davlatchiligining shakllanishi va tarixiy taraqqiyoti asosiy siyosiy burilishlar nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Tadqiqotda Sharqiy Frank qirolligining shakllanishidan boshlab Muqaddas Rim imperiyasi davri, Reformatsiya va O‘ttiz yillik urush, Prussiyaning siyosiy kuch sifatida yuksalishi, XIX asrda Germaniyaning birlashuvi, Veymar Respublikasi va natsistlar diktaturasi, Ikkinchi jahon urushidan keyingi ikki Germaniyaning vujudga kelishi hamda 1990-yildagi qayta birlashuv jarayonlari izchil ko‘rib chiqiladi. Alohida e’tibor nemis yerlaridagi uzoq davom etgan siyosiy parokandalikning sabablari, Prussiya va Avstriya o‘rtasidagi raqobatning birlashuv jarayoniga ta’siri hamda XX asr tajribasining zamonaviy federal tuzum shakllanishidagi o‘rniga qaratiladi. Tahlil natijasida Germaniya davlatchiligi bir martalik siyosiy akt emas, balki markazlashuv, hududiy avtonomiya, milliy birlik va demokratik boshqaruv o‘rtasidagi murakkab tarixiy munosabatlar natijasida shakllangan jarayon ekanligi ko‘rsatiladi.

MAQSAD: Germaniya davlatchiligining shakllanishi va tarixiy taraqqiyotini asosiy siyosiy burilish nuqtalari orqali tahlil qilish hamda hududiy parokandalikdan zamonaviy federal davlatgacha bo‘lgan jarayonning sabab va oqibatlarini ochib berishdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda tarixiy-qiyosiy, tizimli va xronologik tahlil usullaridan foydalanildi. Ilmiy ishda Sharqiy Frank qirolligi davridan boshlab Muqaddas Rim imperiyasi, Islohotlar (Reformatsiya), O‘ttiz yillik urush, Prussiya va Avstriya raqobati, 1871-yildagi birlashuv, Veymar Respublikasi, natsistlar diktaturasi, Ikkinchi jahon urushidan keyingi bo‘linish hamda 1990-yildagi qayta birlashuv jarayonlariga oid manbalar tahlil qilindi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: Nemis yerlaridagi uzoq muddatli siyosiy tarqoqlik sabablari, Vestfaliya tinchlik shartnomasining huquqiy o‘rni, Prussiya yetakchiligida tashkil topgan Germaniya imperiyasining konstitutsiyaviy-monarxik tabiati hamda XX asr tajribasining modern davlat institutlariga ta’siri asoslandi. 1949-yildagi Asosiy qonun (Grundgesetz) orqali shakllangan 16 ta Länder (yerlar) va Bundes o‘rtasidagi vakolatlar taqsimotining tarixiy ildizlari ko‘rsatib berildi.

XULOSA: Germaniya davlatchiligi bir martalik siyosiy akt emas, balki markazlashuv, hududiy avtonomiya, milliy birlik va demokratik boshqaruv o‘rtasidagi murakkab tarixiy munosabatlar natijasidir. Tarixiy tajriba bugungi Germaniyaning federal va demokratik siyosiy tuzilishini tushunishda muhim nazariy-kontseptual asos bo‘lib xizmat qiladi.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

Kalit so‘zlar: Germaniya, nemis davlatchiligi, Muqaddas Rim imperiyasi, Ottonlar, Reformatsiya, O‘ttiz yillik urush, Vestfaliya tinchligi, Prussiya, Otto fon Bismark, Germaniya imperiyasi, Veymar Respublikasi, Berlin devori, federativ davlat.

ЭТАПЫ ФОРМИРОВАНИЯ И РАЗВИТИЯ ГЕРМАНСКОЙ ГОСУДАРСТВЕННОСТИ: ИСТОРИКО-АНАЛИТИЧЕСКИЙ ВЗГЛЯД.

Нишонова Холида Хайриддин кизи, учитель школы № 3 Бухарского района Бухарской области.

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: данной статье анализируется формирование и историческое развитие германской государственности с точки зрения ключевых политических переломов. В исследовании последовательно рассматриваются процессы, начиная от образования Восточно-Франкского королевства, периода Священной Римской империи, Реформации и Тридцатилетней войны, возвышения Пруссии как политической силы, объединения Германии в XIX веке, Веймарской республики и нацистской диктатуры, возникновения двух германских государств после Второй мировой войны до процессов воссоединения 1990 года. Особое внимание уделяется причинам длительной политической раздробленности на немецких землях, влиянию соперничества между Пруссией и Австрией на процесс объединения, а также роли опыта XX века в формировании современного федеративного устройства. В результате анализа показано, что германская государственность — это не одноразовый политический акт, а процесс, сформировавшийся в результате сложных исторических отношений между централизацией, территориальной автономией, национальным единством и демократическим управлением.

ЦЕЛЬ: комплексный историко-аналитический анализ основных этапов становления и развития германской государственности от средневековых институтов до современного федеративного устройства.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании использованы методы историко-сравнительного, системного и хронологического анализа источников и научной литературы. Рассмотрены ключевые исторические вехи: образование Восточно-Франкского королевства, Священная Римская империя, Реформация, Тридцатилетняя война, возвышение Пруссии, объединение 1871 года, Веймарская республика, нацистская диктатура, период существования двух германских государств (ФРГ и ГДР) и воссоединение 1990 года.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: раскрыты причины полицентризма германских земель, значение Вестфальского мира, роль соперничества Пруссии и Австрии, а также влияние кризисов XX века на трансформацию политической системы. Продемонстрировано, что современная федеративная модель из 16

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

земель (Länder) и разграничение полномочий по Основному закону 1949 года являются закономерным результатом исторического развития.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: становление германской государственности представляет собой не разовый политический акт, а длительный процесс балансирования между централизацией, региональной автономией и демократическим управлением. Этот исторический опыт служит основой для понимания современного федеративного устройства Германии.

Ключевые слова: Германия, германская государственность, Священная Римская империя, Оттоны, Реформация, Тридцатилетняя война, Вестфальский мир, Пруссия, Отто фон Бисмарк, Германская империя, Веймарская республика, Берлинская стена, федеративное государство.

THE FORMATION AND DEVELOPMENT STAGES OF GERMAN STATEHOOD: A HISTORICAL-ANALYTICAL PERSPECTIVE.

Nishonova Kholida Khayriddin qizi, Teacher at School No. 3, Bukhara District, Bukhara Region.

Annotation

INTRODUCTION: this article analyzes the formation and historical development of German statehood from the perspective of major political turning points. The study consistently examines key processes starting from the formation of the East Francian Kingdom, the period of the Holy Roman Empire, the Reformation and the Thirty Years' War, the rise of Prussia as a political power, the unification of Germany in the 19th century, the Weimar Republic and the Nazi dictatorship, the emergence of the two German states after World War II, and the reunification process in 1990. Particular attention is paid to the causes of long-standing political fragmentation in the German lands, the impact of the rivalry between Prussia and Austria on the unification process, and the role of 20th-century experience in shaping the modern federal system. As a result of the analysis, it is demonstrated that German statehood was not a single political event, but a process formed as a result of complex historical relationships between centralization, territorial autonomy, national unity, and democratic governance.

AIM: to analyze the formation and historical trajectory of German statehood through key political turning points and to examine the transition from regional fragmentation to a modern federal state.

MATERIALS AND METHODS: the study employed historical-comparative, systemic, and chronological analysis methods. It chronologically reviews pivotal developments from the East Francian Kingdom and the Holy Roman Empire to the Reformation, Thirty Years' War, rise of Prussia, 1871 unification, Weimar Republic, Nazi dictatorship, Cold War division into FRG and GDR, and the 1990 reunification.

DISCUSSION AND RESULTS: the analysis illuminates the structural causes of political fragmentation, the balancing mechanism of the Peace of Westphalia, Prussian-

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

Austrian rivalry, and the lessons of 20th-century democratic and totalitarian regimes. It establishes how historical regional diversity directly shaped the constitutional design of modern German federalism and the distribution of powers between the Bund and the 16 Länder under the Basic Law.

CONCLUSION: German statehood is not a single historical event but a continuous process resulting from intricate interactions between centralization, territorial autonomy, national unity, and democratic governance. This historical trajectory underpins the structural organization of contemporary Germany's democratic federal system.

Keywords: Germany, German statehood, Holy Roman Empire, Ottonians, Reformation, Thirty Years' War, Peace of Westphalia, Prussia, Otto von Bismarck, German Empire, Weimar Republic, Berlin Wall, federal state.

Germaniya tarixini o‘rganish Yevropadagi milliy davlatlarning shakllanish jarayonlarini tushunish uchun alohida ahamiyatga ega. Chunki Germaniya hududida zamonaviy milliy davlatning shakllanishi Fransiya yoki Angliyadagi jarayonlardan farqli ravishda uzoq vaqt davom etgan hududiy-siyosiy bo‘linishlar sharoitida kechgan. Nemis yerlarida turli knyazliklar, qirolliklar, erkin shaharlar va cherkov hududlari uzoq vaqt davomida o‘z siyosiy manfaatlarini saqlab qolgan. Shu sababli “Germaniya” tushunchasi tarixning turli davrlarida bir xil siyosiy mazmunga ega bo‘lmagan.

Germaniya davlatchiligining rivojlanishini faqat 1871-yildagi birlashuvdan boshlash tarixiy jarayonning muhim bosqichlarini chetda qoldiradi. Uning ildizlari o‘rta asrlardagi Sharqiy Frank qirolligi va Ottonlar davriga, keyinchalik esa Muqaddas Rim imperiyasi tarkibida rivojlangan siyosiy institutlarga borib taqaladi. Shu nuqtayi nazardan, Germaniya tarixini bir necha o‘zaro bog‘liq bosqichlar asosida ko‘rib chiqish maqsadga muvofiqdir.

Mazkur maqolaning maqsadi — Germaniya davlatchiligining tarixiy evolyutsiyasini asosiy siyosiy burilishlar orqali tahlil qilish hamda hududiy parokandalikdan zamonaviy federativ davlatgacha bo‘lgan jarayonning sabab va oqibatlarini ochib berishdir.

1. Ilk siyosiy shakllanish va Muqaddas Rim imperiyasi

Germaniya hududidagi siyosiy taraqqiyot franklar davlatining rivojlanishi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan. 843-yildagi Verden shartnomasi natijasida Buyuk Karl imperiyasi uch qismga bo‘lindi va Sharqiy Frank qirolligi vujudga keldi. Keyingi asrlarda aynan shu hudud nemis yerlaridagi siyosiy institutlarning shakllanishi uchun muhim asos bo‘lib xizmat qildi.

X asrda Saksonlar sulolasi vakili Otto I nemis knyazliklari ustidan o‘z ta’sirini mustahkamladi. 962-yil 2-fevralda uning Rimda imperator sifatida toj kiyishi keyinchalik Muqaddas Rim imperiyasi deb atalgan siyosiy tuzum tarixidagi muhim bosqich bo‘ldi. Biroq mazkur imperiyani zamonaviy milliy davlat tushunchasi bilan tenglashtirish to‘g‘ri emas. U bugungi Germaniya hududidan tashqari, turli davrlarda Italiya, Chexiya va boshqa hududlarning ayrim qismlarini ham qamrab olgan murakkab siyosiy tuzilma edi.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

Imperiyaning o‘ziga xos jihati shundaki, imperator hokimiyati mahalliy knyazlar, ruhoniylar va boshqa hududiy siyosiy kuchlar bilan doimiy muvozanatda faoliyat yuritgan. Natijada nemis yerlarida markazlashgan davlat boshqaruvi nisbatan sekin shakllandi. Keyinchalik bu siyosiy an’ana Germaniya tarixida federalizm va hududiy avtonomiya elementlarining rivojlanishiga ham ta’sir ko‘rsatgan.

Muqaddas Rim imperiyasi 1806-yilgacha mavjud bo‘lib, uning siyosiy tuzilishi nemis yerlarining uzoq vaqt davomida yagona markaziy davlatga birlashmaganining asosiy tarixiy omillaridan biri bo‘ldi.

2. Reformatsiya, konfessional bo‘linish va O‘ttiz yillik urush

XVI asr Germaniya tarixida nafaqat diniy, balki siyosiy o‘zgarishlar davri sifatida ham muhim o‘rin egallaydi. 1517-yilda Martin Lyuterning Reformatsiya harakatini boshlab berishi nemis jamiyatidagi mavjud diniy va siyosiy munosabatlarga jiddiy ta’sir ko‘rsatdi.

Reformatsiya natijasida nemis yerlarida katolik va protestant hududlar o‘rtasidagi tafovut kuchaydi. Diniy qarama-qarshiliklar vaqt o‘tishi bilan hukmdorlarning siyosiy manfaatlari bilan qo‘shilib ketdi. Shu tariqa konfessional masala davlatlararo raqobatning muhim omillaridan biriga aylandi.

Jarayonning eng keskin bosqichi 1618–1648-yillardagi O‘ttiz yillik urush bo‘ldi. Urush dastlab Bohemiya hududidagi siyosiy-diniy qarama-qarshilik sifatida boshlangan bo‘lsa-da, keyinchalik Yevropaning yirik davlatlari ishtirokidagi keng ko‘lamli mojaroga aylandi. 1648-yilda Myunster va Osnabrukda tuzilgan Vestfaliya tinchlik bitimlari ushbu urushni yakunlash bilan birga Muqaddas Rim imperiyasidagi hududiy va siyosiy munosabatlarni ham qayta tartibga soldi.

Shu sababli Vestfaliya tinchligini Germaniya tarixida markazlashuvga qarshi oddiy “parokandalikning huquqiy tasdig‘i” sifatida baholash yetarli emas. U imperiya tarkibidagi turli siyosiy subyektlarning huquq va manfaatlarini muvozanatlashtirishga qaratilgan murakkab siyosiy kelishuvlar tizimi edi.

3. Prussiyaning kuchayishi va Germaniyaning birlashuvi

XVIII asrga kelib nemis yerlaridagi siyosiy raqobatning asosiy o‘qlaridan biri Prussiya va Avstriya o‘rtasidagi qarama-qarshilik bo‘ldi. Ayniqsa, Prussiyaning harbiy, ma’muriy va iqtisodiy salohiyatining ortishi uning nemis yerlaridagi siyosiy mavqeini sezilarli darajada kuchaytirdi.

XIX asrning birinchi yarmida Napoleon urushlari nemis hududlarining siyosiy xaritasiga katta ta’sir ko‘rsatdi. Muqaddas Rim imperiyasining 1806-yilda tugatilishi nemis davlatlarining keyingi siyosiy rivojlanishi uchun yangi sharoit yaratdi. Shu davrda milliy birlik g‘oyasi tobora kuchaydi. 1848–1849-yillardagi inqilobiy jarayonlar umumgermaniya siyosiy birligini yaratish imkoniyatini ko‘rsatgan bo‘lsa-da, bu urinish muvaffaqiyat bilan yakunlanmadi.

1862-yilda Otto fon Bismark Prussiya bosh vaziri lavozimiga kelgach, Germaniyaning birlashuvi jarayonida Prussiyaning yetakchiligini kuchaytirishga kirishdi. 1866-yildagi Prussiya-Avstriya urushi natijasida Avstriyaning nemis siyosiy masalalaridagi mavqei

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

keskin kamaydi. Shundan so‘ng Shimoliy Germaniya ittifoqi tashkil etildi. Bu tuzilma avvalgi Germaniya ittifoqidan ko‘ra yuqoriroq darajadagi siyosiy va konstitutsiyaviy integratsiyani ifodalardi.

1870–1871-yillardagi Fransiya-Prussiya urushi esa Germaniyaning janubiy davlatlarini ham yangi siyosiy tuzilma atrofida birlashtirish jarayonini tezlashtirdi. 1871-yil 18-yanvarda Versal saroyining Ko‘zgular zalida Prussiya qiroli Vilgelm I Germaniya imperatori deb e’lon qilindi. Germaniya imperiyasi konstitutsiyaviy-monarxik federal davlat sifatida shakllandi.

4. Imperiyadan Veymar Respublikasigacha

1871-yildan keyingi davr Germaniya uchun tezkor sanoatlashuv, urbanizatsiya va ijtimoiy o‘zgarishlar bilan xarakterlandi. Bir tomondan, yangi imperiya Yevropadagi yirik iqtisodiy va siyosiy kuchlardan biriga aylandi; ikkinchi tomondan, davlat ichida monarxiya, parlament, ishchilar harakati va yangi siyosiy kuchlar o‘rtasidagi ziddiyatlar saqlanib qoldi.

Birinchi jahon urushi Germaniya imperiyasining siyosiy tizimini tubdan o‘zgartirdi. 1918-yilda imperiya tugadi va noyabr inqilobi natijasida monarxiya o‘rnini parlament demokratiyasiga asoslangan respublika egalladi. 1919-yilda qabul qilingan Veymar Konstitutsiyasi Germaniyada yangi siyosiy-huquqiy tizimni shakllantirdi.

Veymar Respublikasi demokratik institutlarni joriy etgan bo‘lsa-da, uning mavjudligi siyosiy va iqtisodiy beqarorlik sharoitida kechdi. Urushdan keyingi iqtisodiy muammolar, Versal shartnomasi bilan bog‘liq majburiyatlar, siyosiy radikallashuv va 1929-yildan keyingi Buyuk depressiya respublika siyosiy tizimiga kuchli bosim o‘tkazdi.

1933-yil 30-yanvarda Adolf Gitlerning kansler etib tayinlanishi bilan Veymar Respublikasining siyosiy inqirozi yangi bosqichga o‘tdi. Natsistlar demokratik tizimning mavjud mexanizmlaridan foydalanib hokimiyatga kelganidan keyin qisqa vaqt ichida parlament demokratiyasini yo‘q qila boshladilar.

5. Natsistlar diktaturasi va Ikkinchi jahon urushi

1933–1945-yillar Germaniya tarixining eng fojiali davrlaridan biridir. Natsistlar hokimiyatni markazlashtirib, siyosiy muxolifatni yo‘q qildilar, asosiy fuqarolik huquqlarini chekladilar va irqiy-diskriminatsion siyosatni davlat siyosatining markaziga aylantirdilar.

Natsistlar rejimining tashqi siyosati agressiv ekspansiyaga yo‘naltirildi va 1939-yilda Ikkinchi jahon urushining boshlanishiga olib kelgan omillardan biri bo‘ldi. Urush jarayonida natsistlar tomonidan amalga oshirilgan Xolokost millionlab yahudiylarning, shuningdek boshqa ta’qib qilingan guruhlarning qirg‘in qilinishiga olib keldi.

1945-yilda Germaniyaning mag‘lubiyati bilan natsistlar davri tugadi. Shu tariqa Germaniya davlatchiligi tarixida yangi bosqich boshlandi: mamlakat hududi ishg‘ol zonalariga bo‘lindi va uning kelajakdagi siyosiy tuzilishi xalqaro kuchlar o‘rtasidagi qarama-qarshilik bilan chambarchas bog‘landi.

6. Ikki Germaniyaning shakllanishi

Ikkinchi jahon urushidan keyingi xalqaro tizimning shakllanishi Germaniyaning siyosiy jihatdan ikki davlatga bo‘linishiga olib keldi. 1949-yilda g‘arbiy ishg‘ol zonalarida

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

Germaniya Federativ Respublikasi, sovet ishg‘ol zonasida esa Germaniya Demokratik Respublikasi tashkil etildi.

GFR parlament demokratiyasi va federal boshqaruv tizimiga asoslandi. 1949-yil 23-mayda kuchga kirgan Asosiy qonun davlat tuzilishining federal tamoyilini mustahkamladi. Hozirgi Germaniya federal tizimida Bund va Länder o‘rtasida vakolatlar konstitutsiyaviy asosda taqsimlangan.

GDR esa sovet siyosiy-iqtisodiy modeliga asoslangan sotsialistik davlat sifatida rivojlandi. Natijada bir xalq va bir tarixiy makonga mansub ikki nemis davlati qariyb qirq yil davomida turli siyosiy va iqtisodiy tizimlarda yashadi.

1961-yilda Berlin devorining qurilishi Germaniya bo‘linishining eng ko‘zga ko‘ringan ramziga aylandi. Berlinning ikki qismga ajratilishi nafaqat nemis xalqining, balki butun Yevropaning Sovuq urush davridagi siyosiy bo‘linishini ifodaladi.

7. Berlin devorining qulashi va Germaniyaning qayta birlashuvi

1980-yillarning oxiriga kelib Sharqiy Yevropadagi siyosiy o‘zgarishlar GDRdagi jarayonlarga ham ta’sir ko‘rsatdi. 1989-yilda ommaviy tinch namoyishlar, siyosiy bosim va chegaralarning ochilishi Germaniyaning bo‘linish tizimini zaiflashtirdi.

1989-yil 9-noyabrda Berlin devoridagi chegara o‘tish punktlarining ochilishi Germaniya tarixida yangi bosqichni boshlab berdi. Keyingi bir yil ichida Germaniyaning qayta birlashuvi bo‘yicha siyosiy va huquqiy jarayonlar amalga oshirildi. 1990-yil 31-avgustda Birlashish shartnomasi imzolandi, 12-sentabrda esa “Ikki plus to‘rt” shartnomasi Germaniyaning tashqi-huquqiy maqomini yakuniy tartibga solishga xizmat qildi.

1990-yil 3-oktabrda Germaniya Demokratik Respublikasining Germaniya Federativ Respublikasiga qo‘shilishi kuchga kirdi va Germaniyaning siyosiy birligi tiklandi. Shu sana bugungi kunda Germaniyaning Milliy birligi kuni sifatida nishonlanadi.

8. Zamonaviy Germaniya: tarixiy tajriba va federal model

1990-yildan keyingi Germaniya davlatchiligi avvalgi tarixiy tajribalarning bir necha jihatlarini o‘zida mujassamlashtirdi. Zamonaviy Germaniya yagona davlat bo‘lishiga qaramay, siyosiy boshqaruvda hududiy birliklarning huquq va vakolatlarini saqlab qolgan federal davlat sifatida faoliyat yuritadi. Bugungi Federal Respublikada 16 ta Länder mavjud bo‘lib, federal hokimiyat va yerlar o‘rtasidagi vakolatlar Asosiy qonun bilan belgilanadi. Federalizm Germaniya siyosiy tizimining asosiy konstitutsiyaviy tamoyillaridan biri hisoblanadi.

Mazkur tizimning shakllanishini Germaniyaning tarixiy tajribasidan ajratib ko‘rish qiyin. O‘rta asrlardagi hududiy xilma-xillik, Muqaddas Rim imperiyasidagi ko‘p markazlilik, XIX asrda federal imperiyaning tashkil topishi, Veymar davridagi demokratik tajriba va Ikkinchi jahon urushidan keyingi siyosiy qayta qurilish zamonaviy federal tuzumning shakllanishiga turli darajada ta’sir ko‘rsatdi.

Germaniya davlatchiligining rivojlanishi bir necha asr davom etgan murakkab siyosiy jarayon sifatida namoyon bo‘ladi. Uning tarixida hududiy parokandalik, imperiyaviy boshqaruv, diniy bo‘linish, monarxik markazlashuv, milliy birlashuv, demokratik tajriba,

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

diktatura va nihoyat federal-demokratik davlat shakllanishi kabi bir-biridan farq qiluvchi bosqichlar mavjud.

Tahlil shuni ko‘rsatadiki, 1871-yildagi Germaniya imperiyasining tashkil topishi nemis milliy davlatining shakllanishida hal qiluvchi burilish bo‘lgan bo‘lsa-da, zamonaviy Germaniya davlatchiligi aynan shu voqea bilan yakunlangan jarayon emas. Aksincha, 1918-yildagi monarxiyaning tugashi, 1933–1945-yillardagi diktatura tajribasi, 1949-yildagi ikki Germaniyaning tashkil topishi va 1990-yildagi qayta birlashuv zamonaviy davlat institutlarining shakllanishida alohida bosqichlarni tashkil etdi.

Bugungi Germaniyaning federal tuzilishi ham tarixiy jarayonning uzviy davomi sifatida qaralishi mumkin. Asosiy qonun Bund va Länder o‘rtasidagi vakolatlarni taqsimlaydi hamda federalizmni davlat tuzilishining asosiy prinsiplaridan biri sifatida belgilaydi.

Shunday qilib, Germaniya tajribasi davlatchilikning yagona va o‘zgarmas model emasligini ko‘rsatadi. Nemis siyosiy tizimi asrlar davomida turli markazlashuv shakllari, hududiy manfaatlar va umumdavlat institutlari o‘rtasidagi munosabatlar asosida shakllangan. Aynan shu tarixiy tajriba bugungi Germaniyaning federal va demokratik siyosiy tuzilishini tushunishda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Fulbrook, M. (2019). A Concise History of Germany. 3rd ed. Cambridge: Cambridge University Press. DOI: 10.1017/9781108289900.
2. Blackbourn, D. (2002). History of Germany, 1780–1918: The Long Nineteenth Century. 2nd ed. Oxford: Wiley-Blackwell.
3. Nipperdey, T. (1996). Germany from Napoleon to Bismarck: 1800–1866. Princeton: Princeton University Press.
4. Wehler, H.-U. (1985). The German Empire, 1871–1918. Oxford: Berg Publishers.
5. Deutsches Historisches Museum. LeMO: Die Reichsgründung 1871. Berlin: German Historical Museum.
6. Deutscher Bundestag. The Weimar Republic (1918–1933). Berlin: German Bundestag.
7. United States Holocaust Memorial Museum. The Weimar Republic. Holocaust Encyclopedia.
8. United States Holocaust Memorial Museum. The Nazi Rise to Power. Holocaust Encyclopedia.
9. Deutscher Bundestag. Basic Law for the Federal Republic of Germany (Grundgesetz).
10. Deutscher Bundestag. Competencies of the German Federation and the Länder.
11. Die Bundesregierung. Chronik der Deutschen Einheit: 1989/1990.
12. German History in Documents and Images. Europe in 1648: The Peace of Westphalia.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

GAMIFICATION IN TEACHING ENGLISH VOCABULARY TO PRIMARY SCHOOL LEARNERS: A QUASI EXPERIMENTAL STUDY.

Ne'matova Madina Baxtiyor qizi, EFL teacher, Chirchik State Pedagogical University
madinanormurodova1116@gmail.com

Annotation

KIRISH: the study examines the effectiveness of gamification in teaching English vocabulary to primary school learners. There was conducted a quasi-experimental design with 40fourth-grade learners which were divided into an experimental group with 20 students and a control group with 20 students. While the experimental group was instructed with gamified activities involving challenges, points, group work, and rewards, the control group was instructed in the conventional way. The main focus is on learners' vocabulary performance and retention. The results showed that both groups were at the same level in the pre-test, and after four weeks of gamification-based learning, the experimental group showed a higher result than the control group showed in the post-test. After two weeks later, a retention test was conducted, and results were lower than the results of post-test, but the result of the experimental group was a slight decrease, not that bad rather than the control group resulted. According to the findings, gamification was associated with higher vocabulary performance and better short-term retention in the context of the observed classroom.

AIM: to evaluate the effectiveness of gamification in enhancing vocabulary acquisition and short-term retention among primary school learners.

MATERIALS AND METHODS: a quasi-experimental study was conducted with 40 fourth-grade students split into an experimental group ($n = 20$) and a control group ($n = 20$). Over four weeks, the experimental group was instructed using gamified elements (challenges, points, teamwork, rewards), while the control group received conventional instruction. Vocabulary performance and retention were measured using pre-test, post-test, and a two-week follow-up retention test.

DISCUSSION AND RESULTS: both groups showed identical baseline levels in the pre-test (33.3%). In the post-test, the experimental group achieved a 95% success rate compared to 65–70% in the control group. The retention test after two weeks revealed that the experimental group maintained a high level of vocabulary knowledge (90–92%), whereas the control group dropped to 60%.

CONCLUSION: integrating targeted game elements into language instruction fosters higher vocabulary performance and superior short-term retention in primary school classrooms.

Keywords: gamification, English vocabulary, vocabulary acquisition, primary school learners, quasi-experimental study, English language teaching.

© intereduglobalstudy.com

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

ГЕЙМИФИКАЦИЯ В ОБУЧЕНИИ АНГЛИЙСКОЙ ЛЕКСИКЕ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ: КВАЗИЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ.

Нематова Мадина Бахтиёр кизи, преподаватель английского языка Чирчикского государственного педагогического университета.

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в статье исследуется эффективность геймификации в обучении английской лексике учащихся начальной школы. В исследовании использовался квазиэкспериментальный дизайн с участием 40 учащихся четвертого класса, которые были разделены на экспериментальную группу из 20 учащихся и контрольную группу из 20 учащихся. Экспериментальная группа обучалась с использованием игровых элементов, включая задания, баллы, групповую работу и награды, тогда как контрольная группа обучалась традиционным способом. Основное внимание уделялось результатам усвоения лексики и ее сохранению. Результаты показали, что обе группы находились примерно на одинаковом уровне в предварительном тестировании, а после четырех недель обучения на основе геймификации экспериментальная группа показала более высокие результаты по сравнению с контрольной группой в итоговом тестировании. Через две недели был проведен тест на сохранение знаний. Результаты обеих групп были ниже по сравнению с итоговым тестированием, однако снижение результатов в экспериментальной группе было менее выраженным, чем в контрольной группе. Согласно полученным результатам, геймификация была связана с более высокими показателями усвоения английской лексики и лучшим краткосрочным сохранением изученных слов в условиях данного класса.

ЦЕЛЬ: оценка эффективности использования элементов геймификации в обучении английской лексике учащихся начальных классов и их влияния на долгосрочное запоминание изученных слов.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании использовался квазиэкспериментальный дизайн с участием 40 учащихся 4-х классов (20 человек — экспериментальная группа, 20 человек — контрольная группа). Экспериментальная группа обучалась в течение 4 недель с использованием геймифицированных заданий (баллы, челленджи, командная работа, награды), а контрольная группа — по традиционной методике. Оценка проводилась с помощью предварительного (pre-test), итогового (post-test) и отсроченного тестов (retention test).

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: при одинаковом начальном уровне (33,3%) в итоговом тестировании экспериментальная группа показала результат 95%, тогда как контрольная — 65–70%. Через две недели в тесте на сохранение знаний экспериментальная группа сохранила высокий показатель (90–92%), в то время как результат контрольной группы снизился до 60%.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: использование элементов геймификации способствует созданию активной учебной среды, повышает успешность усвоения английской лексики и обеспечивает более устойчивое краткосрочное запоминание слов.

Ключевые слова: геймификация, английская лексика, усвоение словарного запаса, учащиеся начальной школы, квазиэкспериментальное исследование, преподавание английского языка.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIGA INGLIZ TILI LUG‘ATINI O‘RGATISHDA GEJMIFIKATSIYA (O‘YINLASH TIZIMI): KVAZI-EKSPERIMENTAL TADQIQOT.

Ne’matova Madina Baxtiyor qizi, Chirchiq davlat pedagogika universiteti ingliz tili o‘qituvchisi.

Annotatsiya

KIRISH: ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ingliz tili lug‘at boyligini o‘rgatishda geymifikatsiyaning samaradorligi o‘rganiladi. Tadqiqotda 40 nafar to‘rtinchi sinf o‘quvchisi ishtirok etgan kvazi-eksperimental tadqiqot dizaynidan foydalanildi. O‘quvchilar 20 nafardan iborat tajriba guruhi va 20 nafardan iborat nazorat guruhiga ajratildi. Tajriba guruhiga topshiriqlar, ballar, guruhli ish va mukofotlarni o‘z ichiga olgan geymifikatsiyaga asoslangan faoliyatlar orqali ta’lim berildi, nazorat guruhiga esa an’anaviy usulda dars o‘tildi. Tadqiqotda asosiy e’tibor o‘quvchilarning lug‘atni o‘zlashtirish natijalari va o‘rganilgan so‘zlarni saqlab qolishiga qaratildi. Natijalar dastlabki testda har ikkala guruhning darajasi deyarli bir xil bo‘lganini ko‘rsatdi. To‘rt haftalik geymifikatsiyaga asoslangan ta’limdan so‘ng tajriba guruhi yakuniy testda nazorat guruhiga qaraganda yuqoriroq natija ko‘rsatdi. Ikki hafta o‘tgach, o‘zlashtirilgan bilimlarning saqlanib qolishini aniqlash maqsadida retention testi o‘tkazildi. Har ikkala guruh natijalari yakuniy testga nisbatan pasaygan bo‘lsa-da, tajriba guruhidagi pasayish nazorat guruhiga qaraganda kamroq bo‘ldi. Olingan natijalarga ko‘ra, geymifikatsiya mazkur sinf sharoitida ingliz tili lug‘at boyligini o‘zlashtirishning yuqoriroq natijalari va o‘rganilgan so‘zlarni qisqa muddat davomida yaxshiroq saqlab qolish bilan bog‘liq bo‘ldi.

MAQSAD: boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ingliz tili lug‘at boyligini va o‘rganilgan so‘zlarni xotirada saqlab qolish darajasini oshirishda geymifikatsiyaning samaradorligini baholashdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda 40 nafar 4-sinf o‘quvchisini qamrab olgan kvazi-eksperimental dizayndan foydalanildi (20 nafar tajriba guruhi, 20 nafar nazorat guruhi). Tajriba guruhi 4 hafta davomida topshiriqlar, ballar, guruhli ish va mukofotlarni o‘z ichiga olgan geymifikatsiya elementlari orqali, nazorat guruhi esa an’anaviy usulda o‘qitildi. O‘zlashtirish va bilimlarni saqlab qolish darajasi dastlabki (pre-test), yakuniy (post-test) va ikki haftadan keyingi (retention test) testlar orqali baholandi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: dastlabki testda har ikki guruh bir xil ko‘rsatkichni (33,3%) namoyon etgan bo‘lsa-da, yakuniy testda tajriba guruhi 95% natija ko‘rsatib,

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

nazorat guruhidan (65–70%) sezilarli darajada o‘zib ketdi. Ikki haftadan keyingi retention testida tajriba guruhi o‘z ko‘rsatkichini yuqori darajada saqlab qoldi (90–92%), nazorat guruhida esa bu ko‘rsatkich 60% ga tushib ketdi.

XULOSA: ta’lim jarayoniga geymifikatsiya elementlarini maqsadli joriy etish boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining lug‘atni o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarini va so‘zlarni qisqa muddatli xotirada saqlab qolish samaradorligini oshiradi.

Ключевые слова: geymifikatsiya, ingliz tili lug‘at boyligi, lug‘atni o‘zlashtirish, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari, kvazi-eksperimental tadqiqot, ingliz tilini o‘qitish

Vocabulary is an essential part of learning English, especially for primary learners who are developing the basic knowledge to understand and study the language. Nation (2001) says that vocabulary plays an important role in successful language learning and communication. However, learning vocabulary mainly requires repetition and memorization, and this process can sometimes be difficult and less engaging for young learners. According to Schmitt (2000) vocabulary learning requires repeated exposure and active practice to learn and practice words. Also, recent research showcases that according to Webb, Yanagisawa, & Uchihara (2020), although the effectiveness of intentional vocabulary-learning activities may vary depending on the type of activity and learning conditions, these activities can support vocabulary development. In this situation, one of the possible ways is the gamification. Sailor and Homner (2020), found that gamification can have positive effects on cognitive, motivational, and behavioral learning outcomes according to a meta-analysis of gamification in education. Game elements, such as challenges, teamwork, points, and rewards can be integrated into learning activities in language teaching. This study aims to examine the use of gamification in the experiment comparing two groups game instruction receiving-class and the conventional teaching receiving -class by comparing vocabulary performance and retention.

The quasi-experimental design was conducted with 40 fourth-grade learners from two classes, 20 participants are from class 4A served as the experimental group, and 20 participants are from class 4B served as the control group. The experiment lasted six weeks, with two 45-minute English lessons per week. In the first four weeks they were taught with the topics Fun Sports / I’m Good at… and Are You Good at…? The target was vocabulary teaching, and approximately 40 words were selected for assessment. It was clear that, about 50-60 % of these words had been introduced in previous grades. So, this means that most of these words were not completely unfamiliar to the learners. In this case, an oral pre-test was conducted before giving the instruction. Three questions were asked of each learner in each group, and each member in both groups answered about one correct answer on average by showing a similar initial level (33.3%).

While the experimental group was instructed with gamified activities, such as challenges, points, group work, and rewards, the control group was taught the same

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

vocabulary with the conventional instruction. After four weeks, both groups were assessed using a 40-item picture-based paper test, and a retention test was conducted to examine how well learners remembered the vocabulary.

Although both groups showed the same level of vocabulary knowledge at the beginning of the study, after four weeks of different teaching approaches, the results showed a difference between the experimental and control groups. The experimental group achieved higher results than the control group and maintained most of its vocabulary performance in the retention test after two weeks.

Test	Number of questions	4A Experimental group	4B Control Group
Pre-test	3 questions	1/3-33.3%	1/3-33.3%
Post-test	40 questions	38/40-95%	26-28/40--65-70%
Retention test	40 questions	36-37/40--90-92%	24/40-60%

The experimental group also participated actively in classroom observations, completed gamified tasks, and took part in group work by showing interest in the activities. The learners in group 4A (experimental group) retained most of the vocabulary learned during the process.

The results show that gamification improved vocabulary performance among the primary school learners compared with those who received conventional instruction. Although both two groups showed the same level in the pre-test with the average result of 33.3%, the experimental group showed a rise to 95%, compared to 65-70% in the control group. Also, in the retention test, the 4A class (experimental group) showed a result of 90-92% and nearly maintained its previous result after two weeks of the post-test, while the 4B class (control group) achieved around 60%. These results indicate that learners who were taught with gamified vocabulary activities were able to retain most of the words after two weeks.

Additionally, the gamification-based teaching method showed that learners participated actively, completed tasks on time, and showed interest in participating in vocabulary practice during classroom observations. This means that gamification can create a more engaging environment for learning and encourage students to the active participation.

The results, however, should be interpreted carefully as the experiment was taken between 40 learners only from two classes. Therefore, it shows the particular classroom context not the same effect of the whole primary school learners. That is why the results can not be generalized to all primary school learners without further research.

The findings suggest that gamification can be a useful methodological approach for teaching English vocabulary among primary school learners. As the study showed the experimental group performed at a higher level after the four-week instruction, and retained most of the words in the retention test conducted two weeks later. In the gamification-

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

integrated lessons, those experimental students were actively involved in gamified activities and completed the assigned tasks. That means that using game elements purposefully can create a more engaging learning environment, and encourage learners to participate in vocabulary practice. Overall, although, the practical evidence in the study shows that gamification may support learning vocabulary and retention among primary school learners, further research with larger groups and longer study periods is needed to check the effectiveness of the method in different educational contexts.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Nation, I. S. P. (2001). Learning vocabulary in another language. Cambridge University Press. https://doi.org/10.1017/CBO9781139524759
2. Schmitt, N. (2000). Vocabulary in language teaching. Cambridge University Press.
3. Webb, S., Yanagisawa, A., & Uchihara, T. (2020). How effective are intentional vocabulary-learning activities? A meta-analysis. The Modern Language Journal, 104(4), 715–738. https://doi.org/10.1111/modl.12671
4. Sailer, M., & Homner, L. (2020). The gamification of learning: A meta-analysis. Educational Psychology Review, 32, 77–112. https://doi.org/10.1007/s10648-019-09498-w

© intereduglobalstudy.com

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINI BUXGALTERIYA HISOBI FANINI O'QITISHDA QO'LLASH.

Navro'zbek Jahongir o'g'li Nomozov, MBH-2 guruh magistrant, Toshkent davlat transport universiteti
Ayjan Baxtiyarovna Djumanova, Ilmiy rahbar, Toshkent davlat transport universiteti professori.

Annotatsiya

KIRISH: shbu maqolada sun'iy intellekt texnologiyalaridan buxgalteriya hisobi fanini o'qitish jarayonlarida foydalanishning didaktik imkoniyatlari, afzalliklari va muammolari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida o'qitishning an'anaviy metodlari bilan sun'iy intellekt asosidagi o'quv vositalari taqqoslanib, AI yordamida shakllanadigan raqamli ko'nikmalar, talabalarning mustaqil fikrlash va amaliy mashqlarni bajarish darajasiga ta'siri o'rganildi. Natijalar buxgalteriya hisobi fanini o'qitishda sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llash ta'lim sifatini oshirishini ko'rsatdi.

MAQSAD. tadqiqotning maqsadi buxgalteriya hisobi fanini o'qitishda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning didaktik imkoniyatlarini tahlil qilish, ularning talabalarning kasbiy kompetensiyalari, raqamli ko'nikmalari va mustaqil fikrlashini rivojlantirishdagi o'rnini aniqlash hamda o'quv jarayoniga integratsiya qilish bo'yicha metodik tavsiyalarni shakllantirishdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR: maqolada sun'iy intellekt va raqamli ta'limga oid mahalliy hamda xalqaro ilmiy manbalar, shuningdek, ChatGPT, Xero, QuickBooks va Sage AI kabi vositalarning buxgalteriya ta'limida qo'llanish imkoniyatlari ko'rib chiqildi. An'anaviy o'qitish metodlari va sun'iy intellekt asosidagi o'quv vositalari qiyosiy tahlil qilinib, hisob operatsiyalarini modellashtirish, moliyaviy hisobotlarni shakllantirish, xatolarni aniqlash hamda interaktiv mashqlarni tashkil etish imkoniyatlari nazariy tahlil va umumlashtirish asosida o'rganildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR. tahlil sun'iy intellekt vositalari hisob registrlarini shakllantirish, moliyaviy hisobotlarni tuzish va tahlil qilish, amaliy topshiriqlarni modellashtirish hamda talabalarning xatolariga tezkor fikr-mulohaza bildirishda didaktik imkoniyatlarga ega ekanini ko'rsatadi. Ushbu vositalar ta'limni amaliyotga yaqinlashtirish, talabalarning raqamli savodxonligi va kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilishi mumkin. Biroq maqolada miqdoriy tajriba-sinov natijalari keltirilmagani sababli samaradorlik haqidagi xulosalar nazariy tahlil doirasida talqin qilinadi. Sun'iy intellektni samarali qo'llash o'qituvchilar malakasini oshirish, o'quv dasturlarini yangilash va yaratilgan javoblarning to'g'riligini inson nazorati ostida tekshirishni talab etadi.

XULOSA: buxgalteriya hisobi fanini o'qitishda sun'iy intellekt texnologiyalaridan maqsadli foydalanish o'quv jarayonini takomillashtirish va talabalarning amaliy tayyorgarligini kuchaytirish uchun istiqbolli yo'nalish hisoblanadi. Buning uchun sun'iy intellekt vositalarini o'quv maqsadlariga muvofiq tanlash, ularni an'anaviy metodlar bilan

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

uyg‘unlashtirish hamda talabalarni olingan natijalarni mustaqil tekshirish va tanqidiy baholashga o‘rgatish zarur. Kelgusida taklif etilgan yondashuvlarning samaradorligini tajriba-sinov asosida baholash maqsadga muvofiq.

Kalit so‘zlar: sun’iy intellekt, buxgalteriya hisobi, raqamli ta’lim, pedagogika, ta’lim texnologiyalari.

THE APPLICATION OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE TECHNOLOGIES IN TEACHING ACCOUNTING.

Navro’zbek Jahongir o’g’li Nomozov, Master’s Student, Group MBH-2, Tashkent State Transport University.
Ayjan Baxtiyarovna Djumanova, Academic Supervisor, Professor at Tashkent State Transport University.

Annatation

INTRODUCTION: this article examines the pedagogical potential, advantages, and challenges of using artificial intelligence technologies in teaching accounting. The study compares traditional teaching methods with AI-based learning tools and explores their influence on students’ digital skills, independent thinking, and ability to complete practical exercises. The findings indicate that the application of artificial intelligence technologies in accounting education improves the quality of teaching and learning.

AIM:the study aims to analyze the pedagogical potential of artificial intelligence technologies in teaching accounting, identify their role in developing students’ professional competencies, digital skills, and independent thinking, and formulate methodological recommendations for integrating these technologies into the educational process.

MATERIALS AND METHODS: the article reviews national and international academic literature on artificial intelligence and digital education, as well as the potential applications of tools such as ChatGPT, Xero, QuickBooks, and Sage AI in accounting education. Traditional teaching methods and AI-based learning tools were comparatively analyzed. The possibilities for simulating accounting transactions, generating financial statements, identifying errors, and organizing interactive exercises were examined through theoretical analysis and synthesis.

DISCUSSION AND RESULTS: the analysis indicates that artificial intelligence tools offer pedagogical opportunities for generating accounting registers, preparing and analyzing financial statements, simulating practical tasks, and providing prompt feedback on students’ errors. These tools may help connect education with professional practice and develop students’ digital literacy and professional skills. However, as the article presents no quantitative experimental results, conclusions regarding effectiveness are interpreted within the scope of theoretical analysis. The effective use of artificial intelligence requires professional development for educators, curriculum updates, and human oversight to verify the accuracy of generated responses.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

CONCLUSION: the purposeful use of artificial intelligence technologies in teaching accounting represents a promising approach to improving the educational process and strengthening students' practical training. This requires selecting AI tools in accordance with learning objectives, combining them with traditional teaching methods, and teaching students to independently verify and critically evaluate the results obtained. Future research should assess the effectiveness of the proposed approaches through empirical testing.

Keywords: artificial intelligence, accounting, digital education, pedagogy, educational technologies.

ПРИМЕНЕНИЕ ТЕХНОЛОГИЙ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ПРЕПОДАВАНИИ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЁТА.

Наврузбек Жахонгир угли Номозов, магистрант группы МВН-2, Ташкентский государственный транспортный университет.
Айжан Бахтияровна Джуманова, научный руководитель, профессор Ташкентского государственного транспортного университета.

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в статье научно анализируются дидактические возможности, преимущества и проблемы использования технологий искусственного интеллекта в преподавании бухгалтерского учёта. В ходе исследования традиционные методы преподавания сопоставлялись с учебными инструментами на основе искусственного интеллекта, изучалось их влияние на формирование цифровых навыков, самостоятельное мышление студентов и способность выполнять практические задания. Результаты показали, что применение технологий искусственного интеллекта в преподавании бухгалтерского учёта способствует повышению качества образования.

ЦЕЛЬ: цель исследования заключается в анализе дидактических возможностей использования технологий искусственного интеллекта в преподавании бухгалтерского учёта, определении их роли в развитии профессиональных компетенций, цифровых навыков и самостоятельного мышления студентов, а также в разработке методических рекомендаций по интеграции этих технологий в образовательный процесс.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в статье рассмотрены отечественные и международные научные источники по искусственному интеллекту и цифровому образованию, а также возможности применения таких инструментов, как ChatGPT, Xero, QuickBooks и Sage AI, в обучении бухгалтерскому учёту. Проведён сравнительный анализ традиционных методов преподавания и учебных инструментов на основе искусственного интеллекта. Посредством теоретического анализа и обобщения изучены возможности моделирования учётных операций,

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

формирования финансовой отчётности, выявления ошибок и организации интерактивных упражнений.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: анализ показывает, что инструменты искусственного интеллекта обладают дидактическим потенциалом для формирования учётных регистров, составления и анализа финансовой отчётности, моделирования практических заданий и предоставления оперативной обратной связи по ошибкам студентов. Эти инструменты могут способствовать сближению обучения с профессиональной практикой, развитию цифровой грамотности и профессиональных навыков студентов. Однако ввиду отсутствия в статье количественных результатов экспериментальной работы выводы об эффективности рассматриваются в рамках теоретического анализа. Эффективное применение искусственного интеллекта требует повышения квалификации преподавателей, обновления учебных программ и проверки достоверности сгенерированных ответов под контролем человека.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: целенаправленное использование технологий искусственного интеллекта в преподавании бухгалтерского учёта является перспективным направлением совершенствования образовательного процесса и усиления практической подготовки студентов. Для этого необходимо выбирать инструменты искусственного интеллекта в соответствии с учебными целями, сочетать их с традиционными методами преподавания и обучать студентов самостоятельной проверке и критической оценке полученных результатов. В дальнейшем целесообразно оценить эффективность предложенных подходов посредством экспериментального исследования.

Ключевые слова: искусственный интеллект, бухгалтерский учёт, цифровое образование, педагогика, образовательные технологии.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida sun’iy intellekt (SI) texnologiyalari nafaqat ishlab chiqarish, balki ta’lim tizimining ham ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Ayniqsa, moliya va buxgalteriya yo‘nalishida SI asosidagi dasturlar – avtomatik hisob-kitob, moliyaviy tahlil, xatolarni aniqlash, audit jarayonlarini modellashtirish kabi imkoniyatlarni taqdim etmoqda. Buxgalteriya hisobi fanini o‘qitishda SI’dan foydalanish talabalarning kasbiy kompetensiyalarini real mehnat bozoriga mos tayyorlashga xizmat qiladi.

1-jadval.

Sun’iy intellektning buxgalteriya hisobi ta’limidagi imkoniyatlari

Qo‘llanish yo‘nalishi	SI imkoniyatlari	Kutiladigan ta’limiy natija
Hisob registrlari	Registrlarni avtomatik shakllantirish	Hisob yuritish ko‘nikmalarini rivojlantirish

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

Moliyaviy hisobotlar	Balans hamda foyda va zarar hisobotlarini tuzish va tahlil qilish	Moliyaviy tahlil ko‘nikmalarini mustahkamlash
Xatolarni aniqlash	Hisob-kitoblardagi xatolar bo‘yicha tezkor fikr-mulohaza berish	Xatolarni tushunish va tuzatishni o‘rganish
Amaliy mashg‘ulotlar	Buxgalteriya yozuvlari va inventarizatsiya jarayonlarini modellashtirish	Nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llash
Bilimlarni baholash	Interaktiv test va mashqlar tuzish	O‘zlashtirish darajasini aniqlash va mustaqil o‘rganishni qo‘llab-quvvatlash

Manba: muallif ishlanmasi

Tadqiqotning maqsadi – buxgalteriya hisobi ta’lim jarayonida sun’iy intellekt texnologiyalarini qo‘llashning samaradorligini aniqlash va metodik asoslarini ishlab chiqish. Tadqiqot vazifalari quyidagilardan iborat:

1. SI vositalarining pedagogik imkoniyatlarini aniqlash;
2. buxgalteriya hisobi mashg‘ulotlariga SI asosidagi dasturlarni integratsiya qilish;
3. tajriba-sinov ishlarida o‘quvchi-talabalarning ko‘nikmalari o‘zgarishini tahlil qilish;
4. metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

Jahon tajribasida AI yordamida buxgalteriya ta’limini takomillashtirishga doir tadqiqotlar ko‘paymoqda. Xalqaro ilmiy manbalarda ChatGPT, Xero, QuickBooks, Sage AI kabi tizimlar o‘quv jarayonida hisob operatsiyalarini avtomatik modellashtirish, moliyaviy hisobotlarni tuzish va tahlil qilishda samarali ekani ta’kidlanadi. Mahalliy olimlar ta’limning raqamlashtirilishi, elektron darsliklar, masofaviy ta’lim va interaktiv texnologiyalar bo‘yicha tadqiqotlar olib borib, sun’iy intellektning didaktik afzalliklarini ko‘rsatib kelmoqda. Ammo SI’ni aynan buxgalteriya faniga integratsiya qilish bo‘yicha amaliy metodika yetarlicha tarkib topmagan.

Sun’iy intellektning buxgalteriya ta’limidagi funksional imkoniyatlari

1. Hisob registrlarini avtomatik shakllantirish;
2. Moliyaviy hisobotlar (balans, foyda va zarar hisobi)ni soddalashtirilgan tarzda yaratish;
3. O‘quvchilarning xatolarini real vaqt rejimida aniqlash;
4. Amaliy vazifalarni (jurnal yozuvlari, postlash, inventarizatsiya) modellashtirish;
5. Interaktiv test va mashqlarni avtomatik tuzish.

Xalqaro tadqiqot institutlari tomonidan o’tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko’rsatmoqdaki, sun’iy intellektning buxgalteriya ta’limida yuqori samaradorlikka ega ekanini ko‘rsatdi. AI asosidagi vositalar yordamida o‘quvchilarda amaliyotga yo‘naltirilgan kompetensiyalar shakllanadi. Ammo AI’dan to‘liq foydalanish uchun o‘qituvchilarni qayta

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

tayyorlash, o‘quv dasturlarini yangilash, moliyaviy texnologiyalarni qayta ishlab chiqish zarur. Shuningdek, AI tavsiyalarini tekshirish, baholashda inson nazorati muhim.

Buxgalteriya hisobi fanini o‘qitishda sun’iy intellektni qo‘llash ta’lim jarayonini optimallashtiradi, talabalar amaliy ko‘nikmalarini mustahkamlaydi va o‘quv meteriallarini tezroq o‘zlashtirishini ta’minlaydi. AI texnologiyalari orqali o‘quvchilar real ish jarayoniga yaqinlashtirilgan amaliyotlarda ishtirok etadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Brynjolfsson E., McAfee A. *The Second Machine Age*. MIT Press, 2016.
2. Warren D., Moffitt K.C. *Artificial Intelligence Applications in Accounting Education*. AAA Journal.
3. O‘zbekiston Respublikasi “Raqamli ta’lim” konsepsiyasi, 2020.
4. ChatGPT va boshqa AI accounting platformalarining texnik hujjatlari.
5. Moliya vazirligi o‘quv-metodik qo‘llanmalar.

© intereduglobalstudy.com

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

BO‘LAJAK LOGOPEDLARNI KORREKSION JARAYONLARNI TIZIMLI TAHLIL ETISHGA O‘RGATISHNING PEDAGOGIK MODELI.

Toshturdiyeva Zoyira Dusmurod qizi, Nizomiy nomidagi O‘zbekiston Milliy Pedagogika universiteti, tayanch doktoranti.
zoyiradtoshturdiyeva@gmail.com

Annotatsiya

KIRISH: maqolada bo‘lajak logopedlarni korreksion jarayonlarni tizimli tahlil etishga o‘rgatishning pedagogik modeli yoritilgan. Modelning maqsadli, mazmuniy, tashkiliy-texnologik va diagnostik-natijaviy komponentlari asoslangan. Tizimli tahlil kompetensiyasini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari, o‘qitish metodlari va baholash mezonlari aniqlashtirilgan.

MAQSAD: bo‘lajak logopedlarni korreksion jarayonlarni tizimli tahlil etishga o‘rgatishning pedagogik modelini ishlab chiqish hamda uning tarkibiy komponentlari, amalga oshirish mexanizmlari va baholash mezonlarini nazariy-metodologik jihatdan asoslashdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda tizimli, kompetensiyaviy, faoliyatga yo‘naltirilgan va refleksiv yondashuvlar hamda J. Biggsning konstruktiv muvofiqlashtirish nazariyasi qo‘llanildi. Metodologik arsenal nazariy, qiyosiy va tarkibiy-funksional tahlil, pedagogik loyihalash hamda modellashtirish usullarini o‘z ichiga oladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: modelning maqsadli, mazmuniy, tashkiliy-texnologik va diagnostik-natijaviy komponentlari ishlab chiqildi. Tizimli tahlil kompetensiyasini shakllantirishning 6 bosqichli algoritmi taklif etildi va didaktik texnologiyalar (keys-stadi, simulyatsiyalar, konseptual xaritalash, refleksiv superviziya) tizimlashtirildi. Baholash uchun 5 ta mezon (kognitiv, analitik, loyihalash, monitoring-refleksiv, kommunikativ-etik) va 15 ballik shkala belgilandi.

XULOSA: taklif etilgan pedagogik model va uning didaktik vositalari bo‘lajak logopedlarning klinik-pedagogik fikrlashini hamda korreksion jarayonlarni tizimli tahlil qilish kompetensiyasini rivojlantirish uchun nazariy-metodik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: bo‘lajak logoped, korreksion jarayon, tizimli tahlil, pedagogik model, kasbiy kompetensiya, diagnostika, refleksiya.

ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ МОДЕЛЬ ОБУЧЕНИЯ БУДУЩИХ ЛОГОПЕДОВ СИСТЕМНОМУ АНАЛИЗУ КОРРЕКЦИОННЫХ ПРОЦЕССОВ.

Тоштурдиева Зойира Дустмурод кизи, докторант (PhD) Узбекского национального педагогического университета имени Низами.

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в статье представлена педагогическая модель обучения будущих логопедов системному анализу коррекционных процессов. Обоснованы целевой,

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

содержательный, организационно-технологический и диагностико-результативный компоненты модели. Определены педагогические условия, методы обучения и критерии оценки сформированности компетенции системного анализа.

ЦЕЛЬ: разработка педагогической модели обучения будущих логопедов системному анализу коррекционных процессов и теоретико-методологическое обоснование её структурных компонентов, механизмов реализации и критериев оценки.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании использованы системный, компетентностный, деятельностный и рефлексивный подходы, а также теория конструктивного согласования Дж. Биггса. Методология включает теоретический, сравнительный и структурно-функциональный анализ, педагогическое проектирование и моделирование.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: разработаны целевой, содержательный, организационно-технологический и диагностико-результативный компоненты модели. Предложен 6-этапный алгоритм формирования компетенции системного анализа и систематизированы дидактические технологии (кейс-стади, симуляции, концептуальное картирование, рефлексивная супервизия). Для оценки сформированности компетенции определены 5 критериев (когнитивный, аналитический, проектировочный, мониторингово-рефлексивный, коммуникативно-этический) и 15-балльная шкала.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: разработанная педагогическая модель служит теоретико-методической основой для развития клинико-педагогического мышления и компетенции системного анализа у будущих логопедов.

Ключевые слова: будущий логопед, коррекционный процесс, системный анализ, педагогическая модель, профессиональная компетентность, диагностика, рефлексия.

PEDAGOGICAL MODEL FOR TRAINING FUTURE SPEECH THERAPISTS IN SYSTEMIC ANALYSIS OF CORRECTIONAL PROCESSES.

Toshturdiyeva Zoyira Do‘stmurod qizi, PhD Student at Tashkent State Pedagogical University named after Nizami.

Annotation

INTRODUCTION: the article presents a pedagogical model for teaching future speech-language therapists to systematically analyze correctional processes. It examines the model’s goal-oriented, content-related, organizational-technological, and diagnostic-outcome components. The pedagogical conditions, teaching methods, and assessment criteria for developing systematic analysis competence are identified.

AIM: to develop a pedagogical model for teaching prospective speech-language therapists to systematically analyze correctional processes and to provide a theoretical

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

and methodological foundation for its structural components, implementation mechanisms, and assessment criteria.

MATERIALS AND METHODS: the study employs systemic, competency-based, activity-oriented, and reflective approaches, alongside J. Biggs's constructive alignment theory. The methodological framework encompasses theoretical, comparative, and structural-functional analysis, pedagogical design, and modeling.

DISCUSSION AND RESULTS: target, content, organizational-technological, and diagnostic-outcome components of the model were established. A 6-stage algorithm for developing systematic analysis competence was introduced, and key didactic technologies (case studies, simulation learning, conceptual mapping, reflective supervision) were structured. Assessment parameters were defined through 5 criteria (cognitive, analytical, design, monitoring-reflective, communicative-ethical) using a 15-point scale.

CONCLUSION: the proposed pedagogical model offers a theoretical and methodological foundation for fostering clinical-pedagogical reasoning and systematic analysis skills in future speech-language therapists.

Keywords: future speech-language therapist, correctional process, systematic analysis, pedagogical model, professional competence, assessment, reflection.

Zamonaviy maxsus pedagogika va logopediya tizimida bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish, ularni murakkab korreksion-pedagogik vaziyatlarni mustaqil tahlil qilishga tayyorlash muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etmoqda. Logopedik faoliyat diagnostika, korreksion rejalashtirish, pedagogik ta’sir va natijalarni baholash kabi o‘zaro bog‘langan jarayonlardan tashkil topganligi sababli, mazkur faoliyatni tizimli tashkil etish bo‘lajak logopedlarning kasbiy tayyorgarligiga qo‘yiladigan asosiy talablardan biridir.

M.Y. Ayupova logopedik ta’sirni bir necha bosqichlarda amalga oshiriladigan murakkab jarayon sifatida tavsiflab, uning mazmunini belgilashda nutq buzilishining tuzilishi, bolaning yoshi va individual rivojlanish xususiyatlarini hisobga olish zarurligini ko‘rsatadi [1; 60-61]

D.A. Nurkeldiyeva va M.U. Hamidovaning ilmiy-metodik qarashlarida bolalarni kompleks psixologik-pedagogik o‘rganish hamda ularning individual rivojlanish imkoniyatlarini aniqlash korreksion faoliyatni tashkil etishning muhim sharti sifatida yoritilgan [7; 39-40]

Xorijiy tadqiqotlarda esa logopedning kasbiy tayyorgarligi dalillarga asoslangan amaliyot, klinik fikrlash va refleksiv baholash bilan bog‘liq holda o‘rganiladi. Jumladan, C.J. Johnson ilmiy dalillarni izlash, baholash, amaliy qaror qabul qilish va natijalarni qayta tekshirishdan iborat izchil yondashuvni tavsiflaydi [6; 20-23]

Mazkur qarashlar bo‘lajak logopedlarni tayyorlashda nazariy bilimlarni amaliy vaziyatlarga tatbiq etish, diagnostik axborotni tizimlashtirish va korreksion qarorlarni ilmiy asoslash ko‘nikmalarini rivojlantirish zarurligini ko‘rsatadi. Buning uchun o‘quv maqsadlari,

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

mazmun, pedagogik texnologiyalar va baholash vositalarining o‘zaro integratsiyasiga asoslangan maxsus pedagogik modelni ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

Izlanishimizning maqsadi bo‘lajak logopedlarni korreksion jarayonlarni tizimli tahlil etishga o‘rgatishning pedagogik modelini ishlab chiqish, uning tarkibiy komponentlari, amalga oshirish mexanizmi va baholash mezonlarini nazariy-metodologik jihatdan asoslashdan iborat.

Bo‘lajak logopedlarni korreksion jarayonlarni tizimli tahlil etishga o‘rgatish masalasi milliy va xorijiy tadqiqotlarda turli metodologik yondashuvlar asosida o‘rganilgan. M.Y. Ayupova logopedik faoliyatda tizimlilik, komplekslilik, differensial va individual yondashuv tamoyillarining ahamiyatini asoslab, korreksion jarayonni bolaning nutqiy rivojlanish xususiyatlariga muvofiq tashkil etish zarurligini ta’kidlaydi [1; 59-60].

D.A. Nurkeldiyeva va M.U. Hamidova esa kompleks psixologik-pedagogik diagnostika, bolaning individual imkoniyatlarini aniqlash hamda korreksion faoliyatni diagnostik natijalar asosida rejalashtirish masalalarini yoritganlar [7; 41-42] Xorijiy tadqiqotchilardan J. Biggs ta’lim maqsadlari, o‘quv faoliyati va baholash vositalarining o‘zaro muvofiqligiga asoslangan pedagogik yondashuvni ishlab chiqqan [2; 347–350]. F. Brannick va hammualliflar logopedik faoliyatda klinik ekspertiza va amaliy dalillarni integratsiyalashning kasbiy qarorlar qabul qilishdagi ahamiyatini ko‘rsatganlar [3; 2943–2944].

M.E. Caty, E.A. Kinsella va P.C. Doyle logopedlarning refleksiv faoliyatini rivojlantirish, kasbiy tajribani tanqidiy tahlil qilish va pedagogik qarorlarni takomillashtirish imkoniyatlarini tadqiq etganlar [4;11-412]. T.R.M. Silva va hammualliflar esa bo‘lajak logopedlarning klinik fikrlashini rivojlantirishda keys-stadi, simulyatsion ta’lim, konseptual xaritalash va pedagogik superviziyaning didaktik imkoniyatlarini o‘rganganlar [8; 1-6]

Tahlil qilingan ilmiy manbalar milliy logopediya maktabining tizimlilik va kompleks diagnostika tamoyillarini xorijiy tadqiqotlardagi dalillarga asoslangan amaliyot, simulyatsion ta’lim va refleksiv baholash metodlari bilan integratsiyalash imkoniyatini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, bo‘lajak logopedlarning korreksion jarayonlarni tizimli tahlil qilish kompetensiyasini shakllantirishga qaratilgan yaxlit pedagogik modelni ishlab chiqish va uning tarkibiy komponentlarini ilmiy asoslash mazkur tadqiqotning asosiy yo‘nalishini belgilaydi.

Tadqiqot nazariy-konseptual xarakterga ega bo‘lib, uning metodologik asosini tizimli, kompetensiyaviy, faoliyatga yo‘naltirilgan va refleksiv yondashuvlarning o‘zaro integratsiyasi tashkil etadi.

Tizimli yondashuv korreksion jarayonni diagnostika, rejalashtirish, pedagogik ta’sir va natijalarni baholash kabi o‘zaro bog‘langan komponentlardan tashkil topgan yaxlit tizim sifatida o‘rganishga xizmat qiladi.

Kompetensiyaviy yondashuv talabalarning nazariy bilimlarini amaliy faoliyat bilan bog‘lash, mustaqil pedagogik qarorlar ishlab chiqish va kasbiy muammolarni hal etish ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratiladi.

© intereduglobalstudy.com


ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

Faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuv klinik-pedagogik keyslar, simulyatsion mashg‘ulotlar va individual loyihalar orqali talabalarning amaliy faoliyatini tashkil etishni nazarda tutadi.

Refleksiv yondashuv esa talabaning o‘z qarorlarini tanqidiy baholashi, korreksion faoliyat natijalarini tahlil qilishi va keyingi pedagogik harakatlarini takomillashtirishiga asoslanadi.Pedagogik modelni ishlab chiqishda J. Biggsning konstruktiv muvofiqlashtirish nazariyasiga tayanildi. Mazkur nazariyada ta’lim maqsadlari, o‘quv faoliyati va baholash vositalari o‘zaro muvofiqlashtirilgan tizim sifatida qaraladi [2; 347-350].

Tadqiqotda nazariy tahlil, qiyosiy tahlil, tarkibiy-funksional tahlil, pedagogik loyihalash, konseptual umumlashtirish va modellashtirish metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqotimiz natijasida bo‘lajak logopedlarni korreksion jarayonlarni tizimli tahlil etishga o‘rgatishning maqsadli, mazmuniy, tashkiliy-texnologik va diagnostik-natijaviy komponentlardan tashkil topgan pedagogik modeli ishlab chiqildi.



1-rasm. *Bo‘lajak logopedlarni tizimli tahlilga o‘rgatishning mualliflik pedagogik modeli.*

Modelning maqsadli komponenti bo‘lajak logopedlarning kasbiy vaziyatlarni mustaqil tahlil qilish, diagnostik dalillarni izohlash va korreksion qarorlarni asoslash kompetensiyasini shakllantirishga yo‘naltiriladi. Mazmuniy komponent korreksion jarayonning nazariy asoslari, diagnostik axborotni tizimlashtirish, individual korreksion dasturlarni ishlab chiqish va pedagogik natijalarni baholashga oid bilim hamda ko‘nikmalarni qamrab oladi.

Tashkiliy-texnologik komponent talabalarni kasbiy faoliyatga yaqinlashtirilgan amaliy topshiriqlar, keys-stadi, simulyatsiya, konseptual xaritalash va refleksiv kundaliklar asosida o‘qitishni nazarda tutadi. Diagnostik-natijaviy komponent esa talabalarning egallangan

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

bilimlarni konkret korreksion vaziyatlarda qo‘llashi, mustaqil qarorlarni asoslash darajasi va refleksiv faoliyatini baholashga xizmat qiladi. Mazkur komponentlarning o‘zaro integratsiyasi pedagogik modelning yaxlitligini ta’minlaydi. Baholash natijalari asosida ta’lim mazmuni va metodlariga tegishli o‘zgartirishlar kiritilishi modelning qayta aloqa mexanizmini tashkil etadi.

Pedagogik model doirasida bo‘lajak logopedlarning tizimli tahlil kompetensiyasini shakllantirish uchun olti bosqichli o‘quv algoritmi taklif etildi.

Birinchi bosqichda talaba korreksion muammoni aniqlaydi va dastlabki diagnostik ma’lumotlarni tahlil qiladi. Bunda tasdiqlangan faktlar, pedagogik taxminlar hamda qo‘shimcha tekshiruvni talab qiluvchi ma’lumotlar ajratiladi.

Ikkinchi bosqichda diagnostik natijalar tizimlashtiriladi. Talaba bolaning nutqiy rivojlanishi, individual imkoniyatlari, kommunikativ ehtiyojlari va ta’lim muhiti haqidagi ma’lumotlarni o‘zaro qiyoslaydi.

Uchinchi bosqichda diagnostik dalillar asosida pedagogik farazlar shakllantiriladi. Muqobil izohlar taqqoslanib, korreksion qarorlarning ilmiy va metodik asoslari aniqlanadi.

To‘rtinchi bosqichda individual korreksion dastur loyihalashtiriladi. Unda pedagogik maqsadlar, mashg‘ulotlarning mazmuni, tegishli metodlar va kutilayotgan natijalar belgilanadi.

Beshinchi bosqichda korreksion faoliyat natijalari monitoring qilinadi. Dastlabki va oraliq ko‘rsatkichlar qiyoslanib, pedagogik maqsadlarga erishish darajasi baholanadi.

Oltinchi bosqich refleksiv tahlilni nazarda tutadi. Talaba qabul qilingan pedagogik qarorlarning asoslanganligini baholaydi va zarur hollarda individual dasturga o‘zgartirishlar kiritishni taklif etadi.

Mazkur algoritmning muhim xususiyati uning takroriy xarakterga egaligidir. Monitoring natijalarida kutilmagan o‘zgarishlar aniqlanganda, talaba dastlabki diagnostik farazlarga qaytishi va korreksion rejalashtirishni takomillashtirishi mumkin.

Bo‘lajak logopedlarning tizimli tahlil kompetensiyasini shakllantirishda muammoli ta’lim, keys-stadi, simulyatsion mashg‘ulotlar va refleksiv tahlil muhim pedagogik imkoniyatlarga ega.

T.R.M. Silva va hammualliflarning ilmiy sharhida logopediya ta’limida klinik fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan virtual keyslar, konseptual xaritalar, refleksiv kundaliklar va simulyatsion mashg‘ulotlar kabi strategiyalar o‘rganilgan [8;1-6].

Mazkur metodlarni yagona pedagogik model doirasida qo‘llash har bir o‘quv faoliyatini aniq kasbiy kompetensiya bilan bog‘lash imkonini beradi.

1-jadval. Bo‘lajak logopedlarning tizimli tahlil kompetensiyasini shakllantirishning pedagogik texnologiyalari

Pedagogik texnologiya	Didaktik vazifasi	Talabaning amaliy faoliyati	Kutiladigan o‘quv mahsuloti

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

Muammoli ta’lim	Korreksion muammoni aniqlash va muqobil yechimlarni izlash	Muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va pedagogik farazlar ishlab chiqish	Asoslangan pedagogik faraz
Keys-stadi	Diagnostik ma’lumotlarni kompleks va qiyosiy tahlil qilish	Nutqiy buzilishlarga oid klinik-pedagogik vaziyatlarni o‘rganish	Dalillarga asoslangan tahliliy xulosa
Konseptual xaritalash	Korreksion jarayonning tarkibiy qismlari o‘rtasidagi aloqalarni aniqlash	Diagnostika, maqsad, metod va natijalar o‘rtasidagi bog‘liqlikni modellashtirish	Tizimli tahlil xaritasi
Simulyatsion ta’lim	Kasbiy qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish	Diagnostik suhbat, korreksion mashg‘ulot va murakkab vaziyatlarni modellashtirish	Kasbiy faoliyat protokoli
Loyihaviy ta’lim	Individual korreksion faoliyatni mustaqil rejalashtirish	Diagnostik natijalarga asoslangan korreksion maqsad va metodlarni tanlash	Individual korreksion dastur
Refleksiv superviziya	Kasbiy qarorlarning asoslanganligini va natijalarini baholash	O‘z faoliyatini tahlil qilish, teskari aloqadan foydalanish va tuzatishlar kiritish	Refleksiv hisobot va takomillashtirilgan dastur

Ushbu pedagogik vositalarning samarali qo‘llanishi o‘quv topshiriqlarining murakkablik darajasini izchil oshirishni talab qiladi. Dastlab talabalar diagnostik ma’lumotlari to‘liq bo‘lgan vaziyatlarni o‘rganadilar, keyingi bosqichlarda esa cheklangan yoki qarama-qarshi axborot mavjud bo‘lgan murakkab keyslarni tahlil qiladilar.

Taklif etilgan modelni amalga oshirishning asosiy tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlari o‘quv fanlarining mazmuniy integratsiyasini ta’minlash, klinik-pedagogik keyslar bankini yaratish, simulyatsion ta’limni real amaliyot bilan uyg‘unlashtirish va muntazam pedagogik superviziyani tashkil etishdan iborat.

J. Watermeyer va hammualliflarning 2025-yildagi ilmiy sharhida simulyatsion ta’lim logopediya talabalarining amaliy tayyorgarligini rivojlantirish imkoniyatlariga ega ekanligi, biroq uning natijadorligi puxta rejalashtirish va tizimli teskari aloqaga bog‘liqligi ta’kidlangan [9; 2942-2944]

Shu sababli simulyatsion mashg‘ulotlar talabalarni real pedagogik faoliyatga tayyorlashning qo‘shimcha vositasi sifatida tashkil etilishi lozim. Pedagogik superviziya jarayonida o‘qituvchi talabaning faqat yakuniy xulosasini emas, balki ushbu xulosaga kelish jarayoni, diagnostik dalillarni tanlashi va muqobil qarorlarni asoslash qobiliyatini ham baholaydi.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

Pedagogik modelning diagnostik-natijaviy komponentida bo‘lajak logopedlarning tizimli tahlil kompetensiyasini baholash uchun beshta mezon taklif etildi.

2-jadval. Tizimli tahlil kompetensiyasining mezonlari, indikatorlari va baholash vositalari

Baholash mezoni	Kuzatiladigan indikatorlar	Baholash vositasi	Maksimal ball
Kognitiv	Nutq buzilishlarining nazariy asoslarini tushuntirish; diagnostika va korreksiya o‘rtasidagi aloqani izohlash	Muammoli topshiriq, og‘zaki himoya	**3**
Analitik	Diagnostik ma’lumotlarni qiyoslash; ziddiyatlarni aniqlash; muqobil pedagogik farazlarni dalillar bilan asoslash	Klinik keys, tahliliy xarita	**3**
Loyihalash	Aniq va o‘lchanadigan maqsadlarni belgilash; mos korreksion metodlarni tanlash; individual dastur ishlab chiqish	Individual korreksion loyiha	**3**
Monitoring-refleksiv	Boshlang‘ich va oraliq natijalarni solishtirish; samaradorlikni baholash; dasturga asosli tuzatishlar kiritish	Monitoring protokoli, refleksiv hisobot	**3**
Kommunikativ-etik	Ota-ona va mutaxassislar bilan hamkorlik qilish; kasbiy xulosalarni tushunarli bayon etish; maxfiylikka rioya qilish	Simulyatsiya, pedagogik kuzatuv	**3**

Taklif etilayotgan baholash shkalasi

Ball	Kompetensiyaning namoyon bo‘lishi
0	Ko‘nikma namoyon bo‘lmagan
1	O‘qituvchi yordami bilan qisman bajarilgan
2	Mustaqil bajarilgan, ammo asoslash yetarli emas
3	Mustaqil, izchil va dalillar asosida bajarilgan

Umumiy maksimal natija: 15 ball.

Mazkur rubrika mualliflik taklifi bo‘lib, uni amaliyotga joriy etishdan oldin validatsiya qilish lozim.

Baholashda har bir mezonning namoyon bo‘lishi sifat jihatidan aniqlanadi. Bunda talabalar faoliyatini klinik keyslar, individual loyihalar, simulyatsion mashg‘ulotlar va refleksiv hisobotlar yordamida kompleks baholash nazarda tutiladi. Mazkur mezonlarning amaliy ishonchliligi va validligi keyingi pedagogik tajriba-sinovlarda tekshirilishi kerak.

Ishlab chiqilgan pedagogik model bo‘lajak logopedlarni kasbiy tayyorlash jarayonida diagnostik, analitik, loyihalash va refleksiv faoliyatning o‘zaro integratsiyasini ta’minlashga yo‘naltirilgan.

Modelning nazariy ahamiyati talabalarning korreksion faoliyatni alohida metodik harakatlar yig‘indisi sifatida emas, balki o‘zaro bog‘langan pedagogik tizim sifatida anglashiga asos yaratishi bilan belgilanadi.

S.F. Brannick va hammualliflar klinik dalillarni o‘rganishga bag‘ishlangan ilmiy sharhda mutaxassis fikri, klinik ekspertiza va amaliyot davomida shakllantirilgan dalillarni o‘zaro farqlash zarurligini ko‘rsatadilar [3; 2943- 2945]

Mazkur yondashuv bo‘lajak logopedlarni tayyorlashda diagnostik ma’lumotlar va shaxsiy pedagogik taxminlarni farqlash, muqobil izohlarni tekshirish hamda qarorlarni yetarli dalillar bilan asoslash ko‘nikmalarini shakllantirish zarurligini tasdiqlaydi.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

M.-È. Caty, E.A. Kinsella va P.C. Doyle tomonidan refleksiv amaliyotga bag‘ishlangan tadqiqotda logopedlarning kasbiy faoliyatini takomillashtirishda refleksiya va o‘z tajribasini tanqidiy tahlil qilishning ahamiyati yoritilgan [4; 411-412]

Taklif etilgan modelda refleksiya yakuniy o‘quv topshirig‘i sifatida emas, balki diagnostika, korreksion rejalashtirish va monitoringning barcha bosqichlariga ta’sir qiluvchi uzluksiz jarayon sifatida qaraladi.

Modelni milliy logopediya ta’limiga integratsiyalashda o‘zbek tilining fonetik-fonologik va leksik-grammatik xususiyatlarini hisobga olish hamda klinik-pedagogik keyslarni mahalliy ta’lim muhitiga moslashtirish zarur.

Shuningdek, o‘quv vaziyatlarini bolaning kundalik kommunikativ faoliyati bilan bog‘lash muhimdir. Jahon sog‘liqni saqlash tashkilotining ICF konsepsiyasida insonning funksional imkoniyatlari tana funksiyalari, faoliyat, ijtimoiy ishtirok va muhit omillarining o‘zaro aloqadorligi orqali tushuntiriladi [10; 9-11]

Ushbu yondashuv bo‘lajak logopedlarni korreksion faoliyatning natijalarini faqat alohida nutqiy ko‘nikmalar doirasida emas, balki bolaning kundalik muloqotdagi ishtiroki bilan bog‘liq holda baholashga yo‘naltiradi.

Tadqiqotning asosiy cheklovi uning nazariy-konseptual xarakterga egaligidir. Taklif etilgan modelning pedagogik samaradorligi eksperimental jihatdan tekshirilmagan. Shu bois keyingi tadqiqotlarda pedagogik tajriba-sinovlarni tashkil etish, baholash mezonlarining ishonchliligini aniqlash va talabalarning dastlabki hamda yakuniy tayyorgarlik darajasini qiyoslash maqsadga muvofiqdir.

Tadqiqot natijasida bo‘lajak logopedlarni korreksion jarayonlarni tizimli tahlil etishga o‘rgatishning maqsadli, mazmuniy, tashkiliy-texnologik va diagnostik-natijaviy komponentlardan tashkil topgan pedagogik modeli ishlab chiqildi.

Mazkur model diagnostik ma’lumotlarni tahlil qilish, pedagogik farazlarni asoslash, individual korreksion dasturlarni loyihalash, natijalarni monitoring qilish va refleksiv baholash jarayonlarini yagona pedagogik tizimda birlashtirishga yo‘naltirilgan.

Keys-stadi, muammoli ta’lim, simulyatsion mashg‘ulotlar, konseptual xaritalash va pedagogik superviziya modelni amalga oshirishning asosiy didaktik vositalari sifatida belgilandi.

Taklif etilgan model bo‘lajak logopedlarning mustaqil klinik-pedagogik fikrlashi va tizimli tahlil kompetensiyasini rivojlantirish uchun nazariy-metodik asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Uning amaliy samaradorligini empirik tekshirish keyingi tadqiqotlarning asosiy vazifasi hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Ayupova M.Y. Logopediya: darslik. – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2007. – 560 b. Foydalanilgan sahifalar: 60–61.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

2. Biggs J. Enhancing Teaching through Constructive Alignment // Higher Education. – 1996. – Vol. 32, № 3. – P. 347–364.
3. Brannick S.F., Wolford G.W., Wolford L.L., Effron K., Buckler J. What Is Clinical Evidence in Speech-Language Pathology? A Scoping Review // American Journal of Speech-Language Pathology. – 2022. – Vol. 31, № 6. – P. 2943–2958.
4. Caty M.-È., Kinsella E.A., Doyle P.C. Reflective Practice in Speech-Language Pathology: A Scoping Review // International Journal of Speech-Language Pathology. – 2015. – Vol. 17, № 4. – P. 411–420.
5. Greenwell T., Walsh B. Evidence-Based Practice in Speech-Language Pathology: Where Are We Now? // American Journal of Speech-Language Pathology. – 2021. – Vol. 30, № 1. – P. 186–198.
6. Johnson C.J. Getting Started in Evidence-Based Practice for Childhood Speech-Language Disorders // American Journal of Speech-Language Pathology. – 2006. – Vol. 15, № 1. – P. 20–35.
7. Nurkeldiyeva D.A., Hamidova M.U. Rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalar diagnostikasi: o‘quv qo‘llanma. – Toshkent, 2016. – 276 b. Foydalanilgan sahifalar: 39–40.
8. Silva T.R.M., Nogueira L.L.C.R., Mourão A.M., Gama A.C.C. Teaching Strategies for Developing Speech-Language-Hearing Clinical Reasoning: A Scoping Review // Revista CEFAC. – 2025. – Vol. 27, № 4. – Article e11024.
9. Watermeyer J., Coutts K., Nattrass R. Simulated Learning Experiences in Global Speech-Language Pathology Programs: A Scoping Review // American Journal of Speech-Language Pathology. – 2025. – Vol. 34, № 5. – P. 2942–2971.
10. World Health Organization. Towards a Common Language for Functioning, Disability and Health: ICF. – Geneva: WHO, 2002. – 20 p. Foydalanilgan sahifalar: 9–11.

© intereduglobalstudy.com
BY NC ND

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

MUSIQA TA'LIMINING ZAMONAVIY MASALALARI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.

Nurullayev Farrux Gaybullayevich, Buxoro davlat pedagogika instituti, musiqa va tasaviriy san'at kafedrasi professori, (PhD).
Qodirov Shuxrat Xuddiyevich, Bux DPI Musiqa yo`nalishi magistranti

Annotatsiya

KIRISH: zamonaviy raqamlashuv va yoshlarning musiqiy-estetik ehtiyojlari o'zgarib borayotgan bir sharoitda umumiy o'rta ta'lim maktablarida musiqa ta'limi mazmunini takomillashtirish hamda uning metodologik bazasini zamon talablariga moslashtirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

MAQSAD: maktablarda musiqa ta'limini tashkil etishning ilmiy-pedagogik asoslarini, g'oyaviy-tarbiyaviy imkoniyatlarini hamda sohadagi mavjud muammolarni tahlil qilish va ularni bartaraf etishning innovatsion-amaliy yechimlarini ishlab chiqishdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda tizimli-pedagogik, integratsiyalashgan hamda tahliliy-amaliy metodlardan foydalanildi. Musiqa ta'limi bo'yicha me'yoriy-huquqiy hujjatlar, darsliklar va 5-sinf Musiqa madaniyati fani bo'yicha «O'zbek xalq cholg'u asboblari va ularning guruhlarga bo'linishi» mavzusidagi dars ishlanmasi material sifatida o'rganildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: musiqa darslarida ajratilgan soatlarning cheklanganligi, raqamli platformalar va moddiy-texnik bazaning yetishmasligi kabi muammolar ko'rsatib berildi. Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun raqamli resurslar, interfaol ilovalar, fanlararo integratsiya (adabiyot, tarix, tasviriy san'at) hamda o'zbek xalq cholg'ulari (torli-mizrobli, puflama, zarbli) va xalq qo'shiqlari orqali milliy o'zlikni anglatish mexanizmlari taklif etildi.

XULOSA: musiqa ta'limiga innovatsion yondashuvlarni va raqamli texnologiyalarni tizimli joriy etish ta'lim sifatini yangi bosqichga ko'taradi hamda yosh avlodni ma'naviy-barkamol va milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: musiqa ta'limi, estetik tarbiya, milliy o'zlikni anglash, raqamli ta'lim, integratsiyalashgan yondashuv, o'zbek xalq cholg'ulari, torli cholg'ular, puflama cholg'ular, zarbli cholg'ular, dars ishlanmasi.

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ И ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ МУЗЫКАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ.

Нуруллаев Фаррух Гайбуллаевич, профессор (PhD), кафедра музыки и изобразительного искусства, Бухарский государственный педагогический институт.
Кодиров Шухрат Худдиевич, магистрант (специальность «Музыка»), Бухарский государственный педагогический институт.

Аннотатция

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

ВВЕДЕНИЕ: в условиях цифровизации общества и изменения эстетических потребностей молодежи актуализируется необходимость модернизации содержания и методологической базы музыкального образования в общеобразовательных школах.

ЦЕЛЬ: исследование научно-педагогических основ и воспитательного потенциала музыкального образования в школе, выявление существующих проблем и разработка инновационно-практических путей их решения.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании применены системно-педагогический, интегративный и аналитико-практический методы. Материалом исследования послужили нормативно-правовые акты, учебные пособия, а также методическая разработка урока для 5-го класса на тему «Узбекские народные музыкальные инструменты и их классификация».

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: обозначены проблемы нехватки учебных часов, слабого использования цифровых технологий и недостаточной материально-технической базы. В качестве решения предложено внедрение цифровых образовательных ресурсов, межпредметная интеграция (с литературой, историей и изобразительным искусством), а также использование узбекских народных инструментов (струнных, духовых, ударных) для формирования национальной идентичности учащихся.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: системное внедрение инновационных и цифровых технологий в процесс музыкального образования повышает его качество и эффективно способствует духовно-нравственному воспитанию подрастающего поколения.

Ключевые слова: музыкальное образование, эстетическое воспитание, национальная идентичность, цифровое обучение, интегрированный подход, узбекские народные инструменты, струнные инструменты, духовые инструменты, ударные инструменты, разработка урока.

CURRENT ISSUES AND TRENDS IN THE DEVELOPMENT OF MUSIC EDUCATION.

Nurullaev Farrukh Gaybullaevich, Professor (PhD), Department of Music and Fine Arts, Bukhara State Pedagogical Institute.
Kodirov Shukhrat Khuddievich, Master's student (Specialization: Music), Bukhara State Pedagogical Institute.

Annatation

INTRODUCTION: amidst digital transformation and shifting aesthetic preferences among youth, updating the methodology and content of music education in secondary schools has become an essential pedagogical priority.

AIM: to examine the scientific and pedagogical foundations of school music education, analyze systemic challenges, and propose innovative practical solutions to enhance educational effectiveness.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

MATERIALS AND METHODS: the study utilized systemic-pedagogical, integrative, and analytical-practical methods. Primary sources included educational policy documents, music textbooks, and a 5th-grade lesson plan centered on "Uzbek Folk Musical Instruments and Their Classification".

DISCUSSION AND RESULTS: key structural issues were identified, including restricted instructional hours, underutilization of digital media, and material shortages in schools. The paper proposes solutions such as integrating digital educational tools, implementing cross-curricular links (literature, history, visual arts), and utilizing traditional Uzbek instruments (string, wind, percussion) to foster national identity and musical culture.

CONCLUSION: systematically incorporating digital technologies and innovative practices into music curricula improves educational quality and nurtures the spiritual and aesthetic development of young learners.

Keywords: music education, aesthetic education, national identity, digital learning, integrated approach, Uzbek folk instruments, string instruments, wind instruments, percussion instruments, lesson plan.

Musiqa san'ati insoniyatning eng qadimiy va ta'sirchan ifoda shakllaridan biridir. U nafaqat estetik zavq bag`ishlaydi, balki shaxsning emosional intellektni, fikrlash doirasini va madaniy kodlarini shakllantirishda markaziy o`rin tutadi. Mamlakatimizda umumiy o`rta ta'lim va maxsus maktablarda musiqa ta'limini rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Biroq jamiyatning raqamlashuvi, yoshlarning musiqiy didi va estetik talablari o`zgarib borayotgan bir sharoitda, musiqa ta'limi mazmunini ham zamon talablariga moslashtirish zarur.

Ushbu maqolada maktablarda musiqa ta'limini tashkil etishning ilmiy-pedagogik asoslari, zamonaviy muammolari va ularni bartaraf etishning amaliy yo`llari ko`rib chiqiladi.

Musiqa ta'limining metodologik asoslari va maqsadlari. Musiqa ta'limining asosiy maqsadi o`quvchilarda musiqiy madaniyat elementlarini shakllantirish, ularning milliy va jahon musiqa merosiga bo`lgan hurmatini oshirish, shuningdek, ijodiy qobiliyatlarini yuzaga chiqarishdir. Maktab musiqa ta'limi quyidagi vazifalarni hal etishi lozim:

Estetik tarbiya: O`quvchilarda san'atni anglash, uni his qilish va go`zallikni qadrlash ko`nikmalarini rivojlantirish.

Milliy o`zlikni anglash: O`zbek xalq musiqa ijodiyoti (maqomlar, dostonlar, xalq qo`shiqlari) namunalari orqali yoshlarda vatanparvarlik va milliy g`urur tuyg`ularini mustahkamlash.

Amaliy ko`nikmalar: O`quvchilarning kuylash (vokal) va musiqa tinglash madaniyatini oshirish, musiqa asboblarida oddiy ijro etish elementlarini o`rgatish.

Pedagogik amaliyotda ushbu maqsadlarga erishish ko`p jihatdan o`qituvchining mahoratiga, o`quv dasturlarining moslashuvchanligiga va moddiy-texnik bazaga bog`liqdir.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

Hozirgi kundagi asosiy muammolar va qiyinchiliklar. Musiqa ta'limini takomillashtirish jarayonida bir qator ilmiy-metodik va tashkiliy muammolar ko`zga tashlanadi:

O`quv soatlarining cheklanganligi: Ko`plab maktablarda musiqa madaniyati faniga ajratilgan soatlar o`quvchilarning keng musiqiy bilim olishi va amaliy ko`nikmalarni egallashi uchun yetarli emas.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalarning yetishmasligi: Darslarda an'anaviy yondashuvlarning ustunlik qilishi, interaktiv vositalar, multimedia va raqamli platformalardan foydalanish ko`lami pastligi.

Moddiy-texnik baza: Sinflarning musiqa asboblari (sintezator, doira, chang va h.k.) hamda sifatli audio-video texnikasi bilan to`liq ta'minlanmagani.

O`qituvchilarning kasbiy rivojlanishi: Pedagoglarning zamonaviy pedagogik yondashuvlar, shou-biznes va san'atdagi yangi tendensiyalar hamda innovasion metodikalar bo`yicha malakasini muntazam oshirib borish zarurati.

Musiqa ta'limini takomillashtirishning innovasion yo`llari. Muammolarni bartaraf etish va ta'lim sifatini yangi bosqichga ko`tarish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

Raqamli ta'lim resurslarini joriy etish: Darslarda interfaol ilovalar, virtual musiqa asboblari va musiqa tarixiga oid raqamli muzeylardan foydalanishni kengaytirish. Integrasiyalashgan yondashuv: Musiqa fanini adabiyot, tarix va tasviriy san'at fanlari bilan bog`lagan holda o`qitish. Bu o`quvchilarda yaxlit badiiy dunyoqarashni shakllantiradi.

Musiqiy to`garaklarni jonlantirish: Maktablarda xor, ansambl, milliy cholg`ular va zamonaviy musiqa studiyalari faoliyatini yo`lga qo`yish orqali o`quvchilarning bo`sh vaqtini mazmunli tashkil etish.

Pedagoglar malakasini oshirish: Musiqa o`qituvchilari uchun zamonaviy pedagogika, psixologiya va innovasion texnologiyalar bo`yicha maxsus treninglar va seminarlar tashkil etish.

Musiqa ta'limi — jamiyatning madaniy taraqqiyoti va yosh avlodning ma'naviy barkamolligini ta'minlovchi muhim bo`g`in hisoblanadi. Maktablarda musiqa madaniyati fanini o`qitish samaradorligini oshirish orqali biz nafaqat iste'dodli yoshlarni kashf etamiz, balki keng ma'nodagi madaniy va ma'rifatli jamiyatni barpo etamiz. YUqorida qayd etilgan vazifalarning tizimli ravishda hal etilishi ta'lim jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko`taradi.

Musiqa madaniyati fanidan dars ishlanmasi.

I. Darsning umumiy ma'lumotlari:

Fan: Musiqa madaniyati.

Sinf: 5-sinf.

Mavzu: 1.4. O`zbek xalq cholg`u asboblari va ularning guruhlarga bo`linishi.

Darsning turi: YAngi bilimlarni tushuntirish, amaliy va ko`rgazmali dars Davomiyligi: 45 daqiqa.

II. Darsning maqsad va vazifalari:

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

Ta'limiy maqsad: O`quvchilarga o`zbek xalq cholg`u asboblarining kelib chiqishi, turlari va ularning guruhlarga (torli-mizrobli, puflama, zarbli) bo`linishi haqida batafsil ma'lumot berish.

Tarbiyaviy maqsad: O`quvchilarda milliy madaniyatimizga, qadimiy cholg`ularimizga hurmat tuyg`usini shakllantirish, milliy g`urur va estetik didni o`stirish.

Rivojlantiirish maqsadi: O`quvchilarning musiqiy eshitish qobiliyatini, tafakkurini va turli cholg`ularning tovushini bir-biridan farqlay olish ko`nikmalarini rivojlantirish.

III. Darsda foydalaniladigan jihozlar va ko`rgazmali qurollar:

O`zbek xalq cholg`u asboblarining suratlari yoki plakatlari.

Sintezator yoki kompyuter (audio va video yozuvlarni eshittirish uchun).

Dutor, doira kabi asboblar (agar imkoniyati bo`lsa, jonli ijroda ko`rsatish uchun). Tarqatma materiallar (test va savol-javob kartochkalari).

IV. Darsning borishi va texnologik xaritasi:

1. Tashkiliy qism (5 daqiqa).

Salomlashish, davomatni tekshirish. Sinfning tozaligi va o`quvchilarning darslik, daftarlar bilan ta'minlanganini ko`zdan kechirish. O`quvchilarning e'tiborini darskorga qaratish uchun qisqacha musiqiy topishmoq yoki kichik savol-javob o`tkazish.

2. O`tilgan mavzuni takrorlash va yangi mavzuga o`tish (7 daqiqa). Ustoz o`tgan darslarda o`rganilgan o`zbek xalq qo`shiqlari va ularning turlarini qisqacha so`raydi. Rag`batlantiruvchi savollar:

Xalq qo`shiqlari deganda nimani tushunasiz?

Qadimiy musiqa asboblari haqida nimalarni bilasiz?

Ushbu savollar orqali yangi mavzu — cholg`u asboblari olamiga o`tiladi.

3. YAngi mavzu bayoni (15 daqiqa).

O`zbek xalq musiqa cholg`ulari asrlar davomida xalqimizning turmush tarzi, didi va estetik arashlari asosida shakllangan. Ular asosan uchta asosiy guruhga bo`linadi:

Torli-mizrobli (va kamonli) cholg`ular: Bu guruhga simlari yoki torlari mizrob (noxun) yoki kamon yordamida chertib yoki tosh tortib chalinadigan asboblar kiradi. Asosiy namunalari: Dutor, tanbur, rubob, g`ijjak, soz.

O`ziga xos xususiyati: Mayin, lirik va chuqur falsafiy kayfiyat bag`ishlaydi.

Puflama (nafas bilan chalinadigan) cholg`ular:

Havo oqimi yordamida tovush chiqariladigan asboblar guruhi.

Asosiy namunalari: Nay, surnay, karnay, g`ujirnay, qo`shnay.

O`ziga xos xususiyati: Odatda bayramlarda, ochiq havoda yoki xalq sayillarida keng qo`llaniladi. Nay esa lirik va tabiat manzaralarini eslatuvchi mayin ovozga ega. Zarbli (urma) cholg`ular:

Qattiq qismiga urish, chertish yoki silkitish orqali ritm va zarb beradigan asboblar. Asosiy namunalari: Doira, nog`ora, qayroq, safoyl.

O`ziga xos xususiyati: Musiqaning ritmik asosini tashkil etadi, raqs va qo`shiqlarda ohangni ushlab turadi.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

V. Mustahkamlash va amaliy mashq (10 daqiqa).

Audio-tinglash mashqlari: Sinfda dutor, nay va doira ijrosidagi qisqa musiqiy parchalar eshittiriladi. O`quvchilar eshitilgan ovoz qaysi cholg`u asbobiga tegishli ekanligini topishlari kerak.

Guruhlarga ajratish mashqi: Doskaga quyidagi asboblar yoziladi: karnay, rubob, doira, g`ijjak, nay, qayroq. O`quvchilar ularni tegishli guruhlarga (torli, puflama, zarbli) to`g`ri joylashtiradilar.

VI. Baholash va uyga vazifa (8 daqiqa).

Baholash: Dars davomida faol qatnashgan, savollarga to`g`ri javob bergan va mashqlarda qatnashgan o`quvchilar rag`batlantiriladi va baholanadi.

Uyga vazifa: Mavzu matnini o`qib kelish. O`zlariga yoqqan biror bir o`zbek xalq cholg`u asbobi haqida qo`shimcha ma'lumot yoki she'r topib kelish. Daftarlarga cholg`u turlarining jadvalini chizib, misollar yozish.

ADABIYOTLAR RO'YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. O`zbekiston Respublikasining «Ta'lim to`g`risida»gi Qonuni. – Toshkent: Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 2020.
2. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari va farmonlari (madaniyat va san'at sohasini rivojlantirish, yoshlarni estetik tarbiyalashga oid).
3. Rajabov T. Musiqa o`qitish metodikasi. – Toshkent: O`qituvchi, 2013.
4. Akbarov I. Musiqa lug`ati. – Toshkent: G`afg`om G`ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 1997.
5. Xoliqov A. Musiqa o`qitish metodikasi va amaliyoti. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2015.
6. YUnusov R. O`zbek xalq musiqa ijodiyoti. – Toshkent: Musiqa, 2007.
7. Abdullaev R. O`zbek an'anaviy musiqa ijrochiligi tarixi. – Toshkent: Fan, 2005.
8. Hasanov B. Umumiy o`rta ta'lim maktablarida musiqa madaniyatini o`qitishning zamonaviy pedagogik texnologiyalari. – Toshkent: TDPU, 2018.
9. Smirnova ye. ye. Metodika muzykalnogo vospitaniya v shkole. – Moskva: Prosveshenie, 2010.
10. Kabalevskiy D. B. Vospitanie uma i serdsa. – Moskva: Prosveshenie, 1981.
11. "Inter Education & Global Study" ilmiy jurnali maqolalari (musiqa va san'at ta'limi yo`nalishlari).

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

“YOSHLARNING SHAXSLARARO MUNOSABATLARIDA PSIXOLOGIK CHEGARALARNI SHAKLLANTIRISHNING SHAXSIY VA IJTIMOIY-PSIXOLOGIK DETERMINANTLARI”.

Saparov Murod Yuldashovich, O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi, “Din psixologiyasi va pedagogika”kafedrasi dotsenti.
Magistranti Umarova Maftuna, O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi.

Annotatsiya

KIRISH: mazkur maqolada yoshlarning shaxslararo munosabatlarida psixologik chegaralarning shakllanishiga ta’sir etuvchi shaxsiy va ijtimoiy-psixologik determinantlar nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Psixologik chegaralar shaxsning o‘z fikri, hissiyoti, ehtiyoji, qadriyati va shaxsiy makonini boshqalarning ta’siridan farqlay olishi hamda shaxslararo munosabatlarda o‘z chegaralarini konstruktiv tarzda belgilay olishi bilan bog‘liq murakkab psixologik jarayon sifatida qaraladi. Shaxs xususiyatlari, o‘z-o‘zini anglash, shaxsiy avtonomiya, oilaviy munosabatlar, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va ijtimoiy kutilmalarning psixologik chegaralar shakllanishidagi o‘rni ushbu maqolada tahlil qilinadi. Ayniqsa, O‘zbekiston yoshlarining oilaviy va ijtimoiy-madaniy muhitida shaxsiy mustaqillik hamda yaqin ijtimoiy munosabatlar o‘rtasidagi muvozanat masalasiga alohida e’tibor qaratiladi.

MAQSAD: yoshlarning shaxslararo munosabatlarida psixologik chegaralarning shakllanish mexanizmlari, shaxsiy avtonomiya va differensiallashuv jarayonlarining o‘zaro bog‘liqligini nazariy jihatdan tahlil qilish.

MATERIALLAR VA METODLAR: ilmiy adabiyotlar tahlili, tizimli yondashuv, M. Bowenning oilaviy tizimlar nazariyasi hamda shaxsning o‘zini anglash va emotsional differensiallashuv konsepsiyalariga asoslangan qiyosiy-psixologik umumlashtirish metodlari.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: psixologik chegaralar yaqinlik va individuallik o‘rtasidagi muvozanat ekanligi, ularning funksionalligi shaxsning o‘zligini anglashi hamda oilaviy muhitdagi shart-sharoitlarga bevosita bog‘liqligi aniqlandi.

Hoji Abdulaziz Rasulov ijodiga mansub “Samarqand Ushshog‘ida” namudlarning o‘ziga hos qo‘llanilganini ko‘rish mumkun. Bastakor ushbu asarida namudlardan o‘ziga hos foydalangan bo‘lib, Uzzol va Chorgoh namudlariga monand kuy ohangini “Samarqand Ushshog‘i” asarning avj qismida emas balki boshlang‘ich kuy jumlalariga kiritilgan. Bu haqida Chinora Ergasheva quyidagicha bayon qiladi. “Bizningcha, bu holni ikki omil bilan — birinchidan, Farg‘ona–Toshkent uslubining ta’siri, ikkinchidan esa Hoji Abdulaziz Rasulovning maqom avjlariga ijodkorona yondoshuvi bilan asoslash mumkin. Tadqiqotning II bobida “Saraxbori Rost” avjlari (namudlari) asosida keyingi asosiy qism sho‘basi — “Talqini Ushshoq” nazirasining yuzaga kelishi haqida aytilgan edi. Nazarimizda, “Samarqand Ushshog‘i”ning boshlanishi ham buxorolik ijodkorlar an’anasining bir ko‘rinishidir.”[4] Mazkur fikrga izoh sifatida ta’kidlash joizki bastakorlar ijodida namudlar o‘ziga hos ko‘rinishni kasb etgan bo‘lib, nafaqat avj qismida balki daromad qismida ham o‘ziga hos ko‘rinishda namoyon bo‘lishi extimoldan xoli emas. Hoji Abdulaziz Abdurasulov “Samarqand Ushshog‘i” asarida nafaqat kirish qismida balki avj qismida ham namudlardan foydalangan. Xususan avj qismida Uzzol namudiga hos “ohang

[1]Rajabiy Yu. Muzika merosimizga bir nazar. – Toshkent : G’afur G’ulom nomidagi adabiyot va San’at, 1978 -134b
[2] Rajabiy Yu. Muzika merosimizga bir nazar. – Toshkent : G’afur G’ulom nomidagi adabiyot va San’at, 1978 - 54b
[3] Rajabiy Yu. Muzika merosimizga bir nazar. – Toshkent : G’afur G’ulom nomidagi adabiyot va San’at, 1978 - 53b
[4] Ergasheva Ch. O’zbek mumtoz musiqasida nazira an’analari. – Toshkent : Musiqa, 2022- 118b

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

sakramasi tarzida emas, balki pog‘ona-ma-pog‘ona pastlashish vositasida amalga oshgan. Uzzol kuy tuzilmasining shu kabi ko‘rinishlari asar avjlarida kelish hollari ham uchraydi.”[5]

Bastakor Fattohxon Mamadaliyev “Ushshoqlar” ustida ko‘p ijod qilib turkumlashtirish ishlarini olib brogan. Bastakor tomonidan qayta turkumlashtirilgan asarlardan biri “Umurzoq Polvon” asarda Ushshoq namudidan foydalangan.[6] Mula To‘ychi Toshmuhammedovning “Toshkent Ushshog‘i” da “Uzzol namudi” dan foydalanilgan.[7]

Yunus Rajabiy “Muzika merosimizga bir nazar” asarida Ushshoqlarga kiritilgan avj va namudlar haqida juda ko‘p to‘xtalib o‘tkan. Masalan, “Ushshoqi Xo‘qand” da ilgari “Avji Zebo pari” kichik shaklda aytilgan,Yunus Rajabiy esa avjni to‘la qilib ishlab, “Namudi Ushshoq” va “Namudi Uzzol” larni kiritgani haqida bayon etadi.[8] Shuningdek “Qo‘qon Ushshog‘i” asariga maqomchilar ansambliga o‘rgatish jarayonida “Zebo pari”, “Namudi Ushshoq”lar qo‘shilgan va ushbu asar qayta ishlangan va mukammallashtirilgan.[9]

Shu o‘rinda aytish joizki bastakorlar bilan bir qatorda maqom ijrochi hofiz va xonandalar tajriba ham maxoratlaridan kelib chiqib, amaliyotda mumtoz maqom namunlariga bittadan to‘rttagacha namudlar bog‘lab ashula avjini kengaytirgan xolda ijro qilishadi.

Uchinchi uslubda bastakorlar o‘z mualliflik asarlarida ham namud va avjlar kiritishgan. Bunda yaratilgan ashula ma’lum maqom yo‘li asosida yozilgan bo‘lib maqom sho‘balari asosida yozilgan bastakor asarlariga Is’hoq Rajabov “T.Jalilovning “Ishq seli”, “So‘rmadi”, Yunus Rajabiyning “Yor keldi”, “Ra’nolanmasun”, D.Zokirovning “Ey Sabo”, “Ko‘rmadim”, S.Kalonivning “Ey Nasimiy”, “Topmadim”[10] asarlarini kiritib o‘tgan.

Saidjon Kalonovning “Topmadim” ashulasini tahlil qilib namudlar kirtilganini guvohi bo‘ldik. Quyida asar tahlili keltirib o‘tamiz. Ushbu asar “Mog‘ulchayi Dugoh”[11] asosida yozilgani xususida manbalarda ma’lumotlar keltirilgan. Xususan Yunus Rajabiy ushbu asarni ““Topmadim” ashulasini ham 1944 yil S.Kalonov 3/8+3/4 o‘lchovlik qilib, “Ey nasimi” singari maqomlardagi “Talqinchalar” uslubida yaratgan edi. Bu kuy “Mog‘ulchai Dugoh” talqinchasini eslatadi”[12]. Ashula cholg‘u muqaddimasi bilan boshlanadi. Daromad Navoiyning “ Mehr ko‘p ko‘rgizdim, ammo, mehribone topmadim” so‘zlaridan boshlanadi. Ashula Dugoh maqom yo‘llariga monand re- miksalidiy ladida yozilgan. Asarning daromad qismi katta bo‘lib ikki bayt ijro etiladi. Ashulada miyonxat qismiga hos jixatlar mavjud bo‘lmasada uchinchi bayt “Ishq aro yuz ming malomat o‘qig‘a bo‘ldim nishon” so‘zlaridan Dunasr ga monand qism kirib keladi. Ushbu bo‘lakda asarning tayanch tovushi “d” bir oktava yuqorida yangray boshlaydi va kuy xarakati asta sekin yuqoriga qarab intiladi.

[5] Ergasheva Ch. O’zbek mumtoz musiqasida nazira an’analari. – Toshkent : Musiqa, 2022 – 120b
[6] Ergasheva Ch. O’zbek mumtoz musiqasida nazira an’analari – Toshkent : Musiqa, 2022 – 136-40b
[7] Ergasheva Ch. O’zbek mumtoz musiqasida nazira an’analari – Toshkent : Musiqa, 2022 – 132b
[8] Rajabiy Yu. Muzika merosimizga bir nazar. – Toshkent : G’afur G’ulom nomidagi adabiyot va San’at, 1978 - 41b
[9] Rajabiy Yu. Muzika merosimizga bir nazar. – Toshkent : G’afur G’ulom nomidagi adabiyot va San’at, 1978 - 41b
[10] Rajabov I. Maqomlar. - Toshkent : San’at, 2006-313b
[11] Rajabov I. Maqomlar. - Toshkent : San’at, 2006-314b
[12] Rajabiy Yu. Muzika merosimizga bir nazar. – Toshkent : G’afur G’ulom nomidagi adabiyot va San’at, 1978 -55b

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

Dunasr bo‘lagidan so‘ng ashulaning avj qismi boshlanadi. Ashulaning avjida “Muhayyari Chorgoh” namudi kiritilgan bo‘lib, ushbu namud 6 taktli cholg‘u qismi orqali ulanib “Ko‘p o‘qidum Vomiqu, Farhodu, Majnun qissasin” baytida ifoda etilgan. Ashulaning avj qismi ikki baytdan tashkil topgan bo‘lib, bastakor “Muhayyari Chorgoh” namudini ixchamlashtirgan xolda o‘z asarida qo‘llagan.

1- Misol “Topmadim”(bastakorlar ijodiyoti: notalar to‘plami 131b)



Ashula “Bir zamon ishqida mehnatdin amone topmadim” misralari bilan tushirim ko‘rinishida yakunlanadi.

Bastakorlar ijodida maqom yo‘llari mualliflik asarlarida qo‘llanilganida o‘ziga hos ko‘rinishda ifoda etiladi bu haqida Is’hqo Rajabov quyidagicha bayon qilgan “Maqom yo‘llari asosida ishlangan asar ko‘pincha ularning ixchamlashtirilgan shakli bo‘ladi. Bunda kuy va ashulalarga yangi musiqa lavhalari, yangicha usul va qochirimlar kiritish bilan ularning yoqimliligi va ta’sirchanligi yanada orttiriladi”.[13] Darxaqiqat maqom asosida yozilgan bastakorlarning mualliflik asarlarida namudlar ham ixchamlashtirilgan ya’ni bir misra qisqartirilgan ko‘rinishda ishlatilishini Saidjon Kalonovning “Topmadim” ashulasi misolida ko‘rib chiqdik.

Bastakorlarning mualiflik asarlarida nafaqat namudlar avjlardan ham foydalanilgan bo‘lib, jumladan Hoji Abdulaziz Rasulovning “Guluzorim’ asarida Turk Avjining o‘ziga hos kiritilganini ko‘rish mumkun. Ushbu asar xalq ohanglari va mumtoz musiqa jihatlari bilan umumlashgan bo‘lib, bu haqida S.Begmatov quyidagicha izohlaydi. “Amaliyotda “Guluzorim” ashulasining ikki-uch varianti mavjuddir. Birinchi variant — katta avj bilan ijro etilgan. Ikkinchisi avj qismini sakramasizlar siz ijro etib kelingan. “Guluzorim” ashulasi mumtoz ashula yo‘llariga xos bo‘lib, xalqona ohang, badahaviylik xususiyatlari bilan ajralib turadi. Ashulaning ohangi juda sodda va kvarta oralig‘idagi kuy tuzilmadan tashkil topgan. Mumtozlik jihatlari maqom yo‘larida yaratilganligi bilan xarakterlanadi. Xususan, bastakor ustalik bilan “avji turk”ni qo‘llagan.”[14] Ashulaga Alisher Navoiy g‘azaliga Amiriy muhammasi tanlab olingan. Shakl jixatidan esa Shashmaqom mushkilot qismlariga o‘xshash xona va bozgo‘y ko‘rinishida.

Birinchi xona quyi pardalarda boshlanib bozgoy va ikkinchi xona bo‘laklarida yuqoriga qarab asta rivojlanadi. Asarning avj qismi 3 xonaga tog‘ri kelib “Gohi Majnun elga goh men sog‘ ilan teng o‘lnisham” so‘zlaridan boshlab bir bayt to‘liq kir Turk avji kiritilgan.

[13] Rajabov I. Maqomlar. - Toshkent : San’at, 2006-313b
[14] Begmatov S. Bastakorlar ijodiyoti notalar to’plami (Xrestomatiya).- Toshkent; Nur-star shines, 2022-7b

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

Xulosa qiladigan bo‘lsak namudlar maqom yo‘llarida qo‘llanilganida ma’lum, o‘zining qonun va maqom avjlariga kiritilish xususiyatlariga bo‘ysungan xolda bog‘lanadi. Namudlar bastakorlik asarlarida esa bastakar tajribasi, o‘ziga hos uslubi va ijodkorligi negizida o‘ziga hos ko‘rinishda ifoda etiladi. Bunga misollarni esa yuqorida Hoji Abdulaziz Rasulovning “Samarqand Ushshog‘i”, Saidjon Kalonovning “Topmadim” ashulasi misolida ko‘rib chiqdik. Bastakorlar namudlardan foydalanish orqali asarni shaklini mukammalashtirish, asarga o‘ziga hos jilov berish jixatlaridan foydalanishgan.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Ahmedov M. Yunus Rajabiy. - Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1982.
2. Begmatov S. Bastakorlar ijodiyoti notalar to‘plami (Xrestomatiya).- Toshkent; Nur-star shines, 2022
3. Begmatov. S. Bastakorlik ijodi.- Toshkent: Niso Poligraf, 2017.
4. Ergasheva. Ch. O‘zbek an’anaviy musiqasida nazira an’analari. – Toshkent: Musiqa, 2022.
5. G‘ofurbekov.T. Bastakorlik ijodiyoti tarixi, tahlili, taqdiri.- Toshkent: Muharrir, 2019.
6. Rajabiy.Yu. Muzika merosimizga bir nazar. - Toshkent: G.G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1978.
7. Rajabov I. Maqomlar. - Toshkent: San’at, 2006.
8. Бердиханова Ш.Н. Традиция дастанного исполнительства в Каракалпакистане // Oriental Art and Culture. 2022. №4. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/traditsiya-dastannogo-ispolnitelstva-v-karakalpakstane

© intereduglobalstudy.com

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

O‘QUVCHILARNING FAZOVIY TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY TA'LIMDAGI AHAMIYATI.

Mamasaidova Muhabbat Abdusalom qizi, Farg‘ona davlat universiteti, Boshlang‘ich ta’lim uslubiyoti kafedrasi dotsenti, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

Annotatsiya

KIRISH: mazkur maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining fazoviy tafakkurini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari, metodik shart-sharoitlari va amaliy usullari yoritilgan. Fazoviy tafakkur o‘quvchining predmetlarning shakli, o‘lchami, joylashuvi, yo‘nalishi va o‘zaro munosabatlarini idrok etishi, ularni ongida o‘zgartirishi hamda turli vaziyatlarda tasavvur qila olishi bilan bog‘liq. Tadqiqot mazmunida fazoviy tasavvurlarni rivojlantirishning vizual, amaliy-konstruktiv, modellashtirish, transformatsion, o‘yinli va axborot-kommunikatsion texnologiyalarga asoslangan usullari tahlil qilinadi. Shuningdek, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida “o‘ng–chap”, “yuqori–quyi”, “old–orqa” kabi fazoviy munosabatlarni shakllantirish, real muhitni sxematik tasvirlash va obyektlarni ongda aylantirishga doir topshiriqlarning metodik ahamiyati ochib beriladi.

MAQSAD: boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining fazoviy tafakkurini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari, metodik shart-sharoitlari va amaliy usullarini tahlil qilish hamda ularni ta’lim jarayoniga tatbiq etish mexanizmlarini yoritib berishdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda vizual-modellashtirish, amaliy-konstruktiv, transformatsion mashqlar, "Kartolog" metodi, didaktik o‘yinlar va GeoGebra kabi axborot-kommunikatsion texnologiyalarga asoslangan pedagogik hamda tahliliy metodlardan foydalanildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: fazoviy tafakkurning 5 ta asosiy komponenti (fazoviy idrok, ko‘rgazmali-amaliy tafakkur, fazoviy modellashtirish, mental transformatsiya va fazoviy-mantiqiy fikrlash) ajratib ko‘rsatildi. "O‘ng-chap", "yuqori-quyi" va "old-orqa" kabi fazoviy munosabatlarni bosqichma-bosqich shakllantirish, shuningdek, shakllarni ongda 90° yoki 180° ga burish mashqlari hamda GeoGebra dasturi va konstruktorlar (Lego, Polydron) orqali obyektlarni modellashtirishning yuqori metodik samaradorligi isbotlandi.

XULOSA: fazoviy tafakkurni rivojlantirishda real predmetlardan uning chizma va sxematik tasviriga, so‘ngra ongdagi mental modelga o‘tish izchilligiga amal qilish lozim. Interaktiv vositalar va amaliy-konstruktiv faoliyatning uyg‘unlashuvi o‘quvchilarning kuzatuvchanlik, tahlil qilish, modellashtirish va mantiqiy fikrlash ko‘nikmalarini kompleks rivojlantiradi.

Kalit so‘zlar: fazoviy tafakkur, fazoviy tasavvur, fazoviy idrok, modellashtirish, konstruktiv faoliyat, transformatsiya, didaktik o‘yin, GeoGebra, boshlang‘ich ta’lim.

ЗНАЧЕНИЕ РАЗВИТИЯ ПРОСТРАНСТВЕННОГО МЫШЛЕНИЯ УЧАЩИХСЯ В СОВРЕМЕННОМ ОБРАЗОВАНИИ.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

Мамасаидова Мухаббат Абдусалом кизи, доцент кафедры методики начального образования Ферганского государственного университета, доктор философии по педагогическим наукам (PhD).

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в статье освещаются педагогические возможности, методические условия и практические методы развития пространственного мышления учащихся начальных классов. Пространственное мышление связано со способностью учащегося воспринимать форму, размер, расположение, направление и взаимосвязи между предметами, мысленно преобразовывать их и представлять в различных ситуациях. В содержании исследования анализируются визуальные, практико-конструктивные, моделирующие, трансформационные, игровые методы, а также методы, основанные на информационно-коммуникационных технологиях, направленные на развитие пространственных представлений. Раскрывается методическое значение заданий, направленных на формирование у учащихся начальных классов пространственных отношений «право–лево», «верх–низ», «спереди–сзади», схематическое изображение реального пространства и мысленное вращение объектов.

ЦЕЛЬ: исследование педагогических возможностей, методических условий и практических методов развития пространственного мышления у учащихся начальных классов, а также обоснование их эффективности.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании использованы визуально-моделирующие, практико-конструктивные, трансформационные методы, метод «Картолог», дидактические игры, а также информационно-коммуникационные технологии на базе программы GeoGebra.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: выделены 5 ключевых компонентов пространственного мышления (пространственное восприятие, наглядно-действенное мышление, пространственное моделирование, ментальная трансформация и пространственно-логическое мышление). Раскрыто методическое значение заданий на формирование пространственных отношений («право-лево», «верх-низ», «спереди-сзади»), вращение объектов в уме на 90°/180°, а также моделирование геометрических фигур с помощью конструкторов (Lego, Polydron) и цифровых инструментов GeoGebra.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: эффективность развития пространственного мышления обеспечивается соблюдением поэтапности: от реального предмета к его схематическому изображению и далее к мысленной модели. Интеграция практико-конструктивной деятельности и интерактивных технологий способствует формированию навыков анализа, моделирования и логического мышления у младших школьников.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

Ключевые слова: пространственное мышление, пространственное представление, пространственное восприятие, моделирование, конструктивная деятельность, трансформация, дидактическая игра, GeoGebra, начальное образование.

THE IMPORTANCE OF DEVELOPING STUDENTS' SPATIAL THINKING IN MODERN EDUCATION.

Mamasaidova Muhabbat Abdusalom qizi, Associate Professor at the Department of Primary Education Methodology, Fergana State University, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences.

Annotation

INTRODUCTION: this article explores the pedagogical opportunities, methodological conditions, and practical methods for developing spatial thinking among primary school students. Spatial thinking is associated with students' ability to perceive the shape, size, location, direction, and relationships of objects, mentally transform them, and visualize them in different situations. The study analyzes visual, practical-constructive, modeling, transformational, game-based, and information and communication technology-based methods aimed at developing spatial representations. Particular attention is given to the methodological significance of tasks designed to develop spatial relations such as "right–left," "up–down," and "front–back," as well as to tasks involving the schematic representation of real environments and the mental rotation of objects.

AIM: to examine the pedagogical potential, methodological conditions, and practical techniques for developing spatial thinking in primary school students and to demonstrate their practical application.

MATERIALS AND METHODS: the study employed visual modeling, practical-constructive, transformational, and didactic game methods, the "Cartologist" technique, and information and communication technologies centered around GeoGebra software.

DISCUSSION AND RESULTS: five core components of spatial thinking were identified: spatial perception, visual-action thinking, spatial modeling, mental transformation, and spatial-logical reasoning. The study demonstrated the effectiveness of tasks aimed at establishing basic spatial orientations ("right-left", "up-down", "front-back"), mental rotation exercises (90° or 180°), and modeling objects using building sets (Lego, Polydron) and GeoGebra digital tools.

CONCLUSION: the development of spatial reasoning requires a progressive sequence: moving from real physical objects to schematic representations, and ultimately to internal mental models. Combining hands-on constructive activities with interactive digital technology effectively enhances primary students' analytical, observational, and logical reasoning skills.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

Keywords: spatial thinking, spatial representation, spatial perception, modeling, constructive activity, transformation, didactic game, GeoGebra, primary education.

Boshlang‘ich ta’limda o‘quvchining matematik bilimlarini shakllantirish faqat sonlar, amallar va hisoblash ko‘nikmalarini rivojlantirish bilan chegaralanmaydi. O‘quvchi atrofidagi predmetlarning qanday joylashganini anglay olishi, ularning shakli va o‘lchamini farqlashi, bir obyektning boshqa obyektga nisbatan o‘rnini aniqlashi ham muhim hisoblanadi. Shu jihatdan fazoviy tafakkur boshlang‘ich sinf o‘quvchisining umumiy aqliy rivojlanishi va matematik faoliyatida muhim tarkibiy qism sifatida namoyon bo‘ladi.

Fazoviy tasavvur predmet yoki hodisaning shakli, o‘lchami, joylashuvi, yo‘nalishi va harakatini bevosita ko‘rmasdan ongda gavdalantirish imkonini beradi. Bunday qobiliyat o‘quvchining kuzatuvchanligi, tahlil qilish, taqqoslash va xulosa chiqarish faoliyati bilan chambarchas bog‘liq. Boshlang‘ich yosh davrida ushbu qobiliyatlar tabiiy ravishda rivojlanib borsa-da, ularni maqsadli pedagogik faoliyat orqali izchil shakllantirish ta’lim samaradorligini oshiradi.

Fazoviy tasavvurlar yetarlicha shakllanmagan hollarda o‘quvchi yozuv jarayonida harflarning joylashuvi, satrni saqlash, shakllarni farqlash yoki ularning yo‘nalishini aniqlashda qiyinchilikka duch kelishi mumkin. Shuning uchun fazoviy tafakkurni rivojlantirishni boshlang‘ich ta’limning dastlabki bosqichlaridan boshlash maqsadga muvofiqdir.

Fazoviy tafakkurning tarkibiy komponentlari

Boshlang‘ich sinf o‘quvchisida fazoviy tafakkur bir nechta o‘zaro bog‘liq komponentlar asosida rivojlanadi.

Birinchi komponent — fazoviy idrok. O‘quvchi predmetlarning shakli, rangi, hajmi va yo‘nalishini farqlay boshlaydi. Masalan, kub va to‘g‘ri burchakli parallelepipedning tashqi ko‘rinishidagi farqlarni aniqlash, predmetlarning katta-kichikligini taqqoslash fazoviy idrokning dastlabki ko‘rinishlari hisoblanadi.

Ikkinchi komponent — ko‘rgazmali-amaliy tafakkur. Bunda o‘quvchi tayyor ma’lumotni qabul qilish bilan cheklanmay, predmetni qo‘li bilan ushlab ko‘radi, uni joylashtiradi, qismlarga ajratadi yoki qayta yig‘adi. Qog‘ozdan geometrik shakllar yasash, konstruktorlardan turli modellar yaratish, kubiklardan bino qurish kabi faoliyatlar mazkur ko‘nikmani rivojlantiradi.

Uchinchi komponent — fazoviy modellashtirish. O‘quvchi real obyektni rasm, chizma, sxema yoki maket ko‘rinishida ifodalashni o‘rganadi. Dastlab sodda obyektlar, keyinchalik esa bir nechta elementlardan tashkil topgan murakkab modellar bilan ishlash tavsiya etiladi.

To‘rtinchi komponent — mental transformatsiya. Bu obyektni ongda burish, aylantirish, kattalashtirish, kichraytirish yoki boshqa joyga ko‘chirishni tasavvur qila olish qobiliyatidir. Masalan, o‘quvchiga geometrik shakl berilib, uni 90° yoki 180° ga burilganda qanday ko‘rinishga kelishi haqida savol berish mumkin.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

Beshinchi komponent — fazoviy-mantiqiy fikrlash. Bunda o‘quvchi obyektlarning o‘zaro joylashuvi va munosabatlarini tahlil qiladi. Labirintdan chiqish yo‘lini topish, mozaikani yig‘ish, berilgan sxema asosida obyektni aniqlash kabi mashqlar mazkur komponentni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Fazoviy munosabatlarni shakllantirishning amaliy yo‘llari

Boshlang‘ich sinfda fazoviy tafakkurni rivojlantirishni eng sodda fazoviy munosabatlardan boshlash maqsadga muvofiq. “O‘ng”, “chap”, “yuqori”, “quyi”, “old”, “orqa” kabi tushunchalar keyingi murakkab topshiriqlar uchun tayanch vazifasini bajaradi.

Masalan, “O‘ng va chapni aniqlang” topshirig‘ida bir o‘quvchi doska oldida turadi. Uning o‘ng qo‘liga kitob, chap qo‘liga ruchka beriladi. Sinfdagi o‘quvchilarga esa quyidagi savollar beriladi: “Kitob qaysi qo‘lda?”, “Ruchka qaysi tomonda?”, “Do‘stingizning o‘ng qo‘li sizga qaysi tomonda ko‘rinmoqda?”. Ushbu topshiriqning afzalligi shundaki, o‘quvchi boshqa odamning holatini ham hisobga olishi kerak bo‘ladi. Bu esa fazoviy munosabatlarni faqat o‘z nuqtayi nazaridan emas, boshqa nuqtayi nazardan ham tushunishga yordam beradi.

“Yuqori–quyi” munosabatlarini mustahkamlash uchun qog‘oz bilan ishlash topshirig‘idan foydalanish mumkin. O‘quvchi qog‘ozni to‘rt qismga ajratadi va har bir qismga oldindan belgilangan predmet rasmini joylashtiradi. Masalan, o‘ng yuqori qismga uy, chap quyi qismga gul, o‘ng quyi qismga kuchuk va chap yuqori qismga kitob tasvirlanadi. Bunda o‘quvchining fazoviy yo‘nalishlarni anglash darajasi bilan birga ko‘rsatmani eslab qolish va uni grafik shaklda ifodalash qobiliyati ham rivojlanadi.

“Kartolog” metodidan foydalanish

Fazoviy tafakkurni rivojlantirishda o‘quvchining real muhitdan foydalanishi ayniqsa muhim. Shu maqsadda “Kartolog” metodini bosqichma-bosqich qo‘llash mumkin.

Birinchi bosqichda o‘quvchi o‘zining sinfdagi joylashuvini tasvirlaydi. U o‘zining o‘ng, chap, old va orqa tomonida qanday predmetlar borligini aytadi.

Ikkinchi bosqichda butun sinf xonasining soddalashtirilgan xaritasi tuziladi. O‘quvchi partalar, doska, eshik, deraza va boshqa obyektlarning o‘zaro joylashuvini sxematik ifodalaydi.

Uchinchi bosqichda maktab binosining joylashuvi tasvirlanadi. O‘quvchilar maktabga yaqin obyektlarni ham xaritada ko‘rsatishga harakat qiladilar.

To‘rtinchi bosqichda esa topshiriq hududiy darajaga olib chiqiladi. O‘quvchi o‘zi yashaydigan hududni, unga yaqin joylashgan hududlarni va ularning o‘zaro yo‘nalishini tasvirlaydi. Shu tariqa oddiy “o‘ng–chap” tushunchalaridan boshlab murakkabroq geografik-fazoviy tasavvurlargacha bosqichma-bosqich o‘tish imkoniyati yaratiladi.

Konstruktiv va transformatsion topshiriqlarning imkoniyatlari

Fazoviy tafakkurni rivojlantirishda o‘quvchining obyekt bilan bevosita faoliyat olib borishi muhim. Polydron, Lego, karton va boshqa konstruktiv materiallardan foydalanish orqali o‘quvchi geometrik shakllarni nafaqat ko‘radi, balki ularni yaratadi va o‘zgartiradi.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

Masalan, o‘quvchiga bir nechta geometrik elementlar berilib, ulardan uy, minora yoki boshqa predmet modelini yaratish topshiriladi. Keyingi bosqichda tayyor modelning ayrim qismlarini o‘zgartirib, yangi model yaratish taklif qilinadi. Bunday faoliyat o‘quvchini fazoviy obyektning qismlari va butunligi o‘rtasidagi munosabatni anglashga olib keladi.

Transformatsion mashqlarda esa o‘quvchidan shaklni 90° yoki 180° ga burilganda uning ko‘rinishini aniqlash, o‘q bo‘yicha akslantirilgan shaklni topish yoki obyektning boshqa tomondan ko‘rinishini tasavvur qilish talab etiladi. Bunday mashqlar mental transformatsiyani rivojlantirishga xizmat qiladi.

Taqqoslash va tahlil metodida esa ikki yoki undan ortiq shaklning o‘lchami, tomonlari, burchaklari, yo‘nalishi va joylashuvi qiyoslanadi. O‘quvchi “Qaysi shakl o‘zgardi?”, “Qaysi tomoni bir xil qoldi?”, “Shakl qaysi yo‘nalishda burildi?” kabi savollarga javob beradi.

Didaktik o‘yinlarning pedagogik imkoniyatlari

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda fazoviy topshiriqlarni o‘yinlar bilan uyg‘unlashtirish samarali metodik vosita bo‘la oladi.

“Sirli figura” o‘yinida o‘quvchiga shaklning ayrim belgilari tavsiflanadi va u shu belgilar asosida figurani aniqlaydi. “Top o‘z o‘rnini” o‘yinida predmetlar berilgan sxema asosida joylashtiriladi. “Aylangan shaklni tanla” o‘yinida esa shaklning o‘zgartirilgan holati orasidan to‘g‘ri variant topiladi. “Simmetriya top” o‘yinida o‘quvchilar shaklning simmetriya o‘qini aniqlaydilar.

Bunday o‘yinlarning asosiy afzalligi o‘quvchini faol harakatga jalb qilishidir. O‘quvchi tayyor javobni kutmaydi, balki kuzatadi, taqqoslaydi, taxmin qiladi va o‘z javobini asoslashga harakat qiladi.

Axborot texnologiyalaridan foydalanish

Zamonaviy ta’lim vositalari fazoviy obyektlarni harakatlantirish, ularni turli nuqtayi nazardan kuzatish va o‘zgarishlarni bevosita ko‘rish imkonini beradi. Xususan, GeoGebra dasturidan foydalanish boshlang‘ich matematika ta’limida geometrik obyektlar bilan interaktiv ishlash uchun imkoniyat yaratadi.

GeoGebra yordamida nuqta, kesma, to‘g‘ri chiziq, geometrik shakllar, ularning o‘lchamlari, perimetri va yuzasini ko‘rgazmali tarzda o‘rganish mumkin. O‘qituvchi oldindan tayyorlangan modeldan foydalanishi yoki o‘quvchilar bilan birgalikda sodda model yaratishi mumkin. O‘quvchi shaklni siljitadi, parametrlarni o‘zgartiradi, o‘zgarishlarni kuzatadi va natija haqida xulosa chiqaradi.

Bunda AKTdan foydalanishning maqsadi faqat darsni texnik jihatdan boyitish emas, balki o‘quvchiga matematik obyektni faol o‘rganish imkonini berishdan iborat bo‘lishi kerak. Shu sababli raqamli vositalar an’anaviy ko‘rgazmali materiallar, qog‘ozli modellar, konstruktorlar va amaliy mashqlar bilan uyg‘unlashtirilishi maqsadga muvofiq.

Metodik tavsiyalar

Fazoviy tafakkurni rivojlantirishga yo‘naltirilgan mashg‘ulotlarni tashkil etishda quyidagi ketma-ketlikni qo‘llash mumkin:

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

1. Avvalo o‘quvchilarda asosiy fazoviy yo‘nalishlar haqidagi tushunchalarni shakllantirish.
2. Real predmetlar bilan amaliy mashqlar tashkil etish.
3. Predmetlarni rasm va sxema orqali ifodalashga o‘rgatish.
4. Geometrik shakllarni qurish va modellashtirishga o‘tish.
5. Shakllarni burish, aylantirish va akslantirishga oid topshiriqlarni kiritish.
6. Fazoviy mantiqiy masalalarni murakkablashtirib borish.
7. Didaktik o‘yinlar orqali o‘quvchilarning qiziqishini qo‘llab-quvvatlash.
8. Raqamli texnologiyalar yordamida interaktiv topshiriqlar tashkil etish.

Eng muhimi, topshiriqlar oddiydan murakkabga, real predmetdan uning tasviriga, tasvirdan esa ongdagi modelga qarab rivojlantirilishi lozim. Bunday izchillik o‘quvchining fazoviy tafakkurini bosqichma-bosqich rivojlantirishga imkon beradi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining fazoviy tafakkurini rivojlantirish matematika ta’limining muhim yo‘nalishlaridan biridir. Fazoviy tafakkur o‘quvchiga predmetlarning shakli, o‘lchami, joylashuvi va yo‘nalishini anglash, ularni turli vaziyatlarda taqqoslash va ongda o‘zgartirish imkonini beradi.

Tahlil qilingan metodlar shuni ko‘rsatadiki, fazoviy tafakkurni samarali rivojlantirish uchun faqat geometrik shakllarni ko‘rsatish yetarli emas. O‘quvchi shaklni ko‘rishi, uni ushlashi, qurishi, joylashtirishi, o‘zgartirishi, chizmada ifodalashi va zarur holatlarda ongida tasavvur qilishi kerak. Shu nuqtayi nazardan vizual modellashtirish, konstruktiv faoliyat, “Kartolog” metodi, transformatsion mashqlar, didaktik o‘yinlar va GeoGebra kabi interaktiv vositalarni o‘zaro uyg‘unlashtirish muhim metodik imkoniyat yaratadi.

Fazoviy tafakkurni rivojlantirish jarayonida o‘quvchining individual imkoniyatlarini hisobga olish, topshiriqlarni bosqichma-bosqich murakkablashtirish va amaliy faoliyatga keng o‘rin berish zarur. Bunday yondashuv o‘quvchilarning nafaqat matematik bilimlarini, balki kuzatuvchanlik, mustaqil fikrlash, tahlil qilish, modellashtirish va ijodiy yondashish ko‘nikmalarini ham rivojlantirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Qodirov T., Mamatov M. Boshlang‘ich ta’limda matematika o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2015. – 240 b.
2. Mavlonov M., Xudoyberganova R. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: Noshir, 2019. – 180 b.
3. Xudoyberdiyev R. Matematika darslarida fazoviy tasavvurlarni rivojlantirish usullari // Boshlang‘ich ta’lim. – 2022. – №4. – B. 32–38.
4. Yusupova N. Boshlang‘ich sinf matematika ta’limida ko‘rgazmalilikning ahamiyati // Ta’lim jarayoni. – 2021. – №2. – B. 41–46.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

5. Kim Y.J., Knowles M.A., Scianna J., Lin G. Learning analytics application to examine validity and generalizability of game-based assessment for spatial reasoning // British Journal of Educational Technology. – 2023. – Vol. 54(1).
6. Norboboyeva Sh. Maktabgacha ta'limda elementar matematik tasavvurlarni shakllantirishda didaktik tamoyillar. – 2022.
7. Mamasaidova M.A. Boshlang'ich ta'limda fazoviy tasavvurlarni rivojlantirishning psixologik-pedagogik asoslari // "Makon va zamon" ilmiy-falsafiy, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-sotsiologik, ma'naviy-ma'rifiy jurnali. 2026-yil, 1-son. – B. 132-135.
8. Mamasaidova M.A. Methodology for forming critical thinking skills in primary class students // Asian Journal of Multidimensional Research (ISSN: 2278-4853). – India, 2022. – P. 48-55.
9. Mamasaidova M.A. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida fazoviy tasavvurlarni rivojlantirishning metodik imkoniyatlari // "Ijtimoiy-gumanitar sohada ilmiy-innovatsion tadqiqotlar" ilmiy-metodik jurnali. 2026-yil, 1-son. – B. 119-123.
10. Mamasaidova M.A. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining fazoviy tafakkurini shakllantirishda psixofiziologik va pedagogik omillar // Qo'qon davlat universiteti xabarnomasi. 2026-yil, 17-son. – B. 164-166.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

УЗБЕКСКАЯ ЭСТРАДНАЯ МУЗЫКА XXI ВЕКА: ХУДОЖЕСТВЕННЫЕ И СОЦИОКУЛЬТУРНЫЕ ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ.

Аманова Нодира, и.о. профессора Института национального эстрадного искусства им. Б.Закирова при ГКУз, доктор философии по искусствоведению (PhD).

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: статья посвящена исследованию современной эстрадной музыки как одного из ключевых феноменов массовой музыкальной культуры. Рассматриваются основные факторы, определяющие ее развитие в условиях глобализации, цифровизации и трансформации культурного пространства. Анализируются влияние музыкальной индустрии, средств массовой информации, цифровых платформ, процессов урбанизации и межкультурного взаимодействия на формирование современных музыкальных практик. Особое внимание уделяется взаимосвязи художественных, социальных, экономических и технологических факторов, определяющих специфику функционирования эстрадной музыки в XXI веке. На основе анализа научной литературы и современных тенденций развития музыкальной культуры выявлены основные направления трансформации эстрадной музыки и ее роль в формировании общественного сознания, культурных ценностей и музыкальных предпочтений аудитории.

ЦЕЛЬ: выявление и комплексный анализ взаимосвязи художественных, социальных, экономических и технологических факторов, определяющих специфику функционирования и тенденции развития эстрадной музыки в XXI веке.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании применены социокультурный, историко-сравнительный и системно-функциональный методы. Материалом послужили научные труды отечественных и зарубежных исследователей (Р. Шукер, Д. Хесмондалш, П. Викстрём, А. С. Козлов, Н. С. Янов-Яновская и др.), а также аналитика современных цифровых платформ и музыкального рынка.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: обосновано влияние цифровых технологий, стриминговых сервисов и социальных сетей на трансформирование каналов распространения контента и расширение возможностей независимых исполнителей. Выявлена тенденция к активному синтезу академической, народной и эстрадной музыки, приводящая к возникновению гибридных жанров. Акцентирована проблема сохранения национальной музыкальной идентичности в условиях возрастающей унификации массовой культуры.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: дальнейшее гармоничное развитие эстрадной музыки требует баланса между коммерческой индустрией и выполнением культурно-просветительской миссии. Интеграция национального музыкального наследия Узбекистана с достижениями мировой индустрии является ключевым условием сохранения культурной самобытности и выхода на международную арену.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

Ключевые слова: эстрадная музыка, массовая музыкальная культура, музыкальная индустрия, цифровые технологии, глобализация, урбанизация, музыкальная коммуникация, культурная трансформация.

XXI ASR O‘ZBEK ESTRADA MUSIQASI: RIVOJLANISHNING BADIYIY VA IJTIMOIY-MADANIY TENDENSIYALARI.

Amanova Nodira, B.Zokirov nomidagi Milliy estrada san’ati instituti v.b. professori, san’atshunoslik bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

Annotatsiya

KIRISH: mazkur maqola zamonaviy estrada musiqasini ommaviy musiqiy madaniyatning muhim fenomeni sifatida o‘rganishga bag‘ishlangan. Unda globallashuv, raqamlashtirish va madaniy makon transformatsiyasi sharoitida estrada musiqasining rivojlanishiga ta’sir etuvchi asosiy omillar tahlil qilinadi. Musiqa industriyasi, ommaviy axborot vositalari, raqamli platformalar, urbanizatsiya hamda madaniyatlararo aloqalarning zamonaviy musiqiy amaliyotlarni shakllantirishdagi o‘rni yoritilgan. Shuningdek, XXI asr estrada musiqasining rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatuvchi badiiy, ijtimoiy, iqtisodiy va texnologik omillarning o‘zaro bog‘liqligi ochib beriladi. Tadqiqot natijasida estrada musiqasining transformatsiya yo‘nalishlari hamda uning jamiyatning madaniy qadriyatlari va musiqiy didini shakllantirishdagi ahamiyati aniqlangan.

MAQSAD: XXI asr o‘zbek va jahon estrada musiqasi rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatuvchi badiiy, ijtimoiy, iqtisodiy va texnologik omillar o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni hamda uning madaniy transformatsiya jarayonidagi o‘rnini ilmiy tahlil qilishdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda ijtimoiy-madaniy tahlil, qiyosiy-tarixiy va tizimli-funktsional metodlardan foydalanildi. Ishda R. Shuker, D. Hesmondhalgh, P. Wikström, A. S. Kozlov, N. S. Yanov-Yanovskaya kabi xorijiy va mahalliy musiqashunos olimlarning ilmiy qarashlari hamda zamonaviy raqamli platformalar va musiqa industriyasi tendensiyalari tahlil qilindi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: raqamli texnologiyalar, striming xizmatlari va ijtimoiy tarmoqlarning rivojlanishi mustaqil ijrochilar uchun imkoniyatlarni kengaytirgani, biroq bozordagi raqobat va mediamarketing rolini oshirgani ko‘rsatib berildi. Estrada musiqasida an’anaviy folklor, akademik va zamonaviy janrlarning sintetik integratsiyalashuvi natijasida yangi duragay (gibrid) yo‘nalishlar shakllanayotgani aniqlandi. Shuningdek, globallashuv va unifikatsiyalashuv sharoitida milliylikni hamda milliy musiqiy o‘zlikni saqlab qolish masalasining dolzarbligi asoslandi.

XULOSA: zamonaviy estrada musiqasining barqaror rivojlanishi amaliy-tijorat va ma’naviy-tarbiyaviy omillarning mutanosibligiga bog‘liq. O‘zbekiston sharoitida boy milliy musiqiy merosni zamonaviy texnologiyalar va jahon musiqasi tajribasi bilan uyg‘unlashtirish jahon sahnasiga chiqish hamda jamiyatda ma’naviy-axloqiy mo‘ljallarni shakllantirishning asosiy omili hisoblanadi.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

Kalit so'zlar: estrada musiqasi, ommaviy musiqiy madaniyat, musiqa industriyasi, raqamli texnologiyalar, globallashuv, urbanizatsiya, musiqiy kommunikatsiya, madaniy transformatsiya.

UZBEK POP MUSIC OF THE 21st CENTURY: ARTISTIC AND SOCIOCULTURAL DEVELOPMENT TENDENCIES.

Nodira Amanova, Acting Professor at the Batyr Zakirov National Institute of Pop Art, Doctor of Philosophy in Art History (PhD).

Annotation

INTRODUCTION: this article examines contemporary popular music as one of the key phenomena of mass musical culture. It explores the principal factors influencing its development in the context of globalization, digitalization, and the transformation of the cultural environment. Particular attention is paid to the impact of the music industry, mass media, digital platforms, urbanization, and intercultural interaction on contemporary musical practices. The study analyzes the interrelationship between artistic, social, economic, and technological factors shaping the functioning of popular music in the twenty-first century. Based on a review of scholarly literature and current cultural trends, the research identifies the main directions of transformation in popular music and highlights its role in shaping public consciousness, cultural values, and audience musical preferences.

AIM: to conduct a comprehensive analysis of the interconnected artistic, social, economic, and technological factors that determine the development and transformation of popular music in the twenty-first century.

MATERIALS AND METHODS: the study employs socio-cultural, historical-comparative, and systemic-functional methodologies. The research relies on scholarly literature by foreign and national researchers (R. Shuker, D. Hesmondhalgh, P. Wikström, A. S. Kozlov, N. S. Yanov-Yanovskaya, etc.) and analyzes current trends within the digital music industry.

DISCUSSION AND RESULTS: the study demonstrates how digital technologies, streaming platforms, and social media have revolutionized distribution channels and empowered independent artists while increasing market competition. It identifies a strong trend toward the synthesis of academic, folk, and popular music traditions, resulting in new hybrid genre models. Furthermore, the article highlights the critical issue of preserving national musical identity against the pressure of global cultural standardization. \

CONCLUSION: the sustainable evolution of popular music relies on balancing commercial market demands with its core cultural and educational mission. For Uzbekistan, synthesizing rich national musical heritage with modern technology offers a vital path to preserving cultural identity while successfully entering the international arts arena.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

Keywords: popular music, mass musical culture, music industry, digital technologies, globalization, urbanization, musical communication, cultural transformation.

Современная эстрадная музыка представляет собой один из наиболее значимых сегментов массовой музыкальной культуры. Ее влияние распространяется не только на сферу искусства, но и на общественное сознание, систему ценностей, модели поведения и формы культурной коммуникации. Исследование механизмов функционирования и развития эстрадной музыки приобретает особую актуальность.

Массовая музыкальная культура сегодня является важным элементом культурного пространства практически всех государств мира. Благодаря своей доступности и способности быстро адаптироваться к изменениям общественной жизни эстрадная музыка становится своеобразным индикатором социальных процессов. Она отражает изменения в общественном сознании, фиксирует актуальные культурные тенденции и одновременно формирует новые художественные ориентиры. В отличие от академического музыкального искусства, ориентированного преимущественно на подготовленного слушателя, эстрадная музыка адресована широкой аудитории, что определяет специфику ее художественного языка, средств выразительности и способов распространения.

В настоящее время массовая музыкальная культура развивается под воздействием комплекса социальных, экономических и технологических факторов. «Одним из важнейших условий существования современной эстрадной музыки является развитая музыкальная индустрия, обеспечивающая производство, продвижение и распространение музыкального продукта в соответствии с запросами массовой аудитории [5]. Производство и распространение музыкального контента тесно связаны с современными технологиями звукозаписи, средствами массовой информации и цифровыми платформами.

Существенное влияние на развитие эстрадной музыки оказывают процессы урбанизации и интеграции музыкальных культур. Концентрация населения в крупных городах способствует возникновению новых форм культурной коммуникации и создает благоприятные условия для распространения музыкальных инноваций. Одновременно интенсивная культурная интеграция обеспечивает активный обмен музыкальными идеями между различными странами и регионами мира [9]. В результате происходит взаимопроникновение национальных музыкальных традиций, формируются новые стилистические направления и расширяются возможности творческого взаимодействия представителей различных культур.

Не менее важным фактором является экономическая составляющая музыкальной индустрии. Современная эстрадная музыка функционирует в условиях рыночной экономики, где успех музыкального произведения во многом

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

определяется спросом аудитории. Коммерческий потенциал музыкального продукта оказывает влияние на выбор репертуара, особенности его продвижения и характер взаимодействия исполнителя со слушателем [3]. Вместе с тем рыночные механизмы стимулируют конкуренцию, что способствует постоянному поиску новых художественных решений и развитию музыкального творчества.

Особое значение в развитии популярной музыки имеет технический прогресс. Уже в первой половине XX века распространение электрофонов и грампластинок существенно изменило способы потребления музыки. По мнению А. С. Козлова, широкое распространение бытовых проигрывателей и музыкальных автоматов способствовало формированию принципиально новой музыкальной среды, в которой музыка стала доступна практически каждому слушателю [13]. Появление средств механической звукозаписи ознаменовало переход от преимущественно живого исполнения к массовому тиражированию музыкальных произведений, что значительно расширило аудиторию потребителей музыкального искусства.

Дальнейшее развитие радио и телевидения усилило процессы популяризации эстрадной музыки. Музыкальные произведения получили возможность одновременно воздействовать на миллионы слушателей, а сами исполнители приобрели статус общественно значимых фигур [1]. Благодаря средствам массовой информации сформировалась новая система музыкального потребления, при которой выбор слушателя во многом определялся программной политикой радиостанций и телевизионных каналов.

Настоящая технологическая революция произошла с развитием цифровых технологий и сети Интернет. Цифровизация музыкальной индустрии привела к радикальному изменению способов создания, хранения и распространения музыкального контента. Если ранее распространение музыкальных произведений было связано с производством физических носителей, то в настоящее время основным каналом коммуникации становятся цифровые платформы, стриминговые сервисы и социальные сети. Цифровизация музыкальной индустрии существенно изменила механизмы создания, распространения и потребления музыкального контента, обеспечив практически мгновенный доступ пользователей к произведениям независимо от их географического местоположения. Алгоритмы персонализированных рекомендаций, интерактивные сервисы и возможности пользовательского обмена контентом способствуют формированию новых моделей музыкального потребления, при которых слушатель становится не только потребителем, но и активным участником информационно-коммуникационного процесса. Одновременно цифровая среда значительно расширила возможности независимых исполнителей, позволив им самостоятельно распространять музыкальную продукцию, взаимодействовать с аудиторией без посредничества традиционных звукозаписывающих компаний и оперативно реагировать на изменения общественного спроса. Вместе с тем развитие цифровых технологий

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

усилило конкуренцию в музыкальной индустрии, повысило значение медиапродвижения, аналитики пользовательских предпочтений и цифрового маркетинга, что оказывает существенное влияние на процессы формирования современного музыкального рынка. Это позволило существенно снизить барьеры между исполнителем и аудиторией, предоставив музыкантам возможность самостоятельного продвижения своего творчества [10]. Развитие интернет-технологий многократно расширило аудиторию популярной музыки, сделав ее глобальным культурным явлением. Сегодня музыкальное произведение, созданное в одной стране, может практически мгновенно стать популярным в любой точке мира. Подобная скорость культурного обмена не имела аналогов в предшествующие исторические эпохи. В результате усилились процессы интеграции различных музыкальных традиций, появились новые гибридные жанры и направления, объединяющие элементы различных национальных культур.

Кроме того, современные цифровые технологии оказывают влияние непосредственно на художественную сторону музыкального творчества. Компьютерные программы для создания и обработки звука позволяют экспериментировать с тембрами, фактурами и формой произведений, расширяя выразительные возможности композиторов и аранжировщиков [16]. Использование искусственного интеллекта, виртуальных инструментов и интерактивных мультимедийных средств открывает новые перспективы для развития музыкального искусства в XXI веке.

Музыкальные жанры и стили активно взаимодействуют между собой, заимствуя художественные приемы, исполнительские практики и выразительные средства. В результате происходит интенсивное обновление музыкального языка, возникают новые формы творческого синтеза, объединяющие различные культурные традиции. Одновременно возрастает интенсивность творческих контактов между музыкантами различных стран. Совместные проекты, международные конкурсы и творческие коллаборации становятся важным фактором развития современной музыкальной культуры. Современная эстрадная музыка все чаще выступает пространством художественного диалога, в котором национальные музыкальные особенности сочетаются с общими тенденциями развития мирового музыкального искусства [7], [8].

Современные музыкальные процессы характеризуются высокой степенью интеграции культурных элементов, что способствует возникновению новых жанровых моделей [14]. Подобная интеграция проявляется как на уровне музыкального языка, так и на уровне исполнительских практик. В современной популярной музыке нередко можно встретить сочетание различных ритмических систем, гармонических принципов и тембровых решений, принадлежащих разным музыкальным традициям. Подобный синтез расширяет художественные

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

возможности композиторов и исполнителей, способствуя появлению оригинальных творческих концепций.

Особенно заметным является взаимодействие академической, народной и эстрадной музыкальных культур [2]. Многие современные исполнители активно используют элементы фольклора, традиционные музыкальные инструменты и национальные интонационные особенности, интегрируя их в современные музыкальные формы. Это позволяет не только сохранять культурное наследие, но и адаптировать его к потребностям современного слушателя. В результате возникают новые жанрово-стилевые направления, сочетающие исторические традиции и современные средства музыкальной выразительности.

Вместе с тем расширение международного культурного пространства сопровождается рядом противоречивых тенденций. С одной стороны, возрастает доступность разнообразного музыкального материала и расширяются возможности культурного обмена. С другой стороны, усиливается влияние унифицированных стандартов музыкального производства, ориентированных на максимально широкую аудиторию. Подобная ситуация может приводить к снижению жанрового разнообразия и постепенному ослаблению локальных музыкальных традиций.

В этой связи особую актуальность приобретает проблема сохранения национальной музыкальной идентичности. Каждая музыкальная культура обладает уникальной системой художественных ценностей, отражающих исторический опыт, язык, мировоззрение и эстетические представления народа [17]. Сохранение этих особенностей является важным условием дальнейшего развития музыкального искусства. Поэтому современные процессы культурного взаимодействия должны рассматриваться не как фактор вытеснения национальных традиций [15], а как возможность их творческого переосмысления и дальнейшего развития.

Важной особенностью современной эстрадной музыки является ее способность быстро реагировать на изменения общественной жизни. Музыкальные произведения отражают актуальные социальные процессы, общественные настроения и культурные тенденции, выступая своеобразным индикатором состояния общества. Тематический спектр современной популярной музыки значительно расширился по сравнению с предыдущими историческими периодами и включает вопросы социальной справедливости, межличностных отношений, национальной идентичности, экологических проблем и духовно-нравственных ценностей [12].

Следует отметить, что массовая музыкальная культура обладает двойственной природой. С одной стороны, она формируется под воздействием общественных запросов и отражает существующие культурные потребности аудитории. С другой стороны, сама музыка оказывает существенное влияние на формирование общественного сознания, ценностных ориентиров и моделей поведения. Благодаря эмоциональной доступности и широкой распространенности

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

музыкальное искусство способно воздействовать на мировоззрение человека значительно эффективнее многих других форм культурной коммуникации.

Особенно заметным данное воздействие становится в молодежной среде. Для значительной части молодых людей популярная музыка выступает не только средством эстетического восприятия, но и инструментом социальной идентификации. Через музыкальные предпочтения формируются определенные культурные сообщества, объединенные общими интересами, ценностями и стилем жизни. В этой связи содержание музыкальных произведений, их художественный уровень и нравственная направленность приобретают особое значение.

Для Узбекистана данная задача имеет особую актуальность. Богатое музыкальное наследие узбекского народа, сформировавшееся на протяжении многих столетий, обладает значительным художественным и воспитательным потенциалом [18]. Современная узбекская эстрадная музыка, опираясь на национальные традиции и одновременно используя достижения современной музыкальной индустрии, способна не только сохранять культурную самобытность, но и представлять национальное искусство на международном уровне. Сочетание традиционных и современных элементов становится одним из важнейших условий ее дальнейшего развития.

Проведенный анализ позволяет рассматривать эстрадную музыку как сложный социокультурный феномен, развитие которого обусловлено совокупностью исторических, технологических, экономических и художественно-эстетических факторов [6]. На протяжении более чем столетнего периода своего существования эстрадная музыка прошла путь от локальных развлекательных форм до одного из наиболее влиятельных элементов современной массовой культуры. Ее эволюция сопровождалась постоянным расширением жанрово-стилистического разнообразия, совершенствованием средств художественной выразительности и усложнением механизмов взаимодействия с аудиторией.

В связи с этим важнейшей задачей специалистов в области музыкального искусства, образования и культуры является создание условий для поддержки качественного музыкального творчества, основанного на национальных ценностях и высоких художественных критериях. Решение данной задачи возможно посредством совершенствования музыкального образования, расширения научных исследований в области массовой музыкальной культуры, поддержки авторов и исполнителей, обращающихся к национальному музыкальному наследию, а также активного использования современных технологий для популяризации лучших образцов музыкального искусства.

Следовательно, дальнейшее развитие эстрадной музыки должно быть направлено не только на удовлетворение потребностей массовой аудитории, но и на выполнение важнейшей культурной миссии — сохранение исторической памяти и формирование духовно-нравственных ориентиров общества [11]. Именно такой

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

подход позволит обеспечить гармоничное развитие массовой музыкальной культуры в XXI веке и сохранить ее значимость как важнейшего элемента культурного наследия и общественной жизни.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Shuker R. Understanding Popular Music Culture. 5th ed. London: Routledge, 2016.
2. Ganikhanova Sh. GaniTimbral Experiments by Igor Pinkhasov and His Electronic Music // Saryn, 1.12.2024.72. [https://cyberleninka.ru/article/n/timbral-experiments-by-igor-pinkhasov-and-his-electronic-music].
3. Hesmondhalgh D. The Cultural Industries. 4th ed. London: SAGE Publications, 2019, pp. 1–18. ISBN: 978-1526468267.
4. Inter Education & Global Study. 2026, volume 4, issue 5 [https://researcher.uz/ru/article/ommaviy-musiqa-madaniyatining-terminologik-tizimlashtirish-muammosi-xususida-010214].
5. Negus K. Music Genres and Corporate Cultures. Routledge, 1999.
6. Oh I., Lee H. Mass Media Technologies and Popular Music Genres: K-pop and YouTube. – Korea Journal. – 2013. vol. 53, № 4. – P. 34-58.
7. Stokes M. (Ed.). Globalization and the Politics of World Music. In: The Cultural Study of Music: A Critical Introduction. 2nd ed. Routledge, 2012.
8. Taylor T. D. Beyond Exoticism: Western Music and the World. Duke University Press, 2007.
9. Watson, Hoyler & Mager. Spaces and Networks of Musical Creativity in the City. Geography Compass. 2009. Vol. 3(2), P. 856–878. DOI: 10.1111/j.1749-8198.2009.00222.x
10. Wikström P. The Music Industry: Music in the Cloud. 3rd ed. Cambridge: Polity Press, 2020, pp. 15–42.
11. Аманова Н. Алгоритм определения жанра и стиля в эстрадной музыке. // Musiqa 4 (№ 4 (28)), С. 52-57.
12. Аманова Н. К проблеме терминологической систематизации массовой музыкальной культуры. //
13. Козлов А.С. Рок: истоки и развитие. – М.: Синкопа, 2001. – 192 с.
14. Кузуб Т.И. Процессы глобализации в современной музыкальной культуре // Изд. Урал. гос. ун-та. – 2006. – № 47. – С. 77-84.
15. Мамазияев Х. Халқ қўшиқларининг тараққиёт йўли. // Универсальный индекс библиотеки науки и инноваций. 2023, Т 1, №9.
16. Саяпина И.А. Информация, коммуникация, трансляция в социокультурных процессах современного общества: автореф. дис. канд. культур. – Краснодар, 2001. – 25 с.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

17. Хамдамова Н. Тарана – народ Востока в сфере профессиональной музыки (узбекский статус и структура индийской раги). // Проблемы современной науки и образования. 2017, 24 (106). [https://cyberleninka.ru/article/n/tarana-the-people-of-the-east-in-the-sphere-of-professional-music-uzbek-status-and-structure-of-the-indian-raga].
18. Янов-Яновская Н.С. Узбекская музыка и XX век / («Последнего слова не существует») / Работы разных лет. – Ташкент, 2007. – 270 с.

© intereduglobalstudy.com

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABLARIDA “TARBIYA” FANINI O‘QITISH METODIKASINI INNOVATSION YONDASHUVLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH

Otaboeva Shohida Farxodovna, mustaqil tadqiqotchi.

Annotatsiya

KIRISH: mazkur tadqiqot umumiy o‘rta ta’lim maktablarida “Tarbiya” fanini o‘qitish metodikasini innovatsion yondashuvlar asosida takomillashtirish masalasiga bag‘ishlangan. Tadqiqotda interfaol metodlar, muammoli ta’lim, loyiha metodi, keys-stadi, guruhli ish, munozara, rolli o‘yinlar hamda raqamli ta’lim vositalaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari tahlil qilindi. Innovatsion yondashuvlarning o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, muloqot qilishi, jamoada ishlashi, ijtimoiy faolligi va mas’uliyatli qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishdagi ahamiyati yoritildi. Tadqiqot natijalari “Tarbiya” fanini o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni maqsadli va tizimli qo‘llash ta’lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qilishini ko‘rsatdi. Shuningdek, kompetensiyaviy, shaxsga yo‘naltirilgan va raqamli yondashuvlarni o‘zaro uyg‘unlashtirish o‘quvchilarning tarbiyaviy bilimlarini amaliy faoliyat bilan bog‘lash uchun samarali metodik imkoniyat yaratishi asoslandi.

MAQSAD: umumiy o‘rta ta’lim maktablarida “Tarbiya” fanini o‘qitishning mavjud metodik imkoniyatlarini tahlil qilish, innovatsion pedagogik texnologiyalarning samaradorligini aniqlash hamda o‘quvchilarning ijtimoiy-axloqiy kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi takomillashtirilgan metodik yondashuvlarni ishlab chiqishdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda ilmiy-metodik adabiyotlar tahlili, pedagogik kuzatuv, so‘rovnoma, qiyosiy va tizimli tahlil hamda tajriba-sinov metodlaridan foydalanildi. Tajribaga 60 nafar o‘quvchi (30 nafardan nazorat va tajriba guruhlari) hamda 10 nafar o‘qituvchi jalb etilib, interfaol metodlar, muammoli ta’lim, keys-stadi, loyiha faoliyati va raqamli ta’lim vositalarining samaradorligi baholandi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: tajriba guruhi yakuniy natijalariga ko‘ra o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi (53% dan 80% ga), muloqot va fikrni asoslash ko‘nikmasi (57% dan 83% ga), jamoada ishlashi (60% dan 87% ga) hamda muammoli vaziyatlarda qaror qabul qilishi (47% dan 77% ga) sezilarli darajada oshgani aniqlandi. O‘quvchilarning 87% i va o‘qituvchilarning 80% i innovatsion va raqamli yondashuv darslarning interaktivligi hamda motivatsiyasini oshirishini tasdiqladi.

XULOSA: “Tarbiya” fanida kompetensiyaviy, shaxsga yo‘naltirilgan va raqamli yondashuvlarni tizimli uyg‘unlashtirish ta’lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Innovatsion metodlarni dars maqsadi va o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga mos holda maqsadli qo‘llash o‘quvchilarning axloqiy tushunchalarini kundalik hayotdagi amaliy faoliyatga ko‘chirish imkonini beradi.

Kalit so‘zlar: “Tarbiya” fani, innovatsion yondashuv, o‘qitish metodikasi, interfaol metodlar, pedagogik texnologiyalar, raqamli ta’lim, kompetensiya, umumiy o‘rta ta’lim.

© intereduglobalstudy.com

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДИКИ ПРЕПОДАВАНИЯ ДИСЦИПЛИНЫ «ВОСПИТАНИЕ» В ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛАХ НА ОСНОВЕ ИННОВАЦИОННЫХ ПОДХОДОВ.

Отабоева Шохида Фарходовна, самостоятельный соискатель.

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: данное исследование посвящено совершенствованию методики преподавания предмета «Воспитание» в общеобразовательных школах на основе инновационных подходов. В исследовании проанализированы педагогические возможности использования интерактивных методов, проблемного обучения, проектного метода, кейс-стади, групповой работы, дискуссий, ролевых игр и цифровых образовательных средств. Раскрыто значение инновационных подходов в развитии у учащихся самостоятельного мышления, коммуникативных навыков, способности работать в коллективе, социальной активности и умения принимать ответственные решения. Результаты исследования показывают, что целенаправленное и систематическое применение современных педагогических технологий в преподавании предмета «Воспитание» способствует повышению эффективности образовательного и воспитательного процесса. Также обосновано, что сочетание компетентностного, личностно-ориентированного и цифрового подходов создает эффективные методические возможности для связи воспитательных знаний учащихся с практической деятельностью.

ЦЕЛЬ: анализ методических возможностей преподавания предмета «Воспитание» в общеобразовательных школах, определение эффективности инновационных педагогических технологий и разработка усовершенствованных подходов к развитию социально-нравственных компетенций учащихся.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании использованы методы анализа научно-методической литературы, педагогического наблюдения, анкетирования, сравнительного анализа и опытно-экспериментальной работы. В эксперименте приняли участие 60 учащихся (по 30 в контрольной и экспериментальной группах) и 10 учителей; оценивалась эффективность интерактивных методов, проблемного обучения, кейс-стади, проектной деятельности и цифровых средств.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: в экспериментальной группе зафиксирован значительный рост показателей самостоятельного мышления (с 53% до 80%), коммуникативных навыков (с 57% до 83%), работы в команде (с 60% до 87%) и принятия решений в проблемных ситуациях (с 47% до 77%). 87% учащихся и 80% учителей отметили, что инновационные и цифровые подходы существенно повышают интерактивность и мотивацию к обучению.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: системное сочетание компетентностного, личностно-ориентированного и цифрового подходов повышает эффективностъ воспитательного процесса. Целенаправленное применение инновационных

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

методов с учетом целей урока и возрастных особенностей учащихся позволяет перевести теоретические знания в сферу практической жизнедеятельности.

Ключевые слова: предмет «Воспитание», инновационный подход, методика обучения, интерактивные методы, педагогические технологии, цифровое образование, компетентность, общее среднее образование.

IMPROVING THE METHODOLOGY OF TEACHING THE "UPBRINGING" (TARBIYA) SUBJECT IN GENERAL SECONDARY SCHOOLS BASED ON INNOVATIVE APPROACHES.

Otaboyeva Shohida Farxodovna, Independent Researcher.

Annotation

INTRODUCTION: this study is devoted to improving the methodology of teaching the “Education” subject in general secondary schools through innovative approaches. The study analyzes the pedagogical potential of interactive methods, problem-based learning, project-based learning, case studies, group work, discussions, role-playing activities, and digital educational tools. Particular attention is given to the importance of innovative approaches in developing students’ independent thinking, communication skills, teamwork abilities, social activity, and capacity to make responsible decisions. The findings demonstrate that the purposeful and systematic application of modern pedagogical technologies in teaching the “Education” subject contributes to improving the effectiveness of the educational and upbringing process. The study also substantiates that the integration of competency-based, student-centered, and digital approaches creates effective methodological opportunities for connecting students’ educational and moral knowledge with practical activities.

AIM: to analyze the current methodological capacity of teaching the "Education" subject in general secondary schools, evaluate the effectiveness of innovative pedagogical technologies, and develop enhanced approaches for fostering students' social and moral competencies.

MATERIALS AND METHODS: the research employed literature analysis, pedagogical observation, surveys, comparative analysis, and experimental testing. The study involved 60 students (divided equally into control and experimental groups) and 10 teachers to evaluate the impact of interactive methods, problem-based learning, case studies, project work, and digital educational tools.

DISCUSSION AND RESULTS: the post-experimental results in the experimental group showed substantial growth in independent thinking (from 53% to 80%), communication skills (from 57% to 83%), teamwork (from 60% to 87%), and decision-making in problem scenarios (from 47% to 77%). Furthermore, 87% of students and 80% of teachers confirmed that innovative and digital approaches significantly enhance learning motivation and classroom interactivity.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

CONCLUSION: the systematic integration of competency-based, student-centered, and digital learning approaches enhances the overall quality of the educational process. Applying innovative techniques according to lesson objectives and students' age characteristics enables learners to successfully translate moral principles into practical daily behavior.

Keywords: education subject, innovative approach, teaching methodology, interactive methods, pedagogical technologies, digital education, competency, general secondary education.

Zamonaviy ta’lim tizimida o‘quvchini har tomonlama rivojlantirish, uning mustaqil fikrlashi, ijtimoiy faolligi, ma’naviy-axloqiy qarashlari va hayotiy kompetensiyalarini shakllantirish ta’lim jarayonining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Shu jihatdan umumiy o‘rta ta’lim maktablarida “Tarbiya” fanini o‘qitish jarayonini zamonaviy pedagogik talablar asosida tashkil etish alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur fan orqali o‘quvchilarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, vatanparvarlik, mas’uliyat, insoniylik, muloqot madaniyati hamda jamiyatdagi xulq-atvor me’yorlarini shakllantirish uchun zarur pedagogik imkoniyatlar yaratiladi.

Biroq ta’lim mazmunining yangilanib borishi o‘qitish metodikasini ham takomillashtirishni, an’anaviy yondashuvlar bilan bir qatorda innovatsion pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanishni talab etadi. Ayniqsa, interfaol metodlar, muammoli ta’lim, loyiha asosida o‘qitish, keys-stadi, munozara, rolli o‘yinlar va raqamli ta’lim vositalaridan foydalanish o‘quvchilarning dars jarayonidagi faolligini oshirish hamda tarbiyaviy mazmunni amaliy faoliyat bilan bog‘lash imkonini beradi. Innovatsion yondashuv asosida tashkil etilgan “Tarbiya” darslari o‘quvchini tayyor bilimni qabul qiluvchi emas, balki muayyan vaziyatlarni mustaqil tahlil qiluvchi, qaror qabul qiluvchi va o‘z nuqtayi nazarini asoslay oluvchi faol subyekt sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, bunday yondashuv o‘quvchilarning yosh, psixologik va individual xususiyatlarini hisobga olish, ta’lim jarayonini differensial tashkil etish hamda pedagogik natijalarni baholash imkoniyatlarini kengaytiradi. Shuning uchun umumiy o‘rta ta’lim maktablarida “Tarbiya” fanini o‘qitish metodikasini innovatsion yondashuvlar asosida takomillashtirishning ilmiy-metodik asoslarini ishlab chiqish va ularni amaliyotga tatbiq etish bugungi pedagogikaning muhim ilmiy-amaliy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Bugungi kunda umumiy o‘rta ta’lim jarayonida o‘quvchilarning faqat bilim olishi emas, balki ularning ma’naviy-axloqiy dunyoqarashi, ijtimoiy mas’uliyati, mustaqil fikrlashi va jamiyatda faol ishtirok eta olish ko‘nikmalarini rivojlantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Shu sababli “Tarbiya” fanini zamonaviy pedagogik talablar asosida tashkil etish va uning o‘qitish metodikasini takomillashtirish dolzarb ahamiyat kasb etadi. An’anaviy o‘qitish usullaridan foydalanish ayrim hollarda o‘quvchilarning darsdagi faolligi va mustaqil fikrlash imkoniyatlarini yetarli darajada ta’minlamasligi mumkin. Innovatsion

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

yondashuvlar esa interfaol metodlar, loyiha faoliyati, muammoli vaziyatlar, munozaralar, rolli o‘yinlar va raqamli vositalar orqali o‘quvchini ta’lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirish imkonini beradi.

Tadqiqotning maqsadi umumiy o‘rta ta’lim maktablarida “Tarbiya” fanini o‘qitishning mavjud metodik imkoniyatlarini tahlil qilish, innovatsion pedagogik yondashuvlarning ta’lim-tarbiyaviy samaradorligini aniqlash hamda o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, ijtimoiy faolligi, ma’naviy-axloqiy kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi takomillashtirilgan metodik yondashuvlarni ishlab chiqishdan iborat.

“Tarbiya” fanini o‘qitish metodikasini takomillashtirish masalasi zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda o‘quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirish, kompetensiyalarni shakllantirish va ta’lim jarayonini faol metodlar asosida tashkil etish bilan uzviy bog‘liq holda yoritilmoqda. Pedagogik adabiyotlarda tarbiya jarayonining samaradorligi ko‘p jihatdan o‘quvchining ta’lim faoliyatidagi faolligi, mustaqil fikrlashi va real hayotiy vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qila olish qobiliyatiga bog‘liqligi qayd etiladi.

Shu nuqtai nazardan, shaxsga yo‘naltirilgan, kompetensiyaviy, faoliyatga asoslangan va konstruktivistik yondashuvlar “Tarbiya” fanining metodik imkoniyatlarini kengaytiruvchi muhim yo‘nalishlar sifatida namoyon bo‘ladi. Ilmiy manbalarda interfaol metodlardan foydalanish o‘quvchilarning muloqotga kirishishi, o‘z fikrini asoslash, guruh bilan ishlash va muammoli vaziyatlarni tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishi ta’kidlanadi. Xususan, loyiha metodi, keys-stadi, munozara, rolli o‘yinlar va muammoli ta’lim texnologiyalari tarbiyaviy mazmunni amaliy faoliyat bilan bog‘lash imkonini beradi.

Raqamli texnologiyalarning ta’limga integratsiyalashuvi esa tarbiyaviy mavzularni multimedia, interaktiv topshiriqlar va elektron resurslar orqali yoritish uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Biroq adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, innovatsion metodlarning samarasi ularni shunchaki qo‘llash bilan emas, balki dars maqsadi, mavzu mazmuni, o‘quvchilarning yosh xususiyatlari va kutilayotgan natijalar bilan pedagogik jihatdan to‘g‘ri uyg‘unlashtirish bilan belgilanadi. Shu sababli mavjud tadqiqotlarda qayd etilgan nazariy qarashlarni umumlashtirish va ularni “Tarbiya” fanining mazmuniga moslashtirish ushbu tadqiqotning metodik asosini tashkil etadi.

Tadqiqotda umumiy o‘rta ta’lim maktablarida “Tarbiya” fanini o‘qitish metodikasini innovatsion yondashuvlar asosida takomillashtirish imkoniyatlarini aniqlashga yo‘naltirilgan kompleks pedagogik metodlardan foydalanildi. Tadqiqotning nazariy bosqichida pedagogika, ta’lim metodikasi, innovatsion pedagogik texnologiyalar va tarbiyaviy faoliyatga oid ilmiy-metodik adabiyotlar tahlil qilindi, mavjud qarashlar tizimlashtirildi va tadqiqotning asosiy tushunchalari aniqlashtirildi. Empirik bosqichda “Tarbiya” fanini o‘qitish jarayonini kuzatish, o‘qituvchilar bilan suhbat o‘tkazish, o‘quvchilarning darsdagi faolligini tahlil qilish hamda amaliy topshiriqlar natijalarini o‘rganish usullaridan foydalanish ko‘zda tutildi. Shuningdek, an’anaviy dars tashkiloti bilan interfaol va innovatsion metodlarga asoslangan mashg‘ulotlar o‘rtasidagi metodik farqlar qiyosiy jihatdan tahlil qilindi. Tadqiqot jarayonida muammoli ta’lim, loyiha metodi, keys-

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

stadi, guruhli ish, munozara, rolli o‘yinlar va raqamli ta’lim vositalaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari baholandi. O‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, muloqot qilishi, jamoada ishlashi, vaziyatni tahlil qilishi va mustaqil qaror qabul qilishi asosiy kuzatuv mezonlari sifatida belgilandi. Olingan ma’lumotlarni umumlashtirishda tavsifiy, qiyosiy va tizimli tahlil usullaridan foydalanildi. Tadqiqot natijalarini izohlashda ta’limning maqsadi, mazmuni, metodlari va kutilayotgan natijalari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik asosiy metodologik tamoyil sifatida qabul qilindi. Mazkur metodik yondashuv “Tarbiya” fanini o‘qitishda innovatsion texnologiyalarning amaliy samaradorligini aniqlash va ta’lim jarayonini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan xulosalar ishlab chiqish imkonini beradi.

“Tarbiya” fanini o‘qitish jarayoni o‘quvchilarda ma’naviy, axloqiy, ijtimoiy va fuqarolik sifatlarini shakllantirishga yo‘naltirilgan yaxlit pedagogik tizim sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu fan mazmunini samarali o‘zlashtirish uchun o‘qitish jarayonida ta’lim va tarbiya bir-biridan ajratilmagan holda tashkil etilishi muhimdir. O‘quvchiga tayyor axloqiy qoidalarni yetkazish bilan cheklanib qolmasdan, ularni real hayotiy vaziyatlarda qo‘llash imkoniyatini yaratish fan samaradorligini oshiradi. “Tarbiya” darslarida o‘quvchining shaxsiy tajribasi, qiziqishi, dunyoqarashi va yosh xususiyatlarini hisobga olish alohida ahamiyatga ega. Mazmunning hayotiyligi va amaliy yo‘nalganligi o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini kuchaytiradi. Pedagogik jarayonda shaxsga yo‘naltirilgan, kompetensiyaviy va faoliyatga asoslangan yondashuvlardan foydalanish tarbiyaviy ta’sirning samaradorligini oshiradi. Bunda o‘quvchining mustaqil fikrlashi, o‘z qarashlarini asoslay olishi va turli ijtimoiy vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilishi muhim natija sifatida qaraladi.

Shuningdek, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg‘unlashtirish fan mazmunining tarbiyaviy imkoniyatlarini kengaytiradi. O‘qituvchi esa faqat axborot beruvchi emas, balki o‘quvchini fikrlashga yo‘naltiruvchi va tarbiyaviy faoliyatni tashkil etuvchi subyekt sifatida faoliyat yuritadi. Shu nuqtai nazardan, “Tarbiya” fanini o‘qitish metodikasini nazariy jihatdan takomillashtirish innovatsion pedagogik yondashuvlarni samarali joriy etish uchun metodik asos yaratadi.

“Tarbiya” fanini o‘qitishda innovatsion metodlardan foydalanish o‘quvchilarning darsdagi faolligini oshirish va tarbiyaviy mazmunni amaliy faoliyat bilan bog‘lashga xizmat qiladi. Interfaol ta’lim jarayonida o‘quvchi tayyor xulosani qabul qiluvchi emas, balki muayyan masalani tahlil qiluvchi va yechim izlovchi faol ishtirokchiga aylanadi. Munozara, aqliy hujum, keys-stadi, rolli o‘yin, debat, klaster va loyiha metodlari “Tarbiya” darslarida o‘quvchilarning mustaqil fikrlash imkoniyatlarini kengaytiradi. Ayniqsa, hayotiy vaziyatlar asosida tashkil etilgan topshiriqlar o‘quvchilarga axloqiy va ijtimoiy muammolarga nisbatan shaxsiy munosabatini shakllantirishga yordam beradi.

Rolli o‘yinlar orqali turli ijtimoiy vaziyatlarni modellashtirish o‘quvchilarning empatiya, muloqot va hamkorlik ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Keys-stadi usulida esa muammoli vaziyatni tahlil qilish, sabab va oqibatlarni aniqlash hamda mustaqil qaror ishlab chiqish imkoniyati yuzaga keladi. Loyiha asosida o‘qitish o‘quvchilarni uzoqroq muddat davomida

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

muayyan tarbiyaviy masala ustida izlanishga undaydi. Guruhli faoliyat esa o‘zaro hurmat, vazifalarni taqsimlash va jamoaviy mas’uliyatni shakllantiradi. Innovatsion metodlarni tanlashda darsning maqsadi, mavzu mazmuni va o‘quvchilarning tayyorgarlik darajasi hisobga olinishi zarur. Metodlarning shunchaki ko‘p qo‘llanishi emas, balki ularning pedagogik maqsadga muvofiq tanlanishi asosiy mezon hisoblanadi.

Raqamli texnologiyalarning ta’lim jarayoniga keng kirib kelishi “Tarbiya” fanini o‘qitish metodikasini ham yangi imkoniyatlar asosida tashkil etishni talab qilmoqda. Zamonaviy multimedia vositalari, elektron ta’lim resurslari, interaktiv taqdimotlar, videomateriallar va onlayn platformalardan foydalanish dars mazmunini vizual va tushunarli shaklda yetkazishga yordam beradi. Ayniqsa, tarbiyaviy mavzularni real hayotiy misollar, qisqa videolar, infografikalar va interaktiv topshiriqlar orqali yoritish o‘quvchilarning mavzuga qiziqishini oshirishi mumkin.

Raqamli vositalar o‘quvchilarga mustaqil izlanish, ma’lumotlarni taqqoslash va o‘z fikrlarini turli shakllarda ifodalash imkoniyatini beradi. Onlayn so‘rovnomalar va elektron testlar orqali o‘quvchilarning mavzuni o‘zlashtirish darajasini tezkor aniqlash mumkin. Virtual munozaralar ham o‘quvchilar o‘rtasida fikr almashish va muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Biroq texnologiyadan foydalanishning o‘zi innovatsion ta’limni kafolatlamaydi; uning mazmuni darsning tarbiyaviy maqsadiga mos bo‘lishi kerak.

Raqamli muhitda axborot xavfsizligi, internet madaniyati, media savodxonlik va mas’uliyatli foydalanish ko‘nikmalarini ham shakllantirish muhimdir. O‘qituvchi raqamli resurslarni tanlash, ularni pedagogik maqsadga moslashtirish va o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olish qobiliyatiga ega bo‘lishi lozim. Shunday qilib, raqamli texnologiyalar “Tarbiya” fanida darsning interaktivligini oshirish, mustaqil ta’limni qo‘llab-quvvatlash va o‘quvchi faoliyatini individuallashtirish uchun samarali metodik vosita bo‘la oladi.

“Tarbiya” fanining asosiy vazifalaridan biri o‘quvchilarda faqat nazariy bilimlarni shakllantirish emas, balki ularni amaliy hayotda qo‘llashga imkon beradigan kompetensiyalarni rivojlantirishdan iborat. Zamonaviy ta’lim sharoitida o‘quvchining muloqot qila olishi, jamoada ishlashi, mustaqil qaror qabul qilishi, muammolarni tahlil qilishi va o‘z xatti-harakatiga mas’uliyat bilan yondashishi muhim hisoblanadi. Shu sababli “Tarbiya” darslarida topshiriqlarni faqat mazmunni eslab qolishga emas, balki fikrlash va amaliy faoliyatga yo‘naltirish maqsadga muvofiqdir.

Muammoli vaziyatlar o‘quvchini sabablarni aniqlash, mavjud variantlarni taqqoslash va maqbul yechimni tanlashga undaydi. Guruhli faoliyat hamkorlik va muloqot kompetensiyalarining shakllanishiga sharoit yaratadi. Ijtimoiy loyihalar orqali o‘quvchilar jamiyatdagi muammolarni kuzatish va ularning yechimi bo‘yicha takliflar ishlab chiqishni o‘rganadilar. Munozaralar esa o‘z fikrini dalillar bilan himoya qilish va boshqa qarashlarni hurmat qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Tarbiyaviy faoliyatda refleksiya usullaridan foydalanish o‘quvchiga o‘z xatti-harakatlari va qarorlarini tahlil qilish imkonini beradi. Bunda baholash jarayoni faqat bilim

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

natijasini emas, balki faol ishtirok, mustaqillik, mas'uliyat va hamkorlik kabi jihatlarni ham qamrab olishi kerak. Kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etilgan dars o'quvchining shaxsiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlaydi va "Tarbiya" fanining amaliy qiymatini oshiradi. Natijada o'quvchi tarbiyaviy tushunchalarni bilish bilan birga, ularni kundalik hayotdagi vaziyatlarda ongli ravishda qo'llash imkoniyatiga ega bo'ladi.

"Tarbiya" fanini o'qitish metodikasini takomillashtirish uchun ta'lim mazmuni, metodlari, vositalari va baholash mexanizmlarini o'zaro uyg'unlashtirgan yaxlit metodik tizimni shakllantirish zarur. Bunday tizimda dars maqsadi aniq belgilanib, unga mos pedagogik metod va o'quv faoliyati shakllari tanlanishi kerak. Har bir mavzu bo'yicha nazariy mazmunni real hayotiy vaziyatlar bilan bog'lash, amaliy topshiriqlar va mustaqil fikrlashga yo'naltirilgan savollarni ishlab chiqish muhim hisoblanadi. Dars jarayonida individual, juftlik va guruhli faoliyat shakllarini navbatma-navbat qo'llash o'quvchilarning turli qobiliyatlarini namoyon etishiga imkon beradi.

O'qituvchi uchun metodik qo'llanmalar, namunaviy keyslar, loyiha topshiriqlari, raqamli resurslar va baholash mezonlarini ishlab chiqish ham amaliy samaradorlikni oshiradi. Baholash jarayoni o'quvchining faqat yakuniy javobini emas, balki uning fikrlash jarayoni, faol ishtiroki va amaliy kompetensiyalarini ham aks ettirishi lozim. Formativ baholashdan foydalanish o'quvchining rivojlanish dinamikasini muntazam kuzatishga yordam beradi.

Ota-ona, maktab va jamoatchilik hamkorligini kuchaytirish orqali "Tarbiya" fanidagi mavzularni maktabdan tashqari faoliyat bilan ham bog'lash mumkin. Ayniqsa, ijtimoiy loyihalar, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar va amaliy tashabbuslar darsda olingan bilimlarning hayotiy mazmunini kuchaytiradi. Metodik yondashuvning samaradorligi o'quvchilarning bilim, munosabat va xulq-atvoridagi ijobiy o'zgarishlar orqali baholanishi maqsadga muvofiq. Shunday qilib, "Tarbiya" fanini innovatsion yondashuvlar asosida takomillashtirish o'qitishning shaklini yangilash bilangina cheklanmay, butun pedagogik jarayonning maqsadi, mazmuni, metodikasi va natijalarini kompleks ravishda qayta ko'rib chiqishni talab etadi.

Tadqiqotning namunaviy bosqichida umumiy o'rta ta'lim maktablarining 60 nafar o'quvchisi ishtirok etdi va ular 30 nafardan iborat nazorat hamda tajriba guruhlariga ajratildi. Nazorat guruhida "Tarbiya" mashg'ulotlari asosan an'anaviy tushuntirish, savol-javob va mustaqil topshiriqlar asosida olib borildi, tajriba guruhida esa interfaol metodlar, muammoli vaziyatlar, loyiha topshiriqlari, keys-stadi, guruhli ish va raqamli ta'lim vositalaridan foydalanildi. Dastlabki baholash natijalarida ikki guruh o'rtasida o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, muloqot faolligi, jamoada ishlash va muammoli vaziyatlarni hal etish ko'rsatkichlarida katta farq kuzatilmadi.

Tajriba mashg'ulotlari yakunida esa innovatsion yondashuv qo'llanilgan guruhda ijobiy dinamika qayd etildi. Mustaqil fikrlash ko'rsatkichi 53% dan 80% gacha, muloqot va fikrni asoslash qobiliyati 57% dan 83% gacha, guruhda ishlash ko'nikmasi 60% dan 87% gacha, muammoli vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish ko'rsatkichi esa 47% dan 77%

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

gacha oshdi. Nazorat guruhida ushbu ko‘rsatkichlar mos ravishda 55% dan 63% gacha, 58% dan 66% gacha, 61% dan 69% gacha va 49% dan 59% gacha o‘sdi. Olingan natijalar innovatsion metodlardan tizimli foydalanish o‘quvchilarning darsdagi faolligini oshirish bilan birga, “Tarbiya” fanining amaliy-tarbiyaviy mazmunini chuqurroq o‘zlashtirishga yordam berishini ko‘rsatdi.

1-jadval. O‘quvchilarning asosiy kompetensiyalari dinamikasi.

Ko‘rsatkich	Nazorat guruhi, boshlang‘ich	Nazorat guruhi, yakuniy	Tajriba guruhi, boshlang‘ich	Tajriba guruhi, yakuniy
Mustaqil fikrlash	55%	63%	53%	80%
Muloqot va fikrni asoslash	58%	66%	57%	83%
Jamoada ishlash	61%	69%	60%	87%
Muammoli vaziyatni hal qilish	49%	59%	47%	77%

Tajriba guruhida dars jarayonining tashkiliy jihatlari ham o‘rganildi. O‘quvchilarning 26 nafari (87%) interfaol metodlar asosida o‘tkazilgan mashg‘ulotlarni an’anaviy darslarga nisbatan qiziqarliroq deb baholadi. 24 nafar (80%) o‘quvchi guruhli topshiriqlar orqali o‘z fikrini erkinroq ifodalash imkoniyatiga ega bo‘lganini bildirgan bo‘lsa, 23 nafar (77%) o‘quvchi real hayotiy vaziyatlarga asoslangan topshiriqlar mavzuni yaxshiroq tushunishga yordam berganini qayd etdi. Raqamli resurslardan foydalanish natijasida 25 nafar (83%) o‘quvchida darsga qiziqish oshgani kuzatildi. Shu bilan birga, loyiha va keys-stadi topshiriqlarini bajargan o‘quvchilarda muammoni tahlil qilish va asoslangan xulosa chiqarish ko‘nikmalari faolroq namoyon bo‘ldi.

2-jadval. Tajriba guruhida innovatsion metodlarning o‘quvchilar tomonidan baholanishi.

Ko‘rsatkich	O‘quvchilar soni	%
Darsni qiziqarli deb baholagan	26	87
Guruhli ishni samarali deb hisoblagan	24	80
Hayotiy vaziyatli topshiriqlarni foydali deb topgan	23	77
Raqamli vositalar darsga qiziqishni oshirgan	25	83
Munozara va debatlarda faol qatnashgan	22	73
Loyiha topshiriqlarini ijobiy baholagan	24	80

O‘qituvchilarning namunaviy so‘rov natijalari ham innovatsion yondashuvlarning metodik ahamiyatini ko‘rsatdi. So‘rovda qatnashgan 10 nafar o‘qituvchining 8 nafari (80%) interfaol metodlar o‘quvchilarning darsdagi faolligini oshirishini, 7 nafari (70%) loyiha va keys-stadi usullarini tarbiyaviy mavzularni amaliy vaziyatlar bilan bog‘lashda samarali ekanini, 8 nafari (80%) raqamli resurslardan foydalanish o‘quvchilarning motivatsiyasiga ijobiy ta’sir qilishini

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

qayd etdi. 9 nafar (90%) o‘qituvchi esa innovatsion metodlarning samaradorligi ularni dars maqsadiga mos va tizimli qo‘llashga bog‘liq ekanini ta’kidladi.

3-jadval. O‘qituvchilarning innovatsion yondashuvlar bo‘yicha fikrlari

Fikr yoki ko‘rsatkich	O‘qituvchilar soni	%
Interfaol metodlar faollikni oshiradi	8	80
Loyiha va keys-stadi amaliy samaradorlik beradi	7	70
Raqamli vositalar motivatsiyani oshiradi	8	80
Innovatsion metodlarni tizimli qo‘llash zarur	9	90

Umumiy natijalar shuni ko‘rsatdiki, innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etilgan “Tarbiya” darslarida o‘quvchilarning faolligi, mustaqil fikrlashi, muloqot ko‘nikmalari va ijtimoiy hamkorlik darajasi an’anaviy yondashuvga nisbatan yuqoriroq bo‘lgan. Ayniqsa, muammoli vaziyatlar, guruhli topshiriqlar va loyiha faoliyati o‘quvchilarning tarbiyaviy mazmunni faqat nazariy jihatdan emas, balki amaliy faoliyat orqali o‘zlashtirishiga yordam bergan.

Tadqiqot natijalari umumiy o‘rta ta’lim maktablarida “Tarbiya” fanini innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etish o‘quvchilarning darsdagi faolligi va tarbiyaviy kompetensiyalarini rivojlantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi mumkinligini ko‘rsatdi. Tajriba guruhida mustaqil fikrlash, muloqot, jamoada ishlash va muammoli vaziyatlarni hal etish ko‘rsatkichlarining sezilarli darajada oshishi dars jarayonida o‘quvchini faol subyekt sifatida shakllantirishning metodik ahamiyatini namoyon etdi. Ayniqsa, loyiha metodi, keys-stadi, munozara va guruhli topshiriqlardan foydalanish o‘quvchilarning mavzuga bo‘lgan qiziqishini kuchaytirib, nazariy bilimlarni real hayotiy vaziyatlar bilan bog‘lash imkonini berdi. Raqamli ta’lim vositalaridan foydalanish ham darsning interaktivligini oshirib, o‘quvchilarning mustaqil izlanishi va axborot bilan ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam berdi. Shu bilan birga, innovatsion metodlarning samaradorligi ularni darsning maqsadi va mazmuniga mos tanlash, o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olish hamda o‘qituvchining metodik tayyorgarligiga bog‘liq ekanligi kuzatildi.

O‘qituvchilar so‘rovining natijalari ham interfaol metodlardan foydalanish o‘quvchilarning faolligini oshirishini ko‘rsatdi, biroq ayrim metodlarni samarali qo‘llash uchun o‘qituvchidan qo‘shimcha tayyorgarlik va darsni puxta rejalashtirish talab etiladi. Tadqiqotning muhim jihati shundan iboratki, innovatsion yondashuv “Tarbiya” fanini faqat axloqiy tushunchalarni o‘rgatish vositasi sifatida emas, balki o‘quvchilarning ijtimoiy, kommunikativ va shaxsiy kompetensiyalarini shakllantiruvchi amaliy pedagogik muhit sifatida tashkil etish imkonini beradi. Shu sababli ta’lim jarayonida innovatsion metodlarni tizimli ravishda qo‘llash, zamonaviy raqamli vositalardan maqsadli foydalanish va kompetensiyaga yo‘naltirilgan topshiriqlarni kengaytirish “Tarbiya” fanini o‘qitish metodikasini yanada takomillashtirish uchun muhim yo‘nalish hisoblanadi.

Tadqiqot natijalari umumiy o‘rta ta’lim maktablarida “Tarbiya” fanini innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etish uning pedagogik samaradorligini oshirish uchun muhim

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

imkoniyatlar yaratishini ko‘rsatdi. Interfaol metodlar, loyiha asosida o‘qitish, muammoli vaziyatlar, keys-stadi, munozara va guruhli faoliyatdan foydalanish o‘quvchilarning darsdagi faolligi, mustaqil fikrlashi, muloqot qilishi va jamoada ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Raqamli ta’lim vositalaridan maqsadli foydalanish esa o‘quv materiallarini yanada tushunarli va qiziqarli shaklda taqdim etish, mustaqil izlanish imkoniyatlarini kengaytirish hamda o‘quvchilarning ta’lim motivatsiyasini oshirishga yordam beradi. Tadqiqot asosida “Tarbiya” fanini o‘qitishda innovatsion metodlarni tanlashda dars maqsadi, mavzu mazmuni, o‘quvchilarning yosh va individual xususiyatlari hamda kutilayotgan natijalarni hisobga olish zarurligi aniqlandi. Shuningdek, innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish o‘qituvchining metodik kompetensiyasi, darsni puxta rejalashtirishi va zamonaviy pedagogik vositalardan maqsadli foydalanishiga bevosita bog‘liq.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Sadiyev D., Aslonov N., Asadullayev B., Baratov H. Innovative Technologies in Teaching the “Education” Subject and Their Content and Essence // Journal of Effective Education and Sustainable Innovations. – 2025. – Vol. 3, No. 1. – P. 559–565.
2. Sulaymanova M. Methods of Using Innovative Approaches in Teaching the “Education” Subject in Primary Grades // Eurasian Journal of Academic Research. – 2023. – Vol. 3, No. 4. – P. 158–161.
3. Karimova M.A. Methods of Using Innovative Technologies in Teaching the “Education” Subject in Primary Grades // Modern Science and Research. – 2025. – Vol. 2, No. 1. – P. 565–568.
4. Abduvohidov D.N. The Relevance of Using Innovative Technologies in Teaching the “Education” Subject // Advances in Science and Education. – 2025. – Vol. 1, No. 11. – P. 36–40.
5. Itolmasova Sh.I., Qurbonazarova O.M. Scientific and Methodological Foundations of Teaching the “Education” Subject in Primary Grades // The Role of Digital Economy and Modern Education in the Development of Science. – 2025. – No. 2. – P. 95–100.
6. Muratkhodjayeva Z., Norqulova S., Shoniyozova I., Shodiyeva Ch. Innovative Approach to Teaching the “Education” Subject // Science and Technology in the Modern World. – 2026. – Vol. 5, No. 13. – P. 41–44.
7. Polvanov A.R. Organization of “Education” Lessons in Grades 6–9 Based on Innovative Pedagogical Technologies // ORIENS. – 2026. – January 28. – P. 184–189.

© intereduglobalstudy.com

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

MAKTABGACHA TA'LIM MUTAXASSISLARINI TAYYORLASHDA DUAL TA'LIMNI TASHKIL ETISH MEXANIZMLARI.

Samiyeva Zulayho Uktamovna, maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti mustaqil izlanuvchisi.

Annotatsiya

KIRISH: maqolada maktabgacha ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarni dual ta'lim asosida kasbiy faoliyatga tayyorlashning nazariy va tashkiliy-pedagogik asoslari yoritilgan. Oliy ta'lim tashkiloti bilan maktabgacha ta'lim tashkiloti o'rtasidagi hamkorlikni maqsadli, mazmuniy, jarayonli, mentorlik, baholash-monitoring va natijaviy-refleksiv bloklar birligi sifatida tashkil etish zarurati asoslangan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 28-apreldagi PF-73-son Farmoni, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining 2025-yil 20-avgustdagi 301-son buyrug'i hamda 60110200 - Maktabgacha ta'lim bakalavriat yo'nalishining o'quv hujjatlaridan kelib chiqib, "4+2" tartibidagi pedagogik amaliyotni maktabgacha ta'lim sohasi xususiyatlariga mos tashkil etish mexanizmi taklif etilgan. Mexanizm talabaning nazariy bilimlarini real pedagogik vaziyatlarda qo'llashi, tajribali tarbiyachi-mentor bilan hamkorlikda kasbiy harakatlarni egallashi, refleksiv tahlil olib borishi va kasbiy kompetensiyalarining dinamikasini qo'shma mezonlar asosida baholashga yo'naltirilgan.

MAQSAD: maktabgacha ta'lim mutaxassislarini tayyorlashda nazariy ta'lim va pedagogik amaliyot integratsiyasini ta'minlaydigan OTM-MTT hamkorlik mexanizmini ilmiy jihatdan asoslash, uning tarkibiy bloklari, amalga oshirish bosqichlari hamda amaliyotga tatbiq etish shartlarini aniqlashtirishdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda me'yoriy-huquqiy hujjatlar (jumladan, PF-73-son Farmon va 301-son buyruq) hamda o'quv-metodik manbalar kontent-tahlil qilindi; ilmiy adabiyotlarni qiyosiy o'rganish, pedagogik modellashtirish hamda tizimli, kompetensiyaviy, faoliyatli va refleksiv yondashuvlardan foydalanildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: OTM va MTT o'rtasidagi hamkorlikni maqsadli-tashkiliy, mazmuniy-jarayonli, mentorlik, baholash-monitoring va natijaviy-refleksiv bloklardan iborat yaxlit mexanizm sifatida tashkil etish asoslandi. "4+2" tartibidagi pedagogik amaliyot va "bir ustozga bir talaba" tamoyili haftalik mikrotsikllar (fan mavzusi – amaliy vazifa – mentor teskari aloqasi – refleksiya – korreksiya) orqali yoritildi. Shuningdek, talabalarning kasbiy dinamikasini raqamli portfel va qo'shma mezonlar asosida baholash tizimi taklif etildi.

XULOSA: maktabgacha ta'limda dual tayyorgarlikning samaradorligi amaliyot kunlarining shunchaki ko'payishi bilan emas, balki nazariya va amaliyot mazmunining чуқур integratsiyalashuvi, OTM va MTTning teng mas'uliyati, mentorlik faoliyatining sifati hamda baholashning kompetensiyaviy-refleksiv xarakteri bilan belgilanadi.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

Kalit co'zlar: dual ta'lim, maktabgacha ta'lim, oliy ta'lim tashkiloti, maktabgacha ta'lim tashkiloti, "4+2" tartibi, pedagogik amaliyot, mentorlik, amaliyotlar integratsiyasi, kasbiy kompetensiya, refleksiv baholash.

МЕХАНИЗМЫ ОРГАНИЗАЦИИ ДУАЛЬНОГО ОБУЧЕНИЯ В ПОДГОТОВКЕ СПЕЦИАЛИСТОВ ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ.

Самиева Зулайхо Уктамовна, самостоятельный соискатель Института переподготовки и повышения квалификации директоров и специалистов дошкольных образовательных организаций.

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: maqolada maktabgacha ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarni dual ta'lim asosida kasbiy faoliyatga tayyorlashning nazariy va tashkiliy-pedagogik asoslari yoritilgan. Oliy ta'lim tashkiloti bilan maktabgacha ta'lim tashkiloti o'rtasidagi hamkorlikni maqsadli, mazmuniy, jarayonli, mentorlik, baholash-monitoring va natijaviy-refleksiv bloklar birligi sifatida tashkil etish zarurati asoslangan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 28-apreldagi PF-73-son Farmoni, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining 2025-yil 20-avgustdagi 301-son buyrug'i hamda 60110200 – Maktabgacha ta'lim bakalavriat yo'nalishining o'quv hujjatlaridan kelib chiqib, "4+2" tartibidagi pedagogik amaliyotni maktabgacha ta'lim sohasi xususiyatlariga mos tashkil etish mexanizmi taklif etilgan. Mexanizm talabaning nazariy bilimlarini real pedagogik vaziyatlarda qo'llashi, tajribali tarbiyachi-mentor bilan hamkorlikda kasbiy harakatlarni egallashi, refleksiv tahlil olib borishi va kasbiy kompetensiyalarining dinamikasini qo'shma mezonlar asosida baholashga yo'naltirilgan.

ЦЕЛЬ: научное обоснование механизма сотрудничества между вузом и дошкольной образовательной организацией (ДОО), обеспечивающего интеграцию теоретического обучения и педагогической практики, а также определение его структурных блоков, этапов реализации и педагогических условий.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании применены контент-анализ нормативно-правовых актов (Указ № УП-73 и Приказ № 301) и учебно-методической документации, сравнительный анализ научной литературы, педагогическое моделирование, а также системный, компетентностный, деятельностный и рефлексивный подходы.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: обоснована необходимость организации взаимодействия вуза и ДОО как целостного механизма, включающего целевой, содержательно-процессуальный, менторский, оценочно-мониторинговый и результативно-рефлексивный блоки. Предложен подход к реализации педагогической практики в формате «4+2» и принципа «один наставник – один студент» через еженедельные микроциклы (тема дисциплины – практическая задача – обратная связь ментора – рефлексия – коррекция). Разработана система

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

совместной оценки профессиональной динамики студентов с использованием цифрового портфолио.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: эффективность дуальной подготовки в дошкольном образовании определяется не простым увеличением дней практики, а глубокой интеграцией теории и практики, взаимной ответственностью вуза и ДОО, качеством наставничества и компетентностно-рефлексивным характером оценивания.

Ключевые слова: dual ta'lim, maktabgacha ta'lim, oliy ta'lim tashkiloti, maktabgacha ta'lim tashkiloti, "4+2" tartibi, pedagogik amaliyot, mentorlik, amaliyotlar integratsiyasi, kasbiy kompetensiya, refleksiv baholash.

MECHANISMS FOR ORGANIZING DUAL EDUCATION IN TRAINING PRESCHOOL EDUCATION SPECIALISTS.

Samiyeva Zulayho O'ktamovna, Independent Researcher at the Institute for Retraining and Professional Development of Directors and Specialists of Preschool Educational Organizations.

Annotation

INTRODUCTION: the article highlights the theoretical, organizational, and pedagogical foundations of preparing students in the field of Preschool Education for professional activity based on dual education. It substantiates the necessity of organizing cooperation between higher education institutions and preschool educational organizations as a unified structure comprising target, content, process, mentoring, assessment-monitoring, and outcome-reflective blocks. Based on Decree No. UP-73 of the President of the Republic of Uzbekistan dated April 28, 2025, Order No. 301 of the Minister of Preschool and School Education dated August 20, 2025, and the curriculum documentation for the bachelor's degree program 60110200 – Preschool Education, a mechanism for organizing pedagogical internship in a "4+2" format tailored to the specific characteristics of the preschool education sector is proposed. This mechanism focuses on enabling students to apply theoretical knowledge in real pedagogical situations, master professional practices in collaboration with experienced educator-mentors, conduct reflective analysis, and evaluate the dynamics of professional competencies based on joint criteria.

AIM: to scientifically substantiate the mechanism of university-preschool partnership that integrates theoretical learning with pedagogical practice, and to clarify its structural components, implementation stages, and essential pedagogical conditions.

MATERIALS AND METHODS: the study employed content analysis of regulatory documents (Decree No. UP-73 and Order No. 301) and curricula, comparative literature review, pedagogical modeling, as well as systemic, competency-based, activity-based, and reflective approaches.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

DISCUSSION AND RESULTS: the partnership between higher education institutions and preschool organizations is conceptualized as an integrated framework consisting of target-organizational, content-procedural, mentoring, assessment-monitoring, and outcome-reflective components. The implementation of the "4+2" practice format and the "one mentor – one student" principle is detailed through weekly microcycles (course topic – practical task – mentor feedback – reflection – adjustment). A joint evaluation model combining rubric-based criteria and digital portfolio tracking was developed.

CONCLUSION: the pedagogical efficiency of dual education in preschool teacher preparation depends not merely on increasing practical hours, but on deep content integration between theory and practice, shared institutional responsibility, quality mentoring, and competency-oriented reflective assessment.

Keywords: dual education, preschool education, higher education institution, preschool educational organization, "4+2" format, pedagogical practice, mentoring, integration of practice, professional competence, reflective assessment.

Pedagog kadrlarni tayyorlash sifatini oshirish zamonaviy ta’lim siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, bu jarayon nazariy tayyorgarlik bilan real kasbiy faoliyat o‘rtasidagi uzilishlarni kamaytirishni talab etadi. Ayniqsa, maktabgacha ta’lim sohasi uchun mutaxassis tayyorlashda talabaning bolalar bilan muloqot qilishi, rivojlantiruvchi muhitni tashkil etishi, mashg‘ulot va o‘yin faoliyatini loyihalashi, bolaning rivojlanish dinamikasini kuzatishi, ota-onalar bilan pedagogik hamkorlik o‘rnatishi kabi kompetensiyalarni faqat auditoriya mashg‘ulotlari doirasida to‘liq shakllantirib bo‘lmaydi. Mazkur kompetensiyalar muntazam, bosqichma-bosqich va metodik jihatdan boshqariladigan amaliy faoliyat jarayonida rivojlanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 28-apreldagi PF-73-son Farmonida pedagog kadrlar tayyorlash tizimini yagona yondashuv asosida yangi sifat bosqichiga olib chiqish, oliy ta’lim dasturlarini xalqaro tajriba asosida transformatsiya qilish, ta’limdagi uzviylik va uzluksizlikni hamda ilm-fan va amaliyot uyg‘unligini ta’minlash vazifalari belgilangan [2]. Farmon talablarining amaliy ijrosi sifatida Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining 2025-yil 20-avgustdagi 301-son buyrug‘i bilan pedagogika oliy ta’lim tashkilotlarining kunduzgi ta’lim shaklida tahsil olayotgan 3-4-bosqich talabalari uchun “4+2” tartibidagi malakaviy pedagogik amaliyot, “bir ustozga bir talaba” tamoyili va amaliyot jarayonlarini raqamli boshqarish choralari belgilangan [3].

Dual ta’limning mazmuni nazariya va amaliyotni oddiy navbatlashtirish bilan cheklanmaydi. U ta’lim maqsadlari, o‘quv dasturi, amaliy topshiriqlar, ishtirokchilarning mas’uliyati, baholash mezonlari va yakuniy kasbiy natijalarni ikki tashkilotning kelishilgan hamkorligi asosida loyihalashni anglatadi. Shu bois maktabgacha ta’lim yo‘nalishida dual ta’limni joriy etish uchun OTM va MTT faoliyatini yagona maqsadga yo‘naltiradigan,

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

talabani amaliyot obyekti emas, balki bosqichma-bosqich kasbiy subyektga aylantiradigan yaxlit mexanizm zarur.

Tadqiqotning maqsadi - maktabgacha ta'lim mutaxassislarini tayyorlashda nazariy ta'lim va pedagogik amaliyot integratsiyasini ta'minlaydigan OTM-MTT hamkorlik mexanizmini ilmiy jihatdan asoslash hamda uning tarkibiy bloklari, amalga oshirish bosqichlari va kutiladigan natijalarini aniqlashtirishdan iborat.

Tadqiqotda tizimli, kompetensiyaviy, faoliyatli, integrativ va refleksiv yondashuvlar metodologik asos sifatida qabul qilindi. Tizimli yondashuv dual ta'limning me'yoriy, tashkiliy, mazmuniy, texnologik va baholash komponentlarini o‘zaro bog‘liq yaxlitlikda ko‘rish imkonini berdi. Kompetensiyaviy yondashuv ta'lim natijasini o‘zlashtirilgan ma'lumotlar hajmi bilan emas, balki talabaning real kasbiy vaziyatlarda samarali harakat qila olish qobiliyati bilan izohlashga xizmat qildi. Faoliyatli yondashuv talabani kuzatuvchidan pedagogik vazifalarni mustaqil bajaruvchi subyektga bosqichma-bosqich o‘tkazishni nazarda tutdi. Integrativ yondashuv mutaxassislik fanlari, mustaqil ta'lim, pedagogik amaliyot va MTTdagi kasbiy vazifalarning mazmuniy uyg‘unligini ta'minladi. Refleksiv yondashuv esa talabaning o‘z faoliyatini tahlil qilishi, xatolar sababini anglab yetishi va keyingi kasbiy harakatini korreksiya qilishi uchun asos bo‘ldi.

Maqolani tayyorlashda me'yoriy-huquqiy hujjatlar va o‘quv-me'yoriy manbalarni kontent-tahlil qilish, mahalliy va xorijiy ilmiy adabiyotlarni qiyosiy o‘rganish, pedagogik modellashtirish, funksional tahlil va ilmiy umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Tadqiqot nazariy-konseptual xarakterga ega bo‘lib, unda eksperimental samaradorlik ko‘rsatkichlari keltirilmagan. Taklif etilayotgan mexanizm keyingi tajriba-sinov ishlarida mezonlar va indikatorlar asosida tekshirilishi lozim.

Ilmiy adabiyotlarda dual ta'lim ta'lim muassasasidagi nazariy tayyorgarlik va kasbiy faoliyat amalga oshiriladigan tashkilotdagi amaliy tayyorgarlikning institutsional birligi sifatida talqin qilinadi. D. Euler dual tizimning samaradorligini ta'lim mazmuni va ish joyidagi vazifalar o‘rtasidagi muvofiqlik, hamkorlarning aniq mas'uliyati hamda umumiy sifat kafolatlari bilan bog‘laydi [10]. T. Deissinger dual kasbiy ta'limning kuchli tomoni o‘quv jarayonining mehnat faoliyati bilan uzviy bog‘lanishi va ish beruvchining mutaxassis tayyorlashdagi bevosita ishtirokida namoyon bo‘lishini ta'kidlaydi [11]. Mazkur xulosalar pedagogik yo‘nalishlarga moslashtirilganda, MTT ish beruvchi va amaliyot bazasi sifatida ta'lim mazmunini aniqlashtirish, pedagogik topshiriqlarni shakllantirish, mentorlik va baholash jarayonlarida faol ishtirok etishi zarurligini ko‘rsatadi.

M.N. Berulavaning umumiy va kasbiy ta'lim mazmunini integratsiyalashga doir qarashlarida integratsiya alohida fan yoki faoliyat turlarini mexanik birlashtirish emas, balki ularni umumiy maqsad, tamoyil va natijalar asosida qayta tuzish jarayoni sifatida yoritiladi [5]. V.A. Fedorov professional-pedagogik ta'limni pedagogik va kasbiy faoliyat komponentlari birlashgan tizim sifatida talqin qiladi [6]. V.A. Fedorov va S.V. Komleva esa o‘quv-kasbiy hamkorlikni tajribali mutaxassis bilan ta'lim oluvchi o‘rtasidagi subyekt-

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

subyekt munosabati, real vazifalarni hamkorlikda bajarish va tajribani refleksiv o‘zlashtirish jarayoni sifatida asoslaydi [7]. Bu yondashuvlar maktabgacha ta’lim mutaxassisini tayyorlashda OTM o‘qituvchisi, MTT mentori va talaba o‘rtasidagi uch tomonlama hamkorlikning nazariy asosini tashkil etadi.

A.N. Kirillovskiyning Germaniya professional ta’lim tizimiga bag‘ishlangan tadqiqoti ta’lim muassasasi bilan kasbiy muhit o‘rtasidagi barqaror aloqalar, ish beruvchi ehtiyojlarini inobatga olish va amaliy tayyorgarlikning tizimliligi dual modelning rivojlanishida muhim ekanini ko‘rsatadi [8]. V.T. Sopegina pedagogik hamda maxsus fanlar integratsiyasini bo‘lajak mutaxassisning nazariy bilimlarini kasbiy vazifalarni hal qilish vositasiga aylantiruvchi didaktik shart sifatida tavsiflaydi [9]. Shunday qilib, dual ta’limning metodologik mohiyati uchta birlikda namoyon bo‘ladi: ta’lim va kasbiy muhit birligi; nazariy bilim va amaliy harakat birligi; tashqi baholash va talabaning o‘z-o‘zini baholashi birligi.

Maktabgacha ta’limdagi dual tayyorgarlik boshqa kasbiy yo‘nalishlardan faoliyat obyekti va natijasining o‘ziga xosligi bilan farqlanadi. Talaba amaliyot davomida texnologik mahsulot emas, balki bolaning xavfsizligi, emotsional farovonligi, individual rivojlanishi va ijtimoiylashuviga bevosita ta’sir ko‘rsatadigan pedagogik jarayon bilan ishlaydi. Shu sababli talabaning mustaqillik darajasi bosqichma-bosqich oshirilishi, har bir amaliy harakat mentor nazorati va pedagogik-etik talablar asosida tashkil etilishi kerak. MTTda o‘tkaziladigan amaliyot kuzatishdan boshlanib, yordamchi ishtirok, hamkorlikda rejalashtirish, faoliyatni mustaqil tashkil etish va natijalarni refleksiv baholash bosqichlariga o‘tishi maqsadga muvofiq.

60110200 - Maktabgacha ta’lim bakalavriat yo‘nalishining o‘quv hujjatlari mutaxassislik fanlari, mustaqil ta’lim va pedagogik amaliyot o‘rtasidagi mazmuniy aloqani ta’minlash zaruratini ko‘rsatadi [4]. “4+2” tartibi bu aloqani haftalik ritmda barqarorlashtirish imkonini beradi: haftaning to‘rt kunida OTMda o‘zlashtirilgan nazariy va metodik bilimlar ikki kun davomida MTT sharoitida kuzatiladi, sinovdan o‘tkaziladi, tahlil qilinadi va yangi nazariy savollarga aylantiriladi. Bunda amaliyot nazariyaning yakuniy ilovasi emas, balki nazariy ta’lim mazmunini boyituvchi qayta aloqa manbai vazifasini bajaradi.

1-jadval. OTM va MTTning dual ta’limdagi funksional hamkorligi

Hamkorlik yo‘nalishi	OTM vazifasi	MTT vazifasi	Qo‘shma natija
Maqsad va natijalar	Kasbiy kompetensiyalar profilini, fan natijalari va amaliyot topshiriqlarini belgilaydi.	Real pedagogik ehtiyojlar, ish funksiyalari va kasbiy vaziyatlarni aniqlashtiradi.	Kelishilgan kompetensiya modeli
Mazmun	Nazariy va metodik modullarni amaliy vazifalar bilan uyg‘unlashtiradi.	MTT sharoitiga mos amaliy topshiriq va kuzatuv obyektlarini taqdim etadi.	Integratsiyalashgan amaliyot dasturi
Mentorlik	OTM metodisti faoliyatni ilmiy-metodik jihatdan yo‘naltiradi.	Tajribali tarbiyachi talabaga kundalik kasbiy yordam va namuna beradi.	Uch tomonlama pedagogik qo‘llab-quvvatlash

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

Baholash	Nazariy asoslanganlik, metodik to‘g‘rilik va refleksiyani baholaydi.	Amaliy harakat, muloqot, mas’uliyat va kasbiy moslashuvni baholaydi.	Qo‘shma kompetensiyaviy baho
Monitoring	Raqamli portfel, hisobot va rivojlanish dinamikasini yuritadi.	Davomat, topshiriq bajarilishi va amaliy natijalar bo‘yicha dalillarni tasdiqlaydi.	Dalillarga asoslangan korreksiya

Taklif etilayotgan mexanizm dual ta’limni alohida tadbirlar yig‘indisi sifatida emas, balki kirish omillari, o‘zaro bog‘langan pedagogik jarayonlar, nazorat va natijalar tizimi sifatida ifodalaydi. Mexanizmning ishlashi quyidagi mantiqiy ketma-ketlikka asoslanadi: me’yoriy va institutsional omillarni aniqlash; hamkorlik maqsadlarini kelishish; amaliyot mazmunini loyihalash; “4+2” tartibida faoliyatni amalga oshirish; mentorlik va metodik yordam ko‘rsatish; jarayon hamda natijalarni qo‘shma baholash; refleksiya va korreksiya orqali keyingi siklni takomillashtirish.

1-rasm. Maktabgacha ta’lim mutaxassislarini dual tayyorlash mexanizmi

KIRISH OMILLARI
PF-73 va 301-son buyruq talablari; 60110200 ta’lim dasturi; MTT ehtiyojlari; OTM resurslari; talabaning boshlang‘ich tayyorgarligi

↓

1. MAQSADLI-TASHKILIY BLOK
OTM-MTT hamkorlik shartnomasi; rollar va javobgarlik; amaliyot bazasi va mentorni tanlash; individual yo‘l xaritasi

↓

2. MAZMUNIY-JARAYONLI BLOK
Mutaxassislik fanlari + mustaqil ta’lim + MTTdagi real pedagogik vazifalar; “4+2” haftalik ritmi; bosqichma-bosqich mustaqillik

↓

3. MENTORLIK VA METODIK QO‘LLAB-QUVVATLASH
“Bir ustozga bir talaba”; kuzatish; namuna ko‘rsatish; birgalikda rejalashtirish; maslahat; muntazam teskari aloqa

↓

4. BAHOLASH-MONITORING BLOKI
Kuzatuv varaqasi; amaliy topshiriq; raqamli portfel; o‘z-o‘zini baholash; mentor va metodistning qo‘shma xulosasi

↓

CHIQISH NATIJASI VA QAYTA ALOQA
Kasbiy kompetent, refleksiv va hamkorlikka tayyor maktabgacha ta’lim mutaxassisi - tahlil - korreksiya - yangilangan amaliyot sikli

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

Mexanizmning maqsadli-tashkiliy bloki OTM va MTT hamkorligini hujjatlashtirish, amaliyot bazasini tanlash, talaba, mentor va OTM metodistining vazifalarini belgilashni qamrab oladi. Hamkorlik shartnomasida amaliyotning muddati va jadvali, talabaning pedagogik yuklamasi, bolalar xavfsizligi va maxfiyligi talablari, mentorlik vazifalari, baholash vositalari hamda nizoli vaziyatlarni hal etish tartibi aniq ko‘rsatilishi kerak. 301-son buyruqda amaliyot bazalarini OTMga hududiy yaqinlik va amaliyot o‘tash imkoniyatlarini hisobga olgan holda biriktirish, vakant o‘rin mavjud bo‘lgan hollarda talabaga 0,5 shtat birligidan oshmagan yuklama berish orqali amaliyotni individual dual shaklda tashkil etish imkoniyati belgilangan [3]. Bu norma talabaning real kasbiy mas’uliyatni his etishi uchun imkoniyat yaratadi, biroq pedagogik yuklama uning tayyorgarlik darajasi va mentor nazorati bilan muvofiqlashtirilishi lozim.

Mazmuniy-jarayonli blok OTMda o‘tiladigan fan mavzulari bilan MTTda bajariladigan vazifalarni vertikal va gorizontal muvofiqlashtirishga asoslanadi. Masalan, bolalar nutqini rivojlantirish metodikasi mavzusi o‘rganilganda talaba MTTda nutqiy muhitni kuzatishi, bolalarning yosh xususiyatlariga mos didaktik o‘yin loyihalashi, mentor bilan birgalikda uni o‘tkazishi va natijalarni tahlil qilishi zarur. Maktabgacha pedagogika doirasidagi nazariy bilimlar rivojlantiruvchi markazlarni tashkil etish, kun tartibi, bolalar faoliyatini kuzatish va individual yondashuv vazifalari bilan bog‘lanadi. Shu tariqa har bir nazariy modul amaliy vazifa, dalil va refleksiv mahsulot bilan yakunlanadi.

“4+2” tartibini samarali tashkil etish uchun to‘rt kunlik nazariy-amaliy tayyorgarlik va ikki kunlik MTT amaliyoti mazmunan bir haftalik mikrotsikl sifatida loyihalanishi lozim. Mikrotsiklning birinchi bosqichida OTM o‘qituvchisi muammo va nazariy asoslarni belgilaydi; ikkinchi bosqichida talaba MTTda vaziyatni kuzatadi va topshiriqni bajaradi; uchinchi bosqichida mentor tezkor teskari aloqa beradi; to‘rtinchi bosqichida talaba dalillarni portfelga joylashtirib, refleksiv tahlil qiladi; beshinchi bosqichida OTM mashg‘ulotida natijalar muhokama qilinib, keyingi faoliyat uchun korreksion vazifa belgilanadi. Mazkur tsikl nazariya va amaliyotning uzluksiz aylanishini ta’minlaydi.

“Bir ustozga bir talaba” tamoyili dual tayyorgarlikning markaziy tashkiliy sharti hisoblanadi. Mentor faqat talaba davomatini nazorat qiluvchi mas’ul shaxs emas, balki kasbiy faoliyat namunasini ko‘rsatuvchi, pedagogik qarorlarning sababini tushuntiruvchi, talabaning xavfsiz sharoitda mustaqil tajriba orttirishini ta’minlovchi va rivojlantiruvchi teskari aloqa beruvchi mutaxassisdir. Mentorlik faoliyati diagnostik, yo‘naltiruvchi, modellashtiruvchi, maslahat beruvchi, nazorat-baholash va refleksiv funksiyalarni bajaradi.

Mentorni tanlashda uning ish staji bilan cheklanib qolmasdan, kasbiy kompetentligi, innovatsion metodlardan foydalanishi, muloqot madaniyati, talabaga konstruktiv fikr bildirish qobiliyati va refleksiv faoliyatga tayyorligi hisobga olinishi zarur. Mentorlar uchun qisqa muddatli metodik seminar tashkil etilib, unda dual ta’lim maqsadlari, topshiriqlarni bosqichlashtirish, kuzatuv va baholash mezonlari, pedagogik etikaga rioya qilish, talabaning xatosini rivojlanish resursiga aylantirish usullari o‘rgatilishi maqsadga muvofiq.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

Dual ta’lim natijalarini faqat amaliyot kundaligi yoki yakuniy hisobot asosida baholash talabaning real kasbiy rivojlanishini to‘liq aks ettirmaydi. Shu sababli baholash diagnostik, formativ va yakuniy bosqichlardan iborat bo‘lishi kerak. Diagnostik baholash amaliyot boshlanishida talabaning metodik bilimlari, kommunikativ tayyorgarligi va mustaqil faoliyat darajasini aniqlaydi. Formativ baholash haftalik topshiriqlar, mentor kuzatuvi, mikrorefleksiya va portfel dalillariga asoslanadi. Yakuniy baholash esa talabaning kompleks pedagogik vazifani rejalashtirishi, amalga oshirishi, natijani tahlil qilishi va asoslangan korreksion qaror qabul qilishini aniqlaydi.

Baholash mezonlarini besh guruhga ajratish mumkin: nazariy-metodik asoslanganlik; pedagogik faoliyatni loyihalash va tashkil etish; bola bilan shaxsga yo‘naltirilgan muloqot; jamoa va ota-onalar bilan hamkorlik; refleksiya va kasbiy o‘zini rivojlantirish. Har bir mezon bo‘yicha kuzatiladigan indikatorlar belgilanishi, mentor va OTM metodisti bir xil baholash rubrikasidan foydalanishi kerak. Talabaning o‘z-o‘zini baholashi tashqi baholar bilan taqqoslanib, rivojlanish zonalari aniqlanadi. Natija faqat ball ko‘rinishida emas, balki kuchli tomonlar, rivojlantirilishi zarur kompetensiyalar va keyingi amaliy vazifalarni aks ettiruvchi tavsifiy xulosa bilan rasmiylashtiriladi.

Raqamli monitoring platformasi amaliyot jadvali, topshiriqlar, elektron kundalik, foto va video dalillar, mentor fikri, metodist xulosasi hamda talaba refleksiyasini yagona muhitda jamlash imkonini beradi. Biroq bolalarga oid ma’lumotlardan foydalanishda qonuniy vakil roziligi, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish va pedagogik etika talablariga qat’iy rioya etilishi lozim. Monitoringning maqsadi nazoratni kuchaytirish emas, balki talabaning kasbiy rivojlanish dinamikasini dalillar asosida ko‘rish va o‘z vaqtida metodik yordam ko‘rsatishdan iborat.

Taklif etilgan mexanizmning samarali ishlashi quyidagi pedagogik shartlarning ta’minlanishiga bog‘liq:

OTM va MTT maqsadlari, vazifalari hamda kutiladigan natijalarining normativ va tashkiliy jihatdan kelishilganligi;

mutaxassislik fanlari mazmuni bilan MTTdagi real pedagogik vazifalarning haftalik mikrotsikllar asosida integratsiyalashgani;

talabaning amaliy mustaqilligi kuzatishdan boshlab murakkab pedagogik vazifalarni bajarishgacha izchil oshirib borilishi;

mentor va OTM metodistining yagona topshiriq, kuzatuv va baholash mezonlaridan foydalanishi;

talabaga muntazam, aniq va rivojlantiruvchi teskari aloqa berilishi;

raqamli portfel va refleksiv kundalik orqali kasbiy rivojlanish dinamikasining qayd etilishi;

bolaning manfaatlari, xavfsizligi, maxfiyligi va pedagogik etika talablarining barcha jarayonlarda ustuvorligi;

monitoring natijalari asosida o‘quv dasturi, amaliy topshiriqlar va mentorlik faoliyatiga korreksiya kiritilishi.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

Mazkur shartlar dual ta’limda tarkibiy tizimlarning paritetligi, o‘zaro hamkorlikdagi aloqadorlik, metodologik asoslarning birligi, didaktik shartlarning variativligi va shaxsiy-kasbiy natijalarning ustuvorligi tamoyillarini amalga oshirishga xizmat qiladi. Paritetlik OTM va MTTning bir-biriga bo‘ysunuvchi emas, umumiy natija uchun teng mas’ul hamkor bo‘lishini anglatadi. O‘zaro aloqadorlik har bir tashkilotning funksional mustaqilligini saqlagan holda ularning faoliyatini yagona kompetensiya modeliga yo‘naltiradi. Variativlik esa amaliyot topshiriqlarini MTT turi, guruh yoshi, pedagogik vaziyat va talabaning tayyorgarlik darajasiga moslashtirish imkonini beradi.

Taklif etilayotgan mexanizm an’anaviy pedagogik amaliyotdan bir necha jihati bilan farq qiladi. Birinchidan, amaliyot o‘quv yilining alohida yakuniy davriga jamlanmaydi, balki nazariy ta’lim bilan haftalik ritmda bog‘lanadi. Ikkinchidan, MTT tayyor amaliyot bazasi sifatida emas, ta’lim mazmunini loyihalash, mentorlik va baholashda ishtirok etuvchi institutsional hamkor sifatida qaraladi. Uchinchidan, talaba topshiriq ijrochisidan o‘z faoliyatini rejalashtiruvchi, natijani dalillar asosida tahlil qiluvchi va pedagogik qarorlarini asoslaydigan subyektga aylanadi. To‘rtinchidan, baholash bir martalik yakuniy nazorat emas, rivojlanish dinamikasini ko‘rsatuvchi uzluksiz jarayon sifatida tashkil etiladi.

Shu bilan birga, mexanizmni joriy etishda ayrim xavflar mavjud: MTT va OTM jadvalining nomuvofiqligi; mentorlarning ortiqcha yuklanishi; talabalar soniga mos tajribali mentorlar yetishmasligi; nazariy fan topshiriqlari bilan amaliyot vazifalarining takrorlanishi; baholashdagi subyektivlik; raqamli hisobotlarning mazmuniy faoliyatdan ustun kelishi. Ushbu xavflarni kamaytirish uchun amaliyot koordinatori lavozimi yoki funksiyasini belgilash, mentorlarni metodik va rag‘batlantiruvchi qo‘llab-quvvatlash, yagona topshiriqlar bankini yaratish, aniq rubrikalar ishlab chiqish hamda raqamli platformada faqat kasbiy rivojlanishni isbotlovchi zarur dalillarni talab qilish maqsadga muvofiq.

Mexanizmning ilmiy yangiligi maktabgacha ta’lim mutaxassisini tayyorlashda dual ta’limning normativ, institutsional, didaktik, mentorlik va baholash jarayonlarini yagona siklga birlashtirish; “4+2” tartibini fan mavzusi - amaliy vazifa - mentor teskari aloqasi - refleksiya - korreksiya mikrotsikli orqali izohlash; yakuniy natijani kasbiy kompetensiyalar bilan bir qatorda talabaning refleksivligi, hamkorlik madaniyati va pedagogik mas’uliyati orqali belgilashda namoyon bo‘ladi.

Maktabgacha ta’lim mutaxassislarini dual ta’lim asosida tayyorlash nazariy bilimlarni MTTdagi amaliy faoliyat bilan shunchaki navbatlashtirish emas, balki OTM va MTTning umumiy maqsad, mazmun, mentorlik, baholash va natijalar bo‘yicha kelishilgan hamkorligini tashkil etishdir. PF-73-son Farmon va 301-son buyruq bilan belgilangan “4+2” tartibi, “bir ustozga bir talaba” tamoyili, amaliyot bazalarini biriktirish hamda raqamli monitoring mexanizmlari maktabgacha ta’lim yo‘nalishida amaliyotlar integratsiyasini yangi sifat bosqichiga olib chiqish uchun normativ asos yaratadi.

Taklif etilgan mexanizm kirish omillari, maqsadli-tashkiliy, mazmuniy-jarayonli, mentorlik, baholash-monitoring va natijaviy-refleksiv bloklarning uzviy bog‘lanishiga asoslanadi. Uning markazida talabaning real pedagogik vazifalarni tajribali mentor bilan

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

hamkorlikda bajarishi, o‘z faoliyatini dalillar asosida tahlil qilishi va bosqichma-bosqich mustaqil kasbiy faoliyatga o‘tishi turadi. Jarayon yakunida shakllangan natijalar OTM va MTT tomonidan qo‘shma baholanadi, aniqlangan ehtiyojlar esa o‘quv dasturi, amaliyot mazmuni va mentorlik faoliyatiga qayta aloqa sifatida kiritiladi.

Demak, dual ta’limning pedagogik samarasi amaliyot kunlari sonining ko‘payishi bilan emas, balki nazariya va amaliyot mazmunining integratsiyasi, hamkorlarning real mas’uliyati, mentorlik sifatining ta’minlanishi va baholashning kompetensiyaviy-refleksiv xarakteri bilan belgilanadi. Ushbu mexanizmni tajriba-sinovdan o‘tkazishda kasbiy kompetensiyalar dinamikasi, mentorlik sifati, OTM-MTT hamkorlik barqarorligi va bitiruvchining kasbiy faoliyatga tayyorligi bo‘yicha aniq mezon hamda indikatorlarni ishlab chiqish keyingi tadqiqotlarning muhim yo‘nalishi hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi O‘RQ-637-son “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. URL: https://lex.uz/docs/5013007
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 28-apreldagi PF-73-son “Pedagog kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni. URL: https://lex.uz/docs/7499721
3. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining 2025-yil 20-avgustdagi 301-son “Pedagog kadrlar tayyorlashda ta’lim jarayonlarini dual ta’lim shaklida tashkil qilish mexanizmlarini hamda talabalar bilimini baholash tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi buyrug‘i.
4. 60110200 - Maktabgacha ta’lim bakalavriat ta’lim yo‘nalishining o‘quv rejasi va amaliyotga oid o‘quv-me’yoriy hujjatlari.
5. Berulava M.N. Integratsiya soderjaniya obщego i professionalnogo obrazovaniya v proftexuchiliщax: teoretiko-metodologicheskiy aspekt. - Tomsk: Izd-vo Tomskogo universiteta, 1998. - 222 s.
6. Fedorov V.A. Professionalno-pedagogicheskoye obrazovaniye: teoriya, empirika, praktika: monografiya. - Yekaterinburg: Izd-vo Ural. gos. prof.-ped. un-ta, 2001. - 330 s.
7. Fedorov V.A., Komleva S.V. Professionalnoye obucheniye v usloviyax mikropredpriyatiya: modelirovaniye protsessa uchebno-professionalnogo vzaimodeystviya // Obrazovaniye i nauka. - 2017. - T. 19. - № 2. - S. 124-144. DOI: 10.17853/1994-5639-2017-2-124-144.
8. Kirillovskiy A.N. Razvitiye sistemы srednego professionalnogo obrazovaniya obyedinyonnoy Germanii: 90-ye godы XX - nachalo XXI vv.: avtoref. dis. ... kand. ped. nauk: 13.00.08. - Yoshkar-Ola, 2007. - 21 s.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 9

9. Sopegina V.T. Integratsiya pedagogicheskix i spetsialnыx dissiplin pri podgotovke masterov proizvodstvennogo obucheniya: avtoref. dis. ... kand. ped. nauk. - Yekaterinburg, 2012. - 26 s.
10. Euler D. Germany's Dual Vocational Training System: a Model for Other Countries? - Gütersloh: Bertelsmann Stiftung, 2013. - 78 p.
11. Deissinger T. The German dual vocational education and training system as "good practice"? // Local Economy. - 2015. - Vol. 30. - No. 5. - P. 557-567. DOI: 10.1177/0269094215589311.
12. OECD. Learning for Jobs. OECD Reviews of Vocational Education and Training. - Paris: OECD Publishing, 2010. DOI: 10.1787/9789264087460-en.

© intereduglobalstudy.com

Muassis: Buxoro davlat pedagogika instituti
Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2023-yil 08 avgust №-111889-sonli guvohnoma bilan ro‘yxatga olingan.

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi OAK Rayosatining 2024 yil 31 yanvardagi 350-son qaroriga asosan pedagogika, san’atshunoslik, psixologiya, fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan “Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxati” ga kiritilgan https://oak.uz/pages/4802

Jurnal 2023 yilda tashkil etilgan bo‘lib bir yilda 8 marta o‘zbek, rus va ingliz tillarida nashr etiladi. Pedagogika, psixolgiya, san’atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan ilmiy jamoatchilikni ilm-fan natijalari bilan tanishtirish; ilm-fan rivojlantirishning dolzarb masalalariga tadqiqotlarining ustuvor yo‘nalishlari doirasida olib borilgan ilmiy ishlarning asosiy natijalari to‘g‘risida ma’lumot berish; yangi istiqbolli loyihalar va texnologiyalarni joriy etish; ta’lim va tarbiya bilan bog‘liq nazariy va amaliy ishlar; fan va ta’limning innovatsion rivojlanishi; fundamental va amaliy tadqiqotlarni qo‘llab-quvvatlash uchun qulay axborot muhitini yaratishning asosiy ilmiy natijalarini o‘z ichiga oladi. Shuningdek, zamonaviy ta’limning muammo va paradigmalarini o‘rganish, rivojlantirish va amaliyotga tadbiq etish bo‘yicha nazariy tavsiyalar berishdan iborat. Nashr qilingan materiallardan O‘zbekiston Respublikasi hamda xorijning yetakchi olimlari, tadqiqotchi izlanuvchilar foydalanishi ko‘zda tutilgan.

Jurnalning kalit so‘zlari:
Oliy pedagogik ta’lim nazariyasi va amaliyoti; umumiy va maxsus pedagogika, psixologiya va san’atshunoslik; pedagogika va innovatsiya, integratsiya; O‘zbekiston va xorijiy mamlakatlarning ta’lim tizimi; ta’lim jarayoni; ko‘p madaniyatli va mintaqaviy ta’lim; III Renessans, XXI asrdagi ta’lim; ta’lim va tarbiya sohasidagi milliy hamda umuminsoniy qadriyatlar; ta’lim sifatini monitoring qilish; ta’lim dasturlari; oliy, umumiy o‘rta va professional ta’limining davlat ta’lim standartlari; o‘qituvchilarni tayyorlash tizimidagi ta’lim texnologiyalari.

Guvohnoma raqami №-111889
30.09.2026

Учредитель: Бухарский государственный педагогический институт
Журнал зарегистрирован Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан свидетельством №111889 от 08 августа 2023 года.

Журнал включен в список национальных изданий, рекомендованных для публикации основных научных результатов диссертаций кандидатов на соискание ученой степени доктора философии (PhD), доктора наук (DSc). Согласно решению Президиума ВАК РУз от 31 января 2024 г. №350. По направлении педагогики, искусствоведение и психологии https://oak.uz/pages/4802

Журнал был основан в 2023 году и выпускается в год 8 раз на узбекском, русском и английском языках. Он предназначен для ознакомления научного сообщества с результатами научных исследований соискателей ученых степеней доктора философии (PhD) и доктора наук (DSc) в областях педагогики, психологии и искусствоведения. Журнал информирует о ключевых научных достижениях, проводимых в рамках приоритетных направлений исследований, касающихся актуальных вопросов развития науки. Также в нем рассматриваются новые перспективные проекты, технологии и идеи, связанные с образованием, воспитанием, инновациями, а также созданием благоприятной информационной среды для поддержки фундаментальных и прикладных исследований. Журнал также предлагает теоретические рекомендации по изучению, разработке и внедрению современных подходов к образованию. Материалы, опубликованные в журнале, предназначены для ведущих ученых и исследователей из Республики Узбекистан и других стран, и направлены на стимулирование дальнейших исследований, развитие науки и образования.

Ключевые слова журнала:
Теория и практика высшего педагогического образования; общая и специальная педагогика, психология и искусствоведение; педагогика и инновации, интеграция; система образования Узбекистана и зарубежных стран; образовательный процесс; мультикультурное и региональное образование; образование эпохи Возрождения, XXI веке; национальные и общечеловеческие ценности и ценности в сфере образования и воспитания; мониторинг качества образования; образовательные программы; государственные образовательные стандарты высшего, среднего и профессионального образования; образовательные технологии в системе подготовки педагогических кадров.

Идентификационный номер №-111889
30.09.2026

Founder: Bukhara State Pedagogical Institute
The journal is registered by the Agency of Information and Mass Communications under the Administration of the President of the Republic of Uzbekistan with certificate No. 111889 dated August 8, 2023.

The journal is included in the list of national publications recommended for publishing the main scientific results of dissertations of candidates for the degree of Doctor of Philosophy (PhD), Doctor of Science (DSc). According to the decision of the Presidium of the Supreme (Higher) Attestation Commission of the Republic of Uzbekistan dated January 31, 2024 No. 350. In the direction of pedagogy, art science and psychology https://oak.uz/pages/4802

The journal was founded in 2023 and is published 8 times a yeain Uzbek, Russian and English. It is intended to familiarize the scientific community with the results of scientific research of applicants for the degrees of Doctor of Philosophy (PhD) and Doctor of Sciences (DSc) in the fields of pedagogy, psychology and art history. The journal informs about key scientific achievements carried out within the framework of priority research areas related to topical issues of science development. It also examines new promising projects, technologies and ideas related to education, upbringing, innovation, as well as the creation of a favorable information environment to support fundamental and applied research. The journal also offers theoretical recommendations on the study, development and implementation of modern approaches to education. The materials published in the journal are intended for leading scientists and researchers from the Republic of Uzbekistan and other countries, and are aimed at stimulating further research, the development of science and education.

Key words of the journal:

Theory and practice of higher pedagogical education; general and special pedagogy, psychology and art criticism; pedagogy and innovation, integration; education system of Uzbekistan and foreign countries; educational process; multicultural and regional education; Renaissance education, XXI century; national and universal values and values in the field of education and upbringing; monitoring the quality of education; educational programs; state educational standards of higher, secondary and vocational education; educational technologies in the system of teacher training.

Identification number№-111889
30.09.2026

2992-9024
ISSN

BY NC ND